



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2025/№ 7

**ТА'ЛИМ ВА
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 7/2025
IYUL

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

04.04.2025 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324 «FAN VA TA'LIM» nashriyatida chop etildi. Buxoro shahar <https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305

raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Rajabov Q.K. СССРда ижтимоий-сиёсий инқирознинг кучайиши: Ўзбекистон мустақилликка эришиш йўлида	8
Bayqabilov X. M. Poytaxtshunoslikda “shahar” tushunchasi: tarix, bugun va kelajak	11
Ravshanov Sh. P. Россия империясининг Туркистондаги таълим сиёсати	26
Rahmonova M. Янги Ўзбекистонда янгича ёндашувдаги қомусий Ўзбекистон тарихи	36
Ruziboyev F. Organization of the Turkistan district protection department and conflicts within it	41
Yakubova D. T. Surxondaryo viloyatida paxta yakkahokimligini o'rnatishda moddiy-texnik bazaning holati	46
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Abdukarimova N. Language and culture: intercultural communication and cultural realia	51
Isomiddinov E. Kazuo Ishiguroning “Never let me go” romanida narrativ identitet va gumanistik qarshilik masalalari	55
Jumayeva M. M. An introduction to the concept of "tolerance "	60
Mamatova F. M. Reflection of anthropophenomena in linguistic pictures of the world	65
Nuriddinova N. A. Ayrim ergonomik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari va qo'llanishi xususida	70
Qurbanbayeva N. I. Lingvokulturologiyada olamning lisoniy manzarasi tadqiqi	74
Ravshanova M. Z. Irim-sirim bilan bog'liq til birliklarining o'rganilishi	77
Yakubova G. Z. Rus tilshunosligida fitonimlarning tadqiqi	81
Салахидинова З. О. Выразительно-стилистические особенности фразеологических единиц в произведениях Д. Рубиной.	85
Mamatova D. Z. Do'ppining qismlari va do'ppido'zlikda ishlatiladigan mato nomlarining leksik-semantik tahlili	89
Dadabayeva Sh. Sh. O'zbek va ingliz tillarida aksiologik leksikaning semantik xususiyatlari	92
Rasulova I. Tarjimalar semantikasining milliy-o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi ikki tilli lug'atlarni takomillashtirish zarurati	96

Isakova Z. Z. Turli tizimli tillarda bahoning fonetik sath birliklari orqali aks etishi	101
Xolova M. A. O'zbek dialektal korpusida fe'ning kategorial shakllari	107
Абдуллаева Б. К. Тема семьи в пословицах и поговорках	114
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Abdukodirov Sh. T. Yuqumli kasalliklar fanida ACL (Activity-Competence-Learning) modeli asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari tahlili	117
Alimova F. A. Kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishda metakognitiv strategiyalarning o'rni	125
Atajonova A. J. Talabalarda mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish modeli	131
Arzimurodova E. B. Mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarda metaforik konseptlar: qiyosiy tahlil (ingliz va o'zbek tillari misolida)	135
Баходирова Г.К. Теоретические основы формирования и развития педагогических инноваций в системе высшего образования	144
Djurayeva S. N. Boshlang'ich ta'limda etnopedagogik yondashuv: madaniy o'zlikni saqlash va tarbiyalash	151
Kozimova S. O. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirishda kognitiv lingvistika yondashuvlari	156
Kadirov Sh. N. Stol tennisi mashg'ulotlarining jismoniy sifatlarni shakllantirishdagi o'rni	159
Madaminova M. E. Talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning texnologik asoslari va amaliy tizimi	165
Maxmudov Yu. B. Oila bilan hamkorlikda o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish metodlari	169
Nasirullaeva D. X. Elektron ta'lim dasturlarini loyihalash kontseptual metodologiyasi	173
Nabieva Sh. A. Using podcasts to Enhance Students' Language Skills in Teaching and Learning English	179
Qayumov A. M. Yuqumli kasalliklar ta'limida VAK modeli asosida talabalarning amaliy-klinik kompetentligini rivojlantirish: tajriba-sinov natijalari tahlili	185
Raupova M. H. Konvergent yondashuv – oliy biologik ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlashning zamonaviy paradigmasi sifatida (pisa natijalari tahlili asosida)	193
Ruziyeva D. M. Texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirishning nazariy-ilmiy tahlili	202
Ruzmetova S. T. Teaching english with platforms in distance learning: the Uzbekistan undergraduate context	207
To'xtaniyozova F. O. Didaktik o'yinlar orqali kimyo darslarida sport maktabi o'quvchilarida universal ta'lim harakatlarini shakllantirish	213
Турабоева З. М. Педагогика fanida mustaqil ijodiy faoliyat tushunchasi va mohiyatining nazariy tahlili haqida	217
Hamdamova M. T. Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	222

Jo'rayeva N. O. STEAM ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni	226
Valiyeva N. M. Tibbiy ta'lim talabalari diagnostik kompetentligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari tahlili	231
Xadiyeva G. D. "Axborot madaniyatini shakllantirish modeli" mazmuni va tuzilishi	240
Shukurova S. I. "Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning metodik muammolari	246
Raxmatova D. A. Maktabgacha ta'lim yoshdagi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik- psixologik xususiyatlari	255
Tangirbergenova M. K. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	259
Sayfullayeva B. O'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini tasviriy san'at vositasida rivojlantirish metodikasi	262
Raxmatova D. A. Maktabgacha ta'lim yoshdagi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik- psixologik xususiyatlari	267
Ражабов С.Б. Ўқувчилар хулқини моделлаштиришда симуляция технологиясидан фойдаланишнинг назарий масалалари	273
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Абдуллаев А.Ш. Анализ взаимосвязи психологической подготовки и копинг-стратегий у волейболистов	276
Polvanov R. B. Internet qaramligi va psixologik izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining yoshlar ongiga ta'siri	282
Toshpo'latov A. Sh. Oilaviy munosabatlarda bag'rikenglikning namoyon bo'lish shakllari	287
Ibragimova N. I. O'quvchilarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga psixologik tayyorlash metodikasi	293



TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori

Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti

Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor

Safarova Rohat G'aybulloyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

Artamonova Yekaterina Iosifovna, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti

Yemelyanova Irina Yevgeneyevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi

Kulishov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya

Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya

Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi

Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina

Hazretali Tursun, tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori

Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i

Timur Xo'jao'g'li, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)

Nurettin Hatunoglu Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)

Mullojjanov Sayfullo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti

Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

Azamat Ziyov, tarix fanlari doktori, akademik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori

Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi

FILOLOGIYA FANLARI

Madjidova Ra'no Urishevna, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Akramova Surayo Renatovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa do'ntori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov O'tkir Qarshiyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti

Dilova Nargiza Gaybullaevna, pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti

Tilavova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti

Umarov Baxshullo Jo'rayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Inoyatov Abdullo Shodiyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

Davronov Nurzod Ismoilovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov Baxriddin Mingbayevich, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti

Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

Mamanazarov Abdusakim Bozorovich, pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

Namozov Bobir Bahriyevich, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat pedagogika instituti

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

- Джурраев Рисбой Хайдарович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз
Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андиганского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук
Мажидов Ином Урушевич, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Олимов Кахрамон Танзилович, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена
Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор
Мусурмонова Ойнисо, доктор педагогических наук, профессор
Сафарова Рохат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, академик АНРУз

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

- Артамонова Екатерина Иосифовна*, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук
Емельянова Ирина Евгеньевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия
Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор, Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья
Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии
Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор, Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина
Тиларенко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор, Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия
Филиппова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет, Россия
Христо Кючуков, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социоллингвистики, Германия
Кумсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор, Академик Национальной академии педагогических наук Украины
Падалка Олег Семенович, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина
Хазретали Турсун, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави
Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана
Тимур Хужаугли, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)
Nurmettin Natipoğlu, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)
Муллоджанов Сайфулло Кучакович, доктор исторических наук, профессор, Национальный университет Таджикистана
Гушко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

История

- Азамат Зиё*, доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана
Раджабов Кахрамон Кенжаевич, доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана

Филология

- Маджидова Рано Уришевна*, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков
Шарилова Лайло Фрунзеевна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Нигматова Лолахан Хамидовна, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет
Юсупова Хилола Уктамовна, кандидат филологических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт
Акрамова Сураё Ренатовна, доктор философских наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт

Педагогика

- Толипов Уткир Каршиевич*, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный университет
Тилавова Матлаб Мухаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор, Бухарский государственный университет
Сохибов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент, Каршинский государственный университет
Умаров Бахтиулло Джурраевич, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт
Хасанова Гулноз Касимовна, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный педагогический институт
Иноятов Абдулло Шодиевич, доктор философских наук (PhD) по педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
Давронов Нурзод Исмоилович, PhD по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный педагогический институт

Психология

- Умаров Бахриддин Мингбаевич*, доктор психологических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет
Бафиев Мухиддин Мухаммадович, PhD по психологическим наукам, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Экономика

- Куролов Кобулжон Кулманович*, доктор экономических наук, профессор, Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова
Маманазаров Абдухаким Бозорович, доктор педагогических наук (DSc), доцент, Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова

Философия

- Намозов Бобир Бағриевич*, доктор философских наук, Бухарский государственный университет

Биология

- Артикова Хафиза Тоймуродовна*, доктор биологических наук, профессор, Бухарский государственный педагогический институт

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

- Risboy Haydarovich Djuraev**, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Rustambek Temirovich Shamsutdinov, professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences
Inom Urushevich Majidov, doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.
Kahramon Tanzilovich Olimov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen
Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, doctor of Technical Sciences, Professor
Oyniso Musurmonova, doctor of pedagogical sciences, professor
Rohat Gaybulloevna Safarova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.
Kholboy Ibragimovich Ibragimov, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

- Ekaterina Iosifovna Artamonova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences
Irina Evgenyevna Emelyanova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University, Russia
Galina Anatolevna Kuzmenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health
Bozor Safaralievich Safaraliev, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy
Vladimir Vasilevich Kulishov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Irina Rudolfovna Lazarenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia
Okšana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University, Russia
Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Sergey Dmitriyevich Maksimenko, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine
Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukrain

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

- Azamat Ziyov**, doctor of Historical Sciences, Academician, director of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, doctor of Historical Sciences, Professor; main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Philology

- Majidova Rano Urishevna**, doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages
Sharipova Laylo Frunzeyevna, professor, Doctor of Philology. Bukhara State University
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, doctor of Philology. Bukhara State University
Yusupova Khilola Oktamovna, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute
Akramova Surayo Renatovna, doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Pedagogy

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
Olimov Shirinboy Sharofovich, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University
Tilavova Matlab Muhammadovna, candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Dilova Nargiza Gaybullayevna, doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University
Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University
Umarov Bakhshullo Djurayevich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Khasanova Gulnoz Kasimovna, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Inoyatov Abdullo Shodievich, doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Davronov Nurzod Ismoilovich, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Psychology

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University
Bafaev Muhiddin Mukhamadovich, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Economy

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich, doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

Philosophy

- Namozov Bobir Baxriyevich**, doctor of Philosophy. Bukhara State University

Biology

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

07.00.00 – TARIX FANLARI

KITOBGA SHARH

Мавлуда Рахмонова
Ўзбекистон ФА Тарих институти
таянч докторанти

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИЧА ЁНДАШУВДАГИ ҚОМУСИЙ ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ

Qahramon Rajabov, Feruza Amonova, Bahodir Qandov. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrirlar: I. Islomov – tarix fanlari doktori (DSc), professor, D. Jamolova – tarix fanlari doktori (DSc). – Toshkent: "Ochun" nashriyoti, 2025. – 528 bet.

2024 йилда тарихчи устоз олимларимиз Қахрамон Ражабов, Феруза Амонова ва Баҳодир Қандов муаллифлигида нашр этилган “Ўзбекистон тарихи” монографияси кўпчилик олимлар, ўқитувчилар, талабалар, тарих соҳасига қизиқувчилар томонидан муносиб кутиб олинди. Юртимиз тарихи энг қадимги даврдан то бугунги кунгача ихчам тарзда ёритилган ушбу асарда Янги Ўзбекистон даврида мамлакатимизда амалга оширилаётган улуғвор ўзгаришлар ҳам ўз ифодасини топган.

2024 йил 7 сентябрда Фанлар академияси Тарих институтида ўтказилган янги китоблар тақдимида Турон ва Туркистон тарихининг шонли кечмишини ёритиб беришда юқорида номлари тилга олинган тарихчи олимларимизнинг хизматлари юксак эътироф этилди. Икки жилдлик “Ўзбекистон XX асрда” ва “Туркистон мухторияти тарихи” китоблари билан бир қаторда тақдим этилган “Ўзбекистон тарихи” монографияси ҳам ўтмиш воқеаларнинг ватанимиз тарихига даҳлдор ҳодисаларини ҳаққоний ёритилишини истовчи китобхонларнинг назарига тушди.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ташаббуси билан 2024 йил апрел ойида чоп этилган “Ўзбекистон тарихи” монографияси тез орада бутун Ўзбекистонга тарқалиб, ўқувчилар орасида қўлма-қўл бўлиб кетди. Китобхонлар орасида ушбу асарга қизиқишнинг янада кучайиб бориши ҳамда кўплаб талаб ва таклифларни ҳисобга олган ҳолда, тўлдирилган ва қайта ишланган “Ўзбекистон тарихи” китобининг иккинчи наشري 2025 йилда 16 минг нусхада қайта чоп этилди.

Ушбу китобда энг қадимги даврдан то ҳозирги кунгача Ўзбекистон тарихида содир бўлган воқеа ва ҳодисалар ҳақидаги, ўтмишда яшаб ўтган маърифатпарвар шахслар ва илм-фан дарғалари, ватан учун жанг қилган жасоратли саркардалар ҳаёти тўғрисидаги, истиқлол учун кураш, мустақиллик даврида амалга оширилган ислохотлар ва ўзгаришлар ҳақидаги маълумотлар, умуман олганда ўзбек халқи давлатчилигининг турли босқичлари ёритилиб, батафсил баён қилиб берилган.

Тўлдирилган ва қайта ишланган “Ўзбекистон тарихи” 2-наشري жами 10 бобдан иборат бўлиб, Ўзбекистоннинг қадимги, ўрта, янги ва энг янги даврлари тарихини ўз ичига қамраб олган.

Асарнинг I бобида Турон заминида инсоният тарихининг илк босқичлари ва тош даврида амалга оширилган ўзгаришлар ҳақида, энг қадимги одамларнинг ривожланиш босқичлари ва уруғчилик жамиятига ўтилиши ҳақида, Ўзбекистон ҳудудидаги ушбу даврга тегишли топилмалар ва ёдгорликлар ҳақида ҳикоя қилинади.

Турон ва Туркистоннинг қадимги даври, унинг ҳудудидаги илк давлатлар, қадимги шаҳарлар маданияти, зардуштийлик динининг вужудга келиши, Тўмарис, Широқ, Спитамен жасоратлари ҳамда Буюк ипак йўли ҳақидаги тарихий маълумотлар “Турондаги дастлабки давлатлар” деб номланувчи II бобда

таҳлил этиган.

Мазкур бобнинг олдинги нашрдан фарқли жиҳати шундаки, унга Турондаги илк уйғониш даври ғояси асосида янги маълумотлар киритилган. Бу тарих соҳасида ўзига хос ижобий маънода янги бурилиш касб этганлигидан далолат беради. Чунки, шу вақтгача қадимги Турон диёрида бундан 3000 йил муқаддам инсоният тарихида дастлабки Уйғониш даври мавжуд бўлганлиги кўплаб тарихчилар назаридан четда қолиб келаётган эди. Бу жиҳатдан асарнинг мазкур қисмига янги тўлдиришлар китилиб, кўшимча мавзулар билан бойитилганлигини кўришимиз мумкин.

Туркистоннинг илк ўрта асрлардаги тарихи мазкур китобнинг III бобида ўз аксини топган бўлиб, унда Турондаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар ва маданий ҳаёт, Туркистонда араб халифалиги ҳукмронлигининг ўрнатилиши ва юртимизда ислом динининг тарқалиши, халифаликка қарши кўзғолонлар ва уларнинг оқибатлари масаласи ёритилган.

Китобнинг IV бобида Туркистонда халифаликдан мустақил ташкил топган туркий давлатлар: Қарлуқлар, Ўғузлар, Тоҳирийлар, Сомонийлар тарихи ҳақида, шунингдек, қорахонийлар, ғазнавийлар, салжуқийлар, Ануштегинийлар сулолаларининг Турондаги ўтмиши ҳақида, мўғулларнинг Туркистонга босқини ва ўзбек халқининг миллий қаҳрамони – Жалололдин Мангуберди ҳақида ҳикоя қилинади. Ушбу бобда Туркистондаги этник жараёнлар ва ўзбек халқининг шаклланиши масаласи ҳам ўз ифодасини тонган.

Туркистонда марказлашган давлат ташкил этган, Буюк Турон салтанатининг асосчиси бўлган, жаҳон сиёсати ва тарихида ўзига хос ўринга эга бўлган, юртини ободонлаштириб, унинг гуллаб яшнаши учун боғ ва иморатлар барпо этган Турон султони Амир Темур ва унинг фаолияти тарихи V бобда кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, темурийлар сулоласининг забардаст вакиллари томонидан тадбиқ этилган илмий ҳамда маданий мерослар масаласига алоҳида ўрин берилган.

Мазкур китобнинг шу номдаги аввалги нашрлардан фарқли жиҳати Турондаги иккинчи ва учинчи ренесанс давлари, илм-фан ва маданият тараққиётлари ҳамда ушбу жараёнга ижод наъмуналари билан ўзининг буюк ҳиссаларини кўшган аждодларимиз фаолияти тарихи алоҳида бўлим (VI боб) сифатида илк бора киритилди.

XV аср бошларида ўзбеклар улусининг вужудга келиши, Туркистон ҳудудида Бухоро амирлиги, Хива ва Қўқон хонликлари асос солиниши, XIX охирларида Россия империяси томонидан ушбу ўзбек хонликларининг истило этилиши, мустамлакачилик сиёсати, Туркистонда бошланган Россия империясига қарши миллий-озодлик ҳаракати ва уларнинг ёрқин намоёндалари тақдири, жаҳидчилик ҳаракатининг пайдо бўлиши ва Туркистон тараққийпарварларининг ижтимоий-сиёсий ҳамда маданий ҳаётда амалга оширган беҳисоб ўзгаришлари ҳақида биз ушбу китобнинг VII ва VIII боблари орқали танишиб чиқишимиз мумкин.

1917-1991 йилларда совет давлати таркибида бўлган Ўзбекистоннинг тарихига бағишланган қисм (IX боб)да биз Туркистон Мухторияти ҳукуматининг ташкил топиши ва унинг совет ҳокимияти ва большевикларнинг ҳарбий кучлари томонидан тор-мор этилиши, Туркистонда совет ҳокимияти ва большевикларга қарши истиқлолчилик ҳаракати ва унинг моҳияти, Туркистон кўрбошилари ва уларнинг жасорати, совет ҳокимиятининг Ўзбекистон ССРда юритган мустамлакачилик сиёсати, Иккинчи жаҳон уруши ва ундан кейинги даврда ўзбек халқи бошига тушган оғир синов ва қийинчиликлар, ижтимоий-иқтисодий мураккабликлар ва Орол фожiasi, совет ҳокимиятининг инқирози, мустақиллик учун курашлар ҳамда Мустақиллик декларациясининг қабул қилиниши каби ўтмишдан сабоқ чиқаришга, онгли фикр юритишга, хулоса қилишга ундайдиган мавзуларни ўқиб ўрганишимиз мумкин бўлади.

Асарнинг ушбу қисмида тарихий маълумотларни келтиришда архив ҳужжатлари, янги тадқиқотлар ва изланишлар ҳамда бошқа муҳим манбалардан фойдаланилганлиги унинг илмий қийматига янада юқори баҳо беришга ундайди. Шунингдек, тўққизинчи бобда

Ўзбекистоннинг Иккинчи жаҳон уруши ва ундан кейинги даври тарихини ёритишда бутунлай янгича ёндашувда иш юритилган.

“Ўзбекистон тарихи” китоби 2-нашрининг салмоқли қисмини ташкил этувчи “Ўзбекистон Республикаси мустақил тараққиёт йўлида (1991-2024)” номли X боби шартли равишда беш фаслга ажратилган. Биринчи фаслда Ўзбекистон мустақиллигининг эълон қилиниши ва дастлабки сиёсий жараёнлар ҳамда биринчи президентининг фаолият даври ҳақида янгича мазмундаги, илмий далиллар, манбалар билан бойитилган маълумотларни учратишимиз мумкин.

Иккинчи фаслда эса Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг меъмори ҳисобланган Шавкат Мирзиёев даврида амалга оширилаётган ишлар ва уларнинг муҳим жиҳатлари, шунингдек, жаҳидлар мероси ва қўрбошилар жасоратининг бугунги кундаги сиёсий ва тарихий аҳамияти ҳақида сўз боради. Қисқа қилиб айтганда, ушбу фаслда Тўртинчи Ренесанс даврида Янги Ўзбекистонда бажарилган ислоҳотлар ва юз берган ўзгаришлар ҳақида сўз юритилади. Навбатдаги фаслларда Ўзбекистонда мустақиллик йилларида амалга оширилган хавфсизлик ва мудофаа тизимидаги ислоҳотлари, таълим, илм-фан ва маданият соҳасидаги ютуқ ва камчиликлар, Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари ва жаҳон ҳамжамиятидаги ўрни масалалари батафсил ёритиб берилган.

Иккинчи марта нашрдан чиқарилган “Ўзбекистон тарихи” китобининг сўнги қисми Ўзбекистон тарихидаги муҳим воқеалар солномаси ҳамда тавсия қилинадиган тарихий манба ва адабиётлар рўйхатидан иборат. Ўзбекистон тарихидаги муҳим воқеалар солномасида ўтмиш воқеалари энг қадимги даврдан бугунги кунгача хронологик жиҳатдан кетма-кетлик асосида тизимли келтириб берилган.

Муаллифлар томонидан ибтидоий даврдан тортиб то айна кунларгача бўлган Ўзбекистоннинг тарихини ҳаққоний тарзда, изчил кетма кетликда, энг муҳими ҳолисона ёритганлиги ушбу асарнинг энг катта ютуқларидан биридир. Ўтмишда яшаб, юртимиз мустақиллиги ва ёруғ келажаги учун курашган, истиқлол йўлида ҳақиқий жасорат ва ватанпарварлик наъмунаси бўла ўлган, илм-фан, маданият ва санъат соҳасида улкан муваффақиятларга эришиб, бутун жаҳон миқёсида тан олинган аждодларимиз хотирасини тиклаш ва абадийлаштиришда, Турон ва Туркистон тарихининг улуғ ўтмишини ёритиб беришда 2025 йилда қайта нашр этилган “Ўзбекистон тарихи” китобининг ўрни беқиёс аҳамиятга эгадир. Мазкур монография юртимиз тарихига қизиқувчи ҳамда уни мукамал ўрганишни хоҳловчи, касб-кори ва ёшидан қатъи назар барча ўқувчилар учун мўлжалланганлиги билан алоҳида устунликка эга асардир. Бизнинг фикримизча, биринчидан, “Ўзбекистон тарихи” китобининг тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашрини совет даври тарихи ёритилган бўлимларида айрим бир-бирига боғланмаган матнлардан холи қилиш мақсадга мувофиқдир.

Иккинчидан, асарда Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги даврга оид ёдгорликлар, ўзбек халқининг моддий ва номоддий мероси ва уларнинг жаҳон миқёсидаги ўрни масалаларининг янада кенгрок ҳажмда ёритилиши асарнинг мазмунан бойишига хизмат қилар эди.

Учинчидан, ушбу китобни ёши катта авлодлар учун кирилл ёзувида кейинчалик чоп этилишини таклиф этган бўлардик.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Турон ва Туркистон ўтмиши ҳақидаги, унда юз берган учта Ренесанс давлари билан бирга бугунги кунда Янги Ўзбекистонда амалга оширишга киришилаётган Тўртинчи Ренесанс ҳақидаги муҳим маълумотларни жамлаган ушбу асар ҳамда унинг муаллифлари ўз олдида қўйган мақсадга тўлалигича эриша олган. Халқимизга хизмат қилувчи, келажак авлодга билим улашувчи яна бир асар яратилитиб, қайта нашр қилинганлиги улкан муваффақиятдир.

СССРДА ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ИНҚИРОЗНИНГ КУЧАЙИШИ: ЎЗБЕКИСТОН МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ ЙЎЛИДА

Қ.К.Ражабов,

тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими

Совет ҳокимияти йилларида коммунистик мафкура Совет Иттифоқидаги бошқа халқлар сингари ўзбек халқининг ҳам бой ўтмиши ва кўхна маданиятини тарғиб қилишни хоҳламас эди. Коммунистик элита томонидан совет халқи деган сунъий атама тўқиб чиқарилиб, руслаштириш сиёсати изчил суратда олиб борилди. Ўзбек халқининг кўп асрлик қадимий маданияти, урф-одати, анъаналари бойлиги, унинг чуқур ва мустаҳкам илдизи мавжудлиги Кремлдаги ғоявий маддоҳларни доимий равишда чўчитиб турди. Шунинг учун ҳам улар ўзбек халқи тарихи ва маданиятини камситиш йўлини тутдилар.

СССРдаги қайта қуриш жараёни аввалбошданок, асосан, сиёсий соҳани қамраб олган эди. Орадан кўп ўтмай жадаллашиб бораётган сиёсий жараёнлар (ошкоралик, демократия) билан суёт ривожланаётган иқтисодиёт ўртасида катта фарқ кўзга ташлана бошлади. Бу ҳолни кейинчалик пайқаган СССР ва КПСС раҳбарияти тегишли чораларни кўришга кечикди. Мамлакатда иқтисодий аҳвол издан чиқа бошлади.

Қайта қуриш ошкоралик ва фикрлар хилма-хиллигининг маълум маънода кучайишига имкон яратди. Аммо мамлакатда туб демократик ўзгаришларни амалга ошириш, бошланғич ислохотларни охирига етказиш мумкин бўлмади. Кучайиб бораётган иқтисодий танглик, сиёсий бошбошдоқлик ижтимоий адолатга сиёсий йўл билан эришиш мумкинлигига ишончсизлик уйғотди. Бу ҳолат фақат Ўзбекистон учун хос бўлмай, балки бутун Совет Иттифоқига тегишли эди. Шу аснода Ўзбекистоннинг Москва билан кўз илғамас зиддиятли муносабатлари кескинлаша борди.

Мана шундай зиддиятли шароитда республика раҳбарияти томонидан ижтимоий-иқтисодий тангликни юмшатиш учун бир қанча ижобий ишлар амалга оширилди.

1989 йил 17 августда Ислом Каримов бошчилигида республика ҳукуматининг Тошкентда бўлиб ўтган кенгайтирилган йиғилишида аҳолига томорқа ва шахсий участкалар ажратиш масаласи муҳокама қилинди ҳамда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети, Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми ва Ўзбекистон ССР Министрлар Советининг “Колхозчилар, совхозларнинг ишчилари, гражданларнинг шахсий ёрдамчи хўжаликларини ва якка тартибда уй-жой қурилишини янада ривожлантириш тўғрисида”ги қарори матбуотда эълон қилинди. Бу тарихий ҳужжатда қишлоқда яшовчи ҳар бир хонадонга ўртача 25 сотихдан ер ажратиб бериш ва томорқа майдонларини қарийб 4,5 баробар кенгайтириш кўзда тутилган эди.

Бу борада 1989 – 1990 йилларда олиб борилган амалий ишлар натижасида 1,5 млн хонадонга қўшимча томорқа ажратилди, 700 000 хонадон эса янги томорқа ерларини олишди.

Бу мураккаб масалага ана шундай оқилона ёндашув туфайли Ўзбекистонда ўн ва юз минглаб одамлар уй-жойли ва ишли бўлди. Бозорларда қишлоқ хўжалик маҳсулотлари кўпайиб, нарх-наво арзонлашди. Энг муҳими, республикадаги ижтимоий кескинлик юмшатилишига эришилди. Бундан ташқари бу ҳолат Ўзбекистонда пахта яккаҳокимлигига берилган дастлабки кучли зарба ҳам бўлди.

1989 – 1991 йилларда Ўзбекистон жамияти ва ўзбек халқи ўз тарихининг мутлақо янги босқичига – Ўзбекистоннинг энг янги тарих даврининг илк босқичига қадам кўяр экан, республика жамоатчилиги мудроқ уйқудан турди. Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий воқеа-ҳодисаларга жон кирди, миллий ўзлик устига ташланган қалин пардалар олиб ташланди. Ўзбекистон жамияти ва ўзбек халқи уйғонди.

Айнан шу йилларда Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий воқелик, халқ миллий онгининг

кескин равишда ўсиши жамият аъзоларининг ижтимоий фаоллигини ошириб юборди. Ўзбек зиёлилари (олимлар, шоир ва ёзувчилар, санъаткорлар, журналистлар) ва талабалари мустақиллик учун курашнинг олдинги сафларида бўлишди. Айниқса йирик файласуф олим, академик Эркин Юсупов (1928 – 2003) ўзининг Москва ва Тошкентда эълон қилинган публицистик мақолаларида Марказнинг ғирром ўйинларини кўрсатиб берди. У кейинчалик ёзган хотираларида ўша давр воқеаларини холис ёритишга ҳаракат қилган. Истеъдодли шоир ва таржимон, жамоат арбоби Жамол Камол (1938-2022) оташин публицист сифатида ўзбек тили ва адабиёти, ўзбек халқи тарихи, миллат маънавияти тўғрисида ўткир мақолалар ёзди. У матбуотда эълон қилган мақолаларининг бирида ўзбек халқига қарата “Тил – эл номуси, тарих – унинг қомуси”, дея ҳайқирди.

Хуллас, мазкур давр айна пайтда жамият аъзоларининг руҳий биқикликдан миллий ва анъанавий асосларга қайтиш даври сифатида ҳам изоҳланади. XX асрнинг 80-йиллари охири ва 90-йиллари бошларига келиб, Ўзбекистонда аввал диний ва миллий “миллатчилик” ёрликлари ёпиштирилган ва холис ўрганилиши тақиқланган миллий характердаги ижтимоий-сиёсий, фалсафий воқеа-ҳодисалар, тарихий шахслар фаолиятини тадқиқ этишга бироз эркинлик берилди. Натижада ислом дини ва унинг аҳамияти, тасаввуф (суфизм) масалаларига ойдинлик киритила бошланди. Туркистон минтақасининг Россия империяси томонидан босиб олинishi, жадидчилик ҳаракати, октябрь тўнтариши, Туркистон Мухторияти ҳукумати фаолияти, “босмачилик” ҳаракати, “Хужум”, совет режимининг қатағон сиёсати ва совет даврининг бошқа масалалари янги тафаккур асосида талқин этила бошланди. Ўзбекистонда буюк соҳибқирон Амир Темур шахсига муносабат ўзгара бошлади. Ислом уламолари ва ҳадисшунос алломалар Имом Бухорий, Ҳаким Термизий, Аҳмад Яссавий, Абдулҳолиқ Ғиждувоний, Баҳоуддин Нақшбанд ва бошқалар фаолиятини ўрганишга киришилди. Шунингдек, совет ҳокимияти йилларида қатағон қилинган Абдулла Қодирий, Фитрат, Чўлпон, Усмон Носир, Мунаввар Қори ва бошқаларнинг асарлари улар мансуб бўлган ўзбек халқига қайтарилди.

Ўзбекистонда сайлов тизимини демократлаштириш мақсадида 1990 йил февраль-апрель ойларида Ўзбекистон ССР Олий Советига кўп мандатли округлар бўйича эксперимент сифатида биринчи марта сайлов ўтказиб кўрилди. Бироқ яккапартиявийлик тизими шароитида бу янгилик расмиётчиликдан нарига ўтмади. Чунки бу сайловлар Олий Совет таркибини демократлаштиради, аксинча, аввал ишлаб турган Олий Советга нисбатан депутатлар орасида ишчилар, колхозчилар, хотин-қизлар ва ёшлар сони камайиб кетди, аввалгидек давлат ҳокимиятининг олий органи деярли мутлақ партия аъзоларидан иборат бўлиб қолди, депутатларнинг қарийб 95 фоизи коммунистлардан иборат эди. Лекин бу сайловда кўпгина округларда биринчи бор депутатлик мандатига бир нечтадан номзодлар даъвогарлик қилди. Шунга қарамасдан, Ўзбекистондаги 500 та округдан 174 тасида муқобил номзодлар кўрсатишга йўл қўйилмади. Номзодларнинг ҳаммаси ҳам ўз сайлов платформасини тушунтириб бериш учун бир хилдаги имкониятга эга бўлмади ва ҳоказо.

Шунингдек, депутатлик ваколатларининг тўхтатилиши ва сайловчиларнинг депутатни чақириб олиши тўғрисидаги масала ҳам депутатликка номзодларни кўрсатиш тартиби каби (номзодларни одатдагидек партия комитетлари кўрсатарди) аввалгидек партия комитетлари тасарруфида қолаверди. Лекин сайлов тизимида демократияга амал қилинаётганини кўрсатиш мақсадида матбуот саҳифаларида фақат депутатларни чақириб олиш ҳолатининг ўсиш динамикасини намойиш қилиш билан чекланилди. Ўзбекистонда 1985 йилда турли даражадаги Советлар депутатларидан 1216, 1986 йилда 2877 нафари чақириб олинди. Лекин ваколати тўхтатилган бу депутатларнинг аксарияти ўзларининг депутатлик бурчларини удалолмагани ёки сайловчиларнинг нақзини бажармаганлиги учун улар томонидан чақириб олинганлигида эмас, балки пахта иши билан боғлиқ бўлганлиги учун аввал улар тергов органлари томонидан қамоққа олинди, сўнгра эса уларнинг депутатлик ваколати

тўхтатилди. Марказ буйруғи билан 1988 – 1989 йилларда Ўзбекистон Компартияси МКнинг собиқ биринчи секретари И. Усмонхўжаев, Ўзбекистон Компартияси МКнинг идеология секретари Р. Абдуллаева, Самарқанд вилояти обкомининг 1-секретари Н. Ражабов, Бухоро вилояти обкомининг 1-секретари И. Жабборов ва бошқалар СССР ва Ўзбекистон ССР Олий Совети депутати бўлишларига ҳамда депутатнинг дахлсизлик мақомига қарамасдан Т. Гдлян ва В. Ивановнинг тергов гуруҳи аъзолари томонидан ноқонуний равишда қамоққа олинди ҳамда Москвага жўнатилди. Бундай қонунбузарлик 1990 йилда ҳам давом этди.

Умуман олганда, Ўзбекистон сиёсий тизимида 1990 йил ёзига қадар муҳим бўлган бирорта жиддий ўзгаришлар содир бўлгани йўқ. Ўзбекистон ССР Олий Совети томонидан тарихий муҳим ҳужжат – Ўзбекистон ССРнинг “Ўзбекистон ССР Давлат тили ҳақида”ги Қонун қабул қилиниши (1989 йил 21 октябрь) бундан мустасно. Қонунга биноан Ўзбекистон ССР худудида ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган эди. Айни вақтда шу Қонунда кўрсатилганидек, республикада миллатлараро мулоқот тили сифатида рус тилидан эркин фойдаланиш сақлаб қолинди. Бу қонуннинг қабул қилиниши ўзбек халқи тарихи ва маданиятини сақлаш, ўзбек тилини чеклашни тўхтатиш, миллий ўзликни англашда ҳамда Ўзбекистонда миллатлараро ҳамжиҳатликнинг сақланиб қолишида катта аҳамиятга эга бўлди. Кейинчалик бу Қонун янги таҳрирда қабул қилинди.

1989 йил 21 октябрда Ўзбекистон ССР Олий Советининг XI сессиясида “Ўзбекистон ССР Давлат тили ҳақида” Қонун қабул қилиниб, ўзбек тилига давлат тили мақоми берилди. Қонун ўзбек тили ва адабиётининг ривожланишига имкон яратди. Кейинчалик мазкур қонунга айрим жиддий ўзгартиришлар киритилди.

Шу аснода Ўзбекистоннинг Марказ билан кўз илғамас зиддиятли муносабатлари кескинлаша борди. Ўзбекистон раҳбариятининг амалда мустақиллик сари ташланган энг салмоқли қадамларидан бири 1989 йил 24 ноябрда ўтказилган Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг XVIII пленумида бўлди. Унда миллий масаланинг тарихий жиҳатлари, ҳозирги аҳволи, миллий сиёсатнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари, маданий-ахлоқий масалалари чуқур ҳолислик билан таҳлил этилди ва Иттифоқ раҳбарияти олдида бу масалаларни ҳал этиш асосий вазифа қилиб қўйилди.

Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг 1990 йил 23 мартда бўлган XIX пленумида “КПСС Марказий Комитети 1990 йил февраль ва март пленумларининг яқунлари ҳамда КПСС XXVIII съездида ва Ўзбекистон Компартияси XXII съездида тайёргарлик кўриш юзасидан республика партия ташкилотларининг вазифалари тўғрисида” маъруза қилган И. Каримов Ўзбекистонда президентлик институтининг жорий этилишини қуйидагича изоҳлайди: “...Президент институтининг жорий этилиши – республикамиз учун суверенитет ва давлатчиликда принцип жиҳатдан янги босқичга ўтилишини билдиради. Чунки шунчаки эмас, балки ҳақиқий давлатчилик ҳокимиятнинг бундай тузилмасини қўлга киритиш имкониятига эга. Республика Президенти Иттифоқ шартномаси ва мамлакат федератив қурилишининг янги асосларини ишлаб чиқишда муҳим роль ўйнаши Ўзбекистон ССРнинг Иттифоқ Федерация кенгашида муносиб ўрин эгаллашини таъминлаши шубҳасиздир. Шу муносабат билан Ўзбекистон миллий маҳдудликка интиляпти, деб кимлардир авж олдираётган шубҳаларга ҳеч қандай асос йўқ, албатта”.

1990 йил 24 мартда Ўзбекистон ССРнинг “Ўзбекистон ССР Президенти лавозимини таъсис этиш ҳамда Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий Қонуни)га ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Бу қонун билан иттифоқдош республикалар ўртасида биринчи бўлиб Ўзбекистонда президентлик бошқаруви жорий қилинди ҳамда Ўзбекистон ССР Олий Советининг ўн иккинчи чақириқ 1-сессиясида Ўзбекистонда президентлик бошқаруви таъсис этилди ва Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби Ислом Абдуғаниевич Каримов яширин овоз бериш йўли билан Ўзбекистон ССР Президенти қилиб сайланди. Сессияда Ўзбекистон ССР Президенти Ислом Каримов қасамёд қилди ва нутқ сўзлади.

Ислом Каримов ана шу сессияда сўзлаган нутқида республика ҳаётидаги катта ўзгариш Ўзбекистоннинг сиёсий мустақиллигини мустаҳкамлаш, уни янги ва ҳаётий мазмун билан бойитиш, республиканинг иқтисодий мустақиллигини, ўзини-ўзи идора этиш, ўзини-ўзи молиявий таъминлашга ўтишига эришиш, аҳоли барча табақаларининг фаровонлигини ошириш, одамларнинг талаб-эҳтиёжларини қондириш, ижтимоий аҳволни жадал ривожлантириш, халқни маънавий юксалтириш, демократияни ва ҳуқуққа асосланган давлат қурилишини ривожлантириш, миллий тараққиёт йўлида барча соғлом кучларни бирлаштириш каби ўта муҳим мақсадларни амалга оширишга қаратилганини чуқур таҳлил асосида ҳар томонлама исботлаб беради .

Ўзбекистонда жорий қилинган президентлик бошқаруви ўзбек халқининг мустақилликка эришиш йўлида муҳим қадам бўлди. Ўзбекистонда давлат бошқарувининг президентлик шаклига ўтилиши республика суверенитети ва давлатчилигида моҳиятан янги босқич ҳисобланади.

Ўзбекистон ССРда 1990 йил март ойидаёқ президентлик бошқарувининг жорий этилиши Марказга қарши кучли зарба бўлди. Лекин шунга қарамасдан Москва бутун имкониятларини ишга солиб, Иттифокни сақлаб қолиш йўлидан борди. Таассуф билан айтиш керакки, ўша пайтда Москвада фаолият кўрсатган СССР Олий Совети Миллатлар Советининг раиси Рафиқ Нишонов (1989 йил июнь – 1991 йил сентябрь) ҳамда Ўзбекистоннинг кўплаб партиявий раҳбарлари СССРни янгича асосларда сақлаб қолиш учун астойдил ҳаракат қилишди. Ҳатто Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримов совет давлати ўрнида янгиланган иттифоқ тузиш тарафдори бўлиб, у ўзининг бундай кайфиятларини “Деловой мир” (Москва) газетасига берган интервьюсида кўрсатган. (Бу интервью “Биз конфедерация тарафдори!” деган ном билан 1991 йил 25 октябрда “Ўзбекистон овози” газетасида ҳам босилиб чиқди.)

Ўзбекистон ССРда президентлик бошқарувининг жорий қилинишини бир қанча омиллар ва аввало СССРда 1990 йил бошларига келиб умумдавлат сиёсий инқирозининг сезиларли даражада кучайганлиги тақозо этарди. Бу инқироз иқтисодиётда ва ижтимоий соҳада қилинган ва Марказнинг иттифоқчи республикалар билан давлат алоқаларини янгилашга қаратилган ислохотларнинг барбод бўлиши билан намоён бўлди. 1990 йил мартда Литванинг мустақил давлат деб эълон қилиниши, Латвия билан Эстониянинг СССР таркибидан чиқишга фаоллик билан ва очикчасига тайёргарлик кўраётгани унитар ҳамда федератив совет давлатининг ҳақиқий емирилиши бошланганидан далолат беради.

1990 йил 11 мартда (СССРда президентлик бошқаруви жорий қилинишидан 4 кун олдин!) Литва Олий Кенгаши Литва давлатини қайта тиклаш ҳақидаги ҳужжатни қабул қилди ва мамлакат Литва Республикаси деб атала бошланди. 17 мартда (СССРда президентлик бошқаруви жорий қилинишидан 2 кун кейин!) Литва Республикаси Олий Кенгаши Литва давлати мустақиллигини тиклаш тўғрисида Қонун қабул қилиб, Литванинг СССР таркибидан чиққанлигини эълон қилди. Хуллас, Литва мустақил давлатга айланди. 1990 йил май ойида эса Литванинг давлат суверенитети тўғрисида Декларация қабул қилинди.

1990 йил майда Латвия Олий Кенгаши Латвия мустақиллигини тиклаш тўғрисида Декларация қабул қилди ва унинг номи Латвия Республикаси деб ўзгартирилди. 8 майда эса Эстония Олий Кенгаши Эстония Республикасини эълон қилди. Литвадан сўнг 1990 йил май ойида Латвия ва Эстония давлатлари ҳам СССР таркибидан чиққанликларини эълон қилишди. Болтиқбўйи республикаларидан кейин 1990 йил охири ва 1991 йил бошида Грузия ва Озарбайжон ҳам шундай қилди. Молдова Республикаси (Молдавия)да сиёсий вазият кескинлашиб, бу ҳудудда турли “мустақил республикалар” тузилди.

1990 йил баҳор ва ёзида Ўзбекистонда ҳам халқоммаси ошқоралик ва демократлаштириш, ўзининг тарихий ўрни ва ҳозирги замонни танқидий нуқтаи назардан қайта кўриб чиқиб, ўзларининг миллий ва маънавий қадриятларини қайта тиклаш, ўз ҳақ-ҳуқуқлари, жумладан,

ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳамда иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан Марказдаги иттифок ҳокимияти тузилмаларига қарамликдан халос бўлиш ҳуқуқларини амалга оширишдан тобора кўпроқ манфаатдор эканликлари аён бўла борди.

1990 йил 4 – 6 июнда КПССнинг навбатдаги анжуманига тайёргарлик кўриш доирасида Ўзбекистон Компартияси XXII съездининг биринчи босқичи ўтказилди. Унда республика янги сиёсий раҳбариятининг шижоати ва ташаббускорлиги яққол сезилиб турди. Съездда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби, Ўзбекистон ССР Президенти И. Каримов “Қайта қуришнинг бориши ва асосий йўналишлари, Ўзбекистон ССРнинг суверенитети ва иқтисодий мустақиллигини таъминлаш вазифалари, мамлакат ва жумҳуриятнинг янги системасида Ўзбекистон Компартиясининг ўрни ва мавқеи ҳақида” сиёсий маъруза қилди. Унда бошқариладиган бозор иқтисодиётига ўтиш масаласи хусусида резолюция қабул қилинди. Съездда Ўзбекистон ССР Президенти И.А. Каримов Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби этиб қайта сайланди. Шунингдек, Ш. Йўлдошев Ўзбекистон Компартияси Назорат-тафтиш комиссиясининг раиси этиб сайланди.

Съездда қилинган сиёсий маърузада Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий вазиятга қуйидагича баҳо берилган эди:

“Ўзбекистон Компартиясининг XXII съезди ўз ишини мураккаб, кескин, айтиш мумкинки, инқирозли вазиятда бошламоқда ...

Ижтимоий-сиёсий соҳада рўй бераётган жараёнлар ҳаммани ташвишга солмоқда. Қайта қуриш туфайли юзага келган демократия ва ошкоралик анархия ва сафсатабозликдан етарлича ҳимоя қилинган эмас...

Интизом ва тартиб кўнгилдагидек эмас, жиноятчилик кўпаймоқда, одамларнинг шахсий хавфсизлиги, ҳуқуқлари ва кадр-қиммати кафолатлари бузилмоқда.

Ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳаларнинг аҳволи ёмонлашиб бормоқда. Меҳнат унумдорлиги, миллий даромад пасаймоқда. Эҳтиёж буюмлари ва керакли хизматлар билан таъминланмаган иш ҳақининг ўсиши пулнинг қадрсизланишини кучайтирмоқда. Чайқовчилик, порахўрлик, хуфиёна иқтисодиёт кенг ёйилмоқда. Мана шуларнинг ҳаммаси одамларнинг, айниқса кам даромадли аҳоли табақаларининг турмуш даражасига салбий таъсир кўрсатяпти.

Маданий-маънавий турмушда қадрсизланиш рўй бермоқда: омма сиёсатга кўпроқ қизиқиб, унинг фаоллиги ошиб бориши билан бирга, жамиятнинг ғоявий ва ахлоқий негизларини бузишга, умуминсоний қоидалар ва миллий қадриятларни менсимасликка уриниш ҳоллари кам эмас...

Мамлакатнинг барча жойларида бўлгани каби республикамиз меҳнаткашлари ҳам мана шу бузғунчилик жараёнларидан ташвишга тушмоқдалар: Хўш, жамиятимиз қаёққа қараб бораяпти? Бу салбий ҳодисалар наҳотки қайта қуришнинг муқаррар натижаси, йўлдоши бўлса? Ёки бу нарса сиёсий раҳбарликдаги хатолар, ислохотларнинг аниқ режаси йўқлиги оқибатларини пайқаш ва уларнинг олдини олиш мумкинлигидан гумонсираш сабабли эмасмикин? Бу салбий жараёнлар наҳотки хатарли томонга бораверса?..

Биз Ўзбекистон ССРнинг ҳақиқий сиёсий суверенитети, иқтисодий мустақиллигини таъминлашга қаратилган йўллари ва амалий ҳаракатларини белгилаб олишимиз керак”.

1990 йил 20 июнь санаси ҳам мустақилликка эришиш йўлида муҳим ўрин тутди. Айнан 20 июнда бўлган Ўзбекистон ССР Олий Совети ўн иккинчи чақириқ 2-сессиясида Мустақиллик Декларацияси қабул қилинди .

МУСТАҚИЛЛИК ДЕКЛАРАЦИЯСИ

Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси Олий Совети:

ўзбек халқининг давлат қурилишидаги тарихий тажрибаси ва таркиб топган бой анъаналари,

хар бир миллатнинг ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳуқуқини таъминлашдан иборат олий

мақсад ҳақи, ҳар бир кишиинг фаровон ҳаёт кечиришини таъминлашни олий мақсад деб билган ҳолда,

Ўзбекистон халқларининг келажаги учун тарихий масъулиятни чуқур ҳис этган ҳолда, халқаро ҳуқуқ қоидаларига, умумбашарий қадриятларга ва демократия принципларига асосланиб, Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг Давлат мустақиллигини эъло қилади.

1. Ўзбекистон ССРнинг демократик давлат мустақиллиги республиканинг ўз ҳудудида барча таркибий қисмларида ва барча ташқи муносабатлардаги танҳо ҳокимлигидир.

2. Ўзбекистон ССРнинг давлат ҳудуди чегараси дахлсиз ва бу ҳудуд халқнинг муҳокамасига қўйилмай туриб, ўзгартирилиши мумкин эмас.

3. Ўзбекистон ССРда давлат ҳокимияти унинг ҳудудига кирадиган барча таркибий ва бўлинмас қисмлари устидан амалга оширилади ва шу ҳудудда яшайдиган аҳолига тааллуқлидир.

4. СССР Олий Совети қабул қиладиган қарорлар Ўзбекистон ССР Конституциясига мувофиқ Ўзбекистон ССР Олий Совети томонидан тасдиқланганидан кейингина Ўзбекистон ССР ҳудудида кучга эга бўлади.

5. Ўзбекистон ССР давлат ҳокимияти ваколатига Ўзбекистон ССР ички ва ташқи сиёсатига тегишли барча масалалар киради.

6. Ўзбекистон ССР халқаро ҳуқуқнинг асосий принципларини тан олади ва ҳурмат қилади.

7. Ўзбекистон ССР иттифоқдош республикалар ва бошқа давлатлар билан ўзининг сиёсий, иқтисодий, маданий ва бошқа муносабатларини шартномалар асосида белгилайди ва амалга оширади.

8. Ўзбекистон ССР ўзининг тараққиёт йўлини, ўз номини белгилайди ва давлат белгиларини (герб, байроқ, мадҳия) ўзи таъсис этади.

9. Қорақалпоғистон Мухтор Совет Социалистик Республикаси мустақиллигини Мухтор Республика Конституцияси таъмин этади. Ўзбекистон ССР унинг Асосий Қонуни ва Ўзбекистон ССР Конституцияси асосида Қорақалпоғистон МССР манфаатларини ҳимоя қилади.

10. Ўзбекистон ССРнинг қонун чиқарувчи ҳокимияти Ўзбекистон ССР давлат мустақиллигини амалга ошириш учун зарур бўлган қонунларни ишлаб чиқади. Ўзбекистон ССРнинг сиёсий ва иқтисодий системалари таркибини ва қурилишини белгилайди.

11. Ўзбекистон ССР Олий Совети умумхалқ муҳокамаси асосида демократик ҳуқуқий давлат тузишга қарор қилганини билдиради. Ўзбекистон ССРда яшаётган барча миллат ва элатларнинг қонуний, сиёсий, иқтисодий, этник, маданий ҳуқуқларига ҳамда она тиллари ривожлантирилишига кафиллик беради.

12. Ушбу Декларация Ўзбекистон ССРнинг янги Конституциясини ҳамда янги иттифоқ шартномасини ишлаб чиқиш учун асосдир.

Тошкент ш.

Ўзбекистон ССР Олий Советининг иккинчи сессиясида 1990 йил 20 июнда қабул қилинган .

1990 йилда бутун Совет Иттифоқи иқтисодиётида бўлгани сингари Ўзбекистон иқтисодиёти ҳам танглик ҳолатлари ва инқирозни бошдан кечираётган эди. И.Каримов Ўзбекистондаги танглик ҳолатини таърифлар экан, унинг сабабларини қуйидагича теран таҳлил қилади:

“Шу қадар катта бойликларга, ишлаб чиқариш ва фан-техника имкониятларига, қулай иқлим шароитларига эга бўлган республикамиз асосий иқтисодий ва ижтимоий кўрсаткичлар бўйича мамлакатда охириги ўринлардан бирига – ҳақли равишда танг ҳолат, деб аталган аҳволга тушиб қолганининг сабаби нимада?..

Назаримда, бунинг жавоби шундай бўлмоғи керак: 30-йилларнинг бошларида иқтисодиётга раҳбарлик қилишда маъмуриятчилик, буйруқбозлик усуллари ғалаба қозониб, Ўзбекистонни, унинг ишлаб чиқарувчи кучларини ривожлантиришга яроқсиз ёндашувлар тобора қарор топиб борди. Хўш, бу иллатлар нималарда намоён бўлди? Аввало шундаки, бизнинг республикамиз асосан хомашё базаси, саноат министрликлари ва идораларининг мўмай хомашё манбаи деб ҳисобланар эди. Ўлканинг маҳаллий, ижтимоий-иқтисодий хусусиятларига баъзан етарлича, баъзан мутлақо баҳо берилмади, баъзан эса бу хусусиятлар писанд ҳам қилинмади. Иқтисодий ва ижтимоий соҳани комплекс, жадал ривожлантиришнинг, умумиттифоқ меҳнат тақсимотида Ўзбекистон ССРнинг мавқеи ва ўрнини ўзгартиришнинг муқобил йўллари эътиборга олинмади” .

Ўзбекистон Компартиясининг мазкур съезди республиканинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий ривожлантириш ва миллатлараро муносабатларга доир муаммоларининг бутун мажмуини ҳал қилишда муҳим бўғин Ўзбекистоннинг миллий давлатчилигини мустаҳкамлашдан, унинг чинакам сиёсий мустақиллигини таъминлашдан иборат деб ҳисоблади. Бироқ мафкуравий фаолиятнинг яхлит ва барқарор концепцияси Ўзбекистонда ҳали йўқ эди. Шу боис миллий маданиятни қайта тиклаш Ўзбекистон Компартиясининг асосий мафкуравий муаммоси сифатида илгари сурилди. Ўзбек тилини давлат тили сифатида татбиқ қилиш соҳасини кенгайтириш, республикада яшовчи барча миллатлар ва элатларнинг тилига доир, шунингдек, миллий-маданий талабларини қондириш юзасидан катта ишлар амалга оширилиши лозим эди.

Ўзбекистон Компартиясининг XXII съезди КПССнинг бўлажак XXVIII съезди яқунлари бўйича ўзининг яна бир мажлисини ўтказиш, унда республика партия ташкилотининг дастури ва устави каби ҳужжатларни қабул қилиш ҳуқуқини ўзида сақлаб қолди.

Бу пайтда Ўзбекистон сиёсий раҳбарияти республикада юзага келган ижтимоий-иқтисодий таназзулдан чиқиш чораларини топишга ҳаракат қилди. Шунга кўра, республика халқ хўжалигини бозор иқтисодиётига ўтказишнинг ўзига хос ва ўзига мос йўлини танлади. Дастлаб 1990 йил 31 мартда Ўзбекистон ССР Олий Советининг “Ўзбекистон ССР ҳукуматининг келгусидаги фаолияти дастури ва Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий, ижтимоий-маънавий мустақиллигини шакллантиришнинг асосий концепциялари тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Сўнгра 1990 йил 16 июнда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетида жумхуриятнинг иқтисодий мустақиллиги ва бошқариладиган бозор иқтисодиётига ўтиш масалаларига бағишланган кенгаш бўлиб ўтди ва унда И. Каримов нутқ сўзлади. “Ўзбекистоннинг иқтисодий мустақиллигини шакллантириш концепцияси”ни тайёрлашга киришилди. Концепция Ўзбекистон Давлат режа қўмитаси, Молия вазирлиги, бошқа вазирликлар, идоралар, илмий-тадқиқот институтлари, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ижроия қўмиталари билан ҳамкорликда тайёрланди. Шунинг асосида “Ўзбекистон халқ хўжалигини барқарорлаштиришнинг асосий йўналишлари ва бозор иқтисодиётига ўтишнинг қоидалари” лойиҳаси 1990 йил 17 октябрда республика матбуотида умумхалқ муҳокамаси учун эълон қилинди. Ўзбекистон аҳолиси бу муҳим ҳужжатни муҳокама қилишда фаол иштирок этди. 1990 йил 29 октябрда Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг бу ҳақдаги қарори қабул қилинди.

Ўзбекистоннинг янги сиёсий раҳбарияти вужудга келган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий инқироздан чиқиш учун халқ оmmasига таянган ҳолда иқтисодий ва сиёсий ислохотларни илдам ва самарали қилиб амалга ошириш, аҳолини давлат йўли билан ижтимоий ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиш, Ўзбекистоннинг сиёсий суверенитети ва иқтисодий мустақиллигига эришиш асосида ўзбек халқининг миллий давлатчилигини барпо қилиш йўлида ҳаракат қила бошлади.

Совет Иттифоқи сиёсий раҳбарияти мамлакатда тобора жиддий тус олаётган вазиятни баргараф қилишнинг ҳам назарий, ҳам амалий йўл-йўриқларини ишлаб чиқишга ҳаракат қилди. 1990 йил 2 – 13 июлда Москвада бўлиб ўтган КПССнинг XXVIII съездида

“Инсонпарвар, демократик социализм сари” Дастурий баёноти маъқулланди. КПСС Устави асос учун қабул қилинди. КПСС бор кучи билан социализм қандай бўлса, шундайлигича сақлаб қолиш учун унинг қиёфасини безаб (косметик ўзгаришлар қилиб), уни янада жозибадор ва замонавий қилиб кўрсатишга ҳаракат қилди, бироқ партия жамиятдаги назарий, мафкуравий, сиёсий ва ташкилотчилик вазифаларини бажаришдан воз кечишга интилмадлигини таъкидлади.

КПСС МКнинг июль пленумида (1990 йил 13 – 14 июль) янги сайланган КПСС Марказий Комитети Сиёсий бюроси таркибига Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби И.А. Каримов ҳам киритилди. (1991 йил 22 августда И. Каримов баёнот бериб, КПСС МК Сиёсий бюросининг ҳозирги таркибида қола олмаслигини билдирди.)

КПСС МК ва партия олий сиёсий раҳбариятининг белгиланган вазифаларни амалга оширишдаги ноизчиллиги ва ишдаги жиддий камчиликлари Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби, Ўзбекистон ССР Президенти И. Каримовнинг КПСС XXVIII съездида сўзлаган нутқида ўз аксини топди ва кескин танқидий оҳангни белгилаб берди. Ўзбекистон делегациясининг партия съездидаги нуқтаи назари иттифоқдош республикалар компартиялари мустақил бўлиши, мамлакатда кенгайиб ва чуқурлашиб бораётган миллатлараро зиддиятлар ва тўқнашувларни инкор қилишга йўл қўйиб бўлмаслиги тўғрисидаги масалаларни қўйишдан иборат бўлди. Ўзбекистон коммунистлари бундай аҳволдан чиқишнинг бирдан-бир йўли янги Иттифоқ шартномасини шошилиш равишида ишлаб чиқишдан иборат деб ҳисоблади, унда ҳар бир республиканинг суверенитети ва миллий давлат тузилиши қатъий белгиланган бўлиши керак эди. Бозор иқтисодиётига ўтиш масаласида ўзбекистонликлар уни фақат халқнинг розилигини олгандан кейингина амалга ошириш мумкин, деган фикрни айтди. Аслини олганда Ўзбекистон коммунистлари етакчиси 1990 йил ёзи ва кузида, ҳатто 1991 йил ёзида ҳам СССРдан ажралиб чиқишни ҳохламаган ва республика коммунистик элитаси ва сиёсий бошқарувдаги раҳбарларнинг аксарияти ҳам ана шундай фикрда бўлган.

Шу сабабли, илгари ҳам қарор қилинганидек, КПСС XXVIII съездининг қарорлари ва кўпгина бошқа муҳим масалаларнинг ечими Ўзбекистон вакилларини қаноатлантирмади. 1990 йил 7 – 8 декабрда Тошкентнинг Санъат саройида Ўзбекистон Коммунистик партияси XXII съездининг иккинчи босқичи бўлиб ўтди. Унда И. Каримов “Жумҳуриятдаги ижтимоий-сиёсий вазият ҳамда Ўзбекистон Компартиясини ташкилий-сиёсий жиҳатдан мустақамлаш ва иқтисодиётни бозор муносабатларига ўтказишга тайёргарлик борасидаги вазифалар тўғрисида” маъруза қилди. Ўзбекистон коммунистларининг съезди “Сиёсий ва иқтисодий суверенитет учун, маънавий янгиланиш, ижтимоий адолат ва Ўзбекистон аҳолисининг муносиб турмуш шароитини яратиш учун” деган ҳаракатлар дастурини қабул қилди. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши бошқа республикалардан орқада қолаётганлигини эътироф қилиб, съезд бу орқада қолишнинг сабабларини аниқлаш, жамиятни бирлаштириш йўлини топиш, фуқаролар тинчлигини ва миллий тотувлигини таъминлаш, барча динларнинг мухлислари билан ҳамкорликни йўлга қўйиш, оила, хотин-қизларнинг аҳоли ва ёшларнинг келажаги тўғрисида ҳақиқий ғамхўрлик кўрсатиш кераклигини айтиб ўтди.

Расмий ҳужжатларда ёзилганидек, Ўзбекистон халқи республика раҳбариятининг юзага келган вазиятни барқарорлаштириш, иқтисодий мустақилликни, сиёсий суверенитетни таъминлаш борасидаги фаолиятини кўллаб-қувватлади. Аслини олганда бунинг сабаби Ўзбекистон раҳбарияти халқнинг хоҳиш-иродасини ҳисобга олишга, унинг манфаатларини кўзлаб иш қилишга ҳаракат қилганлигида эмас, балки сиёсий элитанинг Кремль билан алоқаларини узишдан манфаатдор эмаслигига бориб тақалади.

Ўзбек халқи ва республикада яшовчи бошқа халқларнинг манфаатини кўзлаб янги ташкил қилинган “Эрк” демократик партияси фаолларининг ташаббуси билан амалга

оширилган дастлабки тадбирлардан бири 1990 йил 20 июнда Ўзбекистон ССР Олий Совети ўн иккинчи чақириқ 2-сессиясида Мустақиллик Декларациясининг қабул қилинганлиги бўлди. Бу муҳим ҳужжат Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш йўлида қўйилган навбатдаги муҳим қадамларидан бири эди .

СССРда мавжуд бўлиб турган ўша пайтдаги сиёсий вазиятда Марказ ҳамон кучли бўлиб, ҳар қандай хатти-ҳаракатлар, жумладан, қуроли ҳаракатлар содир қилган ва қилишга ҳам катта имкониятларга эга бўлган ва тайёр турган шароитда Ўзбекистоннинг суверенитети тўғрисидаги Мустақиллик Декларацияси республика ижтимоий ҳаётида жуда катта сиёсий воқеа бўлди. Чунки совет кўшинлари томонидан 1989 йил апрелда Тбилисида, 1989 йил 8 июнда Қўқонда, 1991 йил 12 – 13 январда Вильнюсда тинч намойишга чиққан одамлар ўққа тутилиши натижасида юзлаб кишилар ҳалок бўлган эди . 1989 йил май-июндаги Фарғона фожиалари ҳамда 1990 йил июнда Ўшда ўзбек халқининг ўлдирилиши эса алоҳида мавзу ҳисобланади. Хуллас, Мустақиллик Декларацияси республика миллий давлат мустақиллигининг ҳуқуқий ва сиёсий асосларини яратиш учун катта хизмат қилди.

1990 йилнинг ўзида Ўзбекистоннинг аста-секин бозор иқтисодиётига ўтишининг мезонлари ва босқичларини белгилаб берган, шунингдек, республика ёшларининг ҳарбий хизматга чақирилиши ва бу хизматнинг ўташи тартибини принципиал тарзда ўзгартиришни ва бошқа бир қанча ижтимоий-сиёсий ҳамда иқтисодий чора-тадбирларни кўзда тутган ҳужжатлар ҳам ишлаб чиқилди. Шу билан биргаликда 1988 – 1992 йилларда Совет Иттифоқининг турли ҳудудларида ҳарбий хизматда ҳалок бўлган юзлаб ўзбек аскар йигитларининг тобути Ўзбекистонга келтирилди. Бу даврда аёллар ўртасида ўз-ўзини ёқиб юбориш Иттифоққа нисбатан Ўзбекистонда бир неча ўн марта юқори кўрсаткични ташкил қилди. Бу энг аввало совет ҳукуматининг миллий ва ижтимоий соҳадаги сиёсатининг ожизлиги ҳамда нўноқлигини кўрсатувчи даҳшатли ва фожиали мисоллардир.

XX асрнинг 80-йиллари охири ва 90-йиллари бошида Ўзбекистон жамиятида сўнгги 70 йил мобайнида биринчи марта кўп партиявийлик ҳолатининг вужудга келиши ноёб воқеа бўлди. 1988 йил 11 ноябрда бир гуруҳ ўзбек зиёлилари, асосан шоирлар ва ёзувчилар томонидан “Бирлик” халқ ҳаракатига асос солинди. Янги ҳаракатнинг бошида Муҳаммад Солиҳ (Салой Мадаминов; 1949 йил декабрда Хоразм вилоятида туғилган) турган эди. Унинг тавсияси билан техника фанлари доктори коммунист олим Абдурахим Пўлатов (1945-2024) “Бирлик” халқ ҳаракати раҳбари бўлди . 1990 йил 28 майда “Бирлик” халқ ҳаракатининг таъсис қурултойи бўлиб ўтди . Ўзбекистоннинг ўша пайтдаги сиёсий раҳбарияти 1989 йил май ойида “Бирлик” халқ ҳаракатининг дастурий ҳужжатларини маъқуллади ҳамда у “Ёш ленинчи” (ҳозирги “Туркистон”) газетасида эълон қилинди. “Фан ва турмуш” журналида ҳаракат фаоллари билан бўлган мулоқот нашр этилди. “Бирлик” халқ ҳаракати ҳузурида Ўзбекистон ёшларининг эркин уюшмаси (1988 йил ноябрда асос солинган) ҳамда “Тўмарис” аёллар ҳаракати ҳам фаолият кўрсатди. Ҳаракатнинг “Бирлик”, “Тўмарис” , “Эркин сўз” ва бошқа газеталари ярим очик ҳолатда нашр этилди ҳамда Ўзбекистон аҳолиси ўртасида тарқатилди. 1989 йил 28 майда Тошкентда бўлиб ўтган Ўзбекистон “Бирлик” халқ ҳаракатининг таъсис конференциясида профессор Абдурахим Пўлатов ҳаракат раиси қилиб сайланди. 1990 йил июнь ойида ҳаракат асосида “Бирлик” партияси ташкил қилинди.

Тошкентда бир гуруҳ шоир ва ёзувчилар, олимлар томонидан 1990 йил бошларида “Эрк” демократик партияси тузилди. Партиянинг раҳбари таниқли шоир Муҳаммад Солиҳ (Салой Мадаминов) эди. У ўз пайтида “Бирлик” халқ ҳаракатига ҳам асос солган эди. 1990 йил 30 апрелда Тошкентдаги республика Билимлар уйида “Эрк” демократик партиясининг биринчи қурултойи бўлиб ўтди . Қурултойни Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов қисқача кириш сўзи билан очди. Шундан сўнгра қурултойни ишчи ҳайъати сайланди. Кун тартибидаги биринчи масала юзасидан Ваколат комиссияси раиси Бахтиёр Исабековнинг маълумоти тингланди ва 2011 нафар партия аъзоларидан қурултойга сайланган 112 нафар делегатнинг ваколати тасдиқланди. Хуллас, Ўзбекистонда илк марта “Эрк” ва “Бирлик”

тимсолида Ўзбекистон Коммунистик партиясига қарши дастлабки сиёсий мухолифат пайдо бўлган эди .

“Эрк” партияси муваққат ташкилий қўмитаси раиси Муҳаммад Солиҳнинг сиёсий маърузаси билан кун тартибидаги иккинчи масала муҳокамаси бошланди. Сиёсий маъруза партиянинг “Эрк” газетасида чоп этилди. Навбатдаги масала хусусида Отаназар Ориповнинг партия Низоми ва Дастури ҳақидаги ахбороти эшитилди. Куннинг иккинчи ярмида партиянинг бошқарув органлари демократик асосда сайлов бўлиб, кўрсатилган 4 нафар номзоддан истеъдодли шоир Муҳаммад Солиҳ “Эрк” демократик партияси раиси қилиб сайланди. Шунингдек, қурултойда партиянинг 35 кишидан иборат турли вилоят ва туман вакиллари таркиб топган бошқарув ҳайъати сайланди. Партия ҳаками этиб СССР халқ депутати, таниқли шоир Эркин Воҳидов, “Эрк” газетаси муҳаррири қилиб адабиётшунос олим Иброҳим Ҳаққул сайланди . Бироқ Э.Воҳидов эртаси куниёқ “Эрк”ни тарк этиб, ўзининг коммунистик эътиқодига содиқ қолди. Партиянинг 1990 – 1992 йилларда Тошкентда нашр этилган “Эрк” газетаси Ўзбекистон аҳолиси ўртасида жуда оммавийлашиб кетди. Бу пайтда газета 100 минг нусхадан ортиқ босилган ва халқ ўртасида тарқатилган.

Қурултой ишида юзга яқин турли ижтимоий-сиёсий ташкилот вакиллари, Ўзбекистон ССР халқ депутатлари, матбуот, радио, телевидение ходимлари меҳмон сифатида иштирок этишди.

Муҳаммад Солиҳ I қурултойда сўзлаган нутқида совет давлати таркибидаги Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритиши зарурлиги тўғрисида шундай фикр билдирган эди: “Сиёсий мустақиллик – у қайси шаклда бўлмасин – жумҳуриятлар учун биринчи ва энг зарур бўлган шартдир. Фақат бу шарт бажарилсагина миллий низолар барҳам топади. Фақат шу йўл билангина биз миллий низодан ҳам даҳшатлироқ бир нарсанинг – граждандар урушини олдини олишимиз мумкин... Биз, бугун шу ерда тўпланганлар – бу ерга кела олмаган, аммо ўзини шу халқ дардида юрибман деб ҳисоблаган барча ижтимоий ва сиёсий гуруҳлар – биз ўша халқ ғазабидан олдинроқ уйғонишимиз керак. Бир-бировга насоқ тақишни бас қилиб, иғво ва фиску фасодни тўхтатиб, бир мақсад атрофида – жумҳуриятимизни мустақил давлатга айлантириш учун уюшмоғимиз керак. Биласизлар, “Эрк” партиясининг ўз олдида қўйган биринчи вазифаларидан бири ҳам – жумҳурият мустақиллигидир” .

Тошкентда 1990 йил 15 июлда бир гуруҳ Ўзбекистон ва Қозоғистон зиёлилари тўпланиб, “Туркистон” халқ ҳаракатига асос солишди. Ҳаракат раиси этиб шоир Баҳром Ғойиб, унинг ўринбосарлари этиб физик олимлар Сейтбой Байдуллаев, Иззатулла Нуриддинов, марказий нашрга масъул муҳаррир этиб шоир Рауф Парфи сайланди. Ҳаракатнинг Марказий назорат ҳакамлиги раиси лавозимига СССР халқ депутати, машҳур шоир Ўлжас Сулаймонов сайланди . “Туркистон” халқ ҳаракатининг Низоми матбуотда эълон қилинди . Тошкентда русийзабон аҳоли вакиллари “Интерсоюз” ташкилоти ва бошқаларга асос солишди.

1992 йил март ойининг охирида “Эрк” партияси, “Бирлик” халқ ҳаракати, бошқа сиёсий кучлар ҳамда Ўзбекистон Олий Кенгашидаги бир гуруҳ демократик кайфиятдаги халқ депутатлари Тошкентда тўпланиб, Ўзбекистон Демократик форумига асос солишди. Форумнинг таъсис мажлисида Муҳаммад Солиҳ қатнашиб, катта маъруза қилди. Ўзбекистон Демократик форумининг иккинчи мажлиси 10 майда ўтказилиб, унда қатнашган Муҳаммад Солиҳ мухолифатнинг расмий ҳукуматга нисбатан тутган йўли ҳақида ўз фикрларини билдирди .

Бу ҳаракат ва партиялар (бу пайтда Ўзбекистонда демократик руҳдаги бошқа сиёсий партиялар ва ҳаракатлар ҳам ташкил топган эди) ошкораликни кенгайтириш, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ислохотларни фаоллаштириш, ўзбек халқи миллий қадриятлари, хусусан, анъаналар ва маросимларни қайта тиклаш, шунингдек, республика ҳаётида Москва ҳукмронлигига барҳам бериш ҳамда Ўзбекистоннинг том маънода сиёсий ва иқтисодий мустақиллигига эришиш талаблари билан чиқди. Бироқ бу ҳаракат ва партияларнинг

раҳбарлари “қора кучлар” ва “халқ душманлари” сифатида жамоатчиликка кўрсатилиб, уларга нисбатан 1992 йил ўрталаридан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Олий Кенгаши томонидан қатағонлик сиёсати юритилдики, бу нарса жамиятдаги фуқаролар тотувлиги ва ҳамжиҳатлигига путур етказа бошлади. Хуллас, Каримов режими конструктив муҳолифатга нисбатан қатағон чораларини шиддат билан қўллади.

Ўзбекистон ҳукуматининг кўрган бу чоралари натижасида 1992 йил кузидан бошлаб “Бирлик” ва “Эрк” партиялари ҳамда бошқа сиёсий ташкилотлар ва ҳаракатлар Ўзбекистон ҳудудида ўз сиёсий фаолиятини тўхтатишга мажбур бўлди.

1989–1991 йилларда Ўзбекистоннинг миллий манфаатлари бўйича Иттифоқ Маркази билан Ўзбекистоннинг янги сиёсий раҳбарияти ўртасидаги зиддиятлар тобора кескинлашди. Бу даврда Болтиқбўйи ва Кавказorti республикалари бўлган Литва, Латвия, Эстония, Молдавия, Грузия ва Озарбайжондан ташқари бошқа кўпчилик иттифоқдош республикалар, шунингдек, Ўзбекистон ССР ҳам СССР таркибидан чиқиб кетиш тўғрисида фикр билдирмай, бироқ ўз-ўзини бошқариш ҳуқуқини, миллий давлат суверенитетига бўлган ҳуқуқни амалга ошириш зарурлиги ва Иттифоқ давлатидаги Марказ ролини сиёсий, иқтисодий, ҳарбий ва ташқи сиёсат жиҳатларини қайта кўриб чиқиш зарурлиги тўғрисида тамомила ҳақли, халқаро ҳуқуқ нормаларига мос келувчи тенг сиёсий ва иқтисодий талабларни олдинга қўя бошладилар.

Ўзбекистон ССР Президенти И. Каримов 1990 йилнинг март ойидаёқ республикалар билан ССР Иттифоқи (СССР) ўртасидаги ваколатларни аниқ-равшан ажратиш қўйишни кўзда тутадиган янги федератив шартнома ишлаб чиқиш зарурлиги тўғрисида фикр билдирган эди. Бироқ Москвадаги марказий партия ва совет раҳбарияти, жумладан, КПСС Марказий Комитети иттифоқчи республикалар ва қардош халқлар сиёсий раҳбариятининг чинакам суверенитетига интилиши билан ҳисоблашиш ниятида эмас эди. Болтиқбўйи ва Кавказортидаги воқеаларга, Ўзбекистон ССР ва бошқа республикаларда президентлик бошқарувининг жорий этилишига ва бу республикалар томонидан суверенитет тўғрисидаги Декларациялар ва Баёнотномаларнинг қабул қилинишига Марказнинг ғайритабиий равишда кескин қаршилик кўрсатгани ана шундан далолат беради.

Шундай бўлса-да, мамлакатнинг бошланиб келаётган емирилишидан жиддий хавотирликка тушган ва кўрқиб қолган партия-давлат раҳбарияти СССРда чуқурлашиб бораётган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий инқироз тазйиқи остида 1990 йил кузида иттифоқ Маркази билан республикалар ўртасида муносабатларни янгилаш юзасидан музокара жараёнини бошлашга мажбур бўлди. Лекин у 1991 йил баҳорига қадар иттифоқдош республикаларга бериладиган ҳуқуқлар ва кафолатларда ҳал қилувчи ролни ўйнашга уриниб, республикалар ҳаёт-фаолиятининг деярли барча соҳаларида ўзининг ҳукмронлик вазиятини сақлаб қолишга интилди.

Ўзбекистон сиёсий раҳбариятининг янги Иттифоқ шартномасини тузишга доир музокаралардаги позицияси СССР давлатининг сўнги босқичи (1991 йил март-декабрь ойлари)да айниқса фаол бўлди. 1991 йил мартда Киевда, ўша йилнинг апрелида Москва яқинидаги Ново-Огарёвода СССР Президенти ва тўққизта иттифоқдош республика раҳбарлари учрашишди. Ўзбекистон ССР раҳбарияти минтақадаги бошқа совет республикалари, хусусан, Қозоғистон ССР раҳбарияти сингари 1991 йил ўрталари ва охирида ҳам совет давлатини сақлаб қолишнинг ашаддий тарафдори бўлганлигини таъкидлаб ўтишга бурчлимиз. Коммунист президентлар Каримов ва Назарбоев СССР парчаланган 1991 йил 26 декабрдан кейин ҳам Янги Иттифоқ шартномаси тузилиши ва совет давлатини қайта тиклашнинг ашаддий тарафдори бўлишган.

1991 йил март ойида Марказ ва республикалар вакиллари томонидан Иттифоқ шартномасининг бошқа лойиҳаси тайёрланди. Бу лойиҳа 1991 йил 12 мартда “Суверен республикаларнинг иттифоқи тўғрисида шартнома” лойиҳаси номи билан марказий ва республика матбуотида эълон қилинди. Мазкур ҳужжатнинг асосий ғояси – кўп миллатли

иттифоқ давлатини федерация сифатида сақлаб қолиш ва шу билан бирга республикалар суверенитетини рўёбга чиқариш туфайли Марказнинг янги вазифаларини ҳам белгилаш эди. Гарчи лойиҳа республикаларнинг суверенитети тўғрисидаги декларациясини ҳисобга олган бўлса-да, бу “суверен давлатлар” эмас, балки “суверен республикалар” иттифоқи тўғрисидаги шартнома эди. Кейинчалик 1991 йил 23 апрелда СССР Президенти М.С. Горбачёв ва тўққизта иттифоқдош республикалар раҳбарлари иштирокида (бу музокараларда Литва, Латвия, Эстония, Грузия, Арманистон, Молдавия республикалари раҳбарлари қатнашмади) Москва яқинидаги Ново-Огарёвода бўлиб ўтган йиғилишда принципиал низоли масалалар юзасидан томонларни қаноатлантирадиган битимга келишди – “Суверен Давлатлар Иттифоқи тўғрисида”ги шартномани тузишга келишиб олинди. Ўзбекистон делегацияси музокараларнинг бориши жараёнида янгиланган иттифоққа киришнинг ўзи учун жуда муҳим бўлган шартини – барча республикалар аҳолиси учун ягона бўлган пенсия билан таъминлаш, даромадларни индексация қилиш ва кун кечириш учун зарур бўлган кафолатланган энг кам миқдор тартиби амал қилишини қаттиқ туриб ҳимоя қилди. Бироқ “янги ўзбек сиёсатчилари” ҳисобланган миллий элита музокаралар жараёнида Ўзбекистон мустақиллиги тўғрисида Кремль раҳбарларига гапиришни хохламадилар.

1991 йил 17 мартда биринчи марта СССРда умумхалқ референдуми ўтказилди. Унда “Тенг ҳуқуқли мустақил республикаларнинг янгиланган ҳамда ҳар қандай миллатга мансуб кишининг ҳуқуқ ва эркинликларига тўла даражада кафолат бериладиган федерация сифатида Совет Социалистик Республикалари Иттифоқини сақлаб қолишни зарур деб ҳисоблайсизми?” деган масала кўрилди. Ўзбекистон ССР ҳудудида эса референдум пайтида кўшимча бюллетень киритилиб, унда “Ўзбекистон янгиланаётган Иттифоқ (Федерация) таркибида мустақил тенг ҳуқуқли жумҳурият бўлиб қолишига розимисиз?” деган савол кўйилди. Референдумда рўйхатга киритилган Ўзбекистон ССР аҳолисининг 10 287 938 фуқаросидан 9830782 киши қатнашиб, “Тенг ҳуқуқли мустақил республикаларнинг янгиланган федерацияси сифатида СССРни сақлаб қолиш учун” 9196848 киши ёки 99,7 фоиз овоз берди.

Афсуски, совет давлатини сақлаб қолиш тарафдорларининг бундай “сидқидил содиқлик” хатти-ҳаракатлари Ўзбекистонда мустақиллик йилларида унутилишга маҳкум қилинди. Ислон Каримов режими даврида ҳам, кейинчалик ҳам бу “ҳақиқат”ни ошкор этишдан манфаатдор бўлмаган айрим сиёсатдонлар ва тарихчилар ўзлари билиб-билмаган ҳолда советпараст ва ўриспараст кучларнинг тегирмонига сув куйишмоқда.

СССР Президенти ва тўққизта иттифоқдош республикалар (РСФСР, Украина, Белоруссия, Ўзбекистон, Қозоғистон, Озарбайжон, Тожикистон, Қирғизистон ва Туркманистон) раҳбарларининг 1991 йил 23 апрелда бўлган Ново-Огарёводаги учрашувида “Мамлакатдаги аҳволни барқарорлаштириш ва тангликни бартараф этишга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида қўшма баёнот” қабул қилинди. Баёнотда янги Иттифоқ шартномаси ҳужжати лойиҳасини тайёрлаш ишини яқин вақт ичида тугаллаш таъкидланди. Қўшма баёнот “9+1” (тўққизта республика+Марказ) деган номни олди. Бироқ бу қўшма баёнот ҳам ўша вақтдаги бошқа кўпгина ҳужжатлар сингари фақат газета саҳифаларида қолиб кетди, чунки марказий ҳокимият тузилмалари буюк давлатчилик шовинизми ва империяпарастлик мавқеиларини сақлаб қолиш ташвишида бўлиб, энди ўз вазифаларини амалда бажармас эдилар. 1991 йил баҳори-ёзига келиб, ҳокимиятни юқори (Москва) янгича бошқара олмайдиган, куйи (республикалар) эса эскича яшай олмайдиган вазият юзага келди.

1991 йил июнь ойидагина бир қанча баҳсли принципиал масалалар юзасидан 9+1 музокаралари доирасида келишилган битимга эришилди ҳамда 28 июнда “Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисида шартнома” лойиҳаси Ўзбекистон матбуотида эълон қилинди. Ниҳоят, 1991 йил 16 августда Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисида шартнома

хам (1991 йил 23 июлда келишиб олинган) Ўзбекистон матбуотида эълон қилинди. Бу музокараларда Ўзбекистон ССР Президенти И. Каримов фаол қатнашди. 20 августда янги Иттифоқ шартномаси имзоланиши керак эди.

Аслини олганда ҳатто янгиланган Иттифоқ ҳам Ўзбекистон ва бошқа республикаларни мустабид совет тузумининг қайта тикланиш хавфидан сақлаб қололмасди. Бироқ жамиятнинг демократлашуви натижасида совет режимининг қудратига зил кетди, ижтимоий тузумнинг ва миллий муносабатларнинг сифат жиҳатидан янги тамойилларига ўтиш учун реал имкониятлар очилди.

Шу билан бирга 1991 йил ёзи ва кузида СССР давлатини сақлаб қолиш учун Марказ раҳбарияти бир қатор чоралар кўрди. Иттифоқ шартномасини тайёрлаш янги босқичга кўтарилди. Буни қуйидаги фактлар мисолида кўриш мумкин.

1991 йил 13 июнда Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг ўн иккинчи чақириқ 5-сессиясида Ўзбекистон ССР вице-президенти Ш. Мирсаидов “Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисида”ги шартнома лойиҳаси ҳақида маъруза қилди. Ўзбекистон ССР Олий Кенгашининг “Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисида”ги шартнома лойиҳаси ҳақида қарори қабул қилиниб, мазкур лойиҳа маъқулланди.

1991 йил 28 июнда “Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисидаги шартнома” лойиҳаси Ўзбекистон матбуотида эълон қилинди.

1991 йил 16 августда Мустақил давлатларнинг Иттифоқи тўғрисида шартнома (1991 йил 23 июлда келишиб олинган) Ўзбекистон матбуотида чоп этилди.

1991 йил 17 – 19 август кунлари Ўзбекистон ССР Президенти Ислон Каримовнинг Ҳиндистон Республикасига республика раҳбари сифатида илк мустақил расмий ташрифи бўлди. Ташриф доирасида иқтисодий, савдо ва илмий-техникавий ҳамда маданий, санъат, таълим, фан, туризм, спорт ва оммавий ахборот воситалари соҳасида ҳамкорлик қилиш тўғрисидаги битимлар имзоланди. Тарихчилар кейинчалик иддао қилганидек, бу ташриф билан мамлакатимиз ташқи сиёсатининг тамал тоши қўйилди.

СССР ҳудудида яшовчи барча аҳоли янги Иттифоқ шартномаси имзоланишини кутаётган бир пайтда СССР Президенти М.С. Горбачёв билан унинг яқин сафдошлари ўртасида ҳокимият учун курашда ихтилоф вужудга келди. 1991 йил 18 августда СССР вице-президенти Г. Янаев, СССР Бош вазири В. Павлов, СССР Мудофаа кенгашининг биринчи ўринбосари О. Бакланов “Совет раҳбариятининг баёноти” билан чиқиб, СССРда Фавқулодда ҳолат Давлат комитети тузилганлигини эълон қилишди. Совет халқига мурожаатнома қабул қилинди. М.С. Горбачёв саломатлиги ёмонлашганлиги сабабли 19 августдан бошлаб Г. Янаев ўзини СССР Президенти вазифасини ижро этувчи, деб эълон қилди.

Хуллас, 1991 йил 19 – 21 августда Москвада СССР парчаланиши жараёнининг олдини олишга қаратилган давлат тўнтаришига уриниш бўлди. СССР ҳудудида Фавқулодда ҳолат Давлат Комитети (ГКЧП) тузилди. СССР вице-президенти Геннадий Иванович Янаев унга раҳбарлик қилди. Комитет таркибига КПСС МК раҳбарлари, СССР ДХК раиси, СССР Мудофаа, Ички ва Ташқи ишлар министрлари кирган эди. Бу пайтда Қиримда дам олаётган СССР Президенти Михаил Сергеевич Горбачёвнинг саломатлиги ёмонлашди, деб эълон қилинди. Москвага қўшин киритилди. Бироқ ушбу путч РСФСР Президенти Борис Николаевич Ельцин раҳбарлигида демократик кайфиятдаги Москва аҳолиси томонидан бостирилганлиги СССР парчаланишини тезлаштириб юборди. М. Горбачёв Москвага қайтгач, кейинчалик Фавқулодда ҳолат Давлат Комитети аъзоларига қарши жиноий иш қўзғатилди. Путч барбод бўлгач, КПСС сиёсий партия сифатида ўз фаолиятини тўхтатишга мажбур бўлди ҳамда СССРдаги иттифоқдош республикалар ўз мустақилликлари ва суверенитетларини эълон қилишди.

1991 йил 20 августда Ўзбекистон ССР Олий Кенгаши Раёсати, Ўзбекистон ССР Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг Қорақалпоғистон, вилоятлар ва Тошкент шаҳар раҳбарлари иштирокида қўшма мажлиси ўтказилди. Мажлисида ГКЧП фаолити тўлиқ

қўллаб-қувватланди. Мажлис баёноти ҳамда Ўзбекистон ССР Президенти, Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби Ислон Каримовнинг республика аҳолисига мурожаати 21 августда матбуотда эълон қилинди .

Бироқ Москвада путч (исён) барбод бўлгач, Ўзбекистон ССР Президенти Ислон Каримовнинг 21 августда махсус Фармони қабул қилиниб, унда СССРда Фавқулодда ҳолат Давлат Комитетининг СССР Конституцияси ҳамда қонунларига, Ўзбекистон ССР Конституцияси ҳамда қонунларига зид келадиган фармонлари ва қарорлари ҳақиқий эмас, деб ҳисобланди . Холисона айтганда Ўзбекистонда ГКЧП фаолиятига ўша таҳликали кунларда фақат “Эрк” партияси қаршилик кўрсатган эди. Бу тарихий ҳақиқатни ҳам, афсуски, юртимизда бугун кўпчилик унутиб қўйган.

1991 йил август ойининг охири кунлари Ўзбекистонни тобора мустақилликка яқинлаштира бошлади. Август ойи охири ўн кунлигининг солномасига бир эътибор қаратайлик:

24 августда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети бюроси ва Марказий Назорат Комиссияси Раёсатининг баёноти эълон қилиниб, Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби И.А. Каримовнинг бундан кейин КПСС МК Сиёсий бюросининг ҳозирги таркибида қола олмаслиги тўғрисидаги баёнотини қўллаб-қувватлади.

1991 йил 25 августда Ўзбекистон ССР Президентининг Фармони қабул қилиниб, Республика Ички ишлар вазирлиги ва Давлат хавфсизлик комитети Ўзбекистон ССРнинг қонуний тасарруфига олинди. Бу фармон 27 августда республика оммавий ахборот воситаларида эълон қилинди.

1991 йил 27 августда Ўзбекистон ССР Президенти Фармони қабул қилиниб, Ўзбекистон ССР ҳудудида фаолият кўрсатаётган ижодий уюшмалар, кўнгилли жамиятлар ва жамғармалар, уларнинг бўлимлари ва корхоналари партия тасарруфидан чиқарилди. Шундай қилиб, Ўзбекистонда ҳам коммунистик партиянинг яқка ҳукмронлигига чек қўйишга киришилди.

1991 йил 28 августда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети билан Марказий Назорат Комиссиясининг қўшма пленуми бўлиб ўтди. Унда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи котиби, Ўзбекистон ССР Президенти И.А.Каримов “Мамлакатда 19 – 21 август кунлари содир бўлган фожиали воқеалар ва республика партия ташкилотларининг вазифалари тўғрисида” маъруза қилди .

Хуллас, санокли кунлар ичида КПСС ва СССР таназзулга учради. КПСС сиёсий партия сифатида 1991 йил 29 августда ўз фаолиятини тўхтатди. Ўша куни КПССнинг Ўзбекистон ССР ҳудудидаги мулки республика мулки, яъни умумхалқ мулки деб эълон қилинди .

Шундай қилиб, вужудга келган ўта оғир шароит, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий қийинчиликларга, турли тўсиқларга қарамасдан, ўзбек халқи ўзининг асрий орзуси – Ўзбекистоннинг давлат суверенитети ва мустақиллигини қайта тиклаш сари қатъият билан ҳаракат қилишда давом этди.

Нихоят, орзиқиб қутилган қутлуғ сана — 1991 йилнинг 31 август куни етиб келди. Ўша куни бўлиб ўтган Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўниккинчи чақириқ навбатдан ташқари 6-сессиясида Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги тўғрисида Олий Кенгаш баёноти ва Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллиги асослари тўғрисида” Қонуни қабул қилинди. Тегишли қарорга мувофиқ Ўзбекистон ССРнинг номи Ўзбекистон Республикаси деб ўзгартирилди . Шундай қилиб, 1991 йил 31 августда мазкур сессия йиғилишида Ўзбекистон ССР Президенти Ислон Каримов тантанали равишда Ўзбекистон Республикаси мустақиллигини эълон қилди. (Бироқ сессияда қабул қилинган барча ҳужжатлар фақат Москванинг розилиги олинганидан сўнг орадан бир ҳафта ўтгач, 1991 йил 5 сентябрда республика марказий матбуотида чоп этилди .)

Хулоса қилиб айтганда, Кремль раҳбарияти кўрган барча чора ва тадбирларга қарамай 1991 йил августда юз берган воқеалар, хусусан, Москвада ташкил қилинган ГКЧПнинг демократик кучлар томонидан бостирилиши СССРнинг парчаланишини тезлаштириб юборди. КПСС таназзулга учради. Совет Иттифоқи тарқалиб кета бошлади. Бу ҳолат Ўзбекистонда кескинлашган ижтимоий-сиёсий вазиятни изга солиш, мустақилликни эълон қилиш учун қулай имкониятлар яратди.

1991 йил 1 октябрда Олмаота (Қозоғистон)да Мустақил давлатларнинг Иқтисодий ҳамжамияти тўғрисидаги ахборотни 12 республика раҳбари, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримов ҳам имзолади.

1991 йил 18 октябрда Москвада саккиз республика (Арманистон, Белоруссия, Қозоғистон, Қирғизистон, Россия, Тожикистон, Туркманистон, Ўзбекистон) раҳбарлари суверен республикаларнинг Иқтисодий ҳамкорлиги тўғрисидаги шартномани имзолادилар. Шартномани СССР Президенти М.С. Горбачёв ҳам имзолаб тасдиқлади.

1991 йил 24 октябрда “Иқтисодий ҳамжамият тўғрисида шартнома” Ўзбекистон матбуотида эълон қилинди .

1991 йил 25 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг “Деловой мир” газетасига берган интервьюси “Биз конфедерация тарафдори!” деган ном билан “Ўзбекистон овози” газетасида босилиб чиқди .

1991 йил 28 ноябрда Мустақил Давлатлар Иттифоқи тўғрисидаги шартнома лойиҳаси Ўзбекистон матбуотида эълон қилинди.

1991 йил 25 декабрда Кремлда совет давлатининг байроғи Россия байроғи билан алмаштирилди. М.Горбачёв СССР Президенти лавозимидаги фаолияти тугагани ҳақида баёнот берди. Россия Федерацияси СССРнинг ҳуқуқий вориси сифатида барҳам топди. 1991 йил 26 декабрда СССР давлати ҳам халқаро ҳуқуқ субъекти сифатида барҳам топди. Айнан бу санада СССР мавжудлиги ҳам расмий равишда тугади СССР Олий Советининг сўнгги мажлисида қонуний равишда СССР тарқатилганлиги эълон қилинди .

POYTAXTSHUNOSLIKDA “SHAHAR” TUSHUNCHASI: TARIX, BUGUN VA KELAJAK

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: maqolada jahon poytaxt shaharlarining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy talqini yoritilgan. Shuningdek, maqolada poytaxtshunoslikda shahar tushunchasining tarixiy va geografik xususiyatlari, ularning tahlili bayon etilgan.

Kalim sўzlar: Poytaxt, shahar, tarixiylik, zamonaviylik, tasnif, tasnifiy birliklar.

ПОНЯТИЕ «ГОРОД» В УРБАНИСТИКЕ: ИСТОРИЯ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Байкабилов Хуснудин Марданович

Ташкентский государственный университет востоковедения

Независимый научный сотрудник кафедры «История и антропология стран Востока», Доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент

Аннотация: В статье рассматривается историческое развитие и современная интерпретация мировых столиц. Кроме того, в статье описываются историко-географические особенности концепции города в метрополитенских исследованиях и их анализ.

Ключевые слова: Столица, город, историчность, современность, классификация, единицы классификации.

THE CONCEPT OF “CITY” IN URBAN STUDIES: HISTORY, PRESENT AND FUTURE

Baykabilov Xusnudin Mardanovich

Tashkent State University of Oriental Studies

Independent researcher of the Department of “History and Anthropology of the Eastern Countries”, Doctor of Philosophy (PhD) in Geography, Associate Professor

Abstract: The article covers the historical development and modern interpretation of world capital cities. In addition, the article describes the historical and geographical characteristics of the concept of a city in metropolitan studies, and their analysis.

Key words: Capital, city, historicity, modernity, classification, classification units.

Kirish. Albatta har qanday jarayonning o‘zgarishi va rivojlanishi uning tarixiylikini isbotlab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda urbanizatsiyaning tarixiy jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, tarix fanining tadqiqot obyektlaridan biri shaharlarning paydo bo‘lishi, ularning turli davrlarda mamlakat va boshqa hududlarni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga ta’siri va ayniqsa, qadimgi ilk urbanizatsiya muammolari ushbu fanning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Sababi – shaharlar, mavjud va turli sabablar natijasida rivojlanishdan to‘xtab qolgan qadimgi shahar xarobalarini o‘rganish asosida tarixchilar mamlakatlarning o‘tmishini retrospektiv o‘rganish yordamida asoslab beradi. Poytaxt shaharlar alohida boshqaruv tartibi bo‘lgan mustaqil ma’muriy birlikka ajratiladi. Ko‘pgina federativ davlatlarda poytaxt federatsiyaning biron-bir subyekti hisoblanmaydigan maxsus federal okrug hududida joylashgan bo‘ladi. Muayyan mamlakatlarda poytaxt qayerda bo‘lishi konstitutsiya matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatiladi.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida "O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri" deyilgan [1]. Shaharlarni ko'zga desak, mubolag'a hisoblanmaydi. Bugungi kunda mamlakatlarning taraqqiyotiga baho beradigan bo'lsak, uning shaharlariga, xususan, poytaxt shaharlariga qarab xulosa chiqaramiz.

Asosiy qism. Shaharshunoslik tarixi fanning yangi tarmoqlaridan biri bo'lib, u XX yuzyillikning shiddatli urbanizatsiya davrida yuzaga kelgan. Sharqshunoslar o'rta asrlar shaharlarini o'tgan yuzyillik boshlarida – shaharlar tarixiy topografiyasi bo'yicha materiallar to'planib, arxeologik qazishmalar uchun sharoit tug'ilishi bilan o'rgana boshladilar. Bu bosqich shaharlar taraqqiyoti va ularning mavjud bo'lishi uchun shart-sharoitlar hamda shaharning namoyon bo'lishini umumiy o'rganishni o'ziga maqsad qilgan shahar to'g'risidagi kompleks fan – urbanistikaning iqtisodiy geografiyadan ajralib chiqishiga to'g'ri keladi. Urbanistika fanini birinchi o'rinda zamonaviy shahar va uning rivojlanish kelajagi qiziqtirar edi. Biroq shaharga o'zining shakllanish qonuniyatlari va makon taraqqijiga ega alotsida ijtimoiy-iqtisodiy organizm o'laroq yondashish uning o'tmishini ham samarali o'rganish imkonini berdi hamda tarixchilar ilk bor shaharning o'zi nima ekani to'g'risida o'ylab qolishdi. Shahar yoki, urbanizm tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni biror-bir fan tarmog'i yoki bitta konsepsiyaning o'zi bilan anglash qiyin. Jahon fanida, shahar tushunchasiga doir nazariyalarning ko'pligiga qaramay, ulardan birortasi ham alohida olingan holda ushbu fenomenni to'laligicha tushuntirib bera olmaydi. O'z ko'lami va xususiyatlari bilan ham urbanizmning katta farqlarga egaligini ko'rsa bo'ladi. Shatsarlarning o'lchami, shakli va funksiyasi o'tmishdagi individual shahar an'alariga bog'liq holda, shuningdek, turli xil an'alararo ham bir-biridan farqlangan. Tarixshunoslikda G.Chayld, M.Veber, L. Virt, L.Mamford, G.Shoberg, M. Smit, K. Tilli kabi arxeolog, urbanist (yoki urban historian) va sotsiologlarning izlanishlarida, shahar tushunchasi va uning demografik hamda funksional mezonlariga birmuncha oydinlik kiritilgan. Qisqasi, arxeologlar ilk shaharlarni aniqlash va identifikatsiya qilish uchun 3 xil yondashuv – ta'rif (definitsiya), tipologiya (turlarga ajratish) va atributlar (mezonlar)ni qo'llaydilar. XVIII yuzyillikda arxeologlar Yaqin Sharqda o'zlarining dala izlanishlarini shaharlardan boshladilar, chunki ular bu shaharlardan eng katta yodgorliklarni va eng boy tortiqlarni topdilar. Bugungi kunda bu yondashuv ayrim yerlarda saqlanib qolmoqda, biroq ko'pchilik arxeologlar qadimgi shahar yodgorliklariga ko'proq tahliliy yondashadilar. Eng keng tarqalgan konseptual yondashuv siyosiy iqtisoddan kelib chiqadi. Arxeologlar qishloq xo'jaligi ishlab shiqarishi va demografik ko'rsatkichlarni shahar dinamikasining muhim omillari o'laroq ko'rishadi. Arxeologlar, shahar va urbanizatsiya atamalarini tushuntirishda ikkita bir-biri qarama-qarshi ta'rif (definitsiya)ni ishlatadilar. Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, geourbanistikada shaharlar taraqqiyotini ilmiy-nazariy asoslash, shaharlarni geografik xususiyatlari va nomlanish masalalarini tahlil etish va shaharsozlikning zamonaviy konseptual yondashuvlari asosida poytaxt shaharlar tipologiyasini ishlab chiqish kabi masalalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, poytaxt shaharlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va iqtisodiy geografik omillarni ochib berish, poytaxt shaharlarni belgilash tendensiyalari, ko'chirish va kelajakda poytaxtlarni davriy prognozlash tendensiyalarini ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Poytaxt shaharlar qanday paydo bo'lgan? Avvalo "shahar" degan so'zning o'zi qanaqa ma'noni anglatadi? Sayyoramizning turli mamlakatlarida va turli davrlarda shaharlar haqidagi tushunchalar ko'p marta o'zgardi. Shuning uchun ham tasavvurimizda shaharlar tushunchasi xilma-xildir. Mashhur olim V.V.Davidovning ta'kidlashicha, tushunchada barcha bilimlarning genetik tabiati namoyon bo'ladi [2].

"Shahar" tushunchasi bilan aholi punktlari hududidagi aniq chegaralarning alohida shakllari vujudga kelgan. Ana shunday aholi punktlarining tashqi ko'rinishining birinchi belgisi shahar devori (qo'rg'oni) bo'lib, u mudofaa maqsadi uchun xizmat qilish bilan birga shahar yadrosining asosiy chegarasi hisoblangan. Masalan, qadimda eng mashhur bo'lgan, aholisini asosan dehqonlar tashkil etgan shaharlarni hozirgi davr o'lchovi bilan qaraganimizda, shahar aholi punktlari

maqomiga qo‘shmagan bo‘lar edik. Dunyoda ko‘plab katta-kichik shaharlar mavjud. Shunga monand shahar haqidagi tushunchalar ham turlichadir. Masalan, Qo‘qon shahri – atrofidagi qishloqlar uchun u katta shahar, poytaxt esa eng katta shahar hisoblanadi. Lekin jahondagi Parij, London, Tokio oldida Toshkent kichik shahar hisoblanadi. Sotsiologlarning fikricha, shaharlik maqomini olguncha kishilarning bir necha avlodi shaharda yashab turgan va uning turmush-tarzini singdirishi kerak ekan [3].

Shahar deganda nimani tushunish lozim? degan savol bilan maxsus shug‘ullangan amerikalik tadqiqotchi R.Somplinson shaharlarni aniqlashdagi 15 ta belgini taklif etgan. Ularning asosiylari quyidagilar: shahar – aholi zich joylashuvi bilan farqlanadi, shaharning asosiy vazifasi – mahsulot tarqatish, shahar – aloqa yo‘llar markazi, shahar – iste‘mol markazi va boshqalar. Bugungi kunda davlatlarni shaharlarga maqom berishi ikki xil yo‘l bilan, birinchisi aholi soni, ikkinchisi aholining bandligi hisobga olingan tarzda qonuniy yo‘l bilan beriladi [4].

Yevropalik xalqlarda jumladan, nemislar uchun shaharni belgilaydigan so‘z “shtadt” (stadt) bo‘lsa, ingliz xalqlarida “tow cite” atamasi shaharni anglatadi. Fransuzlarda ham cite so‘zining o‘zi shaharni ifodalaydi. Shvedcha Staden so‘zi ma‘lum klass shaharlarni ifoda etsa, Norvegiyada bu so‘z shahar degan ma‘noni bildiradi. Rus tilida “shahar” so‘zi tarixan o‘ralgan, to‘silgan – dushman, yovlar hamlasidan saqlanish maqsadi bilan bog‘liq bo‘lgan aholi punktini ifodalaydi. Rossiyada XVIII asr boshlarida atrofi o‘ralgan joylar “qo‘rg‘onlar” shahar hisoblangan. Shaharlar mudofaasi tobora takomillashib bordi, ularning atroflarida mustahkam qal‘a va qo‘rg‘onlar qad rostladi. Shu munosabat bilan “shahar” – “город”, ya‘ni slavyan tilida “градъ” atamasi yuzaga keldi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda, ushbu atama – “chegaralangan” degan ma‘noni anglatadi. Polyakchada “град” – “qal‘a” degan ma‘noni bildiradi [5].

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, “shahar” tushunchasi barcha el va yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir xil talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli davlatlarda turlicha belgilanadi. “Shahar” forscha so‘z bo‘lib, “qal‘a” (rus tilida “город” – огородить, ya‘ni “o‘rab olmoq”) ma‘nosini anglatadi [6].

Shahar – tarixan tarkib topgan aholi manzilgohidir. Shahar tushunchasi nisbiy bo‘lib, qaysi aholi manzilgohini shahar deb yuritish lozimligi borasida olimlar tomonidan hanuzgacha bir fikrga kelinmagan (1.1-jadval).

1.1-jadval

“Shahar” tushunchasiga berilgan ba’zi ta’riflar

№	Muallif(lar) nomi	Ta’rif	Ilmiy manbalarning nomi
	Inomov I.	<i>Shahar – bu yirik aholi punkti, sanoat, tashkiliy-xo’jalik, boshqarish, madaniy, transport va boshqa (qishloq xo’jaligi bo’lmagan) funksiyalarni bajaruvchi joydir</i>	Иномов И. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари(шаклланиши ва ривожланиши). – Т.: “Меҳнат”, 1991. 104 б. 4-бет.
	Kadirov M.A.	<i>Shahar – aholining 75 foizi qishloq xo’jaligi bilan band bo’lmagan aholi punkti</i>	Кадиров М.А.Шаҳарлар географияси.Самарқанд: “Zarafshon”, 2019. – 192 б. 116-бет.
	Madvaliyev A.	<i>Shahar – aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko’rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo’lgan yirik ma’muriy, madaniy aholi manzilgohi</i>	Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот – Шукр – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020. 608 б. 560-бет.
1.	Mustafoyev B.	<i>Shahar – asosan sanoat (ishlab chiqarish), tijorat, madaniy-ma’rifiy va boshqa noqishloq xo’jalik faoliyati bilan shug’ullanadigan muayyan miqdordagi aholi soniga ega bo’lgan aholi punkti</i>	Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. – Т.: “Ўқитувчи”, 2006. 584 б. 468-бет.
2.	Soliyev A., Ahmedov E.	<i>Shahar – aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko’rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo’lgan yirik aholi manzilgohi</i>	Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ-Қизилқум. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 656 б. 20-бет
5.	Qayumov A. va boshq.	<i>Shahar deb aholisining asosiy qismi qishloq xo’jaligidan boshqa tarmoqlarda band bo’lgan aholi punktlariga aytiladi.</i>	Qayumov A. va boshq. Geografiya. 9-sinf. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2019. 176- b. 35-bet.

Akademik V.V.Bartold tomonidan ishlab chiqilgan shahar haqidagi konsepsiya O'rta Osiyo shaharsozligi masalalarini tadqiq etish jarayonida nisbatan ko'proq yoyilgan bo'lib, tadqiqotchi bu konsepsiyasida IX-XII asrlar shaharlari uchun uch qismli tuzilish (ark, shahriston, rabot) xususiyatli deb hisoblaydi [7]. Ammo, shunga e'tibor berish lozimki, ushbu xususiyat faqat o'rta asrlar shaharlariga xos bo'lib, yanada qadimgiroq davr shaharlari tuzilishi bundan mustasno. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra ilk shaharlar rivojlanishida yagona reja yo'qligi va uch qismli shahar tuzilishi O'rta Osiyoning barcha shaharlari xos emasligi tasdiqlanmoqda. Chunki dastlabki shaharlar, antik davr yoki o'rta asrlar shaharlari tuzilishi va bajargan vazifasi jihatidan bir xil bo'lmasligi mumkin. Tadqiqotchilar shahar tushunchasini ularning vazifaviy holati nuqtai nazaridan ham ifodalaydilar. Bu borada ayrim xorijlik olimlar manzilgohlarning bosqichma-bosqich rivojlanishida siyosiy jihatdan ustun mavqeiga ega bo'lgan har qanday manzilgohni shahar deb e'tirof etadilar. Boshqa olimlar esa aholisi dehqonchilik bilan shug'ullanmaydigan manzilgohlarning barchasini shaharlar qatoriga kiritishni taklif etadilar. Bir guruh olimlar siyosiy markaz vazifasini bajargan manzilgohlarni shaharlar deb hisoblaydilar [3].

Qadimda odatda shaharlarning ichki – markaziy qismi mudofaa devorlari bilan o'ralgan, bu yerda saroy, hukmdorlar va ular oilalarining qo'rg'onlari, muhim ma'muriy-diniy binolar, bosh maydon (registon), ba'zilarida oddiy aholi xonadonlari ham bo'lgan va u shahriston deb atalgan. Darvozalar orqali ularga kirib chiqilgan. Uning atroflarida "rabot" deb ataluvchi devorlar bilan o'ralgan shaharning tashqi qismlari ham bo'lib, bu yerdan bog'lar, keyinchalik oddiy aholining uy-joylari o'rin olgan. Bundan buyon shaharlar tarixini fanlararo yondashuv doirasida o'rganishga to'g'ri keladi. Aslini olganda, "shahar" tushunchasi bilan "shahar maydoni" o'rtasidagi bog'liqlik urbanologiya (shaharshunoslik) kategoriyalari orqali shahar makonini o'rganish yo'llari mavjud. Shahar semiotik makonining xususiyatlari, jumladan, "markaz" yoki "chekka" kabi tushunchalar, ularning bir-biriga nisbatan nafaqat hududiy va landshaft, balki tarixiy kontekst, ya'ni zamonlar nuqtai nazaridagi harakati o'zgarib turadi. Murakkab tizim sifatida shahar iqtisodiyot, siyosat, jamiyat, madaniyat, tabiat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu "shahar" va "shahar makoni" tushunchalarining bir-biriga bog'liqligi va o'xshashligini ko'rsatadi. Ilgari shahar maydoni tushunchasining umumiy xususiyatlari uning shakli va kattaligidan kelib chiqar edi. Bu shahar atamasidan farqli o'laroq, dastlab aholi, jamiyat bilan bog'liq edi. Hududni rejalashtirish, taqsimlash va uning faoliyat ko'satishi muayyan vaqt o'tishi bilan "shahar maydoni" tushunchasini kengaytirdi [3]. Birinchidan, fanda shahar deganda muayyan aholi soniga ega bo'lgan va sanoat, savdo, turli tarmoqlarda xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat markazi tushuniladi. Ular sivilizatsiya va taraqqiyotning markazi va mahsuli hisoblanadi. Dunyo aholisining qariyb yarmi shaharlarda yashaydi. Zamonaviy shahar turli yillarda insoniyat talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda "optimal shahar", "biotexnik shahar", "ekologik shahar" (ekopolis), "ilmiy va sanoat shahari" (texnopolis), "biotik shahar", "yashil shahar", "aqli shahar" (smartopolis)ga ajratib kelingan. Qanday nom bilan atalmasin, shaharlar, bir tomondan, insoniyat yutug'i markazlariga, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tengsizlik va unga bog'liq qator ijtimoiy muammolar keskin bo'lgan joyga aylanmoqda. Binobarin, bunday muammolarga zamonaviy shaharlarni ekologik toza maskan hamda aqli makonga aylantirish bilan yechim topish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan ham shaharlar jamiyat taraqqiyotining o'z davridagi sifatli yangi ko'rinish edi. Arxaik davr va aynan sivilizatsiya bo'sag'asida paydo bo'lgan shaharlar - nafaqat sivilizatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri balki, davlat bilan birgalikda uning asosiy belgilaridan biri bo'ldi. Shuning uchun ham qadimgi sivilizatsiyaning mashhur tadqiqotchilaridan biri Vir Gordon Chayld jamiyat tarixida shaharlarning paydo bo'lishini "revolyutsion holat" deb atagan edi hamda o'zining maxsus monografiyasini "shahar revolyutsiyasi" deb nomladi [8].

Ervand Sevortyan lug'atida "baliq" so'zi dastavval "qal'a", "devor", "shahar" ma'nolarida izohlanib, so'ng suv hayvoni ma'nolarida tushuntiriladi va «shahar», "qal'a" ma'nosidagi "baliq" so'zining tub ildizi "bal" – loy mazmunini ifodalashi ta'kidlanadi. Masalan, Beshbaliq, Boybaliq,

Bolosog'un nomli joy va hududlar bo'lgan [9].

T.Sh.Shirinovning fikricha, "shahar" tushunchasini izohlayotgan paytimizda izohlanayotgan shahar qaysi davrga oid ekanligi nihoyatda muhimdir. Chunki, dastlabki shaharlar, antik davr yoki o'rta asrlar shaharlari tuzilishi va bajargan vazifasi nuqtayi nazardan bir xil bo'lmazligi mumkin [8]. Shaharlar tarixini tahlil etish jarayonida markaziy poytaxt shaharlardan tashqari shahar-davlatlar, agrar (dehqonchilik) shaharlar, savdo shaharlari (ayrim port shaharlar) bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, har bir tarixiy davrda o'sha davr tarixiy-madaniy jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari taraqqiyotidan kelib chiqib, o'ziga xos "shahar" tushunchalari bo'ladi [10]. Misol uchun, "ilk shaharlar", "antik davr shaharlari", "o'rta asr shaharlari" va hokazo. Shuning uchun ham tadqiqotchilar urbanizatsiya jarayonining turli davrlardagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib shaharlarni eng qadimgi, qadimgi, o'rta asrlar va zamonaviy shaharlarga bo'ladilar.

Ommaviy axborot vositalari va o'quv adabiyotlarida "poytaxt" atamasi bilan bir qatorda turli tillarda "столица", "capital" so'zlari tarjimaviy so'zlar sifatida ishlatilmoqda. Umuman olganda, biror atamaning mohiyatini anglamoq uchun uni ifodalovchi so'zning ma'no-mazmunini ifodalagan tushunchani anglab olmoq maqsadga muvofiq. Shuning uchun, birinchi navbatda "poytaxt" va "столица" atamalarini ta'riflash, ya'ni so'z ma'nosini aniqlash kerak bo'ladi. Lekin, mazkur atamalar turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Masalan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Poytaxt – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma", deb aytilgan [12].

Sh.Rahmatullayev ta'kidlashicha, "poytaxt" so'zi lingvistik nuqtai nazardan ot hisoblanib, tojik tilida poy otini "ost" ma'nosi bilan "hukmdor qabul marosimida o'tirishi uchun saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan hashamatli o'rindiq" ma'nosini anglatadigan taxt nomidan tuzilgan bo'lib, "davlatning bosh shahri" ma'nosini anglatadi. Bu ot asli "pay-ye taxt" shakliga ega bo'lib, izofa birikmasiga teng bo'lgan [6].

Toponimistlarning ishtirokisiz tuzilgan xaritalarda poytaxt shaharlarini berishda bir xillikka yo'l qo'yilmoqda. Chunonchi, V.P.Zaychikovning ko'rsatishicha, Koreya Xalq Demokratik Respublikasining (Shimoliy Koreya nazarda tutilmoqda) poytaxti Pxenyan besh xil variantda ko'rsatilgan: Pxion-yan, Pen-yang, Pxiyenyan, Pxiyang-yeng va Pxenyan [13].

Shuningdek, geografiya va siyosatshunoslik fanlarida qo'llaniladigan "Shahar- davlat" tushunchasini fanga birinchi bo'lib fransuz olimi Iv Lakost taklif qilgan [14]. Uning fikricha, "shahar-davlat" tipida aholisining aksariyati bir shaharga mansub bo'lgan davlatlar tushuniladi. Lekin, dunyoda shunday shahar-davlatlar borki, ularning nomi yashab turgan millat bilan bog'liq emas. Shuningdek, "poytaxt" atamasi bilan bir vaqtda iste'molda bo'lgan, sinonim xarakterdagi so'zlarga izoh berishni jadval ko'rinishda lozim topdik (1.2-jadval).

Jahon mamlakatlarini poytaxtlarini geografik tasniflashda ularning turli ko'rsatkichlari (maydoni, aholisi, xo'jaligi, ma'muriy bo'linishi, tabiiy resurslari, joylashuvi va h.k.) bo'yicha guruh yoki toifalarga ajratilishi, tizimlashtirilishi an'anaviy tus olgan. Lekin, ushbu ko'rsatkichlar poytaxt shaharlarning tabiiy geografik xususiyati va zamonaviy talablariga to'liq javob bermaydi. Shuning uchun ham mazkur holatda jahon mamlakatlarining poytaxtlari maqomiga ko'ra tasniflanishi va toifalarga ajratilishi kerak.

1.2-jadval

“Poytaxt” atamasining sinonim tavsifi

T/p	Sinonim soʻzlar	Qaysi tildan olingan	Maʼnosi
1	Astana	qozoqcha	“Poytaxt” soʻzining qozoqcha atalishi
2	Bashkent	turkcha	“Poytaxt” soʻzining turkcha talaffuzi
3	Kio	yaponcha (ayn)	“Poytaxt” soʻzining yaponcha talqini
4	Neysl	moʻgʻul tilida	Oʻrta asrlarda poytaxt maʼnosida qoʻllanilgan.
5	Poytaxt	tojikcha	“hukmdor qabulda oʻtirish uchun saroy toʻriga oʻrnatilgan, maxsus bezatib ishlangan hashamatli oʻrindiqlik” maʼnosini anglatadigan taxt otidan tuzilgan boʻlib, “davlatning bosh shahri” maʼnosini anglatadi.
6	Poytaxt	forscha	Poytaxt soʻzi forscha – <i>“taxtning quyi, etak qismi”</i> , asosi.
7	Saroy	tojikcha	“karvon, savdogarlar toʻxtab, dam oladigan keng hovli” maʼnosini anglatib, keyinchalik “qasr” maʼnosini anglatib boshlagan.
8	Seul	koreyscha	Koreys tilidagi Soul (rus tilida Seul) soʻzining maʼnosi “poytaxt” degan maʼnoni anglatadi.
9	Xonbaliq	turkiycha	Baliq (baligʻ) soʻzi qadimgi turkiychada “shahar” degan soʻz. Xonbaliq soʻzi “Xon shahri” maʼnosida qoʻllanilgan.
10	Oʻrda	turkiycha	Turkiy tillarda oʻrda, moʻgʻul xalqlarida oʻrda tarzida ishlatilib, “xon qarorgohi” maʼnosida qoʻllanilgan.
11	Shahrixon	tojikcha	“Xon shahri” maʼnosida qoʻllanilib, tojikcha transformatsiyaga uchrab “Shahrixon” deb atalgan.
12	Столица	ruscha	Stol soʻzi asosida vujudga kelib, qadimgi rus tilida – “kursi”, “oʻrindiqlik”, “taxt” tarzida qoʻllanilgan.

Jadval manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon mamlakatlarning poytaxt shaharlar maqomi tasniflanishida xalqaro hamjamiyat tomonidan toʻliq tan olinmagan mamlakatlarning maʼmuriy markazlarini alohida tasniflash obyektini sifatida qarash mumkin. Masalan:

□ alohida maʼmuriy-huquqiy maqomda, lekin muayyan davlatlar tarkibidagi Tayvan, Gonkong, Aland orollari, Aomin kabi mamlakatlar;

□ BMTga aʼzo ayrim davlatlar tomonidan tan olingan Abxaziya, Shimoliy Osetiya, Kosovo, Shimoliy Kipr, Sahroi Kabir kabi mamlakatlar;

□ maqomi noaniq yoki xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinmagan Donesk, Lugansk, Pridnestrov (Dnestrbo'yi), Tog'li Qorabog' kabi mamlakatlar.

Muayyan davlatlar tarkibidagi ma'muriy - hududiy tuzilma sifatidagi, ya'ni mutlaq boshqaruv huquqiga ega bo'lmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Tibet, federativ davlatlar tarkibidagi shtatlar, o'lkalar, respublikalar, federal yerlar, avtonom rayonlar kabi mamlakatlar hamda ma'muriy birliklarning poytaxtlari yoki ma'muriy markazlari ham mustaqil poytaxt huquqiga ega emasligi bilan tavsiflanadi.

Jahondagi mamlakatlarni maqomi bo'yicha umume'tirof etilgan tasniflash mavjud emas. Shuning uchun ham turli adabiyotlarda mamlakatlar soni 195 tadan to 266 tagacha berilgan Masalan, K.Gadoyev va S.Berdiyevalarning ma'lumotlariga qaraganda, Germaniyada chop etilgan manbalarda dunyodagi siyosiy-geografik birliklar soni 243 ta. Har yili Nyu-Yorkda nashr qilinadigan "Dunyo almanaxida" davlat sifatida BMTga a'zo va kuzatuvchilar soni bo'yicha 194 ta, AQShning poytaxti Vashingtonda chop etiladigan yillik "Jahon faktlar yilnomasi"da (World Year Factbook) dunyodagi 266 ta siyosiy va geografik - hududiy birliklar davlatlar sifatida keltirilgan[15].

Agar biz BMTga a'zo bo'lgan davlatlarni hisobga olsak, u holda mustamlaka, yarim mustamlaka mamlakatlar, davlat maqomi noma'lum bo'lgan siyosiy-geografik birliklar (garchi ular davlat hisoblanmasada) mamlakat sifatida e'tirof etishimizga to'g'ri keladi.

BMTga a'zo bo'lgan eng so'nggi davlat – Janubiy Sudan Respublikasi 2011-yil 14-iyulda a'zo bo'lgan [16].

Ma'lumki, "dunyoda nechta poytaxt bor?" degan o'rinli savolga aniq bir javobni aytish qiyin. Buni mamlakatimizda keyingi o'n yillikda nashr etilgan jahon mamlakatlariga oid asarlardagi ma'lumotlar asosida quyidagi jadvaldan bilib olish mumkin. (1.3-jadval)

O'zbekistonda nashr etilgan jahon mamlakatlariga doir ba'zi adabiyotlar


№	Jahon mamlakatlariga oid adabiyotlar	Mamlakatlar soni
1	Gorkin A. Dunyo mamlakatlari. Ensiklopediya.–T.: "Davr nashriyoti", 2013.–296 b.	196
2	Ommabop geografiya mazmun-mohiyat, tushuncha va ma'lumotlar A.N.Hojimatov va boshq.–T.: "Zuhra Baraka biznes", 2017.–132 b.	209
3	Жаҳон мамлакатлари: қисқа маълумотнома / масъул муҳаррир А.Ҳазратқулов. –Т.: "Шарқ" НМАК Бош таҳририяти, 2006, –383 б.	222
4	Мамадалиев Р. ва бошқ. Дунё мамлакатлари –Т.: "Muharrir", 2012, 500 б.	219
5	Ражабов К., Қандов Б. Жаҳон мамлакатлари. Қисқача маълумотнома. – Т.: "Yangi nashr", 2015. – 232 б.	249
6	Раҳматов Л. Дунё мамлакатлари: Австралиядан Ҳиндистонгача. – Т.: "Yangi kitob", 2019.– 848 б.	238
7	Этнология: ўқув қўлланма/масъул муҳаррир А.Аширов.–Т.: «Янги нашр», 2014.–544 б.	224
8	Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. Қизилкумит-Хурмуз. Таҳрир ҳайъати: А.Азизхўжаев ва бошқ. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. – 608 б.	196

Jadval manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot ishimizda XX asrning 40-yillaridan to hozirgi kunga qadar shakllangan poytaxt shaharlarning tarixiy-geografik tavsifi va tipologik tahlili qamrab olingan. Nega o'tgan asrning

40-yillari tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi deb olingan? Buning birinchi sababi Millatlar Ligasi o'ziga Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi bilan izohlanadi. Ikkinchi sababi esa Yevropa siyosiy xaritasida Ikkinchi jahon urushi tufayli yuz bergan ham miqdoriy va sifat o'zgarishlar, imperialistik mustamlakachilik tizimning yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib dengizi mintaqasi), Okeaniya (Tinch okeani akvatoriyasidagi orol-mamlakatlar) 100 dan ortiq mustaqil davlatlarning barpo etilishi bilan tavsiflanadi.

“Siyosat” termini arabcha (siyasa) so‘zidan olinib, asl ma’nodan “otlarni parvarishlash, tarbiyalash va ularni boshqarish” bilan bog‘liq tushunchani anglatgan. Bu termin keyinchalik jamiyat va davlatni boshqarish jarayoniga nisbatan kengaytirilib, yunoncha (politika) tushunchasiga ayni ma’nosida qo‘llanila boshladi. Politika termini yunoncha “polis” (shahar) so‘zidan yasalgan bo‘lib, “shahar ishlari” ma’nosini beradi. U haqida birinchi marta rasmiy ravishda miloddan avvalgi V asrda Aristotel tomonidan yaratilgan “Siyosat” nomli asarda yoritib berilgan [17]. Demak, shahar so‘zining kelib chiqishi haqida tarixiy ma’lumotlar ko‘pligi bilan tavsiflanadi.



1.1-rasm. BMTga a‘zo davlatlar sonining o‘zgarish dinamikasi

Xulosa. Xulosalab aytishimiz mumkin-ki, mamlakatlarning mustaqillikka erishishi va muayyan davlatlarning bo‘linib, alohida davlat maqomiga ega bo‘lishi suveren davlatlar sonining ortishiga, yoki aksincha, orollarda joylashgan ba’zi mamlakatlarning tabiiy ofatlar sababli suv ostida qolishi hamda mamlakatlarning siyosiy sabablarga ko‘ra o‘zaro birlashuvi tufayli ular sonining kamayishiga olib keladi. Demak, mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko‘p va dinamik (o‘zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o‘zgarish albatta o‘z o‘rnida poytaxt shaharlarni ham chetlab o‘tmaydi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “O‘zbekiston”, 2023. – В.6.
2. Musayev J. Tushunchada bilimlar namoyon. “Maktabda geografiya” 2(38)-son, 2012-yil, – В.2.
3. Eshtemirov.J. Zamonaviy shahar: tarix va tadqiq. Tafakkur. 2/2024., – В.87.
4. Тўхтабоева Д.Э. Ўзбекистон урбанизациясига тарихий назар // “Jahon sivilizatsiyalari tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami materiallari, II-jild, Qarshi, 2024 yil 20-21 may, – В.196.
5. Arzikulova D. Zamonaviy shaharlar – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019, - 80 b.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. (форсча, тожича бирликлар ва улар билан ҳосилалар) – Т.: «Университет», 2009. – 595 б. – В.263.
7. Ҳасанов А. Жанубий Ўзбекистон қадимги шаҳарлари ва қишлоқлар ўртасидаги

алокалар // “Jahon sivilizatsiyalari tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami materiallari, I-jild, Qarshi, 2024-yil 20-21-may, – B.15.

8. Эшов Б. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Т.: “Fan va texnologiya”, 2008, 236. – B.15.

9. Шукур Э. Бобо Сўз изидан: Сўзлар билан сўзлашув. – Т.: “Sharq”, 2018. 344 б. – B.122.

10. Иномов И. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари (шаклланиши ва ривожланиши). – Т.: “Меҳнат”, 1991.

11. Кадиоров М.А. Шаҳарлар географияси. Самарқанд: “Zarafshon”, 2019. – 192 б. – B.116.

12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Парчин-Солиқ. Таҳрир ҳайъати: А.Абдувоҳитов, А.Азизхўжаев, М.Аминов, Т.Даминов ва б.Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – 704 б. – B.111.

13. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. Т., 1982. – B.21.

14. Ҳасанов А. Геосиёсат – Т.: “Tamaddun”, 2016. – 528 б.

15. Гадоев К. Бердиева С. Сайёрамиз мўъжизалари: Фаройиб давлатлар, обидалар, ходисалар. – Т.: “O‘zbekiston”, 2012. – 280 б. – B.8.

16. Раҳматов Л. Дунё мамлакатлари: Австралиядан Ҳиндистонгача. – Т.: “Yangi kitob”, 2019.– 848 б.

17. D.Baxronova., N.Abdurashidov., M.Jo‘rayeva. O‘zbekistonda suv siyosati: muammolar, yechimlar va takliflar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 4(8), Sep., 2024. – B.244.

РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ ТУРКИСТОНДАГИ ТАЪЛИМ СИЁСАТИ

(Фарғона вилояти шаҳарлари мисолида)

Равшанов Шерзод Рахматович,

Навоий давлат университети “Тарих” кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада Россия империясининг Фарғона вилояти шаҳарларидаги ижтимоий сиёсати, жумладан, таълим соҳасида олиб борган сиёсати масалалари мавжуд манбаларнинг қиёсий таҳлили асосида ёритилган.

Таянч сўзлар: “Қорихона”, “руспараст”, мактабхона, А.Миддендорф, “Билим юртлари ҳақида низом”, рус-тузем мактаби, земство идораси, Скобелев, прогимназия, приход мактаблари, эркаклар ва хотин қизлар билим юртлари, гимназиялар, янги усул мактаблари.

ПОЛИТИКА ОБРАЗОВАНИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНЕ

(На примере городов Ферганской области)

Равшанов Шерзод Рахматович,

Доцент кафедры «История» Навоийского государственного университета, к.и.н.
(PhD)

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы социальной политики Российской империи в городах Ферганской области, в частности, её образовательной политики. Анализ проводится на основе сравнительного изучения доступных источников.

Ключевые слова: «Карыхана», «руссофил», мектебхана, А. Миддендорф, «Положение об учебных заведениях», русско-туземная школа, земская управа, Скобелев, прогимназия, приходские школы, мужские и женские учебные заведения, гимназии, школы нового метода.

THE EDUCATIONAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN TURKESTAN

(A Case Study of the Cities in the Fergana Region)

Ravshanov Sherzod Rakhmatovich,

Associate Professor of the Department of “History” at Navoi State University, PhD in History

Abstract: This article highlights the issues of the Russian Empire’s social policy in the cities of the Fergana region, in particular its policy in the field of education. The analysis is based on a comparative study of available sources.

Keywords: «Karykhana», «Russophile», library, A. Middendorff, «Regulation on Educational Institutions», Russian-native school, zemstvo administration, Skobelev, pro-gymnasium, parish schools, male and female educational institutions, gymnasiums, new method schools.

Фарғона вилояти шаҳарларида XIX аср охири-XX аср бошларида маҳаллий ва кўчиб келган русийзабон аҳолининг фарзандларига таҳсил берадиган турли поғонадаги ўқув юртлари фаолият кўрсатган.

Маълумки, асрлар давомида туб жой аҳолига таълим берадиган икки поғонали мусулмон мактаблари фаолият олиб борган. Қуйи таълим даргоҳи мактаб (мактабхона) бўлиб, улар асосан масжидлар қошида бўлган, бундай мактаблар бир синф хонасидан иборат бўлиб, “қорихона” ёки савод чиқариш мактаблари деб ҳам юритилган. Мадрасалар ўрта ва олий таълим беришга мўлжалланган эди.

1878 йилда Фарғона водийси шаҳарларида уч ой давомида текшириш олиб борган Россиялик академик А.Миддендорф мадраса ва мактаблар сони ғоят кўплигини, шунингдек, туб аҳолининг саводлилиқ даражаси, шу жумладан, ҳарфларни билиш даражаси юқорилилигини ибрат олса бўлгудек намуна эканлигини таъкидлаб, метрополия халқ таълими тизими амалдорларига бекорга танбеҳ бермаган эди[1].

1890-йилларнинг бошида мусулмон ўқув юртлари бўйича ўлка мубошири В. П. Наливкин Туркистондаги мадрасалар тармоғи тўғрисидаги умумлашма маълумот тузди. Унинг ҳисоби бўйича 1890/91 ўқув йилида Сирдарёда 21 мадраса; Фарғонада 1891/92 ўқув йилида 118 та ҳамда Самарқандда 1892/93 ўқув йилида 50 мадраса бўлган. Бу вилоятларда ишлаб турган мадрасаларнинг сони жами 189 та бўлган[2].

Ўша пайтда В. П. Наливкин ҳамда А. П. Хорошкин маълумотларига кўра 1875 йилда Қўқонда 34 та, Марғилонда 25 та, Андижонда 18 та, Наманганда 14 та мадрасалар бўлган[3]. Мустамлака амалдори А.Л.Куннинг маълумотларига кўра, Қўқон рус қўшини томонидан забт этилганидан сўнг у ерда 40 та мадраса бўлган[3].

XIX асрнинг иккинчи ярмида Фарғона вилоятида сақланиб қолган мадрасалар орасида XV-XVII асрлардаёқ қурилиб ва бутун дунёга машҳур бўлганлигини инкор этиб бўлмайди. Улар қаторида Қўқондаги Султонмуродбек, Мингойим, Андижондаги Офтобачи, Намангандаги Маъруфхонтўра мадрасаларини санаб ўтиш мумкин.

Манбаларда чинор ва тут дарахтлари остларида, айрим отинбибиларнинг уйларида мактаблар фаолият юритганлиги ҳақида ҳам маълумотлар келтирилган. Таъкидлаш жоизки, айнан XIX асрнинг иккинчи ярми- XX аср бошларида қуруқ ёдлашдан иборат бўлган, араб тилида таҳсил берадиган мактабхоналар ва хошияхонлик (шарҳ, китоблар эмас уларнинг шарҳи ўқитилган) ка асосланган мадраса таълими ҳам замон талабларидан ортда қолган эди.

Туркистон генерал-губернаторлиги тузилгандан, кейинги биринчи даврдаёқ ўлка ва ҳудудлар маъмурияти, мусулмон руҳонийлар иерархик тузилмасини ўзгартириш ҳамда мадраса ва мактаблар устидан маъмурий ва сиёсий назорат ўрнатишга дарҳол киришиб кетишди. Йирик шаҳарларда шайхулислом, қозикалон лавозимлари бекор қилинди, анъанавий судлар – ўтроқ аҳолидаги қози ва кўчманчи аҳолидаги бий судлари фаолияти соҳаси чекланди ва хоказо.

Россия империяси Туркистон генерал-губернаторлиги Фарғона вилояти халқ билим юртлари инспекциясини ташкил этиб, вилоятда билим юртларини очиш, уларда уларда таълимни йўлга қўйиш қоидаларини империя марказида 1872 йилда ишлаб чиқилган “Билим юртлари ҳақида низом” га асосан иш қўриш орқали олиб бориш йўлга қўйилди.

Аввало, туб жой аҳоли фарзандлари учун рус-тузем мактабларини очиш орқали маҳаллий миллат вакиллари орасидан қўйи бўғин бошқарувига “садоқатли”, “руспараст” кишиларни тарбиялаш масаласи кун тартибига қўйилди. Манбаларга кўра дастлабки рус-тузем мактаби 1886 йилда Наманган шаҳрида ташкил топган ва маҳаллий миллат болаларини ўқита бошлаган эди. Империя маъмурияти томонидан доимо бу турдаги мактаблар қўллаб-қувватлаб келинган. Масалан, 1905-1906 йилларда Қува ва Асакада давлат хазинаси ҳисобидан рус-тузем мактаблари қуришга маблағ ажратилган. Бу мақсадда Асакада мактаб учун 3 таноб ер ажратилган, ҳар бир мактабни қуриш учун 1.100 рубль, уларда сабоқ берувчи ўқитувчиларга 200 рубль ажратилган. Олтиариқда рус-тузем мактабини қуришга эса 8.000 рубль сарфланган. 1908 йилга қадар Ёзёвон, Аравон, Марҳамат, Қулин, Ичкилик волостларида рус-тузем ва махсус савдо мактаблари учун бинолар қурилган[4]. Рус тилини ўқитиш ва бошланғич таълим беришга йўналтирилган рус-тузем мактаблари

айрим маълумотларда 18 та, айрим архив манбаларида 20 та[5] эканлиги қайд этилган. 18 та рус-тузем мактабларининг 8 таси шаҳарларда, 10 таси қишлоқларда фаолият юритиб, фақатгина Ўш ва Қўқон шаҳарларидаги рус-тузем мактабларидан ташқариси ўз биносига эга бўлган. Ўш ва Қўқондаги мактаблар ижарадаги бинода жойлашганди. Рус-тузем мактабларининг 12 таси ҳузурида (Скобелев, Олтиарик, Рус қишлоғи, Қўқон, Наманган, Ёрқўрғон, Тўрақўрғон, Чуст, Поп, Янгикўрғон, Нанай, Султонобод) мактаб интернатлар фаолият юритган. Рус-тузем мактаблари биносини қуриш учун ўртача 5000 рублдан 9000 рублгача сарфланган. Рус-тузем мактаби бир йиллик ҳаражати учун Халқ маорифи вазирлиги -9489 рубль, Земство идораси -1660 рубль, шаҳар бюджетидан-9137 рубль 45 коп., жамоат маблағларидан 17435 рубль сарфланган. Шунингдек, ҳар бир рус-тузем мактаби қошида 12 нафаргача ўқувчи бўлиб, ўқувчиларнинг ҳар бирига 60 рубль, жами: 720 рубль ҳаражат қилинган. 1910 йилларга келиб, нарх-навонинг кескин ошиши билан Скобелев шаҳридаги рус-тузем мактаби ҳузуридаги интернатда ҳар бир ўқувчига бир йилда 93 рубль 75 коп маблағ сарфланган[6]. Биринчи рус-тузем мактаблари 1886 йилда Наманган ва Чустда ташкил этилган[6].

Бироқ рус-тузем мактаблари оммалашуви ва етарли ютуққа эришмаганлигини тарихий далиллар тасдиқлайди. Масалан, Намангандаги мактаб 1886 йилда ташкил топган бўлса-да фақат 21 йилдан кейин ўқувчилари гуруҳи битирди. Улар сони бор-йўғи 10 нафар эди. Чуст мактаби 10 йилдан сўнг, 1896 йилда -10 та ўқувчини битиришига эришди. Жумладан, Султонободда 10 йил давомида 6 та, Олтиарикда 1903 йилда -2 та, Нанайда 1902 йилда, Кетмонтепада ва Янгикўрғонда 1903 йилда битта ҳам ўқувчи битирмаган[6]. Ҳатто, Қўқон шаҳридаги энг йирик рус-тузем мактабида 1895 йилга келиб бор йўғи 103 нафар ўқувчи таҳсил олиб, уни битиришга муваффақ бўлганди (Биринчисида 78, иккинчисида 25 ўқувчи). Кам сонли ўқувчилар рус-тузем мактабини тамомлагани билан боғлиқ омиллар сифатида мусулмон аҳолининг ўшбу мактабларга ҳамма вақт ҳам ўз фарзандларини юбормаслиги, исломий омил, ўқув жараёни 4 йил давом этиб, ўқувчилар оиласидаги юмушлардан ўқиш даврида узоқлашиб қолиши, кўпгина таҳсил олувчилар рус тилида ўқиш, гапириш, ёзишни ўрганиб олганлиги туфайли 2-3 синфдан ўқишни тарк этиши кабиларни кўрсатиш мумкин. Рус-тузем мактабига қабул қилинган ўқувчиларнинг 3/1 қисми тўртинчи синфга етиб бориб гувоҳнома (шаҳодатнома) ола биларди. Баъзи бир бошқа қўшимча омиллар таҳлил қилинар экан, шуни таъкидлаш мумкинки, Қўқон, Андижон, Наманган, Марғилон сингари савдо-сотик ривожланган шаҳарларда рус аҳоли билан доимий мулоқот давомида аҳоли бир қисми рус тилидан амалий билим олар, русча мулоқотни ўрганиб, Европа маорифидан маълум маънода хабардор бўларди.

Рус-тузем мактабларининг барчасида ҳам сифатли ўқиш ва таълим берилмас, ўқувчилар назорати бўш бўлиши билан бирга, улар айримларида “Великорость” миллатчилик қарашлари мавжуд эди. Яна бир омил Скобелев, Ўш, Наманган, Рус қишлоғи, Султонободдаги рус-тузем мактабларига ўқувчилар узоқ масофалардан қатнашган. Бу транспорт муаммосини туғдирарди. Юқоридаги сабаблар туфайли Фарғона вилоят ўқув юртлари инспекцияси маъмурий органларни ўқувчиларни рус-тузем мактабларига жалб қилишга тарғибот қилган, мактабларга қатнайдиغان ўқувчилар сонини имкон қадар кўпайтириш, уларни охириги тўртинчи синфгача ўқитиш вазифаси вилоятдаги таълим соҳасида муҳим муаммолардан бири бўлиб қолган.

Октябр тўнтаришигача бўлган даврдаги анъанавий мактабларга келганда эса уларни Фарғона вилояти туб аҳолиси таълим соҳасидаги маъмурий чоралар воситасида аста-секин суриб чиқариш, рус-тузем мактабларини имкони борича кўпроқ очишдан иборат

руслаштириш амалиёти Россия империяси ҳамда мустамлакачи маъмурият учун умуман самарасиз бўлди. Бунинг асосий сабаблари, бизнингча, кўп жихатдан, аслида мустамлакачиларнинг мадрасалар фаолиятига аралашувига айланиб кетганлиги, уларга “беписанд бўлиш” сиёсати оқибатидир. Шуни ва бошқа бир қанча омилларни ҳисобга олиб, Туркистон мусулмон ўқитувчиларининг ўлка съезди (1917 йил 20-23 май) рус-тузем мактабларини таълим она тилида олиб бориладиган, рус тили ўқув фанларидан бири сифатида ўқитиладиган миллий мактабларга айлантиришни ёқлаб чиқди[7]. Жадиличлик ҳаракатининг фаоллари илк янги усул мактаблари ташкил этилаётган дастлабки пайтларда шундай ўзгаришлар қилишни таклиф этишганди.

Бироқ бу мактабларни битириб чиқувчилар доимо озчиликни ташкил этарди, чунки кўпчилик ўқувчилар расман рўйхатга олинган бўлиб, машғулотга ахён- ахёнда қатнашиб қўйишарди. Туркистон ўлкаси биринчи ўқитувчилар курултойида- (1917 йил 9-14 май) таъкидлаганидек, рус-тузем мактаблари ўқувчиларининг кўпи IV синфгача етиб бормаган. Масалан Фарғона вилоятидаги 23-мактабда 40 нафар ўқувчи ўқув курсини тўлиқ ўтган[8].

Фарғона водийсидаги шаҳарларда юқоридаги мактабларидан ташқари таълим муассасаларининг бир қатор турлари вужудга келиб, 1-2 синфли бошланғич мактаблар, черковлар қошида прогимназия, приход мактаблари, эркаклар ва хотин қизлар билим юртлари, гимназиялар, 3-4 синфли қўйи даражадаги шаҳар мактаблари, 8 синфли ўрта маълумот берадиган мактаблар, шаҳар ва қишлоқ приход билим юртлари, Қўқон савдо (коммерция) билим юрти, хусусий савдо сотикни ўргатадиган 3 ойлик, 6 ойлик курслар кабилар ташкил этилган. Фарғона вилояти халқ билим юртлари инспектори 1908 йил 26 ноябрда Фарғона вилоят ҳарбий губернаторига тақдим этган ҳисоботида: “Вилоятда 42 та билим юртлари ва ўқув муассасалари мавжудлиги, улардан 2 таси шаҳар билим юртлари, 20 таси приход, 20 таси рус-тузем мактаблари эканлигини хабар қиламан. Иккита шаҳар билим юртлари замон талабларидан ортда қолган, приход мактабларининг асосий қисми 1 синфли, Марғилон уезида, Скобелевда билим юртлари қуриш ишлари деярли тўхтаб қолган. Билим юртларини нафақат шаҳарларда, қолаверса қишлоқларда 3-4 синфли қилиб очиш, хотин-қизлар мактаблари ташкил этиш, вайрона ҳолатига келган ўқув муассасалари таъмиланишга муҳтож[9]”-каби фикрларни илгари сурган. Ушбу ҳисобот таҳлил қилинар экан, вилоятдаги рус посёлкаларидан Покровскоеда хотин-қизлар ва эркаклар приход мактабини очиш, унга алоҳида бино учун ер майдони ажратиш, истиқболда айрим рус посёлкаларидаги мактабларига немис, француз тилини ўқитадиган ўқитувчилар сафарбар этиш масаласи ҳам илгари сурилган. Рус манзилгоҳларидаги ўқитувчиларнинг маошини рус-тузем мактаби ўқитувчилари ойлик маоши билан тенглаштириш таклифи ҳам илгари сурилган. Рус- тузем мактаби 1908 йилда бир йилда 600 рубль маош олган ҳолда, билим юртларидаги эркак ўқитувчилар 400 рубль, аёл ўқитувчилар 360 рубль, қишлоқларда эса эркак ўқитувчи 300 рубль, аёл ўқитувчилар 240 рубль иш ҳақи оларди. Қўл меҳнати ва ҳунарлардан сабоқ берувчи амалиётчи 100 рубль иш ҳақи олар, унга бир йилда 60 рубль озиқ-овқат пули ҳам берилган. Рус посёлкаларидаги билим юртлари қошида ташкил этилган интернатларда 10-12 нафаргача ўқувчилар қатнаб, улар тарбиячиси бир йилда 160 рубль олиши ҳам эҳтиёжни паст даражада ҳам қондирмасди. Айрим қишлоқларда мусулмон ўқитувчиларга бир йилда 240 рубль маош берилган ҳолатда, рус ўқитувчиларига 300-360 рубль маош тўланган[10].

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Россия империяси Туркистон ўлкасини босиб олган дастлабки даврлардан бошлаб минтақадаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётга ўз таъсирини ўткази бошлади ҳамда имкон қадар ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳаларда барча чораларни кўрди. Мустамлака маъмурияти Туркистон ўлкасининг бошқа вилоятлари

каби Фарғона вилояти шаҳарларида ҳам ижтимоий масалаларга катта эътибор қаратди. Хусусан, вилоятда бу даврга келиб, яъни XIX аср охири – XX аср бошларида маҳаллий аҳоли ва кўчиб келганларнинг фарзандларига таҳсил берадиган турли поғонадаги ўқув юртлари йўлга қўйилди. Лекин империяда бу даврдаги иқтисодий ва бошқа сабаблар туфайли ислохотлар ўз ижобий натижасини топмади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины.- СПб., 1882,-С.362-472.
2. Ўзбекистон миллий архиви, И-1-фонд, 2-рўйхат, 4311-йиғма жилд,(1893й),7-9-варақлар.
3. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. -М.: Наука, 1960.-С.51.
4. Ўзбекистон миллий архиви, И-19-фонд, 1-рўйхат, 28863-йиғма жилд, 88,89-варақлар.
5. Ўзбекистон миллий архиви, И-19-фонд, 1-рўйхат, 28865-йиғма жилд, 89-варақнинг орқаси.
6. Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. -Г.Скобелев,1912.-С.180.
7. Туркестанский учитель, 1917,№1-2.-С.26.
8. Егоров Ф. Система просвещения туземцев в Туркестане //Туркестанские ведомости. 1917, № 48.
9. Ўзбекистон миллий архиви, И-19-фонд, 1-рўйхат, 28865-йиғма жилд, 90-варақ.
10. Ўзбекистон миллий архиви, И-19-фонд, 1-рўйхат, 28865-йиғма жилд, 89-варақнинг орқаси

ORGANIZATION OF THE TURKISTAN DISTRICT PROTECTION DEPARTMENT AND CONFLICTS WITHIN IT

Ruziboyev Fakhridin,
Doctoral student of Namangan State university

Abstract: This article presents information about the establishment of various regulatory bodies in these territories after the Russian Empire conquered and colonized the territory of the Central Asian khanates, as evidence of the establishment of an administrative structure, namely the governor-general, and the military force being used to maintain it. The main one is the need to establish the Turkestan District Security Department, which was established in order to prevent and combat organized crime, theft, and disorder in Turkestan, and its organizational structure, powers, and tasks. The article also provides information about the shortcomings in the system at the time of the establishment of the Turkestan District Security Department. This information has been studied scientifically, practically, and scientifically-theoretically. In forming the article, the works of local and Russian researchers and historical sources of that period, namely periodical press materials and archival information, serve as primary sources.

Key words: spy, agent, order, police, law, search, investigation, prison.

ОРГАНИЗАЦИЯ ОТДЕЛА ОХРАНЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ОКРУГА И КОНФЛИКТЫ В НЕМ

Рузибоев Фахриддин,
Докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В статье представлены сведения о создании административной структуры, а именно генерал-губернаторства, на этих территориях после завоевания и колонизации среднеазиатских ханств Российской империей, а также об учреждении различных регулирующих органов, что свидетельствует об акценте на военную силу для ее поддержания. Главным из них является необходимость создания Туркестанского окружного охранного отдела, который был создан для предупреждения и борьбы с организованной преступностью, хищениями и беспорядками в Туркестане, а также дается информация о его структуре, полномочиях и задачах. В статье также содержатся сведения о недостатках, имевшихся в системе при создании Туркестанского окружного охранного отдела. Эта информация была изучена с научной, практической и научно-теоретической точек зрения. При написании статьи в качестве первоисточников использованы труды отечественных и российских исследователей, а также исторические источники того периода: материалы периодической печати и архивные сведения.

Ключевые слова: шпион, агент, приказ, полиция, закон, поиск, расследование, тюрьма.

TURKISTON RAYON MUHOFAZA BO'LIMINING TASHKIL ETILISHI VA UNDAGI ZIDDIYATLAR

Ro'ziboyev Faxriddin,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklari hududi bosib olinib, mustamlakaga aylantirilgach, mazkur hududlarda ma'muriy tuzilma ya'ni general-gubernatorlik tashkil qilinishi hamda uni saqlab qolish uchun harbiy kuchga e'tibor qaratilganligi dalili sifatida turli xil tartibot organlari tashkil qilinganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan asosiysi Turkistonda uyushgan jinoyatchilik, o'g'irlik, tartibbuzarlik holatlarini oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida tashkil qilingan Turkiston rayon muxofaza bo'limining tashkil etilishining zarurati va uning tuzilish strukturasi, vakolatlari bilan

bir qatorda vazifalari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada shuningdek, Turkiston rayon muxofaza bo'limining tashkil etilgan davrda tizimda mavjud bo'lgan kamchiliklar haqida ma'lumotlar ham qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlar ilmiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Maqolani shakllantirishda mahalliy va rus tadqiqotchilarining asarlari va o'sha davrga oid tarixiy manbalar ya'ni davriy matbuot materiallari va arxiv ma'lumotlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: josus, ayg'oqchi, buyruq, politsiya, qonun, qidiruv, tergov, qamoq.

Kirish. Tarix fanidan tadqiqotchi erkin ilmiy izlanish olib borishi uchun yetarlicha sharoit talab qilinadi nafaqat tarix fani balki barcha fan tarmog'ida ham ilmiy tadqiqotchi chuqur kirib borishi uchun ma'lum bir imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bunday imkoniyatlar bugungi kunda yetarlicha deyishga asos bor. Yangi O'zbekistonda ilm fan rivojiga qaratilayotgan e'tibor shuning isboti bo'la oladi. Chunki qaysi sohada ilmiy ish qilishidan qat'iy nazar olimlar uchun yetarlicha imkoniyat va resurs bor. Ayniqsa so'ngi yillarda yurtimizda tarix ilmini chuqurroq o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yurtboshimiz tarixni yoshlar ongiga singdirish muhim ekanligini quyidagicha ta'kidlaganlar:..."Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"[1; b-25]

Rossiya imperiyasida 1905-yildan boshlangan ischilar namoyishi keskin tus olib ketdi. Shundan so'ng imperiya mutasaddilari bor e'tiborni mustamlaka xalqlarni itoatda saqlashga harakat qildi. Go'yo Markazdagi namoyishlar to'lqini Turkistonda ham yuz berishi mumkindek xavotirga tushib qolishdi. Harbiy-xalq boshqaruvini davom ettirishdi. Huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini yaxshilashga e'tibor qaratishdi. Bunda asosan politsiya tizimini yaxshilashga e'tibor qaratildi. 1907-yilda davlat dumasi chaqirildi va shu masala yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar belgilandi. Shu yili Toshkentda Turkiston o'lkasida politsiya qidiruvini uyushtirish uchun maxsus bo'lim tashkil qilindi. Bo'limga 10 nafar "filer" – sirdan kuzatish agentlari va kuzatuv boshlig'i yuborildi. Mahalliy politsiya va temir yo'l jandarm bo'limlarining boshliqlari Maxsus bo'limga o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy harakat bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni ma'lum qilishlari shart edi. Maxsus bo'lim shuningdek mahalliy politsiya va jandarmeriyalarni nazorat qilish huquqini ham qo'lga kiritdi[2; b-132].

Keyinroq, Turkistonda imperiya manfaatlarini himoya qiluvchi, uning dushmanlarini izlab topib yo'q qiluvchi Turkiston rayon muxofaza bo'limi tashkil etildi. Turkiston rayon muxofaza bo'limi 1917-yilgacha Turkistonda imperiya dushmanlarini aniqlash va ularni yo'q qilish ishlari bilan shug'ullandi. Chetdan qaraganda ushbu bo'lim mustahkamdek ko'rinsada aslida kamchilik va zaif tomonlari bo'lgan. Bu kamchiliklar ko'proq ta'minot bilan bog'liq edi. Bu ayniqsa uning faoliyat davrining dastlabki yillarida ko'zga tashlangan va hatto bu haqida matbuotda maqolalar chop etilgan.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mavzuga taalluqli bo'lgan adabiyotlar mazkur davr umumiy vaziyatga oid Абдурахимова Н.А., Ф.Р.Эргашев Ф.Р. larning "Туркистонда чор мустамлака тизими" kitobida imperiya tomonidan harbiy-xalq boshqaruvi doirasida tartibot tizimi ham isloh qilingani haqida ma'lumot berilgan. Хутарев В. Г. ning "Скандал в охранном ведомстве. К становлению русского сыска в Туркестане" maqolasida aynan Turkiston rayon muxofaza bo'limini ichidagi ziddiyatlar, rahbarlarning layoqatsizligi batafsil yoritilgan. Перегудова З.И. ning "Политический сыск России" kitobida butun Rossiya imperiyasidagi jinoyat qidiruv bo'limi bilan bog'liq hujjatlar bayon qilingan.

O'zbekiston Milliy arxividagi jinoyat qidiruv bo'limiga tegishli ma'lumotlar va o'sha davr matbuotlarida yoritilgan TRMB haqidagi maqolalar ham tadqiqotni ilmiy va ishonchli manbalar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda tashkil etilgan Turkiston rayon muxofaza bo'limining tashkil etilishi va undagi ziddiyatlar tarixini o'rganishda davr nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqot olib borish uslubi yotib tashlashning tarixiy qiyosiy tahlil.

taqqoslash, ilmiy davriylik usullaridan foydalanildi. Chunki, ushbu bo'lim bilan bog'liq siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, bo'lim boshliqlari faoliyatini taqqoslash, voqealar yuz bergan davrni ketma-ketlikda qayd qilish ularga tanqidiy fikr va holisona baho berish tadqiqotning muhim tomonlaridan biri bo'lib, uning ishochliligini oshirishga xizmat qiladi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Turkiston rayon muhofaza bo'limi (TMRB) tashkil etilishi bilanoq unga shu sohani tushinadigan aynan shu ishni ichida yurgan, avval maxsus bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan podpolkovnik Vasilev boshliq qilib tayinlandi[xutarev 9]. U 1906-yil 29-martdan maxsus bo'lim boshlig'i bo'lgunga qadar Toshkentda temir yo'l jandarm-militsiyasi boshlig'i vazifasida ishlagan[4; c-9].

Turkiston rayon muhofaza bo'limi xodimlari quyidagicha bo'lgan: bo'lim boshlig'i va uning yordamchisi- ular ham maxsus topshiriqlarni bajarishgan. Tashqi kuzatuvlarni boshqaruvchi mudir, xat va yozishmalar bilan shug'ullanuvchi xodimlar tergovchi zobitlar, va maxfiy josuslardan iborat bo'lgan[o'z eng198].

TMRB tashkil etilgani bilan uning Nizomi, xodimlarning maxsus yo'riqnomalari va vazifalari hali belgilanmagan edi. Nizom va maxsus yo'riqnomalarni ishlab chiqish imperiya ichki ishlar vaziri P. Stolipinga topshirildi. Stolipin 1907-yil 9-fevralda 45 moddadan tarkib topgan Nizom va xodimlar uchun tashqi kuzatuvni olib boorish uchun 22 moddali ko'rsatmalar ishlab chiqdi. Manashu hujjatlar TMRB xodimlarining kelajakdagi qidiruv faoliyati yo'nalishlarini belgilab berdi[6; 6-4].

TMRB xodimlari kuzatuv ishlarini uzoq davom ettirganlar. Bir nafar josusga bir necha kishini kuzatish topshirilgan shuning uchun ham u yonida doim xizmat kundaligini olib yurgan va kundaligiga kuzatilishi kerak bo'lgan shaxslarni uy manzillari va ular haqidagi kerakli ma'lumotlarni o'zlariga tushinadigan qilib belgilab borishgan. Kuzatish tugatilgan uylarni ajratib olish uchun alohida ranglar bilan qayd qilishgan. Kuzatuvga tushgan shaxs manzillarini ham alifbo tartibida kundaliklariga yozib olishgan[7; c-402].

TRMB aynan Rossiya imperiyasidagi siyosiy keskinliklardan so'ng tashkil etilgani uchun shunday tartibsizliklar Turkistonda ham yuz berishi mumkin namoyishlar boshlanga 1-may kuni bo'lganligi uchun aynan shu yilda yerli aholi vakillari shu kundan ilhomlanishi mumkin degan vaj bilan nazoratni kuchaytirar edi. Inqilobchilar mehnatkashlar va radikal fikrdagi ziyolilarni ushbu kunni turli namoyishlar bilan nishonlashga intilayotganini inobatga olib, shu kunning o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib, Turkistonda to'liq osoyishtalikni saqlashga alohida e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaydi va bu yerdagi har qanday tartibsizliklarning oldini olish zarurligini ta'kidlaydi[8; 6-9].

Ma'lum bir ma'noda ushbu bo'lim ko'plab jinoyatlarni fosh qilib yoki tartibbuzarliklarni olidini olgan, aybdorlarni qamagan bo'lsada bo'lim tuzilishining dastlabki yilidayoq ichki nizolar bilan ham band edi. Xususan Vasilevning bu lavozimga kelishida tanish-bilishchilik qilingan degan tahminlar ham bo'lgan. Xususan, politsiya departamenti boshlig'i Aleksey Tixonovich Vasilev uning qarindoshi degan gumonlar bo'lgan. Vasilevning dastlabki yillardagi faoliyati general-gubernator Grodekov tomonidan qoniqarsiz baholangan. 1908-yilda Vasilev lavozimidan ozod qilindi va Sankt-Peterburgga chaqirib olindi[3; 6-10].

Yashirin sirkulyar buyruqqa ko'ra, podpolkovnik Vasilevda tintuv o'tkazish, tekshirish, olib qo'yish va hibsga olish bo'yicha general-gubernatorning ixtiyoridagi vakolatlarga ham egalik qilar edi. Mahalliy politsiya organlari va temir yo'l jandarmi bo'limi boshlig'i, o'z boshliqlariga hisobot berishdan qat'iy nazar, general-gubernator huzuridagi maxsus bo'limga inqilobiy harakat va mahalliy hayotning jamoatchilik qiziqishini uyg'otadigan ajoyib voqealari to'g'risida razvedka va tergov xarakteridagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart edi.

Podpolkovnik Vasilev va unga tayinlangan ikkita yordamchi ma'muriy politsiya va jandarmeriya muassasalarida olib borilgan barcha tergov hujjatlari va yozishmalari bilan tanishish imkoniga ega edilar; Ular maxfiy xodimlarni ko'rsatishlari va taqdim etishlari kerak edi va ular bilan shaxsan muzokaralar olib borish imkoniyati berildi.

Turkiston general-gubernatorligi huzurida maxsus bo‘limning tashkil etilishi mahalliy ma‘muriy-politsiya va jandarm bo‘limlarini siyosiy tekshiruvlar o‘tkazish mas‘uliyatidan baribir to‘liq ozod etmadi.

Tayinlanganidan ko‘p o‘tmay, podpolkovnik Vasilev «qo‘zg‘olonchilarni qo‘lga olish» uchun ko‘p ish qilish kerakligiga ishonch hosil qilib, josuslik vazifalarini bajarish uchun unter-ofitserlar sonini ko‘paytirishni talab qila boshladi. Ammo Petrograd dan unga yordam berish uchun yuborilgan jandarmlar «mos» bo‘lib chiqdi: ularning biri uzoqni ko‘ra olmasdi ya‘ni ko‘zida muammosi bor, boshqasi «tergov ishni yoqtirmasdi», uchinchisining oyoqlari og‘rib turardi.

Podpolkovnik Vasilev o‘z yordamchilarining oyoqlariga va sog‘ligidagi boshqa muammolarga alohida e‘tibor berdi. Toshkent temir yo‘llari jandarmi bo‘limi boshlig‘iga yozgan hisobotida u bu haqida shunday deb yozgan edi: “Mening buyrug‘imga tayinlangan unter-ofitserlardan maxsus xizmat ishlarni bajarish uchun kuch, sog‘liq va baquvvat oyoq talab qilinadi”, deb yozadi. Qisman Vasilevning o‘zi agentlarni o‘zgartirdi, balki ular o‘zlari undan qochib ketishdi. Ayg‘oqchilarning xizmati o‘zining tabiatiga ko‘ra nafaqat yomon, balki «gumonlanuvchi» ni kunlar davomida kuzatib borish va yozish, to‘g‘rirog‘i, mo‘ljallangan qurbonning kundaligini yozish uchun chinakam temir oyoq va kuchli sog‘likni talab qiladigan qiyin ish edi.

Ish yo‘riqnomasiga ko‘ra, tashqi kuzatuv boshlig‘i kim kuzatuvga tushsa, unga laqab qo‘yardi. Faraz qilaylik, ular Ivanovni “kuzatish”ni rejalashtirishgan bo‘lishsa, unga laqab qo‘yishardi, masalan: «Mamlakat», «Yo‘l», «Qiz» va ular kuzatayotgan tergovchiga ham laqab qo‘yishardi. Ayg‘oqchi ertalabdan kechgacha gumondor shaxsni kuzatib, kechasi bu bo‘yicha ma‘lumot bergan. Masalan: “Dachniy” soat 10 da uydan chiqib, Konstantin ko‘chasi bo‘ylab yurib, 00-uy yonida oq ko‘ylak, boshiga qora shlyapa, oyog‘iga etik kiygan bir yigitni uchratib qoldi, u bilan 5 daqiqa gaplashdi, falon do‘konda falon soatda falon ovqat sotib oldi, falon ko‘cha bo‘ylab ketdi va boshqalar.

Bu ishlar bir tomondan tergov maqsadida qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, agar mo‘ljallangan gumondor hibsga olinsa, qo‘riqlash boshlig‘i qo‘lga olingan shaxsga qayerda bo‘lganini, nima yeganini, kim bilan gaplashgani haqida gapirib berishini, o‘z safdoshlaridan voz kechishini ularni fosh qilishini taklif qilib, yoshlarning ba‘zida bu nayrangga tushib qolishini maqsad qilgan.

O‘z ishi uchun tergovchilar oyiga 35-50 rubldan ko‘p bo‘lmagan maosh olganlar. Bunday kam maosh bu ishga ko‘p odamlarni jalb qila olmadi va shuning uchun podpolkovnik Vasilev doimiy ravishda o‘z boshliqlariga agentlarning yetishmasligi va bu holat inqilobiy Turkiston o‘lkasida ishlashga to‘sqinlik qilayotgani haqida shikoyat qilgan.

Jur‘atsiz va qo‘rqoqligi bilan ajralib turadigan va hamma joyda go‘yo “qo‘zg‘olon” bo‘lishi mumkinligidan vahimaga tushadigan general-gubernator Grodekov Turkistonda siyosiy tergov uchun mablag‘ ajratishni zudlik bilan ko‘paytirish vazifasini o‘z zimmasiga oldi. Va bu haqida Ichki ishlar vaziri P. A. Stolipinga quyidagi mazmunda xat yozdi:

“Hurmatli ser Pyotr Arkadevich!

Hatto mendan avvalgi general-leytenant Subbotich ham Turkiston o‘lkasida yashirin tintuvlar uchun ajratiladigan mablag‘ni ko‘paytirish bo‘yicha shoshilinch talablar qo‘ygan edi (General-leytenant Subbotichning telegrammasi, 1906 yil 24 aprel, 332-son va boshqalar), lekin hech bir so‘rovga qoniqarli javob bo‘lmadi. Men allaqachon Janobi Oliyarlari e‘tiboriga menga ishonib topshirilgan mintaqadagi siyosiy tergov masalasining qayg‘uli ahvoli va buning natijasida bu yerda inqilobiy tashkilotlar faoliyatining haddan tashqari rivojini bir necha bor yetkazish sharafiga muyassar bo‘ldim[9].

Podpolkovnik Vasilev o‘z ixtiyoridagi shaxsiy tarkibning haddan tashqari cheklanganligi sababli undan keng foydalana olmagan. U ishdan olingach uning o‘rniga 49 yoshli politsiya bo‘limi xodimi Leonid Antonovich Kvitsinskiy tayinlandi. U tezda ishga kirishib ketdi va bo‘limni o‘zida bir nechta jinoyatlarni fosh qildi. Qo‘qondagi yashirin bosmaxonani fosh qildi. Avvaliga ishni yaxshi olib bordi lekin 1909-yilga kelib bo‘limdagi ichki nizolar haqida markazdagilar

xabar topishdi va uning faoliyatini tekshirish uchun xodimlar yuborildi. Klimovich ana shunday xodimlardan biri edi.

Klimovichning tekshiruvi Turkiston viloyati xavfsizlik boshqarmasi saflarini tubdan tozalashga olib keldi va Kvitsinskiyni ishdan bo'shatish uchun asos bo'ldi, u Moskva xavfsizlik boshqarmasiga yozishma ishlari bilan shug'ullanuvchi oddiy xodim sifatida o'tkazildi. Uning taqdiri achinarli edi. Leonid Antonovich doimo kasal bo'lib, qashshoqlikda, martabasi ko'tarilishini kutib va hamkasblarining hurmatisiz yashadi. Hattoki uning xotini vafot etganda uni dafn qilish uchun mablag' topa olmagan. A.P.Martinov nafaqaga chiqishdan oldin yangi unvon olish uchun Kvitsinskiyni vaqtincha politsiya bo'limiga tayinlashni so'radi. Unga tintuvlar o'tkazishga va mayda masalalar bo'yicha maslahat berishga ruxsat berildi[10; c-387].

Kvitinskiy hayotining so'ngi yillarida ichkilikka mukkasidan ketdi. Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasida maxsus Spirtli ichimliklarni ichishni taqiqlash to'g'risida qonun qabul qilgan davrda u vino sotib olish uchun ruxsatnomalar yozdi.

1909-yili imperiyadan TRMB ga yangi boshliq qilib Vladimir Ivanovich Andrev yuborildi va ishga kirishdi. Ammo uning faoliyati ham uzoqqa bormadi. Bunga yana bo'limdagi jinoyat va nizolar sabab bo'ldi. 1912-yilda Andrev o'rniga Varshava xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i yordamchisi podpolkovnik Vladimir Sizix tayinlandi va uning samarali faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shunday qilib Turkiston rayon muxofaza bo'limida shunaqangi tez-tez boshliqlar almashinuvi yuz berdi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mustaqillik tarix ilmining ham rivoji uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi. Chunonchi, yurtimiz tarixining deyarli barcha davri bo'rttirishsiz asl holida tadqiq etilmoqda. Shuningdek, tariximizdagi huquqni muhofaza qilish organlarining shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish ushuncha ham imkoniyat yaratildi. Sobiq sho'rolar davrida bu haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Ichki ishlar umuman tartibot organlarining faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni topishning sira iloji yo'q edi. O'rganganlar ham bir tomonlama ya'ni faqat kuchli tomonlarini va muvaffaqiyatlarini yoritishardi. Erkinlik esa tarixchi tadqiqotchilarga ushbu idoralar tarixini boricha yoritish imkoniyatini berdi. Tarixiy faktlar shuni ko'rsatmoqdaki, sotsialistik tuzum davridagi huquqni muxofaza qilish organlarida ham kamchiliklar yetarlicha bo'lgan. Ushbu kamchiliklar moddiy tomon bilan ham ishga olingan xodimlarning aksariyati uquqsiz bo'lganligi uchun ham mavjud bo'lganligini izohlash mumkin.

ADBIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent., “TASVIR” 2021. – 36 b.

2. Абдурахимова Н.А., Ф.Р.Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими – Тошкент: “Академия” 2002. – 236 б.

3. Хутарев В. Г. Скандал в охранном ведомстве. К становлению русского сыска в Туркестане в 1907–1909 гг. // Журнал российских и восточноевропейских исторических исследований. 2022. №2.

4. Список общего состава чинов Отдельного корпуса жандармов на 1912 г. СПб., 1912.

5. Ўзбекистоннинг янги тарихи/Тузувчилар: Ҳ. Содиков, Р Шамсутдинов, П. Равшанов ва бошқ.; Таҳрир хайъти: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 349 б.

6. O'zbekiston Milliy arxivi, I-461 fond, 1-ro'xat, 2468-ish, 4-varaq.

7. Перегудова З.И. Политический сыск России (1880-1917 гг.). - М.: РОССПЭН, 2000. – 432 с.

8. O'zbekiston Milliy arxivi, I-461 fond, 1-ro'xat, 1677-ish, 9-varaq.

9. Самарқанд газетаси. 1917. № 21.

10. Мартынов, А. П. Моя служба в Отдельном корпусе жандармов // «Охранка»: воспоминания руководителей охранных отделений / вступ. ст. и коммент. З. И. Перегудовой. Т. I. М. : Новое литературное обозрение, 2004.

SURXONDARYO VILOYATIDA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINI O‘RNATISHDA MODDIY-TEXNIK BAZANING HOLATI

Yakubova Dilaram Tadjiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Tarix va falsafa kafedrası professori

Annotatsiya. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning paxta ishlab chiqarishdagi muhim hududlaridan biri bo‘lib, paxta yakkahokimligini o‘rnatishda moddiy-texnik bazaning holati viloyat iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligi rivojida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda Surxondaryo viloyatida paxta yetishtirishning moddiy-texnik ta‘minoti, jumladan, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi, sug‘orish tizimlari, paxta tozalash va qayta ishlash korxonalarini infratuzilmasi tahlil qilinadi. Viloyatda paxta yetishtirishning 120,8 ming gektar maydonda olib borilishi, shuningdek, “Surxondaryo agroxizmat” paxta-to‘qimachilik klasteri kabi tashkilotlar tomonidan zamonaviy agrotexnologiyalar va biologik mahsulotlardan foydalanish natijasida hosildorlikning 20-30 foizga oshgani kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, kollektor-drenaj tarmoqlari va meliorativ holatni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham tahlil etiladi. Tadqiqotda, shuningdek, paxta yakkahokimligini mustahkamlashda mavjud muammolar, masalan, texnikaning eskirishi, infratuzilma rivojlanishidagi cheklovlar va zamonaviy uskunalarni yetishmasligi kabi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo viloyati, paxta yakkahokimligi, moddiy-texnik baza, qishloq xo‘jaligi, paxta ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalar, sug‘orish tizimlari, paxta-to‘qimachilik klasteri, hosildorlik, agrotexnologiyalar, meliorativ holat, infratuzilma, modernizatsiya, xalqaro hamkorlik.

СОСТОЯНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ СОЗДАНИЯ ХЛОПКОВОЙ АВТОНОМИИ В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Якубова Диларам Таджиевна,

*профессор кафедры истории и философии Деновского института
предпринимательства и педагогики*

Аннотация. Сурхандарьинская область является одним из важных регионов Узбекистана по производству хлопка, и состояние материально-технической базы в установлении хлопковой монополии имеет большое значение для развития экономики и сельского хозяйства региона. В данном исследовании анализируется материально-техническое обеспечение возделывания хлопка в Сурхандарьинской области, включая уровень использования современной техники и технологий, ирригационных систем, инфраструктуры хлопкоочистительных и перерабатывающих предприятий. Рассматриваются такие факторы, как то, что возделывание хлопка в области осуществляется на площади 120,8 тысяч гектаров, а также то, что применение современных агротехнологий и биопрепаратов такими организациями, как хлопково-текстильный кластер «Сурхандарья Агрехизмат», позволило повысить производительность на 20-30 процентов. Одновременно анализируются меры, принимаемые по улучшению коллекторно-дренажной сети и мелиорации земель. В исследовании также обсуждаются существующие проблемы в укреплении хлопковой монополии, такие как устаревание техники, ограничения в развитии инфраструктуры, нехватка современной техники.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, хлопковая монополия, материально-техническая база, сельское хозяйство, хлопководство, современные технологии, ирригационные системы, хлопково-текстильный кластер, производительность, агротехнологии, мелиорация, инфраструктура, модернизация, международное сотрудничество.

THE STATE OF THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE FOR THE CREATION OF COTTON AUTONOMY IN THE SURKHONDARYA REGION

*Dilaram Tadjieva Yakubova,
Professor of the Department of History and Philosophy
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

Abstract. Surkhondarya region is one of the important regions of Uzbekistan for cotton production, and the state of the material and technical base in establishing a cotton monopoly is of great importance for the development of the economy and agriculture of the region. This study analyzes the material and technical support for cotton cultivation in Surkhondarya region, including the level of use of modern equipment and technologies, irrigation systems, infrastructure of cotton ginning and processing enterprises. Factors such as the fact that cotton cultivation in the region is carried out on an area of 120.8 thousand hectares are considered, as well as the fact that the use of modern agricultural technologies and biopreparations by such organizations as the cotton and textile cluster «Surkhondarya Agrokhizmat» has increased productivity by 20-30 percent. At the same time, measures taken to improve the collector and drainage network and land reclamation are analyzed. The study also discusses existing problems in strengthening the cotton monopoly, such as obsolescence of equipment, limitations in infrastructure development, and lack of modern equipment.

Keywords: Surkhondarya region, cotton monopoly, material and technical base, agriculture, cotton growing, modern technologies, irrigation systems, cotton-textile cluster, productivity, agricultural technologies, melioration, infrastructure, modernization, international cooperation.

Kirish. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning paxta ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi hududlaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o'rinni egallaydi. Paxta yakkahokimligini o'rnatish viloyatning qishloq xo'jaligi va sanoat salohiyatini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish hamda mahalliy aholi bandligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. So'nggi yillarda global bozorda paxtaga bo'lgan talabning o'sishi va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish zarurati ushbu sohada moddiy-texnik bazaning holatini o'rganishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Surxondaryo viloyatida paxta yetishtirishning 120,8 ming gektar maydonda olib borilishi, shuningdek, "Surxondaryo agrokhizmat" kabi klasterlar orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Biroq, texnikaning eskirishi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va zamonaviy uskunalarning yetishmasligi kabi muammolar ishlab chiqarish samaradorligiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va uni zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasini barqaror rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Sovet hokimiyati paxta yakkahokimligini rivojlantirish maqsadida paxtaning mintaqaga mos navlarini ekish borasida ham muhim amaliy ishlarni bajardilar. Ayniqsa, sanoat uchun muhim hisoblangan ingichka tolali paxta navlarni yaratish ishlariga alohida e'tibor berildi. Bu ishlar uchun zaruriy mablag'larni ajratish va issiqqa chidamli navlarni ko'paytirish ishlari uchun ilmiy tadqiqot institutlarni tashkil etdi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlariga tajribali ilmiy xodimlarni va agronom mutaxassislarini ham jalb etdi. Surxon vohasida ingichka tolali paxta navlarini yaratishda alohida xizmat qilgan M.S. Istominning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning xizmatlari tufayli ingichka tolali paxta navlari yaratildi va sinovdan o'tkazildi. Uning tinimsiz izlanishlari natijasida Surxondaryo oblastining ingichka tolali paxta yetishtirishga moslashgan Sherobod dashtining janubiy qismida o'ziga xos tabiiy sharoitlar aniqlanib, bu hududda temperaturalarning yig'indisi 6 ming gradus (daraja)ni tashkil etib, bu esa paxta uchun 3200 gradusga yaqin ijobiy ta'sir ko'rsatadigan temperaturalarning yig'indisini mavjudligi bilan ajralib turar edi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'rtacha kunlik temperaturali kunlarning yillik miqdori – 10 (gradus) dan

yuqorisi 261 kun, 5 (gradus) dan yuqorisi 44 kun bo‘lib, noldan past bir kun ham yo‘q. Bulutsiz kunlar va quyoshli soatlarning miqdori Birlashgan Arab Respublikasidagiga nisbatan bu yerda ko‘p bo‘lib, dastlabki ko‘saklarning ochila boshlaganidan to kuzgi sovuqlar tushguncha yana 120 kun issiq vaqt bo‘lib, bu davrda barcha ko‘saklar ochilib ulguradi. May va sentyabr oylarining temperatura sharoitlari bir xil; “qish” degan narsa bo‘lmaydi, minimal o‘rtacha kunlik issiqlik temperatura butun qish bo‘yi plyus ikki gradus (daraja)dan past tushmaydi. Yog‘ingarchiliklar juda kam bo‘ladi. Sherobod va Termizda ular yil mobaynida 150 millimetrdan oshmaydi, shu jumladan dekabrda to may oyigacha 90 millimetrdan tashkil etadi. Havoning nisbiy namu juda ham past bo‘lib, O‘rta Osiyoning paxta yetishtiriladigan birorta mintaqasida uchramaydi; bir yilning 200 kunida havoning nisbiy havo namu 30 foizdan kam bo‘ladi, yoz oylarida esa u 18-20 foizgacha pasayadi, janubi- g‘arbdan esadigan garmsel (afg‘onka) havoning nisbiy namu 13-16 foiz bo‘ladi [1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. M.S. Istominni olib borgan xizmatlari tufayli O‘zbekistonda paxta bo‘yicha, ayniqsa ingichka tolali paxta bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar juda og‘ir sharoitlarda ro‘yobga chiqarilib, Sovet ittifoqining rivojlanib borayotgan to‘qimachilik sanoati yuqori sifatli va pishiq gazmollar ishlash uchun paxtaning yuqori tip tolalarini talab qilgan bir vaqtda ingichka tolali paxta yetishtirish ishi juda katta qiyinchilik evaziga bajarildi. Dastlabki yillarida sinov asosida ingichka tolali paxta urug‘ini iqlimning qanday sharoitlarida ekish; u suvga, o‘g‘itga, g‘o‘za tuplari oralarining tig‘izligiga, yuqori temperaturalariga, xavoning namu va hokazolarga qanday munosabatda bo‘lishi va paxtaning qachon pishib yetilishi ma‘lum emas edi. Shu maqsadda chet mamlakatlardan keltirilgan Misr paxta chigiti (bu paxta navi o‘sha vaqtda shunday deb atalardi) SSSRning barcha paxta ekiladigan zonalarida ekilib, bundan mazkur nav paxta uchun eng optimal iqlimiy sharoitlarni aniqlash maqsad qilib olindi. Eng og‘ir mehnat: ingichka tollali chigit yerga qo‘l bilan qadaldirdi. Chunki urug‘lik chigit juda kamligi sababli ular ba‘zan xatto ko‘chat qilib o‘tkazildirdi. Shu bilan birga u vaqtlarda seyalka ham juda kam edi.

Bu nav paxtani o‘rganishning dastlabki bosqichlarida ekin maydonlari gektar hisobida quyidagicha bo‘lgan edi.

	1928 y.	1929 y.	1930 y.	1931 y.	1932 y.	1933 y.
O‘zbekiston SSR	-	5	205	940	5,490	9,075
Turkmaniston SSR	33	108	1,013	5,185	14,779	17,623
Tojikiston SSR	-	25	3,532	14,227	21,524	23,041
Ozarbayjon SSR	1	2	40	892	8,435	26,005
SSSR bo‘yicha jami	34	140	4,790	21,244	50,228	76,344

Bunday tadqiqot ekishlari O‘zbekistonning deyarli barcha paxta ekiladigan rayonlarida, shu jumladan Toshkent, Piskent, Yangiyo‘l, Mirzacho‘l rayonlarida, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarining barcha rayonlarida o‘tkazildirdi [3].

Turkmaniston va Tojikistonda ham barcha rayonlarda, shu jumladan eng shimoliy rayon hisoblangan Xo‘jand va Konibodom rayonlarida ham, Naxichevan Avtonom SSRda ham ekilib, har xil navlarning urug‘lari (Pima, Sakel, Ashmuni, Ramseller, Affifi, Maarad) o‘sha paytlarda chet ellardan keltirilgan, ammo ularning hammasi ham kechpishar bo‘lib, o‘shish davrining 150-170 kun bo‘lishini talab etgan. SSSR paxtachiligining barcha iqlimiy sharoitlarida bunday tadqiqot ekishlarining keng ko‘lamda o‘tkazilishi ingichka tolali paxtani qaysi joylarga ekish, ular orasidan eng effektiv navlarini aniqlash imkonini berdi. Misr paxtasining barcha mavjud navlari tolasining

xo'jalik sifati o'rganilishi natijasida SSSRda 1928 yili 22 ming, 1929 yili 121 ming tonna ingichka tolali paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1933 yilga kelib O'zbekistonda bundan ham ko'p ingichka tolali paxta tayyorladi. Bunda har gektar yerdan olingan paxta hosili o'rtacha 4,8 syentnerni tashkil etdi [4].

Muhokama va natijalar. Surxondaryo oblastida bu nav Sherobod, Termiz va Jarqo'rg'on rayonlarida sinovdan o'tkazilib, 1933 yili bu yerda 3,5 ming gektar yerga shunday nav paxta ekilib, 2 ming tonnadan ziyod ingichka tollali paxta yetishtirildi. 1934 yilning bahorida Surxondaryo oblastining mazkur rayonlarida barcha maydonlarga ikki nav: Pima va Maarad navlari ekilib, Maarad navi bu joylarning sharoitiga ancha muvofiq sinovdan o'tib, ancha yuqori hosil va sifatli tola berdi. 1934 yilning ko'klamidan boshlab bu rayonlarda faqat ingichka tolali nav paxta ekila boshladi. 1933 yildan boshlab Surxondaryo oblastining bu rayonlarida eng yaxshi va yuqori hosilli uchastkalardan urug'lik chigit tayyorlash bo'yicha katta sinov tadqiqot ishlar o'tkaziladi. 1934 yilning bahorida esa Sherobod rayonidagi Chuyunchi qishlog'idagi Kirov nomli kolhozda elita urug'chilik xo'jaligi tashkil etiladi. Bu xo'jalik Surxondaryo va Buxoro oblastlaridagi hamda Farg'ona vodiysidagi xo'jaliklarni urug'lik chigit bilan ta'minladi. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, ingichka tolali kechpishar Pima va Maarad navlarinig hosili amalda ingichka tolali bo'lmagan paxta gruppalaridan ekilgan navlarinig hosilidan kam bo'lmadi. 1938 yildan boshlab ingichka tolali paxta Sho'rchi rayonida ham ekila boshladi. 1941 yili oblastda 40 ming gektar paxta maydonining 19600 gektariga ingichka tolali paxta ekildi. Har gektar yerdan o'rtacha 12,2 syentnerdan hosil olindi. Ikkinchi jahon urushining og'ir yillarida esa ingichka tolali Misr va Amerika navlari paxtalari Denov rayonida ham 2,5-3,5 ming gektar yerga ekildi [6].

2-jadval

[1932-1933 yillarda Pima va Maarad navlari bo'yicha ko'rsatgich \[5\]](#)

Rayonlar	1932 yil (birinchi ekilgan yili)		1933 yil	
	Amerika navi	Misr navi	Amerika navi	Misr navi
Sherobod rayonida	12,0	1,2	7,8	7,7
Termiz rayonida	6,6	1,8	5,3	4,2
Jarqo'rg'on rayonida	4,5	2,2	5,2	4,7

[Urushdan keyingi yillarda ingichka tolali paxta yetishtirish 1953 va 1954 yillarda eng yuqori darajaga yetdi. Bunda paxta maydoni 33 ming gektarni tashkil etib, deyarli 60 ming tonna paxta tayyorlandi. Quyida keltirilgan 1954 yil ma'lumotlari ingichka tolali paxta ekilgan yer maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to'g'risida ma'lumot beradi:](#)

Rayonlar	Yer maydoni (gektar)	Hosil (gektaridan syentner)	Terilgan hamma hosil (tonna)
Termiz rayoni	5040	21,2	10,685
Jarqo'rg'on rayoni	8094	22,8	18,455
Sho'rchi rayoni	8200	13,0	10,715
Sherobod rayoni	4300	17,9	7,667
Angor rayoni	7300	16,6	12,107
Oblast' bo'yicha	32,934	18,1	59,629

Oblastda paxta ekinlariga nisbatan ingichka tolali paxta ekinlarining salmog‘i 45 foizni, paxta yetishtirish bo‘yicha esa 35 foizni tashkil etdi [7]. Ingichka tolali paxtadan yuqori hosil yetishtirganliklari uchun kolxozchilardan, xo‘jaliklar va rayon rahbarlaridan 9 kishi Socialistik Mehnat Qahramoni unvonini olishga musharraf bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligining ko‘pgina mehnatkashlari SSSR orden va medallari bilan taqdirlandi, faxriy unvonlar oldi. 35-1; 5476-I paxta navlari fuzarioz vilti bilan kuchli darajada zararlanganliklari munosabati bilan bu navlar ekiladigan yer maydonlari keskin qisqara boshladi. Bunga uning sifatini hisobga olmay paxta yetishtirishga intilish ham kuchli darajada yordam berdi. 1964 yili bu nav hammasi bo‘lib oblast bo‘yicha 12365 gektar maydonda qoldi, atigi 23.178 tonna paxta yetishtirildi. Bu, oblastda tayyorlanadigan umumiy paxta miqdorining 9 foizga yaqinini tashkil etdi [8].

Oblastda ekiladigan asosiy ingichka tolali paxta navi 5904-I bo‘lib, 3 tip tola berib, bu nav paxta fuzarioz vilti va qora ildiz chirish kasalliklariga chidamli bo‘lmagani sababli uning o‘rniga S6002 navi ekildi. Bu nav 2 tip tola beradi, fuzarioz kasalligiga chidamli bo‘lsa-da, ammo makrosporioz kasalligiga bardosh berolmadi. Oblast qishloq xo‘jalik tajriba stansiyasi tomonidan chiqarilgan T3, T7, T8 navlari ildiz chirish kasalliklariga chidamli, 5904-I naviga nisbatan ancha yuqori hosilli bo‘lib, bir necha kun erta yetilganligi bilan iqtisodiy foyda keltirdi. O‘zbekiston SSR paxta urug‘chiligi va seleksiyasi instituti tomonidan chiqarilgan S6028, S6029, S6030, S6033, S6034, 8022 navlari ham yuqoridagi T3, T7, T8 navlariga o‘xshab katta iqtisodiy samara berdi. Oblastda ikkita elita urug‘chilik xo‘jaligi mavjud bo‘lib, ularning bittasi Sherobodagi “XXP parts‘yezd” kolxozida joylashgan bo‘lib, S 6002 navi, ikkinchisi Termizdagi “Namuna” kolxozida joylashgan bo‘lib, 5904-I navi ustida ish olib bordi [11].

Xulosa. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr va mulohazalardan shuni alohida ta‘kidlash keraki, Surxondaryo viloyatida paxta yakkahokimligini o‘rnatishda moddiy-texnik bazaning holati viloyatning qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, viloyatda paxta ishlab chiqarishning moddiy-texnik ta‘minoti, xususan, zamonaviy agrotexnologiyalar va sug‘orish tizimlaridan foydalanish orqali hosildorlik sezilarli darajada oshirilgan bo‘lsa-da, bir qator muammolar, jumladan, eskirgan texnika va infratuzilma cheklovlari hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Paxta yakkahokimligini yanada mustahkamlash uchun moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Ushbu yondashuv nafaqat viloyatning paxta ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi, balki O‘zbekistonning global paxta bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. Fond-48, opis Surxondaryo VDA, 19 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 45-ish, 6-v.
2. Surxondaryo VDA, 18 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 133-ish, 34-varaq.
3. M.S.Istomin. Surxondaryoda ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasi. T., O‘zbekiston KP MKning nashriyoti, 1969. 5-6 betlar.
4. O‘zPA Surxondaryo viloyati hokimligi filiali arxivi, 1-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 46-ish, 60-varaq.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. Fond-48, opis Surxondaryo VDA, 19 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 48-ish, 19-varaq.
6. Surxondaryo VDA, 18 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 141-ish, 15-varaq.
7. M.S.Istomin. Surxondaryoda ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasi. T., O‘zbekiston KP MKning nashriyoti, 1969. -B.12.
8. M.S.Istomin. Surxondaryoda ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasi. T., O‘zbekiston KP MKning nashriyoti, 1969.-B.13.
9. Surxondaryo VDA, 18 jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 147-ish, 27-varaq.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

LANGUAGE AND CULTURE: INTERCULTURAL COMMUNICATION AND CULTURAL REALIA

Abdukarimova Nodira

*Master's graduate of Linguistics in Foreign philology faculty,
National University of Uzbekistan*

Abstract. Language is a profound reflection of a society's culture, encompassing not only the material environment and living conditions of its members but also their collective consciousness, mentality, national identity, traditions, customs, moral values, and worldview. It functions as both a communicative tool and a cultural repository, safeguarding heritage and transmitting it across generations. This paper examines the interdependence of language and culture, with a particular focus on English as a Foreign Language (EFL). Drawing on the works of prominent linguists, it highlights the importance of cultural awareness in understanding stereotypes, ethnographic realia, non-verbal cues, and phraseological units, which collectively enhance the effectiveness of intercultural communication.

Keywords: language–culture relationship, intercultural communication, cultural heritage, ethnographic realia, cultural stereotypes, phraseological units, non-verbal communication, comparative linguistics, EFL learning.

TIL VA MADANIYAT: MADANIYATLARARO MULOQOT VA MADANIY REALIYALAR

Abdukarimova Nodira

O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Lingvistika yo'nalishi magistratura bitiruvchisi

Annotatsiya. Til – jamiyat madaniyatining chuqur aksidir. U faqatgina uning a'zolarining moddiy muhiti va yashash sharoitlarini emas, balki ularning jamoaviy ongini, mentalitetini, milliy o'zligini, an'analari va urf-odatlarini, axloqiy qadriyatlarini hamda dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Til aloqa vositasi bo'lish bilan birga, madaniy merosni saqlovchi va uni avloddan-avlodga yetkazuvchi xazina sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada til va madaniyat o'zaro bog'liqligi, xususan, ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o'rganish jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Mashhur tilshunoslarning ilmiy ishlari asosida madaniy xabardorlikning stereotiplar, etnografik realiyalar, noverbal belgilar va frazeologik birliklarni tushinishdagi roli tahlil qilinadi. Bu omillar o'zaro madaniy muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til–madaniyat munosabati, madaniyatlararo muloqot, madaniy meros, etnografik realiyalar, madaniy stereotiplar, frazeologik birliklar, noverbal kommunikatsiya, qiyosiy tilshunoslik, EFL o'qitish.

ЯЗЫК И КУЛЬТУРА: МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ И КУЛЬТУРНЫЕ РЕАЛИИ

Абдукаримова Нодира,

Магистр лингвистики, факультет иностранной филологии, Национальный университет Узбекистана

Аннотация. Язык — это глубокое отражение культуры общества, охватывающее не только материальную среду и условия жизни его членов, но и их коллективное сознание, менталитет, национальную идентичность, традиции, обычаи, нравственные ценности

и мировоззрение. Он выступает как средство коммуникации и как хранилище культуры, обеспечивая сохранение наследия и его передачу из поколения в поколение. В данной статье рассматривается взаимозависимость языка и культуры, с особым акцентом на английский язык как иностранный (EFL). На основе трудов выдающихся лингвистов подчеркивается важность культурной осведомлённости в понимании стереотипов, этнографических реалий, невербальных сигналов и фразеологических единиц, которые в совокупности способствуют повышению эффективности межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: взаимосвязь языка и культуры, межкультурная коммуникация, культурное наследие, этнографические реалии, культурные стереотипы, фразеологические единицы, невербальная коммуникация, сопоставительное языкознание, обучение EFL.

Introduction. Since ancient times, language and culture have been inextricably linked, mutually shaping and enriching one another across the scientific, cultural, and social domains of human life. Language serves as a primary marker of national identity, enabling the preservation and transmission of traditions, customs, and values from one generation to the next. This linguistic heritage not only defines the uniqueness of a nation but also forms the foundation of its historical and cultural legacy.

Culture, as the cornerstone of a society's spiritual heritage, provides the basis for the existence, development, and transformation of language. It facilitates cross-cultural interaction while maintaining a strong connection between past, present, and future generations.

In the context of EFL learning, mastering grammar and vocabulary is insufficient without gaining insight into the cultural background of the target language. Understanding the history, customs, and worldview of the society in which the language evolved enables learners to interpret meaning more accurately and communicate more effectively. This research employs comparative analysis to investigate the interplay between linguistic and cultural systems, focusing on intercultural non-verbal communication, cultural stereotypes, ethnographic realia, and phraseological units.

Literature review. The relationship between language and culture has been widely discussed in linguistics and anthropology. Edward T. Hall (1976) emphasized the role of culture in shaping communication styles, noting that much of human interaction is influenced by implicit cultural norms. David Crystal (1997) explored how language reflects social values and identities, arguing that linguistic forms cannot be fully understood without reference to their cultural contexts.

Other scholars have examined the role of non-verbal communication in intercultural interaction (Knapp & Hall, 2010), the influence of cultural stereotypes on language perception (Lippmann, 1922), and the importance of ethnographic realia in foreign language acquisition (Kramsch, 1998). Research consistently demonstrates that language learning is most effective when integrated with cultural competence, allowing learners to engage in authentic and contextually appropriate communication.

Methodology. This study applies a comparative analysis approach, drawing on examples from English and the learners' native language to highlight cultural differences and similarities in communication. The research process involved:

1. Literature Analysis – Reviewing scholarly works by Hall, Crystal, and others to establish a theoretical foundation.
2. Data Collection – Identifying examples of intercultural miscommunication, cultural stereotypes, and non-verbal differences from authentic EFL learning environments.
3. Categorization – Classifying findings into thematic groups: non-verbal communication, stereotypes, ethnographic realia, and phraseological units.
4. Interpretation – Analyzing how these elements influence understanding and communication in intercultural contexts.

This mixed qualitative approach ensures that both theoretical perspectives and practical

implications are considered.

Results. In 1976, Edward T. Hall developed a model of linguacultural substance using the well-known “iceberg” analogy. He argued that culture is largely hidden—about 90% lies beneath the surface—while only a small portion is visible and directly experienced. The visible elements represent the outward expressions of culture, whereas the deeper, concealed aspects include values, beliefs, and historical influences. Consequently, learning a language requires more than familiarity with its superficial features; it demands immersion into the language’s origins, history, cultural traditions, and the society in which it evolved and continues to grow.

Singhal (1998) emphasized that language teachers should undergo both experiential and academic training to serve as effective “mediators” in teaching culture. This role involves helping learners navigate between their own cultural perspectives and those of the target language community.

Similarly, Killick and Poveda (1997) stressed that cultural understanding is fostered through an awareness of “otherness” and recognition of the limitations of one’s own cultural identity.

David Crystal, a prominent linguist and contemporary author, notes that predicting the future trajectory of a language requires an understanding of its past as well as its present, especially in relation to its cultural background. He underscores the importance of paying close attention to current developments in regions such as India and China, where the English language is undergoing significant and rapid transformation.

Discussion. The findings align with the broader perspective in linguistics that language learning cannot be separated from cultural immersion. Hall’s “iceberg” model reinforces the idea that most cultural meaning lies beneath the surface, beyond what is immediately visible in social interactions. This underscores the necessity for language instruction to move beyond grammar and vocabulary toward a deeper exploration of historical, social, and cultural contexts.

The emphasis by Singhal (1998) on the dual training of teachers—both experiential and academic—suggests that educators must be equipped not only with linguistic expertise but also with the intercultural skills necessary to bridge cultural gaps. Similarly, Killick and Poveda’s (1997) notion of recognizing “otherness” resonates strongly in multilingual and multicultural classrooms, where learners often bring diverse worldviews that influence their language acquisition process.

Crystal’s observations about India and China highlight the dynamic and evolving nature of English, reminding educators and linguists that language change is influenced by global socio-economic shifts. Monitoring such developments can help anticipate new forms, usages, and expressions that may enter global English in the coming decades.

Overall, the results indicate that an integrated approach—combining cultural analysis, historical awareness, and global observation—is essential for both effective language teaching and a deeper understanding of linguistic evolution.

CONCLUSION

The intricate link between language and culture is a cornerstone of effective communication and mutual understanding among nations. Language functions not merely as a tool for transmitting information but as a cultural vessel that preserves and conveys values, traditions, and identities across generations.

In EFL education, cultural competence is as vital as linguistic proficiency. Awareness of cultural stereotypes, ethnographic realia, non-verbal communication patterns, and phraseological expressions significantly enhances learners’ ability to interpret meaning accurately and interact successfully in cross-cultural contexts. By integrating cultural insights into language learning, educators and students can foster deeper understanding, adaptability, and meaningful intercultural dialogue.

REFERENCES

1. Abduramanova, D. V. (2020). Innovative techniques of teaching vocabulary in the second

language classroom. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).

2. BYRAM, M. (Eds.) *Mediating Languages and Cultures: Towards in Intercultural Theory of Foreign Language Education* Clevedon, Multilingual Matters Ltd.

3. Crystal, David (1997). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press. 4. Crystal, David (2010). *Evolving English: One Language, Many Voices. An Illustrated History of the English Language*. London: British Library. 5. Crystal, David (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*. London: Routledge. 6. DLASKA, A. (2000) Integrating Culture and Language Learning in Institution-Wide Language Programs. *Language, culture and curriculum*, 13, 247-263. 7. LIAW, M.-L. & JOHNSON, R., J (2001) E-mail Writing as a Cross-Cultural Learning Experience. *System*, 29, 235-251. 8. Sapir, E. 1921. *Language. An Introduction to the Study of Speech*. London: Rupert Hart-Davis. 9. Tomalin, B., & Stempleski, S. (1993). *Cultural Awareness*, Oxford: Oxford University Press.

KAZUO ISHIGURONING “NEVER LET ME GO” ROMANIDA NARRATIV IDENTITET VA GUMANISTIK QARSHILIK MASALALARI

Isomiddinov E.,
NamDCHTI

Annotatsiya. Ushbu maqola Kazuo Ishiguroning “Never Let Me Go” (2005) romanida xotiraning insonparvarlik timsoli sifatidagi rolini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqot distopik jamiyatda yashovchi klonlar orqali xotira, identitet va insoniy mavjudlik o'rtasidagi chuqur bog'liqliklarni o'rganadi. Maqolada xotiraning nafaqat esdalik vositasi, balki shaxsiy identitetni shakllantiruvchi, insoniylikni tasdiqlovchi va jamiyatning dehumanizatsiya jarayonlariga qarshi kurashuvchi faol mexanizm sifatidagi funksiyasi ochib beriladi. Narrativ tahlil orqali klonlarning retrospektiv hikoya qilish uslubi, vaqt tushunchasining spetsifik talqini va xotiraning ontologik, epistemologik hamda gumanistik jihatlarini o'rganiladi. Lingvopoetik tahlil Ishiguroning noan'anaviy, sokin biroq ta'sirchan uslubini, birinchi shaxs narrativining ishonchlilik va subyektivlik orasidagi dialektikasini, shuningdek fragmentar tuzilmaning xotira psixologiyasiga mos kelishini yoritadi. Tadqiqot natijalarida xotiraning insoniy maqomni himoya qiluvchi so'nggi mudofaa chizig'i sifatidagi roli isbotlanadi.

Kalit so'zlar: xotira, identitet, insonparvarlik, klonlash, distopiya, Kazuo Ishiguro, narrativ struktura, dehumanizatsiya, biotexnologiya, retrospektiv hikoya

ISSUES OF MNEMONIC IDENTITY AND TEMPORAL EXPERIENCE IN KAZUO ISHIGURO'S “NEVER LET ME GO”

Abstract. This research analyzes the complex nature of memory poetics in Kazuo Ishiguro's novel «Never Let Me Go» (2005) and its role in shaping human identity. The article examines memory's function not merely as a tool of recollection, but as an active form of resistance against dehumanization processes within the confined living space of clones created in a dystopian society. The study provides an in-depth analysis of how institutionalized environments such as Hailsham School and the Cottages influence the clones' memory, their temporal experience, and the dialectic between past and future. The retrospective nature of the narrative structure, the empathic function of memory in Kathy H.'s role as a carer, and the role of mnemonic processes in affirming the clones' identity are examined. The article also analyzes the individual and collective characteristics of memory, its unreliability and subjective nature from a linguopoetic perspective. The research findings demonstrate memory's significance not only as a means of creating personal identity, but as ontological evidence that protects human existence.

Keywords: memory poetics, mnemonic identity, temporal experience, cloning, Hailsham, carer, donor, completion, dehumanization, resistance, Kazuo Ishiguro

Kirish. Kazuo Ishiguro – zamonaviy ingliz adabiyotining eng nufuzli vakillaridan biri bo'lib, uning asarlari inson ongining murakkab qatlamlari, xotira va o'zlikning noaniq chegaralari, shuningdek, axloqiy-ijtimoiy muammolarni tasvirlashga bag'ishlangan. Uning 2005-yilda chop etilgan Never Let Me Go nomli romani bu jihatlarni eng yuksak badiiy darajada ifoda etgan asarlardan biri sifatida tan olingan. Romanda inson deb tan olinmagan, ammo o'zini anglaydigan, his qiladigan va eslaydigan klonlar orqali muallif jamiyatdagi dehumanizatsiya, axloqiy indifferentlik va biotexnologik kelajakka oid tahdidlarni o'rganadi.

Asar markazida xotira masalasi turadi: bosh qahramon Keti H. o'z hayotini retrospektiv tarzda hikoya qiladi. Bu jarayonda xotira oddiy eslash emas, balki o'zligini tasdiqlash, boshdan kechgan voqealarni anglash va insoniy mavjudlikni himoya qilish vositasiga aylanadi. Klonlar uchun xotira – bu ularning inson sifatidagi mavjudligini isbotlovchi yagona vosita. Ular biologik jihatdan yaratilgan, ularning hayot ssenariysi oldindan belgilangan, biroq ular o'zaro aloqa, his-

tuyg‘u va ongli eslash orqali “haqiqiy” hayotni yashab o‘tganliklarini namoyon etadilar.

Mazkur maqolada Never Let Me Go romanida xotiraning insonparvarlik timsoli sifatida qanday ishlatilgani tahlil qilinadi. Xotiraning vaqt, identitet, empatiya va axloqiy qarshilik bilan o‘zaro aloqasi chuqur tahlil etilib, klonlar orqali insoniylikning ontologik va estetik tasdig‘i ochib beriladi. Shu bilan birga, Ishiguroning lingvopoetik uslubi – uning sokin, biroq kuchli drammatizmi, ishonchsiz narrator orqali ishlangan tildagi qatlamlar ham lingvistik jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, maqolaning asosiy maqsadi – xotiraning roman doirasidagi ontologik, gumanistik va stilistik funksiyalarini yoritishdir.

Kazuo Ishiguroning Never Let Me Go romanida vaqt tushunchasi g‘ayrioddiy tarzda talqin etiladi. Klonlar uchun vaqt – bu ochiq imkoniyatlar zanjiri emas, balki qat‘iy belgilangan yo‘ldir. Ular hayotining maqsadi boshidanoq aniqlangan: parvarishchi (carer) bo‘lib xizmat qilish, keyin esa donorlik jarayoniga kirishish va nihoyat “yakunlanish” (completion) – ya‘ni butunlay yo‘qolish. Bu deterministik kelajak tasavvuri ularning vaqtni qabul qilish uslubiga bevosita ta‘sir qiladi. Xotira bu sharoitda faqat o‘tmishga tegishli bo‘lib qolmay, mavjudlikning yagona haqiqatli qatlamiga aylanadi.

Asarning ilk sahifalaridanoq Ketu “men tugagunimcha” (before I finish) iborasini ishlatadi (Ishiguro, 3). Bu esa uning hikoyasini vaqt jihatdan chegaralangan, muqarrar intihoga yo‘naltirilgan voqelik sifatida taqdim etadi. Shu tarzda, o‘tmish – bu nafaqat eslab qolish vositasi, balki ongli ravishda vaqtning yagonaligini anglash manbai hamdir. Ketining hikoyasi orqali o‘quvchi nafaqat u yashagan voqealarni kuzatadi, balki bu voqealar qanday qilib o‘z vaqtida yagona imkoniyat sifatida idrok etilganini his qiladi.

Klonlar uchun kelajak o‘ziga xos «yashash uchun maydon» emas, balki bosqichma-bosqich o‘z tanasini ijaraga berib, so‘ng butunlay yo‘q bo‘lishga olib boruvchi muqaddar yo‘ldir. Shunday sharoitda o‘tmish ularning eng qimmatli «mulkiga» aylanadi. Ishiguro bu orqali vaqtni lineer emas, balki teskari yo‘nalishda talqin etadi: klonlar uchun vaqt ongining asosiy vektori orqaga – o‘tmishga – qaratilgan. Bu retrospektiv yondashuv faqat nostalgiya yoki qayg‘u bilan bog‘liq emas, balki ontologik qaror – inson sifatidagi mavjudlikni isbotlash harakatidir. Bu temporal cheklovlar fonida xotiraning bahosi oshadi. Har qanday xotira – hattoki oddiy, kundalik tafsilotlar ham – yashab o‘tilgan hayotning muhim daliliga aylanadi. Masalan, Norfolkka bo‘lgan tashrif, musiqaga raqsga tushgan sahna, Cottagesdagi osoyishta vaqt – bularning barchasi romandagi klonlar ongida chuqur o‘rnashgan xotira nuqtalaridir. Bu voqealar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, bevosita bo‘lmagan erkinlik, tanlov, his-tuyg‘u va insoniylik ilinjining ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, Ishiguro klonlarning vaqt tushunchasi orqali inson mavjudligining eng chuqur muammolaridan birini – erkinlik va taqdir, o‘tmish va kelajak, xotira va identitet orasidagi murakkab bog‘liqlikni badiiy vositalar yordamida yoritadi. Vaqtning bu tarzda tasvirlanishi xotirani ularning yagona haqiqatli tajribasi sifatida ko‘rsatadi – xotira ularni inson qiladi, vaqt esa ularning mavjudligini chegaralaydi.

Never Let Me Go romanida xotira nafaqat o‘tgan voqealarni eslash vositasi, balki klonlar ongining asosiy shakllanish omilidir. Shaxs, ya‘ni identitet, ularning holatida biologik yoki huquqiy asosga ega emas; u faqat sub‘ektiv eslash, hissiy bog‘lanishlar va o‘z-o‘zini anglash jarayoni orqali shakllanadi. Klonlar uchun identitet – bu jamiyat tomonidan belgilangan rol emas, balki ichki tajriba orqali mustahkamlangan shaxsiy haqiqatdir. Aynan xotira ularning ushbu haqiqatni tiklashga bo‘lgan yagona vositasidir.

Ketining hikoyasi – bu biografik bayon emas, balki shaxsiy anglash, qayta baholash va eslab qolish orqali o‘zligini shakllantirish harakatidir. Hailshamdagi hayot – ularning shaxsiy tarixida eng muhim bosqich bo‘lib, bu davrda shakllangan bolalik do‘stliklari, murakkab ijtimoiy dinamikalar, g‘alati pedagogik qoidalar va tarbiyachilar (guardians) bilan bo‘lgan aloqa klonlarning o‘zini qanday anglashini belgilaydi. Aynan shu bosqichda klonlar o‘zlarining boshqalar bilan bo‘lgan farqini seza boshlaydilar.

Masalan, Ketining Madame bilan bo'lgan to'qnashuvi – u lentadagi qo'shiqqa raqsga tushayotgan paytda Madame unga achinib qaraydi – Ketida chuqur shubha va hayrat uyg'otadi. Bu voqea unga, ular tashqaridan «odam» sifatida ko'rilmaliklarini anglatadi: “U bizni boshqalarga o'xshamaydi deb o'yladi” degan talqin (Ishiguro, 152) uning ongida birinchi marta o'zlik tushunchasining chuqur silkinishini keltirib chiqaradi. Shunday voqealar orqali xotira nafaqat esdalik, balki identitetga tahdid va uni qayta barpo qilish vositasiga aylanadi.

Keti, Rut va Tommi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar – rashk, muhabbat, xiyonat va kechirim – oddiy voqealar sifatida emas, balki insoniy tajribaning asosiy belgilaridir. Bu holatlarning barchasi ular tomonidan eslab qolinadi, muhokama qilinadi va ba'zan qayta yoziladi. Xotira ularning nafaqat hayotini, balki his-tuyg'ularini va munosabatlarini tasdiqlovchi dalilga aylanadi. Bu xotiralar orqali ular o'zlarini faqat biologik nusxa sifatida emas, balki ichki dunyoga ega bo'lgan, sevish va azob chekish qobiliyatiga ega inson sifatida anglay boshlaydilar.

Bundan tashqari, xotiraning ishonchsiz va o'zgaruvchan tabiati ham romanda muhim rol o'ynaydi. Keti va Rut o'rtasidagi bir qancha voqealarning har xil eslanishi – bu xotiraning subyektivligini, ya'ni har bir shaxsning o'z ehtiyojlari, hissiyotlari va nuqtayi nazaridan o'tmishni qayta qurishini ko'rsatadi. Bu xatoliklar esa, aksincha, ularning insoniylikni yanada kuchaytiradi – chunki haqiqiy inson xotirasi ham hech qachon mutlaq aniq emas.

Shu tariqa, Ishiguro klonlarning xotirasini inson identitetining psixologik va ontologik negizi sifatida ko'rsatadi. Klonlar xotira orqali kimligini anglaydi, boshdan kechirgan voqealarni qayta tiklaydi va o'z hayotini mazmunga to'ldiradi. Shaxs, bu kontekstdagi eng muhim tushuncha sifatida, faqat biologik mavjudlik emas, balki eslash, his qilish va hikoya qilish qobiliyati bilan bog'liqdir.

Never Let Me Go romanida xotira klonlar uchun shunchaki esdalik emas, balki insoniy maqomga da'vo qilishning eng muhim vositasi sifatida ko'rsatiladi. Romanda ularning jamiyatdagi maqomi utilitar tarzda belgilangan: ular donorlik uchun yaratilgan, ya'ni ularning mavjudligi boshqa insonlarning hayotini uzaytirish uchun mo'ljallangan. Bunday sharoitda ularning huquqiy maqomi, tanlash erkinligi, hatto hayotga bo'lgan da'vosi ham inkor etilgan. Biroq xotira ularni shunchaki biologik ob'yekt emas, balki his qiluvchi, anglovchi va yashagan mavjudot sifatida tan olishga da'vat etadi.

Keti, klon bo'lishiga qaramay, o'z xotiralari orqali insoniylikni tasdiqlashga urinadi. U o'zining parvarishchi sifatidagi faoliyatida doimiy ravishda donorlar bilan – ularning jismoniy holati yomonlashayotganiga qaramay – chuqur emotsional aloqani saqlaydi. Ular bilan bo'lgan umumiy o'tmishni eslab, donorga oddiy tibbiy yordam emas, balki insoniy iliqlik va ruhiy tasalli beradi. Ayniqsa, Ketining Tommiga bo'lgan g'amxo'rliqi – u bilan o'tmishdagi aloqasi, his-tuyg'ulari va birga yashagan xotiralari orqali belgilanadi. Bu aloqa klon bo'lmagan parvarishchilarda yo'q bo'lishi mumkin bo'lgan empatiya va yaqinlikni yuzaga chiqaradi.

Shu bilan birga, Ketining “men sizdan bizga achinishingizni so'ramayman. Shunchaki, bu juda achinarli edi, xolos” (Ishiguro, 274) degan so'zlari uning hayoti real bo'lganini, bu hayot esga olishga, e'tiborga va eslab qolishga loyiq ekanini bildiradi. Bu ibora sokin ko'rinishiga qaramay, chuqur ahamiyat kasb etadi: bu klonlar tomonidan insoniylik uchun bildirilgan sokin, ammo qat'iy da'vodir. Bu da'vo xotira orqali amalga oshadi – xotira ularga haqiqatda yashaganliklarini va inson sifatida qabul qilinishga loyiq ekanliklarini isbotlaydi.

Bundan tashqari, roman davomida klonlar o'z xotiralarini faqat eslab qolmaydilar, balki ular ustida fikr yuritadilar, tahlil qiladilar va muhokama qiladilar. Bu intellektual faoliyat – murakkab emotsional va kognitiv jarayon – ularning ongli mavjudotlar ekanini ko'rsatadi. Ularning har bir esdaligi – bolalikdagi oddiy o'yinlardan tortib, muayyan voqealardagi his-tuyg'ulargacha – ularni insoniylik fazilatlariga ega mavjudotlar sifatida tasvirlaydi.

Xotiraning bu darajadagi faol roli klonlarning jamiyat tomonidan inkor etilgan insoniylikni tiklashga xizmat qiladi. Klonlar – huquqiy yoki ijtimoiy jihatdan tan olinmagan bo'lishlariga qaramay – xotira orqali insoniylikni barpo etadilar. Ularning eslash, his qilish va anglash qobiliyati,

oxir-oqibat, ularni inson deb tan olish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, Ishiguro xotirani insonparvarlikning markaziy g‘oyaviy quroli sifatida tasvirlaydi. Bu roman doirasida xotira buyrilgan hayotga nisbatan sokin, ammo chuqur qarshilikdir – u mavjudlikning tasdig‘i, ruhning isboti va insoniy tajribaning yodnomasi sifatida ishlaydi.

Kazuo Ishiguroning *Never Let Me Go* romanida lingvopoetik uslub markaziy estetik va semantik vazifani bajaradi. Muallifning tanlangan til vositalari, sintaktik qurilmalar va narativ struktura faqat syujetni bayon etish vositasi emas, balki tematik yondashuv – ya‘ni xotira, identitet va insonparvarlik g‘oyalarini chuqurroq anglatuvchi adabiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Romanda birinchi shaxs nomidan hikoya qilish uslubi tanlangan bo‘lib, bu Ketining subyektiv dunyosini bevosita o‘quvchi ongiga olib kiradi. Ushbu uslub xotira asosidagi hikoyaning ishonchliligi va noaniqligi orasidagi tanglikni yuzaga chiqaradi. Ketni voqealarni aniq eslashga harakat qilsa-da, u ko‘pincha iboralar bilan cheklanadi: “Agar to‘g‘ri eslasam...”, “Menimcha, bu shunday bo‘lgan...”, “Rastmi, hozir aniq ayta olmayman...”. Bu noaniqliklar xotiraning subyektiv va o‘zgaruvchan tabiati bilan uyg‘unlashadi. Shu orqali Ishiguro xotiraning ilmiy emas, balki insoniy psixologik haqiqatga asoslanganligini ta‘kidlaydi.

Ishiguroning tili oddiy, hatto sokin ko‘rinadi, biroq bu soddalik orqasida chuqur semantik qatlamlar yashiringan. Jumalarning sintaktik tuzilmasi ko‘pincha murakkab emas, ammo ularning ichki ritmi, pauzalari, va tuyg‘uga yo‘g‘rilgan intonatsiyasi roman atmosferasini yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ketni tomonidan tanlangan so‘zlar – “sharmandali”, “achinarli”, “g‘alati”, “tushunib bo‘lmaydigan” – roman umumiy ohangining sokin, ammo og‘riqli tabiatini belgilaydi.

Metafora va timsollarning ishlatilishi ham noan‘anaviy. Ishiguro murakkab adabiy bezaklardan voz kechadi, lekin kichik detallar – masalan, Ketni saqlab yurgan musiqa lentasi, Madame ning qarashi, Cottagesdagi eshiklar – katta semantik yukni o‘zida mujassam etgan belgilar sifatida ishlaydi. Bu belgilar insoniy xotiraning qanday qilib moddasiz voqelikni belgilovchi dalilga aylanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, roman tuzilmasi xronologik emas, balki fragmentar va tsiklikdir. Bu struktura xotira faoliyatining haqiqiy tabiatini aks ettiradi: voqealar aniq ketma-ketlikda emas, balki emotsional kuch va semantik muhimlik asosida qayta yuzaga chiqadi. Ketni o‘tmishdagi voqealarni tanlab eslaydi, ularni qayta baholaydi va ba‘zan yangitdan talqin qiladi. Bu esa uning o‘zligini izlab topish va anglash jarayoniga xizmat qiladi.

Yana bir muhim lingvistik xususiyat – dialoglardagi samimiylik va realistik soddalik. Klonlar bir-biriga ko‘pincha murakkab iboralar emas, oddiy, ammo samimiy so‘zlar bilan murojaat qilishadi. Ularning nutqi sun‘iy emas, balki insoniy hayotning oddiy, lekin chuqur qatlamlarini ifodalaydi. Bu esa ularning jamiyat tomonidan «inson emas» deb belgilangani fonida stilistik jihatdan kuchli kontrast yaratadi.

Umuman olganda, Ishiguroning lingvopoetik uslubi roman g‘oyalarining estetik ifodasiga xizmat qiladi. U o‘zining oddiy, sokin, hatto ba‘zida befarqdek ko‘rinadigan tili orqali insoniyatning eng chuqur falsafiy masalalarini – kimligimiz, nima uchun yashaymiz, qanday eslaymiz va qanday unutilamiz – o‘quvchi qalbiga juda nozik, lekin ta‘sirchan tarzda yetkazadi.

Kazuo Ishiguroning *Never Let Me Go* romani insoniyat va texnologiya, ong va tana, hissiyot va ekspluatatsiya o‘rtasidagi murakkab chegaralarni o‘rganar ekan, asarning eng asosiy va markaziy g‘oyalaridan biri sifatida xotirani insonparvarlikning ifodasi sifatida ilgari suradi. Klonlar hayoti – o‘z kelajagi ustidan nazoratsiz, boshqalarning ehtiyojlari uchun qurbonlikka bag‘ishlangan mavjudlik – ularning insoniy maqomiga savol belgilari qo‘yadi. Biroq xotira orqali ular bu belgilarga qarshi turadi. Ular eslaydi, his qiladi, iztirob chekadi, sevadi – va bu orqali insoniy mavjudot sifatida o‘z o‘rnini himoya qiladi.

Xotira bu roman doirasida bir necha funktsiyani bajaradi:

1. Ontologik – xotira shaxsning kimligini anglash vositasi;
2. Emotsional – hissiy tajriba va munosabatlarni barpo qiluvchi manba;
3. Gumanistik – jamiyat tomonidan inkor etilgan insoniylikni tiklovchi dalil;

4. Epistemologik – haqiqat, haqlik va adolat haqida savollarni yuzaga chiqaruvchi vosita.

Ketining retrospektiv hikoyasi klonlar tajribasini “o‘rganish” yoki “tushunish” emas, balki “tan olish”ga chaqiradi. Bu tan olish faqat jamiyat tomonidan emas, balki o‘quvchi tomonidan ham amalga oshirilishi lozim: o‘quvchi klonlarni eslaydi, ularning hayotini quloq solib tinglaydi, ularning xotiralariga guvoh bo‘ladi – va shu orqali ularni inson sifatida qabul qiladi.

Roman davomida xotira passiv yodga olish emas, balki faol qarshilik shakli sifatida ifodalanadi. Klonlar o‘z hayotini eslash orqali mavjud bo‘lgan har qanday formaga – befarqlik, dehumanizatsiya, sistematik inkor – qarshi turadi. Ular o‘z mavjudligini faqat yashab emas, eslab qolib, hikoya qilib, ifoda etib haqiqatga aylantiradi. Shunday qilib, *Never Let Me Go* romanida xotira – insoniylikni tiklovchi eng so‘nggi himoya chizig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Ishiguroning sokin, lekin kuchli lingvopoetik uslubi bu g‘oyalarni estetik jihatdan yuqori darajada ochib beradi. Nutqning soddaligi, xotiralarning noaniqligi, narrativ strukturaning parchalanganligi – bularning barchasi xotiraning real psixologik tabiatiga mos keladi. Shu tariqa, roman nafaqat adabiy nuqtai nazardan, balki falsafiy va insonparvarlik nuqtai nazardan ham chuqur mazmunga ega asar sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishiguro, K. (2005). *Never Let Me Go*. London: Faber & Faber.
2. Atwood, M. (2003). *Oryx and Crake*. Toronto: McClelland & Stewart.
3. Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and Simulation*. Trans. Sheila Faria Glaser. Ann Arbor: University of Michigan Press.
4. Beedham, M. (2010). The novels of Kazuo Ishiguro: A reader’s guide to essential criticism. *Contemporary Literary Criticism*, 45(3), 234-267.
5. Butler, J. (2005). *Giving an Account of Oneself*. New York: Fordham University Press.
6. Caruth, C. (1996). *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
7. Connor, S. (2009). *The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Currie, M. (2013). *About Time: Narrative, Fiction and the Philosophy of Time*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
9. Foucault, M. (1986). *The Care of the Self: The History of Sexuality Volume 3*. Trans. Robert Hurley. New York: Pantheon Books.
10. Groes, S. (2011). Memory in the twenty-first century: New critical perspectives from the arts, humanities, and sciences. *Memory Studies*, 4(4), 472-489.
11. Habermas, J. (2003). *The Future of Human Nature*. Cambridge: Polity Press.

AN INTRODUCTION TO THE CONCEPT OF «TOLERANCE»

Jumayeva Mukhabbat Mustakimovna

Navoi State University

Phd candidate at the department of English Linguistics

Abstract. The paper considers the definition and characteristics of concept within the main aspects of its study, in particular, epistemological, philosophical, linguo-cultural, cognitive and psycholinguistic. The experience of working out the various approaches to the interpretation and formation of the concept is reflected. Patience is one of the key concepts on which society relies, using it as a key to maintain human rights and freedoms. The genesis of patience in philosophy is related to the person's representation of the world, the formation of abstract norms of behaviour and the embodiment of this behaviour in a particular situation. In modern cognitive linguistics, studying of the concept is rather actual and controversial nowadays, as it is functionally significant for the corresponding culture. Any concept is realized in language units. We have made the semantic-etymological analysis of the word patience and come to the conclusion that semantic structure of the concept "patience" in English consists of the different meanings, forming the conceptual layer of the investigated concept. Keywords: concept, meaning, notion, cognition, formation, patience, virtue, mentality

ВВЕДЕНИЕ В КОНЦЕПЦИЮ «ТОЛЕРАНТНОСТЬ»

Жумаева Мухаббат Мустакимовна

Навоийский государственный университет Докторант кафедры английского лингвистики

Аннотация. В статье рассматриваются определение и характеристика понятия в рамках основных аспектов его изучения, в частности, эпистемологического, философского, лингвокультурологического, когнитивного и психолингвистического. Отражен опыт разработки различных подходов к интерпретации и формированию понятия. Терпение является одним из ключевых понятий, на которые опирается общество, используя его как залог сохранения прав и свобод человека. Генезис терпения в философии связан с представлением человека о мире, формированием абстрактных норм поведения и воплощением этого поведения в конкретной ситуации. В современной когнитивной лингвистике изучение понятия является весьма актуальным и дискуссионным в настоящее время, так как оно функционально значимо для соответствующей культуры. Любое понятие реализуется в языковых единицах. Мы провели семантико-этимологический анализ словаратент и пришли к выводу, что семантическая структура концепта «patience» в английском языке состоит из различных значений, образующих концептуальный слой исследуемого концепта. Ключевые слова: концепт, значение, понятие, познание, формирование, patient, virtue, менталитет

«SABR» TUSHUNCHASIGA KIRISH

Jumayeva Muhabbat Mustaqimovna

Navoiy davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasi doktoranti

Annotasiya. Maqolada kontseptsianing ta'rifi va xususiyatlari uni o'rganishning asosiy jihatlari, xususan, epistemologik, falsafiy, lingvomadaniy, kognitiv va psixolingvistik jihatdan

ko'rib chiqiladi. Kontseptsiyani talqin qilish va shakllantirishning turli yondashuvlarini ishlab chiqish tajribasi o'z aksini topgan. Sabr jamiyat tayanadigan asosiy tushunchalardan biri bo'lib, undan inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning kaliti sifatida foydalanadi. Falsafada sabr-toqatning genezisi insonning dunyoni tasvirlashi, mavhum xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish va muayyan vaziyatda ushbu xatti-harakatning timsoli bilan bog'liq. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda bu tushunchani o'rganish hozirgi kunda juda dolzarb va ziddiyatli, chunki u tegishli madaniyat uchun funktsional ahamiyatga ega. Har qanday tushuncha til birliklarida amalga oshiriladi. Biz sabr so'zining semantik-etimologik tahlilini o'tkazdik va ingliz tilidagi «sabr» tushunchasining semantik tuzilishi o'rganilayotgan tushunchaning kontseptual qatlamini tashkil etuvchi turli ma'nolardan iborat degan xulosaga keldik. Kalit so'zlar: tushuncha, ma'no, tushuncha, bilish, shakllantirish, sabr-toqat, fazilat, mentalitet

Introduction. Conceptual analysis is one of the modern comprehensive approaches in the study of social and humanities studies that enables the investigation of the concept in connection with its internal and extra-linguistic expressions. A concept is a unit of the conceptual sphere – an ordered set of mental units that includes all the mental characteristics of a phenomenon reflected in the linguistic consciousness. As for the concept, there are seven main lines of research: the logical-philosophical (J. Kenny, C. Pearce, G. Frege), philosophical (J. Delos, F. Guattari), linguistic (V. Hack, V. Zvegintsev, O. Taranenko), linguocultural (A. Vezhbitskaya, V. Krasnyi, V. Maslov, V. Ivashchenko), cognitive (O. Kubryakova, Z. Popova, J. Sternin, V. Demiankov), psycholinguistic (O. Zalevskaya, O. Selivanova, L. Lysychenko, V. Starko) and literary and culturological (L. Gruzberg, L. Ivanova, O. Kaganovskaya). The Main Approaches to Concept Studying

A definition of the concept within the framework of the philosophical theory of cognition and reflection of reality varies in the following range: from broad (complex mental formations – thoughts, knowledge, faith, reason – comprehended on the basis of a broad ontological background of things that represent the surrounding world and personal experience of a human being) to somewhat narrowed (the meanings somebody operates in the process of reduction, or interiorization, knowledge of the surrounding world, stored in the form of value – such as life, death etc.). In fact, the philosophical tradition still treats any concept as the reduced knowledge about the world, as a component of the worldview, of the conceptual picture of the world. From the point of view of epistemology, concepts are qualified as complex mental formations, opinions expressed in words, knowledge, faith, reason, etc., and interpreted based on a broad ontological background of things, of their own experience and of the authors' perceptual background.

As a part of the reflective theory, concepts are qualified as the meanings that human beings use in the process of internalization of knowledge about the environment, that is, within the framework of comprehension of all human activity, in the form of some “quanta” of knowledge. This understanding of concepts is close to works done by R. Schank and other representatives of the Stanford School, who view concepts as a representation of “semantic notion”, initially based “semantic orientation”. Guided by a particular intention, the nominee selects from the concept certain characteristics that become the basis of the nomination. So, we may affirm that the nature of the concept itself; its formation in mentality is a rather controversial issue. At the present stage of linguistics, two main approaches to the interpretation of the term “concept” can be distinguished: 1) a concept as a general notion (traditional understanding); 2) a concept as a complex of culturally determined ideas about the subject (a new understanding of the term within the lingua-philosophical scientific paradigm) (Golubovska, 2004, p. 89). The dictionary of cognitive terms provides the following definition of the concept: “Concept is a term used to explain the units of mental or psychological resources of our consciousness and the information

structure that reflects the knowledge and experience of a human being”

In the linguistic literature, the concept is considered as a universal entity, which is formed in consciousness on the basis of direct sensual experience, direct operations of a person with objects (Z. Popova, J. Sternin), as a logical category through which culture enters the mental world of a human being (Y. Stepanov, R. Pavilenis, etc.), as the primary expressive unit of national mentality (V. Kolesov), as a concept of practical philosophy (N. Arutyunova), as a multidimensional formation (V. Karasik, S. Lyapin), as a mental unit of operational consciousness and a global mental unit, representing the object of real or ideal world and verbally stored in the memory of native speakers (O. Kubryakova, Z. Popova, J. Sternin, O. Babushkin, O. Selivanova, L. Lisichenko etc.), and as a precise expression of meaning carried out by the speakers in written and oral communication (Likhachev). Concepts “arise as a result of the interaction of various factors, such as national tradition, folklore, religion, ideology, life experience, patterns of art, feelings and values” (Arutyunova, 1993, p. 3) from the meaning of the word, and they objectify the result of a collision of the dictionary meaning with the personal and national human experience. The richer the cultural experience of a person is, the richer the potentials of the concept are. They (concepts) function in the context of different types of knowledge – every day, artistic and scientific. In this case, the key to the semantic model of the concept lies in the following aspects: 1) the set of attributes, which testify affiliation of one or another conceptual field; 2) definitions due to the place in the system of values; 3) the meaning of functions in human life. The functional features of the concept are “continuity of existence, that is, the development of semantics of the word with the deployment of the internal form to the logical limit (symbol, myth); artistic imagery; preservation of semantic syncretism of root values as a semantic invariant of the whole word-building model of entering the system of ideal components of culture; the general obligation for everyone to be aware of their belonging to this culture” (Kolesov, 1992, p. 35). By entering into systemic relations of similarity, differences and hierarchy with other concepts, concepts interact, intertwine and form a holistic system – the conceptual sphere.

The concept as an object of linguistic research has verbal expression, which includes etymology of words, synonyms, antonyms, typical syntactic positions, contexts for the use (semantic complexes), semantic fields, estimations, figurative associations, metaphor, phraseology and language patterns, as well as pemia, aphorism, subjective definitions and some as separate semes, statements, texts and a set of texts (Popova & Sternin, 2001). The representatives of the linguistic-cultural approach (D. Likhachev, Y. Stepanov, N. Arutyunov, S. Vorkachev, S. Nikitin, S. Lyapin, M. Alefirenko, V. Karasyk, G. Sliskin) interpret a concept as a certain link between man and culture; as “multidimensional semantic formation, in which value, figurative and conceptual aspects are distinguished” (Karasik, 2004, p. 109); as a complex sign of a special nature bearing an imprint of the system as a whole (Zusman, 2003, pp. 3-29); as verbalized cultural meaning – a semantic unit of the “language” of culture, which is expressed by a verbal sign (Vorkachev, 2002), etc. Concepts are the units of culture in the mental world, which include information about the actual or possible state of things in the world (all that a person may think, know, assume about real objects). As elements of the conceptual picture of the world, concepts integrate the whole paradigm of worlds (from the perception of life and everyday life to the scientific interpretation, reflected in the concepts). Therefore the concept may be a semantic entity, which includes subjective meanings and generally accepted conventional meanings (the potential content of the cognitive object or phenomenon). Concept, as the basic unit of the world picture, is of great importance both for the individual linguistic person and for the linguistic and cultural community, because it 1) is a verbalized smallest unit of human experience in its ideal expression with its own field structure;

2) is a basic unit of processing, storage and transference of knowledge; 3) has boundaries and specific functions; 4) is social, its associative field is determined by its pragmatics; 5) is the main link of culture (Maslova, 2004, p. 35). Concept, as a characteristic feature of culture, is identified with a myth, a custom, a ritual and is an intermediary in the cognitive-cultural space as one of the way of presenting cultural information in language units. But it can also be asserted that the concept belongs neither to the culture nor to the language. “Cognition receives information about culture, where it is processed, systematized. Cognition is responsible also for the choice of linguistic means. So, the concept is a special unit that combines culture, cognition and language, since the concept itself belongs to knowledge determined by culture and specified in language. No matter what unit a concept may be (cognitive or linguistic-cultural), its structure is complex since the concept is constantly functioning, being actualized in its various parts and aspects comes into contact with other concepts.

Discussion. Exploring the discursive functioning of the concept “patience” in the virtual space of the Internet shows that patience is considered to be a vital quality. We deal with consciousness-based virtue of patience, in particular with regard to the British. Anglo-Saxons believe that patience is 1) wisdom: But the only wisdom was patience; 2) virtue: Patience is a virtue darling, you’ll soon go up; 3) courage: In the meantime, it seems patience remains courage. We come across a new interpretation of patience in the consciousness of English people. They believe that patience is 1) a gift: Those who feel that patience, trust and ability to put up with uncertainty are gifts rather than skills – and gifts which not all adults share; 2) a need: Patience, that was the need; 3) an inspiration: The patience, care and steady hand of Charles was an inspiration, and all were impressed by his results; 4) a wealth: Her wealth was her patience; 5) a calling of Christians: Patience, which is born out of tolerance and mutual respect, while still remaining firm in belief, is still the calling of the Christian. In the collective consciousness of the British, there is the thought that patience is needed: 1) to survive the difficult times: Patience, mon vieux, she told herself, the lady had a hard time; 2) to survive in the modern world: The flow, the flow, the drifting balance of modern life requires a certain kind of patience; 3) to build a business: It takes a lot of patience to build a new technology business; 4) to explain something: “The chalets are kept for group bookings” Lucy explained with so much patience as she could muster; 5) to solve the problem: The problem can only be solved with patience; 6) to create: It takes time, patience and ingenuity to create effective miniature pictures from pressed flowers, making it a fascinating part of the craft for some people; 7) to be good parents: Stimulation from parents enhances the speed of learning, and great patience is required to perceive and decode the communicating done by babies and children, both verbally and non-verbally; 8) to succeed: Patience is a necessary asset for successful training. Successful sales to Japan requires patience and sensitivity to customs; 9) to hunt: A trap was made near the entrance, and after three months of patience, she was finally caught; 10) to find a beloved woman: Lucy said, “In that case all you need is patience, and one day the right woman will come to you from out of the blue”; Interesting is the fact that often patience gives the lead to impatience. The words impatience, impatiently are popular in the language of the English people.

Conclusion. Having studied the linguistic material, we conclude that the concept “patience” is widely represented in English linguistic culture and we distinguish the following basic features of the concept “patience”, which form its core: 1) expectations; 2) endurance; 3) obedience; 4) misery; 5) self-control; 6) exposure; 7) indulgence; 8) perseverance. And the core of this concept, as we see it on the basis of investigating dictionary entries comprising verbal lexemes of the word patience in lexicographic English sources, can be represented as follows: to endure physical suffering without complaints; to withstand moral suffering; to stand the presence of something, someone; to bear someone, something; to wait for a long time without complaining; to put up with.

There are set expressions in English, such as with time and patience, with practice and patience, which are often used in the speech of the people and indicates the importance of patience in the lives of the English.

REFERENCES

1. Anrutyunova, N. D. (1991). In Logical Analysis of Language. Cultural Concepts (pp. 21-31). Moscow: Nauka
2. Stepanov, Y. S. (2001). Konstanty. Slovar' russkoi kul'tury (Constants. Dictionary of Russian Culture, in Russian). Moscow: Akademicheskii Proekt.
3. Whipp, M. (2017). The Grace of Waiting: Learning Patience and Embracing its Gifts. London: Canterbury Press Norwich.
4. Zusman, V. G. (2003). Kontsept v sisteme gumanitarnogo znaniya (Concept in the System of Arts, in Russian). Issues of Literature, 2, 3-29.
5. Slyshkin, G. G. (2004). Lingvokul'turnyi kontsept kak sistemnoe obrazovanie (Linguocultural Concept as Systemic Formation, in Russian). 1, 29-34.
6. Goldberg, V. B. (2001). Strukturnye svyazi v leksiko-frazeologicheskom pole (Structural Connections in Lexical and Phraseological Field, in Russian). pp. 57-62

REFLECTION OF ANTHROPOPHENOMENA IN LINGUISTIC PICTURES OF THE WORLD

Mamatova Feruza Makhamadovna

National University of Uzbekistan Faculty of Foreign Philology Associate Professor of the Department of English Linguistics Independent researcher DSc at Namangan State Institute of foreign languages

Annotation. This article is dedicated to the study of unique manifestations of anthropophenomena in the realm of language and culture. Anthropophenomena are occurrences stemming from human activities and life experiences, which have distinctive representations in the linguistic landscape of a language. The research analyzes how anthropophenomena are expressed at phonetic, lexical, morphological, and semantic levels. Based on modern linguistic approaches, the article illuminates the role and significance of anthropophenomena in the linguistic image of the world, revealing deep connections between language and culture. This study serves as an important resource for scientific theories and practical research in the field of studying and analyzing anthropophenomena through language.

Key words: anthropophenomena, linguistic image of the world, modern linguistics, linguoculturology, anthropocentric paradigm, naïve, scientific, and professional worldviews, national culture.

ПРОЯВЛЕНИЕ АНТРОПОФЕНОМЕНОВ В ЯЗЫКОВЫХ КАРТИНАХ МИРА

Маматова Феруза Махаммадовна

Национальный университет Узбекистана Факультет зарубежной филологии Доцент кафедры английского языкознания Независимый исследователь DSc Наманганского государственного института иностранных языков

Аннотация. Данная статья посвящена изучению специфических форм отражения антропофеноменов в мире языка и культуры. Антропофеномены - явления, возникшие в результате человеческой деятельности и жизненного опыта, которые имеют своеобразные проявления в языковой картине мира. В исследовании анализируется, как антропофеномены выражаются на фонетическом, лексическом, морфологическом и семантическом уровнях. Статья освещает роль и значение антропофеноменов в языковой картине на основе современных лингвистических подходов, раскрывая глубокие связи между языком и культурой. Это исследование является важным источником для научных теорий и практических исследований в области изучения и анализа антропофеноменов через призму языка.

Ключевые слова: антропофеномены, языковые картины, современная лингвистика, лингвокультурология, антропоцентрическая парадигма, наивные, научные, профессиональные картины мира, национально-культурные особенности.

ANTROPOFENOMENLARNING OLAMNING LISONIY MANZARALARIDA AKS ETISHI

Mamatova Feruza Maxammadovna,

O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti Namangan Davlat chet tillari instituti DSc mustaqil tadqiqotchisi PhD

Annotatsiya. Ushbu maqola antropofenomenlarning til va madaniyat olamidagi o'ziga xos aks etish shakllarini o'rganishga bag'ishlangan. Antropofenomenlar — inson faoliyati va hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan hodisalar bo'lib, ular tilning lisoniy manzaralarida o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Tadqiqotda antropofenomenlarning fonetik, leksik, morfologik va semantik

darajalarda qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida antropofenomenlarning lisoniy manzaradagi o‘rni va ahamiyatini yoritib, til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur aloqalarni ochib beradi. Bu tadqiqot antropofenomenlarni til orqali o‘rganish va tahlil qilish sohasida ilmiy nazariyalar hamda amaliy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: antropofenomenlar, lisoniy manzaralar, zamonaviy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, antropotsentrik paradigma, olamning sodda, ilmiy, professional manzaralar, milliy-madaniyat.

Kirish. Zamonaviy ilmiy tilshunoslik paradigmasining diqqat markazida u yoki bu madaniyatning vakili bo‘lgan inson turadi. Bugungi kunda lingvomadaniy hodisalarni o‘rganuvchi va qo‘shni ilmiy fanlarga aloqador bo‘lgan zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarini aniq chegaralash murakkab, hatto imkonsiz ham. Hozirgi paytda har bir tadqiqot sohasining tushunchaviy mazmunini belgilash, uning ichki tuzilmalari va atamalarini tartibga solish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bunday yondashuv doirasida kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik uyg‘unlashuvi shakllanib, rivojlanmoqda. Bu esa inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning lingvokognitiv jarayonlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Ushbu paradigmaga asoslanib, tadqiqotimiz markazida S.S.Potapchuk qayd qilib o‘tgan: “etnik ong, xalqning moddiy va ma‘naviy madaniyati, tafakkur va atrof-muhitni anglashning kognitiv tuzilmalari” [1; 1] bilan bog‘liq lingvomenta va lingvokognitiv antroposfera va uning tarkibiga kiruvchi lingvomenta va lingvokognitiv antropofenomenlar joylashgan.

Lingvomenta va lingvokognitiv mohiyat ikki lingvistik yo‘nalishda - kognitiv tilshunoslik yoki/va lingvokulturologiyada o‘rganilishi tufayli, zamonaviy tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan “lingvomenta, lingvokognitiv antroposferalar” va “olam manzarasi” tushunchalarini o‘zaro muvofiqlashtirish lozim. Bu borada N.N.Boldirev [2; 47] shunday deb ta‘kidlaydi: “Verbal kommunikatsiya va u bilan bog‘liq tilning leksik-grammatik tizimi hamda dunyo lisoniy manzarasini rivojlantirish muammolari, til faoliyatida inson shaxsiyatining roli doimo tilshunoslarning yuqori darajadagi e‘tiborini jalb etib kelgan. Buning sababi, til turli konseptual-lisoniy shakllarda axborotni qabul qilish, qayta ishlash, talqin etish, saqlash va uzatishning asosiy vositasi sifatida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lganligidir”.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Olam manzarasini zamonaviy talqin qilish V.Gumboldt, L.Vaysgerber, B.Uorf g‘oyalariga asoslanadi. Ular olam manzarasining shakllanishi jamiyatda ta‘lim, urf-odatlar, atrof-dagi tabiat ta‘sirida tilni o‘zlashtirishga qarab sodir bo‘ladi deb hisoblaydi. Masalan, L.Vaysberger [3; 120] olam manzarasi til bilan qanday bog‘liqligini va uning shakllanishi hamda qurilishi shartlari qanday ekanligini aniqlash maqsadida savol ko‘tardi. U bu savollar “chuqurroq o‘rganilganda, til va xalqning tarixiy o‘zaro aloqasi haqidagi kengroq savolning bir qismi bo‘lib chiqishi»ni ta‘kidladi. “Olam manzarasi» tushunchasini ta‘riflashga turlicha yondashuvlar mavjud: “jamoaga ongidagi voqelik tasvirlarining yaxlit to‘plami.” V.I.Postovalova ta‘kidlashicha, insondan tashqari va butun insoniyatga xos dunyo tasavvurlari mavjud emas. Shuning uchun, dunyoning har bir shaxsiy tasavvuri o‘z ichiga haqiqatning, har kim o‘zicha tushinishi mumkin bo‘lgan, hech bo‘lmaganda kichik bir qismini qamrab oladi. U shunday yozadi: “Qat‘iy ma‘noda aytganda, dunyo bilan aloqada bo‘lgan kuzatuvchilar soni qancha bo‘lsa, dunyoning shuncha tasavvuri mavjud bo‘ladi.” [4; 32]

XX asr tilshunosligida dunyo manzarasining muayyan darajalanishi mavjud: ilmiy, sodda, konseptual va lingvistik [5; 102]. I.A.Maslovaga [6; 5] ko‘ra insonning dunyo bilan munosabatlarini o‘rganishda odatda olam manzarasi metaforasidan foydalaniladi. Bunda insonni o‘rab turgan dunyo uch shaklda namoyon bo‘ladi:

1) olamning real manzarasi — obyektiv, insondan tashqari mavjud bo‘lgan voqelik, ya‘ni insonni o‘rab turgan dunyo;

2) olamning kontseptual manzarasi — bu real manzaraning inson tasavvurlari asosida shakllangan tushunchalar prizmasidan o'tgan aksi bo'lib, bu tasavvurlar sezgi a'zolari orqali olingan va inson ongidan jamoaviy hamda individual tarzda o'tgan;

3) olamning lisoniy manzarasi - voqelikni til vositalari orqali aks ettiradi, ammo to'g'ridan-to'g'ri emas, balki dunyoning madaniy manzarasi orqali.

A.A.Ufimseva [7;108-140] olamning lisoniy manzarasini o'z navbatida ilmiy va sodda turlarga bo'ladi. Sodda lisoniy manzara dastlabki ongda jamg'arilgan tasavvurlarni aks ettiradi. Ko'p hollarda, olamning sodda lisoniy manzarasi ilmiy nazariya va tadqiqotlarga zid keladi. Sodda lisoniy manzara oddiy insonning o'zi muloqotda bo'layotgan voqelik haqidagi tasavvurini ifodalaydi. Bu tasavvur tabiatning makon va vaqt haqidagi oddiy tushunchalarni ham o'z ichiga oladi: quyosh chiqadi va botadi; yomg'ir yog'adi. Olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, olamning ilmiy manzarasi o'z ichiga dunyoning kasbiy va alohida ilmiy manzaralarini qamrab oladi. Bular jumlasiga fizikaviy, kimyoviy, biologik, geologik, texnik (texnosferaning ilmiy manzarasi), sotsiologik, kibernetik, matematik, axborot va boshqa manzaralar kiradi.

Boshqa tomondan esa, A.D.Xutoryanskaya [8; 3] "olam manzarasi" va "olamning kontseptual manzarasi" sinonim ekanligini ta'kidlaydi. Bularning birinchisi eng ko'p qo'llaniladigan atama hisoblanadi. "Kontseptual dunyo manzarasi" atamasi ko'proq falsafada ishlatiladi. Psixologiyada esa bunga ekvivalent bo'lgan atama "dunyo obrazi" deb yuritiladi. Olamning lisoniy manzarasi kontseptual manzaradan torroq bo'lib, R.R.Zamaletdinovning [9; 253] ta'kidlashicha, u kontseptual manzaraga bo'ysunadi, chunki "tilda fikr to'liq hajmda aks etmaydi, balki uning eng muhim jihatlari so'z orqali ifodalanadi". Shu bilan birga, aynan olamning lisoniy manzarasini tahlil qilish xalq mentalitetini o'rganish imkonini beradi. Ba'zi tilshunolar ularni farqlamoqchi bo'lishadi, ammo chegaralash mezonlari noaniqligicha qolmoqda. Masalan, A.E.Shcherbinina olam manzarasini "insonning olam va o'zi haqidagi tasavvurlari yig'indisi," olamning kontseptual manzarasini esa "inson tasavvurlari asosida shakllangan tushunchalar prizmasi orqali aks ettirilgan voqelik" deb ta'riflaydi.

Tahlil va natijalar. Aslida, "olam manzarasi" tushunchasini aniqlashga turli xil yondashuvlar mavjud: uni "jamoaviy ongda voqelik tasvirlarining yaxlit majmuasi" [10; 61] sifatida, "olamni tushunish mantig'iga muvofiq ravishda uni ma'lum tarzda ko'rish va shakllantirish" [11; 61] sifatida, shuningdek "falsafa, adabiyot, mifologiya, mafkura va hokazolar orqali ifodalaniladigan, muayyan etnosning barcha a'zolariga xos bo'lgan borliq haqidagi yaxlit tasavvur" [12; 582] sifatida ta'riflash mumkin. I.A.Sternin [13; 314] olam manzarasini "...ijtimoiy (shuningdek, guruh, individual) ongda shakllangan va barcha til egalari uchun majburiy bo'lgan voqelik haqidagi bilimlarning tartibga solingan to'plami" deb ataydi. Demak, olam manzarasi inson yoki jamiyat tomonidan olamni qabul qilish, individual yoki ijtimoiy o'z-o'zini anglashning asosini tashkil etadi. Ushbu ta'riflar nuqtayi nazaridan, lingvomentaal antroposfera olamning yaxlit lisoniy manzarasining bir qismini ifodalaydi, unda ingvokognitiv jarayonlar orqali birlashtiriladi. M.V.Pimenova [14; 5] olamning lisoniy manzarasi deganda "tilda aks etgan olam haqidagi bilimlar majmui, shuningdek, davlat arxitektura-qurilish universitetining yangi bilimlarni olish va talqin qilish usullarini" tushunadi.

Z.D.Popova va I.A.Sterningga [13; 314] ko'ra olamning lisoniy manzarasi - bu "xalq taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida til birliklarida qayd etilgan voqelik haqidagi xalq tasavvurlarining yig'indisi, til belgilarining ma'nolarida aks etgan voqelik haqidagi tasavvurlar - olamning lisoniy bo'linishi, narsa va hodisalarning lisoniy tartibga solinishi, so'zlarning tizimli ma'nolarida dunyo haqidagi ma'lumotlar yotadi." L.A.Yerofeyeva [15; 200] u kognitiv manzaradan ancha torroq, chunki tilda faqat xalq uchun muloqot jarayonida ahamiyatli bo'lgan yoki bo'lib kelgan narsalargina aks ettiriladi. Bu ma'lum bir til jamoasi uchun xos bo'lgan voqelikni idrok etishning o'ziga xos usuli hisoblanadi va u ushbu til jamoasining kundalik ongida tarixan shakllangan va tilda aks ettirilgan dunyo haqidagi tasavvurlar yig'indisidir deb ta'kidlaydi.

Xulosa va takliflar. Olam manzarasi tushunchasi (shu jumladan, lisoniy manzara ham)

insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganishga asoslanadi. Dunyo - inson va muhitning o‘zaro ta’siridir, ongdagi dunyo manzarasi esa - muhit va inson haqidagi axborotni qayta ishlash natijasi hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikda insonning konseptual tizimi, lisoniy dunyo manzarasida aks etganidek, jismoniy va madaniy tajribaga bog‘liqligi hamda u bilan bevosita aloqador ekanligi to‘g‘ri ta’kidlanadi. Bunda tashqi olam hodisa va narsalari inson ongida ichki obraz shaklida namoyon bo‘ladi. Olam haqidagi bilim deb atash mumkin bo‘lgan olam manzarasi individual va ijtimoiy ongning asosini belgilaydi. O‘z navbatida, bilimlarning to‘liqligi va o‘ziga xosligi nafaqat turli madaniyat vakillari orasida, balki bir madaniyat vakillari orasida ham farqlanishi mumkin. Shu sababli, turli odamlarda dunyoning konseptual manzaralari bir-biriga mos kelmasligi mumkin, masalan, turli davrlar, ijtimoiy va yosh guruhlari, ilmiy bilimlarning turli sohalari vakillari va boshqalarda. Turli tillarda so‘zlashuvchilar ma’lum sharoitlarda dunyoning o‘xshash konseptual manzarasiga ega bo‘lishi, bir tilda so‘zlashuvchilar esa turlicha tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Demak, olamning konseptual manzarasida umuminsoniylik, milliylik va shaxsiylik o‘zaro ta’sirlashishi mumkin. Bundan tashqari, bir insonning yoki umuman etnosning barcha vakillarining ongida olam manzarasi hajmi va mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin: ilmiy va sodda deb ataladigan (bunda ikkinchisi ba’zi etnos vakillarida olamning ilmiy manzarasi o‘rnini egallashi mumkin).

I.A.Bubnova, V.V.Krasnix olam manzarasi g‘oyasi ikki olam - birlamchi va ikkilamchi olam mavjudligi haqidagi farazdan kelib chiqadi, ularning obyektivligi inson hayot faoliyatining prinsipial va muhim sharti bo‘lgan ularni aks ettirish bilan belgilanadi. Ularning obyektivligi aks ettirishda namoyon bo‘ladi, bu esa inson hayotiy faoliyatining muhim va asosiy sharti hisoblanadi. Olam manzarasining taraqqiyoti (ba’zi asarlarda dunyo obrazi yoki dunyo modeli deb ham yuritiladi) dunyoning mavjudligini chiziqli va davriy modellar asosida tashkil etish bilan belgilanadi. Bu modellarning ziddiyatli munosabati doimo madaniyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib kelganligini ta’kidlaydi [16; 80-83]. T.V.Zaxarovaning izohicha, zamonaviy ilmiy talqinda “olam manzarasi” atamasi dunyoni eng umumiy va yaxlit tarzda idrok etish sifatida tushuniladi. Bu bilishning barcha darajalari va shakllari: nazariy, empirik, mantiqiy, hissiy, ilmiy, falsafiy, kundalik, diniy va mifologik ishtirokida shakllanadigan bilimlar majmuasidir. Ushbu tushuncha dunyoning yaxlitligini aks ettiruvchi eng umumiy integral idrokni, sezgini ifodalaydi va bilimlarning umumlashtirilgan yig‘indisini o‘z ichiga oladi [17; 118].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Потапчук С.С. Семантико-когнитивна структура концепту «чистий» в англійській та українській мовах : автореф. дис... канд. філол. наук : 10.02.17 / Потапчук Світлана Сергіївна. – К., 2008. – С. 1.
2. Болдырев Н.Н. Оценочная концептуализация как фактор развития языковой картины мира / Н. Н. Болдырев // Александровский сборник : сб. науч. ст. к юбилею д-ра филол. н., проф. Ольги Викторовны Александровой / ред. А. А. Липгарт, Е. О. Менджеричская, Е. В. Михайловская, И. Н. Фомина. – М. : Наука, 2022а. – С. 47.
3. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа / Й. Л. Вайсгербер ; пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О. А. Радченко. – 2-е изд., испр. и доп. – М. : Едиториал УРСС, 2004. – С. 120.
4. Постовалова В. И. Картина мира в жизнедеятельности человека. Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. М.: Прогресс, 1988. –С. 32.
5. Кобозева И.М. Мысль и идея на фоне категоризации ментальных имен// Логический анализ языка: Ментальные действия/ Отв.ред. Н.Д. Арутюнова, Н.К. Рябцева. – М.: Наука, 1993. – С. 102.
6. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. — Мн.: ТетраСистемс, 2004. –С. 5.
7. Уфимцева А. А. Роль лексики в познании человеком действительности и в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и

картина мира / отв. ред Б. А. Серебрянников. М.: Наука, 1988. С. 108–140.

8. Хуторянская А.Д. Параметры художественной картины мира в литературоведении // Картина мира в художественном произведении: материалы Международной научной интернет-конференции. 20-30 апреля 2008 г. / сост. Г.Г. Исаев, Е.Е. Завьялова, Т.Ю. Громова. – Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет», 2008. – С. 3

9. Замалетдинов Р.Р. К проблеме соотношения концептуальной и языковой картин мир // Сохранение и развитие языков в условиях многонационального государства: проблемы и перспективы: II Международная научно-практическая конференция. 18-20 июня 2009 г.: Труды и материалы / Под общ. ред. Р.Р. Замалетдинова. Казань, 2009. – С. 253.

10. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В. И. Карасик. – Волгоград : Перемена, 2002. – С. 74.

11. Маслова В А. Введение в когнитивную лингвистику : учеб. пособие / В. А. Маслова. – 5-е изд. – М. : Флинта : Наука, 2011. – С. 61.

12. Лурье С.В. Психологическая антропология: история, современное состояние, перспективы : учеб. пособие / С. В. Лурье – 2-е изд. – М. : Акад. Проект ;Альма Матер, 2005. – С. 583.

13. Стернин И.А., Попова З.Д. Когнитивная лингвистика / И.А. Стернин, З.Д. Попова. – М.: «АСТ – Восток – Запад», 2007. – 314 с.

14. Пименова М.В. Введение в когнитивную лингвистику / М.В. Пименова. – Кемерово. – 2004. – С. 5.

15. Ерофеева Л.А. Метафорические репрезентации доминантных концептов в поэтической картине мира Р.М. Рильке: дис. ... канд. филол. наук / Ерофеева Лариса Анатольевна. – Саратов, 2007. – 200 с.

16. Бубнова И.А., Красных В.В. Человек и его образ мира как объект и предмет современных интегративных исследований: традиции и новации // Вестник МГПУ. Сер.«Филология. Теория языка. Филологическое образование». 2014. № 4 (16). С. 80–83.

17. Захарова Т.В. Термин «картина мира» в современных лингвистических исследованиях // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Челябинск: РЕКПОЛ, 2008. С. 118.

AYRIM ERGONIMIK INDIKATORLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA QO‘LLANISHI XUSUSIDA

Nuriddinova Nozima Avazxonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikadagi dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lgan ergonimlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Jumladan, ayrim ergonimik indikatorlar – ya’ni korxonalar, tashkilot, muassasa, brend yoki mahsulot nomlari sifatida ishlatiladigan nomlarning lug‘aviy va ma’no jihatidan qanday turlarga ajralishi, ular til tizimida qanday semantik yuklamalarga ega bo‘lishi va amaliy nutqda qanday kontekstlarda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Tadqiqotda ergonimlarning sotsiokulturning element sifatidagi roli, ularning semantik maydonlardagi o‘zgaruvchanligi, so‘z yasash va til me‘yorlariga moslashuvi, shuningdek, reklama va ommaviy kommunikatsiyada tutgan o‘rni tahlil etiladi. Maqolada ayrim tanlangan ergonimik indikatorlar (masalan, “UzAutoMotors”, “HUMO”, “Artel”, “Beeline”) misolida ularning semantik struktura va nutqiy qo‘llanishi lingvistik tahlil orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqolada ushbu ergonimlar nutqiy uslubiyat nuqtai nazaridan qanday ekspressiv-emotiv yuklamalarga ega ekani, ularning ommaviy ongda qanday tasavvurlarni uyg‘otishi hamda leksik-funksional jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ergonim, ergonimik indikator, markaz, market, minimarket, supermarket, leksik-semantik, morfologik, model.

О ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ СВОЙСТВАХ И ПРИМЕНЕНИИ НЕКОТОРЫХ ЭРГОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ

Нуриддинова Нозима Авазхановна
Наманганский государственный университет Независимый исследователь

Аннотация: В статье анализируются эргонимы, одно из актуальных направлений современной лингвистики, и их лексико-семантические свойства. В частности, изучаются лексико-семантические типы некоторых эргонимов, то есть наименований, используемых в качестве названий предприятий, организаций, учреждений, брендов или продуктов, какие смысловые нагрузки они несут в системе языка и в каких контекстах они используются в практической речи. В исследовании анализируется роль эргонимов как элемента социокультуры, их изменчивость в семантических полях, адаптация к словообразовательным и языковым нормам, а также их роль в рекламе и массовой коммуникации. В статье показаны семантическая структура и речевое использование некоторых избранных эргонимов (например, «UzAutoMotors», «HUMO», «Artel», «Beeline») с помощью лингвистического анализа. В статье также рассматриваются экспрессивно-эмоциональные коннотации этих эргонимов с точки зрения речевого стиля, образы, которые они вызывают в общественном сознании, и их лексические и функциональные аспекты.

Ключевые слова: эргоним, эргонимический индикатор, markaz, market, minimarket, supermarket, лексико-семантический, морфологический, модель.

ON THE LEXICAL-SEMANTIC PROPERTIES AND APPLICATION OF SOME ERGONOMIC INDICATORS

Nuriddinova Nozima Avazkhanovna
Namangan State University Independent Researcher

Annotation. This article analyzes ergonyms, one of the current trends in modern linguistics, and their lexical and semantic properties. In particular, it studies the lexical and semantic types

of some ergonomic indicators - that is, the names used as names of enterprises, organizations, institutions, brands or products, what semantic loads they have in the language system and in what contexts they are used in practical speech. The study analyzes the role of ergonyms as an element of socioculture, their variability in semantic fields, adaptation to word formation and language norms, as well as their role in advertising and mass communication. The article shows the semantic structure and speech use of some selected ergonomic indicators (for example, "UzAutoMotors", "HUMO", "Artel", "Beeline") through linguistic analysis. The article also examines the expressive and emotional connotations of these ergonyms from the point of view of speech style, the images they evoke in the public consciousness, and their lexical and functional aspects.

Key words: ergonym, ergonomic indicator, center, market, minimarket, supermarket, lexico-semantic, morphological, model.

Kirish. Til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyat madaniyati, ijtimoiy munosabatlari va iqtisodiy faoliyatining ham ifodasidir. Shunday komponentlardan biri — ergonomlar hisoblanadi. Ergonomlar bu — turli tashkilot, firma, korxonalar yoki mahsulotlarga berilgan nomlardir. Ular nafaqat identifikator, balki axborot, emotsional, madaniy yuklamalarni ham o'zida mujassam etadi. Ushbu maqolada ayrim ergonomik indikatorlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi va ularning funksional qo'llanilishi o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ergonom – faoliyat yuzasidan uyushgan kishilar jamoasi, shuningdek, muassasa, tashkilot va korxonalarining atoqli oti. Ergonomlar sirasiga inson mehnat faoliyati bilan bog'liq joylar: korporatsiya, tashkilot, korxonalar, muassasa, zavod, fabrika, firma, fermer xo'jaliklari, bank, bozor, do'kon, magazin, univermag, gastronom, market, supermarket va aptekalarning maxsus atoqli nomlari kiradi. Onomastik makro va mikroko'lamlarning har biri o'z indikatorlar guruhiga ega, Ergonomlarning leksik-semantik va grammatik jihatdan shakllanishida ham indikatorlar muhim o'rin tutadi. Ergonomik indikatorlar ergonomlar tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turini, xarakterini bildiruvchi lug'aviy birliklardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ayrim ergonomik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq qilish borasidagi olimlar tomonidan berilgan fikr va mulohazalar chuqur muhokama qilindi. Uning kelib chiqishi, mohiyati va tarkibi o'rganildi. Joy nomlari va ularni kelib chiqishi hamda ergonomlarda onomastik birliklarni tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Asli arabcha markaz o'zlashma so'zi o'rtalik, o'rta yer, holat, mavqe, vaziyat ma'nolarini anglatadi. So'z o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1 mat., fiz. Geometrik shaklning o'q chizikdari kesishadigan, mas., shar sirtining barcha nuqtalaridan baravar uzokdikda bo'lgan nuqta, geometrik yoki fizik nisbatlarning o'rta nuqtasi. Linza markazi. Simmetriya markazi. Og'irlik markazi.

2. Biror sath, maydon va shu kabilarning o'rta qismi; o'rtasi. Cho'l markazida qad ko'targan posyolkaga aholi ko'chib kela boshladi. Gazetadan .

3. ko'chma. Ahamiyati, mohiyati va shu kabilar jihatdan asos, asosiy hisoblanuvchi joy, qism, o'rin va boshqalar. Asar markazida bisotlaridagi yolg'iz eshaklarini minib, safarga chiq-qan ota va o'g'il obrazlari turadi. "O'TA" .

4. Aholi yashaydigan joyning ma'muriy binolar, savdo va boshqa muassasalar o'rnashgan asosiy qismi. Shahar markazi. Qishloq markazi.

5 Biror faoliyat sohasida asosiy ish olib boriladigan joy. Matbuot markazi. Ilmiy markaz. Yaqinda O'zbekiston atom markazining to'ng'ich inshooti — respublika Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining suniy-tadqiqot reaktori ishga tushdi. "Fan va turmush" .

6 ayn. poytaxt. Toshkent – Respublikamizning markazi.

7.tar. Oliy boshqaruv, rahbarlik organi. Markaz ko'rsatmalariga amal qilmoq.

8 fiziol. Nerv hujayralarining organizmning biror faoliyatini boshqaruvchi ma'lum guruhi. Harakat markazi. Nafas markazi.

Istiqlol yillarida monomarkaz atamasi ham yuzaga keldi. Mazkur termin tarkibidagi mono [yun. Monos – bir, yakka, yagona] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, bir, yagona, yolg‘iz ma‘nolarini bildiradi. Masalan, monoartirit, monografiya, monolog kabi.

Monomarkaz ishsiz, ma‘lum kasb-hunarga ega bo‘lmagan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash markazlari.

Ayrim manbalarda monomarkaz termini boshqacharoq izohlangan: “Monomarkazlar – ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi davlat muassasasi hisoblanadi”. Masalan, Namangan shahar Ishga marhamat monomarkazi. Bizningcha, terminga berilgan birinchi izoh to‘g‘ri.

Markaz indikatorini hozirgi o‘zbek ergonimiyasida faol qo‘llanmoqda. Markaz indikatorini faoliyat, jarayon, taom, mahsulot bildiruvchi otlarga bitishuv usulida bog‘lanib birikma shaklidagi ergonimlar hosil qiladi. Bu tipdagi ergonimlar leksik-morfologik jihatdan ot + ot + ot modelida tuziladi, leksik-semantik jihatdan nom (atoqli ot) + faoliyat, jarayon, taom, mahsulot turi (apellyativ – turdosh ot) + indikator modelida bo‘ladi: “Sarkor” osh markazi, “Olmos” osh markazi, (Nam. shah.), “Muallim” o‘quv markazi kabi. Markaz indikatorli ergonimlarni semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ta‘lim tizimiga mansub ergonimlar: “Grant ta‘lim” o‘quv markazi, “Muallim” o‘quv markazi, “Taraqqiyot” o‘quv markazi “Ziyokor”(Nam. shah.), “Humo” o‘quv markazi, “Brave And Planet” , “Ilm ziyolari”, “Diamond Edukation”, “Olimlar Makoni”(Pop.tum.) “Ibn Sino”, “Kelajak”, “Vodiy ta‘lim” o‘quv markazlari (Chust tum.), “Istiqbol zamin bolalari”, “Mashrab”, “Namangan international school” nodavlat ta‘lim muassasasi (Nam.shah)kabi.

2. Umumiy ovqatlanish tizimiga mansub ergonimlar: Biloliy osh markazi, Uch qozon osh markazi, Sarkor osh markazi, Olmos osh markazi, Rahmatullo osh markazi, Toltagi osh markazi , Rohat baliq markazi, Toshkent osh markazi, Baliqsay baliq markazi, Norin markazi (Nam. shah.) kabi.

3. Tibbiyot tizimiga mansub ergonimlar: “Anamed”, “NTD”, “Go‘zal shifo”, “Oydin shifo”, “Doktor A”, “Izomed”, “E‘tibor”, “Family” diagnostika markazlari (Nam. Shah.)

4. Savdo-sotiq tizimiga mansub ergonimlar: “Polvon” g‘osht markzi, “Pokiza” non markazi, “Go‘zal” kulcha non markazi, “Halol” (Nam. shah.) kabi. Makro, market, supermarket, minemarket kabi ergonimik indikatorlar, asosan, savdo tizimiga mansub ergonimlar tarkibida faol qo‘llanmoqda.

Tarixiy-etimologik jihatdan inglizcha o‘zlashma market so‘zi asli bozor, sotish, pullash ma‘nolarini anglatadi. Ko‘pincha market va marketing so‘zlari variantdosh so‘zlar deb qaraladi, teng qo‘llanadi. Marketing so‘zi iste‘molga XIX asrning 60-yillarida Makkovern tomonidan kiritilgan. Marketing nazariy konsepsiya va tijorat faoliyatining o‘ziga xos hodisasi tarzida XX asr boshlarida AQShda ilk bor qo‘llandi.

O‘zbek tilida market so‘zi aynan do‘kon (biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo-sotiq xonasi, korxonasi, magazincha) ma‘nosida qo‘llanadi. Demak, aslida do‘kon, magazin va market so‘zlari sinonim. Hozirda market so‘zi faol qo‘llanmoqda. Shu sababdan ergonimlar tarkibida ham market indikatorini ishlatilmoqda. Masalan, Nizomboy market (Nam. sh.), Best market (Nam.sh. Ilg‘or MFY), Zaytun market (Nam. sh. Uychi k.) kabi.

Marketlar hajmiga farqlanadi. Bu farqlanish tilda minimarket, supermarket so‘zlari bilan ifodalanadi. Mini... [lot. minimus – eng kichik] – o‘zlashma tarkibiy qismi bo‘lib, eng kichik, eng kam ma‘nolarini anglatadi. Masalan, minimal, minimalizm, minifutbol, minus kabi. Demak, minimarket – eng kichik do‘kon, magazin degan ma‘noni bildiradi va aynan shu ma‘nosi bilan savdo shoxobchalarini ifodalovchi ergonimlar tarkibida indikator sifatida qo‘llanadi. Masalan, Hoji Mamatxon minimarket (Nam.sh. Do‘stlik shohko‘chasi), “Chinor” minimarket (Nam. sh.) kabi. Super [lot. Supet, supra – eng kichik] – o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi:

1) biror narsaning oliy sifatli, yuqori darajada ekanligini yoki astoydil zo‘r berib qilingan

harakatni;

2) yuqorida, biror narsaning ustida joylashganlikni;

3) bosh, asosiy; katta.

Xulosa. Ergonimlar nafaqat oddiy nomlar, balki zamonaviy kommunikatsiyada kuchli axborot va emotsional yuklamaga ega bo'lgan lingvistik birliklardir. Ularning leksik-semantik tahlili orqali tilning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlari ham o'rganiladi. Ergonimlar tilni boyituvchi, ma'no qatlamlarini kengaytiruvchi hodisa sifatida ilmiy tahlilga loyiq. Kelgusida ularni reklama lingvistikasi, psixolingvistika va madaniyatshunoslik bilan bog'liq kontekstda chuqurroq o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. -3-j. – B.112.

2. Мадвалиев А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2020. – Б.127.280 б.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. -3-j. – B.225.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori //https://lex.uz/docs/-535494

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. -3-j. – B.113.

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Marketing>

7. Qarang. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. -3-j. – B.113. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. -1-j. – B.994.

8. Мадвалиев А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2020. – Б.126.

LINGVOKULTUROLOGIYADA OLAMNING LISONIY MANZARASI TADQIQI

Qurbanbayeva Nilufar Ilxamovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-4048-7255>

Annotatsiya: Mazkur maqola lingvokulturologiya fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada olamning lisoniy manzarasi tushunchasi, uning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari va zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, turli tillardagi olamning lisoniy manzarasi xususiyatlari va ularning madaniy kontekstdagi roli ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, olamning lisoniy manzarasi, til va madaniyat, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию концепции языковой картины мира, которая является одним из основных направлений лингвокультурологии. В статье анализируются понятие языковой картины мира, её теоретические основы, методы исследования и значение в современной лингвистике. Кроме того, рассматриваются особенности языковой картины мира в различных языках и их роль в культурном контексте.

Ключевые слова: лингвокультурология, языковая картина мира, язык и культура, когнитивная лингвистика, этнолингвистика

Annotation: This article is dedicated to the study of the concept of the linguistic worldview, which is one of the main directions of the science of linguoculturology. The article analyzes the concept of the linguistic worldview, its theoretical foundations, research methods, and its place in modern linguistics. Additionally, it explores the characteristics of the linguistic worldview in various languages and their role within cultural contexts.

Key words: linguoculturology, linguistic worldview, language and culture, cognitive linguistics, ethnolinguistics

XXI asr tilshunosligida interdissiplinar yondashuvlar keng rivojlanmoqda. Shu bilan birga, til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'lanishlarni o'rganuvchi lingvokulturologiya fani alohida ahamiyat kasb etmoqda. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri olamning lisoniy manzarasi (linguistic picture of the world) hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi - bu ma'lum bir til vositasida aks ettirilgan dunyo haqidagi tasavvurlar majmuyi bo'lib, u shu tilni so'zlashuvchi xalqning ongida shakllangan dunyoqarashni aks ettiradi. Bu konsepsiya tilning shunchaki aloqa vositasi emasligi, balki xalqning dunyoni idrok etish va kontseptualizatsiya qilish usuli ekanligini ta'kidlaydi.

Sapir-Uorf gipotezasi va uning ta'siri Olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining nazariy asoslari Amerika tilshunoslari Edward Sapir va Benjamin Li Uorfning ishlariga borib taqaladi. Sapir-Uorf gipotezasi bo'yicha, til insonning fikrlash jarayonini belgilaydi va dunyoni idrok etish usuliga ta'sir ko'rsatadi. Bu g'oya ikki shaklda ifodalanadi:

1. Kuchli shakl (tilning determinizmi) - til fikrlashni to'liq belgilaydi
2. Zaif shakl (tilning relativizmi) - til fikrlashga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi

Zamonaviy tadqiqotlar ko'proq zaif shaklni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni til dunyoni idrok etishga ta'sir ko'rsatadi, lekin uni butunlay belgilamaydi.

Vygotskiy va Luriya konsepsiyalari Sovet psixologlar L.S. Vygotskiy va A.R. Luriya ham olamning lisoniy manzarasi nazariyasiga muhim hissa qo'shdilar. Vygotskiyning «til va fikrlash» konsepsiyasi bo'yicha, til nafaqat fikrlarni ifodalash vositasi, balki fikrlashning o'zi hisoblanadi. Luriya esa til va madaniyatning kognitiv jarayonlarga ta'sirini empirik tadqiqotlar orqali isbotladi.

Olamning lisoniy manzarasi tuzilishi quyidagilardan tashkil topadi

1. Kontseptual tizim - Olamning lisoniy manzarasi kontseptlar tizimidan iborat bo'lib, bu kontseptlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Universal kontseptlar - barcha tillarda mavjud bo'lgan asosiy tushunchalar (vaqt, makon, oila, tabiat)

Etnik-madaniy kontseptlar - ma'lum xalq madaniyatiga xos tushunchalar

Individual kontseptlar - yakka shaxsning ongiga xos tasavvurlar

2. Semantik maydonlar - Olamning lisoniy manzarasi turli semantik maydonlardan tashkil topadi:

Vaqt kontsepsiyasi - o'tmish, hozir va kelajak haqidagi tasavvurlar

Makon kontsepsiyasi - geografik va ontologik makon tushunchalari

Ijtimoiy munosabatlar - oila, jamiyat, hokimiyat tizimi

Ruhiy-ma'naviy sohalar - din, axloq, estetik qarashlar

3. Leksik-semantik tahlil. Bu usul ma'lum semantic guruhga tegishli so'zlarning ma'no xususiyatlarini tahlil qilishga asoslangan. Masalan, rang nomlarining turli tillardagi taqsimlanishi va ularning madaniy konnotatsiyalari o'rganiladi.

Kontseptual tahlil orqali ma'lum kontseptning til tizimidagi ifoda vositalarining to'liq spektri aniqlanadi. Bu jarayonda leksik, frazeologik, paremik va boshqa til birliklari tahlil qilinadi. Etnopsixolingvistik eksperiment- Bu usul orqali til tasuvchilarining ma'lum kontseptlar haqidagi tasavvurlari empirik yo'l bilan o'rganiladi. Assotsiativ eksperimentlar va anketa so'rovlari bu guruhga kiradi.

Komparativ tahlil Turli tillardagi olamning lisoniy manzarasi xususiyatlarini solishtirish orqali har bir tilning o'ziga xos jihatlarini aniqlash mumkin.

Tillar orasidagi farqlar Vaqt kontsepsiyasidagi farqlar Turli tillarda vaqt kontsepsiyasi har xil tarzda ifodalanadi. Masalan: O'zbek tilida vaqt ko'pincha fazoviy metaforalar orqali ifodalanadi («oldinda turgan ishlar», «ortda qolgan kunlar») Ingliz tilida vaqt resurs sifatida kontseptuallanadi («time is money», «spending time»). Rang nomlaridagi xilma-xillik Rang nomlarining tillardagi taqsimlanishi madaniy xususiyatlarni aks ettiradi: Rus tilida «goluboy» va «siniy» alohida ranglar sifatida ajratiladi. Ingliz tilida bu ranglar bitta «blue» so'zi bilan ifodalanadi. Ba'zi afrikalik tillarda yashil va ko'k ranglar bir so'z bilan ifodalanadi

Qarindoshlik terminologiyasi har bir tilning olamning lisoniy manzarasida oila strukturasi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi: O'zbek tilida qarindoshlik munosabatlarining boy terminologiyasi mavjud. Ingliz tilida nisbatan sodda qarindoshlik tizimi mavjud. Xitoy tilida yoshga va ijtimoiy mavqega asoslangan murakkab tizim bor. Tilning madaniy kontekstdagi ahamiyati - madaniy identifikatsiya hisoblanib, olamning lisoniy manzarasi xalqning madaniy identifikatsiyasida muhim rol o'ynaydi. Til orqali xalq o'zining dunyoqarashi, qadriyatlarini va madaniy xususiyatlarini keyingi avlodlarga o'tkazadi.

Madaniyatlararo aloqa - turli tillardagi olamning lisoniy manzarasi xususiyatlarini bilish madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Bu ayniqsa globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Til ta'limi chet tilni o'rganishda nafaqat grammatik qoidalar, balki shu tilning olamning lisoniy manzarasi ham o'zlashtirilishi kerak. Bu til o'rganuvchining madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Globallashuv davrida turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmasi nihoyatda muhim bo'lib, bu jarayonda turli tillardagi olamning lisoniy manzarasini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir til o'z xalqining dunyoqarashi, qadriyatlarini va fikrlash uslubini aks ettiruvchi vosita bo'lib, masalan, ingliz tilida «time is money» (vaqt — pul) iborasi vaqtning iqtisodiy resurs sifatida qadrlanishini anglatadi, o'zbek tilidagi «vaqt daryo — oqib ketadi» iborasi esa vaqtning o'tkinchi va nazoratdan tashqari kuch ekanini bildiradi. Yoki ingliz tilida «privacy» tushunchasi shaxsiy hayotga hurmatni bildirsa-da, o'zbek tilida bu tushuncha aniq ekvivalentga ega emas, chunki o'zbek mentalitetida jamoaviylik kuchliroq. Bundan tashqari, ingliz tilida inson hissiyotlarini ifodalovchi «I'm feeling blue» (o'zimni tushkun

his qilyapman) iborasi rang orqali kayfiyatni ifodalasa, o'zbek tilida bu holat «kayfiyatim yo'q» kabi oddiy shaklda ifodalanadi. Chet tilini o'rganishda bunday iboralarni va ularning orqasidagi madaniy tasavvurlarni anglash, o'rganuvchining madaniy kompetensiyasini rivojlantirib, boshqa xalqlarning fikrlash tarziga nisbatan hurmat va empatiya bilan yondashishga yordam beradi. Tilni shunchaki grammatik jihatdan emas, balki shu til orqali aks etgan dunyo manzarasi bilan birga o'rganish orqali inson nafaqat samarali muloqot qila oladi, balki global jamiyatda madaniyatlararo ko'priq quruvchi bag'rikeng shaxs sifatida shakllanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar davrida kognitiv tilshunoslik va olamning lisoniy manzarasi alohida shakl kasb etmoqda. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasini yangi darajada rivojlantirmoqda. Kontseptual metafora nazariyasi, mental maydonlar nazariyasi va boshqa kognitiv yondashuvlar til va fikrlash o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam bermoqda.

Korpus lingvistikasi. Katta hajmdagi matnlar korpusi orqali olamning lisoniy manzarasi xususiyatlarini kvantitativ usullar bilan tadqiq etish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu statistik tahlil va kompyuter lingvistikasi usullarini qo'llash imkonini beradi.

Neyrolingvistika. Neyrolingvistik tadqiqotlar til va miya faoliyati o'rtasidagi bog'lanishni o'rganib, olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasini neyrofiziologik asoslar bilan boyitmoqda. Amaliy qo'llanish sohalari Tarjima nazariyasi va amaliyoti Olamning lisoniy manzarasi tushunchasi tarjimon faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Turli tillardagi dunyoqarash farqlari tarjimada ma'noli ekvivalentlik yaratish jarayonini murakkablashtiradi. Til darsliklari va dasturlari ishlab chiqishda olamning lisoniy manzarasi xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Bu o'quvchilarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Psixolingvistik terapiya Ba'zi psixoterapevtik yondashuvlarda bemor va terapevt o'rtasidagi til farqlari hisobga olinadi, chunki muammo idrok etish usuli tilga bog'liq bo'lishi mumkin. Tilning determinizmi haqidagi munozaralarga ko'ra ba'zi olimlar olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining tilning fikrlashga ta'sirini haddan tashqari oshirib ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ular universal kognitiv jarayonlarning muhimligini alohida ta'kidlaydilar.

Universal grammatika nazariyasi Noam Xomskiyning universal grammatika nazariyasi bo'yicha, barcha tillarda universal grammatik prinsiplar mavjud bo'lib, bu tillardagi farqlar yuzaki jihatlar bilan cheklanadi. Empirik dalillarning etishmovchiligi ba'zi tanqidchilar olamning lisoniy manzarasi ta'sirini isbotlovchi yetarli empirik dalillar yo'qligini ta'kidlaydilar.

Xulosa Olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasi zamonaviy lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Garchi bu soha hali ham munozarali masalalarni o'z ichiga olsa-da, til va madaniyat, til va fikrlash o'rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim hissa qo'shmoqda. Kelajakda bu sohaning rivojlanishi interdissiplinar yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va empirik tadqiqot usullarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq bo'ladi. Olamning lisoniy manzarasi tadqiqi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki til ta'limi, tarjima, madaniyatlararo muloqot va boshqa amaliy sohalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohadagi tadqiqotlar davom ettirilishi natijasida til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar yanada chuqurroq tushuniladi va bu bilimlar jamiyatning turli sohalarida qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazykovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigmy v yazykoznanii // Filologicheskie nauki. 2001. №1.
2. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. Volgograd, 2002.
3. Kubryakova E.S. Yazyk i znanie. M., 2004.
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. M., 2001.
5. Popova Z.D., Sternin I.A. Kognitivnaya lingvistika. M., 2007.
6. Uorf B.L. Otnoshenie norm povedeniya i myshleniya k yazyku // Novoe v lingvistike. M., 1960.

IRIM-SIRIM BILAN BOG'LIQ TIL BIRLIKLARINING O'RGANILISHI*Ravshanova Madina Zafarjon qizi**University of Business and Science**O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada irim-sirimlar bilan bog'liq til birliklariga doir Amerika, Yevropa, Yaponiya va O'zbekiston tilshunoslari tomonidan olib borilgan izlanishlar, o'tkazilgan tahlil natijalari, ularning yutuq va kamchiliklari to'grisida fikr yuritiladi. Etnografik tushunchalar bilan bog'liq til birliklarining tuzilishi, ma'no-munosabatiga ko'ra bo'linishlari bilan bog'liq nazariy qarashlar berib o'tiladi va misollar keltirilib o'rganilish ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: etnik tushunchalar, etnografizm, leksik etnografik birliklar, semiotika, irim-sirimlar, madaniy kod, madaniy fenomen, milliy kolorit.

Аннотация. В статье рассматриваются исследования, проведенные лингвистами Америки, Европы, Японии и Узбекистана по языковым единицам, связанным с Ир-Сирим, результаты анализа, их достижения и недостатки. Приводятся теоретические взгляды на структуру языковых единиц, связанных с этнографическими концептами, их деление по значению и взаимосвязи, а также раскрывается важность их изучения на примерах.

Ключевые слова: этнические концепты, этнография, лексические этнографические единицы, семиотика, идиомы, культурный код, культурный феномен, национальный колорит.

Abstract: The article discusses the research conducted by linguists from America, Europe, Japan and Uzbekistan on linguistic units related to the Ir-Sirim, the results of the analysis, their achievements and shortcomings. Theoretical views are given on the structure of linguistic units related to ethnographic concepts, their division according to their meaning and relationship, and the importance of studying them is revealed by giving examples.

Keywords: ethnic concepts, ethnography, lexical ethnographic units, semiotics, idioms, cultural code, cultural phenomenon, national color.

Irim-sirim so'zi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha izohlanadi. "Irim – biron niyat bilan qilinadigan ish, xatti-harakat. Irim kishining o'z ishlariga rivoj tilash, o'zini ehtiyot qilish, birovlarga yaxshilik tilash, zarar yetkazish va boshqalar niyatlarda qilinadi. Masalan, to'ydan yaxshi niyat bilan biror narsa olib ketish, dard-baloni qaytarish, ziyon-zahmatdan, ko'z tegishdan saqlanish uchun boshdan o'girib tashlash, chaqaloqqa har xil ins-jinslar yo'lamasin degan ma'noda beshikdagi chaqaloq yostig'i tagiga pichoq yoki non qo'yish va hakazo. Irim-sirimlarning turlari juda ko'p va jahondagi deyarli hamma xalqlarda, turli kasb-hunar sohalarida uchraydi. Ba'zi irimlar qandaydir ko'zga ko'rinmas, sirli kuchlarning borligiga ishonishga va ulardan madad kutishga asoslanadi[1,212]".

Irim-sirimlar orqali insonlarning kundalik hayotidan olingan turli xil qarashlar avloddan avlodga o'tib boradi. Unda xalqlarning kundalik ish-harakati yoki odat tusiga aylanib qolgan muayyan qarashlari jamlangan bo'ladi va ular insonlarning ongiga psixologik ta'sir ham etadi.

Olimlar L.Dey va J.Meltbi[2,137,99-110], E.J.Hammerman va S.K.Morevej[4,323-333] o'zlarining ilmiy izlanishlarida irim-sirimlarning inson psixik dunyosiga ta'sirini tahlil etganlar va irim-sirim bilan bog'liq til birliklarining lingvopsixologik xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Lisan Damich "Keep your fingers crossed. The influence of superstition on subsequent task performance and mediating mechanism[3, 87,91-120] " nomli ilmiy monografiyasida irim-sirimlarni alohida xalq tafakkur mahsuli sifatida qaralib, ularning mavzu ko'lami, ma'no mohiyati, pragmatik va kognitiv xususiyatlari va psixik omillari, inson xatti-harakatiga ta'sirining psixologik

omillari empirik usulda tahlil etilgan.

Rus tilshunosi L.Boyko o'zining "Madaniyatlararo belgilar va irimsirimlar: rus, ingliz va fransuz tillarining lingvomadaniy an'analari[5]" nomli maqolasida uch tildagi irim-sirimlar bilan til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini kognitiv belgilari orqali madaniy jozibasi chog'ishtirma usulda tahlil qilgan.

B.A.Ritrego o'zining "Yaponiyadagi mashhur xurofiy ishonchlar" nomli tadqiqot ishida yapon tilida mavjud irim-sirimlarning madaniy omillari, diniy e'tiqod bilan bog'liqlik xususiyatlari, irim-sirimlar bilan bog'liq til birliklari va etnografik harakatlarni kelib chiqish etimologiyasini atroflicha tahlil etgan.

Yuqorida olimlarning o'rganishlariga tayanib irim-sirimlar insonlar hayotiga voqea-hodisalarni kuzatish asosida hosil qilingan turli xil xulosalar, dastlabki diniy qarashlarga bog'liq bo'lgan axloqiy nizomlar yoki xayoliy qarashlarning saqlanib qolishi, qadimgi rivoyatlardagi voqea hodisalarning mazmuni singigan qarashlar, insonlarning tabiat hodisalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asosida kirib kelganligini bilishimiz mumkin.

Irim-sirim bilan bog'liq leksik birliklarni ijobiy maqsadni yoki salbiy maqsadni ifoda etishiga ko'ra bo'lib tahlil qilisak ham bo'ladi. Masalan, "oyna ustiga obdastadan suv yugurtirmoq" irim-sirim leksikasi ijobiy maqsadni ifodalaydi, chunki oyna bu usti silliq jism va uni ustiga suv quyilganda suv erkin harakatlanadi. Insonlar mushkullari oson bo'lishi uchun yoki safarga otlanishidan oldin huddi shunday amallarni oynakda suv erkin harakatlangani kabi oson bo'lishini xohlab qilishadi. Irim-sirim leksik birliklari ishlatilgandan so'ng "yomon bo'ladi" so'zini ishlatsak, bunday irim-sirimlar salbiy ma'no anglatishini bilishimiz mumkin. Masalan, "Supurgini tikka qilib qo'yib bo'lmaydi", "Supurgidan ohlab o'tib bo'lmaydi", "Mag'zivani bosib bo'lmaydi", "Shomdan keyin qatiq berib bo'lmaydi" irim-sirim leksikalaridan so'ng, albatta, "yomon bo'ladi" deymiz. Bunday leksik birliklar xalqimiz tilida juda ko'plab uchraydi.

Irim-sirim bilan bog'liq leksik birliklar tuzilishiga ko'ra sodda gap, qo'shma gap shaklida va o'zi javobi bilan birga keladigan, javobini inson ongli ravishda o'zi tushunib oladigan, kasb-koriga ko'ra, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra turlarga ajratib o'rganishimiz mumkin.

Tuzilishiga ko'ra sodda gap ko'rinishidagi irim-sirim leksik birliklar: 1. Itga suv sepib bo'lmaydi. 2. Bevaqt qichqirgan xo'rozni so'yib tashlanadi. 3. Qalampir va achchiq narsalarni qo'lga berib bo'lmaydi. 4. Pulni ertalab qo'lga berib bo'lmaydi. 5. Ertalab qarzga savdo qilib bo'lmaydi. 6. Chaqaloq oldiga shomdan keyin kirib bo'lmaydi. 7. Supurgini tikka qilib qo'yib bo'lmaydi. 8. Supurgidan ohlab o'tib bo'lmaydi. 9. Shomdan keyin tirnoq olib bo'lmaydi. 10. Kulga axlat qo'shib bo'lmaydi. 11. Mag'zavani bosib bo'lmaydi. 12. Ko'chadan uy tomonga qarab supurib bo'lmaydi. 13. Taroqda chigal qolib ketmasligi kerak. 14. Ostonada o'tirib bo'lmaydi. 15. Ostonada so'rashib bo'lmaydi. 16. To'g'ralgan xom sabzini yeb bo'lmaydi. 17. Qolgan choy ustiga choy quyib bo'lmaydi. 18. Surpami solgan odam yig'ishi kerak. 19. Oshtaxta bilan o'qlovni ajratib bo'lmaydi. 20. Oshtaxta bilan o'qlovni tikka qo'yib bo'lmaydi. 21. Safarga ketgan odam, yetib borguncha uyni supurib bo'lmaydi. 22. Safarga ketgan odamning orqasidan suv sepib yuboriladi. 23. Harbiy xizmatga ketayotgan yigitga non tishlatilgan. 24. Oyoq va qo'lni tirnog'ini bir kunda olib bo'lmaydi. 25. Xomilador ayol ko'rpaning qornini tikib bo'lmaydi. 26. Xomilador ayol kirning teskarisini yoyib bo'lmaydi. 27. Farzandli bo'lgani ketgan ayolni hech kimga aytmaslik kerak. 28. Ellik ikki kun o'lik chiqqan uyda yuvinmaslik kerak. 29. Aza bo'lgan xonadonda igna ishlatmaslik kerak. 30. Aza bo'lgan xonadon egasi tuxum yemasligi kerak. 31. Aza bo'lgan xonadonda qirq kungacha mix qoqib bo'lmaydi. 32. Aza bo'lgan xonadonda ehsongacha qozon osib bo'lmaydi. 33. Azada o'tin sindirib bo'lmaydi. 34. Qiz uzatgandan keyin orqasidan tosh otiladi. 35. Shomda uxlab bo'lmaydi. 36. Azon chaqirganda tik turib bo'lmaydi. 37. Qabristonga qarata qo'l uzatib bo'lmaydi. 38. Yurib non yeb bo'lmaydi. 39. Yangi kelinchakning oyoq kiymi shomdan keyin tashqarida qolmasligi kerak. 40. Shomdan keyin qatiq berib bo'lmaydi. 41. Yangi kelinchakning qo'li unga botiriladi. 42. Seshanba kuni kasal ko'rgani borib bo'lmaydi. 43. Shanba

kuni kir yuvib bo'lmaydi. 44. Singan oynakka qarab bo'lmaydi. 45. Birovning qo'lidan uzukni yechib olib bo'lmaydi. 46. Turmush o'rto'g'i vafot etgan ayol qirq kun tomga chiqmasligi kerak. 47. Chaqaloq kindigini serfarzand bo'lsin deb sichqon uyiga tashlanadi. 48. Ko'z tegmasligi uchun ko'z munchoq taqish kerak. 49. Uyga qaytayotganda uydagilardan so'kish eshitmaslik uchun ro'molini uchini tugub olish kerak. 50. Niyat qilib sumalakka tosh tashlanadi. 51. Kechasi saqich chaynab bo'lmaydi. 52. O'g'il bolaga o'sma qo'yib bo'lmaydi. 53. Qo'shniga gugurt berib bo'lmaydi. 54. Qo'shnikidan cho'g' olib chiqib bo'lmaydi. 55. Supurgini qo'lga berib bo'lmaydi. 56. Vafot etgan insonning qirqida qirq xil taom qo'yish kerak. 57. Chaqaloq kiyimini yulduzga ko'rsatib bo'lmaydi. 58. Qo'rqqoq odamga vahimani uyasini qaynatib ichiriladi. 59. Yostiqa o'tirib bo'lmaydi. 60. Chaqaloqning tishi chiqishini onasi ko'rib qo'ymasligi kerak. 61. Dasturxonni ikki buklab solib bo'lmaydi. 62. Ikkita qo'lni boshga teng qo'yib bo'lmaydi. 63. O'choq boshiga oyoq qo'yib bo'lmaydi. 64. Hayitga kir qoldirmaslik kerak. 65. Kir yoyiladigan dor ostidan o'tib bo'lmaydi. 66. Kechasi ariq oldida o'tirib bo'lmaydi. 67. Exsonni (qora oshini) aza egalari yeb bo'lmaydi. 68. Shom payti ko'cha eshik ochiq qolmasligi kerak. 69. Qozon chetiga kapkir urib bo'lmaydi. 70. Qirqi chiqmagan chaqaloqlarning boshiga non va pichoq qo'yiladi. 71. O'n uchinchi kunni baxtsiz kun deb bilinadi. 72. Insonning qirq yoshini aytib bo'lmaydi. 73. Eshik boshiga ot taqasi taqib qo'yish kerak. 74. Safar oyida to'y qilib bo'lmaydi. 75. Kamalak chiqqanda, soch kesiladi. 76. Nonni rostlab sanab bo'lmaydi. 77. Xamirni ko'ptirish uchun o'rab qo'yilganda ustiga yostiq qo'ymaslik kerak. 78. Non yopayotganda orqa tomonda odam turmasligi kerak. 79. Bo'yi haddan tashqari o'sib ketayotgan insonlarning boshiga non yopadigan yench bilan urib qo'yiladi. 80. Odamning ustidagi kiyimni tikib bo'lmaydi. 81. Odam uxlab yotganda bosh tomonida o'tirmaslik kerak. 82. Anjir daraxtini o'tin qilib yoqib bo'lmaydi. 83. Aza bo'lgan joyda qatlama qilib bo'lmaydi. 84. Ignaga ip o'tkazib berilayotganda ipning uchini tugib bermaslik kerak. 85. Homilador ayol sochini kesib bo'lmaydi. 86. Choyni damlagandan keyin uch marta qaytarish kerak. 87. Choyni birinchi bo'lib o'ziga quyishi kerak. 88. Choyni o'ng qo'lida uzatish kerak. 89. Qaychini o'g'zi ochiq qolmasligi kerak. 90. Pichoqni uchki tomini bilan berib bo'lmaydi. 91. Chigal soch oyoq ostida qolmasligi kerak. 92. Oyoq kiyimni o'ng oyoqdan boshlab kiyish kerak. 93. Kechki payt cho'g' o'ynab bo'lmaydi. 94. Kechqurun saqich chaynab bo'lmaydi. 95. Hovlidagi qurigan daraxtni kesib tashlash kerak. 96. Dasturxonga qo'l artib bo'lmaydi. 97. Qo'l sochiqa og'iz artib bo'lmaydi. 98. Supugini yoqib bo'lmaydi.

Tuzilishiga ko'ra qo'shma gap ko'rinishidagi irim-sirim leksik birliklari: 1. Dasturxonda pichoq bo'lsa, duo qilib bo'lmaydi. 2. Oldidan qora mushuk o'tsa, ortga yetti qadam yurish kerak. 3. Hayvon sotib kelguncha, tagini tozalab bo'lmaydi. 4. Molga ko'z tegmasligi uchun do'lananing shoxidan sindirib mol shoxiga bog'lab qo'yiladi. 5. Olaqanot shaqillasa, haydab yuboriladi. 6. Uyda koptok o'ynasa, sichqon ko'payib ketadi. 7. Shomdan keyin qatiq berilsa, usti yopilib, kosa yoniga qora kuya surtab beriladi. 8. Yangi yurayotgan bolani oyog'iga ip bog'lab, quruqchoy yumalatiladi. 9. Yangi uyga ko'chmoqchi bo'lsa, chorshanba kuni ko'chish kerak. 10. Bolani sutdan chiqarmoqchi bo'lsa, juma kundan boshlanadi. 11. Yulduz uchsa, mevali daraxtni uchiga qarash kerak.

12. O'g'il bolaga o'sma qo'yilsa, boshini mo'riga tiqib olish kerak. 13. Choy ko'pigini boshga surtsa, boy bo'ladi. 14. Chaqaloqni tishini tish emas, guruch deb ataladi. 15. Yomon tush ko'rilsa, tomga bug'doy yoki makka sepiladi. 16. Safarga chiqib ketgandan so'ng, biror narsasi qolib ketsa, ortga qaytmaslik kerak. 17. Oy tutilsa, shovqin solish kerak. 18. Xushtak cholib bo'lmaydi, uyga o'g'ri tushadi. 19. Yerni o'yib, chizib bo'lmaydi, kambag'al bo'ladi. 20. Biror kishi yotsa, ustidan o'tib bo'lmaydi. 21. Kechqurun birov chaqirsas, «ha» deb bo'lmaydi. 22. Bolani boshiga yo'l tushsa, uch ko'chaning boshida yerga yumalatiladi. 23. Yulduz uchsa, tilak tilanadi. 24. Odam ustidagi kiyimi yechmasdan turib tikmoqchi bo'lsa, og'zida kaltak tishlab turishi kerak. 25. Shom payti ovqat qilinsa, ustini yopib pishirish kerak. 26. Ovqatning qirmoqchini yemaslik kerak, to'yida yomg'ir yog'adi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, garchi irim-sirimlar ilmiy asoslarga ega bo'lmasa-

da, har bir xalq hayotida uchraydigan etnografik harakterga ega leksik birlikdir. Etnik guruhlar orasida bir qator irim-sirimlar mavjud. Irim-sirimlarning ildizi ma'lum mamlakatda yashovchi xalqlarning madaniyati, tarixi, diniga borib taqaladi. Irimlar xalqlarning atrof -muhit haqida qanday fikrlashini ko'rsatadi. Ular, shuningdek, madaniyat va shu madaniyat vakilining xos ko'rsatkichidir, chunki turli tillardagi irimlar tarkibidagi ramzlar bir xil bo'lsa ham, ularning ma'nosi va madaniy ko'rsatkichi madaniyatdan madaniyatga farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 212b.
2. Day, L., & Maltby, J. (2003). Belief in good luck and psychological well-being: The mediating role of optimism and irrational beliefs. *The Journal of Psychology*, 137, 99-110.
3. Lysann Damisch (2008). "Keep your fingers crossed. The influence of superstition on subsequent task performance and mediating mechanism, 87, 91-120.
4. Hamerman, E. J., & Morewedge, C. K. (2015). Reliance on luck: Identifying which achievement goals elicit superstitious behavior. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 41, 323-333.
5. L. Boyko (2020) Signs and superstitions across cultures: Russian, English, and French linguocultural traditions.
6. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS www.europeanproceedings.com e-ISSN: 2357-1330.

RUS TILSHUNOSLIGIDA FITONIMLARNING TADQIQI

Yakubova Gulchexra Ziyatovna
Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. So'nggi yillarda fitonimlar nafaqat jahon tilshunosligida, shu bilan birga, rus tilshunosligida ham sof lingvistik muammo asosida ham tadqiq qilinmoqda. Keyingi davr tadqiqotlarida fitonimlarning turli tillar misolida qiyoslanishi kun tartibiga olib chiqilmoqda. Ushbu maqolada fitonimlarning rus tilshunosligida vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: botanika, fitonim, termin, o'simlik, leksika, lug'at, leksikografiya, terminologiya, til, biologiya, rus tili, o'zbek tili.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИТОНИМОВ В РУССКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Якубова Гульчехра Зиятовна
Старший преподаватель Международного университета Карши

Аннотация. В последние годы фитонимы исследуются не только в мировом языкознании, но и в русском языкознании на основе чисто лингвистической проблемы. В последующих исследованиях на повестку дня ставится сравнение фитонимов на примере разных языков. В данной статье речь пойдет о возникновении и этапах формирования фитонимов в русском языкознании.

Ключевые слова: ботаника, фитоним, термин, растение, лексика, словарь, лексикография, терминология, язык, биология, русский язык, узбекский язык.

STUDY OF PHYTONYMS IN RUSSIAN LINGUISTICS

Yakubova Gulchexra Ziyatovna
Senior Lecturer at the International University of Karshi

Abstract. In recent years, phytonyms have been studied not only in global linguistics, but also in Russian linguistics, based on a purely linguistic problem. Subsequent studies have focused on comparing phytonyms across different languages. This article will explore the emergence and stages of phytonym formation in Russian linguistics.

Keywords: botany, phytonym, term, plant, vocabulary, dictionary, lexicography, terminology, language, biology, Russian language, Uzbek language.

Kirish. Rus tilshunosligida fitonimlar turli jihatlardan o'rganilgan. Ayniqsa, "fitonim" leksemasining semantik doirasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Garchi "fitonim" leksemasi rus tilshunosligida uzoq vaqtdan beri ishlatib kelinsa-da, uning semantik tuzilishi XX asrning 70-yillaridan boshlab faol ravishda tahlil qilina boshlandi[1:30-34]. Tahlillarga ko'ra, "fitonim" leksemasining tor, terminologik ma'nosi dastlab A.V.Superanskiyning "Общая теория имени собственного" asarida o'rganildi[2]. Unda Царский дуб, Дерево плача kabi o'simlik nomlarining fitonim sifatidagi maqomi va terminologik xususiyatlari tahlil qilindi. "Fitonim" atamasi semantik rivojlanishi, nominativ birlik sifatidagi o'rni va onomasiologik jihatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda keng qo'llana boshlandi. Natijada, XX asrning 90-yillarida leksemaning terminologik ma'nosi etimologik lug'atlardagi leksikografik amaliyot orqali mustahkamlandi. U yunoncha "phyton" (o'simlik) va "onoma" (ism, nom) so'zlarining birlashuvidan hosil bo'lgan "ilmiy neologizm" sifatida taqdim etilib, "o'simlik nomi" (masalan, momaqaymoq, qarag'ay) sifatida ta'riflandi[3]. Garchi o'simliklar va ularning nomlari rus tilshunosligida uzoq vaqtdan beri o'rganib kelingan bo'lsa-da, "fitonim" leksemasining terminologik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan yaqinda boshlangan. Quyida

so'nggi yillarda amalga oshirilgan muhim tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Y.V.Serdyukova o'z tadqiqotlarida rus tilidagi olam tasvirida florizmlarning o'rni, til tizimidagi ahamiyati va o'simlik nomlarining nutqiy qo'llanilish masalalarini o'rgandi. Tadqiqotchi asosan fitonimlarning bir qismi sifatida florizmlarni tahlil qilgan bo'lsa-da, undan olingan xulosalar o'simliklar olamining umumiy kontekstiga taalluqli deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud [4:49-52]. Florizmlar fitonimlarning giperonimik tizimida giponim sifatida joylashishi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotda florizmlarning umumtil birligi sifatida hamda botanika, biologiya va agronomiya kabi sohalarda terminologik birlik sifatida keng qo'llanilishi yoritildi. Florizmlarni o'rganish tilning leksik fondini chuqur anglash, shuningdek, uni tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ular xalqning tabiat bilan aloqasi, dunyoqarashi va an'analarini aks ettiradi. Bundan tashqari, florizmlar lingvokulturologiya va semantik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib, tilning evolyutsion jarayonlarini ochib beradi. Shu sababli, Y.V.Serdyukova tahlillari florizmlarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Rus tilshunosi A.M.Letova o'z tadqiqotlarida rus folklorida qo'llanilgan fitonimlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning tilning semantik tuzilishi va xalqning tabiat bilan aloqasini aks ettirishdagi rolini yoritdi [5]. Folklor namunalarida fitonimlar ko'pincha metaforik va ramziy ma'nolarga ega bo'lib, o'simliklarning xalq og'zaki ijodidagi madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, eman kuchi va mustahkamlikni, qayin esa poklik va nafislikni ramziy ifodalaydi. Fitonimlarning semantikasi folklor matnlarida qahramonlar, tabiat hodisalari yoki ma'naviy tushunchalar bilan bog'lanib, ularning lingvokulturologik tahlili tilning dunyoqarashidagi o'rnini chuqurroq anglashga yordam beradi. Rus folklorida fitonimlarning qo'llanilishi faqat tabiat tasviri bilan cheklanmaydi, chunki o'simliklarga murojaat tabiiy hol sifatida qaraladi. Shu bilan birga, fitonimlar poetik maqsadlarda ham ishlatilib, tasvirning ta'sirchanligini va o'quvchiga ta'sirini oshiradi. Bu jarayonda leksemaning semantik doirasi kengayadi, bunda yangi (ohorli) yoki ilgari qo'llanilgan ko'chimlar shakllanadi. Ko'p qo'llanilgan ko'chimlar leksikografik manbalarda o'z aksini topadi. A.M.Letova tadqiqotida ushbu jihatlarga e'tibor qaratilishi uning amaliy ahamiyatini oshirdi. Xuddi shunday yondashuv F.G.Fatkullinaning maqolasida ham kuzatiladi [6:92-105]. Tadqiqotchi rus folklorida fitonimlarning milliy o'ziga xosliklarini tahlil qilib, muhim ilmiy xulosalar chiqardi. Folklor matnlarida fitonimlarning qo'llanilishi milliy o'ziga xoslikka ega bo'lib, bu ilmiy jihatdan asoslangan. Masalan, bir millat folklorida eman daraxti baquvvatlik ramzi sifatida ishlatilsa, boshqa millat asarlarida shu ma'noni ifodalash uchun chinor ishlatilishi mumkin. Shu sababli, fitonimlarning lingvopoetik imkoniyatlarini turli tillar qiyosida o'rganish lingvistik jihatdan yanada samarali hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Rus tilshunosligida fitonimlarning botanik terminlar sifatida tahlil qilinishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Y.Y.Moisiyeva o'z maqolalaridan birida курица, петух kabi hayvon nomlari bilan bog'liq fitonimlarni botanik terminlar sifatida o'rgandi [7:13-20]. Fitonimlarning botanik terminlar sifatida talqin qilinishi tilshunoslik va botanika sohalari o'rtasidagi uzviy aloqalarni ta'minlaydi. Bu yondashuv o'simlik nomlarining ilmiy tasnifi bilan xalqona nominatsiya o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi. Fitonimlarning semantik tahlili ularning etimologik kelib chiqishi va madaniy kontekstini yoritib, tilning evolyutsion jarayonlarini tushinishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotlar xalq botanikasi va an'anaviy bilimlarni hujjatlashtirishga hissa qo'shadi. Shu sababli, fitonimlarning botanik terminlar sifatida o'rganilishi lingvokulturologiya va etnobotanika kabi sohalarda dolzarb masalalarni yoritishga yordam beradi. Natijada, bu tadqiqotlar til va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni kengroq anglash imkonini beradi. O'zbek tilida ham gultojixo'roz, ayiqtovon kabi hayvon nomlari bilan bog'liq fitonimlarning mavjudligi xalq donishmandligi va zukkologik yondashuvning shakllanishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Bu esa tilshunoslik va botanika sohalari kesishmasidagi tadqiqotlarning ahamiyatini yanada ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rus tilshunosligida fitonimlarning birikmali terminlar, kollokatsiyalar, frazeologik iboralar va boshqa barqaror birikmalar tarkibidagi qo'llanilishi so'nggi yillarda faol tadqiq qilinmoqda. E.R.Xutova, M.G.Sersvadze, O.G.Xabarova, T.A.Trafimenkova kabi olimlarning ishlarida ushbu yondashuv muhim o'rin tutadi[8,9,10,11]. Fitonimlar rus tilida "сосновая шишка" yoki "берёзовый сок" kabi kollokatsiyalarda aniq semantik ma'noni ifodalab, tabiat tasviri va ilmiy terminologiyada keng qo'llanadi. Masalan, "дубовая роца" yoki "травяной покров" kabi birikmalar tabiat tasvirida va ilmiy kontekstda muhim rol o'ynaydi. Frazeologik iboralar misolida "как лист перед травой" iborasi metaforik ma'no orqali insonning ma'naviy holatini aks ettiradi. Fitonimlarning bunday qo'llanilishi rus tilining leksik boyligini va xalq dunyoqarashini yoritadi, shuningdek, lingvokulturologik tadqiqotlarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari, fitonimlarning barqaror birikmalardagi roli tilshunoslik va etnobotanika sohasida chuqur o'rganishga arziydi. Bu tadqiqotlar tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki barqaror birikmalarni bir tildan boshqasiga o'tkazish ko'pincha murakkablik tug'diradi. Fitonimlarni o'z ma'nosida so'zma-so'z tarjima qilish matnning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu birikmalarni til korpuslariga va avtomatik tarjima dasturlariga kiritish muammoning yechimi sifatida qaralmoqda. Koreys tilshunosi Pak Son Gu o'z tadqiqotida rus va koreys frazeologizmlarida qo'llanilgan fitonimlarning xususiyatlari va ularning tarjima jarayonidagi muammolarni tahlil qilib, ushbu sohadagi dolzarb masalalarni yoritdi[13:20-27].

Xulosa. Rus va o'zbek tilshunosligida fitonimlar turli yo'nalishlarda keng qamrovda o'rganilgan. O'simlik nomlari umumtil leksik birliklari sifatida ham, botanika, biologiya va agronomiya kabi sohalarda terminologik birliklar sifatida ham atroflicha tahlil qilingan. Fitonimlarning semantik xususiyatlari, ularning til tizimidagi o'rni va nutqiy qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar ikki tilda ham muhim ilmiy natijalar berdi. Xususan, fitonimlarning ichki semantik guruhlari, masalan, gullar, daraxtlar, butalar va boshqa o'simlik turlari alohida-alohida o'rganilib, ularning leksik-semantik xususiyatlari va nutqiy kontekstdagi funksiyalari yoritildi. Biroq, fitonimlarning leksikografik talqini masalasi tilshunoslar tomonidan yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, qardosh bo'lmagan tillar, masalan, rus va o'zbek tillaridagi fitonimlarning leksikografik talqinlarini qiyosiy tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday tadqiqotlar nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki leksikografik tahlil lug'atshunoslikning rivojlanishiga, yangi lug'atlar yaratilishiga va mavjudlarining takomillashtirilishiga xizmat qiladi. Fitonimlarning barqaror birikmalar, kollokatsiyalar va frazeologik iboralar tarkibidagi qo'llanilishi, ularning semantik kengayishi va madaniy kontekstdagi o'ziga xosligi lug'atlarda to'g'ri aks ettirilishi tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bundan tashqari, zamonaviy tilshunoslikda til korpuslariga asoslangan tadqiqotlar va avtomatik tarjima dasturlarining rivojlanishi fitonimlarning leksikografik talqinini yanada samarali qilish imkonini beradi. Masalan, rus va o'zbek tillaridagi fitonimlarning frazeologik birikmalardagi qo'llanilishi va ularning tarjima jarayonidagi muammolarini tahlil qilish til korpuslariga integratsiya qilish orqali yechilishi mumkin. Bu esa lug'atshunoslikning amaliy samaradorligini oshiradi va tilshunoslikning boshqa sohalari, masalan, lingvokulturologiya va etnobotanika bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Natijada, fitonimlarning leksikografik talqini bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar tilshunoslikning rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi va tillar o'rtasidagi madaniy o'zaro ta'sirni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Летова А.М. Из истории исследования фитонимической лексики: лингвокультурологический аспект // Вестник МГОУ. 2012. № 2. – С.30-34.
2. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с.
3. Шанский Н.М., Боброва Т.А. Этимологический словарь русского языка. – Москва: Прозерпина, 1995. – 328 с.
4. Сердюкова, Е.В. Флоризмы в русской языковой картине мира // Известия вузов.

Северо-Кавказский регион. Общественные науки. 2007. Спецвыпуск. – С.49-52.

5. Летова А.М. Семантические особенности фитонимов в русском фольклоре: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 22 с.

6. Фаткуллина Ф.Г. Национальные особенности функционирования фитонимов в фольклорных текстах // Научный диалог. 2016. № 7(55). – С.92-105.

7. Моисеева Е.Ю. Фитонимы с компонентами курица, петух в народной и научной ботанике русского языка // Томский журнал лингвистических и антропологических исследований. 2014. №4(6). – С.13-20.

8. Хутова Э.Р. Пословицы и поговорки с компонентом-фитонимом в английском и русском языках // Arriori. Серия: Гуманитарные науки. 2018. №3. – С.1-6.

9. Церцвадзе М.Г. Семантическая классификация пословиц и поговорок с компонентом-фитонимом антропоцентрической направленности в русском и грузинском языках // Wschodnioeuropejskie czasopismo naukowe. 2016. №14. – С.73-74.

10. Хабарова О.Г. Роль фразеологической активности фитонимов в процессе создания фразеологической единицы // сб. материалов Всероссийской науч. конференции. Мичуринск, 20 мая 2016 г. / под. общ. ред. В.Я. Никульшина. – Мичуринск: Изд-во Мичурин. гос. аграр. ун-та, 2016. – С.174-176.

11. Трафименкова, Т.А. Фразеологизмы с компонентом фитонимом в зеркале русской языковой культуры // Устойчивые фразы в парадигмах науки: материалы Международной науч. конференции, посвященной 100-летию со дня рождения В.Л. Архангельского. Тула, 8-11 июля 2015 г. – Омск: С-Принт, 2015. – С.205-209.

12. Ibragimov J. Nutqdan ko‘zlangan maqsadga erishishda parazit leksemalarning ahamiyati // “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari” ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy konferensiya. – Noyabr, 2024. – В.464-468.

13. Пак Сон Гу. Фитонимы в русской и корейской фразеологии // Язык, сознание, коммуникация. Сб. ст. Вып. 12 / отв. ред. В.В. Красных, А.И. Изотов; Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова, Филол. фак-т. – Москва: Диалог-МГУ, 2000. – С.20-27.

ВЫРАЗИТЕЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ Д. РУБИНОЙ.

Салахидинова Зилола Одилжоновна,
(PhD) Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. В статье рассматриваются особенности использования фразеологизмов в произведениях современной писательницы Д. Рубиной, а также приемы индивидуально-авторских преобразований фразеологических единиц.

Ключевые слова. Каламбур, синоним, антоним, омоним, пароним, варваризм, архаизм, историзм, диалектизм, устаревшие слова, стилизация, фразеологизм, фразеологическое новаторства, макаронический стих, эпиграф.

D. RUBINA ASARLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALI- STILISTIK XUSUSIYATLARI

Saloxidinova Zilola Odiljonovna,
(PhD) O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiyasi. Maqolada zamonaviy yozuvchi D. Rubina asarlarida frazeologik birliklardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek frazeologik birliklarni individual ravishda o'zgartirish usullari muhokama qilinadi.

Kalit suzlar. So'z o'yini mo'ljallangan, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar, barbarizmlar, arxaizmlar, tarixiyizmlar, dialektizmlar, eskirgan so'zlar, stilizatsiyalar, frazeologik birliklar, frazeologik birliklar, makronim, epigraflar.

EXPRESSIVE AND STYLISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE WORKS OF D. RUBINA.

Salakhidinova Zilola Odiljonovna,
(PhD) Uzbek State University of World Languages

Annotatsiya. The article examines the features of the use of phraseological units in the works of the modern writer D. Rubina, as well as the techniques of individual authorial transformations of phraseological units.

Key words. Pun, synonym, antonym, homonym, parody, barbarism, archaism, history studies, dialect studies, obsolete words, stylization, phraseology, phraseological novelties, macaronic poem, epigraph.

Богатство фразеологического фонда русского языка и особенно фразеологических средств описания личности не подлежит сомнению. Поэтому авторы стремятся создать наиболее яркий и запоминающийся образ главного героя, часто обращаясь к этому конкретному слою языковых единиц. Систематическое использование фразеологии в художественном тексте часто становится элементом идиостиля. Проблема функционирования фразеологизмов в художественных текстах всегда была актуальной для фразеологии, поскольку выявляет, с одной стороны, специфику языка писателя, а с другой - общие тенденции использования фразеологизмов. Изучением этой проблемы занимались такие отечественные лингвисты, как Н. М. Шанский и др. Всем известно жест разведения рук который обычно внешний демонстрирует удивление или беспомощность. Многие фразеологические единицы связаны с образом передающими физиологические ощущения и соотносимы со зрительно слуховой кожно-мышечной обонятельной вкусовой и вестибулярной системами таким фразеологизмам можно отнести язык отнялся, не верить ушам своим и др. Имеет значение и тот факт, что от греческого фразеологизм обозначает тело что не имеет отношения к нервной системе

или психике. Адъективная группа включает в себя фразеологизмы, которые характеризуют отношение персонажей друг к другу, связи между ними (родственные, дружеские и др.). Например, далёкая родственная связь между двумя героями обозначается фразеологизмом седьмая вода на киселе, а тесная дружеская связь фразеологизмом не разлей вода. Не менее многочисленной является и группа устойчивых сочетаний, с помощью которых передаются особенности характера героя. Это такие фразеологизмы, как, например: покоритель женских сердец, крепкий орешек, адское терпение. Последний пример интересен тем, что Д. Рубина прибегает к игре слов, заменяя исходную формулировку фразеологизма ангельское терпение, благодаря чему создается более яркая характеристика персонажа. С точки зрения выразительности, эмоциональности можно выявить в произведениях Д.Рубиной фразеологизмы, которые участвуют в создании характеристики персонажей например в книге «Русская канарейка», состоящего из трех романов «Желтухин», «Голос» и «Блудный сын».

В результате анализа были рассмотрены классификации, в которой выявлены группы фразеологизмов, характеризующих персонажей в произведениях Д. Рубиной.

Первая группа фразеологизмов - это такие единицы, которые участвуют в создании внешнего образа персонажей, его портрета например широкий в кости, коломенская верста, в том числе фразеологизмы, передающие такие внешние особенности персонажей, как мимика бросить взгляд, жесты всплеснуть руками, голос иерихонская труба и т. д. Данная группа является самой многочисленной, поскольку во многих случаях в создании портретной характеристики Д. Рубина прибегает к комизму, в чем и помогают устойчивые сочетания. Не менее многочисленной является и группа устойчивых сочетаний, с помощью которых передаются особенности характера героя. Это такие фразеологизмы, как, например: покоритель женских сердец, крепкий орешек, адское терпение. Последний пример интересен тем, что Д. Рубина прибегает к игре слов, заменяя исходную формулировку фразеологизма ангельское терпение, благодаря чему создается более яркая характеристика персонажа. Следующая группа фразеологические единицы, характеризующие действия персонажей, их поступки подвиг Геракла, спутать карты, след простыл. Здесь следует выделить подгруппу, в которую входят наречные фразеологизмы, обозначающие признак или качество действия персонажа, например: до потери сознания. Далее была выделена группа фразеологизмов, характеризующих способности персонажа, его умения, навыки, опыт, талант и проч. Так, для характеристики выдающихся персонажей Д. Рубина использует такие фразеологизмы: собачий нюх, видавший виды. С помощью фразеологизма дар божий характеризуется талант героя - его голос, умение петь. В книге «Русская канарейка» также часто встречаются фразеологические единицы, характеризующие психоэмоциональное состояние персонажей - их чувства, переживания и т. д. Например, чтобы передать чувство сильного стыда персонажа, Д. Рубина использует известный фразеологизм залиться краской. Ощущение неудобства и дискомфорта, которые испытывает герой, писатель передает с помощью устойчивого сочетания не в своей тарелке. Антонимичный ему фразеологизм как рыба в воде, наоборот, передает ощущение комфорта героя, находящегося в высшем обществе.

Д. Рубина использует фразеологический запас русского языка для передачи не только эмоционального, но и физического состояния персонажа, его ощущений и чувств. К этой группе также относятся фразеологические единицы, связанные с переходными состояниями человека. Например: смерть героини, к которой другие персонажи относятся с презрением, передается трансформированным фразеологизмом дуба преподнести (дать дуба). Эта единица обладает оценочностью, которая усилена употреблением фразеологизма в преобразованном виде. Некоторые устойчивые сочетания характеризуют героев в книге «Русская канарейка» с точки зрения их материального положения. Так, для обозначения бедственного существования героев Д. Рубина прибегает самым различным фразеологизмам,

в числе которых есть следующие: сидеть на бобах, сводить концы с концами, пробавляться на гроши .

С этой группой фразеологизмов тесно связана и другая: единицы, с помощью которых передается положение героя в обществе, в том числе его должность, смену социального статуса и проч., например: мальчик на побегушках, мелкая сошка, выйти замуж и др. Некоторые фразеологизмы в тексте романов Д. Рубиной участвуют в создании речевой характеристики персонажей. Это отдельная группа, представляющая особый научный интерес. Так, для создания образа неграмотного человека автор часто допускает ошибки в его речи, в том числе и ошибки в употреблении фразеологических единиц. Например, в романе «Желтухин» есть целый отрывок, посвященный речевой характеристике героини, плохо говорящей по-русски. В речи она часто использует искаженные фразеологизмы, например: на нервной почке; ни пуха, ни праха; беречь, как синицу окунь. Такое искажение устойчивых единиц добавляет комичности этому образу. Последняя группа фразеологизмов, выполняющие функцию образной номинации персонажей. В эту немногочисленную по составу группу входят такие единицы, которые, как правило, не характеризуют какую-либо отдельную черту героя, а определяют его образ в целом. В некоторых случаях герой получает такую номинацию по какой-либо одной характерной особенности. Например: для описания персонажа как человека, который неожиданно для окружающих проявил упрямство, выразил свое мнение, используется фразеологизм ослица Валаамова. Также в цикле очень важную роль играет образ блудного сына (последняя часть трилогии и называется «Блудный сын»). С помощью соответствующего фразеологизма характеризуется один из героев Яков Этингер, который ушел из родного дома.

В произведениях Д. Рубиной, как показал наш анализ основная функция использования фразеологизмов как средства характеристики персонажей заключается в том, чтобы наиболее всесторонне описать героя, нередко придать его образу комичные черты. Также употребление фразеологических единиц в книге «Русская канарейка» имеет авторскую специфику.

Для стиля Д. Рубиной характерно довольно частотное использование устойчивых сочетаний, иногда по несколько в одном предложении, некоторые фразеологизмы претерпели авторские трансформации, что также является отличительной чертой языка и стиля писателя. Автор нередко прибегает к использованию заимствованных устойчивых сочетаний, в особенности библейских фразеологизмов.

Следует отметить, что наибольший интерес представляет разговорный функциональный стиль и его фразеология, так как именно этот пласт речи является наиболее объемным по своему составу и наиболее экспрессивным по стилистической окрашенности.

Следует отметить, что герой современной писательницы Д. Рубиной в «Белой голубке Кордовы» чувствовал себя «не в своей тарелке» в обществе девушки. Автор подсказывает, что он её потенциальный жених. Этим фразеологизмом Д. Рубина подчёркивает всю неловкость положения парня его тяготит нахождение рядом.

Автор в своих произведениях создает яркие и глубокие художественные образы за счет виртуозного использования всех возможностей языковой системы. Манеру ее письма отличает разнообразие лексического ряда, многообразие тропов, смена тональностей повествования, ритма и интонации, окказиональное словообразование, что в целом создает неповторимый идиостиль писателя.

Нельзя не обратить внимания на роль фразеологизмов в творчестве Д. Рубиной специфических единиц языка, совокупность которых образует особую сферу между двумя базовыми лингвистическими пластами – лексикой и синтаксисом. Фразеологизм - языковая единица, характеризующаяся целостностью значения, устойчивостью лексического состава, грамматических форм и синтаксической структуры .

Сущность фразеологизмов приводит к тому, что во фразеологических единицах как

в зеркале отражаются основные тенденции в развитии и употреблении лексических и синтаксических единиц. С точки зрения семантики, фразеологические единицы ярко демонстрирует специфические «выбросы» языка из системы регулярных семантических тождеств этот факт не может не отразиться на их способности создавать экспрессивный эффект фразы и текста .

Список использованной литературы.

1. Фразеологизмы как средство характеристики персонажей (на материале произведений Дины Рубиной) статья. [Электронный ресурс]: <https://googleweblight.com/sp?hl&geid=NSTNR&u=https://nsportal.ru/shkola/russkiy-yazyk/library/2021/03/26/frazeologizmu-kak-sredstvo-harakteristiki-personazhey-na> (дата обращения: 25.01.2022.)
2. См.: Шанский Н.М. Русский язык. Лексика. Словообразование. – М.: Просвещение, 1975. – 239 с.
3. Фразеологизмы как средство характеристики персонажей (на материале произведений Дины Рубиной) статья. [Электронный ресурс]: <https://googleweblight.com/sp?hl&geid=NSTNR&u=https://nsportal.ru/shkola/russkiy-yazyk/library/2021/03/26/frazeologizmu-kak-sredstvo-harakteristiki-personazhey-na> (дата обращения: 26.01.2022.)
4. Фразеологизмы как средство характеристики персонажей (на материале произведений Дины Рубиной) статья. [Электронный ресурс]: <https://googleweblight.com/sp?hl&geid=NSTNR&u=https://nsportal.ru/shkola/russkiy-yazyk/library/2021/03/26/frazeologizmu-kak-sredstvo-harakteristiki-personazhey-na> (дата обращения: 26.01.2022.)
5. Рубина Д. Изд-во: Эксимо. Русская канарейка. Желтухин. 2014. – 576с.
6. Ожегов С.И. Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: 2006. – С. 78.
7. Ожегов С.И. Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: 2006. – С. 56,58.
8. Ожегов С.И. Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М.: 2006. – С. 71,74.
9. Муратова, Е.Ю. Смыслы слова в системе поэтического языка XX века / Е.Ю. Муратова. – Минск: БГУ. 2008. – С.2 46.

DO'PPINING QISMLARI VA DO'PPIDO'ZLIKDA ISHLATILADIGAN MATO NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Mamatova Dilafruz Zafarovna,
Qo'qon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada do'ppining qismlarini ifodalovchi tushunchalarning tarixiy-etimologik ma'no-mazmuni tahlil qilingan. Sohada foydalaniladigan mato nomlarining leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan. So'zning ma'nosi va boshqa xorijiy tillarga o'zlashishi lug'atlarda turlicha izohlanganligi ham tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: so'z, mato nomi, do'ppi, leksik-semantik, tarixiy-etimologik, leksik ma'no, sinonim.

Annotation. The article analyzes the historical-etymological meaning and content of the concepts representing the parts of the skullcap. The lexical-semantic features of the names of fabrics used in the field are highlighted. The meaning of the word and its adaptation to other foreign languages are also studied in different dictionaries.

Keywords: word, name of fabric, skullcap, lexical-semantic, historical-etymological, lexical meaning, синоним.

Аннотация. В статье анализируются историко-этимологическое значение и содержание понятий, обозначающих части тюрбейки. Выделяются лексико-семантические особенности названий тканей, используемых в этой области. Также изучается значение слова и его адаптация к другим иностранным языкам в различных словарях.

Ключевые слова: слово, название ткани, тюрбейка, лексико-семантический, историко-этимологический, лексическое значение, синоним.

Do'ppi – avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyim. [1.956]

Do'ppi avra, astar, tepa, kizak, jiyak kabi qismlardan iborat.

Avra so'zi tarixiy-etimologik jihatdan forscha bo'lib, kiyim, ko'rpa, ko'rpacha kabi narsalarning tashqi, sirtqi qavatini bildiradi. [1.178] Do'ppining avrasi deganda uning tashqi, sirtqi qavati tushuniladi.

Tarixiy-etimologik jihatdan forscha asli ichdan tikilgan mato ma'nosini anglatuvchi astar so'zi chevarchilikda, jumladan, do'ppido'zlikda kiyim yoki ko'rpa, ko'rpacha singari narsalarning ichki qavati, ichki tomoniga tikilgan materialni anglatadi. Tojikcha astar asli ostar so'zining so'zlashuv nutqidagi varianti bo'lib, o'zbek tiliga aynan shu shaklda o'zlashgan va yuqoridagi ma'noda qo'llanadi. [9.33] Chevarchilik, jumladan, do'ppido'zlikda avra va astar so'zlarining juflashuvidan yasalgan o'zlashma avra-astar juft so'zi do'ppining tashqi, sirtqi va ichki tomonini ma'nosida ishlatiladi. [1.163] Demak, astar so'zi o'zbek tiliga tojik tilidan so'zlashuv variantida o'zlashgan. Shuningdek, mazkur hunarmandlik sohalarida astar so'zi asosida yasalgan astarlik so'zi astarlik qilinadigan mato, material ma'nolarida qo'llanadi.

O'zbekcha tepa ko'p ma'noli so'z sifatida yer sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik; makondagi nisbatan yuqoriroq joy, yer; biror narsaning yuqori qismi, usti; ko'p miqdorda uyilgan narsalardan hosil bo'lgan balandlik; kishi ustidagi bo'shliq, osmon, falak; yuqori; nisbatan yuqori qismda bo'lgan, joylashgan; ustki kabi ma'nolarda qo'llanadi. [4. 211-212] Tepa do'ppido'zlikda ham do'ppining tepa qismi ma'nosini anglatadi, biroq bu ma'nosi izohli lug'atda qayd etilmagan.

Do'ppining tepasi va jiyagi o'rtasidagi qismi kizak, gardish deb ataladi. [2.861]

Kizak so'zi tarixiy-etimologik jihatdan tojikcha bo'lib, etimologik jihatdan bukur, bukchaygan joy ma'nosini anglatadigan ko'z otiga kichraytirish ma'nosini ifodalaydigan -ak qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida o'tovushi i tovushiga almashtirilgan; do'ppining tepa qismi bilan jiyagi oralig'idagi gardish qimini anglatadi. [5. 121]

Do'ppi, to'n va shu kabilarning chetiga tutiladigan maxsus ensiz tasma jiyak deb ataladi.

[2.663]

Do'ppi asosan baxmal, sidirg'a shoyi, satinga ip, ipak, zar iplar bilan kashta tikib tayyorlanadi. Shu jihatdan do'ppido'zlikda baxmal, satin, las, ipak kabi matolardan foydalaniladi.

So'zning ma'nosi va boshqa xorijiy tillarga o'zlashishi lug'atlarda turlicha izohlangan. "Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati"da barxit lug'aviy birligi tarixiy-etimologik jihatdan asli arabcha bir xil kiyim ma'nosini anglatuvchi barrakan so'zidan olinganligi, dastlab nemis tiliga, undan rus tiliga barxat variantida o'zlashganligi, rus tili orqali o'zbek tiliga aynan barxit variantida o'tganligi qayd etilgan. [6.79] Yangi izohli lug'atda esa barxit so'zining asli yaltiroq, yarqiroq; nur sochuvchi; bir xil xil qora kiyim ma'nolarini anglatishi va barakkan variantida italyan tiliga o'zlashganligi hamda o'zbek tilida duxoba, baxmal ma'nolarini anglatishi ko'rsatilgan. [1.304]

Demak, barxit o'zbek tilida baxmal, duxoba ham deyiladi. Baxmal so'zi forscha, asl ma'nosi – tukli; duxoba, barxit. [1.314]

Baxmal, duxoba – mayin, silliq, patli gazlama. Patlari tabiiy yoki sun'iy ipakdan, zamini ip yoki kanopdan to'qiladi. Baxmal to'qishda ikkita o'rish ipi ishlatiladi: biri zamin, ikkinchisi esa pat hosil qiladi. Ikkinchi o'rish iplari birinchisidan 4-6-marta uzun bo'ladi, chunki ish jarayonida bu iplar arqoq o'rniga kiritilgan asos atrofida tugma bandlar hosil qiladi, so'ngra bandlar maxsus pichoq bilan kesilganda hurpayib, patlar hosil qiladi. O'zbekiston (Buxoro va Samarqand)da qadimdan ishlab chiqariladi. Boburning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand jahondagi ko'pgina mamlakatlarga och qizil baxmal chiqarib sotgan. Baxmal ishlab chiqarish Buxoroda, ayniqsa, XIX asrda rivojlangan. Baxmal ko'pincha handasiy va abrli naqshlar bilan bezatilgan. Abrli baxmalda naqshlar ikkinchi o'rish iplarida hosil qilinadi. Baxmal XX asrning 20-yillaridan to'quv dastgohlarida ishlab chikarila boshladi. O'zbekiston (Samarqand shoyi to'qish fabrikasi)da 50-yillardan baxmalning uzun (6 mm) patli g'ijim duxoba (pati bir tekis bo'lmay, gajimlangan kabi tovlanib turadi) va taqir duxoba (pati 1-2 mm) kabi siyrakroq to'qilgan xillari ishlab chiqariladi. Keyingi yillarda baxmal gazlamalarning silliq, guldor, siqiq, bosma va boshqa turlari ishlanmoqda. Zamonaviy baxmallar naqshlari tayyor gazmol ustiga bosilishi (abrbandi usuli qo'llanmasligi) bilan XX asr boshlarigacha to'qilgan baxmallardan farq qiladi. Ana shu fabrikada to'qilgan baxmallardan kiyim-kechak, so'zana, gulko'rpa, zardevor, dasturxon, ko'rpa va ko'rpachalar bilan bir qatorda do'ppi tayyorlanadi.[7]

1. Do'ppido'zlikda bir rangdagi, bir tUSDagi; gulsiz, siydam baxmal, duxobadan foydalaniladi. Matolarning bu turi sidirg'a duxoba, sidirg'a baxmal deb ataladi. M., Yonidagi bo'sh stul ustida turgan sidirg'a qora baxmal do'ppisini olib, taqir boshiga kiydi. S.Anorboyev, Oqsoy. [3.623.]

Tahlil va izohlardan ko'rinadiki, barxit, baxmal, duxoba so'zlari sinonim, aynan bir xil mato nomini anglatadi. Bu matodan tikilgan do'ppi turlari baxmal do'ppi, duxoba do'ppi deyiladi.

Do'ppido'zlikda ko'p ishlatiladigan yana bir mato satindir. Satin lotincha ipak tolasi ma'nosini anglatuvchi seta so'zidan olingan bo'lib, satin shaklida dastlab fransuz tilida, XIX asrning birinchi yarmida undan rus tiliga va u orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. Asli atlas, shohi mato lug'aviy ma'nolarini anglatadi. Ayrim lug'atlarda satin so'ziga yaltiroq pishiq ip yoki gazmol deb izoh beriladi. [6. 403-580]

Ensiklopedik lug'atda satin so'zi paxta ipi yoki kimyoviy toladan to'qiladigan gazlama deb izohlangan. Xuddi atlasga o'xshab to'qiladi, lekin atlasning o'ngiga tanda iplari ko'proq chiqib turadi, ya'ni satinning o'ngida arqoq iplari ko'proq bo'ladi.[8. 529] Bizningcha, satin matosiga ensiklopedik lug'atda mukammal izoh berilgan.

Satin so'zi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

2. Pishiq yaltiroq ip gazlama. Olma gulli ko'rpabop satin.
3. Satindan tikilgan. Zeboxon o'z chodiriga kirib, gulli satin ko'ylagini kiyib chiqdi-da, mashinaga o'tirdi. S.Ahmad, Ufq. [3.623.]

Satinning ham sifati va rangiga ko'ra turlari bor: qora satin,

Demak, satin yumshoq, silliq, mustahkam, hashamatli, chiroyli mato hisoblanadi. Undan tikilgan do'ppi satin do'ppi deb ataladi va bozorda qimmat turadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbek tiliningh izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – I j. – B. 956.
2. O'zbek tiliningh izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – II j. – B. 861.
3. O'zbek tiliningh izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – IV j. – B.623.
4. O'zbek tiliningh izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – V j. – B. 211-212.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – Б.121.
6. Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1965. – Б.79.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Вахмал>
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 7-ж. – Б.529. 704 б.
9. Таджикско-русский словарь. – М., 1946. – С.33.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AKSIOLOGIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Dadabayeva Shirinxon Shuxratovna

Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqola o‘zbek va ingliz tillarida aksiologik leksikaning semantik xususiyatlarini qiyosiy yondashuvda tahlil qilib, baholovchi birliklarning ijobiy/salbiy qutblanishi, antonimiya tizimi va konnotativ-intensiv xususiyatlarini yagona konseptual doirada ko‘rsatadi. Avvalo, halollik–yolg‘on, jasorat–qo‘rqoqlik kabi umuminsoniy juftliklar orqali asosiy qadriyatlar mushtarakligi yoritiladi; so‘ngra hurmat, or-nomus, hayo kabi milliy-madaniy segmentlarning ingliz tilidagi honor/dignity/reputation hamda modesty/shame bilan qisman mos, ammo ifoda va qo‘llanishda farqlanuvchi qirralari izchil ochib beriladi. Tadqiqot semantik maydon va komponent tahlil usullariga, paremiologik material hamda nutq uslublari bo‘yicha kuzatishlarga tayangan holda, yomon/bad va yovuz/evil oppozitsiyasida darajaviy farqlarni aniqlaydi, so‘zlashuvda ekspressiv baho, rasmiy nutqda esa yumshatuvchi strategiyalar ustunligini ko‘rsatadi. Struktur jihatdan o‘zbek tilida affiksatsiya va kompozitsiya, ingliz tilida analitik ifoda va frazematik birliklar faol ekanligi dalillanadi; maqol-matallar, og‘zaki baho iboralari va rasmiy uslub shakllari orqali namoyon etadi. Xulosa qilib, umuminsoniy qadriyatlar yadro darajasida mushtarak bo‘lsa-da, semantic, intensiv va xushmuomalalik strategiyalarida til-madaniy xosliklar saqlanadi; shu bois tarjimada aksiologik qiymat semasini saqlash uchun funksional ekvivalent va uslubiy moslashtirish yo‘li bilan konnotativ moslikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: semantika, antonimiya, baholash kategoriyasi, umumbashariy qadriyatlar, qiyosiy metod, og‘zaki, yozma nutq, rasmiy va norasmiy uslub.

Аннотация. Статья в сопоставительном ключе рассматривает семантические особенности аксиологической лексики узбекского и английского языков, демонстрируя в единой концептуальной рамке позитивно/негативную поляризацию оценочных единиц, систему антонимии и их коннотативно-интенсивные характеристики. Прежде всего через универсальные пары (halollik–yolg‘on ‘честность—ложь’, jasorat–qo‘rqoqlik ‘мужество—трусость’) высвечивается общность базовых ценностей; далее последовательно раскрываются национально-культурные сегменты — hurmat, or-nomus, hayo — и их английские корреляторы (honor/dignity/reputation, modesty/shame), частично совпадающие по содержанию, но различающиеся по способам выражения и употребления. Опираясь на анализ семантических полей и компонентный анализ, паремиологический материал и наблюдения по речевым регистрам, исследование выявляет градационные различия в оппозиции yomon/bad и yovuz/evil, фиксируя преобладание экспрессивных оценок в разговорной речи и смягчающих стратегий в официальном дискурсе. В структурном отношении в узбекском языке активны аффиксация и композиция, в английском — аналитические средства и фразеологические/фразематические единицы; это проявляется в пословицах и поговорках, разговорных формулировках оценки и клише официального стиля. В итоге показано, что при общности ядра универсальных ценностей сохраняются различия в семантических оттенках, степени интенсивности и стратегиях вежливости; поэтому для сохранения аксиологической семы при переводе предлагается обеспечивать коннотативную эквивалентность посредством функционального эквивалента и стилевой адаптации, сопровождая это практическими рекомендациями.

Ключевые слова: семантика; антонимия; категория оценки; универсальные ценности; сопоставительный метод; устная и письменная речь; официальный и неофициальный стиль.

Abstract. This article examines, from a comparative perspective, the semantic properties of the axiological lexicon in Uzbek and English, presenting within a single conceptual framework the positive/negative polarization of evaluative items, the system of antonymy, and their connotative-intensity profile. First, universal pairs (halollik–yolg‘on ‘honesty—lying’, jasorat–qo‘rqoqlik ‘courage—cowardice’) foreground the commonality of core values; then the study systematically discloses culture-specific segments—hurmat ‘respect’, or-nomus ‘honor/dignity’, hayo ‘modesty’—and their English correlates (honor/dignity/reputation, modesty/shame), which partially overlap in meaning yet diverge in expression and usage. Drawing on semantic-field and componential analysis, paremiological material, and observations across speech registers, the research identifies gradient differences in the yomon/bad vs. yovuz/evil opposition, with expressive evaluations prevailing in colloquial speech and mitigation strategies in formal discourse. Structurally, Uzbek relies on affixation and compounding, whereas English favors analytic means and phrasematic/phraseological units; this distribution surfaces in proverbs, colloquial evaluative formulas, and templates of formal style. The study concludes that, despite a shared core of universal values, differences persist in semantic shading, intensity, and politeness strategies; hence, to preserve the axiological value seme in translation, connotative equivalence should be secured through functional equivalence and stylistic adaptation, alongside practical recommendations.

Keywords: semantics; antonymy; category of evaluation; universal values; comparative method; spoken and written discourse; formal and informal register.

Kirish. Semantik nuqtai nazardan, o‘zbek va ingliz tillaridagi aksiologik leksika ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) qutblar shaklida namoyon bo‘ladi, ya‘ni deyarli har bir qiymat ifodalovchi tushunchaning teskari tushunchasi mavjud[3]. Bu hodisa antonomiya (qarama-qarshi ma‘no) orqali baholash kategoriyasini aniqroq ajratishga xizmat qiladi. Masalan, ezgulik-yovuzlik, rost-yolg‘on, adolat-zulm kabi tushunchalar bir-birini to‘ldiradi va ta‘riflaydi – yaxshi narsaning qiymati yomonning mavjudligi bilan yanada yaqqol seziladi. Shu ma‘noda, aksiologik semantika nisbiy xarakterga ega: yaxshi deganda “yomon emas”, ideal deganda “nuqsandan xoli” ma‘no anglashiladi.

Tadqiqot metodi. Har ikkala tilda umumbashariy axloqiy tushunchalar o‘xshash semantik maydonni qamrab oladi[4][1]. Masalan, halollik, rostgo‘ylik, jasorat, saxovat, mehr-shafqat, do‘stlik kabi pozitiv qadriyatlar ham o‘zbek, ham ingliz xalqlari orasida yuksak baholanadi va tilida turli vositalar bilan ifodalanadi. Xususan, halollik – honesty, jasorat – courage, saxovat – generosity, mehribonlik – kindness, oqibatlilik – compassion kabi so‘zlar mazmunan mos keladi. Salbiy xususiyatlar ham mos ravishda nomlangan: yolg‘onchilik – lying/falsehood, tubanlik – vileness, qo‘rqoqlik – cowardice, xasislik – stinginess, shafqatsizlik – cruelty va hokazo. Bu so‘zlar konnotativ jihatdan ham o‘xshash tuyg‘ularni uyg‘otadi (masalan, shafqatsiz va cruel so‘zlari har ikki til so‘zlovchisida ham salbiy hissiyot uyg‘otadi). Ikki tildagi aksiologik leksikaning semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Natija va muhokama

Biroq ayrim semantik farqlar va milliy o‘ziga xosliklar mavjudligini ham ta‘kidlash kerak. Misol uchun, o‘zbek madaniyatida kattalarga hurmat va kichiklarga izzat muhim qadriyat sanaladi – bu odoblilik tushunchasida va kattani katta bilish iboralarida aks etadi. Ingliz tilida ham hurmat (respect) tushunchasi mavjud va qadrlanadi, ammo uni ifodalash usullari qisman farq qiladi. Masalan, o‘zbek tilida “Kattaga hurmat, kichikka izzat” degan naql bor, inglizlar esa “Respect your elders” shaklida gapiradi – ikkisida ham mazmun bir xil bo‘lsa-da, ifoda uslubi har xil (o‘zbekchasida ritmik naql, inglizchasida buyruq-ohangli gap). Yana bir misol: or-nomus tushunchasi o‘zbek tilida oilaviy sha‘n va axloqiy poklik qiymatini bildirsa, ingliz tilida buni honor, dignity yoki reputation kabi turli so‘zlar majmuasi orqali ifodalaydi; hayo tushunchasi modesty, shame so‘zlariga bo‘linadi. Demak, ba‘zi qadriyatlar bir tilda integral tushuncha bo‘lsa, boshqa tilida birnecha qirrali atamalar orqali ifodalanishi mumkin.

Masalan, ingliz tilidagi “evil” atamasi mutloq yovuzlikni bildiradi va odatda juda salbiy (diniy konnotatsiyaga yaqin) ma’noda ishlatiladi; o‘zbek tilida bu ma’noga mos yovuz so‘zi mavjud, lekin kundalik nutqda yomon so‘zi ham “bad” va “evil” ma’nolarini qamrab olishi mumkin. Ya’ni, o‘zbekchada yomon odam deganda umumiy salbiy sifat ifodalansa-da, evil person ma’nosini ham qamrab olar edi (zarurat tug‘ilsa yovuz odam deyiladi). Ingliz tilida esa bad person kengroq, evil person keskinroq salbiy mazmun beradi. Bu holat ma’no intensivligidagi tafovutdan dalolatdir. Xuddi shuningdek, aqlli so‘zi o‘zbekchada umumiy aqliy salohiyat va idrokni maqtasa, inglizchada smart yoki clever deyish aniqroq kontekst talab qiladi (masalan, clever ba’zan “ayyor” ma’nosini ham olishi mumkin). Kitobxon so‘zi o‘zbekchada “ko‘p kitob o‘qiydigan (bilimdon) odam”ga ijobiy ta’rif bo‘lsa, inglizchada yaqin so‘z bookish yoki bookworm bo‘lib, u biroz salbiy yoki hazil ohangga ega (“kitob kurti”, ya’ni unchalik ijtimoiy emas odamni ham tushuntiradi). Bu kabi konnotativ farqlar xalqlarning turmush tarzi va madaniy qarashlaridan kelib chiqqan.

O‘zbek va ingliz tillarida aksiologik semantikaning asosiy qismi o‘zaro muvofiq va qiyosan universaldir, chunki insoniyat uchun muhim bo‘lgan qadriyat va illatlar ko‘pchilik jamiyatlarda o‘xshash[5][2]. Shu bilan birga, har bir til va madaniyat o‘zining nozik ma’no pardalari va mahalliy qadriyat ifodalariga ega bo‘lib, bu leksik semantikada namoyon bo‘ladi. Milliy dunyoqarash til vositalarida aks etadi: masalan, o‘zbek xalqining “aql – nodonlik” diadasiga beradigan ahamiyati maqollarda ham namoyon bo‘lib, “Aql – boylik, ahmoqlik – balo” kabi maqollardan ko‘rinadi. Ingliz tilida ham aql-idrokni ulug‘lovchi “Wisdom is better than silver or gold” kabi naql mavjud. Demak, qadriyatlarning mazmuni har ikki tilda asosan mos kelsa-da, ularni ifodalash ko‘lami va uslubi ma’lum darajada farqlanishi mumkin.

Aksiologik leksikaning qo‘llanishi nutq uslubi va kommunikativ vaziyatga qarab turlicha namoyon bo‘ladi[5]. Og‘zaki nutq (so‘zlashuv uslubi) va yozma nutq (adabiy/uslubiy jihatdan sayqalangan uslub) o‘rtasida qiymat ifodalovchi so‘zlardan foydalanishda ba’zi farqlar kuzatiladi. Tilshunos Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, salbiy baho ifodalovchi so‘zlar asosan so‘zlashuv tiliga xos bo‘lib, ijobiy baho ifodalovchi birliklar ko‘proq adabiy tilga xos bo‘ladi[6]. Boshqacha aytganda, kundalik og‘zaki muloqotda odamlar keskinroq, ba’zan qo‘polroq baho beruvchi so‘zlarni ishlatishga moyil (masalan, o‘zbek tilida: ahmoq, dangasa, badbaxt, rasvo, axlat (majozan yomon ma’noda) kabilar; ingliz tilida: stupid, lazy, loser, awful, sucks kabi). Rasmiy-yozma uslubda esa baholash yumshoqroq yoki e’zozlovchi shaklda ifodalanadi: salbiy hodisaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yomon” demasdan, masalan, ingliz tilida “inadequate”, “unsatisfactory” (qoniqarsiz) kabi yumshoqroq ifodalar qo‘llanadi. O‘zbek tilida ham rasmiy matnlarda nomunosib, ma’qul emas, qoniqarsiz kabi so‘zlar ishlatilib, yomon so‘zining o‘rnini bosadi.

Og‘zaki nutqda baho ifodalovchi leksika ko‘pincha ekspressiv va emosional bo‘ladi. O‘zbek tilida jonli muloqotda “Zo‘r!”, “Juda a‘lo!”, “Gap yo‘q!” kabi so‘z va iboralar bilan yuqori baho beriladi – “Gap yo‘q” iborasi aynan “so‘z yo‘q” ma’nosini bersa-da, amalda “tan bergudek zo‘r” degan ijobiy bahoni bildiradi. Ingliz tilida xuddi shunday vaziyatda “Awesome!”, “Great!”, “Fantastic!” kabi so‘zlar ishlatiladi. Salbiy holat yoki narsa haqida o‘zbekchasiga “Rasvo!”, “Juda yomon”, “Bekorchi gap” deyilsa, inglizlar “Terrible!”, “Awful!”, “Nonsense!” deb aytishadi. Bu iboralar, odatda, norasmiy va og‘zaki jarayonda qo‘llanadi. Aksincha, yozma adabiy nutqda baho berish me’yorda va aniqroq tasvir bilan ifodalanadi: masalan, badiiy asarda qahramonning yaxshiligini ko‘rsatish uchun bevosita “u yaxshi odam edi” deyishdan ko‘ra uning xatti-harakati tasvirlanadi, yoki publitsistik maqolada tanqid bildirish uchun haqoratli so‘zlardan foydalanilmasdan, mulohazakor baholovchi iboralar qo‘llanadi (“nojo‘ya qiliq”, “nopisand munosabat” kabi).

Ingliz tilining rasmiy-uslubiy ko‘rinishida xushmuomalalik va ob’ektiv ohang ustunroq bo‘ladi. Masalan, rasmiy xatda “Men sizning xatoingizdan juda norozi bo‘ldim” deb yozish o‘rniga “We regret to inform that the outcome was not as expected” singari yumshoqroq uslub tanlanadi. Bu jihatdan ingliz tili ko‘proq e’tiborli registrelarga ega: bir xil mazmun turli vaziyatda turlicha

ifodalanadi. O'zbek tilida ham me'yoriy adabiy uslubda keskin baho kamayib, yumshatuvchi iboralar ko'proq qo'llanadi. Masalan, ilmiy yoki rasmiy matnda "bu nazariya noto'g'ri" deyish o'rniga "bu nazariyada kamchiliklar mavjud" kabi yumshatilgan baho beriladi.

Og'zaki nutqda esa dialektal yoki lahjaviy baho so'zlari ham uchrashi mumkin. Masalan, o'zbek tilining ayrim shevalarida "chatoq" so'zi "yomon, qiyin" ma'nosida ishlatiladi, yoki "chakki emas" (yomon emas, yomonmas deganidek) bilan yaxshi ma'no bildiriladi. Ingliz tilida turli hududlarda "wicked" (aslida "yovuz" degani, lekin ba'zi shevalarda "zo'r" ma'nosida ijobiy sleng), "bad" (jaz kontekstida "zo'r" ma'nosida) kabi sleng baholari mavjud. Bunday holatlar tilning og'zaki ko'rinishiga xos bo'lib, ular yozma adabiy tilga kirmaydi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari – maqollar, matallar – aksiologik mazmuni jo'shqin va ixcham shaklda yetkazadi. Bu birliklar, odatda, o'git shaklida bo'lib, baho hukmini bildiradi. Masalan, "Yolg'onning oyoq-qo'li qisqa" degan maqol yolg'onchilik yomon oqibatli ekanini bildirsa (haqiqat baribir g'alaba qiladi, degan qiymat), ingliz tilida "Honesty is the best policy" maqoli halollik eng to'g'ri yo'l ekanini ta'kidlaydi – har ikkisida halollik qadriyat sifatida olqishlanadi. Shuningdek, "Ertaga qo'yma bugungi ishni" degan mashhur naql mehnatsevarlik va ishchanlikka undaydi, bu inglizchada "Don't put off till tomorrow what you can do today" shaklida mutlaqo aynan mavjud. Ko'rinadiki, og'zaki ijodda o'zbek va ingliz xalqlarining hayotiy tajribasi va qadriyatlar tizimi ko'pincha mushtarak ma'noda ifoda topgan.

O'zbek va ingliz tillarining aksiologik leksikasi tuzilish va semantika nuqtai nazaridan ko'plab umumiy jihatlarga ega: har ikki til insoniy qadriyat va baholarni ifodalashning boy vositalarini rivojlantirgan. Bunda antonimiyalar tizimi, abstrakt qiymat nomlari, baho bildiruvchi sifatlar va iboralar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, har bir til o'zining grammatik qurilishi va madaniy kontekstidan kelib chiqqan holda, bu aksiologik qiymatni ifodalovchi birliklarni o'ziga xos usulda shakllantirgan va qo'llaydi. O'zbek tilida affiksatsiya va murakkab so'zlar yordamida ifoda topgan ma'no ayrim hollarda ingliz tilida analitik yo'sinda beriladi va aksincha. Og'zaki va yozma nutqdagi uslubiy tafovutlar ham baho ifodalashda sezilarli: norasmiy nutqda erkin, ba'zan keskin baho berilsa, rasmiy adabiy nutqda vazmin va me'yoriy baholash afzal ko'riladi. Bu jihatlarda, albatta, til o'ziga xosligini namoyish etsa-da, mazmunan qaralganda ijobiy va salbiy qiymatlar manzarasi har ikkala tilda ham bir qadar mushtarak va tushunarli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek va ingliz tillaridagi aksiologik leksik birliklar qiyosiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, umuminsoniy qadriyatlar til chegaralarini bilmaydi – har ikki tilda yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va zulm singari tushunchalar o'z ifodasini topgan. Biroq bu tushunchalarning ifodalanish shakli va uslubida har bir tilning leksik va grammatik imkoniyatlari hamda madaniy an'analari aks etadi. Shu sababli, qiyoslov natijasida aniqlangan o'xshashlik va farqlar nafaqat til qurilishi, balki xalqning milliy tafakkuri va qadriyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Thompson., L.P. Juez. Evaluation in Context. – Madrid,2014. – P. 3-24.
2. Komilova G. Antonim so'zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi. – Academic Research in Educational Sciences, 2(3) (2021)
3. Martin J.R., White P.R. the language of evaluation Appraisal in English. – London,2007. – 278p.
4. O.Bozorov. Tanlangan asarlar.1-jild. – Toshkent, 2023. – 164b
5. R.Qo'ng'urov. Subyektiv baho formalarining semantic va stilistik xussiyatlari. – Toshkent, 1980. – B.3-21.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.

TARJIMALAR SEMANTIKASINING MILLIY-O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI KO‘RSATUVCHI IKKI TILLI LUG‘ATLARNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Rasulova Istoda

Samarqand davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada ikki tilli lug‘atlarni tuzishda semantik tafovutlarni hisobga olish zarurati yoritiladi. Xususan, kontrastiv semalar lug‘atlari misolida leksik birliklarning denotativ, konnotativ va funksional semalari qiyoslanib, ularning milliy-madaniy o‘ziga xosliklari ochib beriladi. “Ona – мать” va “Tog‘a – дядя” leksemalari misolida semantik moslik darajalari aniqlanib, integral identiklik indeksi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ba’zi leksemalarda ekvivalentlik yuqori darajada bo‘lsa-da, ayrim hollarda milliy-madaniy farqlar tarjimada sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Shu bois kontrastiv lug‘atlar tarjimonlik, chet tilini o‘qitish va lingvomadaniy tadqiqotlarda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kontrastiv lug‘at, semantik tahlil, denotativ sema, konnotativ sema, funksional sema, integral identiklik indeksi, qarindoshlik terminlari, ekvivalentlik.

Hozirgi davrda kontrastiv lug‘atlar tilshunoslikning muhim amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular, avvalo, chet tillarini o‘rganish va o‘qitish jarayonida, shuningdek, tarjimonlik faoliyatida zaruriy qo‘llanma sifatida keng targ‘ib qilinmoqda. Bunday lug‘atlar nafaqat so‘zning denotativ ma‘nosini, balki uning konnotativ qatlamlarini, madaniy-semantik xususiyatlarini ham ochib berishi bilan alohida ahamiyatlidir. Shu bois kontrastiv lug‘atlar millatlararo muloqotda til birliklarini to‘g‘ri talqin qilish va tarjimada ekvivalentlik darajalarini aniqlashda beqiyos vosita bo‘lib xizmat qiladi [2, 3, 9].

Bugungi kunda Voronej davlat universiteti kontrastiv tilshunoslik sohasida olib borayotgan izlanishlari bilan ajralib turadi. Aynan shu ilmiy maktab vakillari ikki tilli lug‘atlar tuzishning yangi yo‘nalishi – differensial lug‘atchilikning shakllanishida yetakchi o‘rin egallamoqda. Mazkur tipdagi lug‘atlarning asosiy maqsadi ikki til birliklari orasidagi semantik hamda funksional tafovutlarni aniq va tizimli ko‘rinishda yoritib berishdan iboratdir.

Noqarindosh tillar materiali asosida turli kontrastiv lug‘atlarni yaratish bo‘yicha bir qator nazariy asoslar ishlab chiqilgan. Ular orasida:

- semalarga tayangan kontrastiv lug‘atlar;
- izohli-tarjima asosidagi ikki tilli lug‘atlar;
- differensial xususiyatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan lug‘atlar;
- frazeologizmlarni kontrastiv tahlil qilishga ixtisoslashgan lug‘atlar;
- ekvivalenti topilmagan leksika va frazeologizmlar uchun maxsus lug‘atlar mavjud [6.78].

Shuni ta‘kidlash kerakki, kontrastiv lug‘atchilik zamonaviy leksikografiyada hali to‘liq shakllanmagan, yangi va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli bu borada dastlabki tajribaviy urinishlar alohida qiziqish uyg‘otadi. Masalan:

- N.M. Reprintseva tomonidan yaratilgan rus–fransuz “Yo‘l nomlari lug‘ati”;
- I.P. Zlenko tomonidan tuzilgan rus–fransuz “Mehnat jarayonlari va mehnat subyektlari” lug‘ati;
- T.A. Chubur qalamiga mansub rus–ingliz “Dam olish nomlari lug‘ati”;
- E.A. Maklakovaning rus–ingliz “Jins, yosh va qarindoshlik terminlari lug‘ati”;
- L.I. Zimina tomonidan ishlab chiqilgan nemis–rus frazeologik lug‘ati (“Ohr” komponentli iboralar asosida);
- O.V. Panichkina muallifligidagi rus–ingliz “Ta‘lim sohasi mutaxassislari lug‘ati”;
- N.V. Proshchenkova yaratgan rus–ukrain “Ot so‘zlarning tavsifi” lug‘ati [6. 56].

I.A. Sternin “Kontrastiv tahlil va leksikografiya” nomli tadqiqotida kontrastiv lug‘atlarning

uch xil variantini ajratib ko'rsatadi: birinchisi — semali kontrastiv lug'at, u leksik birliklarning semantik tarkibini izchil tahlil qilishga asoslanadi; ikkinchisi — izohli-tarjima kontrastiv ikki tilli lug'at, u so'zning semantik strukturasi bilan bir qatorda tarjima variantlarini ham berishga xizmat qiladi; uchinchisi esa — differensial kontrastiv ikki tilli lug'at bo'lib, u tillararo tafovutlarni ko'rsatishga qaratilgan [8. 15–17].

Ikki tilli lug'atlarning milliy-madaniy xususiyatlarni to'liq aks ettirmasligi tarjima jarayonida ko'plab qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu sababli lug'atlarda milliy o'ziga xos semantik belgilar, realiyalar va madaniy izohlarning berilishi muhimdir. Bugungi kunda kontrastiv tahlil asosida tuziladigan lug'atlar, shuningdek, elektron lug'atlar foydalanuvchilarga yanada kengroq imkoniyat yaratmoqda. Ular nafaqat so'zning denotativ ma'nosini, balki konnotativ qatlamini, madaniy sharhlarini ham ko'rsatishi kerak. Bunday yondashuv ikki tilli lug'atlarni yanada mukammal qiladi, tarjima jarayonida ekvivalentlik darajalarini aniqlashga yordam beradi va milliy madaniy koloritni yo'qotmasdan berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, lug'at foydalanuvchilari — tarjimonlar, talabalar va o'qituvchilar — uchun ilmiy va amaliy qulaylik tug'diradi [5.33].

Kontrastiv semalar lug'atini tuzishda e'tibor ko'proq identiklik indeksiga qaratiladi. Integral identiklik indeksi leksik birliklarning kontrastiv juftlikda bir-biriga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi. Indeks qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, ular orasidagi milliy-semantik tafovut shunchalik kam bo'ladi va ular mazmun jihatdan bir-biriga yaqinlashadi. Aksincha, indeks qiymati pasaygan sari milliy-semantik tafovut kuchayadi va leksik birliklar orasidagi farq ko'proq namoyon bo'ladi.

Integral indeks qiymatlarini tahlil qilish asosida tarjima jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan 6 xil ekvivalentlik kategoriyasi aniqlanadi. Bu kategoriyalar so'zning denotativ, konnotativ va funksional identiklik darajalarini baholashga asoslanadi.

Indeks qiymatlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- 100% – to'liq ekvivalent;
- 76–99% – optimal moslik;
- 51–75% – qoniqarli moslik;
- 26–50% – qabul qilsa bo'ladigan moslik;
- 25% dan past – nomuvofiq moslik.

Denotativ, konnotativ va funksional identiklik indekslarining butunlay mos kelmasligi natijasida integral indeksning nol qiymatga teng bo'lishi leksik birliklar orasida mutlaq ekvivalentlik mavjud emasligini ko'rsatadi [1.3-4].

Shunday qilib, integral identiklik indeksi ikki tilli lug'atlar tuzishda ham, tarjima jarayonida ham samarali diagnostik vosita hisoblanadi. U orqali nafaqat leksik birliklarning o'zaro semantik yaqinligi, balki milliy-madaniy xususiyatlarning darajasi ham aniqlanadi.

Kontrastiv semalar lug'atini tuzishda, ushbu juftliklarni qiyoslashda L.V.Lukina, M.A. Sterninalar semalarni tasvirlash jarayonida denotativ semalar grafik jihatdan belgilab ko'rsatilmaydi, konnotativ semalar bosh harflar bilan, funksional semalar esa katta harflar bilan ajratiladi. Kontrastiv juftliklarda ruscha leksemaning semalar majmuasi bilan bir qatorda uning ingliz tilidagi tarjima ekvivalenti uchun ham alohida semalar majmuasi beriladi. Har bir ruscha so'z semasiga ingliz tilidagi so'zning muayyan semasi moslashtiriladi.

Mos kelmaydigan semalar qalin harf bilan ajratiladi va ularga 0 qiymati biriktiriladi, bu semaning ekvivalentsiz ekanligini bildiradi. Agar sema ikki tilda to'liq mos kelsa, unga 1 qiymati belgilanadi, qisman mos kelgan taqdirda esa 0,5 qiymati qo'yiladi [4. 3-4].

Qarindoshlik terminlarini quyidagi guruhlar asosida bo'lib olib, ularni har birini qiyoslanayotgan til bilan birma-bir qiyoslab chiqish lozim.

Qon qarindoshlik (кровное родство) terminlari asos qilib olingan:

Vertikal chiziq: ota, ona, bobo, buvi, farzand, o'g'il, qiz, nabira, evara va h.k.

Gorizontal chiziq: aka-uka, opa-singil, tog'a, amaki, xola, amma, jiyan va h.k.

Nikohdan keyingi qarindoshlik (quda-anda, kuyov, kelin, qaynota va b.)

“Ona” leksemasining ma'nosi vertikal qarindoshlikning asosiy semantik birliklaridan biridir.

Turli grammatik tuzilishga ega tillarda bu tushuncha turlicha leksik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida – ona, rus tilida – мать, tojik tilida – модар, ingliz tilida – mother. Ma'lumki, o'zbek tili turkiy guruhga kiruvchi agglutinativ til hisoblanadi. O'zbek adabiy tilida ona so'zi orqali ifodalansa, dialektlarda esa ena, oyi, aya, oya, buva, opa, ana, ocha kabi variantlari ham uchraydi. Adabiy tilda esa “ona” ma'nosini arab tilidan kirgan volida va fors-tojik tilidan kirgan модар so'zlari han ifodalaydi. Shu sababli lug'at tuzishda bizlar faqat adabiy til bilan ishlaganimiz maqul, sababi dialektlar alohida tadqiqot manbayi hisoblanadi.

Ona so'zini ruscha мать so'zi bilan tahlilga tortamiz.

Ona	Мать
Farzand yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tug'gan farzandlariga nisbatan)	Farzand yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tug'gan farzandlariga nisbatan)
Oila boshlig'i, tarbiyachisi	Oila boshlig'i, tarbiyachisi
Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi	Manba, biron-bir narsaning boshlanishi
Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo'shib ishlatiladi	0
Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish formasi	Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish formasi
Bola tug'gan jonivor	Bola tug'gan jonivor
Xotiniga bolalarining onasi sifatida murojaat qilish	Xotiniga bolalarining onasi sifatida murojaat qilish
BAHOLANMAGAN	BAHOLANMAGAN
HIS-HAYAJONSIZ	HIS-HAYAJONSIZ
<i>Uslubiy xoslanmagan</i>	<i>Uslubiy xoslanmagan</i>
<i>Umumxalq</i>	<i>Umumxalq</i>
<i>Keng tarqalgan</i>	<i>Keng tarqalgan</i>
<i>Ko'p ishlatiladigan</i>	<i>Ko'p ishlatiladigan</i>

Ushbu Ona — Мать so'zlarining kontrastiv tahlilida:

- Denotativ semalar – 79% mos,
- Konnotativ semalar – 75% mos,
- Funktsional semalar – 100% mos.

Integral identiklik indeksi = 85% → Optimal moslik (ya'ni, ekvivalentlik yuqori, lekin ayrim milliy-madaniy tafovutlar mavjud).

Tog'a leksemasining ruscha дядя leksemasiga nisbatan indeksini aniqlaymiz:

tog'a	дядя
Ayolning aka-ukalari (uning bolalariga nisbatan)	Ota-onaning aka-ukalari (uning bolalariga nisbatan)
O'zbek tilida bu pochcha so'zi bilan ifodalanadi	Xolaning yoki ammaning eri
O'zidan kattalarga murojaat shakli	O'zidan kattalarga murojaat shakli
Notanish erkakka amaki so'zi ishlatiladi	Notanish erkakka nisbatan
BAHOLANMAGAN	BAHOLANMAGAN
HIS-HAYAJONSIZ	HIS-HAYAJONSIZ
<i>Uslubiy xoslanmagan</i>	<i>Uslubiy xoslanmagan</i>
<i>Umumxalq</i>	<i>Umumxalq</i>
<i>Keng tarqalgan</i>	<i>Keng tarqalgan</i>
<i>Ko'p ishlatiladigan</i>	<i>Ko'p ishlatiladigan</i>

Denotativ semalar (D)

• “Ayolning aka-ukalari (onaning birodarlari)” ↔ “Ota-onaning aka-ukalari (umumiy)” → 0,5

• “O'zbek tilida “pochcha” so'zi bilan ifodalanadi” ↔ “Xolaning yoki ammaning eri” → 0,5
 $DI = (0,5 + 0,5)/2 = 0,5$ (50%)

Konnotativ semalar (K)

• “O'zidan kattalarga murojaat shakli” ↔ “O'zidan kattalarga murojaat shakli” → 1

• “Notanish erkakka amaki so'zi ishlatiladi” ↔ “Notanish erkakka nisbatan (дядя)” → 0,5

$KI = (1 + 0,5)/2 = 0,75$ (75%)

3. Funksional semalar (F)

• Qarindosh sifatida ijtimoiy rol (tog'a — homiy, mehribon) ↔ “дядя” — umumiy qarindosh, tarbiyaviy ma'no kuchsiz → 0,5

• Hurmat murojaati → har ikki tilga xos → 1

$FI = (0,5 + 1)/2 = 0,75$ (75%)

Yakuniy integral indeks (II)

• Denotativ sema — past (50%), chunki ruscha “дядя” differensiallikni yo'qotadi.

• Konnotativ sema — 75%, yaqinlik bor, lekin “amaki” bilan cheklanishi tufayli to'liq emas.

• Funksional sema — 75%, chunki tog'a o'zbek madaniyatida ijtimoiy-hissiy vazifada

faolroq.

Integral indeks: $\approx 67\% \rightarrow$ Qoniqarli ekvivalentlik, lekin to'liq emas.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda kontrastiv lug'atlarni ularning semalar qatlami asosida, milliy o'ziga xoslikni hisobga olgan holatda tuzganimiz maqsadga muvofiq. Maqolada kontrastiv lug'atlarni takomillashtirish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Qarindoshlik terminlari misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ikki tildagi birliklarning semantik qamrovi turlicha bo'lib, tarjima jarayonida ayrim nozik milliy-madaniy farqlar yuzaga chiqadi. "Она – мать" leksemasi yuqori darajadagi ($\approx 85\%$) moslikka ega bo'lsa, "Тог'а – дядя" leksemasi qoniqarli darajada ($\approx 67\%$) ekvivalentlikni namoyon etdi. Bu esa kontrastiv lug'atlar tuzishda integral indeks metodining samarali qo'llanishini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari kontrastiv lug'atlarni yaratish nafaqat tarjimonlar, balki chet tili o'qituvchilari va talabalar uchun ham qo'llanma sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Козельская Д.В. Контрастивный семный словарь наименований школьных педагогических работников и учащихся в русском и английском языках / Д.В. Козельская, М.А. Стернина. – Воронеж: Издательство «Ритм», 2019. – С.3–4.
2. Ленец К.В., Ставицкая Л.О. Краткий русско-украинский словарь контрастивной лексики. Киев : Довира, 2002. 289 с.
3. Ловцевич Г.Н. Кросскультурный терминологический словарь как средство репрезентации терминологии гуманитарных наук. Владивосток : Изд-во Дальневост. гос. ун-та, 2009. 264 с.;
4. Лукина Л. В., Стернина М. А. Контрастивный семный словарь наименований речевых событий в русском и английском языках //Воронеж: Изд-во «Ритм. – 2019.
5. Лукина Л.В. Национальная специфика семантики слова и проблема межъязыковой семантической эквивалентности (на материале наименований речевых событий в русском и английском языках): дис. ... канд. филол. наук / Л.В. Лукина – Воронеж, 2008. – С.33.
6. Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. М.: «Восток-Запад», 2006 г. С. 56, 228, 266
7. Стернин И.А. Чубур Т.А. Контрастивная лексикология и лексикография. – Воронеж, 2006. С. 61-185.
8. Стернин И.А. Контрастивный анализ и лексикография // Слово и словарь. Vocabulum et vocabularium : сб. науч. трудов по лексикографии. Вып. 12. Харьков : Підручник НТУ «ХПІ», 2011. С. 14–18.
9. Чубур Т.А. Национальная специфика семантики слова и проблемы ее лексикографической фиксации: На материале языковых наименований «незанятости трудовой деятельностью» в русском и английском языках : дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2005. 241 с.

TURLI TIZIMLI TILLARDA BAHONING FONETIK SATH BIRLIKLARI ORQALI AKS ETISHI

Isakova Zilolaxon Zokirovna,
dotsent (PhD), Qo'qon Universiteti

Annotatsiya. Nutq tarkibida baho asosan fonetik, leksik va morfologik va sintaktik sath birliklari hamda paralingvistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Nutqning baholash xususiyatini fonetik jihatdan segment va supersegment birliklar qo'llanishi misolida ko'rib o'tsak, leksik sathda esa so'z, uning kontekstdagi ma'nolari orqali baho ifodalanadi. Morfologik sathda baholash so'z turkumlari, qo'shimchalar orqali, sintaktik sathda so'z birikma, gap orqali, baholash amalga oshishiga guvoh bo'lamiz. Ushbu maqolada fonetik usul orqali ingliz va o'zbek tillarida baho ifodalanishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: baholash, baho munosabati, ijobiy baholash, salbiy baholash, segment birliklar, supersegment birliklar, nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ohang.

Аннотация. В речи оценка выражается преимущественно единицами фонетического, лексического, морфологического и синтаксического уровней, а также паралингвистическими средствами. Рассмотрим оценочную природу речи с точки зрения фонетического использования сегментных и суперсегментных единиц, в то время как на лексическом уровне оценка выражается через слово и его значение в контексте. На морфологическом уровне оценка выражается через словосочетания и суффиксы, а на синтаксическом уровне – через словосочетания и предложения. В данной статье рассматривается выражение оценки в английском и узбекском языках посредством фонетического метода.

Ключевые слова: оценка, оценочное отношение, положительная оценка, отрицательная оценка, сегментные единицы, суперсегментные единицы, звуки речи, слог, ударение, тон.

Abstract. In speech, evaluation is mainly expressed through phonetic, lexical, morphological and syntactic level units and paralinguistic means. Let us consider the evaluative nature of speech in terms of the use of segment and supersegment units phonetically, while at the lexical level, evaluation is expressed through the word and its meanings in context. At the morphological level, evaluation is expressed through word groups and suffixes, and at the syntactic level, through word combinations and sentences. This article examines the expression of evaluation in English and Uzbek languages through the phonetic method.

Keywords: evaluation, evaluation attitude, positive evaluation, negative evaluation, segment units, supersegment units, speech sounds, syllable, stress, tone.

Kirish. Ma'lumki, nutqda fonetik birliklarning eng kichik ma'no anglatmaydigan birligi bu nutq tovushlaridir. Ular mustaqil holda ma'no anglatmasa-da, biz nutqimizni nutq tovushlarisiz tasavvur etolmaymiz. Chunki qiyosan tilimizni bir bino deb tasavvur qilsak, nutq tovushlarini binoni tashkil qiluvchi g'ishtar deb atashimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslardan M.M.Mirtojiyev nutq tovushlarini o'rganish akustik va biologik xarakterga ega deb hisoblasa, M.T.Irisqulov, M.I.Matusevichlar nutq tovushlarining o'rganilish aspektlari safiga lingvistik aspektni ham qo'shib o'tishadi. Bizningcha ham, nutq tovushlari nafaqat fizik, biologik hodisa, balki vazifasi nuqtayi nazardan lingvistik hodisa ham hisoblanadi. Nutq tovushlari yakka holda ma'no anglatmasa-da, sintagmatik munosabatlari asosida o'zidan katta, ma'noli birliklarni hosil qilish bir qatorda, ularning mazmuniga ham ta'sir etish xususiyatiga ega. Olimlarning ta'kidlashicha, tilshunoslikda nutq tovushlari segment vositalar, bo'g'in, urg'u va ohang esa supersegment vositalar yoki N.S.Trubeskoyning ta'rifi bilan "prosodika" (nutqda urg'uli va urg'usiz, uzun yoki qisqa bo'g'inlarni talaffuz qilish) elementlari

sifatida tadqiq qilinadi. “Nutqiy jarayonda talaffuz, pauza, ohang, ovoz bo‘yog‘i asosida hayajon ro‘yobga chiqadi va bu holatlar baho ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ovozni meyordan pasaytirish yoki kuchaytirish, to‘xtamli yoki uzluksiz, yo‘g‘on yoxud ingichka gapirish, ohang, tembr xususiyatlari, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik kabi holatlar aloqa-aralashuv jarayonida baho ifodalovchi vositalardan sanaladi”.

Bilamizki, zamonaviy tilshunoslikda fonetika asosida fonosemantika, fonostilistika, fonopragmatika kabi fanlar taraqqiy etib bormoqda. Fonetik sath vositalari orqali baho ifodalanishini tahlil qilishda ushbu sohalarga murojaat qilish o‘rinli. Fonosemantikada fonetik vositalar orqali so‘zlardagi ma‘no farqlash, tovush – so‘z – ma‘no paradigmatic qatori tahlil qilinsa, fonostilistika fonetik sath vositalarining stilistik xususiyatlarini, turli uslublarda qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib o‘tadi hamda tovushlar takrori, assimilyatsiyasi, cho‘ziq-qisqaligi kabi fonetik hodisalar orqali nutqda so‘z ma‘nosi yanada kengroq yoritib beriladi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida F.Xalimova, A.Haydarov, M.Norova, O.Tursunovalarning tadqiqotlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Fonetik sathning segment va supsegment vositalari orqali pragmatik ma‘no ifodalanishi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi sohalardan biri fonopragmatika tarkibida o‘rganilmoqda hamda ingliz va o‘zbek tillarida bahoning fonetik vositalar orqali ifodalanishining chog‘ishtirma tahlili ham ushbu sohadagi tadqiqotlardan biridir.

Natijalar va muhokama. Nutq tarkibida baho segment vositalar orqali asosan quyidagi ko‘rinishlarda aks etadi:

a) unli tovushlarni kuchli talaffuz qilish: Kind Heaven! What a realization of paradise! What a consummation of luxury! (Th.Dreiser. An American tragedy);

b) unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish: «Hurrah for Orville!» “Good for you, Judge!” (his new or fast-approaching title). «By God! Orville Mason, you deserve the thanks of this county!» «Hy-oh! Heigh! Heigh!» “Three cheers for Orville Mason!” (Th.Dreiser. An American tragedy);

v) undosh tovushlarni qavatlash: “Will you listen to dis now?” exclaimed Hegglund, dramatically. (Th.Dreiser. An American tragedy)

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, bahoning fonetik usulda unlilar orqali yuzaga chiqishi uchun tovushning cho‘ziq yoki qisqa aytilishi ahamiyatli sanaladi. Lekin bunda unlilarning cho‘ziq yoki qisqa talaffuz qilinishi farqlanuvchi yoki farqlanmovchilik xususiyatini ko‘rsatishini ham unutmaslik va buni unlini cho‘ziq yoki zarb bilan talaffuz qilish orqali baho xususiyatini namoyon qilishi bilan adashtirmaslik kerak. Masalan: “Unlilarning uzun-qisqalik xususiyati o‘zbek va rus tillari uchun farqlanmovchi, lekin ingliz, nemis, fransuz, qirg‘iz, turkman tillari uchun esa farqlanuvchidir”. Masalan: ingliz tilida eat [i:t] – it [it] so‘zlaridagi cho‘ziqlik orqali fonologik ma‘no farqlanishi kuzatiladi.

May I eat an ice-cream? (yemoq, iste‘mol qilmoq).

Is it so harmful for my health? (III sh. birlik shaklini ko‘rsatuvchi olmosh u).

O‘zbek tilida: bir [bir] – bir [biiir].

Bir kun kelib hammasi unutilib ketadi.

Biiir qarab o‘ting bizga leytenant

Zoru intizor qizga leytenant...

Qo‘shiqda i unlisidagi fonetik cho‘ziqlik yordamida yalinish ma‘nosi kuchaytirilyapti, lekin bu ma‘no farqlash vazifasini bajarmayapti.

Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida unlini cho‘zish fonologik xususiyatga ega, ammo bu xususiyat o‘zbek adabiy tili uchun xos emas. Lekin ayrim o‘zbek shevalarida, xususan, o‘g‘uz lahjasida bir fonetik qurshovda cho‘ziq, qisqa unlilar o‘rin almashib, so‘z ma‘nosiga ta‘sir etish imkoniyatiga ega. Masalan: ot [ot] (o‘simlik), ot [o:t] (olov); yoz [yaz] (xat yoz), yoz [ya:z] (yoz keldi).

Bundan ingliz tilida unlilarni cho‘zish orqali faqatgina ma‘no farqlash xususiyati ro‘yobga

chiqadi deb xulosa qilmasligimiz lozim. Chunki ingliz tilida ham unililarni cho'zib talaffuz qilish orqali ohang va uslubga bog'liq holda emotsional baho ifodalanadi: "Ye-es!", "Good!"

Undov so'zlar orqali baholash yuzaga kelganida biz unililarni cho'zish yoki undoshlarni qavatlash orqali baho ifodalanishini ko'p kuzatamiz. Masalan, jahlni bildirgan: daamn! zoundsss!, ma'qullash: hurrah!, achchiqlanish: bother! ouch! Cut my bangs reaaaal short. Whoops!, mensimalik: baah! phooey!, mamnuniyat: goody! yippee!, nafrat: aargh! rot!, zavqlanish: wahoo! zowie!, qo'rquv: eeeek!, og'riq: ooow! oouch!, hayrat va ajablanish: woow! dear meee!.

Tovushlarning kontekst tarkibida ishlatilib, ijobiy yoki salbiy bahoni yuzaga keltirishini amaliy o'rganish maqsadida ingliz adabiyotida 26 ta va o'zbek adabiyotida 27 ta epik janrga kiruvchi hikoya, ertak, latifa, afsona, roman, qissa, memuar asar, diniy kitob, ilmiy ma'rifiy risola kabi nasriy asarlardan olingan 500 tadan ko'proq parchalar, gaplar ijobiy va salbiy baho anglatish xususiyatidan kelib chiqib tahlil qildik. Biz olib borgan tahlillarda ingliz va o'zbek tillaridagi nasriy asarlarda unli va undosh tovushlar orqali nutqda ijobiy hamda salbiy baho, mazmundorlik, emotsionallik ochib berilishi asoslab berildi.

Tahlillar jarayonida bizda qiziqish uyg'otgan narsa shu bo'ldiki, har ikki til tarkibidagi badiiy asarlarda baho tovushlar yordamida voqelanishida asarning qaysi janrda ekanligi, voqealar aks etgan davr yoki millat emas, balki muallifning qaysi til birliklaridan mahorat bilan foydalanganligi ahamiyatlidir. M.Tven, X.To'xtaboyev, J.Roulin ko'plab asarlari bolalar sarguzasht janrida yozilgan bo'lsa-da, M.Tven, X.To'xtaboyev asarlariga qaraganda J.Roulin asarlarida tovushlar orqali ma'no ifodalashga ko'proq e'tibor berilgan va bu "Garri Potter sarguzashtlari" asarining ekranlashtirilgan shaklida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Dedektiv janrida Artur Konan Doylning "Sherlok Xolmsning sarguzashtlari" asarida ayrim dialoglarni hisobga olmaganda, fonetik birliklar bilan bog'liq ma'no yoritilishi ko'zga tashlanmaydi. Artur Konan Doylning asarlarida matndagi yashirin, pragmatik baho so'z o'yinlari orqali yaratilsa, Tohir Malikning "Shaytanat" kitoblar seriyasida fonetik va leksik sath birliklardan baho ifodalashda mahorat bilan foydalanilganligini ko'ramiz. Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra, ingliz tilida tovushlar orqali baho munosabatining yuzaga chiqishi J.K.Roulinning "Garri Potterni sarguzashtlari" kitoblar seriyasida, T.Drayzerning "Amerika fojeasi" romanida ko'proq qo'llanilganligi aniqlandi. O'zbek tilida tovushlar orqali baholash T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar", T.Malikning "Shaytanat" va O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlarida keng ifodalangan. Quyidagi misollarda ijobiy baho unililarni cho'zish orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz:

«That's it! Thaaat's a good boy. Fine boy. Fine, manly little fellow. Two thousand verses is a great many – very, very great many». (M.Twain. The Adventures of Tom Sawyer) Bu misolda ijobiy baho bir necha til vositalari, xususan, [æ] unlisini cho'zish, good, fine kabilarda denotat asosida, little fellow, two thousand verses, a great many – very, very great many larda leksemalarning sintagmatik munosabati orqali ifodalanyapti.

Harry had never seen her looking so happy. «Oooh, it might have hidden powers,» said Hermione enthusiastically, taking the diary and looking at it closely. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Chamber of Secrets) Bu gapda esa Harry had never seen her looking so happy jumlasini tarkibidagi happy leksemasining boshqa birliklar bilan birikishi, [əʊ] diftongining cho'zib talaffuz qilinishi va enthusiastically ijobiy bahoga ega bo'lgan ravishning qo'llanilishidan baho ottenkasi yuzaga chiqyapti.

Many of the girls «ooooohed!» at the sight of the unicorn. "Oooh it's so beautiful!" whispered Lavender Brown. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Goblet of Fire) Mazkur misolda unlini cho'zishdan ikki holatda foydalanilmoqda. O unlisining cho'zilishi birinchi holatda o'ta xursandchilik ma'nosini ifodalovchi undov so'zdan yasalgan oooooohed fe'lining, ikkinchi holatda esa undov so'zning ijobiy baho ottenkasini yanada bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan. Ularga qo'shimcha beautiful leksemasining qo'llanilishi ijobiy baho kuchaytirgan.

«Oooh, yes, I'd like to,» said Luna happily, and Cho sat down again, looking disappointed. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Deathly Hallows) Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki,

tovushni cho‘zib talaffuz qilish orqali ijobiy baholash (mamnuniyat ma’nosida) yuzaga keladi. Ayniqsa [əʊ] unlisi cho‘ziq talaffuz qilinib yes so‘zi bilan ishlatilganda, ijobiy baho yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Demak, ingliz tilida unlilar orqali ijobiy baho yuzaga keladi. Izlanishlar natijasida tarkibida ijobiy baho aks etgan misollar soni 20 tani tashkil qildi. Shulardan [ɑ:] tovushi bilan 1 ta, diftonglardan [eə] 1 ta, [æ] bilan 3 ta, [u] tovushi bilan 2 ta, [əʊ] diftongi bilan 12 ta holatlarda ijobiy baho xususiyati ifodalangan.

O‘zbek tilida:

– Rahmat, Hofiz aka, bi-ir miriqdik suhbatingizdan. Shunaqa kelib turing... Otamlashish yaxshi narsa-da, a?(T.Malik. Shaytanat, 2-kitob)

Bir so‘zidagi [i] unlisini cho‘zish miriqmoq (biror narsadan o‘ta huzurlanish) fe’lidagi ma’noning kuchayishiga, narsada so‘zidagi a unlisini cho‘zish yaxshi so‘zidagi ma’noning kuchayishiga xizmat qilgan va ularning yaxlit qo‘llanilishi gapga xos ijobiy baho munosabatini yuzaga chiqargan.

– Bir-biridan shirin, bir-biridan asal qaynisingillariga salo-o-om! (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari) Bu misolda bir-biridan shirin, bir-biridan asal jumalari ifodalayotgan ijobiy baho [o] unlisini cho‘zish orqali yanada kuchaytirilgan, shuningdek, biroz xushomad ma’nosini ham ifodalagan.

Shunga aqlim yetgandan keyin o‘zim ham «e-e, barakalla!» deb yubordim. (A.A’zam. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar) Bu o‘rinda [e] unlisini cho‘zish hamda maqto‘v, olqish semantik xususiyatiga ega barakalla undov so‘zining birgalikda ishlatilishi qahramonning o‘z xatti-harakatiga qoyil qolish asosida ijobiy bahoni hosil qilgan.

– Juda-a-a obro‘li shekilli, kuniga inomarka mashinalarda olib ketib, olib kelib qo‘yishadi, – dedi piching qilib. Bu parchada [a] unlisini cho‘zish, obro‘li so‘zi orqali ijobiy baho ifodalangandek ko‘rinsa-da, lekin gap mazmuni va piching qilmoq iborasi orqali salbiy baho anglashiladi.

O‘zbek tilida unlilar yordamida ijobiy baho ifodalangan 19 ta misollar yig‘ildi. Ulardan 3 ta holatda [a] unlisi, 1 ta holatda [i] unlisi, 5-marta [o] unlisi, 10-marta [e] unlisi qatnashgan.

Quyidagi misollarda salbiy baho munosabatini unlilar orqali ifodalanishini ko‘rib chiqamiz: Ingliz tilida:

«Ha haaa!» yelled Lee Jordan as the Slytherin Beaters lurched away from each other, clutching their heads. «Too bad, boys! (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban) Bu gapda [ɑ:] unlisini cho‘zish, yelled, bad so‘zlaridagi salbiy baho va paralingvistik vositalar orqali matn mazmunidan salbiy baho anglashilgan.

«Ooooooh, wait till you see,» she said. «It’s awful». (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Chamber of Secrets) – [əʊ] diftongini cho‘zish, awful so‘zidagi ma’no orqali salbiy baho ifodalangan.

«Ooooh, it was dreadful,» she said with relish. «It happened right in here. I died in this very stall. (J.K.Rowlin. Harry Potter and the Chamber of Secrets) – [əʊ] diftongini cho‘zish, dreadful so‘zidagi salbiy ma’no bo‘yog‘i orqali salbiy baho anglashilgan.

«Pooh! you can’t be silly enough to wish to leave such a splendid place?» (Ch. Bronte. Jane Eyre) – [əʊ] diftongini cho‘zish, silly so‘zidagi salbiy ma’no bo‘yog‘i orqali salbiy baho ifodalangan.

“I have been evil. I have been unkind. I have lied. Oh! Oh! Oooh! I have been unfaithful. My heart has been wicked. I have joined with those who have done evil things. Oh! Oh! Oh! I have stolen. I have been false. I have been cruel! Oh! Oh! Oh!” (Th.Dreiser. An American tragedy) [əʊ] diftongini cho‘zish, diftong qatnashgan so‘zni takrorlash va unfaithful, wick, evil things, cruel so‘zidagi salbiy ma’no bo‘yog‘i orqali salbiy baho anglashilgan.

Biz ko‘rib chiqqan unlilar orqali salbiy ma’no ifodalangan 83 ta holatdan 22 tasida [ɑ:] tovushi salbiy baho munosabatini anglatgan. Diftonglardan [æ] 3 o‘rinda, [eə] 1 holatda salbiy baho bo‘yoqdorligini namoyon qilgan. [ə] tovushi 1 o‘rinda, ye harfi [ɪ:] tarzida talaffuz qilinib, 2 o‘rinda salbiy baho anglatgan. 54 ta vaziyatda [əʊ] diftongi salbiy ma’no anglatgan.

O'zbek tilida: U xo'-o'-o'p o'qimishli, xo'-o'-o'p bilimdon, xo'-o'-o'p olim odam. Faqat bitta "juz'iy" kamchiligi bor: chin dildan kulolmaydi, chin dildan yig'olmaydi... (O'.Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar) bu gapda [o'] unli tovushini cho'zish, "juz'iy" kamchilik so'z birikmasi va gap mazmuni orqali salbiy baholash yuzaga kelgan.

– O', bor, quloqqa lag'mon osma, – dedi o'ng tomonda o'tirgan bola. (T.Malik. Shaytanat, 2-kitob) parchasida [o'] unlisi quloqqa lag'mon osmoq iborasi bilan birga kelib sub'ektiv baho hosil qilgan.

– Odam bormi? – deb so'radi uy egasidan. Uy egasi uning savoliga tushunmadi. Zelixon gapini qaytargach, bosh irg'ab "yo'-o'q" dedi. Zelixon uni bo'ralab so'kdi-da, iziga qaytdi. (T.Malik. Shaytanat, 2-kitob) misolida noverbal vosita bilan birgalikda qo'rquv ma'nosi hosil qilinmoqda.

– Voy, sharmanda-a-a! – dedi qoqshol qo'llari bilan yuzini yumdalab. – Voy, bevafo! (O'.Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar) ushbu misolda [a] unlisini cho'zish, sharmanda, bevafo so'zlari va qoqshol qo'llari bilan yuzini yumdalab paralingvistik vositasi orqali salbiy baho ifodalangan.

– Voy, omon bo'lgur, ukang shuncha yotib bi-ir martayam bormadingmi? Senki, bormagansan, xotining o'zingdan besh battar. Voy, man bilganimda sanlarni bi-ir qovurib tashlardim-a! Voy, san insofi yo'qlar... (T.Malik. Shaytanat, 1-kitob) Bu gapda esa ikki unli tovushni cho'zish, qovurib tashlardim va gap mazmuni orqali salbiy baho anglashilgan.

«E-e, qo'y, og'rimagan boshni og'ritma. Shunaqa gaplarni sekinroq gapir». (A.A'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar) Unli [e] tovushini cho'zish, og'rimagan boshni og'ritmoq frazeologik birikmasi salbiy baho ifodalangan.

«E-e, o'chir! Kim qaraydi unga? Hovlini bir marta ham supurmaysan», dedi. (A.A'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar) Buyruq, so'roq gaplaridagi mazmun va [e] unli tovushini cho'zish orqali salbiy baho hosil qilingan.

– E-e-e, unday dema-ye, ukkag'arni ayoli, unday dema! (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar) Ushbu misolda esa fonetik vositalardan ham unli tovushni cho'zish, ham undosh tovushni qavatlash orqali baho ifodalangan.

– U-u-u, o'n bir kilo! – deydi. – O'n bir kilo-ya, u-u-u! Buncha paxtani qanday qilib terding-ye? Qoyil-ye! Muallimlarimiz piq-piq kuladi. (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar) Gap tarkibida qo'llangan [u], [ye] unli tovushlarini cho'zish, "Buncha paxtani qanday qilib terding-ye?" gapidagi masxaralash ohangi va "Qoyil-ye!" undov so'zi orqali salbiy baho yaqqol namoyon bo'lgan.

– Yo-u-u, chayonsan-ku, a! Bor senlarga yarim so'm ham bermayman. Agar osmon qo'lingda bo'lsa, ustimga tashlab yubor! Misoldagi [yo], [u], [a] unllarini cho'zish, "osmon qo'lingda bo'lsa, ustimga tashlab yubor" frazeologik birikmasi orqali salbiy baho anglashilgan.

Yuqoridagi misollarda o'zbek tilidagi unllar orqali salbiy baholashning 85 ta holati tahlil qilingan. Shundan 11 ta holatda [a] unlisi, 4 ta holatda [i] unlisi, 7 ta parchada [o] unlisi, 45 ta o'rinda [e] unlisi, 6 ta [u] unlisi, 12 ta vaziyatda [o'] unlisi orqali salbiy baho ifodalangan.

Ingliz tilida unllarning ma'no anglatish xususiyatlari haqida I.R.Galperin quyidagicha yozadi: "Ingliz tilida [a:], [i:], [u:] tovushlari qattiq va cho'zib talaffuz qilinganda emotsionallikni ifodalashi jihatidan eng ko'p qo'llaniladi. Xususan, [u:] tovushi afsus va salbiy bahoni, [i:] tovushi xursandchilik, mamnuniyat ma'nosida ko'p ishlatiladi". O.Tursunova o'zbek tilida matnning ta'sirchanligi va ohangdorligini ifodalanishi unllar uyg'unlashuvi bilan bog'liqligi va bunda asosan, [a], [o], [u], [o'] unllaridan unumli foydalanilishini aytib o'tadi.

Albatta, yuqoridagi fikrlarni asosli deb hisoblaymiz va quyidagilarni qo'shimcha qilamiz: biz olib borgan tahlillarda ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan nasriy asarlarda unli tovushlar orqali nutqda ijobiy va salbiy baho, mazmundorlik, emotsionallik ochib berilishi to'liq isbotini topdi. Chog'ishtirilanayotgan tillarda unli tovushlar orqali baho munosabatining yuzaga chiqishining 206 ta holati aniqlandi. Shundan ingliz va o'zbek tillarida 18% holatda ijobiy baho, 82% salbiy baho unllar orqali amalga oshadi. Demak, har ikki til vakillari ham salbiy baholash jarayonida unli tovushlarga ancha ko'p murojaat qilishadi va bu orqali voqelikka o'z munosabatlarini bildirishadi.

O.Tursunova ta'kidlaganidek, «nasriy asarlar fonopoetikasida nutq tovushlarini cho'zib talaffuz qilish, birdan ortiq yozish, fonetik jarayondagi turli hodisalar so'zlovchining nutq vaziyatiga, voqelikka turli munosabatini bildirish: quvonch, g'azab, achchiqlanish, afsus, hayrat, taajjub, kinoya, piching, kesatiq, rozilik, norozilik, tilak-istak va hokazolarni ifodalashda fonetik birliklardan foydalaniladi.

Xulosa. Tahlillar natijasiga ko'ra ingliz va o'zbek tillarida nutq tarkibida ijobiy va salbiy baho ifodalanishida undosh tovushlar ham ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Chog'ishtirilganayotgan tillardagi nasriy asarlaridan olingan 46 ta parchalarda undoshlarni qavatlash usuli bilan baho ifodalanishi kuzatilgan. Shundan ingliz va o'zbek tillarida 15% holatda ijobiy baho, 85% salbiy baho undoshlar orqali amalga oshgan.

Ma'lumki, fonetik sath vositalaridagi mavhumlik baholash jarayonida ham aks etadi va ulardagi ko'p ma'nolilik, variantlarga egalik xususiyatlari so'zlovchiga nutq vaziyatiga qarab fonetik vositalardan ijobiy yoki salbiy baholash mobaynida foydalanish imkonini beradi. Demak, so'zlovchi nutqda unli yoki undosh tovushlardan ijobiy yoki salbiy baholash jarayonida ham foydalanishi mumkin va bu unga muloqot jarayonida katta sharoit yaratib beradi. Shunga qaramasdan, tadqiqotimiz natijalariga tayanib ayti-shimiz mumkinki, har ikki til vakillari ham salbiy baholash jarayonida unli tovushlarga ko'proq, undosh tovushlarga qisman bo'lsa ham, murojaat qilishadi va voqelikka o'z munosabatlarini bildirishadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2010. – 170 b.
2. Bari Edipuglia, Hill, L.B. The future of cross culture communication: Perspectives from 20 years of the IAICS // Intercultural Communication Research, 2009 – P. 83-108.
3. Гальперин И.П. Стилистика английского языка. – Москва: Высшая школа, 1981. – Б.112.
4. Fareed Hameed. Al-hindawi. Phonopragmatic Manifestations in Iraqi Husseini Preachers' Discourse: A Qualitative Auto-segmental Metrical Analysis // Advances in Language and Literary Studies. 2020. <https://www.researchgate.net/publication>.
5. Haydarov A.A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2008. – 158 b.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 34.
7. Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – Б.16.
8. Mirtojdiyev M.M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 17.
9. Norova M.F. Ingliz va o'zbek tillarida fonostilistik va grafostilistik vositalarning konnotativ ma'nolari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Buxoro, 2021. – 50 b.
10. Nosirov P. O'zbek nutq madaniyati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'AJBNT markazi, 2004. – B. 169.
11. Qambarov G'. Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi: : Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent: 2008. – B. 30.
12. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 48.
13. Romero Trillo. Pragmatic punting and prosody: Evidence from corpora // The Functional Perspective on Language and Discourse, 2014. – P. 209-222.
14. Sperti S. Phonopragmatic Dimensions of ELF in Specialized Immigration Contexts // In S. Kermas & T. Christiansen. The Popularization of Specialized Knowledge Across Communities and Cultures. 2017. – P. 221-227.
15. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poyetik imkoniyatlari: Filol. fan. nom. ... dis. – 2019. – 129 b.
16. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – Москва: Аспект пресс, 2000. – 352 с.
17. Xalimova F.R. Poetik matnning lingvofonetik xususiyatlari va tarjimaning pragmatik muammolari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. 54 b.

O'ZBEK DIALEKTAL KORPUSIDA FE'LNING KATEGORIAL SHAKLLARI

Xolova Muyassar Abdulhakimovna

filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilining subdialektal korpusiga tayangan holda fe'lning kategorial shakllarining teglash bilan bo'liq muammolarga to'xtab o'tilgan va fe'lning nisbat, vazifa (o'zgalovchi) va bo'lishsizlik singari grammatik kategoriyalari dialektal variantlari qay ko'rinishga ega bo'lishi borasida fikrlashilgan. Muallif morfobirliklarning hududiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, ular orqali shevalarning grammatik tafovvutlariga hamda fonetik shakllanishiga aniqlik kiritgan. Ayniqsa nisbat, o'zgalovchilar modifikatsiyasi va bo'lishsizlikning negatsiyasiga diqqat markazida bo'lgan. Maqoladagi keltirilgan misollar va statistic ma'lumotlar <https://dialect.uz/>, <https://dialectcorpora.uz/#> kabi baza va korpuslarda olib borilgan kuzatuvlarga asoslangan. Tadqiqot natijalari o'zbek tili grammatikasi taraqqiyotini dialektal asosda tahlil qilishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dialectal korpus, fe'l so'z turkumi, fe'lning kategorial shakli, hududiy sheva, onlayn shevalar bazasi

КАТЕГОРИЧЕСКИЕ ФОРМЫ ГЛАГОЛА В УЗБЕКСКОМ ДИАЛЕКТНОМ КОРПУСЕ

Холова Муяссар Абдулхакимовна

Кандидат филологических наук (PhD), доцент Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье, основанной на данных диалектного корпуса узбекского языка, рассматриваются проблемы маркировки категориальных форм глагола и диалектные варианты таких грамматических категорий глагола, как отношение, функция (модификатор) и неучастие. Автор, учитывая территориальные особенности морфоединиц, выявил грамматические различия диалектов и фонетическое становление через них. Особое внимание уделено отношению, модификации модификаторов и отрицанию неучастия. Приведенные в статье примеры и статистические данные основаны на наблюдениях, проведенных в базах данных и корпусах, таких как <https://dialect.uz/>, <https://dialectcorpora.uz/#>. Результаты исследования служат важным источником для анализа развития узбекской грамматики на диалектной основе.

Ключевые слова: диалектный корпус, глагольная группа, категориальная форма глагола, региональный диалект, онлайн-база данных диалектов

CATEGORICAL FORMS OF VERBS IN THE UZBEK DIALECT CORPUS

Muyassar Kholova

PhD in Philology, Associate Professor Termez State University

Abstract. This article, based on data from the Uzbek dialect corpus, examines the problems of marking categorical verb forms and dialectal variants of such grammatical categories of verbs as relation, function (modifier) and non-participation. Taking into account the territorial features of morphological units, the author has identified grammatical differences between dialects and phonetic development through them. Particular attention is paid to relation, modification of modifiers, and negation of non-participation. The examples and statistical data presented in the article are based on observations made in databases and corpora such as <https://dialect.uz/> and <https://dialectcorpora.uz/#>. The results of the study serve as an important source for analysing the development of Uzbek grammar on a dialectal basis.

Keywords: dialect corpus, verb group, categorical form of the verb, regional dialect, online


dialect database

Dunyo lingvistikasida tabiiy til sifatida ishlov berish borasida va korpusdan foydalanib uning ligvistik xususiyatlariga baho berishga doir turli tadqiqotlar olib borilgan guvohimiz. Ushbu maqolamizda asosiy etibor o'zbek tili fe'l turkumlari va uning korpusini tuzish doirasida miqyosidagi maqolalardagi tahliliga doir qarashlar bo'lgani bois bu borada Matlatipov S. , Abdurahmonova N. , Zokirova M., Alimova M. , Azimova I. , Abdusamatov A. , Johan Vandewalle , Xolova M. kabi olimlarning tahlil va tadqialarida ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda fe'l kategorial va finkSIONAL shakllarga ajratilgan va biz fe'ning kategorial shakllariga to'xtalamiz.

Shevalar bazasida fe'l so'z turkumining ifodasi. Yusupova , R.Sayfullayeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini kuzatish mumkindir. Dialektologiya sohasida esa S. Ashirboyev, N.Murodova, T. Enazarov kabi olimlarimizning shevashunoslik doirasidagi qarashlarida turkumning o'ziga xos nazariy jihatlari ochib berilgan. Amaliy dialektologiyada xuddi adabiy tilda bo'lgani kabi leksemalarning 25%ni fe'l so'z turkumi tashkil etishini hisobga olsak, mazkur turkumning etnik xalq og'zaki nutqida qo'llanish uslubiyati, semantikasi va grammatik shakllari bilan bog'liq tadqiqotlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan deb ayta olamiz.

Avvalo, mazkur turkumning onlayn shevalar bazasidagi o'rniga e'tibor bersak, birgina Boysun shevasi onlayn bazasida o'rtacha 502 ta leksema kiritilgan bo'lsa, shundan 102 tasi fe'l so'z turkumiga oiddir . Dialektal bazaning ichki jadvalini ko'zdan kechirib, 6 ta leksemaning lacunar (čātmāq: ...uyqisi qabog'iga qotgan, bedoviga qamchi chotqan...Malla savdogar [220]) shaklida ekanligining, 20 ga yaqin leksemalar o'z sinonimiga (Čārillamaq: sinonimi - Baqirmoq (Ad.t.), qichqirmoq (Ad.t.): Avasi otasi kelganday, chorillab joyidan turib keldi. Malla savdogar [252]), bir necha fe'l turkumi omonimiga (žem bomāq I –yeyilmoq; žem bomāq II – yuvilaverib qo'l oqarmoq) egaligining guvohi bo'ldik.

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda fe'l shakllariga oid turli nazariyalar kuzatiladi. Olima M.Abjalova fe'ning kategorial shakliga doir lingvistik tahlil va tahrir modullarini tayyorlashda bo'lishsizlik shaklini kiritmagan holda o'z qarashlarini berib o'tgan . Biroq biz o'z tadqiqotimizda ushbu 6 kategoriyaning grammatik ma'no ifodaloshidan kelib chiqib tahlil va tadqiq etishni ma'qul topdik. Unga ko'ra:



1-jadval. Dialektal korpusda fe'l nisbati kategoriyasi

Shevalar korpusida fe'l nisbati razmetkasi. Formal grammatika nuqtayi nazaridan ushbu kategoriyani yuzaga keltiruvchi affikslarning turliligi va ularning variativligini hisobga olib quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Aniq nisbat – <an. nis.>: $F_{1/0}$ - \emptyset

O'zlik nisbat – <o'z. nis.>: $F_{1/1}$:

-l – $F_{1/1/1}$; **-n** – $F_{1/1/2}$; **-in** – $F_{1/1/3\{1\}}$, **-in** – $F_{1/1/3\{2\}}$, **-ün** – $F_{1/1/3\{3\}}$, **-un** – $F_{1/1/3\{4\}}$;

-il – $F_{1/1/4\{1\}}$, **-il** – $F_{1/1/4\{2\}}$, **-ül** – $F_{1/1/4\{3\}}$, **-ul** – $F_{1/1/4\{4\}}$;

Majhul nisbat – <maj. nis.> $F_{1/2}$:

-l – $F_{1/2/1\{0\}}$; **-n** – $F_{1/2/2\{0\}}$; **-in** – $F_{1/2/3\{1\}}$, **-in** – $F_{1/2/3\{2\}}$, **-ün** – $F_{1/2/3\{3\}}$, **-un** – $F_{1/2/3\{4\}}$; **-il** –

$F_{1/2/4\{1\}}$, **-il** – $F_{1/2/4\{2\}}$, **-ül** – $F_{1/2/4\{3\}}$, **-ul** – $F_{1/2/4\{4\}}$;

Orttirma nisbat – <ort. nis.>: $F_{1/3}$:

-t – $F_{1/3/1\{0\}}$; **-dir** – $F_{1/3/2\{1\}}$, **-dir** – $F_{1/3/2\{2\}}$, **-dür** – $F_{1/3/2\{3\}}$, **-dur** – $F_{1/3/2\{4\}}$, **-tir** – $F_{1/3/2\{2\}}$, **-tür** – $F_{1/3/2\{3\}}$, **-tur** – $F_{1/3/2\{4\}}$; **-güz** – $F_{1/3/3\{1\}}$, **-gaz** – $F_{1/3/3\{2\}}$, **-gäs** – $F_{1/3/3\{3\}}$, **-gas** – $F_{1/3/3\{4\}}$, **-küz** – $F_{1/3/3\{5\}}$, **kaz** – $F_{1/3/3\{6\}}$, **-käs** – $F_{1/3/3\{7\}}$, **-kas** – $F_{1/3/3\{8\}}$, **-qaz** – $F_{1/3/3\{9\}}$, **-qüz** – $F_{1/3/3\{10\}}$; **-qas** – $F_{1/3/3\{11\}}$, **-qäs** – $F_{1/3/3\{12\}}$; **-iz** – $F_{1/3/4\{1\}}$, **-iz** – $F_{1/3/4\{2\}}$, **-is** – $F_{1/3/4\{3\}}$, **-is** – $F_{1/3/4\{4\}}$, **-üz** – $F_{1/3/4\{5\}}$, **-uz** – $F_{1/3/4\{6\}}$, **-üs** – $F_{1/3/4\{5\}}$, **-us** – $F_{1/3/4\{6\}}$, **-üz** – $F_{1/3/5\{1\}}$, **-az** – $F_{1/3/5\{2\}}$, **-üz** – $F_{1/3/5\{3\}}$, **-äs** – $F_{1/3/5\{4\}}$, **-as** – $F_{1/3/5\{5\}}$, **-äs** – $F_{1/3/5\{6\}}$; **-är** – $F_{1/3/6\{1\}}$, **-ar** – $F_{1/3/6\{2\}}$, **-är** – $F_{1/3/6\{3\}}$; **-ir** – $F_{1/3/7\{1\}}$, **-ir** – $F_{1/3/7\{2\}}$, **-ür** – $F_{1/3/7\{3\}}$; **-ur** – $F_{1/3/7\{4\}}$;

-sät – $F_{1/3/8\{1\}}$, **-sat** – $F_{1/3/8\{2\}}$;


Birgalik nisbati – <birg. nis.>: $F_{1/4}$:

-š – $F_{1/4/1}$; **-iš** – $F_{1/4/2\{1\}}$, **-iš** – $F_{1/4/2\{2\}}$, **-üş** – $F_{1/4/2\{3\}}$, **-uš** – $F_{1/4/2\{4\}}$,

Shevalar korpusida fe'lning vazifa shakli razmetkasi. Fe'lning vazifa shakli (o'zgalovchi) – <fe'l. vaz.>: F_2 . Sof fe'l – $F_{2/0}$. Sof fe'lning metarazmetkasi boshqa teggerlar vositasida anglashilganligi tufayli uni alohida teggerlari $F_{2/0}$ da berilishi umumiylik kasb etadi.

Harakat nomi – <fe'l.> <har.n.>: $F_{2/1}$. Birinchi raqam fe'llik vazifaviy shakli – F_2 , ikkinchi raqam vazifa shaklni hosil qiluvchi tur – $F_{2/1}$, agar sheva birligining fonetik variant mavjud bo'lmasa, “/”belgidan so'ng raqam orqali beriladi. Masalan, **-š** – $F_{2/1/1}$, shevaga oid affiksning variativligi kuzatilganda, {} ichida raqam ostida beriladi: **-š** – $F_{2/1/1}$; **-iš** – $F_{2/1/2\{1\}}$, **-iš** – $F_{2/1/2\{2\}}$, **-üş** – $F_{2/1/2\{3\}}$, **-üş** – $F_{2/1/2\{4\}}$; **-v** – $F_{2/1/3}$; **-üv** – $F_{2/1/4\{1\}}$, **-uv** – $F_{2/1/4\{2\}}$, **-iv** – $F_{2/1/4\{3\}}$, **-iv** – $F_{2/1/4\{4\}}$;

Shu o‘rinda harakat nomi va birgalik nisbati kabi omonimlik xususiyatlarini sun’iy intellekt grammatik affikslarga berilgan shifrlar (**birgalik nisbati** – <birg. nis.>: $F_{1/4}$: -š – $F_{1/4/1}$; -iš – $F_{1/4/2\{1\}}$, -iš – $F_{1/4/2\{2\}}$, -üş – $F_{1/4/2\{3\}}$, -uš – $F_{1/4/2\{4\}}$ va ulardan so‘ng fe’lga oid sintaktik shakl yasovchilarning (zamon affikslari) **harakat nomi** -š – $F_{2/1/1}$; -iš – $F_{2/1/2\{1\}}$, -iš – $F_{2/1/2\{2\}}$, -üş – $F_{2/1/2\{3\}}$, -uš – $F_{2/1/2\{4\}}$ lardan so‘ng ismga oid sintaktik shakl yasovchi grammatik birliklarning kelishi doir dasturiy ta’minot ishlab chiqilishi lozim. Masalan: Qöldi yüvuškä su^u apke! (Qo‘lni yuvishga suv olib kel.)



Qöl [lemma] -di [-ni TK_{2\{5\}} .tush.kel] | yüv [lemma] | üš [$F_{1/4/2\{3\}}$ harakat nomi] | -kä [JK_{3\{2\}} – jo‘nalish kelishigi, ismning munosabat shakli].

O‘zgalovchi kategoriyalardan bir sifatdosh adabiy nutqda asosan otlarga qisman fe’llarga bog‘lanishi haqida nazariyalar keltirilgan¹², bu jarayonning dialektizmlar tarkibida: **bāryan (barg‘an) adam** – $F_{(lemma)} + - F_{2/2/1\{9\}}$, **ājtatiryān (oytatirg‘an/ aytadigan) kiši** – $F_{2/2/2\{7\}}$ sifatdoshning otlarga bog‘lanishini va bu substansial mohiyat ekanligini aytib o‘tamiz. Ushbu kategoriyaning dialektal korpusga joylanishi bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi. **Sifatdosh <fe’l. sifd.>** – $F_{2/2}$. Bunda birinchi raqamni F_2 –felning vazifa shakl umumiyliги sifatida, ikkinchi “/2” so‘ng keltirilgan raqamni vazifa shakl turi sifatida, uchinchi raqam sifatdoshning zamon shakli sifatida talqin qilinmog‘i darkor:

o‘tgan zamon shakli <sifd. o‘t. zam.> – $F_{2/2/1}$; fonetik variantlari: -gän – $F_{2/2/10\{1\}}$, -gan – $F_{2/2/1\{2\}}$, -gän – $F_{2/2/1\{3\}}$, -kän – $F_{2/2/1\{4\}}$, -kan – $F_{2/2/1\{5\}}$, -kän – $F_{2/2/1\{6\}}$, -qan – $F_{2/2/1\{7\}}$, -qän – $F_{2/2/1\{8\}}$, -yan – $F_{2/2/1\{9\}}$, -yän – $F_{2/2/1\{10\}}$.

hozirgi zamon shakli <sifd. hoz. zam.> – $F_{2/2/2}$; fonetik variantlari: -ätkän – $F_{2/2/2\{1\}}$, -äpkän – $F_{2/2/2\{2\}}$ (Surxondaryo) -äjätkän – $F_{2/2/2\{3\}}$, -äjätkän – $F_{2/2/2\{4\}}$, -äjätkän – $F_{2/2/2\{5\}}$, ajätgan – $F_{2/2/2\{6\}}$, -atiryān – $F_{2/2/2\{7\}}$, -atiryān – $F_{2/2/2\{8\}}$. Sh.Shukurov oxirgi ikki grammatik va fe’lning boshqa bir qancha shakllarining XX asrning 30 yillariga qadar amalda bo‘lganligi va aynan o‘zbek adabiy tili standartlarida o‘zgarish bo‘lishi bilan farqlanish kuchayganligini ta’kidlaydi¹³;

kelasi zamon shakli <sifd. kel. zam.> – $F_{2/2/3}$; fonetik variantlari: -gič – $F_{2/2/3\{1\}}$, -kič, – $F_{2/2/3\{2\}}$ -qič – $F_{2/2/3\{3\}}$, -yič – $F_{2/2/3\{4\}}$, -adiyān – $F_{2/2/3\{5\}}$, -ävli – $F_{2/2/3\{6\}}$, -üvli – $F_{2/2/3\{7\}}$, -uvli – $F_{2/2/3\{8\}}$, -ü’li – $F_{2/2/3\{9\}}$, -u’li – $F_{2/2/3\{10\}}$.

Fe'ning ravishdosh shakli <fe'l. ravsh.> – Bunda birinchi raqamni $F_{2/3}$ –felning vazifa shakl umumiy teggeri, ikkinchi “/” belgisidan so‘ng keltirilgan raqam vazifa shakl turi $F_{2/3}$, teggeri, uchinchi raqam sifatida:

holat ravishdoshi 1 raqami - $F_{2/3/1}$;

sabab ravishdoshi 2 raqami- $F_{2/3/2}$;

payt ravishdoshi 3 raqami - $F_{2/3/3}$

maqsad ravishdoshi 4 raqami - $F_{2/3/4}$ bilan belgilanadi. Har bir ma’noviy turlarlarni yuzaga chiqaruvchi grammatik birliklar bitta bo‘lsa, “/” so‘ng raqam orqali beriladi. Ushbu vazifaviy shaklning garrantik affikslar soni birdan ortiqni tashkil etsa sanoq raqamlar vositasida berilib, fonetik variantlari “{ }” ichida berib o‘tiladi. Aks holda dasturlash jarayonida xatoliklar kelib chiqishi mumkin:

a) holat ravishdoshi <hol.ravsh.> – $F_{2/3/1\{0\}}$. Holat ravishdoshi va uning fonetik variantlari: **-b**, $F_{2/3/1/1\{0\}}$. **-ib** - $F_{2/3/1/2\{0\}}$ / **-ib**- $F_{2/3/1/2\{1\}}$, **-ïb** **ib**- $F_{2/3/1/2\{2\}}$ **-ip** - $F_{2/3/1/2\{3\}}$, **-ïp** - $F_{2/3/1/2\{4\}}$, **-üb**-- $F_{2/3/1/2\{5\}}$, **-ub** - $F_{2/3/1/2\{6\}}$, **-üp**- $F_{2/3/1/2\{7\}}$, **-up** - $F_{2/3/1/2\{8\}}$, **-mästän**- $F_{2/3/1/2\{9\}}$, **-mäjin** - $F_{2/3/1/2\{10\}}$, **-mäjdagin** - $F_{2/3/1/2\{10\}}$, **majdagin** $F_{2/3/1/2\{11\}}$, **-mäsdagin** - $F_{2/3/1/2\{12\}}$, **masdagin** $F_{2/3/1/2\{12\}}$. M.: *Sän xama gäpti körmäjdagin [bär_(lemma)+ -mäjdagin ($F_{2/3/1/2\{10\}$)] laylaylama.* (Sen hamma gapga guvoh bo‘lmasdan g‘iybat qilma yoki ma’lumot berma).


b) sabab ravishdoshi (Surx. shevasida - **gach** qo‘shimchasining sabab ifodalashi kuzatilmaydi, uning o‘rniga ko‘makchining qo‘llanishi mavjud.): - **gach** - $F_{2/3/2\{0\}}$ - **gač** - $F_{2/3/2\{1\}}$, **-gäč** - $F_{2/3/2\{2\}}$, **-käč** - $F_{2/3/2\{3\}}$, **-qač** - $F_{2/3/2\{4\}}$, **-yač** - $F_{2/3/2\{5\}}$, **-yāč** - $F_{2/3/2\{6\}}$.

c) payt ravishdoshi: guncha - $F_{2/3/3\{0\}}$, **-ginčä** - $F_{2/3/3\{1\}}$, **-kinčä** - $F_{2/3/3\{2\}}$, **-yinča** - $F_{2/3/3\{3\}}$, **-yīnča** - $F_{2/3/3\{4\}}$, **-qinča** - $F_{2/3/3\{5\}}$, **-qunča** - $F_{2/3/3\{6\}}$, **giči** - $F_{2/3/3\{7\}}$, **-kiči** - $F_{2/3/3\{8\}}$, **-qiči** - $F_{2/3/3\{9\}}$, **-yīči** - $F_{2/3/3\{10\}}$, **-giči:** - $F_{2/3/3\{11\}}$, **-kiči:** - $F_{2/3/3\{12\}}$, **-qiči:** - $F_{2/3/3\{13\}}$, **-yīči:** - $F_{2/3/3\{14\}}$. Viloyatdagi oltinsoylik respondentlar bilan qipchoq shevasi bilan bog‘liq suhbatda¹⁴ harakat-holatning payti ifodasida –dän/tän/nän kegin ko‘makchisi hamda ovoz va shovqinning ishtiroki, unlilar ohangdoshligi (jarangli undosh+ **-yinča** - $F_{2/3/3\{3\}}$, **-yīnča** - $F_{2/3/3\{4\}}$ [**bāryīnča**], jarangsiz undosh **-qinča** - $F_{2/3/3\{5\}}$, jarangsiz, lablangan, orqa qator unli + **-qunča** - $F_{2/3/3\{6\}}$ [**ājtnunča**]).

d) maqsad: **-gani** - $F_{2/3/4}$, **-kani** - $F_{2/3/4}$, (**-kāni** - $F_{2/3/4\{1\}}$, **qani**- $F_{2/3/4\{2\}}$, **-yanī**- $F_{2/3/4\{3\}}$, **qāni** - $F_{2/3/4\{4\}}$, **yāni** - $F_{2/3/4\{5\}}$, **-gāli**- $F_{2/3/4\{6\}}$, **-yani**- $F_{2/3/4\{7\}}$, **qāni**- $F_{2/3/4\{8\}}$, - **yāni**- $F_{2/3/4\{1\}}$)

Dialektal korpusda fe'l so'z turkumining bo'lishli bo'lishsizlik shakli. Ilmiy adabiyotlarda bo'lishsizlik kategoriyasi affiksatsiya (bār-**ma**-di), analitik shakllarda (žaz-**ma**-j qojayazisin), yordamchi birliklar vositasida (shevada *emas* to'liqsiz fe'lining qisqargan shakli qo'ullanadi: lōxžigāmmās - silkinmoq (jihaz), sakramoq (shaxs), yo'q yordamchisi: **manāvsirayāni žōq** – alahsigani yo'q) hamda inkor bo'g'lovchisi va yuklamalari orqali ifodalanadi^{15,16}. Korpus bazasida fe'ning bo'lishsizlik shaklini ifodalashda dominantlikni -**ma** affiksi egallaydi va variativlikka asoslanadi:

va -**mā** -**mā** -**me**, -**mu**, **mū**, -**mi**, -**mī** sheva leksemasi tarkibidagi qolgan tovushlar ta'sirida keltirilgan qo'shimchaladan biri qo'ullanadi



1-jadval.

Dialektal korpusda fe'ning bo'lishsizlik shakli.

Surxondaryo viloyati dialektalari tarkibidagi fe'ning ma'lum bir xususiyatini ifodalovchi so'zlar yuzasidan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Har bir shevaga xos so'zlar o'zining leksik-semantik xususiyatiga ko'ra umumxalq tilining o'ziga xos belgi va xossalarni aks etadi. Binobarin, umumxalq tili tarkibidagi shevalarning ayrimlari faqat ma'lum bir hududga taalluqli turmush tarzi va madaniyatining ko'zgusi bo'lib, bu farqlar, tabiiyki, boshqa hududda kuzatilmaydi.

Surxondaryo etnik aholisi shevasi "y"lovchi va "j"lovchi tarkibida fe'l so'z turkumiga oid birliklarning fonetik variantlariga asos bo'lishi fikrimizga dalildir. Bazaga kiritilgan leksemalarning turkumiy statistikasi adabiy til va lahjalar tarkibidagi farqli belgilar xususida xulosalar yasash uchun asos bo'lib xizmat qiladi va dialektal bazasida so'zlarning turkumlar bo'yicha turkumning chastotasini aniqlash imkonini taqdim etadi. Surxondaryo viloyati shevalar bazasi davr standartiga mos, axborot izlashni hisobga olgan holda, dialektologiyaning turli tarmoqlari, shuningdek tilshunoslik, tarjimashunoslik talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan. Dialektal korpusda fe'ning kategorial shakllari soni nuqtayi nazardan kam sonli kuzatilgan nisbat shakli birgalik va eng ko'p shakl va variantlarga ega bo'lgan nisbat shakli orttirma shakli bo'lib, aholi shevasida harakat-holatni bo'rttirishga bo'lgan munosabat, shuningdek o'zbek adabiy tilida orttirma shaklining ko'pligi hamda ularning fonetik variantlarining soni bilan bog'lab izohlash mumkin. Fe'ning nisbat, vazifa shakl hamda bo'lishsizlik singari kategorial shakllari, asosan, fonetik variantlari to'laqonli qamrash uni korpusda akslanishi bilan bog'liq muammolariga yechim bo'la oladi va

bu jarayon bosqichli amalga oshirilishi lozim. Fe'ning bo'lishsizlik shaklida dominantlikni -ma affiksi egallaydi, biroq yordamchi birliklar emas to'liqsiz fe'lining qisqargan shakli hamda žöq inkor yordamchilarining korpus bazasida o'z o'rniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sanatbek Matlatipov, Ualsher Tukeyev, Mersaid Aripov. Towards the Uzbek Language Endings as a Language Resource. Communications in Computer and Information Science. 2020. DOI: 10.1007/978-3-030-63119-2_59. ISSN: 18650937
2. Abdurakhmonova N. Modeling analitic forms of verb in uzbek as stage of morphological analysis in machine translation. Vol. 5. Journal: The Social Science Journal. 2017. 2017TAKESTAN. pdf//
3. Abdurakhmonova N. Онтологическая модель узбекского языка (как пример морфологии). Conf.: Труды международной конференции по компьютерной и когнитивной лингвистике TEL-2018. 10. 2018.Kazan. TEL-2018_own.pdf
4. Muslima Zokirova, Muharram Alimova. Typological characteristics of english and uzbek verb forms. International journal of word art. 2020. DOI: 10.29013/ejll-23-1-39-41. ISSN: 2310-5720
5. Azimova I. Noun and verb production in uzbek non-fluent aphasia. International journal of word art. 2020. DOI: 10.26739/2181-9297-2020-1-4.
6. A. Abdisamatov. The problems of translating some phrasal verbs from english into uzbek. International journal of word art. 2020. Doi: 10.15863/tas.2020.01.81.137. Issn: 23084944.
7. Johan Vandewalle. Devinim Anlatan Özbekçe Ulaşlı Yapılar Üzerine. Bilig. 2016. ISSN: 13010549
8. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.//
9. Холова М. Database of the uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the kipchak dialect into english // Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 4. //
10. Холова М. А. Surxondaryo viloyati shevalarining o'zbek milliy dialektal korpusida reprezentativligi //Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 3.
11. Salima Rustamiy "Devon-u lug'otit turk asarida lingvistik atamalar", -T.: 2006.
12. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q., Hozirgi o'zbek adabiy tili., -T. 2010., – B. 25.
13. Abdulhakimovna X. M. Baysun dialekt corpus: Genesis (Baysun district is in the case of "J" dialect) //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 2. – С. 224-228.
14. M.Abjalova. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. Monografiya. – Toshkent, Nodirabegim, 2020. B. 104. B.lar. 175.
15. B.Xolmihammedov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma.
16. Sh, Shukurov O'zbek adabiy tilining rivojlanishi masalasiga doir. J.: O'zbek tili va adabiyoti// N.: Fan // №3. 1965. B. 65. B.lar. 63-67.
17. Malika Mislimova. Oltinsoy tumani 56 yoshda. Uybekasi. Suhbat: 2023 yil, 16-noyabr.
18. Q. Sapayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2010. – B. 200. B.lar. 302.
19. B. Xolmuxamedov. Hozirgi o'zbek adabiy tili (morfologiya). O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2021. – B 48. – B.lar. 134.
20. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarning izohli lug'ati. –Toshkent, 1991.,

ТЕМА СЕМЬИ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ

*Абдуллаева Барно Кадыровна,
старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Факультета
филологии
и искусств Ургенчского государственного университета*

Аннотация. В данной работе рассматривается тема семьи в пословицах и поговорках как важный компонент народной мудрости. Семья традиционно занимает центральное место в мировоззрении различных народов, что находит отражение в устном народном творчестве. Пословицы и поговорки, связанные с семейной жизнью, передают нравственные ценности, обычаи и традиции, формируют представления о взаимном уважении, заботе и сплочённости. Анализ этих жанров устного фольклора позволяет выявить особенности национальной культуры, отношение общества к семье и её роли в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: семья, пословицы, поговорки, народная мудрость, традиции, ценности, устное творчество.

Введение. Тема семьи в пословицах и поговорках является одной из наиболее значимых и актуальных в современном гуманитарном знании. В условиях глобализации и культурных изменений особое внимание уделяется сохранению духовных и нравственных ценностей, среди которых семья занимает центральное место. Пословицы и поговорки — это уникальные носители народной мудрости, которые на протяжении веков формировали представления о роли семьи, обязанностях её членов, ценности родственных связей и взаимопомощи.

Актуальность исследования обусловлена тем, что в современном обществе наблюдаются трансформации семейных отношений, ослабление традиционных связей и духовных устоев. В этих условиях обращение к пословицам и поговоркам позволяет не только выявить культурно-историческое наследие народа, но и подчеркнуть непреходящее значение семьи как основы социальной стабильности и воспитания подрастающего поколения.

Анализ темы семьи в пословицах и поговорках помогает глубже понять национальную идентичность, моральные ориентиры и этнокультурные особенности общества.

Анализ литературы. Вопросы изучения семейных ценностей, отражённых в пословицах и поговорках, нашли широкое освещение в трудах как зарубежных, так и отечественных исследователей. В российской и мировой науке данная тема рассматривается в контексте фольклористики, этнографии, культурологии и педагогики (А.Н. Афанасьев, В.П. Аникин, С.М. Толстая и др.). Эти авторы подчеркивают, что пословицы и поговорки не только фиксируют традиции, но и выполняют важную воспитательную функцию, передавая будущим поколениям нормы поведения и представления о морали.

Особое внимание вопросам семьи в народной педагогике уделяется в исследованиях узбекских учёных. Так, Г.Р. Акрамова в своих работах отмечает, что семейная тематика в пословицах играет ключевую роль в формировании нравственных ориентиров и воспитании молодёжи. Ш. Шарипов и Н. Ходжаева рассматривают семью как фундамент национальной педагогики, подчёркивая её значение в сохранении духовного наследия. О. Икрамов и Ф. Абдурахмонов анализируют пословицы и поговорки в сопоставительном аспекте, выделяя универсальные и национально-специфические черты представлений о семье.

Кроме того, в исследованиях узбекских фольклористов (Х. Зарифов, Т. Мирзаев, М. Содиқова и др.) подчеркивается, что семейная проблематика тесно связана с такими ценностями, как уважение к родителям, взаимопомощь, коллективизм и духовное единство. Эти ученые отмечают, что именно в пословицах и поговорках наиболее ярко отражается народная мудрость, аккумулирующая многовековой опыт народа в вопросах брака, воспитания детей и укрепления родственных.

Анализ литературы показывает, что семья в пословицах и поговорках рассматривается как важнейший объект исследования в педагогике, культурологии и фольклористике. Узбекские учёные вносят значительный вклад в изучение данной темы, акцентируя внимание на её национальных и воспитательных аспектах.

Анализ пословиц и поговорок о семье позволяет сделать вывод, что они представляют собой своеобразный кодекс народной морали, в котором отражены вековые представления о добре и зле, правильном и неправильном, желаемом и осуждаемом. В народной мудрости семья рассматривается как основа общества, источник духовной силы и нравственной устойчивости человека.

Анализ пословиц и поговорок о семье

Пословицы и поговорки, связанные с семьёй, отражают систему ценностей и моральные ориентиры народа. Они выполняют несколько функций: воспитательную, нормативную, дидактическую и культурно-идентификационную.

1. О браке и супружеских отношениях. Многие пословицы подчёркивают важность взаимного уважения и согласия между супругами:

«Мир в семье — богатство в доме».

«Жена без мужа — что гусь без воды».

Они закрепляют нормы супружеской верности, взаимопонимания и сотрудничества.

2. О родительских обязанностях. Отдельная группа пословиц обращена к роли родителей в воспитании детей:

«Что посеешь, то и пожнёшь».

«Яблоко от яблони недалеко падает».

Здесь акцентируется ответственность родителей за формирование личности ребёнка и преемственность поколений.

3. О детях как богатстве семьи. Дети рассматриваются как продолжение рода и радость для родителей:

«Дети — цветы жизни».

«Где дети, там и радость». Эти пословицы отражают ценность детства и значимость заботы о потомстве.

4. О единстве и сплочённости семьи. Народная мудрость учит, что только в согласии и поддержке заключается сила семьи:

«Вместе и горы сдвинем».

«Родная семья — крепкая стена». Они формируют представление о семье как о главной опоре человека.

5. Об уважении к старшим. Особое место занимает идея почитания родителей и старших поколений:

«Кто родителей почитает, тот век свой продлевает».

«Без старших нет порядка в семье». Эти выражения подчеркивают нравственный долг детей перед родителями.

Анализ показывает, что пословицы и поговорки о семье не только отражают культурно-исторический опыт народа, но и выполняют воспитательную миссию, сохраняя устойчивые моральные ориентиры в условиях изменяющегося общества.

Пословицы и поговорки, посвящённые теме семьи, выполняют несколько функций. Во-первых, они закрепляют и передают из поколения в поколение устоявшиеся нормы и традиции. Во-вторых, они служат важным воспитательным средством, формируя у молодого поколения чувство ответственности, уважение к родителям и заботу о близких. В-третьих, они выполняют культурно-идентификационную функцию, так как именно через пословицы сохраняется национальный характер и особенности мировоззрения народа.

Следует отметить, что в условиях глобализации значение пословиц и поговорок возрастает, так как они помогают сохранить национальную идентичность и духовные

ориентиры. Современные исследования показывают, что в педагогической практике использование фольклорных материалов, особенно связанных с темой семьи, способствует формированию ценностных установок у учащихся, повышает их интерес к традициям и культурному наследию.

Семейная тематика в пословицах и поговорках не только отражает исторический опыт народа, но и остаётся актуальной для современного общества, играя важную роль в воспитании, образовании и культурной преемственности.

Проведённый анализ показал, что пословицы и поговорки о семье являются ценным источником народной мудрости, в котором аккумулирован вековой опыт и мировоззрение народа. В них ярко отражены такие ценности, как любовь и уважение между супругами, ответственность родителей за воспитание детей, почитание старших, необходимость сплочённости и взаимопомощи внутри семьи.

Пословицы и поговорки выполняют важные функции: они закрепляют нравственные нормы, передают традиции из поколения в поколение, воспитывают молодёжь в духе уважения к семейным устоям и национальной культуре. Семейная тематика в устном народном творчестве актуальна и сегодня, так как в условиях глобализации именно она способствует сохранению духовного наследия, укреплению нравственных ориентиров и воспитанию гармонично развитой личности.

Таким образом, пословицы и поговорки о семье не только отражают историко-культурный опыт народа, но и служат действенным педагогическим инструментом, сохраняющим преемственность поколений и укрепляющим социальные и духовные устои общества.

Список литературы

1. Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу. – М.: Индрик, 1995.
2. Аникин В.П. Русские пословицы и поговорки. – М.: Художественная литература, 1988.
3. Толстая С.М. Пословица как текст культуры. – М.: Наука, 2005.
4. Зарифов Х. Узбекский фольклор. – Ташкент: Фан, 1972.
5. Мирзаев Т. Пословицы и поговорки узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1981.
6. Содикова М. Семья и семейные ценности в узбекской народной педагогике. – Ташкент: Учитель, 2004.
7. Акрамова Г.Р. Народная педагогика и её роль в воспитании молодёжи. – Бухара: БухДУ, 2019.
8. Шарипов Ш. Семейные ценности в устном народном творчестве. – Ташкент: Фан ва технология, 2017.
9. Ходжаева Н. Традиции и воспитательная роль семьи в узбекской педагогике. – Ташкент: Наврўз, 2020.
10. Абдурахмонов Ф. Пословицы и поговорки как средство формирования национального самосознания. – Ташкент: Фан, 2015.
11. Икрамов О. Фольклор и этнопедагогика. – Ташкент: Университет, 2012.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

YUQUMLI KASALLIKLAR FANIDA ACL (ACTIVITY-COMPETENCE-LEARNING) MODELI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI TAHLILI

Abdukodirov Sherzodjon Taxirovich

Andijon davlat tibbiyot instituti, Yuqumli kasalliklar kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun ACL (Activity-Competence-Learning) modelining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonning uchta tibbiyot oliy o'quv yurtidan 432 nafar talaba ishtirok etgan kvazi-eksperimental tadqiqot metodologiyasi qo'llanilgan. Tajriba guruhida ACL modeliga asoslangan faol o'qitish usullari (klinik keyslar, simulyatsiyalar), nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ACL modeli an'anaviy yondashuvga nisbatan 13,6% yuqori samaradorlikka ega bo'lib, talabalarning ayniqsa klinik, kommunikativ va kognitiv-funksional ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilagan. Ushbu tadqiqot O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimida amaliyotga tayyor shifokorlarni shakllantirish uchun ACL modelining empirik asoslangan afzalliklarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: ACL modeli, kasbiy kompetentlik, yuqumli kasalliklar, tibbiy ta'lim, statistik tahlil, tajriba-sinov, klinik tafakkur, faol ta'lim, simulyatsion o'qitish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

АНАЛИЗ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ ACL (ACTIVITY-COMPETENCE-LEARNING) ПО ИНФЕКЦИОННЫМ ЗАБОЛЕВАНИЯМ

Абдукодиров Шерзоджон Тахирович

Ассистент кафедры инфекционных болезней Андиганского государственного медицинского института

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность модели ACL (Activity-Competence-Learning) для развития профессиональной компетентности студентов при изучении инфекционных болезней. В исследовании использована квазиэкспериментальная методология с участием 432 студентов из трех медицинских вузов Узбекистана. В экспериментальной группе применялись активные методы обучения на основе модели ACL (клинические кейсы, симуляции), а в контрольной группе — традиционные методы обучения. Результаты показали, что модель ACL на 13,6% эффективнее традиционного подхода и значительно улучшает клинические, коммуникативные и когнитивно-функциональные навыки студентов. Исследование предоставляет эмпирически обоснованные доказательства преимуществ модели ACL для подготовки практически-ориентированных врачей в системе медицинского образования Узбекистана.

Ключевые слова: модель ACL, профессиональная компетентность, инфекционные заболевания, медицинское образование, статистический анализ, экспериментальное тестирование, клиническое мышление, активное обучение, симуляционное обучение, компетентностный подход.

ANALYSIS OF EXPERIMENTAL WORK AIMED AT DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON THE ACL (ACTIVITY-COMPETENCE-LEARNING) MODEL IN INFECTIOUS DISEASES

Abdukodirov Sherzodjon Takhirovich

Assistant, Department of Infectious Diseases, Andijan State Medical Institute

Abstract. This article analyzes the effectiveness of the ACL (Activity-Competence-Learning) model for developing the professional competence of students in the subject of infectious diseases. The study employed a quasi-experimental methodology involving 432 students from three medical universities in Uzbekistan. The experimental group used active teaching methods based on the ACL model (clinical cases, simulations), while the control group used traditional teaching methods. The results showed that the ACL model was 13.6% more effective than the traditional approach, significantly improving students' clinical, communicative, and cognitive-functional skills. This study provides empirically validated evidence of the advantages of the ACL model for training practice-ready physicians within the medical education system of Uzbekistan.

Keywords: ACL model, professional competence, infectious diseases, medical education, statistical analysis, experimental testing, clinical thinking, active learning, simulation-based learning, competency-based approach.

KIRISH. Jahon sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan global muammolar, jumladan, yangi va qayta paydo bo'layotgan yuqumli kasalliklar xavfi tibbiy ta'lim tizimini doimiy takomillashtirishni talab etadi. Shifokorlardan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki real klinik vaziyatlarda tezkor, aniq va asosli qaror qabul qilish, bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish hamda jamoada ishlash kabi amaliy ko'nikmalar ham talab qilinadi. An'anaviy ta'lim modellari ko'pincha nazariy bilimlarni berishga qaratilgan bo'lib, talabalarda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda kamchiliklarga ega. Bu esa nazariya va amaliyot o'rtasida uzilishga olib keladi, natijada bitiruvchilar haqiqiy klinik faoliyatga to'liq tayyor bo'lmasligi mumkin.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat rahbariyatining ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi islohotlarga oid farmon va qarorlarida zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi alohida ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, tibbiy ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu muammoni hal etishning istiqbolli yo'llaridan biri ACL (Activity-Competence-Learning) modelini joriy etishdir. Bu model o'quv jarayonini talabning faol ishtiroki (Activity), amaliyotda qo'llay oladigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish (Competence) va o'zlashtirish natijalarini doimiy baholab borishga (Learning) asoslanadi. Ushbu yondashuv talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ularning klinik tafakkuri, muammoni hal qilish va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda ACL modeliga asoslangan o'quv jarayonining samaradorligini ilmiy jihatdan baholash va statistik tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) Tajriba guruhi uchun ACL modeliga asoslangan o'quv dasturini ishlab chiqish va joriy etish; 2) Tajriba va nazorat guruhlari talabalarida kasbiy kompetensiyalarning shakllanish darajasini qiyosiy o'lchash; 3) ACL modelining samaradorligi bo'yicha empirik ma'lumotlarni taqdim etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So'nggi yillarda butun dunyoda tibbiy ta'lim an'anaviy, bilimga yo'naltirilgan modeldan kompetensiyaga asoslangan tibbiy ta'lim (Competency-Based Medical Education - CBME) modeliga o'tmoqda. R.M. Harden (2022) ta'kidlaganidek, CBME ning asosiy maqsadi o'quv dasturini o'tishga sarflangan vaqtga emas, balki talabning amaliyotda namoyon eta oladigan aniq natijalari va kompetensiyalariga qaratilgan. Bu yondashuv bitiruvchilarning real kasbiy faoliyat talablariga javob berishini ta'minlashga qaratilgan. R.M. Epstein va E.M. Hundert (2021) ham klinik kompetensiyani baholash nafaqat bilimlarni, balki ko'nikmalar, munosabatlar va professional xulq-atvorni o'z ichiga olgan kompleks jarayon bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Kompetensiyalarni samarali shakllantirishning asosiy sharti – bu faol o'qitish metodlaridan foydalanishdir. J. Biggs va C. Tang (2021) o'z asarlarida talabalar shunchaki ma'lumotni qabul qilib olmasdan, balki uni tahlil qilish, qo'llash va yangi bilim yaratish jarayonlarida faol ishtirok etgandagina chuqur o'rganish yuz berishini ko'rsatib bergan. C. Wong va S. Patel (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham klinik ta'limda faoliyatga asoslangan o'qitish (activity-driven learning) talabalarning muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

ACL modeli aynan shu tamoyillarni o'zida mujassam etgan integrativ yondashuvdir. Uning «Activity» komponenti faol o'qitish nazariyasiga, «Competence» komponenti esa CBME g'oyalari asoslanadi. Bu model shunchaki turli usullarning yig'indisi emas, balki talabning o'quv faoliyatidan aniq kasbiy malakaga o'tishini ta'minlovchi tizimli va bosqichma-bosqich jarayondir.

Yuqumli kasalliklar kabi yuqori mas'uliyat talab qiladigan sohalarida simulyatsion va tajribaga asoslangan o'qitish alohida ahamiyatga ega. T. Müller va J. Bauer (2022) simulyatsiyaga asoslangan ta'lim talabalarga real bemorlar uchun xavf tug'dirmagan holda klinik qarorlar qabul qilish, diagnostika va davolash algoritmlarini qo'llash hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini mashq qilish uchun noyob imkoniyat yaratishini ta'kidlaydilar. S. Yardley va P.W. Teunissen (2021) ham tibbiy ta'limda tajribaviy o'rganish (experiential learning) nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishning eng samarali usuli ekanligini qayd etishgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaga asoslangan va faol o'qitish modellari xalqaro miqyosda keng e'tirof etilgan. Biroq, O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimi sharoitida, ayniqsa yuqumli kasalliklar fani doirasida, ACL kabi maxsus modellarning samaradorligini tasdiqlovchi miqdoriy, statistik asoslangan tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni ACL modelining mahalliy sharoitda qo'llanilishining amaliy natijalarini ilmiy asoslab berishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqot pedagogik eksperiment shaklida, kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda tasodifiy bo'lmagan nazorat guruhi qo'llanildi.

Tadqiqot davri va o'tkazilish joyi: Tajriba-sinov ishlari 2021-2024 o'quv yillari davomida to'rt semestr mobaynida O'zbekistonning uchta yetakchi tibbiyot oliy ta'lim muassasasida olib borildi: Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti va Buxoro davlat tibbiyot instituti. Bir nechta muassasaning jalb qilinishi tadqiqot natijalarining ishonchligi va umumlashtirilishi mumkin bo'lgan darajasini (generalizatsiya) oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishtirokchilari: Tadqiqotga jami 432 nafar tibbiyot yo'nalishi talabalari jalb qilindi. Ular ikkita guruhga ajratildi: tajriba guruhi (n=217) va nazorat guruhi (n=215). Ishtirokchilarning guruhlar va oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tadqiqot ishtirokchilarining oliy ta'lim muassasalari va guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Oliy ta'lim muassasalari	Umumiy talabalar soni	Tajriba guruhi talabalari soni	Nazorat guruhi talabalari soni
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	155	78	77
Andijon davlat tibbiyot instituti	145	73	72
Buxoro davlat tibbiyot instituti	132	66	66
Jami	432	217	215

Tajriba guruhi (n=217): Yuqumli kasalliklar fani ACL modeliga asoslangan o'quv dasturi bo'yicha o'qitildi. Mashg'ulotlar interaktiv usullarni o'z ichiga oldi: real klinik holatlarga asoslangan keys-stadilar, simulyatsion markazlarda amaliy ko'nikmalarni bajarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy muhokamalar va o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilishga qaratilgan reflektiv sessiyalar.

Nazorat guruhi (n=215): Ushbu guruhda darslar an'anaviy pedagogik usullar (ma'ruzalar, standart seminar mashg'ulotlari, og'zaki so'rovlar) yordamida olib borildi.

Ma'lumotlarni to'plash va baholash vositalari: Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kompetentlik darajasi 100 ballik reyting tizimi asosida baholandi. O'zlashtirish uchun minimal chegara 55 ball etib belgilandi. Kompetentlik darajasi beshta asosiy mezon bo'yicha baholandi: motivatsion, kognitiv-funksional, klinik, kasbiy-kommunikativ va reflektiv.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: To'plangan miqdoriy ma'lumotlar matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlandi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun Studentning t-mezone va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun Pirsonning korrelyatsiya metodi kabi inferensial statistika usullaridan foydalanildi. Shuningdek, o'rtacha qiymatlar, dispersiya va variatsiya koeffitsiyentlari kabi deskriptiv statistika ko'rsatkichlari hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot natijalari talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ACL modelining an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Bu bo'limda tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlar sharhlarsiz, obyektiv tarzda taqdim etiladi.

Boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlar tahlili: Tajriba-sinov ishlarining boshida (TB) tajriba va nazorat guruhlar talabalarining barcha beshta kompetentlik mezone bo'yicha ko'rsatkichlari

deyarli bir xil darajada bo'lgan va ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmagan. Bu holat ikkala guruhning boshlang'ich sharoitlari teng ekanligini tasdiqlaydi. Tajriba yakunida (TYa) esa guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar yuzaga keldi (2-jadval).

2-jadval. Tajriba boshida (TB) va yakunida (TYa) kompetentlik mezonlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar (yuqori baholangan talabalar soni)

Mezonlar	Tajriba sinfi (217 nafar respondent)						Nazorat sinfi (215 nafar respondent)					
	yuqori		o'rtacha		past		yuqori		o'rtacha		past	
	TB	TYa	TB	TYa	TB	TYa	TB	TYa	TB	TYa	TB	TYa
Motivatsion	50	97	73	73	94	47	45	52	74	75	96	88
Kognitiv-funksional	48	98	75	69	94	50	47	50	70	79	98	86
Klinik	47	99	77	71	93	47	49	48	71	76	95	91
Kasbiy kommunikativ	51	100	71	70	95	47	46	51	73	78	96	86
Refleksiv	49	96	74	72	94	49	48	49	72	77	95	89
Umumiy o'rtacha	49	98	74	71	94	48	47	50	72	77	96	88

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba yakunida ACL modeli bo'yicha o'qitilgan guruhda «yuqori» darajaga erishgan talabalar soni keskin oshgan. Ayniqsa, «Klinik» kompetentlik bo'yicha yuqori baholanganlar soni 47 dan 99 gacha (+52), «Kasbiy kommunikativ» kompetentlik bo'yicha esa 51 dan 100 gacha (+49) o'sgan. Nazorat guruhida esa bu o'sish deyarli kuzatilmagan yoki juda past bo'lgan.

Guruhlarning yakuniy umumiy o'zlashtirish darajalari: Tadqiqot yakunida talabalarining umumiy kompetentlik darajasi «yuqori», «o'rta» va «past» darajalarga ajratilib, umumlashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan qariyb ikki baravar ko'p bo'ldi.

3-jadval. Tajriba yakunida guruhlarning umumiy o'zlashtirish darajalari (son va foizda)

Guruhlar	Jami talabalar	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	217	98 (45%)	71 (33%)	48 (22%)
Nazorat guruhi	215	50 (23%)	77 (36%)	88 (41%)

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi talabalarining 45%i kasbiy kompetentlikning

yuqori darajasiga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 23%ni tashkil etdi. Aksincha, past darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 22% bo'lgani holda, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 41%ga yetgan.

4-jadval. Tadqiqot ishtirokchilarining oliy ta'lim muassasalari bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy solishtirma jadvali.

Tajriba guruhi	Tadqiqot obyektlari	yuqori	o'rta	past	Jami
	FJSTI	36	25	17	78
	ADTI	33	24	16	73
	BDTI	29	22	15	66
	Jami	98	71	48	217
Nazorat guruhi	Tadqiqot obyektlari	yuqori	o'rta	past	Jami
	FJSTI	18	27	32	77
	ADTI	17	26	29	72
	BDTI	15	24	27	66
	Jami	50	77	88	215

Statistik tahlillar natijasida tajriba guruhidagi o'zlashtirish samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan 13,6%ga yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich ACL modelining amaliy samaradorligini miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari ACL modelining bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim usullariga qaraganda ancha samarali ekanligini isbotladi. Ushbu bo'limda olingan natijalarning sabablari, nazariy va amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

Natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ACL modelining eng katta ustunligi uning amaliy yo'naltirilganligidir. Tajriba guruhida «Klinik» va «Kasbiy kommunikativ» kompetensiyalar bo'yicha kuzatilgan keskin o'sish bevosita o'quv jarayonida qo'llanilgan simulyatsion mashg'ulotlar, klinik keyslarni tahlil qilish va rolli o'yinlar bilan bog'liq. An'anaviy ma'ruzalarda talabalar asosan nazariy ma'lumotlarni yod oladilar, biroq ACL modeli ularni bilimlarini real vaziyatlarga tatbiq etishga, bemor bilan muloqotni mashq qilishga va diagnostik algoritmlarni amalda sinab ko'rishga majbur qiladi. Bu jarayon, T. Müller va J. Bauer (2022) ta'kidlaganidek, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish uchun zarur bo'lgan xavfsiz va samarali muhitni yaratadi.

Ushbu tadqiqot natijalari xalqaro miqyosdagi ilg'or pedagogik nazariyalarni amalda tasdiqlaydi. Tadqiqotda kuzatilgan samaradorlik R.M. Harden (2022) tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy tamoyillariga mos keladi, ya'ni ta'limning asosiy diqqat-e'tibori o'quv rejasini bajarishga emas, balki talabaning erishgan amaliy natijalariga qaratilishi kerak. Shuningdek, natijalar J. Biggs va C. Tang (2021) asarlarida bayon qilingan faol o'rganish nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi: talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga

aylangandagina chuqur va mustahkam bilimga ega bo'ladi.

Tadqiqotning uchta yirik tibbiyot institutida o'tkazilgani uning natijalariga alohida salmoq bag'ishlaydi. Farg'ona, Andijon va Buxoroda olingan ijobiy natijalarning o'xshashligi shuni ko'rsatadiki, ACL modelining muvaffaqiyati faqat bitta muassasaning o'ziga xos sharoitlari (masalan, ma'lum bir o'qituvchining mahorati yoki talabalarning yuqori darajasi) bilan bog'liq emas. Bu holat modelning O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimi uchun umumlashtirilishi mumkin bo'lgan, keng miqyosda joriy etishga yaroqli va ishonchli yondashuv ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlarini tan olish lozim. Tadqiqotda kvazi-eksperimental dizayn qo'llanilganligi sababli, guruhlariga ajratishda tasodifiy tanlash usulidan foydalanilmadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda natijalarning ishonchliligini yanada oshirish uchun randomizatsiyalangan nazorat ostidagi sinov (Randomized Controlled Trial) metodini qo'llash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot qisqa muddatli kompetensiyalarni baholadi. Kelajakda ACL modeli asosida o'qigan talabalarning bitiruvdan keyingi klinik faoliyatdagi uzoq muddatli ko'rsatkichlarini o'rganuvchi longityud tadqiqotlar o'tkazish muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning statistik tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. ACL (Activity-Competence-Learning) modeli yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning yuqori samarali pedagogik strategiyasi ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

2. ACL modelining samaradorligi statistik jihatdan tasdiqlanib, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan 13,6% yuqori natija ko'rsatdi. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatlidir.

3. Model ayniqsa talabalarning amaliy ko'nikmalarini – klinik tafakkur, diagnostik qarorlar qabul qilish va kasbiy muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda, tibbiy ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Yuqumli kasalliklar fani va boshqa klinik fanlarning o'quv dasturlariga ACL modelining asosiy tamoyillarini (faol, keys-stadi va simulyatsiyaga asoslangan o'qitish) integratsiya qilish tavsiya etiladi.

O'qituvchilarning rolini an'anaviy ma'ruzachidan talabalarning o'quv jarayonini yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi fasilator (mentor)ga o'zgartirish maqsadida professor-o'qituvchilar uchun ACL modeliga asoslangan mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim.

Faol o'qitishni qo'llab-quvvatlovchi moddiy-texnik bazani, jumladan, zamonaviy simulyatsion markazlar, virtual bemorlar dasturlari va raqamli klinik keyslar kutubxonalarini yaratish va rivojlantirishga sarmoya kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaga asoslangan, faol o'qitish modellarini joriy etish – bu XXI asrning sog'liqni saqlash sohasidagi murakkab vazifalarini hal qila oladigan yangi avlod shifokorlarini tayyorlashning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07/20/4666/0400-son.

2. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University (monograph). London: McGraw-Hill, 2021. 310 p.

3. Harden R.M. Outcome-based education in medical training (article). Med Teach, 2022. Vol. 44(4). P. 345–353.

4. Schmid G.M., Nagel F. Competency-oriented approaches in infectious disease teaching (article). *Med Educ*, 2021. Vol. 55(9). P. 890–899.
5. Müller T., Bauer J. Simulation-based learning in infectious diseases (monograph). Heidelberg: Springer, 2022. 215 p.
6. Wong C., Patel S. Activity-driven learning in clinical education (article). *BMC Med Educ*, 2022. Vol. 22(8). P. 1023–1034.
7. Epstein R.M., Hundert E.M. Assessment of clinical competence (article). *JAMA*, 2021. Vol. 326(12). P. 1127–1136.
8. Yardley S., Teunissen P.W. Experiential learning in medical education (article). *Med Teach*, 2021. Vol. 43(5). P. 465–473.
9. Reuter H., Schmidt H.G. Statistical analysis in medical education research (monograph). Munich: LMU Press, 2020. 198 p.
10. Frank J.R., Mungroo R., Ahmad Y., et al. Toward a definition of competency-based education in medicine: a systematic review of published definitions. *Med Teach*, 2010. Vol. 32(8). P. 631-637.
11. Irby D.M., Cooke M., O'Brien B.C. Calls for reform of medical education by the Carnegie Foundation for the Advancement of Teaching: 1910 and 2010. *Acad Med*, 2010. Vol. 85(2). P. 220-227.

KIMYO FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING O'RNI

Alimova Farzona Abdukamalovna

*DSc, professor, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
«Kimyo va uni o'qitish metodikasi» kafedrasida*

Mirzayeva Shirin Mumin qizi

“HKIS international school” kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarda kimyo fanini o'qitishda metakognitiv strategiyalarning samarasi o'rganilgan bo'lib, o'qituvchilarga o'quvchilardagi o'z fikrlash jarayonini anglash va mustaqil o'rganish qobiliyatini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Maqola metakognitiv strategiyalarni qo'llash orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Turli mamlakatlardagi tajribalar, statistik ma'lumotlar asosida o'quvchilarda metakognitiv yondashuvlarning samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metakognisiya, metakognitiv strategiya, texnologiya, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, rivojlanish, ta'lim sifati, ijodiy yondashuv, kasbiy kompetensiya, ilmiy savodxonlik

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность метакогнитивных стратегий в преподавании химии в общеобразовательных школах, помогающих учителям более эффективно организовывать способность учащихся к пониманию собственных мыслительных процессов и самостоятельному обучению. В статье анализируется процесс развития навыков критического мышления посредством использования метакогнитивных стратегий с теоретической и практической точки зрения. На основе опыта и статистических данных разных стран продемонстрирована эффективность метакогнитивных подходов в обучении учащихся.

Ключевые слова: метакогниция, метакогнитивная стратегия, технология, критическое мышление, сотрудничество, развитие, качество образования, творческий подход, профессиональная компетентность, научная грамотность

Abstract: The effectiveness of metacognitive strategies in teaching chemistry at vocational secondary schools, helping teachers better organize students' ability to understand their own thought processes and learn independently. The article analyzes the process of developing critical thinking skills through the use of metacognitive strategies from both theoretical and practical perspectives. Based on experience and statistical data from various countries, the effectiveness of metacognitive approaches in student learning is demonstrated.

Keywords: metacognition, metacognitive strategy, technology, critical thinking, collaboration, development, quality of education, creative approach, professional competence, scientific literacy

Kirish. Hozirgi zamonaviy ta'limda o'z-o'zini rivojlantiradigan o'quvchilar bo'lishiga o'rgatish ehtiyoji butun dunyo bo'ylab muhim masala bo'lib qolmoqda. Zamonaviy o'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini yaxshi boshqaruvchi sifatida o'rgatilishi kerak. Bizning pedagogik faoliyatimiz o'quvchilarga o'z o'qishlarini samarali boshqarish imkonini beradigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. O'quvchilar o'zining o'quv faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Masalan, fanga yoki mavzuning bir bo'lagiga qanday yondashishni rejalashtirish, o'z jarayonini nazorat qilish, shuningdek, o'quv tajribasidan keyin o'zgarishlar qilish uchun zarur qadamlarni qo'yish kabi jarayonlar o'quvchilar faoliyatida namoyon bo'lishi kerak. Amalda esa, darslar o'qituvchilar tomonidan rejalashtirish, nazorat qilish va baholash faoliyatlarini olib borishni talab qiladi, bu esa o'quvchilar muvaffaqiyatini ta'minlash uchun muhimdir. O'quvchilar bu vazifalarni bajarganda

muvaffaqiyat darajasi oshishi ehtimoldan holi emas. Tadqiqotlarga ko‘ra, har bir o‘quvchi to‘g‘ri tayyorgarlik va fikr-mulohazalar bilan dars mavzularini tushunishga harakat qiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan fikrlash ustida ishlashga - metakognitsiyaga bog‘liq. Metakognitsiya — bu o‘zingizning fikrlash jarayonlaringiz haqidagi fikrlarni anglash yoki kognitiv psixologlar tomonidan ikkinchi darajali fikrlash deb ataladigan jarayonlarni anglatadi. O‘z fikrlash jarayonlarini maqsadli tarzda o‘ylash yoki hayotdagi turli voqealar va harakatlarni tahlil qilish va ularning natijalari haqidagi fikrlar metakognitiv bo‘lishning bir necha misolidir. Yaqinda esa, bu tushuncha afektiv sohalardagi o‘zgarishlar va o‘quvchilarning ongli va maqsadli tarzda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlariga ham moslashtirilmoqda (Louca, 2008). Butun dunyo bo‘ylab o‘tkazilgan tadqiqotlar metakognitsiyaning turli fan sohalarida o‘rganishni rivojlantirishdagi ta‘sirini tasdiqladi (Pulmones, 2002; Lin va boshqalar, 2005; Cooper, 2009; Chalmers, 2009; Chalmers va Nason, 2003; Tanner, 2012). Sinf muhitida o‘qituvchilar O‘quvchilarga o‘qish jarayonlari haqidagi fikrlarini so‘rash va ular nimani amalda qo‘llashlarini tahlil qilish orqali metakognitsiyani rivojlantirishlariga yordam berishlari mumkin (Anderson va boshqalar, 2010). Bu borada, Kornford (2012) ta‘kidlaydiki, sinfdagi o‘quv faoliyatlari O‘quvchilarni refleksiv o‘quvchilarga aylantirishga majbur qiladigan faoliyatlarni o‘z ichiga olishi lozim. Buning uchun, insonlarning zaiflik va kuchli tomonlarini baholash hamda shundan dars olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Aslida, Pulmones (2015) shunday natijaga kelishicha, O‘quvchilar bunday faoliyatlarga duch kelganda, ular undan nafaqat zavqlanadilar, balki mazmunan samaradorliklari va metakognitiv ko‘nikmalari jihatidan ham rivojlanish ko‘rsatadilar.

Yaqin zamonda olib borilgan tadqiqotlar, metakognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan faoliyatlarni oliy ta‘lim muassasalaridagi turli kurslarga qanday integratsiya qilish mumkinligi haqida o‘rganishni davom ettirmoqda. Masalan: “Kollej Biologiya Kursida O‘quvchilarning Metakognitsiyasini Rivojlantirish” (Tanner, 2012); kimyo topshiriqlarida metakognitiv qopqog‘larning foydalanilishi, (Lovett, 2008); “Metakognitiv Faoliyatlarni Loyihalash” (2001); “Metakognitiv muhitda Kimyo O‘qitish” (Pulmones, 2007). Ularning topilmalariga ko‘ra, bu faoliyatlarning o‘quv jarayonining kognitiv va affektiv jihatlarini rivojlantirishda samaradorligi yuqori bo‘lishi mumkin. Hayot sharoitida mos keladigan ikki asosiy konstruktsiya bor — bu munosabatlar va motivatsiya. Bu ikki affektiv komponent o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga ta‘sir qiluvchi muhim omillardir (Sirhan, 2007). Ushbu o‘zgaruvchilar aslida o‘zaro bog‘liq. O‘quvga ijobiy munosabatga ega bo‘lgan inson odatda motivatsiyaga ega bo‘lishi va shuning uchun turli o‘quv vazifalarida ko‘proq harakat qilishga tayyor bo‘ladi. Aslida, o‘z-o‘zini rivojlantiradigan o‘quvchilar juda yaxshi natijalar ko‘rsatadilar (Nbina, J. B., & Viko, B., 2010). Ushbu pedagogik yondashuvdagi yangi kelib chiqayotgan yutuqlar, ayniqsa, umumiy ta‘lim kurslari, xususan, kimyo kabi konseptual fanlar uchun juda foydali bo‘lishi mumkin. Kimyo – tabiiy fanlarning bir yo‘nalishi bo‘lib, uning texnologik taraqqiyotda o‘rni beqiyos. Bu boshqa fanlar, masalan, biologiya, fizika, ovqatlanish, sog‘liq va boshqa sohalarga ham ta‘sir qilayotganligi uchun, ko‘pincha “markaziy fan” sifatida qaraladi. Ammo, global miqyosda, kimyo ta‘limi fan sifatida dunyo bo‘ylab susayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu haqda Price va Hill (2004) o‘zlarining kimyo ta‘limi bo‘yicha o‘tkazgan tahlilida Yaponiyada, Avstraliyada, AQShda va Angliyada xavfli yo‘nalishlar paydo bo‘layotgani haqida xabar berganlar. Kimyo ko‘pincha qiyin fan sifatida qabul qilinadi — bu, o‘quvchilarning o‘rta va yuqori ta‘lim muassasalarida umumiy fikridir. Bu, ayniqsa, ilmiy fanlar bilan shug‘ullanishi o‘ziga xos bo‘lmagan o‘quvchilarda, guvohlik beradiki, ularga faqat bitiruv uchun zarur bo‘lgani uchun kursga qatnashadilar (Breuer, 2002).

O‘quvchilarga metodik fikrlash va fikr-mulohaza qilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan faoliyatlarni maqsadli ravishda kiritish va ularni ta‘lim jarayonida kuchaytirish zarur. Bu ikki yo‘nalishda — kimyo tushunchasini o‘rgatish va metakognitsiya (yoki metakognitiv ko‘nikma) uchun o‘qitish — muhim ahamiyatga ega.

Metakognitsiya nima? Metakognitsiya — bu o‘z fikrlash jarayonlarini o‘ylash va tushunish

qobiliyatidir. Bu, xotira, diqqat va muammo yechishda o'z fikrlash jarayonlarini tahlil qilishni, ularning qanday ishlashini va ularni qanday nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Metakognitsiya shuningdek, o'z o'qish va natijalarini nazorat qilish va baholashga ham qaratilgan bo'lib, bunda maqsadlar qo'yish, yutuqlarni baholash va o'qish strategiyalariga zarurat bo'lsa, tuzatishlar kiritish kiradi.

Aslida, metakognitsiya — bu fikrlash haqida fikrlashdir — bu bizning o'z fikrlash jarayonlarimizdan xabardor bo'lish va ularni faol ravishda boshqarish orqali o'qish va natijalarni yaxshilash uchun amalga oshiriladi. Metakognitiv strategiyalar o'rgatilishi va amalda bo'lishi mumkin, va ko'pincha ta'lim muhitida o'quvchilarning yanada samarali o'quvchi bo'lishlariga yordam berish uchun foydalaniladi.

Metakognitiv fikrlashni rivojlantirishning bir yo'li – o'quvchilarga o'z o'qishlari va rivojlanishlarini namoyish etadigan prezentatsiyalar yaratishni tavsiya qilishdir. O'z ishlarini tahlil qilish va qaysi ishlarni qo'shishni tanlash orqali, o'quvchilar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq tushunib oladilar va kelajakdagi o'qish uchun maqsadlar qo'yishlari mumkin.

Metakognitsiyani quyidagi asosiy usullarda rivojlantirishi mumkin:

Fikr yuritish: o'quvchilarga o'zlarining o'qish va fikrlash jarayonlarini tahlil qilish uchun savollar taqdim etiladi. Ishlarini hujjatlashtirish va rivojlanish jarayonini tahlil qilish orqali, o'quvchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq tushunib oladilar, shuningdek, kelajakdagi o'qish uchun maqsadlar belgilash imkoniga ega bo'ladilar.

O'z-o'zini baholash: o'quvchilarga o'z ishlarini baholash imkoniyatini beradi. O'zlarini baholash va belgilangan kriteriyalar yoki standartlarga solishtirish orqali, o'quvchilar o'zlarining qayerda yaxshilanishi kerakligini aniqlashlari va o'zlarining o'quv uslubi va afzalliklarini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Maqsadlar qo'yish: Raqamli portfellar yordamida o'quvchilar o'zlarining o'quv maqsadlarini belgilash va kuzatib borishlari mumkin. Maqsadlarni yaratish va yangilash orqali, ular o'z o'qishlariga egalik qiladilar, rivojlanishlarini nazorat qiladilar va yutuqlarini muhokama qiladilar.

Fikrlash va fikr-mulohaza: Raqamli portfellar o'quvchilarga va o'qituvchilarga fikr-mulohaza berish va muloqot qilish imkonini ham yaratadi. O'qituvchilar portfel ichida o'quvchilarning ishlariga fikr bildirishlari, o'quvchilar esa bu fikrlar asosida ishlarini qayta ko'rib chiqishlari, yangi maqsadlar qo'yishlari yoki o'zlarining o'qish jarayonlarini tahlil qilishlari mumkin.

Umuman olganda, metakognitsiya o'quvchilarga o'z o'qishlarini tahlil qilish, o'z ishlarini baholash, maqsadlar qo'yish va kuzatib borish imkonini beradi. Raqamli vositalar va platformalardan foydalanish orqali, o'qituvchilar o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi, ishtirokchiligi va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin. Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarga o'zlarining fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradigan texnikalardir. Bu usullar o'quvchilarga maqsadli ravishda diqqatni jamlash, mavjud bilimlari bilan hozir o'rganayotgan ma'lumotlar o'rtasidagi farqni anglash, fikrlashdagi xatoliklarni tan olish va samarali o'qish uchun amaliyotlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ba'zi metakognitiv strategiyalarni amalga oshirish juda oson:

-o'quvchilardan matnni o'qishdan oldin muayyan mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarini yozib yuborishni so'rang va o'qishni tugatgach, bu fikr-mulohazalarni qayta ko'rib chiqib, ular fikrlashlariga qanday ta'sir qilganini tahlil qilishlarini so'rang muammo bilan tanishtiring va o'quvchilardan muammoni hal qilish uchun foydalanadigan strategiyalari haqida fikr almashishni tashkil qiling; so'ngra siz ham o'z strategiyangizni bilan bo'lishing, o'quvchilardan qanday qilib savolga javob topganlarini haqida fikr bildirishni so'rang. Bu metodlar o'quvchilarga o'zlarining mavjud bilimlarini o'rganishga yordam beradi. Bu usullardan foydalanish o'qishga tayyorgarlik ko'rishni yaxshilaydi va o'qish jarayonida fikrlashga va tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Metakognitiv strategiyalarga asoslarga dars mashg'uloti taxmiman quyidagicha shakllantiriladi:

-Oldindan baxolash. Darsdan oldin so'rovnomalar, uy vazifasi, dars davomida so'rovlar yoki

qisqa fikr-mulohaza yozish shaklida o'quvchilarning muayyan mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini o'rganishga harakat qiling. Mavzu ularning shaxsiy tajribasi yoki qiziqishiga qanday bog'liq ekanligini so'rash, oldindan mavjud bilimlarni anglashga va ishtirokni oshirishga yordam beradi. Fikrlarni tahlil qiling yoki sinf bilan ba'zi mavzularni bo'lishing.

Sinf bilan muhokama qiling va umumiy strategiyalar ro'yxatini tayyorlang:

- O'qishni boshlashdan oldin (sarlavha, abstrakt, bo'lim sarlavhalari, diagrammalar, savollar, muhim so'zlar, kursiv yozilgan so'zlar va boshqalar) mavzuni oldindan ko'rib chiqing.
- Matnni oldindan ko'rib chiqqaningizdan so'ng, uning qanday javoblar berishini taxmin qiladigan savollar tayyorlang.
- O'zingizda mavjud bo'lgan savollarni yozib qo'ying.
- Paragrafni o'qing, uni tarjima qiling va bu savollarga javob berish uchun tekshiring.
- Bu jarayonni butun matnga nisbatan takrorlang, shunda siz matnni yaxshi tushunasiz va savollaringizga javob olasiz.
- O'qishni yakunlagach, o'zingizni savollaringiz bo'yicha sinovdan o'tkazing.
- Nimalar tushunarsiz qolganini yozib chiqing.

Darsga tayyorgarlik

O'quvchilarga haftalik mavzuni va o'qilgan materialni oldindan ko'rib chiqishlarini so'rang. Bu uchun Canvas onlayn test, darsda so'rovlar yoki indeks kartalaridan foydalaning. Bu usul orqali ular dars maqsadlarini tushunish, qanday tayyorlanishlari va o'qiganlari haqida fikr bildirishlari mumkin. Shunday savollar bilan muroaat qilinadi:

- O'qigan matningiz yuzasidan qanday savolingiz bor?
- Sizni qiziqtirgan ma'lumotni ayting?
- Mavzu yuzasidan darsga qanday tayyorgarlik ko'rishni rajalashdirdingiz?
- Darsni tushunish uchun qanday usullar yordam beradi?

Darsning yakuni: Vazifalar bajarilganidan so'ng, o'quvchilardan o'z ishlarini tahlil qilishlarini so'rang va ularning javoblarini sinfda muhokama qilishingiz mumkin, bu esa ularning fikrlash jarayonini aniqlashga yordam beradi.

Namuna savollari:

- O'qishda sizni qiynagan ikki g'oyani tushuntiring.
- Guruh bilan ishlash sizga o'qishda yordam berdimi? Nima uchun yoki nima uchun emas?
- Nima yaxshi bilib oldingiz?
- Nima yaxshiroq bilishni hohlardingiz?
- Kelajakda mavzuni yuzasidan nima ishlar qilinishi mumkin deb o'ylaysiz?

Ushbu strategiyalar o'quvchilarga metakognitsiya haqida o'rgatish uchun juda yaxshi imkoniyatdir. Bu fikr-mulohaza qilish jarayoni yangi bilimlarni integratsiya qilishga va o'qish tajribalarini boshqarishga yordam berishini tushuntirish mumkin. Metakognitsiya, yoki «fikrlash haqida fikrlash», ilmiy savodxonlik va amaliyotlarni yaxshilashda yordam berishi mumkin. O'z-o'zini boshqaradigan o'quvchi yangi bilimlarni qabul qilish, so'rov o'tkazish, muammolarni hal qilish va o'qishini oldindan rejalashtirish imkoniyatiga ega. Kimyo ta'limida metakognitsiya bo'yicha o'rganishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularda keng ko'lamdagi metakognitiv strategiyalarni qamrab oladigan batafsil topshiriqlar mavjud emas. Biz metakognitiv usullar va kimyo tushunish darajalarining (makroskopik, mikroskopik, simbol va jarayon) konstruktini metakognitiv intervensiya uchun usul sifatida qo'llaymiz.

Ma'lumki, kimyoni o'rganish ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Kimyo o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning kimyoviy tafakkurini rivojlantirishga yordam berish va shu bilan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam berishdir. Ta'limning yangi standartlari O'quvchilarni fundamental kimyoviy tushunchalarni turli holatlarda tushunish va qo'llashga, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etishga yo'naltirish muhimligini ta'kidlaydi. Bunday faoliyat nafaqat kimyo mutaxassisliklari uchun, balki kimyo asosiy fan bo'lmagan o'quvchilar

uchun ham muhim sanaladi. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'quvchining o'quv jarayonidagi muvaffaqiyati ularning ilgari orttirgan tajriba va bilimlariga bog'liq. O'qishdan oldin shakllangan bilimlar o'quvchilarga metakognitiv bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlarni o'rganish va integratsiyalash uchun tegishli kontekst yaratadi [2–4].

Metakognitsiya — bu o'zining aqliy faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash uchun mos bo'lgan ilgari egallangan bilimlardan foydalana olish qobiliyatidir [2]. Metakognitsiya 1970-yillardan boshlab psixologik konstrukt sifatida keng o'rganib kelinmoqda, biroq aynan so'nggi ikki o'n yillikda kimyo ta'limi kontekstida unga bo'lgan ilmiy qiziqish kuchaydi [3]. Metakognitsiya o'quvchilarning tafakkuri va o'qishdagi natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil ta'lim nafaqat o'qish jarayonida, balki kundalik hayotda ham o'z-o'zini nazorat qilish va taraqqiyotga olib keladi [2,4]. Metakognitiv jarayonlar o'qitish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ilmiy-metodik asosda ta'lim faoliyatini tashkil etish talab etiladi. Shuningdek, metakognitiv asosda dars olib boruvchi o'qituvchida tashkiliy va boshqaruv ko'nikmalari bo'lishi zarur [1]. Biz tomonidan kimyo fanidan metakognitiv ta'lim uchun mo'ljallangan quyidagi ilmiy-metodik va o'quv-metodik vositalar to'plami taklif etilgan:

- diagnostik so'rovnomalar;
- ilmiy matn parchalari;
- strukturaviy-mantiqiy sxemalar;
- bosma asosdagi ish daftari;
- didaktik topshiriqli kartochkalar;
- o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar;
- mustaqil ishlar to'plami;
- elektron o'quv vositalari;
- nazorat-o'lchovli didaktik dars ssenariylari.

Masalan, kimyo bo'yicha o'quv-ko'rgazmali materiallar va elektron o'quv vositalari yordamida o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Ushbu metodik to'plamlar asosida o'quvchilarga metakognitiv jarayonlarni tushunishga va ular haqida mulohaza yuritishga yordam beruvchi metakognitiv strategiya bosqichlari ishlab chiqilishi mumkin:

1. Bilimlarni faollashtirish bilan bog'liq topshiriqni mustaqil va kichik guruhlarda (2-3 kishilik) bajarish.

Mashg'ulot mavzusi: "Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari (OQR)"

Savollar:

Inson nafas olishda nimadan foydalanadi?

Kislorod ko'pincha qanday oksidlanish darajasiga ega?

Oksidlanish darajasi nima?

2. Yangi mavzu va uning kalit so'zlari bilan bog'liq bilimlar va shaxsiy tajribani aniqlash va qayd etishga oid individual topshiriqni bajarish. Guruhlarda ishlash ko'zda tutiladi, bunda mavzu mazmunidagi ba'zi jihatlar aniqlashtiriladi va guruh natijalari umumiy muhokama qilinadi.

O'quv-metodik materiallar va didaktik materiallardan foydalangan holda, o'quvchilar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini qayd etadilar:

- Muhim qaytaruvchilar va oksidlovchilar;
- Oksidlanish darajasini hisoblash;
- OQR larining tasnifi;
- OQR larda koeffitsiyentlar qo'yish algoritmi.

3. Yangi material mazmunini tushunish va uni qo'llashga oid topshiriqlarni bajarish. OQR larni tasniflash va koeffitsiyentlarini to'g'ri qo'yish bo'yicha individual topshiriqlar bajariladi, o'z harakatlarini izohlash talab etiladi.

4. Uyga topshiriqning bir necha variantlari taklif etiladi, o'quvchi o'zining mavzuni o'zlashtirish darajasi, qiziqishi va istagiga qarab mos variantni tanlaydi.

Masalan: mavzu bo'yicha test topshirig'ini bajarish yoki daftarda yozma ish qilish.

Xulosa qilib aytganda, metakognitiv ta'lim modeli o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqilligini rag'batlantiradi. Bu model o'quvchilarga o'quv vazifasini qabul qilish va tushunish-tahlil qilishdan boshlab, uni hal etishning yo'llari va vositalarini konstruksiyalashgacha bo'lgan mustaqil o'tishni ta'minlaydi, ya'ni metafan va metako'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bransford, J., National Research Council (U.S.), & National Research Council (U.S.). (2000). How people learn: Brain, mind, experience, and school. Washington, D.C.: National Academy Press.
2. Sh.Qodirov "Pedagogika va ta'lim metodikasi" (2020) Toshkent Akadem nashr.
3. Lang, J. M. (2016). Small teaching: Everyday lessons from the science of learning.
4. Khosa, D. K., & Volet, S. E. (2014). Productive group engagement in cognitive activity and metacognitive regulation during collaborative learning: Can it explain differences in students' conceptual understanding? *Metacognition and Learning*, 9, 287–307.
5. McGuire, S. Y., & McGuire, S. (2015). Teach students how to learn: Strategies you can incorporate into any course to improve student metacognition, study skills, and motivation.
6. Elliott, S., Kratochwill, T., Littlefield, J., & Travers, J. (1996). Educational Psychology: effective teaching, effective learning. *Times Mirror Higher*
7. Беленкова Ю.С. Обучение метакогнитивным навыкам и методы оценки их сформированности // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2015. № 3-2.
8. Geron A. Metacognitive Skills Development in Basic Chemistry of Bachelor of Industrial Technology Students of Batangas State University, Philippines // *International Multidisciplinary Research Journal*. 2019. № 1. С. 102-109.
9. Katherine A. Blackford, Julia C. Greenbaum, Nikita S. Redkar, Nelson T. Gaillard, Max R. Helix c and Anne M. Baranger Metacognitive regulation in organic chemistry students: how and why students use metacognitive strategies when predicting reactivity // *Chem. Educ. Res. Pract.* 2023, № 24, С. 828-851.
10. Mudau A, Tawanda T. Teachers Role in Chemistry Metacognition. *Education and Human Development*. IntechOpen; 2024.

TALABALARDA MEDIATA'LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH MODELI

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent.

Annotatsiya. Maqolada talabalarda mediata‘lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish modeli taklif etiladi. Ushbu model mediavositlar orqali talabalarining bilim olish, tahlil qilish, eslab qolish va fikrlash jarayonlarini samarali rivojlantirishga qaratilgan. Modelda pedagogik tamoyillar, mediata‘lim vositalarining pedagogik-psixologik ahamiyati hamda kognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mediata‘lim, kognitiv faoliyat, shakllantirish modeli, mediavositlar, kognitiv jarayon, dasturiy-pedagogik vositalar, elektron darslik.

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье предлагается модель формирования познавательной деятельности у учащихся на основе медиаобразования. Эта модель направлена на эффективное развитие процессов обучения, анализа, запоминания и мышления своих учеников с помощью медианпространств. В модели анализируются педагогические принципы, педагогико-психологическое значение медиа образовательных средств и методов поддержки познавательной деятельности.

Ключевые слова: медиаобразование, познавательная деятельность, модель формирования, медианпространства, познавательный процесс, программно-педагогические средства, электронный учебник.

MODEL FOR THE FORMATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN STUDENTS ON THE BASIS OF MEDIocre EDUCATION

Annotation. The article proposes a model for the formation of cognitive activity in students on the basis of mediaticity. This model aims to effectively develop the learning, analysis, recall, and thinking processes of their students through mediavocyttes. The model analyzes pedagogical principles, the pedagogical-psychological significance of the means of mediation, as well as methods of supporting cognitive activity.

Keywords: mediata education, cognitive activity, formation model, mediavocyttes, cognitive process, software-pedagogical tools, electronic textbook.

Bugungi globallashuv sharoitida umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarini o‘qitish jarayonida mediata‘limdan foydalanish masalasi muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy dasturlar, o‘qitish usullari, metodlari, telekommunikatsiya vositalari hamda OAV jadal tezlikda rivojlanmoqda. Shu sababli barcha o‘qitish metodikalari sohasidagi mediama‘lumotlar, dasturiy-pedagogik vositalar va multimediali o‘quv qo‘llanmalarni ta‘limga integratsiya qilishning didaktik talablarini aniqlash, kognitiv faoliyat jarayonida mediata‘lim va axborot texnologiyalarini qo‘llash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks ettiryapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Bugungi kunda OTM axborot tizimlari faol rivojlanmoqda, bu muassasalarning yanada samarali va tezroq ishlashiga imkon beradi. Shuningdek, ta‘lim sohasini axborotlashtirishga hukumatimiz keng e‘tibor qaratmoqda. Bundan tashqari, OTM tizimiga innovatsiyalarni kiritish zarurati ortib bormoqda OTMni axborotlashtirish bu juda keng tushuncha bo‘lib, u mediata‘lim yordamida

oliy ta'lim sohasida dunyodagi ilmiy yutuqlar haqida xabardor qilishga qaratilgan faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Bunday texnologiyalar yordamida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari samaraliroq ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, ona tili fanini o'qitishda mediata'lim va turli xil dasturiy-pedagogik vositalardan keng foydalanilmoqda. Sinflarga yangi avlod o'quv kitoblarining kelishi va ushbu kitoblarda mavzularning elektron shaklidagi videodarslarni ko'rish uchun maxsus QR-kodning qo'yilishi bilan fan ham o'zgara boshladi. O'quv faoliyatining dizayni va tadqiqot shakli hamda usullari, o'qitishning yangicha uslublari tobora ko'proq qo'llanilib, rivojlanib bormoqda. Boshlang'ich ta'limda mediatexnologiya vositalaridan foydalanish o'quvchilar kognitiv faoliyatining samarali usuli bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun darsni takomillashtirishga keng imkoniyatlar ochadi.

Mediata'limga asoslangan kognitiv mashg'ulotlarini media vositalar hamda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda tashkil etish, o'rganilayotgan materiallarni yanada aniqroq va tushunarliroq taqdim etishga va o'quvchilarning tasavvur qilish imkoniyatini keng ko'lamda oshirishga yordam beradi. Buning sababi shundaki, hamma o'quvchilarning ham tasavvur va idrok qilish qobiliyati bir xil emas.

Bundan tashqari, kompyuter orqali dars o'tish, kompyuter orqali mavzuda berilgan ma'lumotlarni modellashtirish dars vaqtini tejaydi, o'qituvchining darsga tayyorlanish jarayonini osonlashtiradi. Kompyuterda hodisalarni tasavvur qilishimiz va undan mediaxabar ko'rinishida foydalanishimiz mumkin. Multimedia vositalari (multimedia-ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmui.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish ikki barobar unumli. Bundan tashqari, multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar talabalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Bunga biz multimedia vositalari asosida ona tilini o'rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik. Multimediali dasturiy-pedagogik vositalar quyidagi imkoniyatlarga ega:

- o'quv jarayonini individuallashtirish va farqlash;
- xatolar tashxisi va mulohazalar bilan nazoratni amalga oshirish;
- kompyuter tomonidan oddiy hisoblash va grafik ishlarini bajarish orqali o'qitish vaqtini tejash;
- o'quv mashg'ulotlarida ma'lumotlarni vizual tarzda taqdim qilish;
- o'rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni modellashtirish;
- turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish;
- ma'lum bir hodisa yuzasidan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ta'lim olish uchun motivatsiyani kuchaytirish;
- kognitiv-faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Demak, ko'rinadiki, o'quv jarayonida kompyuter orqali boshqariladigan dasturiy pedagogik vositalardan yoki elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish fanni o'qitishda va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu fan haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinfda o'qitiladigan fanlar bo'yicha ishlab chiqilayotgan multimediali elektron o'quv qo'llanmalar quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

- ta'limning minimum mazmuniga, ya'ni DTS ga muvofiqligi va shu bilan birga ushbu minimal darajadan yuqori bo'lishi;
- interfaol modellar mavjudligi;
- qarama-qarshi aloqalar mavjudligi;

- o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga sharoit yaratilishi;
- o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlariga muvofiqligi va ularni individual rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati, umumiy qilib aytganda, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish – bu pirovard natijada umumlashtirilgan pedagogik qobiliyatni – kichik yoshdagi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari zamonaviy oliy ta'limni axborotlashtirish jarayonining jadallashuvi bilan tavsiflanadi, bu bir tomondan, media resurslaridan foydalanish va o'quv jarayoniga mediamadaniy texnologiyalarni joriy etish uchun yangi istiqbollarni ochadi, ikkinchi tomondan, pedagogik nazariya va amaliyotni talabalarga, jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim berishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi, o'qitishni maksimal darajada individuallashtirish bilan talaba shaxsining kasbiy komponentini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Mediata'lim – bu insonning ommaviy axborot vositalari (ya'ni televidenie, radio, internet, gazetalar va boshqalar) orqali oladigan axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va unga to'g'ri munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantiradigan ta'lim jarayonidir. Bu ta'lim orqali inson:

- media bilan madaniyatli muloqot qilishni;
- media orqali ijod qilish va o'z fikrini to'g'ri ifoda etishni;
- axborotni tanqidiy tahlil qilishni;
- media orqali tarqaladigan turli matnlarni (xabar, maqola, video va h.k.) tushunish, tahlil qilish va baholashni o'rganadi.

Qisqacha aytganda, mediata'lim insonni media dunyosida ongli, faol va tahlilchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Ko'rinib turibdiki, mediata'lim (media education) barcha turdagi media (bosma va grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli xil media madaniy va axborot texnologiyalari bilan bog'liq. Bu jamiyatda ommaviy kommunikatsiyalardan qanday foydalanilishini tushunish imkonini beradi, yosh mutaxassislarni axborotga boy jamiyatda hayotga tayyorlash uchun mo'ljallangan va boshqa odamlar bilan muloqot jarayonida mediadan foydalanish qobiliyatini egallashni ta'minlaydi.

Mediata'lim resurslaridan foydalanishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari quyidagilarni amalga oshirishiga e'tibor qaratishi lozim:

- har qanday kontekstda berilgan va turli shakldagi axborot resurslaridan foydalanish;
- izlanayotgan mediata'lim resurslarining nomi, mavzusi va darslik yo'nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo'shimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo'lish;
- mediata'lim resurslaridan olinayotgan material va manbalar, ya'ni barcha materiallarni darslikdagi mavzular bo'yicha tizimlashtirib foydalanishga o'rganish, berilayotgan verbal tarzdagi (matnli ko'rinishdagi) materiallarni vizual holatga o'tkazish kompetensiyasini shakllantirish, ya'ni berilgan matn asosida ko'rsatmali manbalar yaratish;
- berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko'rinishidagi) materiallarga ishlov berish kompetensiyasini shakllantirish;
- berilgan mediata'lim resursi materiallarini transformatsiya qilish, ya'ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o'zgartirish holatlariga e'tiborli bo'lish;
- berilayotgan informatsion (axborot) oqimning (yo'nalishlari)ni tahlil etish hamda kommunikatsion maqsadlarini bilish;
- mediata'lim resurslaridan olingan materiallarni o'z so'zi bilan aytib berish, asoslash (argumentlash) orqali kommunikativ kompetentligini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kognitiv faoliyatni shakllantirishdagi asosiy muammolar

sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mediata'lim vositalaridan samarali foydalanishda pedagoglar malakasining yetishmasligi;
- kognitiv jarayonlarni to'g'ri qo'llab-quvvatlovchi media kontentning kamligi;
- o'qituvchilarning media savodxonligi pastligi.

Mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish modeli quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

№	Qismlar	Tavsifi
1	Mediasavodxonlikni rivojlantirish qilishni o'rgatish	O'qituvchilarga media vositalarni tanlash, tahlil qilishni o'rgatish
2	Kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlash o'yinlar orqali bilimni kuchaytirish	Videomateriallar, infografikalar, interaktiv
3	Kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlash foydalanishni o'zlashtirish	Elektron platformalar, mobil ilovalardan
4	Pedagogik malaka oshirish o'zlashtirish	Seminarlar, treninglar orqali mediata'lim asoslarini o'zlashtirish
5	Ta'lim jarayonini monitoring qilish o'zgarishlarni kiritish	O'quv jarayoni samaradorligini baholash va zarur o'zgarishlarni kiritish

Bu model talabalarning tafakkurini, bilimni qayta ishlash qobiliyatini va mustaqil o'rganish salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Modelni amalga oshirish usullari sifatida:

- o'qituvchilar uchun mediata'lim bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;
- mediavositalardan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;
- o'quv jarayonida mediata'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar berish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish maxsus pedagogik model orqali amalga oshirilishi ta'lim sifatini oshirishga va talabalarning bilish faoliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu model pedagoglarning media savodxonligini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan bo'lib, keyinchalik umummilliy ta'lim tizimida keng qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son qarori.
2. Ashurov J.Dj., Zamonaviy ta'lim muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati // Eurasian journal of academic research, Innovative Academy Research Support Center / Volume 1 Issue 9, December 2021 ISSN 2181-2020.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М., 2008.
4. Azarova L.N. "Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak". Boshlang'ich maktab.1998, 4-son. – 80-81-betlar.
5. Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64
6. Р.Хамдамов, У.Бегимкулов, Н.Тайлоқов. Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун / «Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси» -Т.: 2010,120 б.
7. Mavlonova R, Rahmonqulova N, "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya". – Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. – 450 b.

MOBIL ALOQA TEXNOLOGIYALARIGA OID TERMINLARDA METAFORIK KONSEPTLAR: QIYOSIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Arzimurodova E'zoza Berdimurod qizi
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarda uchraydigan metaforik konseptlar kognitiv lingvistika yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Metafora til vositasi sifatida inson tafakkuridagi abstrakt texnologik tushunchalarni konkret tajribaviy sohalar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonida nafaqat metaforik nomlash, balki ularning tarjima jarayonida yuzaga kelgan konseptual siljishlar ham ko'rib chiqiladi. Maqola metafora va til tafakkur birligi o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, lingvistik, tarjimashunoslik va terminologiya sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, konseptual metafora, terminologik tizim, semantik uzviylik, tillaro qiyoslash, metafora turlari, zamonaviy tilshunoslik, ijtimoiy-kognitiv omillar.

METAPHORIC CONCEPTS IN TERMS RELATED TO MOBILE COMMUNICATION TECHNOLOGIES: A COMPARATIVE ANALYSIS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Arzimurodova E'zoza Berdimurod qizi
Karshi State University, PhD student

Abstract. This article investigates metaphorical concepts in the terminology of mobile communication technologies in English and Uzbek, applying a cognitive linguistic framework. Metaphor, as a tool of human cognition, helps conceptualize abstract technological notions through domains grounded in physical and cultural experience. Special attention is given to metaphorical shifts and conceptual mismatches in translation processes. The paper offers both theoretical insight and practical value for the fields of linguistics, translation studies, and terminology.

Keywords: metaphorical concepts, cognitive linguistics, conceptual metaphor, terminological system, semantic coherence, cross-linguistic comparison, types of metaphor, modern linguistics, socio-cognitive factors.

МЕТАФОРИЧЕСКИЕ КОНЦЕПТЫ В ТЕРМИНАХ, СВЯЗАННЫХ С ТЕХНОЛОГИЯМИ МОБИЛЬНОЙ СВЯЗИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Арзимуродова Эзоза Бердымурод кызы
Каршинский государственный университет, докторант

Аннотация. В статье рассматриваются метафорические концепты в терминологии мобильных технологий связи в английском и узбекском языках на основе когнитивно-лингвистического подхода. Метафора как механизм мышления помогает выразить абстрактные технологические понятия через конкретные чувственные и культурные области. Также анализируются концептуальные сдвиги, возникающие при переводе терминов. Работа имеет теоретическую и практическую значимость для лингвистики, переводоведения и терминологии.

Ключевые слова: метафорические концепты, когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, терминологическая система, семантическая целостность, межъязыковое сопоставление, виды метафор, современное языкознание, социально-когнитивные факторы.

KIRISH. So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot, xususan, mobil aloqa texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida lingvistikada yangi terminlar, ifoda vositalari va konseptual strukturalar yuzaga kelmoqda. Bu jarayon nafaqat yangi terminlarning paydo bo‘lishiga, balki ularning konseptual asoslarini ifodalovchi metaforal modellarning shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, metaforik konseptlar tilshunoslikda yangi yo‘nalish — kognitiv lingvistika doirasida izohlanmoqda.

Mobil texnologiyalar til tizimiga shunchalik chuqur kirib bormoqdaki, bugungi kunda ular ijtimoiy ong, ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli ushbu maqolada mobil aloqa texnologiyalariga oid metaforik konseptlarning ingliz va o‘zbek tillarida qanday ifodalanishini, ularning lingvistik xususiyatlari va tarjimadagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilish maqsad qilindi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bu mavzu tilshunoslikda yangi tendensiyalar, xususan, kognitiv yondashuv, terminlar semantikasi va intertil o‘xshashliklar hamda tafovutlarni o‘rganishga imkon beradi. Ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar cheklangan bo‘lib, ingliz tilida mavjud tahliliy yondashuvlar bilan solishtirish, milliy va global konseptual farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda metafora endilikda faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki inson tafakkuri va dunyoni idrok etishining kognitiv mexanizmi sifatida qaralmoqda. G. Lakoff va M. Jonson tomonidan ilgari surilgan “Kognitiv metafora nazariyasi”ga ko‘ra, metafora orqali insonlar abstrakt tushunchalarni konkret konseptlar asosida anglab, til vositasida ifoda etadi [1]. Ularning ta’kidlashicha, metafora — bu faqat tilga oid hodisa emas, balki konseptual dunyoqarash mahsuli bo‘lib, unda manba sohasi va nishon sohasi o‘rtasidagi bog‘lanish asosida yangi ma’no vujudga keladi. Abstrakt tushunchalar ongda ko‘proq tajribaviy asosga ega konkret konseptlar orqali ifodalanadi. Bu tamoyil mobil aloqa sohasidagi terminlar, masalan, “aloqa kanali”, “signal uzatish”, “ma’lumot oqimi” kabi iboralarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mazkur nazariy yo‘nalish boshqa tillar qatorida o‘zbek tilshunosligida ham qiziqish uyg‘otdi. Xususan, A. Madvaliyev kognitiv metaforani inson tafakkuri va til birligi o‘rtasidagi ko‘priklarni sifatida talqin qilib, metafora orqali terminologik birliklarning shakllanish jarayoniga yondashgan [2]. Unga ko‘ra, metafora lingvistik vosita bo‘lishdan tashqari, madaniy tafakkurni aks ettiruvchi kognitiv mexanizm hamdir.

D. Saidqodirova esa metafora asosida shakllangan atamalarni konseptual tahlil qilish orqali, ularning semantik asoslari, madaniy konnotatsiyasi va milliy tafakkurdagi aksini ochib bergan. Uning fikricha, “metafora orqali yaratilgan terminlar nafaqat atamalarning ekspressivligini oshiradi, balki tushunchalarning xalqona talqinini ham ta’minlaydi” [3].

Ingliz tilshunosligida bu borada ko‘plab konseptual metafora turlari aniqlangan bo‘lib, ular “HAYOT — SAYOHAT”, “KOMPYUTER — INSON”, “ALOQA — KO‘PRIK” kabi model asosida tahlil qilinadi (Lakoff & Johnson, 2003) [4]. O‘zbek tilida esa “internet tarmog‘i — tirik organizm”, “aloqa — yo‘l”, “mobil telefon — do‘st” kabi metaforik konseptlar kuzatiladi. Bu esa, har ikkala til va madaniyatda mobil aloqa terminlari shakllanishida kognitiv asoslar, madaniy xususiyatlar va tafakkur modellari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shuningdek, Kövecses Z. — “Metaphor: A Practical Introduction” asarida metafora turlari, ularning madaniy xususiyatlari va tarjimadagi roliga alohida urg‘u beriladi [5]. Bundan tashqari, Evans V. kognitiv lingvistikaning asosiy tamoyillari va metafora tushunchasini tilda qanday ishlash mexanizmlari bilan bog‘laydi [6].

Kadirbekova D. “Til va terminologiya” kitobida muallif terminlarning shakllanishi, ularning semantik kengayishi va metafora orqali ma’no hosil bo‘lish jarayonlarini bayon qiladi [7]. Sh.S.Mirzayev kognitiv lingvistika bo‘yicha yozgan maqolalarida o‘zbek tilida metaforik konseptlar va mental model xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi [8]. N.Rahimova esa metaforik ifodalarning tarjimasini va ularning lingvomadaniy mosligini qiyosiy tahlil qiladi [9].

Biroq mavjud izlanishlar, ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa sohasiga oid metaforik terminlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning konseptual asosini ochish va tarjima muammolarini tahlil etish borasida yetarli emas. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa terminlarining metaforik xususiyatlari, ularning konseptual asoslari, madaniy jihatlari hamda tarjima qilinishi holatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-kognitiv yondashuv asos qilib olingan. Qiyosiy tahlil jihatdan har bir metafora ikki tildagi ifoda shakllari, qo'llanish konteksti va tarjima variantlari jihatidan solishtirildi. O'zbek tiliga o'zlashgan terminlar qaysi usul orqali (to'g'ridan-to'g'ri tarjima, fonetik moslashuv, semantik kalka) kirganiga e'tibor berildi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarda metaforik konseptlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Mazkur tahlil nazariy-metodik jihatdan tilshunoslikning konseptual metafora nazariyasi, kognitiv lingvistika, soha terminologiyasi va tarjima nazariyasi yondashuvlariga asoslanadi.

Tadqiqotda quyidagi nazariy-metodik asoslar e'tiborga olindi:

1. Konseptual metafora nazariyasi (Lakoff & Johnson, 1980) – metaforani til birliklarining bezak emas, balki fikrlashning asosiy vositasi sifatida tushuntiradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mobil aloqa sohasidagi “signal uzildi”, “tarmoq ushlamadi”, “aloqa o'chdi” kabi ifodalar zamirida texnik holat emas, balki konseptual metaforalar yashiringan.

2. Kognitiv lingvistika – metaforik tushunchalar inson tafakkuri bilan bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi. Masalan, ALOQA – HARAkat yoki SIGNAL – SUV kabi konseptlar.

3. Lingvokulturologik yondashuv – til va madaniyat o'zaro aloqada bo'lib, bir tildagi metafora boshqa tilga to'laqonli ko'chmasligi mumkin. Shuning uchun qiyosiy tahlil o'zbek va ingliz tilidagi metaforik konseptlar madaniy konnotatsiyalarini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

1) Deskriptiv usul – ingliz va o'zbek tilidagi mobil aloqa terminlari orasidan metaforik birliklar aniqlanib, ularning struktura va mazmuni tahlil qilindi.

2) Qiyosiy-tahliliy usul – metaforik birliklarning ikki tildagi o'ziga xos va umumiy jihatlari solishtirildi.

3) Semantik tahlil – tanlangan metaforik terminlar ichki semantik tuzilmasi aniqlanib, ular orqali ifodalangan konseptlar ochib berildi.

4) Kontent tahlil – matbuot, ommaviy axborot vositalari, internet manbalari va ijtimoiy tarmoqlardagi til birliklaridagi metaforalar son jihatdan ajratib o'rganildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi manbalar korpusga kiritildi: mobil aloqa kompaniyalari (AT&T, Verizon, Beeline, Ucell, Uzmobil) rasmiy saytlaridagi reklama va axborot matnlari; ommaviy axborot vositalarida (BBC Tech, CNN Digital, Kun.uz, Gazeta.uz) chop etilgan maqolalar; ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchi postlari va izohlar (Twitter/X, Telegram, Facebook); mobil texnologiyalarga oid ingliz va o'zbek tilidagi texnik tarjima matnlari (foydalanuvchi qo'llanmalari, xizmat ta'riflari, reklama slognlari);

NATIJALAR. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa texnologiyalariga oid 150 dan ortiq termin o'rganildi. Shular orasidan metaforik asosga ega bo'lgan 50 ta termin aniqlanib, ular konseptual modellarga ajratildi. Quyidagi asosiy metaforik konseptlar ko'p uchraydigan birliklar sifatida tasniflandi:

	Konseptual model	Manba (source)	Nishon (target)	Misol (inglizcha)	Tarjimasi/O'zbekcha ekvivalenti
1	ALOQA – YO'L	Yo'l, harakat	Ma'lumot uzatish, signal	data path	ma'lumot yo'li
2	SIGNAL – SUV	Suv, oqim	Signal, axborot	signal flow	signal oqimi
3	INTERNET – MAKON	Fizik makon	Virtual tarmoq	cyberspace	kiber makon
4	ULANISH – TEGISH	Jismoniy kontakt	Signal qabul qilish	touchpoint	tegish nuqtasi
5	QURILMA – TANA	Inson organizmi	Telefon, qurilma	device is dead	qurilma o'ldi
6	TARMOQ – KO'PRIK	Arxitektura	Aksess, uzatish	network bridge	tarmoq ko'prigi
7	ILOVA – YUTUVCHI	Ovqat, energiya	Trafik, quvvat	data-hungry app	trafikni yutuvchi ilova
8	BULUT – SAHRO HUDUD	Ob-havo, tabiat	Ma'lumot saqlash	cloud storage	bulutli saqlov
9	XOTIRA – KONTAINER	Idish, saqlovchi narsa	Ma'lumot hajmi	memory bank	xotira banki
10	CHASTOTA – TOVUSH	Akustika	Signal chastotasi	frequency band	chastota diapazoni

Ko'plab terminlar fazoviy va harakatga oid konseptlarga asoslangan:

Metaforik atama	Lug'aviy ma'nosi	Konseptual asos	izoh
Upload/download	Yuklash/yuklab olish	AXBOROT – FIZIK OB'EKT	Ma'lumot fazoda harakatlanayotgan jism sifatida tasvirlanadi
roaming	Tarmoq sayohati	FOYDALANUVCHI – SAYOHATCHI	Tarmoqdan tarmoqqa o'tish sayohatga qiyoslanadi
Cloud storage	Bulutli saqlash	MA'LUMOT – MODDIY SUBSTANSIYA	Ma'lumotlar bulutda saqlanayotgan moddiy narsa sifatida qaraladi

Bu yerda “cloud” metaforasi ayniqsa e'tiborga molik. Bulut – havoda bo'lgan, egasiz, erkin harakatlanuvchi tabiiy hodisa sifatida ma'lumotlarning jismoniy mavjud emasligini, lekin mavjudligini ifodalaydi. Bu esa foydalanuvchining tushunishini yengillashtiradi.

Ingliz tilida ko'plab terminlar inson organizmi va kundalik faoliyatiga asoslanadi:

Metaforik atama	Lug‘aviy ma’nosi	Konseptual asos	izoh
Fingerprint sensor	Barmoq izi datchigi	QURILMA – INSON A’ZOSI	Qurilmaning identifikatsiya funksiyasi odam barmoq izi bilan taqqoslanadi
Voice assistant	Ovozli yordamchi	QURILMA – YORDAMCHI INSON	Sun’iy intellekt inson yordamchisiga o‘xshatiladi
Sleep mode	Uyqu holati	QURILMA – INSON ORGANIZMI	Qurilmaning passiv holati uxlayotgan inson holatiga tenglashtiriladi

Bu metaforalar orqali qurilmalarning holati, imkoniyatlari, funksiyalari inson tajribasi bilan bog‘lab beriladi. Bu esa abstrakt texnologik hodisalarni ongda vizual va tanish shakllarda tasavvur qilishga imkon beradi.

Axborot xavfsizligi sohasida esa metaforalar ko‘proq harbiy yoki strategik konseptlarga asoslanadi:

Metaforik atama	Lug‘aviy ma’nosi	Konseptual asos	izoh
firewall	yong‘inga qarshi devor	AXBOROT – QAL’A	Tizim tashqi tahdidlardan “devor” bilan himoyalangan sifatida tasvirlanadi
Antivirus	virusga qarshi dastur	XAVF – KASALLIK	Kiberxavfli holat biologik kasallikka tenglashtiriladi
cyberattack	kiberhujum	XAVF – HARBIY HUJUM	Virtual xavf harbiy agressiyaga tenglashtiriladi

Bu metaforalar tilshunoslikda kognitiv xavfsizlik konseptlari sifatida tahlil qilinadi va terminlar semantik chuqurligini oshiradi.

Ba'zi metaforalar bir tilga xos, ba'zilari esa global konseptlar hisoblanadi. Masalan:

- Global metafora: “cloud” (bulut) – ingliz va o'zbek tillarida ham virtual ma'lumot saqlash joyi sifatida bir xil metafora orqali ifodalanadi.
- Madaniy moslashuv: “signal drops” – ingliz tilida falling konseptiga tayanadi, o'zbek tilida esa “aloqa uzildi”, “signal ketdi” kabi yo'qolish modelida ifodalanadi.
- Semantik kengayish: ingliz tilidagi “dead zone” (aloqa yo'q hudud) – tirik/tirik emas konsepti asosida, o'zbek tilida esa bu “aloqa tutmaydigan joy” degan neytralroq modelda ifodalanadi.

Metaforik terminlarni tarjima qilishda quyidagi muammolar aniqlandi: Semantik yo'qotish: “data-hungry app” – bu ingliz tilida juda obrazli ibora, o'zbek tilida esa “ko'p trafik ishlatadigan ilova” tarzida obraz yo'qoladi. Shuningdek, noto'g'ri kalka: “signal path” – ba'zan “signal yo'li” deb tarjima qilinadi, lekin bu o'zbek tili uchun sun'iy metafora bo'lishi mumkin. Va nihoyat, kultural nomuvofiqlik: “dead zone” tarjimasini “o'lik zona” deb berilganda, tabiiylik yo'qoladi, “aloqa tutmaydigan joy” esa mentalitetga yaqinroq.

Shunday qilib, metafora terminlar yaratishda muhim kognitiv vosita bo'lib xizmat qiladi. Ingliz tili texnologik jarayonlarni ko'proq antropomorf yoki fizikaviy metaforalar orqali ifodalaydi. O'zbek tili esa ko'proq neytral, funksional yoki obrasiz tarjimalarni afzal ko'radi. Madaniy tafakkur va lingvistik iqlim metafora tanlashga bevosita ta'sir qiladi.

MUHOKAMA. Metafora inson tafakkurining asosiy vositalaridan biri sifatida til birliklarining ko'p qirraliligini ta'minlaydi. Yuqoridagi tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarida mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarda aks etgan metaforik konseptlar tahlili shuni ko'rsatdiki, har ikki til madaniyatida texnologik yangiliklarni insoniy, tabiiy yoki jismoniy hodisalar orqali tushuntirishga intilish mavjud. Bu esa Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ilgari surilgan “kontseptual metafora” nazariyasining har ikki tilda ham amaliy ifodasini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda aniqlangan “KOMMUNIKATSIYA — HARAKAT” (Communication is Movement), “ALOQA QURILMASI — INSON” (Device is Human), “SIGNAL — SUV” (Signal is Water) singari asosiy metaforik modellarning mavjudligi, terminlar semantik strukturasi ortida yotgan kognitiv jarayonlarni ochib beradi. Masalan, ingliz tilidagi stream, channel, flow, traffic kabi terminlar texnologik vositalar orqali axborot oqimini suv yoki transport oqimi bilan metaforik tarzda bog'laydi. Bu holat mobil texnologiyalarni intuitiv tushunishni osonlashtiradi. O'zbek tilida esa oqim, kanal, tok, yo'l kabi ekvivalentlar ushbu metaforani ko'proq to'g'ridan-to'g'ri tarjima yoki majoziy ma'nolashuv orqali ifodalaydi.

Muhokama jarayonida shuningdek, metafora tanloviga milliy tafakkur, dunyoqarash va til tajribasi kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangani muhim nazariy xulosalardan biridir. Ingliz tilida “machine as a human” modeli kengroq qo'llanilsa, o'zbek tilida “apparat — asbob” modeli yaqqolroq. Bu esa o'zbekcha terminlarning birmuncha rasmiy, texnik tusda shakllanganini ko'rsatadi. Masalan, assistant, agent, smartphone assistant kabi insoniy faoliyatga oid metaforik nomlanmalar ingliz tilida faol bo'lsa, o'zbek tilida ular asosan yordamchi dastur, funktsiya kabi neytral ekvivalentlarda qo'llaniladi.

Metaforik konseptlarning terminologik tizimga kirib borishi jarayonida ingliz tili jahon tiliga aylangani sababli bu tillik birliklar ko'plab boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham o'zlashmoqda. Lekin bu o'zlashuv faqat semantik emas, balki metaforik-kognitiv qirralarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa tarjimada nafaqat to'g'ri ekvivalent tanlash, balki mazmuniy va konseptual uzviylikni saqlashni talab qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi mobil aloqa atamalarining ko'pi texnologik jarayonlarni hayotiy tushunchalar orqali tushuntirishga intiladi. Bu esa foydalanuvchi bilan o'zaro aloqani soddalashtiradi. O'zbek tilida esa hali bunday metaforik yondashuv to'liq shakllanmagan, ko'plab terminlar rasmiy tarjima yoki texnik leksika doirasida qolmoqda. Shu bois, tilshunoslikda metafora orqali terminologiyani boyitish istiqbollari dolzarb ilmiy masala sifatida ko'rilmog'da.

Ushbu farqlarning sabablari orasida madaniyatlararo tafovutlar, texnologik rivojlanish

sur'atlari, termin yaratishdagi metodikalar hamda til siyosati bor. Masalan, ingliz tilida yangi texnologik tushunchalar ko'pincha metafora asosida nomlanadi, o'zbek tilida esa ushbu jarayon ko'proq semantik o'zlashtirish yo'li bilan amalga oshadi. Bu esa til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurroq tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tahlil asosida quyidagi asosiy fikrlar ilgari surildi: metaforik konseptlar texnik tushunchalarni intuitiv anglashda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilidagi texnik metaforalar ko'proq antropomorfik (insonlashtiruvchi) xususiyatga ega. O'zbek tilida bunday metaforalarning aksariyati tarjima asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularning konseptual boyligi cheklangan. Metafora asosida yaratilgan terminlar axborotni qabul qilishda osonlik, esda saqlashda samaradorlikni oshiradi. O'zbek terminologiyasida metaforik asoslar bilan terminlar yaratish salohiyati yetarlicha ochilmagan va ilmiy yondashuv talab qiladi.

Mazkur muhokama natijalari mobil aloqa sohasida o'zbek tilining terminologik imkoniyatlarini kengaytirish, yangi konseptlar asosida yondashuvlarni ishlab chiqish hamda tarjima jarayonlarini yangicha nazariy asosda qurish uchun metodik asos bo'la oladi.

XULOSA. Mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarning metaforik asoslari, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi konseptual namoyon bo'lishi zamonaviy tilshunoslikda terminologiya va kognitiv lingvistika kesishgan dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. O'tkazilgan qiyosiy tahlillar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Metaforik modellar universal va milliy xususiyatlarga ega. Ingliz tilidagi terminlar ko'proq texnologik va funktsional asosda tuzilgan bo'lsa (masalan, cloud, virus, network traffic), o'zbek tilida esa ushbu metaforalar ko'pincha tarjima orqali yoki o'zlashtirish yo'li bilan tilga kirgan (bulutli texnologiya, tarmoq trafigi va boshqalar). Shunday qilib, metafora konseptlari ikki tilda ham mavjud, biroq ularning ifoda vositalari va lingvokulturologik talqini turlicha.

Ingliz tilidagi terminlar yaratishda dominant metaforalar texnologik jarayon va inson tajribasiga tayangan (masalan, Bluetooth, hotspot, firewall), o'zbek tilida esa ularning aksariyati semantik ekvivalent orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri fonetik o'zlashtirish orqali shakllangan (blutuz, xotspot, fayervol). Bu holat o'zbek tilidagi metaforik konseptlarning ikkilamchi va tarjima mahsuli ekanini ko'rsatadi.

Metaforik konseptlar terminlarni tushunishga va ularni ommaga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Aynan metafora orqali murakkab texnologik hodisalarni inson ongi qabul qila oladigan oddiy va tanish tasavvurlar bilan bog'lash imkoniyati yaratiladi. Bu, ayniqsa, til siyosati va o'zlashtirish jarayonlarida terminologik birliklarning samarali joriy etilishi uchun muhim omil hisoblanadi.

O'zbek tilida metaforik terminlar milliy tafakkur shakllari va tasavvurlarini to'la aks ettirmaydi. Bu esa lingvokulturologik asoslangan yondashuv asosida, terminlarni milliy madaniyatga mos holda qayta shakllantirish va adaptatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Masalan, Bluetooth uchun "ko'k tish" degan bevosita tarjima emas, balki uning funktsiya va semantik yukiga mos keladigan, madaniy asosli nom taklif etilishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur maqolada mobil aloqa texnologiyalariga oid terminlarning metaforik konseptual asoslari tahlili nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy, kognitiv va tarjimashunoslik aspektlaridan yondashgan holda o'rganildi. Olingan natijalar lingvistik terminologiyaning shakllanishi, metafora asosidagi konseptlar evolyutsiyasi, va milliy tilga ularni moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 b.
2. Madvaliyev A. Kognitiv tilshunoslik va metaforaning zamonaviy talqini. — O'zbek tili va adabiyoti, 2014. — № 4(2). — B. 33–38.
3. Saidqodirova D. Kognitiv metafora va milliy tafakkur // *Filologiya masalalari*. – 2020. – T.

2, №1. – B. 17–24.

4. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – 2nd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 242 p.

5. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 296 b.

6. Evans, V., Green, M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.

7. Kadirbekova D. *Til va terminologiya: nazariy va amaliy masalalar*. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020. – 256 b.

8. Mirzayev M. M. *Til va tafakkur: kognitiv yondashuv asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.

9. Rahimova G. K. *Kognitiv metafora va uning lingvistik tahlili // Filologiya masalalari*. – 2021. – №3(2). – B. 45–52.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Баходирова Г.К.,
ISFT, начальник отдела науки и инноваций

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования и развития педагогических инноваций в системе высшего образования. Обоснована актуальность инновационных подходов в подготовке будущих специалистов, раскрыты существенные характеристики педагогических инноваций и их классификация. Автор анализирует ключевые условия эффективного внедрения инноваций в образовательную практику вузов, подчеркивая роль инновационной культуры и проектно-деятельностного подхода. Представлены результаты анализа современных научных концепций, выделены стратегические направления развития инновационной деятельности в педагогике высшей школы.

Ключевые слова: инновации, педагогические технологии, высшее образование, инновационная культура, модернизация образования, проектно-деятельностный подход

OLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI SHAKLLANISH VA RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Bahodirova G.K.,
ISFT, Fan va innovatsiyalar bo'limi boshlig'i

Abstrakt. Maqolada oliy ta'lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslariko'rib chiqiladi. Bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi asoslab berilgan, pedagogik innovatsiyalarning muhim xususiyatlari va ularning tasnifi ochib berilgan. Muallif universitetlarning ta'lim amaliyotiga innovatsiyalarni samarali tatbiq etishning asosiy shartlarini tahlil qilib, innovatsion madaniyat va loyiha-faollik yondashuvining rolini ta'kidlaydi. Zamonaviy ilmiy kontseptsiyalarni tahlil qilish natijalari taqdim etilgan, oliy ta'lim pedagogikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, innovatsion madaniyat, ta'limni modernizatsiya qilish, loyiha-faol yondashuv

THEORETICAL BASIS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL INNOVATIONS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Bakhodirova G.K.,
ISFT, Head of the Science and Innovation Department

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of the formation and development of pedagogical innovations in the higher education system. The relevance of innovative approaches in the training of future specialists is substantiated, the essential characteristics of pedagogical innovations and their classification are revealed. The author analyzes the key conditions for the effective implementation of innovations in the educational practice of universities, emphasizing the role of innovative culture and project-activity approach. The results of the analysis of modern scientific concepts are presented, strategic directions for the development of innovative activities in higher education pedagogy are highlighted.

Keywords: innovations, pedagogical technologies, higher education, innovative culture, education modernization, project-activity approach

Введение. Современное общество вступило в фазу постиндустриального и информационного развития, где ключевыми факторами социально-экономического прогресса становятся знания, компетенции, креативность и способность к непрерывному обучению. В условиях ускоряющейся глобализации, цифровизации и трансформации трудового рынка система высшего образования призвана не только передавать накопленные знания, но и формировать у обучающихся способности к продуктивному мышлению, междисциплинарной интеграции и самостоятельному конструированию новых знаний. Это объективно обуславливает необходимость переосмысления традиционных педагогических парадигм и перехода к инновационным образовательным моделям.

Педагогические инновации в высшей школе становятся неотъемлемым элементом стратегии развития образования, отвечающим требованиям времени. Они представляют собой результат научного поиска и практического внедрения новых идей, методов, форм и средств обучения, обеспечивающих более высокие результаты образовательной деятельности. При этом инновации не ограничиваются лишь использованием современных технологий, но затрагивают фундаментальные аспекты содержания образования, структуры учебного процесса, характера взаимодействия субъектов образовательной среды.

Теоретико-методологическое обоснование педагогических инноваций требует обращения к целому комплексу научных направлений: философии образования, аксиологии, педагогической психологии, теории педагогических систем и управления. Особую роль здесь играют идеи конструктивизма, гуманизации образования, компетентностного и личностно-ориентированного подходов, поскольку именно они задают рамки для формирования инновационных образовательных практик, опирающихся на активность субъекта, его внутреннюю мотивацию и социально-профессиональную мобильность.

Наряду с этим, в научной литературе отсутствует единая интерпретация понятия «педагогические инновации», что порождает терминологическую и концептуальную неопределённость. Некоторые исследователи рассматривают их как нововведения в образовательной практике, другие — как результат осознанного, систематически организованного процесса преобразования. Возникает необходимость в уточнении понятийного аппарата, выявлении критериев инновационности и условий эффективной реализации инноваций в контексте высшего образования.

Таким образом, актуальность настоящего исследования обусловлена как объективными вызовами современности, требующими инновационного преобразования высшего образования, так и теоретической необходимостью разработки чёткой научной базы для понимания природы, структуры и механизмов педагогических инноваций.

Цель статьи – определить теоретические основы формирования и развития педагогических инноваций в системе высшего образования, раскрыть их сущностные характеристики, типологию, а также обозначить ключевые детерминанты инновационного развития в образовательной среде вуза.

Литературный обзор. Проблематика педагогических инноваций в высшем образовании является предметом пристального внимания отечественных и зарубежных ученых. Теоретические и методологические основания инновационной деятельности в педагогике исследованы в трудах В. И. Загвязинского, который подчеркивает, что инновации представляют собой осознанную, целенаправленную деятельность по внедрению новшеств, обеспечивающих качественные изменения в образовательном процессе (Загвязинский В. И., 2001). Он акцентирует внимание на том, что инновации не могут быть случайными или стихийными — они требуют научной обоснованности и системного подхода.

Глубокий вклад в разработку сущностных характеристик педагогических инноваций внес Г. К. Селевко, предложивший типологию инновационных технологий и моделей обучения, которая охватывает такие категории, как модульное, проблемное, дифференцированное и личностно-ориентированное обучение (Селевко Г. К., 2006). По мнению автора,

педагогическая инновация — это не просто новшество, а новшество, доказавшее свою эффективность и пригодность к тиражированию.

Е. С. Полат рассматривает педагогические инновации через призму информационно-коммуникационных технологий, подчеркивая значимость цифровизации образования для формирования новых форм учебного взаимодействия и компетентностной модели выпускника (Полат Е. С., 2010). В её трудах обоснована необходимость формирования ИКТ-компетентности как ключевой составляющей инновационной культуры педагога.

Философские аспекты образовательных инноваций освещаются в работах В. А. Сластенина, который рассматривает инновации как форму развития образовательной системы в логике социокультурных трансформаций. Он вводит понятие «инновационной педагогической культуры», которая включает ценностное отношение к нововведениям, готовность к профессиональному риску и открытость изменениям (Сластенин В. А., 2003).

С точки зрения педагогической аксиологии, инновации трактуются как способы достижения новых образовательных ценностей и смыслов. Так, Н. Р. Юсуфбекова отмечает, что педагогическая инновация связана с преобразованием не только форм обучения, но и мировоззренческих установок субъектов образовательного процесса (Юсуфбекова Н. Р., 1991).

Зарубежные исследователи также внесли значительный вклад в развитие теории педагогических инноваций. Э. Роджерс в своей знаменитой «Теории диффузии инноваций» (Rogers, E. M., 2003) описывает механизм распространения инновационных идей, выделяя стадии восприятия, адаптации и институционализации новшеств. Он подчеркивает, что успешность внедрения инноваций зависит от восприятия их относительного преимущества, совместимости с ценностями системы и возможности экспериментального применения.

К. Кристенсен и М. Хорн, авторы теории «разрушающих инноваций» в образовании (Christensen, C. M., Horn, M. B., 2013), указывают, что именно альтернативные формы образования (онлайн-обучение, гибридные модели, микрообучение) становятся катализаторами трансформации традиционных университетов. Они считают, что вузы, игнорирующие эти процессы, рискуют утратить свою социальную и академическую значимость.

Особое внимание в исследованиях уделяется условиям и барьерам инновационной деятельности. Так, В. А. Болотов подчеркивает значимость формирования инновационной образовательной среды, предполагающей междисциплинарность, академическую мобильность, развитие научного студенчества и инновационных педагогических компетенций (Болотов В. А., 2016).

Таким образом, обзор литературы позволяет заключить, что педагогические инновации представляют собой сложное, многогранное явление, требующее системного подхода, междисциплинарного анализа и постоянного теоретико-методологического переосмысления. При этом существует потребность в унификации понятийного аппарата, расширении эмпирической базы и разработке эффективных моделей внедрения инноваций в условиях конкретных образовательных систем.

Методы. Методологическая основа исследования основывается на принципах системного, деятельностного и аксиологического подходов, которые обеспечивают целостное понимание процессов инновационного развития в высшей школе. Для достижения поставленной цели использован комплекс взаимосвязанных методов теоретического и эмпирического анализа:

1. Анализ и синтез научной литературы. Проведен критический анализ фундаментальных и прикладных исследований в области педагогики, психологии, менеджмента образования, что позволило выделить ключевые концепции и подходы к пониманию педагогических инноваций.

2. Системно-структурный подход. Использован для рассмотрения инновационной

деятельности как компонента образовательной системы, где инновация трактуется не как изолированное нововведение, а как элемент сложного педагогического процесса, взаимодействующий с другими его составляющими (цель, содержание, субъект, технологии, результат).

3. Метод сравнительно-сопоставительного анализа. Применен при изучении различных моделей внедрения педагогических инноваций в отечественных и зарубежных вузах, что позволило выявить как универсальные закономерности, так и контекстуальные особенности.

4. Контент-анализ стратегических документов. Осуществлён анализ нормативных и стратегических документов (ФГОС ВО, стратегии цифровой трансформации образования, программ развития университетов), отражающих современную государственную политику в области инновационного образования.

5. Интерпретативный и концептуальный анализ. Проведен для уточнения понятийного аппарата: «инновация», «инновационная образовательная среда», «педагогическая технология», «инновационная культура вуза».

6. Качественный анализ практик. Включает изучение кейсов внедрения инновационных педагогических решений в российских и международных образовательных учреждениях, позволяющих обобщить успешные модели и выявить барьеры в инновационном развитии.

Применение указанных методов позволило автору всесторонне исследовать теоретические основы формирования и развития педагогических инноваций, а также выстроить логически обоснованную структуру исследования.

Эмпирическая часть базируется на изучении практик внедрения инновационных подходов в различных вузах Узбекистана и зарубежья, а также анализе программ развития высших учебных заведений.

Результаты. Результаты проведенного теоретического анализа и сопоставления различных научных подходов позволяют выделить ключевые положения, определяющие сущность, структуру и закономерности формирования педагогических инноваций в высшей школе.

Было выявлено, что успешное развитие инноваций в высшем образовании возможно при наличии следующих условий:

- наличие инновационной образовательной среды;
- поддержка со стороны администрации вуза;
- повышение квалификации преподавателей;
- наличие проектно-исследовательской деятельности студентов;
- активное использование цифровых технологий.

1. Сущностные характеристики педагогических инноваций

Педагогические инновации в системе высшего образования представляют собой:

- Целенаправленные, системные изменения, направленные на повышение эффективности образовательного процесса;
- Деятельностные и культуросозидающие практики, которые выходят за рамки частных методик и касаются философии и идеологии образования;
- Результат интеграции научных знаний и практико-ориентированных решений, адаптированных к меняющимся условиям социума и потребностям обучающихся.

В данном контексте педагогическая инновация выступает не как разовое нововведение, а как устойчивый вектор трансформации образовательной среды, поддерживаемый профессиональной рефлексией и институциональной стратегией вуза.

2. Типология педагогических инноваций

На основе анализа литературных источников и сравнительного изучения инновационных практик, была сформулирована рабочая типология педагогических инноваций:

Основание классификации Типы педагогических инноваций

По уровню системности Локальные (в рамках одного курса), институциональные (на

уровне вуза), системные (в масштабах образования в целом)

По содержанию Содержательные (модернизация содержания образования), процессуальные (изменения в формах, методах), технологические (внедрение ИКТ, цифровые платформы)

По степени радикальности Инкрементальные (улучшения), радикальные (прорывные трансформации)

По источнику возникновения Эндогенные (инициированные внутри вуза), экзогенные (внешние инициативы – программы, гранты и пр.)

Такая классификация позволяет структурировать инновационную активность и более точно проектировать внедрение изменений в соответствии с целями развития образовательной организации.

3. Условия эффективного формирования и развития инноваций

Исследование показало, что формирование устойчивой инновационной системы вуза требует соблюдения следующих условий:

- Наличие инновационной образовательной среды, включающей цифровую инфраструктуру, открытые образовательные ресурсы, гибкие образовательные траектории;
- Поддержка со стороны управленческих структур вуза – стратегические планы, финансирование, стимулирование инновационной активности;
- Повышение профессиональной компетентности преподавателей, особенно в части проектирования, ИКТ, психолого-педагогической рефлексии;
- Формирование инновационной культуры – ценностей, норм и установок, поддерживающих принятие и развитие нововведений;
- Развитие студентоцентричных практик, включая проектное обучение, исследовательскую и социальную активность студентов.

4. Интеграция инноваций в образовательную политику вуза

Одним из значимых результатов анализа стало понимание того, что инновации не могут рассматриваться как внешние или эпизодические элементы в деятельности вуза. Они должны быть институционализированы через:

- образовательную политику университета;
- внутренние стандарты качества образования;
- мотивационные механизмы профессионального роста педагогов;
- участие в национальных и международных проектах.

Таким образом, инновационное развитие вуза предполагает многокомпонентную модель, в которой инновации встроены в стратегию, кадровую политику, учебный процесс, научную и внеучебную деятельность.

Обсуждение. Полученные в ходе теоретического анализа результаты позволяют утверждать, что педагогические инновации в системе высшего образования представляют собой не просто совокупность методических или технологических новшеств, а системообразующий фактор, определяющий направленность и характер развития образовательной деятельности вуза в современных условиях. Их внедрение связано не только с трансформацией педагогических практик, но и с более глубокими изменениями — институциональными, культурными, ценностно-смысловыми.

1. Инновации как индикатор модернизации образования. Современная образовательная парадигма смещает акцент с трансляции знаний на развитие универсальных компетенций, критического мышления, способности к самообучению и проектной деятельности. В этом контексте педагогические инновации становятся индикатором не просто эффективности, но и адекватности образовательных практик вызовам времени. Таким образом, инновации выполняют функцию механизма адаптации и опережающего развития системы высшего образования.

Однако, как показал анализ, зачастую инновации воспринимаются как внешние проекты, а не как органическая часть образовательной среды. Это снижает их устойчивость, делает зависимыми от административного ресурса, грантов и программ финансирования, а также затрудняет их масштабирование. В связи с этим возникает необходимость переосмысления модели инновационного развития вуза – от линейной (внедрение сверху) к сетевой и органической, предполагающей горизонтальное распространение инновационной культуры.

2. Инновационная культура как системообразующий элемент. Формирование инновационной культуры является краеугольным камнем устойчивого развития педагогических инноваций. Под инновационной культурой вуза следует понимать целостную совокупность установок, ценностей, норм и практик, способствующих принятию нововведений, готовности к эксперименту, толерантности к неудаче и способности к институциональной рефлексии.

Исследования В. А. Болотова, Ю. Г. Татура и других подтверждают, что без формирования инновационной культуры любое новшество воспринимается как навязанное, не вызывающее внутренней мотивации и не приживающееся в академической среде. Напротив, в условиях инновационной культуры педагог сам становится субъектом нововведений, способным разрабатывать, апробировать и транслировать собственные решения.

3. Вызовы и барьеры внедрения педагогических инноваций. Несмотря на очевидные преимущества инновационного подхода, его реализация сталкивается с рядом барьеров:

- инерционность академической среды, ориентированной на репродуктивные формы деятельности;
- дефицит ресурсов и времени у преподавателей для разработки и внедрения инновационных практик;
- отсутствие мотивации и инструментов оценки эффективности инноваций;
- формализация инновационной деятельности, сводящаяся к выполнению отчетных показателей без реальных изменений.

Эти барьеры требуют комплексных решений, включающих как институциональные реформы (разработка стратегий, создание инновационных центров, гибкая аттестация преподавателей), так и переосмысление роли самого преподавателя – от транслятора знаний к педагогу-исследователю и разработчику образовательных решений.

4. Перспективы интеграции инноваций в стратегическое развитие вузов. На современном этапе высшее образование становится частью глобальной экосистемы знаний, где вуз рассматривается не только как образовательное учреждение, но и как центр инновационного развития региона, страны, отрасли. В этом контексте педагогические инновации должны стать не локальной инициативой отдельных преподавателей, а частью стратегии трансформации университетов в интеллектуальные и культурные хабы.

Особое значение здесь приобретает синергия между академической свободой преподавателя, институциональной поддержкой инновационной деятельности и обратной связью от студентов как активных участников образовательного процесса. Инновации, интегрированные в систему оценки качества, карьерного роста, сетевого взаимодействия, становятся устойчивыми и воспроизводимыми.

Заключение. Формирование и развитие педагогических инноваций в системе высшего образования представляет собой сложный, многоуровневый процесс, основанный на взаимодействии теоретических подходов и практической деятельности. Теоретические основы инновационной педагогики включают понятие инновации, условия и факторы инновационной деятельности, классификацию инноваций и механизмы их реализации. Важным направлением развития высшего образования является формирование инновационно-активной среды, способной обеспечивать устойчивое развитие и модернизацию образовательного процесса.

Анализ теоретических основ формирования и развития педагогических инноваций в

системе высшего образования позволяет сделать ряд значимых обобщений. Педагогические инновации выступают неотъемлемым элементом современного образовательного пространства, отвечая на вызовы времени: цифровизацию, трансформацию рынка труда, смену образовательных запросов студентов и общества в целом.

Их сущность заключается в качественном изменении содержания, методов, форм и организационных структур обучения, направленных на развитие личности студента, формирование метапредметных и профессиональных компетенций, готовности к непрерывному обучению. Инновации в образовании не сводятся к технологическим новшествам – они охватывают ценностный, аксиологический и культурный уровни образовательной деятельности.

Разработанная в исследовании типология педагогических инноваций позволяет структурировать инновационные процессы по различным основаниям, что важно для системного управления изменениями в вузах. Выявленные условия формирования инновационной образовательной среды – организационные, личностные и культурные – служат ориентиром для построения стратегий развития вузов.

Одним из ключевых выводов стало признание инновационной культуры как фундаментальной основы устойчивого развития инновационной деятельности. Без осознания ценности нововведений, без профессиональной готовности и мотивации преподавателей, любые инновации рискуют остаться формальными или неэффективными.

Список использованной литературы:

1. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. – М.: Академия, 2001. – 256 с.
2. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. – М.: НИИ школьных технологий, 2006. – 768 с.
3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010. – 272 с.
4. Сластенин В.А. Инновации в образовании: от поиска к решению. – М.: Академия, 2003. – 192 с.
5. Юсуфбекова Н.Р. Аксиологические основы педагогической теории. – М.: Педагогика, 1991. – 239 с.
6. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. – 5th ed. – New York: Free Press, 2003. – 576 p.
7. Christensen C. M., Horn M. B. Disrupting Class: How Disruptive Innovation Will Change the Way the World Learns. – New York: McGraw-Hill, 2013. – 288 p.
8. Болотов В.А. Инновационная образовательная среда как фактор развития профессионального образования // Педагогика. – 2016. – № 6. – С. 12–17.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ETNOPEDAGOGIK YONDASHUV: MADANIY O'ZLIKNI SAQLASH VA TARBIYALASH

*Djurayeva Salomat Nabiyevna,
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda etnopedagogikaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Etnopedagogika vositasida yosh avlodga milliy qadriyatlar va madaniy o'zlikni singdirish, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish masalalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada etnopedagogik yondashuvni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvning ta'lim tizimidagi dolzarbligi va samaradorligi asosida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, etnopedagogika, milliy qadriyatlar, madaniy o'zlik, tarbiya, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuv.

ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: СОХРАНЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ВОСПИТАНИЕ

*Джураева Саломат Набиевна,
Бухарский государственный университет, кафедра педагогики старший преподаватель*

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение этнопедагогике в начальном образовании. Рассматриваются вопросы внедрения национальных ценностей и культурной идентичности в процесс воспитания молодого поколения посредством этнопедагогике, а также её влияние на духовно-нравственное развитие детей. Кроме того, исследуются теоретические и практические аспекты интеграции этнопедагогического подхода в образовательный процесс. На основании анализа подчеркивается актуальность и эффективность данного подхода в системе образования.

Ключевые слова: Начальное образование, этнопедагогика, национальные ценности, культурная идентичность, воспитание, образовательный процесс, педагогический подход.

ETHNOPEDAGOGICAL APPROACH IN PRIMARY EDUCATION: PRESERVING CULTURAL IDENTITY AND NURTURING VALUES

*Djurayeva Salomat Nabiyevna,
Bukhara state university, department of pedagogy, associate professor*

Annotation: This article analyzes the role and significance of ethnopedagogy in primary education. It explores the integration of national values and cultural identity into the process of educating the younger generation through ethnopedagogy and its impact on their moral and spiritual development. Additionally, the article examines the theoretical and practical aspects of integrating ethnopedagogical approaches into the educational process. The relevance and effectiveness of this approach in the education system are highlighted based on the analysis.

Keywords: Primary education, ethnopedagogy, national values, cultural identity, upbringing, educational process, pedagogical approach.

Kirish. Milliy qadriyatlar va madaniyat har bir xalqning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardir. Boshlang'ich ta'lim esa ushbu qadriyatlarni yosh avlodga singdirishda muhim paydevor hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, o'z xalqining tarixi, urf-odatlarini va an'analari bo'lgan hurmatni oshirish imkoniyati mavjud.

Bugungi globalashuv davrida milliy madaniyatni asrash va yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Etnopedagogika bu borada asosiy nazariy va amaliy vosita bo'lib,

xalqning an'analari va tarbiyaviy tajribasiga asoslanadi. Etnopedagogikaning boshlang'ich ta'limga integratsiya qilinishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarning milliy o'zligini anglashiga va ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim bolalarning intellektual va axloqiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda ularni milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analar ruhida tarbiyalash zarur. Etnopedagogika bu borada asosiy o'rin tutadi, chunki u xalqning pedagogik tajribasiga asoslanib, madaniy merosni saqlash va tarbiyaviy jarayonni boyitishda yordam beradi.

Etnopedagogika yordamida bolalar xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, milliy o'yinlar va rasm-rusumlar bilan tanishtiriladi. Bu ularning o'z xalqining tarixi va qadriyatlariga hurmat bilan qarashiga, shuningdek, madaniy o'zligini anglashiga yordam beradi. Masalan:

- Xalq og'zaki ijodi: Afsonalar, dostonlar va maqollar bolalarga axloqiy saboqlar beradi.
- Milliy o'yinlar: Jismoniy tarbiya bilan birga jamoaviylik va milliy o'zlikni rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida etnopedagogik usullarni qo'llash o'qituvchilar uchun ijodkorlikni talab qiladi. Bu yondashuvni quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkin:

- Integratsiyalangan darslar: Milliy qadriyatlarni boshqa fanlar bilan bog'lab o'rgatish.
- Faol metodlar: Rolli o'yinlar, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi loyihalar tashkil etish.
- Tarbiya soatlari: Bolalarni madaniy meros bilan tanishtirish uchun maxsus tadbirlar o'tkazish.

Globalashuv davrida milliy madaniyat va qadriyatlarni asrash muhim vazifalardan biridir. Etnopedagogika orqali yosh avlodning milliy ruhiyatini mustahkamlash, ularni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, bu usul bolalarning ijodiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Etnopedagogika boshlang'ich ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashga yordam beradi. Bu usul ta'lim jarayonini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham boyitadi. Etnopedagogik yondashuv orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga erishiladi.

Bu yo'nalishda quyidagi muhim fikrlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Milliy qadriyatlar va tarbiya: Etnopedagogika yordamida o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, folklor va milliy o'yinlar orqali tarbiyaviy g'oyalarni singdirish mumkin. Bu jarayon ta'limni yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

2. Integratsiya va innovatsiya: Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan birga milliy an'analarni uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, integratsiyalangan darslarda o'quvchilarga bir vaqtning o'zida bir necha fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar beriladi.

3. O'qituvchining roli: Boshlang'ich ta'limda etnopedagogik yondashuvni muvaffaqiyatli qo'llashda o'qituvchining metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda barpoetilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- boshlang'ich ta'limni ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish;
- boshlang'ich ta'lim samaradorligiga erishish.

Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitilayotgan metodik fanlar: boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi III, boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi IV, matematika o'qitish metodikasi, tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi, texnologiya o'qitish metodikasi kabi fanlarning mazmunini belgilaydi. Unga ko'ra, mazkur fanlarning mazmuni boshlang'ich ta'lim, tarbiya va uni o'qitish asoslari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilim, ko'nikma hamda malaka berishdan iborat. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- inson va jamiyat qadriyatlariga asosan 7-11 yoshli o'quvchilarga bilim berish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayoniga ijodiy yondashish;
- boshlang'ich ta'limning samaradorligiga erishish;
- boshlang'ich ta'limni yaxlit tizim sifatida qabul qilish.

Ayni paytda, Sharq boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar mavjud:

-ustoz-shogird an'anasiga tayanish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoaviy (o'qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida) tarbiyalash;

-boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini O'zbekiston sharoitida Prezident va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qish uchun tayyorlash;

-boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini oila va milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish.

G'arb boshlang'ich ta'lim tajribasida quyidagi o'ziga xosliklar mavjud:

-bolaga individual yondashish;

-bolaning ijodiy layoqatlarini shakllantirish;

-bolani mustaqil fikrlash va faoliyatga o'rgatish;

-bolaning kasb-hunar negizlari bilan dastlabki bosqichda tanishtirish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar boshlang'ich ta'limga oid Sharq va G'arb tajribalarini uyg'un o'zlashtirish kerak. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limga oid ilmiy-tadqiqotlar XX asrdan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori va Abdulla Avloniyning ilmiy ishlanmalari, shuningdek, yuzlab o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari mavjud. Eng qadimgi davr boshlang'ich ta'lim pedagogikasi manbalarini xalq og'zaki ijodi, "Avesto" asari va arxeologik topilmalar tashkil qiladi. Bu davrda boshlang'ich ta'lim oilada va ibodatxonalar huzuridagi bilimxonalarda berilgan. Unda yozish, o'qish va biror hunarga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining o'rta asrlar davridagi manbalari juda ko'p bo'lib, ular Ustoz mutafakkirlar tomonidan yaratilgan. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-adab", Hakim Termiziyning "Ma'rifat", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Xojanazar Huvaydoning "Rohati dil", Shermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" asarlarida boshlang'ich ta'limni tashkil etish va o'qitish metodologiyasi tahlil qilib berilgan. Bu davrda o'g'il bolalar masjidlar qoshidagi maktablarda boshlang'ich ta'lim olgan, qiz bolalar esa otinoyi o'qituvchilar tashkil etgan maktablarda o'qishgan. Mazkur davrda boshlang'ich ta'limdan boshlab islom dini asoslari o'qitilgan va fikrlash, nutqni o'stirish uchun shoirlarning she'rlari yodlatilgan. Misol uchun, Alisher Navoiy 6 yoshida Farididdin Attorning (XIII asr) "Mantiq ut-tayr" (Qush tili) asarini yodlab olganligini yozgan. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasining yangi davrida boshlang'ich ta'limni ilmiy-pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Natijada O'zbekiston boshlang'ich ta'limida dunyoviylik tamoyili usituvor bo'lib, bu tizim xalqaro standartlarga moslashdi. Mazkur davrning manbalarini boshlang'ich ta'lim muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar va darsliklar tashkil etadi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib, O'zbekistonda barcha maktab yoshidagilar boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olindi. 1998-yili YUNESKO tomonidan hozirgi zamon O'zbekiston boshlang'ich ta'limi eng ilg'or va samarali ta'lim turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur tajribalar bugungi kunda dunyo miqyosida targ'ibot qilinishi kerak. Hozirgi zamon jahon xalqlarining boshlang'ich ta'lim pedagogikasi tarixi muayyan uyg'unliklarga ega. G'arb va Sharq xalqlari boshlang'ich ta'limida quyidagi umumiyliklar mavjud:

•har bir bolani savodxon qilish;

•har bir bolani keyingi ta'limga tayyorlash;

•boshlang'ich ta'limni ilmiy asosda tashkil qilish;

•boshlang'ich ta'lim beruvchi maxsus mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlash.

Etnopedagogik yondashuv, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida, milliy o'zlikni saqlash va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvning asosiy mohiyati o'quvchilarning

milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan. Shu tariqa, bola o'z xalqining madaniyati, urf-odatlari va tarixini chuqur his qilgan holda shakllanadi.

Etnopedagogik yondashuv bolalar tafakkuri va dunyoqarashini milliy qadriyatlar doirasida rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa, ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, xalq o'yinlari va milliy ramzlarning o'quv jarayonlariga integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu uslub o'quvchilarni milliy o'zligini anglashi, shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur ma'naviy poydevorni yaratadi.

Madaniy o'zlikni saqlash bu yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, unda yosh avlodni o'z xalqining madaniyati, tarixi va tili bilan tanishtirish va ushbu boyliklarni kelajak avlodga etkazish uchun motivatsiya berish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, madaniy xilma-xillikni qadrlash, boshqa millatlar madaniyatiga hurmat bilan qarash va ularning boyliklaridan o'rganishga undash orqali o'quvchilarni kosmopolit dunyoqarashga ega bo'lishga tayyorlash mumkin.

Tarbiya jarayonida etnopedagogik yondashuvning ahamiyati shundaki, u bolaning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari bolada sog'lom ma'naviy va axloqiy qarashlarni shakllantiradi. Ushbu yondashuv orqali yoshlar nafaqat o'z madaniyatini bilib oladi, balki uni saqlash va rivojlantirish mas'uliyatini ham his qiladi.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda etnopedagogik yondashuvni qo'llash nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki yosh avlodning axloqiy, estetik va ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu yondashuvni ta'lim tizimiga kengroq joriy etish zarur, bu esa kelajak avlodning sog'lom, ma'naviy boy va o'z madaniyatiga sodiq bo'lib voyaga yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Etnopedagogika boshlang'ich ta'limda nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda samarali yondashuvlardan biridir. Shu boisdan, uning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi milliy madaniyat va qadriyatlarni avlodlar o'rtasida uzviylikda yetkazish uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabiyevna, D. S., & Sabirjanovna, D. D. Pedagogical bases and technologies for professional development of personality. Vol. 7 No. 10, 2019.
2. Turdiyeva, G. (2023). Ta'lim jarayonida stem-texnologiya-talabalarning loyihalash faoliyatini rivojlanish vositasi sifatida. центр научных публикаций (buxdu. uz), 31(31).
3. Nabiyevna, D. S. (2020). Dustova Dildora Sabirjanovna Pedagogical bases and technologies for professional development of personality. Vol. 7 No. 10, 2019. Journal of Critical Reviews.
4. Джураева, С. Н. (2022). Методы использования современных технологий обучения в начальных классах. Вестник науки и образования, (9 (129)), 70-72.
5. Nabiyevna, D. R. S. (2023). Fundamentals of Using Ethnopedagogy in Primary Education. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 724-278.
6. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
7. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 549-558.
8. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
9. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 23(23).
10. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). Методика работы над речью учащихся

в начальных классах. theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 138-143.

11. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.

12. Yunus, Y. S. (2022). Modern approach to teaching elements of algebra in primary class mathematics lessons. *Scientific Impulse*, 1(5), 774-780.

13. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). Ways of effective use of educational methods and tools. theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 148-152.

14. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmunining tavsifi. theory and analytical aspects of recent research, 1(9), 144-147.

15. Jobirovich, Y. M. (2023). Building competences in organizing primary education content using digital technologies. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 763-766.

16. Jobirovich, Y. M. (2023). Expression of didactic games in primary education through digital technologies. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 93-97.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING LINGVOKOGNITIV TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KOGNITIV LINGVISTIKA YONDASHUVLARI

Kozimova Sadoqat Olim qizi, Osiyo texnologiyalar universiteti
 ORCID: 0009-0000-5569-0457

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirishda kognitiv lingvistika yondashuvlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Zamonaviy ta‘lim talablari o‘qituvchilardan nafaqat fan asoslarini, balki o‘quvchilarning bilish jarayonlarini chuqur tushunishni talab etadi. Maqolada lingvokognitiv tayyorgarlikning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kognitiv lingvistika prinsiplarini o‘qituvchilar tayyorlash tizimiga integratsiya qilish o‘quvchilarning tilni chuqur o‘zlashtirishiga, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Maqola boshlang‘ich ta‘lim metodikasini takomillashtirishga qiziquvchi tadqiqotchilar, pedagoglar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: lingvokognitiv tayyorgarlik, kognitiv lingvistika, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, didaktik imkoniyatlar, ta‘lim metodikasi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik.

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimi global axborotlashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida o‘quvchilardan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini talab etadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va kognitiv qobiliyatlari shakllanadigan muhim davr bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi ta‘lim sifatini belgilovchi asosiy omildir. An‘anaviy ta‘limda tilni o‘rgatish grammatik qoidalar va lug‘at yodlashga qaratilgan bo‘lsa, kognitiv lingvistika tilni insonning bilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida ko‘radi. Bu yondashuv tilning bilimlarni shakllantirish, saqlash va uzatishdagi rolini o‘rganadi, shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir.

Lingvokognitiv tayyorgarlik o‘qituvchining til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni, tilning kognitiv funksiyalarini va nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmlarini tushunish va ularni pedagogik amaliyotda qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Ushbu maqola kognitiv lingvistika yondashuvlarining nazariy asoslarini, didaktik imkoniyatlarini va amaliy samarasini tahlil qiladi, shuningdek, ushbu yondashuvlarni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Kognitiv lingvistika tilni insonning bilish faoliyati va dunyoqarashining aks etishi sifatida o‘rganadi. J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi tilning mavhum tushunchalarni tushunishdagi rolini ko‘rsatadi, masala]10 m n, “vaqt – pul” metaforasi orqali insonning tajribasi tahlil qilinadi. Ch. Fillmorening kognitiv grammatikasi tilning semantik tuzilmalarini kognitiv ramkalar bilan bog‘laydi, R. Langacker esa tilni insonning kognitiv qobiliyatlari qismi sifatida talqin qiladi. Psixolingvistika sohasida L. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi tilning ijtimoiy o‘zaro ta‘siridagi rolini ta‘kidlaydi, J. Piaget esa bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Kognitiv pedagogika ta‘lim jarayonini insonning idrok, xotira va fikrlash jarayonlari nuqtai nazaridan o‘rganadi, didaktika esa o‘quv materialini kognitiv tuzilmalarga mos taqdim etishni maqsad qiladi.

Ushbu tadqiqot kognitiv lingvistika, psixolingvistika va kognitiv pedagogika chorrahasida bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Adabiyotlar tahlili ushbu yondashuvlarning ta‘limda qo‘llanilishi o‘quvchilarda chuqur tushunchalar, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirishda kognitiv lingvistika yondashuvlarining samaradorligini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot nazariy-tahliliy va empirik-pedagogik usullarni qamrab oldi:

1. Nazariy tahlil va sintez: Kognitiv lingvistika, psixolingvistika, kognitiv pedagogika va didaktika bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Lingvokognitiv tayyorgarlikning komponentlari, didaktik imkoniyatlari va amaliy qo'llanilishi aniqlandi.

2. Pedagogik tajriba-sinov:

o Diagnostik bosqich: 200 nafar talaba (100 tajriba, 100 nazorat guruhi) ishtirokida lingvokognitiv tayyorgarlik darajasi so'rovnomalar, testlar, intervyular va kuzatishlar orqali baholandi.

o Shakllantiruvchi bosqich: Tajriba guruhida kognitiv lingvistika yondashuvlariga asoslangan o'quv dasturi joriy etildi, unda tilning kognitiv funksiyalari, konseptual metaforalar, nutqiy faoliyat mexanizmlari, matn tahlili, tushunchalarni shakllantirish usullari va didaktik o'yinlar o'rgatildi. Nazorat guruhida an'anaviy dastur qo'llanildi.

o Nazorat-tahliliy bosqich: Yakuniy diagnostika va statistik tahlil (T-test, xi-kvadrat, korrelyatsion tahlil) orqali natijalar baholandi.

3. Ishtirokchilar: Osiyo texnologiyalar universitetining 3-kurs talabalari tasodifiy tanlash orqali jalb qilindi.

4. Metodlar: Nazariy (tahlil, sintez, qiyoslash), empirik (kuzatish, so'rovnoma, testlar, tajriba-sinov) va statistik (o'rtacha arifmetik, standart og'ish, T-test) usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kognitiv lingvistika yondashuvlarining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba orqali isbotlashdan iborat. Amaliy ahamiyati o'quv dasturlarini takomillashtirish, metodik qo'llanmalar yaratish va o'qituvchilar malakasini oshirishda qo'llaniladi.

Natijalar

Pedagogik tajriba-sinov natijalari kognitiv lingvistika yondashuvlarining samaradorligini tasdiqladi. Diagnostik bosqichda guruhlar o'rtasida sezilarli farq bo'lmagan bo'lsa (p -qiymat > 0.05), shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhidagi talabalar yuqori motivatsiya va faollik ko'rsatdi. Nazorat-tahliliy bosqich natijalari quyidagicha:

2-jadval. Nazorat-tahliliy bosqichda lingvokognitiv tayyorgarlik darajasi

(o'rtacha ball)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (TG)	Nazorat guruhi (NG)	p-qiymat (T-test)
Lingvokognitiv bilimlar	88.5	70.1	< 0.001
Matni kognitiv tahlil qilish	82.1	65.5	< 0.001
Tushunchalarni shakllantirish	85.3	68.9	< 0.001
Tanqidiy fikrlash	79.8	62.4	< 0.001
Ijodiy yondashuv	75.2	58.7	< 0.001

Sifat tahlili tajriba guruhidagi talabalar tilning kognitiv funksiyalarini chuqur o'zlashtirgani, matn tahlili va tushunchalar xaritalarini yaratish ko'nikmalarini egallagani, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirganini ko'rsatdi. Ularning pedagogik tafakkuri tilni inson bilishi bilan bog'liq tizim sifatida ko'rishga o'zgardi, motivatsiyasi va o'ziga ishonchi oshdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari kognitiv lingvistika yondashuvlarining o'qituvchilar tayyorgarligida muhim rolini tasdiqladi. Tilni kognitiv tizim sifatida o'rgatish o'quvchilarda chuqur tushunchalar, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Tajriba guruhidagi yuqori natijalar (2-jadval) ushbu yondashuvning an'anaviy metodlardan ustunligini ko'rsatdi. Lakoff va Johnsonning metafora nazariyasi va Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi amaliyotda tasdiqlandi, bu o'qituvchilarga tilning konseptual asoslarini tushuntirish va o'quvchilarda bilimlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Kelajakdagi tadqiqotlar neyrolingvistika, madaniyatlararo tahlil va sun'iy intellekt integratsiyasi yo'nalishlarida olib borilishi mumkin. Masalan, neyrofiziologik usullar (fMRI, EEG) yordamida lingvokognitiv yondashuvning miya faoliyatiga ta'siri o'rganilishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Tadqiqot kognitiv lingvistika yondashuvlarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvokognitiv tayyorgarligini shakllantirishda yuqori samaradorligini isbotladi. Ular tilni insonning bilish jarayonlari bilan bog'liq tizim sifatida ko'rishga, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tushunchalarni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari o'quv dasturlarini takomillashtirish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va o'qituvchilar malakasini oshirishda qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirishga va yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassislar etib tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111-137). Hanshin.
3. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
5. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. International Universities Press.

STOL TENNISI MASHG'ULOTLARINING JISMONIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Kadirov Shaxrux Nematovich

Buxoro davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti, Sport faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. O'qitishda sog'lomlashtirishning muvaffaqiyati, uning maqsadlari va mazmunini, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish vositalari ya'ni, o'qitish usullarini to'g'ri belgilab olishga bog'liq. O'qitish usullari deganda o'qitish sog'lomlashtirishning pedagogik maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlovchi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muayyan tartibli, maqsadli munosabatlar tizimini tushuniladi. Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Epchilik bu mahorat oson, tez va turli xil harakatlarni tezda va o'yin usullaridan foydalanib, o'yinning texnik uslublari va usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Stol tennisida tennischi turli xil pozitsiyalardan bir qator zarbalarni amalga oshirishi uchun o'z tanasiga ega bo'lishi kerak. O'yinning murakkab texnik usullarining ushbu oqimi iqtisodiy jihatdan tejashni talab qiladi. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida egiluvchanlik va jismoniy sifatlarni rivojlantirishda stol tennisini mashg'ulotlaridan foydalanishning pedagogik va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: stol tennis, egiluvchanlik, jismoniy sifatlarni, oliy ta'lim, pedagogik metodlar, sport pedagogikasi, chaqqonlik, tezlik.

РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ НАСТОЛЬНОМУ ТЕННИСУ В ФОРМИРОВАНИИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ

Кадыров Шахрух Нематович

Бухарский государственный университет, Факультет физического воспитания и спорта

Старший преподаватель кафедры спортивной деятельности

Аннотация. Успех оздоровительного образования в образовании зависит от правильного определения его целей и содержания, а также средств достижения этих целей – методов обучения. Под методами обучения понимается определённая системная, целенаправленная система взаимоотношений между учителем и учеником, обеспечивающая реализацию педагогических целей оздоровительного образования. Процесс физического воспитания многогранен. В нём осуществляется как обучение, так и воспитание. Обучение в процессе физического воспитания направлено на формирование и совершенствование двигательных навыков, компетенций. При этом оказывается влияние на физическое развитие участников. Большинство этих навыков выполняются легко, быстро и с использованием различных движений, технических приёмов и техник игры. В настольном теннисе теннисисту необходимо владеть своим телом для выполнения серии ударов из разных положений. Этот поток сложных технических приёмов игры требует экономической экономии. В данной статье рассматривается педагогическое и практическое значение использования занятий настольным теннисом для развития гибкости и физических качеств студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: настольный теннис, гибкость, физические качества, высшее образование, педагогические методы, спортивная педагогика, ловкость, скорость.

THE ROLE OF TABLE TENNIS TRAINING IN THE FORMATION OF PHYSICAL QUALITIES

Kadyrov Shakhrukh Nematovich

Bukhara State University, Faculty of Physical Education and Sports, Senior Lecturer of the Department of Sports Activities

Abstract. The success of health education in education depends on the correct definition of its goals and content, as well as the means of achieving these goals - teaching methods. Teaching methods are understood as a certain systematic, targeted system of relationships between a teacher and a student, ensuring the implementation of the pedagogical goals of health education. The process of physical education is multifaceted. It includes both training and education. Training in the process of physical education is aimed at the formation and improvement of motor skills, competencies. At the same time, it influences the physical development of participants. Most of these skills are performed easily, quickly and using various movements, technical methods and techniques of the game. In table tennis, a tennis player must control his body to perform a series of strokes from different positions. This flow of complex technical methods of the game requires economic savings. This article examines the pedagogical and practical significance of using table tennis classes to develop flexibility and physical qualities of students of higher education institutions.

Keywords: table tennis, flexibility, physical qualities, higher education, pedagogical methods, sports pedagogy, agility, speed.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi hamda davlatimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportga doimiy katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017-yil 3-iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmon va qarorlarida yurtimiz aholisini sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid masalalarga e‘tibor qaratilgan.

Ma‘lumki, jismoniy tarbiya darslarida talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e‘tibor berilmaydi. Shu bilan birga, oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlarida talabalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning funksional imkoniyatlarini oshirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan bog‘liq vazifalar dolzarbligicha qolmoqda. Talabalarni jismoniy tarbiyalash, shu jumladan oliy ta‘lim muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslangan vositalari va usullarini izlash, jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ko‘plab jihatlar hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug‘ullanish o‘sib kelayotganyoshavlodni har tomonlama rivojlantirishda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo‘lib yetishtirishda, qonunbuzarlik va boshqa salbiy illatlardan xalos etishda jismoniy tarbiya vasport asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan yosh voleybolchilarni tarbiyalashdaharakatli o‘yinlardan foydalanish voleybolchilarni jismoniy sifatlarini to‘laqonli amalga oshirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikrlarni taxlili shuni ko‘rsatadiki, biz tomonimizdantangan yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash mavzusi xozirgi kundadolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Oliy ta‘limning fundamentalligi real dunyodagi jarayonlar, ob‘ektlar va hodisalar orasidagi munosabatlarni ajratib bila olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda asos sifatida qabul qilingan. Malaka talablari tayyorlanayotgan kadrlarning ko‘nikma va malakalariga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu talablar zamonaviy sharoitlardan bevosita kelib chiqqan bo‘lib, ularning maqsadi ta‘lim olayotgan yoshlardan milliy intellektual kadrlarni

shakllantirishdan iborat.

Gumanitar ta'lim yo'nalishlari uchun qo'yilgan malaka talablari ichida sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi faniga doir talablar alohida o'rin tutadi. Bu esa jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarida o'z ifodasini topdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Stol tennis tarixi xakida juda qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ba'zi mutaxassislar stol tennis Osiyo, ya'ni Yaponiya va Xitoyda paydo bo'lgan, deb hisoblashadi. Sport tarixchilari, shu jumladan yapon va xitoy sporti tarixchilarining fikricha, bu yanglish fikr. Hozirgi kunda hech bir mutaxassis birinchi bo'lib kim, qachon va qayerda stol tennisini o'ynay boshlaganini aytolmaydi. Ko'pchilik mutaxassislar stol tennis Angliyada, Qirol tennisining bir turi sifatida paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. Stol tennisining paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Avvaliga o'yin ochiq havoda o'tkazilgan, keyinchalik xona ichida uynash rusm bulgan. So'ng bir-biriga yaqin joylashgan ikki stolda o'ynash, yanada keyinroq esa ikki stolni birlashtirib, o'rtasiga tur tortilgan holda o'ynash odat tusiga kirgan.

1901-yilda stol tennisiga "ping-pong" nomining berilishi koptokning raketkaga urilgandagi tovushi "ping" va stolga urilib, sakrab ketgandagi tovushi "pong"dan olingan. Jihozlarning soddaligi, asosiysi, katta joy talab qilmasligi stol tennisining tez orada mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida xalqaro tashkilot tuzish va o'yin qoidalari ishlab chiqishga zarurat tug'ildi. 1926-yil yanvarda Berlinda stol tennis xalqaro federatsiyasi - ITTF tashkil qilindi.

Stol tennis bo'yicha birinchi jahon chempionati 1927-yil dekabrda bo'lib o'tgan. Unda ayollar va erkaklar yakka holda, juftliklarda - ham erkak, ham ayollar aralash holda ishtirok etishgan.

1928-yildan boshlab musobaqalarda ayollar juftliklari ham ishtirok etishgan. Shundan beri jahon birinchiligi 1940-1946-yillardan tashqari har yili o'tkazib kelinadi.

1957-yildan jahon birinchiligi xar ikki yilda o'tkaziladigan bo'ldi. Undan keyingi yilda Yevropa birinchiligini, shuningdek, Osiyo va Afrika mintaqaviy chempionatlarini o'tkazish boshlandi.

1936-yilda stol tennis xalqaro federatsiyasi - ITTF ping-pong nomini stol tennis nomi bilan almashtirdi.

Hozirgi kunda 40 milliondan ortiq o'yinchi har yili butun dunyo bo'ylab turli rasmiy turnirlarda ishtirok etishadi.

Tennis sporti Turkistonga XX asrning birinchi o'n yilligida kirib kelgan. 1909-yilda Toshkent shahrida ilk tennis maydoni barpo etilgan bo'lib, keyinchalik Farg'ona, Samarqand va Qo'qon shaharlarida ham tennis kortlari tashkil qilindi. 1924-yildan boshlab O'zbekistonda tennis asta-sekin ommalasha boshladi.

1923-yil 13-iyulda qabul qilingan "Fizkultura harakatlarini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi qarordan so'ng qisqa vaqt ichida respublika hududida tennisning rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Natijada olti yil davomida 16 ta tennis korti barpo qilindi va ushbu sport turi bilan shug'ullanuvchilar soni sezilarli darajada ortdi. Toshkent shahrida o'tkazilgan birinchi musobaqasida 100 ga yaqin sportchilar qatnashib, ulardan 22 nafari ayollar, 28 nafari esa milliy sportchilar edi. Ushbu musobaqa respublika bo'ylab keng yoyilib, turli shahar va hududlarda tennis musobaqalari o'tkazila boshlandi.

1949-yildan boshlab O'zbekistonda tennis bo'yicha sport seksiyalari tashkil qilinib, muntazam musobaqalar o'tkazila boshlandi. 1950-yildan esa Samarqand, Olmaliq, Chirchiq, Namangan, Jizzax, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida yangi tennis maydonchalari barpo qilindi. 1983-yilga kelib respublikaning viloyatlarida 25 ta, Toshkent shahrida esa 71 ta tennis korti mavjud edi. Shu davrda Tennis federatsiyasi tanloviga asosan "Burevestnik" va "Dinamo" stadionlarida joylashgan kortlar yuqori o'rinlarni egalladi.

1959-yildan boshlab O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida tennis mutaxassislari tayyorlash yo'lga qo'yildi. Faqatgina shu yilda 150 dan ortiq oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildi. Tennisning rivojlanishiga G.G. Yunusov, V.N. Kodirov, E.A. Alimov, V.P. Kuzmin kabi olimlar va mutaxassislarning katta hissasi qo'shildi. 1984-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda 36 nafar sport ustasi tayyorlanib, ular Yevropa miqyosida ham yuqori natijalarga erishdilar.

Toshkentlik sportchilar A. Kolyasnin, A. Podolskiy, V. Koplon ichki chempionatlardan faxrli o‘rinlarni egallashgan. Shuningdek, V. Bezverulov, A. Almonaev, O. Ogorodov va boshqa tennischilar O‘zbekiston chempionlari sifatida tanilgan. Respublika viloyatlaridan ham ko‘plab tennis ustalari yetishib chiqqan, jumladan: Buxorodan M. Kazakov, Andijondan G. Goykulin, Samarqanddan T. Gulova va S. Delinko hamda boshqa sportchilar turli xalqaro va respublika musobaqalarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilganlar.

Ushbu yillarda O‘zbekiston terma jamoasi xalqaro do‘stona uchrashuvlarda ham faol qatnashib keldi. Xususan, R. Xolikov Afg‘onistonda, N. Muxiddinov va Sh. Chebosheroev Bolgariyada, M. G‘oziyev, A. Yelxin va A. Lukin Fransiyada, shuningdek, boshqa sportchilar Angliyada O‘zbekiston sharafini munosib himoya qildilar.

Tennisni rivojlantirishga xorijiy mutaxassislar ham katta hissa qo‘shishdi. Jumladan, 1928-yilda A. Kochetkov, N. Dmokson, S. Malsev; 1935-yilda A. Vels, S. Andrev; 1959-yilda esa S. Belis-Geymon, Ye. Korbun kabi mutaxassislar O‘zbekistonda tennisni rivojlantirish, yangi kortlarni tashkil etish hamda seminar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda faol ishtirok etganlar.

1960–70-yillarda O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining ilmiy laboratoriyasida professor A.I. Yarotsiy rahbarligida tennis mashg‘ulotlari va mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu davrda bir qator ilmiy dissertatsiyalar ham muvaffaqiyatli himoya qilindi.

1980–90-yillarda respublikada tennis bo‘yicha turli musobaqalar keng ommalashib, xalq orasida sportning mazkur turi yanada mashhur bo‘ldi. Nihoyat, 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tennis rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi.

METODLAR. Stol tennis sport turi talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, ularda tezkorlik, muvofiqlashtirish, chaqqonlik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, egiluvchanlik — inson organizmining jismoniy sifatlari orasida alohida o‘rin tutib, mushaklar va bo‘g‘imlarning harakat amplitudasini kengaytiradi, jarohatlanishlarning oldini oladi, mashg‘ulotlarda samaradorlikni oshiradi.

Stol tennis raketka bilan o‘ynaladigan sport turlari orasida boshqa sport turlariga qaraganda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki bu sport turida o‘yinchilar bir qancha o‘yin uslublarida o‘yin olib borishadi. Shuning uchun ham stol tennis sport turi ko‘p qirrali ekanligi bilan o‘ziga xosdir. Sportchilarning o‘yin darajalari oshib borgani sayin ularning o‘yin uslublari xilma-xilligi kamayib boraveradi, bunga sabab esa texnik jihatdan o‘yinchilarning zaif uslublari ham o‘yin davomida tezda yo‘qolib boraveradi, ammo hatto eng katta xalqaro darajadagi stol tennis o‘yinlarida ham juda ko‘plab bir-biriga o‘xshamagan o‘yin uslublarini kashf etish mumkin. Masalan, stol tennischilarining o‘yin uslublari xilma-xilligi kuzatilishi jihatidan 2021-yil stol tennis tarixidagi eng mashhur yil hisoblanadi. Stol tennisida hujumkor o‘yin uslublari boshqalariga qaraganda ustunlik qiladi. Biroq himoyaviy o‘yin uslublari ham ham hujumkor uslubdan ustun kelishi mumkin. Bu esa o‘yinchilarning o‘yin darajalariga bog‘liq

Uchta muddat stol tennis o‘yining rivojlanishi taktikasida ma‘lum. Birinchisi, taktik usullarning probiyatikasi, ammo to‘pning uzoq muddatli pirojnomasi bilan ajralib turdi; Ikkinchidan, taktik, ammo bitta Udrotta yoki chapga va himoyani kesish uchun alohida qurilgan; Uchinchisi, zamonaviy davr, ammo drenaj va qarshi hujumni o‘yinda turli xil yaxshi rivojlangan texnikani qo‘llash qobiliyatiga asoslangan.

Shunday qilib, zamonaviy hujum tennisida qisqa muddatli faol himoya bilan birlashtirilgan faol hujum va qarshi aktsiya taktikasi - g‘alaba qozonish uchun yordamchi vositadir. Taktika musobaqada, maxsus taktik rejani amalga oshirishda tennischilar harakatlarni aniq tashkil qilishni talab qiladi. Taktik rejani tuzish orqali raqiblarining texnikalarini batafsil tahlil qilish foydali. Reja oddiy va ravshan bo‘lishi kerak. Bu nafaqat taktikaning umumiy vazifalari, balki golni yutish yo‘llarini hisobga olishi kerak. O‘zining kuchli tomonlarini to‘liq ishlatib, iloji bo‘lsa, raqibni zaiflashtiradigan o‘yinda bunday shart-sharoitlarni yaratish kerak. Raqib uchun eng

xavfli bo'lmagan kutilmagan harakatlarni to'xtatish muhimdir. Stol tennisida texnikaning uslub xususiyatlari muhim rol o'ynaydi, turli xil taktik variantlarni talab qiladi. Ilgari ishlab chiqilgan taktik rejaning muntazam treningi sportda tennischi o'yin darajasini oshiradi.

Stol tennis insonlarning turli toifalari uchun faol hordiq chiqarishning ajoyib vositasidir. Bu ayniqsa, aqliy faoliyat bilan band bo'lgan shaxslar uchun hamda tayanch harakati apparatidagi miqsonlarga ega insonlarga ham foydalidir. Bu sport turi sanatoriy, dam olish uylari, bolalarni sog'lomlashtirish va sport lagerlarida keng tarqalgan. Stol tennis jismoniy tarbiya vositasi sifatida jismoniy tarbiya harakatining turli bosqichlarida keng qo'llaniladi. Xalq ta'limi tizimida u maktabdan oldingi va maktab jismoniy tarbiya dasturlariga kiritilgan.

Tarbiya tizimida stol tennisining o'rni avvalambor, o'yindan foydalanishning qulayligi bilan shartlanadi, ya'ni inventar va asbob uskunalarning yuqori bo'lmagan narxi, binoda yoki havoda stolni o'rnatishning soddaligi, o'yinning asosiy qoida va texnika asoslarini oson o'zlashtirish bilan. Biroq, stol tennis - texnik jihatdan eng murakkab sport o'yinlaridan biridir. Yuqori mahoratga ega tennischilar sport o'yinlaridagi eng kichik va eng yengil koptokka egalik qilishning ajoyib texnikasini namoyon qiladilar.

Stol tennis inson sog'lig'ini mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Insonda chaqqonlik, ko'z bilan o'lchash, tezkor o'ylash hislatlarini rivojlantiradi, ya'ni kunlik hayotda kerak bo'ladigan barcha hislatlarini. Uning jozibadorligi bu sport turida turli yoshdagi insonlar g'alaba uchun kurashish imkoniyatiga egaligi va eng yosh yoki eng kuchli doim ham g'olib bo'lavermaydi, bunda ko'p e'tibor ko'nikma, chaqqonlik va koordinatsiyaga bog'liq. Stol tennis - jiddiy mashg'ulotlarni afzal ko'rgan hamda hayotida ilk bor raketkani olgan barcha uchun faol vaqt o'tkazishning ajoyib uslubidir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Stol tennis – tezkor, dinamik va yuqori darajada koordinatsiyani talab etuvchi sport turi sifatida jismoniy tarbiya darslarida keng qo'llanilmoqda. U oddiy sharoitlarda o'tkazilishi, ortiqcha moddiy-texnik ta'minot talab qilmasligi, sog'lomlashtirish samarasi yuqoriligi bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi.

Ayniqsa, egiluvchanlikni rivojlantirishda stol tennis alohida o'rin tutadi. Chunki bu sport turi tezkor yo'nalish o'zgarishlari, keskin burilishlar, tananing turli yo'nalishda harakat qilishi va muvozanatni saqlashni talab qiladi. Shu sababli, muntazam ravishda stol tennis bilan shug'ullangan talabalar nafaqat egiluvchanlik, balki tezkorlik, chidamlilik va muvozanat jihatidan ham yuqori natijalarga erishadi.

Stol tennis mashg'ulotlari nafaqat o'yin mahoratini oshiradi, balki umumiy jismoniy tayyorgarlik, sog'liqni mustahkamlash va psixologik barqarorlikni ham shakllantiradi. Quyida stol tennis mashg'ulotlarining asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'rni kengroq yoritiladi:

1. Tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish. Stol tennis eng avvalo tezkorlikni talab qiladi. To'pning harakati soniyaning ulkan qismlarida sodir bo'ladi, shu bois sportchi tez qaror qabul qilib, tezkor harakat qilishi kerak. Doimiy mashg'ulotlar orqali reaksiya tezligi, chaqqonlik va tez fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bunday mashqlar talabalarda nafaqat sport jarayonida, balki kundalik faoliyatda ham tezkorlikni oshiradi.

2. Koordinatsiya va muvofiqlikni shakllantirish. Stol tennis o'yinchidan qo'l, oyoq va ko'zning uyg'un harakatini talab qiladi. Mashg'ulotlar davomida qo'l-oyoq muvofiqligi va ko'z-qo'l koordinatsiyasi yuqori darajada rivojlanadi. Bu o'z navbatida diqqatni jamlash, harakatlarni boshqarish va mushak faoliyatini uyg'unlashtirishni kuchaytiradi.

3. Egiluvchanlik va chaqqonlikni oshirish. O'yin davomida tez-tez burilish, egilish va tezkor harakatlar bajariladi. Bu jarayon talabalarda tana egiluvchanligi, muskul elastikligi va chaqqonlikni rivojlantiradi. Egiluvchanlikning rivojlanishi esa jarohatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

4. Kuch va chidamlilikni shakllantirish. Harakatlarning tezkor va takroriy bajarilishi dinamik kuchni talab qiladi. Mashg'ulotlarda muntazam ravishda bel, oyoq va qo'l mushaklari mustahkamlanadi. Uzluksiz o'yin jarayoni yurak-qon tomir tizimini chiniqtiradi, natijada umumiy

chidamlilik rivojlanadi.

5. Psixologik sifatlarni rivojlantirish. Stol tennisi sportchilarni iroda, sabr-toqat va ruhiy barqarorlikka o'rgatadi. Tez qaror qabul qilish, o'zini nazorat qilish va stressga bardoshli bo'lish mashg'ulotlar davomida shakllanadi. Bu esa talabalarning nafaqat sportda, balki ta'lim va kundalik hayotdagi samaradorligini ham oshiradi.

6. Umumiy sog'liqni mustahkamlash. Stol tennisi nafas olish, yurak-qon tomir va asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlar semizlik, charchoq va stressning kamayishiga yordam beradi.

Shuningdek, gigiyena, jismoniy tarbiya madaniyati va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

XULOSA. Stol tennisi mashg'ulotlari talabalarning jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. U tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, koordinatsiya, kuch va chidamlilikni shakllantirish bilan bir qatorda, psixologik tayyorgarlikni ham kuchaytiradi. Shu bois, stol tennisi o'quvchi va talabalarning jismoniy tarbiyasida samarali vosita sifatida keng qo'llanilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. 2017-yil 3-iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son
2. 2018-yil 5-mart, "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli farmon
3. Usmonxo'jayev T. va boshq. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. T "O'qituvshi"2004 y 71-b
4. Po'latov A.A., PoTatov Sh.A. Tennis. Umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., 2008. - 89 b.
5. Nigmanov B. B., Xo'jaev F., Raximqulov K. D.«Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma Ilm-Ziyo nashriyoti Toshkent 2011 y.
6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. o'quv qo'llanma, Toshkent., O'z DJTI, 2017 y - 171 b.
7. Kadirov, S. N. M. (2021). Features of technical and tactical training of young football players. Scientific progress, 2(7), 1058-1065.
8. Nematovich, K. S. (2020). The possibilities of physical culture in the modern youth internet community. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 177-180.

TALABALARDA TEXNIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TEKNOLOGIK ASOSLARI VA AMALIY TIZIMI

Madaminova Mavjuda Erkinovna
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotch
ORSID ID 0009-0004-2160-1945

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijod, ixtirochilik, kreativlik, texnik ijodkorlik, ijodiy faoliyat, texnik kreativlik, texnologik ta'lim.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ

Мадаминова Мавжуда Эркиновна
Ферганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация: В данной статье проанализированы педагогические основы и возможности развития технического творчества у студентов.

Ключевые слова: творчество, изобретательность, креативность, техническое творчество, творческая деятельность, техническая креативность, технологическое образование.

TECHNOLOGICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SYSTEM FOR DEVELOPING TECHNICAL CREATIVITY IN STUDENTS

Madaminova Mavjuda Erkinovna
Fergana State University, Independent Researcher

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations and possibilities for developing technical creativity in students.

Keywords: creativity, inventiveness, innovation, technical creativity, creative activity, technical innovation, technological education.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishning protsessual komponenti bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun umumkasbiy fanlar mazmunining o'ziga xosligini, rivojlantiruvchi ta'lim psixologik-pedagogik asoslarini talaba shaxsining individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu komponent ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining o'zaro ta'sirlashuvida, ya'ni texnologik ta'lim talabalarining motivatsion-hissiy sohalariga ta'sir etuvchi va ularning bilish faoliyatini faollashtiruvchi vositalar, metodlar va usullar orqali shaxsga yo'naltirilgan o'qitish sharoitida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda talabalarni malaka talablari asosida o'qitish jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha texnik ijodkorlikni rivojlantirishning quyidagi invariant ta'lim metodlaridan (vaqtni chegaralash metodi, favqulotda ta'qiqqlash metodi, axborot taqchilligi) foydalanishni taklif etamiz.

Vaqt cheklovi metodi (time constraints) - aqliy faoliyatga vaqt faktorining sezilarni ta'sirini hisobga olishga asoslanadi. (nafaqat aqliy faoliyatga) tajribalar ko'rsatishicha, masalani yechishga vaqt chegaralanmaganligida talaba bir necha variantlarni topa oladi. O'z harakatlarini, shuningdek obyektning izlanayotgan sifatlari va strukturalarini va boshqalarni sinchiklab o'ylab ko'radi. Cheklangan (limitlangan) vaqtda qoida bo'yicha, yechim soddalashtiriladi, ya'ni, talaba nimani yaxshi bilsa shundan foydalanish bilan chegaralanadi (5-ilova).

Favqulotda ta'qiqqlash metodi (speed sketching) - shundan iboratki sinaluvchanligiga o'z qurilmalarida u yoki bu bosqichda qandaydir namunaviy harakatlar va konkret (aniq)

materiallardan foydalanish ta'qiqlanadi. Axborot taqchilligi metodi (information failure)-yechimni dastlabki bosqichlarida faoliyatni alohida faollashtirish masalasi qo'yilayotgan qo'llaniladi. Bu holda masalaning dastlabki shartlari masalani yechish uchun zarur bo'lganida umuman yetishmaydigan qilib taqdim etiladi (9-ilova). Natijada texnologik ta'lim talabalarida texnik ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari (tashxislash, xaritalash, ixtirochilik va boshqarish) kengaytiriladi. Bunday ta'limning fundamental muhim sharti bo'lib, texnik obyektlar va ularning turli xil modellari, texnik tajribalar, didaktik materiallar va boshqalar hisoblanadi. O'quv jarayoni sifatini oshirish uchun biz tajribaga qadar va tajribadan so'ng bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisida texnik ijodkorlik shakllanganligi darajasini tashhislanadi va faqat shundan so'nggina o'quv kursini o'qitish metodikasi mazmunini tahrirlanadi. Pedagogik texnologiya deganda odatda "Qo'yilgan ta'lim maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi o'qitish va tarbiyaning nazariy asoslangan jarayonlarini amalga oshirish vositalari va uslublarining yig'indisi" tushuniladi[5]. Demak, bundan kelib chiqadiki, texnik ijodkorlikning shakllanishi uchun o'ziga xos o'qitishning shakl, uslublari va vositalarining xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish zarur, bu esa o'qituvchilar va talabalarining yuqorida ifodalangan maqsadlarga erishishlarini ta'minlovchi harakatlarni tavsiflashga imkon beradi.

Hozirgi paytgacha qaror topgan pedagogik texnologiyalarni[6] belgilab qo'yilgan "Texnik ijodkorlikni rivojlantirish" degan maqsadga muvofiq taxlil qilish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi: Fikrlashning shakllanishi intellektual qarama-qarshiliklarni yengib o'tish vaziyatlaridagina mumkin bo'lgani uchun texnik fikrlashko'nikmasining shakllanishini ta'minlovchi asosiy texnologiya sifatida muammoli o'qitish, loyihali o'qitish texnologiyalaridan muammoli o'qitish tanlab olindi.

T.V.Kudryavsevning fikricha, aynan muammoli o'qitish texnologiyasi texnik bilimlar va kreativlik ko'nikmalari tizimini shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. U o'quv faoliyatini tadqiqot sifatida ("kvazitadqiqot") qarab chiqib, uning rivojlantiruvchi samarasi harakatlarning umumiy usullarini o'zlashtirilishi, nazariy tushunchalarni shakllantirilishi bilan o'lchanadi[7] - deb ta'kidlaydi. Muammoli o'qitish o'qitilayotganlarga muammoli vaziyatlarni yaratish, ta'lim oluvchilarning o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatida Talabalarining iloji boricha mustaqilligida va o'qituvchining umumiy rahbarligida bu vaziyatlarni anglashdan, ularni qabul qilish va hal etishdan iborat.

Muammoli vaziyatlarning to'rtta turi mavjud bo'lib, ularni istalgan o'quv fanini o'qitish jarayonida qurish mumkin:

1) mavjud bilimlar va yangi o'quv masalalarini yechish jarayonida yuzaga keladigan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;

2) masalani yechishning nazariy mumkin bo'ladigan yo'li bilan uni amalga maqsadga muvofiq kelmasligi yoki uni amalga oshirib bo'lmasligi o'rtasidagi, shuningdek amaliy erishilgan natija bilan nazariy asoslashning mavjud emasligi o'rtasidagi qarama-qarshilik;

3) qaror topgan bilimlar tizimining ko'p xilligi bilan ulardan faqat bittasini tanlab olish zarurligi o'rtasidagi qarama-qarshilik.

4) bilimlardan foydalanishning qaror topgan usullari bilan bu usullarni yangi amaliy sharoitlarda qo'llash va ko'rinishni o'zgartirish zarurligi o'rtasidagi qarama-qarshilik.

Bundan tashqari T.V.Kudryavsev texnik fanlarga xos bo'lgan muammoli vaziyatlarning yana ikkita turini ajratgan:

5) sxematik texnik tasvirlarning "statik" tavsifi va ularda "dinamik" jarayonlarni o'qish zarurligi o'rtasidagi qarama-qarshilik;

6) prinsipial sxematik tasvirlarning aynan bir xil tashqi ko'rinishlari to'g'risida qaror topgan tasavvurlar va aniq texnik qurilmalarning konstruktiv bezalishining ko'p xilligi o'rtasidagi qarama-qarshilik[7].

Qarama-qarshiliklarning oxirgi ikki turi tushunchali tizimli bilan uzviy aloqali obrazga

tayanish zarur bo'lgandagi, amaliy faoliyat davomida yuzaga keladi, texnik ijodkorlikning o'ziga xos xususiyati ham ana shundadir.

Muammoli vaziyatlarni hal etishning usullari bo'lib muammoli vaziyatni yaratuvchi va ta'lim oluvchilarni hodisalarning muhim belgilariga yo'naltiruvchi masalalar to'plamini ifodalovchi muammoli xarakterdagi o'quv masalalari hisoblanadi. Bunday masalalarni hal qilish faoliyat uslublarini shakllantirishga ya'ni uning umumlashgan algoritimlardan shakllantirishga olib keladi.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi o'qitish shakllarini tanlashda o'qitish an'anaviy jihatdan auditoriya (nazariy va amaliy o'qitish, o'quv, texnologik va ishlab chiqarish amaliyotlari sifatida), talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtiroki va ularning mustaqil ishlari shaklida amalga oshirilishini e'tiborga olish lozim. Nazariy mashg'ulotlar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisida texnik ijodkorlikning tushunchali va obrazli komponentlarini shakllantirish imkoni bo'ladi. Buning uchun ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha ishni faollashtirish zarur:

1. Materialni bayon qilishning muammoli variantini ishlab chiqish, bu talabalarga o'qituvchining fikri yo'nalishni faol kuzatib borish imkonini beradi.

2. Nazariy materialni turli xil ko'rinishlardagi obrazlari (statik va dinamik tasvirlar va sxemalar) bilan to'ldirish va talabalarga obrazlar bilan qilinadigan harakatlarni namoyish qilish: tushunchadan obrazga, obrazdan tushunchaga, obrazdan obrazga o'tish.

An'naviy ko'rgazmalilik bilan birga turli xildagi obrazlarni va ular bilan amallar bajarishni namoyish etishni ta'minlovchi samarali vosita kompyuter hisoblanadi. Uning yordamida obrazning shakllanish jarayonini (sxemalashtirish jarayonini), uning ko'rinishini o'zgartirishlar-ni, uning dinamikasini kuzatish va boshqa obrazlar bilan o'zaro aloqasini ko'rsatish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari, birinchi navbatda, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi har bir o'quv fanini o'rganish jarayonida uning ta'sirchanligi ortadi.

Tanlab olinadigan masalalar imkon qadar (ya'ni, o'quv materialining mazmuniga bog'liq holda) kasbga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, bu esa talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning eng yaxshi motivli vositasi bo'ladi. Agar kasbiy mazmundagi masalalar atrofida ishlab chiqarish vaziyatining turli ishtirokchilarining harakatlari tizimi tartibga keltirilsa, u holda ishbilarmonlik o'yinni ishlab chiqish va tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi, uni amalga oshirishda kreativlik, integrativlik va tezkorlik parametrlari bo'yicha yanada yuqori darajadagi texnik fikrlashko'nikmasi harakatlari amalga oshiriladi. Masalalar va topshiriqlar tizimi bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarda texnik fikrlashko'nikmasini shakllantirishning eng muhim vositalari bo'lib, muhim texnik obyektlar (real detallar va uzellar, maketlar, modellar, plakatlardagi tasvirlar va boshqa) hisoblanadi. Ular bilan tanishish (ya'ni texnik ijodkorlikning obrazli komponentini shakllantirish) esa faqat ko'z bilan ko'ribgina emas balki boshqa sezgi a'zolari yordamida, xususan, ta'm bilish, eshitish, hid bilish va boshqalar yordamida ham mumkin bo'ladi.

Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda amaliy harakatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar kengaytiriladi va ular yordamida texnik ijodkorlik amalga oshiriladi. Bu harakatlarni ishlab chiqishdagi zaruriyat laboratoriya ishlarini bajarishni to'la kompyuterlashtirishga imkon bermaydi. texnik ijodkorlikning ijodiy tashkil etuvchisini shakllantirish uchun laboratoriya ishlariga oid topshiriqlar talabalarni mini tajribalar o'tkazishga undashi zarur, bu ularga farazlarni ilgari surish va ularning to'g'ri ekanligini tekshirish bo'yicha amaliy harakatlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

O'quv, texnologik va ishlab chiqarish amaliyotlari jarayonida talabalarda texnik ijodkorlikning amaliy harakatlarini takomillashtirish va real ishlab chiqarish masalalarini hal etishda ishtirok imkoniyati paydo bo'ladi.

Fikrlashning mazkur turini shakllantirish uchun talabalarga amaliyotda quyidagi topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir: texnik ijodkorlik yordamida yechiladigan kasbiy masalalar turlarini tahlil qilish; texnik masalalarni yechishni ta'minlovchi intellektual va amaliy harakatlarni

tavsiflash; bu masalalarni yechish jarayonidagishaxsiy muvaffiqiyatlarni baholash.

Oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari muvofiq o'quv fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishiga auditoriya mashg'ulotlariga qancha bo'lsa, shuncha vaqt ajratiladi, shuning uchun o'qituvchilar oldida talabalarning o'quv faoliyatining bu muhim tarkibiy qismini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish masalasi turadi.

Talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida o'qituvchilar uni faollashtiruvchi o'quv fanlari bo'yicha ularning mustaqil ishlarining quyidagi turlarini rejalashtirishi lozim: nazariy materialning ayrim bo'laklarini mustaqil o'rganish. Buning uchun muhim shartlar bo'lib talabalarga mavzu tuzilmasida o'rganilayotgan masalaning o'rnini anglashga imkon beruvchi tegishli o'quv materiallari va topshiriqlar hisoblanadi. Bunday topshiriqlar talabalarga obrazdan tushunchaga o'tish harakatlarini mashq qilishlariga imkon beradi; qo'shimcha nazariy materiallarni mustaqil o'rganish va ular uchun tuzilmaviy-mantiqiy sxemalar tuzish. Bunday topshiriqlar talabalarga tushunchadan obrazga o'tish harakatlarini mashq qilishlariga imkon beradi; texnik ijodkorlikni faolashtiruvchi o'quv fanlari bo'yicha amaliy uy topshiriqlarini mustaqil bajarish; masalalar yechish, laboratoriya ishlari bo'yicha, amaliyotlar va boshqalar bo'yicha hisobotlar tayyorlash; kurs ishlari va kurs loyihalarini bajarish.

Adabiyotlar

1. Галенюк Г.А., Жилич С.В., Быкова О.С. Окружающая среда и ее роль в профессиональном формировании агроинженера // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научно-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 82-83.

2. Жилич С.В., Галенюк Г.А. Эффективность применения интерактивных методов обучения на занятиях по инженерной графике // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научно-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 124-125.

3. Aripdjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... dis. avtoref. – T.: 2017. – B. 10-11

4. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T.: 2017. – B. 54-55.

5. Тихомиров С.А. Модели профессиональной деятельности, как информационная основа целевой интенсивной подготовки специалиста // Совершенствование качества подготовки специалистов на основе системного методического обеспечения учебного процесса. Тез. докл. Ленинградского политехнического института.- Л.: Изд-во ЛГУ- 1985. – 44 с.

6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004. -102 b.

7. Кудрявцев Т.В. Исследование психологических особенностей профессионального становления личности // Методологические проблемы повышения эффективности психолого-педагогических исследований. - М.:1985. - С. 20-23.

OILA BILAN HAMKORLIKDA O'QUVCHILARDA SHAXSLARARO QADRIYATLI MUNOSABAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Maxmudov Yunusbek Bazarbayevich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining tadqiqotchisi

Annotasiya. Oila bilan hamkorlikda o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga xizmat qiluvchi bir qancha samarali metodlar mavjud bo'lib, ushbu maqoladi ularni samarali qo'llash haqida ma'lumotlar berilgan. Shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo'lgan o'quvchilar o'quv faoliyati jarayonida faollik, maqsadga yo'nalganlik, axborotlarni kompleks tarzda o'zlashtirish va amaliy faoliyatlarida qo'llashga oid tavsiyalar berilgan. Suhbat, munozara metodi, rolli o'yinlar, inssenirovka metodi, mashq va amaliy faoliyat, namuna orqali tarbiyalash, ijtimoiy loyihalar va aksiyalarda ishtirok etish, interfaol metodlarni qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, shaxslararo, munosabat, tajriba, qadriyat, metod, yo'nalish, hamkorlik, oila, ota-ona, pedagog, jamiyat, pedagogik-psixologik.

O'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar sinfdagi barcha o'quvchilar, o'qituvchi va oila, ota-ona orasida hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. O'qituvchi esa o'quvchilarga harakat yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Shu bilan bir qatorda individual va guruhli faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha o'z munosabatlarini bildirishlari uchun qulay sharoit yaratadi. O'quvchilar natijaga erishishlari uchun o'qituvchi ular oldiga aniq ta'lim-tarbiyaviy vazifalar qo'yishi lozim. Shu bilan bir qatorda ularning o'quv faoliyati natijalarini muayyan mezonlarga tayangan holda baholashi muhim ahamiyatga ega. Shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo'lgan o'quvchilar o'quv faoliyati jarayonida faollik, maqsadga yo'nalganlik, axborotlarni kompleks tarzda o'zlashtirish va amaliy faoliyatlarida qo'llash ko'nikmalarini namoyon eta oladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarda qadriyatli munosabatlar tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar dars va darsdan tashqari vaziyatlarda o'z mavqelarini aniqlash imkonini beradigan ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni qadriyatli munosabatlarga tayyorlash metodlari:

O'quvchilarni oilada va ta'lim muassasida qadriyatli munosabatga tayyorlashga xiamt qiladigan bir qator metodlar mavjud. Ular:

1. Suhbat, munozara metodi;
2. Rolli o'yinlar, inssenirovka metodi;
3. Mashq va amaliy faoliyat;
4. Namuna orqali tarbiyalash;
5. Ijtimoiy loyihalar va aksiyalarda ishtirok etish;
6. Interfaol metodlar.

Suhbat, munozara metodi. Ota-onalar bilan o'qituvchilar O'quvchilar bilan axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etadilar. Bunday suhbatlar jarayonida vaziyatga qarab o'qituvchi yoki ota-onaning fikrlarini tinglash asosida o'quvchilarda o'ylash, mulohaza, tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. O'quvchilar bahs-munozaralarda sinfdoshlari yoki oila a'zolarining fikrlarini hurmat qilishga o'rganadilar.

Suhbat – pedagog, o'quvchi yoki farzandlar bilan ota-onalar orasidagi muloqot, ma'lumot, qadriyat va tajriba almashish metodidir. Uning maqsadi – o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish, shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishdan iborat. O'quvchilarda o'z fikr bildirish, boshqalarni tinglash, hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Umuminsoniy qadriyatlar: mehr-oqibat, adolat, mas'uliyat, hamjihatlikni anglash va hayotda qo'llashga yo'naltirgan faoliyat tajribasi hosil qilinadi. L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, insonning bilimi va

qadriyatlari muloqot orqali shakllanadi. Muloqot esa insonda shaxslararo muosabat tajribasini shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

L.S.Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivizm nazariyasi. Ta'lim va tarbiya sohasidagi eng samarali konsepsiya sifatida mutaxassislarning e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ushbu nazariyaning asosiy g'oyalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Ijtimoiy muhit – rivojlanishning asosi ekanligi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Inson tajriba va bilimlarni mustaqil ravishda emas, balki jamiyat a'zolari bilan muloqot jarayonida o'zlashtiradi.

b) Bolaning fikrlashi va tafakkuri atrofdagi kattalar: ota-ona, o'qituvchi, tengdoshlar) bilan hamkorlikda shakllanadi.

2. Madaniy vositalar: til, ramzlar va boshqa vositalar.

a) Ta'lim jarayonida til, yozuv, ramz va belgilar insonning fikrlashini rivojlantiradi.

b) Til – nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlashni shakllantiruvchi asosiy instrument.

3. Yaqin rivojlanish zonasi (Zone of Proximal Development – ZPD). Bu ijtimoiy-konstruktivizm nazariyaning asosiy negizini tashkil etadi. Unda quyidagilar ustuvor o'rinni egallaydi:

a) bolaning o'zi mustaqil va kattalar yordamida bajara oladigan harakatlari orasidagi oraliq "yaqin rivojlanish zonasi" deb ataladi;

b) o'qituvchi, ota-ona yoki tengdoshlari yordamida bola yuqoriroq darajadagi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtiradi.

4. Interpsixik - insonning bilim, ko'nikma va psixologik jarayonlari avvalo boshqalar bilan muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini ifodalovchi tushuncha :

a) bilimlar va qadriyatlar avvalo, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy muloqotda namoyon bo'ladi;

b) bilimlar va qadriyatlar shaxsning ichki tafakkuriga aylanadi.

5. Ta'lim rivojlanishdan oldinda bo'ladi. Shunga ko'ra u shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Bunda quyidagilarga ustuvorlik beriladi.

a) bolaning tafakkuri va qobiliyatlari tabiiy ravishda o'sib bormaydi, balki ta'lim va muloqot jarayonida shakllanadi;

b) ta'lim rivojlanishning yetakchi omili hisoblanadi.

O'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda Vigotskiyning Ijtimoiy-konstruktivizm nazariyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu nazariya bir qator xususiyatlarga ega. Ular:

1. Ta'lim jarayonida hamkorlikning muhim ahamiyat kasb etishi. Mazkur hamkorlik o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona hamda o'quvchi-o'quvchilar orasida amalga oshishi.

2. O'qituvchi hamda ota-ona o'quvchiga "yo'l ko'rsatuvchi" yoki yoki "scaffolding" (tayanch) rolini bajarishi.

3. Interaktiv metodlarning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslangan holda ishlab chiqilganligi.

4. O'quvchilarda qadriyatli munosabatlarni (hurmat, hamkorlik, adolat) shakllantirish ham aynan ijtimoiy muloqot orqali amalga oshishida o'z ifodasini topgan.

Shunday qilib, Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivizm nazariyasi bolaning ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanishi, til va muloqot shaxs taraqqiyotining asosiy vositasi ekanligi, ta'lim va tarbiya jarayonida "yaqin rivojlanish zonasi"ni hisobga olish o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egaligini nazariy – amaliy jihatdan asoslab bergan.

Maktabda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarning bilim ko'nikma va tayanch kompetensiyalarini tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma'naviy-marifiy tadbirlarning vaqti o'quvchilarning imkoniyatlari va xohish istaklarini hisobga olgan holda belgilanadi. Shuning uchun ham bu dars jarayonidan vaqt taqsimoti jihatidan farqlanadi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning quyidagi shakllari o'quvchilar orasida

shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda quyidagi shakllari qulay hisoblanadi:

1. O'yinga asoslangan faoliyat
2. Bilish faoliyati
3. Muammoli qadriyatli muloqot jarayoni
4. Dam olish va xordiq chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat
5. Badiiy-ijodiy faoliyat
6. Ijtimoiy-kreativ faoliyat. Shuningdek, ixtiyoriy tarzda qayta shakllantiruvchi ijtimoiy faoliyat
7. Sog'lomlashtiruvchi sport faoliyati
8. O'lkashunoslik yo'nalishidagi turistik faoliyat
9. Foydali mehnat faoliyati

O'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabatlar tajribasini shakllantirishning bir qator yo'nalishlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

- ilmiy bilish;
- badiiy-estetik;
- sog'lomlashtiruvchi sport;
- harbiy vatanparvarlik;
- ijtimoiy foydali hamda loyiha faoliyati yo'nalishlari shular jumlasidandir.

O'quvchilarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-marifiy ishlarning yo'nalishlari bir-birlari bilan o'zaro aloqador bo'lib ularning mazmuni bir-birini to'ldiradi. Masalan: o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda sog'lomlashtiruvchi sport musobaqalari, badiiy-estetik mazmundagi tadbirlar hamda harbiy vatanparvarlik tadbirlari alohida ahamiyatga ega. Harbiy vatanparvarlik hamda loyiha faoliyati dars va darsdan tashqari aksariyat tadbirlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur tadbirlar o'quvchilarda qadriyatlararo munosabat tajribasini shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunki o'quvchilarda vatanparvarlik, fuqarolik, o'z kuvhiga ishinch, jamoaviylik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, badiiy-estetik did, nafosat tarbiyasi va muomala madaniyatiga oid ko'nikmalar shakllantiriladi. Ijtimoiy foydali mehnat faoliyati esa o'quvchilar orasida ijtimoiy ijod va mehnat faoliyatiga oid munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning ijtimoiylashuvlari jadallashadi.

Maktabdagi va oiladagi ijtimoiy-madaniy muhitda o'quvchilarning dam olish faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish orqali ularda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Dam olish vaziyatlari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sirasiga kiradi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning bo'sh vaqtini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Dam olish vaziyatlarida o'quvchilar jismoniy, axloqiy jihatidan rivojlanish bilan bir qatorda bir-birlarining shaxsiy imkoniyatlarini bilib olishga muvaffaq bo'ladilar. Dam olish daqiqalarida o'quvchilar o'z imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini namoyon etishga muvaffaq bo'ladilar. Yangi ijodiy loyoqatlari ochiladi.

O'quvchilarning oilada va maktabdagi dam olishga oid faoliyatlarini samarali tashkil etish hamda o'quvchilarni yangi munosabatlar, yangi ijtimoiy muhitga moslashtirishda ta'til kunlari yaqindan yordam beradi. Chunki ta'til kunlari o'quvchilar bo'sh vaqtining asosiy qismini tashkil etadi. Ta'til kunlari o'quvchilar o'z salomatliklarini mustahkamlash bilan bir qatorda ijodiy imkoniyatlarini namoyon etadilar. Ta'til davrida tashkil etiladigan tadbirlar o'quvchilar orasida shaxslararo qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda sana'at asarlarida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar maktabdagi ijodiy muhitni tashkil etish orqali o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda alohida imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Chunki badiiy kechalar, uchrashuvlar o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka undaydi. Bunday tadbirlarni tashkil etishda o'qituvchilar multimadaniy yondashuvga tayanishi lozim. Bunday tadbirlar milliy-madaniy yondashuv doirasida o'quvchilarni o'zbek xalqiga xos bo'lgan an'analar,

urf-odatlar bilan tanishtirishga sharoit yaratadi. Mazkur tadbirlarda jamoaviy ish shakllaridan foydalaniladi. Natijada o'quvchilar birgalikdagi ijodiy faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sport sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat ham o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabatlarni shakllantirish orqali ular o'rtasida vujudga keladigan turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Muntazam sport sog'lomlashtirish faoliyati bilan shug'ullanish natijasida o'quvchilarning harakatlari optimallasadi. Sportning inson hayotidagi mohiyatini anglash, u bilan bog'liq etnoqadriyatlarni bilish, milliy tarixiy an'analar bilan bog'liq sport turlari haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabatlar, milliy g'urur, o'z o'tmishidan faxrlanish tuyg'ulari shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda sport faoliyati o'quvchilarni o'zaro jipslashtirish, do'stlikni qadrlashga undash vazifasini ham bajaradi. O'quvchilarning salomatligi mustahkamlanib, intellektual layoqatlari rivojlanadi. Sport faoliyati orqali o'quvchilar orasida bir-birini qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish, jamoaning umumiy manfaatlari uchun qayg'urish tuyg'ulari shakllantiriladi. Natijada o'quvchilarda birdamlik va bir-biri bilan musobaqalashish ko'nikmalari tarkib topadi. Boshqalardan ko'ra yaxshiroq harakatlanish, yuqoriroq natijalarga erishishga bo'lgan intilish o'quvchilarda rivojlanish motivlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Natijada ular o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini ko'rishga muvaffaq bo'ladilar. Sport faoliyati o'quvchilarni ijtimoiylashtirish va ijtimoiy - madaniy munosabatlarga tayyorlashning samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Turistik o'lkashunoslik faoliyati jarayonida o'quvchilar bir qator faoliyat turlarini kompleks tarzda bajarishga muvaffaq bo'ladilar. Ular O'zbekistonning diqqatga sazovor joylari bilan tanishish jarayonida o'z sinfdoshlari va atrofdegilar bilan muayyan mavzuda muloqotga kirishadilar. Tarixiy obidalar, o'lkaning diqqatga sazovor joylari, tarixiy shaxslar haqida zarur bilimlarni o'zlashtirib, o'zaro muhokama qiladilar, fikr almashadilar. Natijada shaxslararo munosabatlar o'z rivojlanishining yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Bunday muloqotlar jarayonida o'zaro fikr almashish, bahs-munozara, dialog kabi faoliyat usullari amalga oshiriladi. O'quvchilarning bilimi bilimi boyib, milliy madaniy dunyoqarashi rivojlanadi. Ular o'zlari bilgan ma'lumotlarni kundalik hayotda tengdoshlari va kattalarga taqdim etib, ular bilan munosabatga kirishadi. Mazkur faoliyat turi o'quvchilarning e'tiborini turizmga jalb qilib, o'z Vatani va turli mamlakatlar va madaniyatlar haqidagi ma'lumotlarga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Ijtimoiy ijodkorlik ham o'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabatga kirishish tajribasini shakllantiradi. O'quvchilarni ijtimoiylashtirish maqsadida ular bilan ijtimoiy foydali faoliyatning turli shakllari tashkil qilinadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarda umumiy xarakterdagi jamoaviy faoliyatga nisbatan ijodiy faoliyat tajribasi shakllanadi. Mazkur faoliyat o'quvchilarda mustaqillik, guruhda va jamoada birgalikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гукова Д. А., Тухужева Л. А., Бегиева Б. М. Межличностные отношения // Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 26 (38). – С. 100-101.
2. Safarova R, Yusupova F. va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondashuvlar. T. Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 115 b.
3. Sysoyev P.V. Cultural Self-determination of the Individual in the Context of the Dialogue of Cultures, monograph, R.Derzhavin Tambov State University, 2001.-145 p
4. Michek S., Loudová I. Family and interpersonal relationship in early adolescence // Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2014. – T. 112. – C. 683-692.
5. Obot I. M., Sunday M. O., EdemOkon A. Moral values orientation and students' interpersonal relationship in Calabar education zone, Nigeria: The Importance of effective virtue based learning // Journal of the Social Sciences. – 2020. – T. 48. – №. 2.
6. Fitzpatrick M. A. T., Badzinski D. M. All in the family: Interpersonal communication in kin relationships. – 1985.

ELEKTRON TA'LIM DASTURLARINI LOYIHALASH KONTSEPTUAL METODOLOGIYASI

Nasirullaeva Dildora Xayrullaevna

INHA universiteti, "Iqtisodiy prognozlashtirish va Moliyaviy rejalashtirish" bo'limi bosh mutaxassis

Annotatsiya. Elektron ta'lim dasturlarini loyihalash - bu pedagogik maqsadlar, ta'lim konteksti xususiyatlari, AKT va pedagogik dizayn tamoyillarini hisobga olgan holda raqamli ta'lim tizimlarini ishlab chiqish, rejalashtirish, joriy etish va baholashning tizimli jarayonidir. Bu pedagogik, texnologik va uslubiy echimlarni birlashtirish orqali oldindan belgilangan ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan raqamli ta'lim tajribasini yaratish va tashkil etishning tizimli jarayonidir. Loyihalashning asosiy maqsadi - talabalarning elektron muhit orqali mazmunni o'zlashtirishda samaradorligi, foydalanish imkoniyati va motivatsiyasini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim dasturlari, oliy ta'lim, raqamli ta'lim, rivojlantirish, shaxs, jamiyat, oliy ta'lim tizimi, ta'lim maqsadlari, ilmiy idrok etish, bilimlar, elektron muhit, dasturiy ta'minot, tadqiqotlar

CONCEPTUAL METHODOLOGY FOR DESIGNING ELECTRONIC EDUCATIONAL PROGRAMS

Nasirullaeva Dildora Khairullaevna

INHA University, Chief Specialist, Department of "Economic Forecasting and Financial Planning"

Abstract. Designing electronic educational programs is a systematic process of developing, planning, implementing and evaluating digital educational systems, taking into account pedagogical goals, educational context features, ICT and pedagogical design principles. This is a systematic process of creating and organizing a digital educational experience aimed at achieving predetermined educational goals through a combination of pedagogical, technological and methodological solutions. The main goal of design is to ensure the effectiveness, accessibility and motivation of students in mastering content through an electronic environment.

Keywords: Electronic educational programs, higher education, digital education, development, personality, society, higher education system, educational goals, scientific perception, knowledge, electronic environment, software, research

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ

Насируллаева Дилдора Хайруллаевна

Университет ИНХА,

Главный специалист кафедры «Экономическое прогнозирование и финансовое планирование»

Аннотация. Проектирование электронных образовательных программ – это системный процесс разработки, планирования, внедрения и оценки цифровых образовательных систем с учетом педагогических целей, особенностей образовательного контекста, принципов ИКТ и педагогического проектирования. Это системный процесс создания и организации цифрового образовательного опыта, направленного на достижение заранее определенных образовательных целей посредством совокупности педагогических, технологических и методических решений. Основная цель проектирования – обеспечение эффективности, доступности и мотивации обучающихся в освоении контента посредством электронной среды.

Ключевые слова: Электронные образовательные программы, высшее образование, цифровое образование, развитие, личность, общество, система высшего образования, образовательные цели, научное восприятие, знания, электронная среда, программное обеспечение, исследования

Kirish. Elektron o'quv dasturi elektron ta'lim muhitida (LMS, MOOC, interaktiv platformalar va boshqalar) joylashtirilgan raqamli o'quv materiallari, topshiriqlar, testlar va fikr-mulohaza shakllarining tuzilgan to'plamidir. Loyihalash o'z ichiga – talabalarning ehtiyojlarini tahlil qilish; o'quv maqsadlarini belgilash; tarkibni tanlash va tizimlashtirish; ta'lim shakllari, usullari va vositalarini belgilash; interfeys

va o'zaro ta'sir mantig'ini ishlab chiqish; ta'lim samaradorligini baholashini oladi.

Elektron ta'lim dasturlarini loyihalashda quyidagi ilmiy sohalarga asoslanamiz:

Pedagogika – o'qitish nazariyalari, o'qitish metodikasi, didaktika.

Psixologiya – kognitiv jarayonlar, axborotni idrok etish tamoyillari, motivatsiya.

Axborot texnologiyalari – SCORM standartlari, xAPI, LMS platformalarini tanlash.

Dizayn va multimedia: vizual dizayn tamoyillari, ta'lim kontekstida UX/UI.

Metodologiya. Elektron ta'lim dasturlarini loyihalash ta'limning gumanistik paradigmasiga asoslanadi, unga ko'ra talaba bilimning passiv iste'molchisi emas, balki o'quv jarayonining faol sub'ekti hisoblanadi. Ta'lim talabaning individual ehtiyojlari, sur'ati, uslubi va motivatsiyasini hisobga olishi kerak. «Elektron ta'limning markazida texnologiya emas, shaxs bo'lishi kerak: loyihalash shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak» deb ta'kidlaydi V.V.Karpov .

Elektron ta'lim dasturlarini loyihalashning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat, maqsadi – talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashuvchi yuqori sifatli, moslashuvchan va pedagogik jihatdan mos raqamli mahsulotni yaratish; vazifalari – mazmunning ilmiy, uslubiy va texnologik asoslilikini ta'minlash, o'quv materialini raqamli muhitga moslashtirish, talabalarining idroki, motivatsiyasi va mustaqilligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, qayta aloqa va ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun sharoit yaratishdir.

Elektron ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda o'rganish psixologiyasining asosiy tamoyillariga e'tibor qaratiladi, jumladan:

Kognitiv yuklama (Cognitive Load Theory): o'quv materiallar talabaning ish xotirasini ortiqcha yuklamalik uchun tashkil etilishi kerak (Sweller J., 1994).

Motivatsiya va jalb qilish (Kellerning ARCS modeli): mazmun jozibador, mazmunli bo'lishi, qiziqish uyg'otishi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini o'z ichiga olishi kerak (Keller J.M., 1987).

Yaqin rivojlanish zonalari (L.S.Vygotskiy bo'yicha): loyihalash bosqichma-bosqich (scaffolding) orqali talabaga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam berishi kerak.

L.S.Pranskiyning fikriga ko'ra, elektron ta'lim dasturlarini loyihalashning nazariy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Modullik tamoyili - materialni mustaqil mantiqiy bloklarga ajratib olish qobiliyati;

Interfaollik tamoyili – o'quvchining o'quv jarayoniga simulyatsiyalar, o'quv moslamalari va moslashtiruvchi topshiriqlar orqali faol jalb etilishi;

Bilimlarni vizualizatsiya qilish tamoyili - tushunishni kuchaytirish uchun infografika, video, animatsiyalardan foydalanish;

Moslashuvchanlik tamoyili - o'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi;

Mobillik va qulaylik tamoyili dasturlarning ko'p platformali va mobil ta'lim (BYOD) talablariga muvofiqligidir.

K.Bonk, C.Graham tadqiqotlariga asoslanib, sifatli dasturiy ta'minot quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi kerak:

Maqsadli modul - aniq belgilangan natijalari bilan;

Kontent bloki – o'qitish darajasiga mos keladigan tuzilgan nazariy materiallar;

Amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar - testlar, loyihalar, laboratoriya topshiriqlari, interaktiv simulyatorlar;

Monitoring va teskari aloqa – taraqqiyotni diagnostika qilish va vizualizatsiya qilish vositasidir;

Motivatsion elementlar – o'yin, yutuqlar, faoliyat reytingi.

Xalqaro amaliyotda elektron kurslarni loyihalashning asosiy ADDIE (Analysis -tahlil, Design - loyihalash, Development - ishlab chiqish, Implementation - amalga oshirish, Evaluation - baholash) va SAM (Successive Approximation Model - ketma-ket yaqinlashish modeli) modellari tan olingan:

ADDIE AQSHda 1975 yildan beri qo'llaniladigan va ketma-ket rivojlanish siklini o'z ichiga oladigan an'anaviy modeldir.

SAM - bu Agile muhitlari kontekstida tavsiya etilgan iterativ va moslashuvchan yondashuv bo'lib, bu erda asosiy e'tibor tezkor prototiplash va test nazoratlariga qaratiladi .

SAM model uch bosqichga bo'lingan yanada moslashuvchan va iterativ yondashuvini o'z ichiga oladi:

1. Tayyorgarlik (Pre-loyiha (Preparation)): tezkor talablarni baholash va jamoani shakllantirish.
2. Loyihalashtirish va ishlab chiqish (Iterative Design-Develop): prototiplash, mutaxassislardan tezkor qayta aloqa, fikr mulohazalar va tuzatishlar.
3. Amalga oshirish va baholash (Implementation & Evaluation): sinovlash, sinov natijalari asosida takomillashtirish.

“SAM model ishlab chiqish vaqtini qisqartiradi va moslashuvchanlikni oshiradi, bu ayniqsa talablar dinamik ravishda o'zgaranda muhimdir” .

Agile muhiti (ingliz tilidan Agile - moslashuvchan) loyihani boshqarishning moslashuvchan metodologiyasiga asoslangan ish muhiti bo'lib, u o'zgarishlarga javob berish tezligi, interaktiv rivojlanish, jamoaviy hamkorlik va mahsulotni doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan. Agile muhitlar ko'pincha IT va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda qo'llaniladi, ammo ta'lim, menejment, ilmiy tadqiqotlar va hatto pedagogik dizayn sohalarida ham faol qo'llaniladi.

Natijalar. Ta'lim dasturlarini loyihalash kontekstida Agile quyidagilarga imkon beradi: o'quv modullarining prototiplarini yaratish va ularning samaradorligini tezda sinab ko'rish; rivojlanishning har bir bosqichida talabalar va o'qituvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish; ta'lim dasturlarini yangi didaktik vazifalarga moslashuvchan tarzda moslashtirish; o'quv rejasidagi o'zgarishlarga yoki hukumat talablariga tezroq javob berish.

Biologiya fanini samarali o'qitish uchun platformani ishlab chiqishda:

Platformani yaratuvchi jamoa 2 hafta ichida biror mavzu, masalan “Hujayra” tuzilishi modulining birinchi versiyasini ishlab chiqadi (sprint);

talabalar va o'qituvchilar uni sinab ko'radilar va fikr bildiradilar;

keyingi sprintda vizualizatsiya yaxshilanadi va interaktiv test qo'shiladi;

parallel ravishda keyingi modullar (masalan, «Genetika») avval yaratilgan shablon yordamida ishlab chiqiladi.

G.Kasser fikricha, bugungi kunda loyihalashda quyidagi zamonaviy tendentsiyalar dolzarbligi bilan ajralib turibdi :

Micro'o'qish (microlearning) - materialni qisqa, oson o'zlashtiraoladigan bo'laklarga bo'lish jarayoni;

Sun'iy intellekt va moslashuvchan platformalar - o'quv traektoriyalarni individuallashtirish;

Modulli tarmoqli ta'lim muhitlari - ochiq onlayn kurslar (MOOCs) va Moodle, Canvas, Open edX kabi LMS platformalarini ishlab chiqish.

Elektron ta'lim dasturlarini loyihalash nafaqat texnik, balki pedagogik jarayon bo'lib, texnologiya va insonparvarlik yo'nalishi o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Loyihalashning muvaffaqiyati ishlab chiquvchining uslubiy savodxonligiga, darsning moslashuvchanligiga va talabalarda mustaqillik, tanqidiy fikrlash va ilmiy fikrlashni rivojlantirish qobiliyatiga bog'liq.

Dasturiy ta'minotning pedagogik komponenti elektron ta'lim dasturlari tuzilishi va funkcionalligiga kiritilgan uslubiy, didaktik va ta'lim tamoyillari to'plamidir. Bu dasturlarning o'quv fanlari mazmuniga, talabalarni tayyorlash darajalariga va ta'lim standartlari talablariga mos kelishini ta'minlaydi.

Asosiy komponentlar:

Maqsadli o'rnatishlar: ta'lim standartlari va davlat ta'lim standarti talablariga muvofiqligi.

Didaktik dizayn: material taqdimotining tuzilishi, bilimlarni o'zlashtirish mantig'i.

Dars usullari: interfaollik, mustaqil va guruhli ishlash, tadqiqot usullari.

Tarbiyaviy jihatlar: qadriyat yo'nalishlarini, muloqot qobiliyatlarini, mas'uliyatni rivojlantirish.

Qayta aloqa: o'z-o'zini baholash va talabalar yutuqlarini baholash imkoniyatlari.

O'quv jarayonida o'quv dasturlari uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish talabalarning tabiiy va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun bir qator muhim afzalliklarni beradi.

№	Afzallik	Mantiqiy asos va harakat mexanizmi
1	<i>Ko'rgazmalilik va murakkab tushunchalarni vizuallashtirish</i>	Modellar, simulyatsiyalar va grafiklardan foydalanish molekulyar o'zaro ta'sirlar, astrofizik jarayonlar va biologik evolyutsiya kabi mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi
2	<i>Zamonaviy ilmiy ma'lumotlar va ma'lumotlar bazalariga kirish</i>	Dasturlar ilmiy platformalar (masalan, NASA, PubMed) bilan birlashtirilgan, bu bilimlarning dolzarbligini ta'minlaydi
3	<i>Tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish</i>	Tadqiqot tipidagi vazifalar, ma'lumotlarni tahlil qilish va eksperimental modellashtirish bilimga ilmiy yondashuvni tashkil qiladi
4	<i>Ta'lim jarayonini individuallashtirish</i>	Talabalar o'zlari qiziqtirgan mavzular bo'yicha chuqurlashtirilgan modullarni tanlab, materialni o'z tezligida o'rganishlari mumkin
5	<i>Fanlararo aloqalarni shakllantirish</i>	Fizika, biologiya, kimyo, ekologiya fanlaridan bilimlarni bitta raqamli makonda integratsiyalashuvi yaxlit dunyoqarashni rivojlantiradi
6	<i>Interaktivlik va qayta aloqa</i>	Topshiriqlarni, testlarni bir zumda tekshirish, onlayn laboratoriyalarda ishtirok etish doimiy faollik va qiziqishni uyg'otadi
7	<i>Mustaqil va loyiha faoliyatini qo'llab-quvvatlash</i>	O'z loyihalaringizni yaratish, virtual tajribalar o'tkazish, natijalarni taqdim etish imkoniyatlari
8	<i>Axborot savodxonligi va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish</i>	Raqamli vositalar bilan ishlash zamonaviy ilmiy fikrlashning eng muhim tarkibiy qismidir
9	<i>Global ta'lim resurslariga kirish</i>	Dunyoning yetakchi universitetlari (MIT, GarvardX, Coursera va boshqalar) kurslari, platformalari va laboratoriyalariga ulanish imkoniyati
10	<i>Tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish</i>	Dasturiy ta'minot sabab-oqibat munosabatlarini ko'rish, gipotezalarni yaratish va ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi

Amalga oshirish misollari:

Biologiyadagi virtual laboratoriyalar (masalan, Labster): haqiqiy tajribalarni xavf-xatarsiz modellashtirishga imkon beradi.

Fizikadagi simulyatsiyalar (masalan, PhET Interactive Simulations): Nyuton qonunlarini

elektromagnit maydonlarni va hokazolarni tasavvur qilishga imkon beradi.

Geoaxborot tizimlari: fazoviy fikrlashni va atrof-muhitni bilishni rivojlantirish.

O'quv dasturlarida dasturiy ta'minotdan foydalanish quyidagi psixologik va pedagogik ta'sirlarga olib keladi:

O'quv motivatsiyasi oshadi;

Kognitiv avtonomiya rivojlanadi;

Metakognitsiya (fikrlashdan xabardorlik) rag'batlantiriladi;

Dunyoning ilmiy manzarasi tabiat va inson haqidagi bilimlarning yaxlit tizimi sifatida mustahkamlanadi.

Muhokama. Dasturiy ta'minot yordamida ta'lim dasturlaridan pedagogik jarayonda foydalanish:

– Ta'limning individuallashtirish va moslashuviga – dasturiy ta'minot har bir talabaning bilim darajasini, o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi; moslashuvchan ta'lim tizimlari (masalan, sun'iy intellekt elementlariga ega tizimlar) o'quvchining muvaffaqiyatiga qarab mazmun va vazifalarni o'zgartiradi; pedagogik ta'siri esa motivatsiyani oshirish, o'rganish avtonomiyasini oshirish, metakognitiv strategiyalarni ishlab chiqishga olib keladi.

– Axborotning ko'rinishi va foydalanish imkoniyatini oshirishda – murakkab tushunchalar diagrammalar, grafiklar, 3D modellar, simulyatsiyalar shaklida tasvirlangani; ko'p kanalli idrok - matn, ovoz, tasvir, video ta'minlanadi; pedagogik ta'siri esa yaxshi xabardorlik, uzoq muddatli yodlash, mavhum va xayoliy fikrlashni rivojlantirishiga olib keladi.

– Raqamli va axborot kompetentsiyasini rivojlantirish – dasturiy ta'minot bilan ishlash talabalarga ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish, sharhlash va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi; dasturiy ta'minot muhitlari ma'lumotlar, algoritmlar va interaktiv interfeyslar bilan ishlashni o'rgatadi; pedagogik ta'siri esa raqamli jamiyatda kelajakdagi professional faoliyatga tayyorgarligiga olib keladi.

– Teskari aloqani tashkil etish va muvaffaqiyatlar monitoringi – dasturiy ta'minot tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi (testlar, xatolar tahlili, tavsiyalar); o'qituvchilar treninglar bo'yicha statistik ma'lumotlarni ko'rishlari, kamchiliklarni aniqlashlari va mazmunini sozlashlari mumkin; pedagogik ta'siri esa o'z-o'zini aks ettirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'qitish samaradorligini oshirishga olib keladi.

– O'qitish shakllari va usullarini kengaytirish – interfaol texnologiyalar (gamifikatsiya, o'zgaruvchan sinf, virtual laboratoriyalar) joriy etilmoqda; aralashtirilgan va masofaviy ta'lim uchun sharoitlar yaratilmoqda; pedagogik ta'siri esa faollikni oshirish, kognitiv faollikni faollashtirish, mustaqillikni rivojlantirishga olib keladi.

– Loyiha va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash – talabalar jarayonlarni modellashtirishlari, loyihalarni ishlab chiqishlari, taqdimotlar yaratishlari va ma'lumotlarni tahlil qilishlari mumkin; dasturiy ta'minot ilmiy modellashtirish, statistika va vizualizatsiya platformalari bilan integratsiyalashish imkonini beradi; pedagogik ta'siri esa tadqiqot madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga olib keladi.

– Inklyuzivlik va foydalanish qamrovligini kengaytirishini ta'minlash – dastur nogironlar uchun maxsus sozlamalarni qo'llab-quvvatlaydi: ekran diktoralari, lupalar, subtitrlar, muqobil interfeyslar; pedagogik ta'siri esa ijtimoiy adolat va ta'limning qulayligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карпов В.В. Цифровая педагогика. – М., 2021
2. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning. – San Francisco: Pfeiffer, 2006.
3. Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. – Springer, 2009.
4. Allen M.W. Leaving ADDIE for SAM. – ASTD Press, 2012.

5. Allen, M. (2012). Leaving ADDIE for SAM: An Agile Model for Developing the Best Learning Experiences. ASTD Press
6. Кассер Г. Цифровое обучение и трансформация образования. – Москва: Просвещение, 2020.
7. Allen, M. (2012). Leaving ADDIE for SAM: An Agile Model for Developing the Best Learning Experiences. ASTD Press
8. Рыжаков М.В. Цифровизация образования: возможности и риски. — М.: Просвещение, 2020.
9. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
10. Merrill D. First Principles of Instruction. Educational Technology Research and Development, 2002

USING PODCASTS TO ENHANCE STUDENTS' LANGUAGE SKILLS IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH

Nabieva Shahnoza Alijon Qizi

Uzbek State World Languages University, PhD. Independent Researcher

Annotation. This article states the innovative use of podcasts as a dynamic tool for enhancing students' communication skills in English language learning. It emphasizes the accessibility and diverse content of podcasts, which can serve to various interests and proficiency levels, making them an engaging resource for learners. By incorporating pre-listening activities, critical thinking discussions, and reflective journaling, teachers can create a comprehensive learning experience that not only improves comprehension but also encourages active participation and collaboration among students. Additionally, the article highlights the most useful podcast channels and how students develop their own vocabulary box and communication skills. Overall, the integration of podcasts in the classroom is presented as a powerful strategy for enriching language acquisition and promoting effective communication.

Anotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda talabalarning muloqot ko'nikmalarini oshirish uchun dinamik vosita sifatida podkastlardan innovatsion foydalanish bayon etilgan. U turli qiziqishlar va malaka darajalariga xizmat qilishi mumkin bo'lgan podkastlarning mavjudligi va xilma-xil mazmunini ta'kidlab, ularni o'quvchilar uchun qiziqarli manbaga aylantiradi. Tinglashdan oldingi mashg'ulotlar, tanqidiy fikrlash muhokamalari va o'z ustida ishlash jurnalini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar nafaqat tushunishni yaxshilaydigan, balki talabalar o'rtasida faol ishtirok va hamkorlikni rag'batlantiradigan keng qamrovli ta'lim tajribasini yaratishi mumkin. Bundan tashqari, maqolada keng qo'llaniladigan podkast kanallari va talabalar o'zlarining so'z boyligi va muloqot qobiliyatlarini podkastlar orqali qanday rivojlantirishlari haqida so'z boradi. Umuman olganda, podkastlarning o'qitish jarayoniga integratsiyasi tilni o'zlashtirishni boyitish va samarali muloqotni rivojlantirish uchun kuchli strategiya sifatida taqdim etiladi.

Аннотация. В этой статье говорится об инновационном использовании подкастов как динамическом инструменте для улучшения навыков общения студентов при изучении английского языка. В ней подчеркивается доступность и разнообразное содержание подкастов, которые могут служить различным интересам и уровням владения языком, что делает их привлекательным ресурсом для учащихся. Включая предслушанные занятия, критические обсуждения и рефлексивное ведение журнала, учителя могут создать комплексный опыт обучения, который не только улучшает понимание, но и поощряет активное участие и сотрудничество среди студентов. Кроме того, в статье освещаются наиболее полезные каналы подкастов и то, как студенты развивают свой собственный словарный запас и навыки общения. В целом, интеграция подкастов в класс представлена как мощная стратегия для обогащения усвоения языка и содействия эффективному общению.

Key words: podcast, communication, speaking skills, listening, critical thinking, vocabulary

Introduction. In the cutting-edge era, podcasts have become an integral part of our daily lives. They are with us on our way to work or home, during morning runs or while lying on the sofa. Podcasts have diverse audiences like movies, television programs, and TED Talks as these engaging audio programmes could be a vital tool for learning foreign language, especially English. Originally the term came from “pod” and “broadcast” and it was established in 2004. The term «pod» is often associated with the global release of the Apple iPod in 2001, which coincided with the creation of the first podcasts. However, some believe it comes from the phrases «Personal on Demand» (POD) and «broadcast.» Both ideas are valid, as podcasts are available «on demand» and

can be easily accessed on users' mobile devices (Panagiotidis, 2021). A podcast can be explained as "a radio programme that is stored in a digital form that you can download from the internet and play on a computer or on a mobile phone" (see <https://dictionary.cambridge.org/>). In addition to enhancing listening comprehension, they also increase vocabulary, improve pronunciation, and even develop critical thinking. Surely, applying podcasts in the teaching and learning process instead of dull textbooks and monotonous exercises, students engage deeply in the world of lively speech, authentic dialogues, and captivating stories (U. Nurmukhamedov, 2021). In this article, podcasts are reviewed from a new perspective and the pedagogical implications for teaching and learning English via podcasts are discussed.

Literature Review. In language learning, podcasts have a significant role, offering unique advantages to enhance educational experience despite the learners' ages and their proficiency levels. Several researchers have studied the efficiency of podcasting on language learning. Kukulska-Hulme (2012) believes that native speakers give prominence to discussing real-life topics, providing learners with exposure to natural language use, colloquialism, idiomatic expressions, and diverse accents in podcasts. It helps language learners to understand easily how the language is used in everyday contexts authentically. A new way of distributing video and audio contents over the internet is also called podcasting (Rajic, 2013). These digital files are episodes or podcasts, and podcasting providers often release a series of episodes on a regular basis. Every series comes with a unique file, known as the «feed,» that explains the podcasting service's contents and enables subscribers to sign up for the series to get new episodes automatically. The student does not have to look for and download the content; instead, it is sent straight from the source Internet location to the device. In an academic environment, podcasting provides learners with fresh and imaginative ways to enhance learning.

It was proposed by Oxford (2001) and Hinkel (2006) that foreign language learning should focus on the pragmatic aspects of a language, rather than its linguistic forms. To improve students' communication skills in English, English educators should train students' communicative abilities in the language classroom rather than teaching students how to memorize vocabulary and rules and how to handle the tests.

Putman and Kingsley (2009) have investigated in their studies that podcasts have emerged as a powerful tool for language learning, particularly in aiding learners of English through a unique blend of accessibility, engagement, and authenticity. They provide exposure to natural, conversational English spoken by both native and fluent non-native speakers, helping learners familiarize themselves with various accents, dialects, and colloquial expressions essential for achieving fluency. Additionally, as Panagiotidis (2021) stated in his paper, the diverse range of topics covered in podcasts allows learners to encounter new vocabulary and phrases in context, facilitating easier retention and application. Engaging with complex ideas presented in podcasts encourages critical thinking, as learners analyze different perspectives and form their own opinions, enhancing comprehension and promoting higher order thinking skills vital for effective communication. Furthermore, podcasts often explore cultural topics and personal narratives that reflect the experiences of diverse communities, fostering empathy and understanding among learners, which is crucial for effective communication in an increasingly globalized world.

Significant advantages are offered with podcasts for language learners, primarily through their convenience and flexibility, allowing individuals to engage with content at any time and in various settings, such as during commutes or workouts, thereby facilitating consistent practice and integration of language learning into daily routines. This conclusion arrived after the studies of Palalas (2019). Moreover, many podcasts foster interactive learning opportunities by encouraging listener engagement via social media platforms or dedicated websites, where learners can discuss episodes, pose questions, and share insights, thus cultivating a sense of community and providing further avenues for practicing language skills. The extensive variety of available

podcasts enables learners to select topics that align with their interests and proficiency levels, enhancing the personalization of the learning experience and increasing motivation as students are more likely to engage with material that resonates with them. Furthermore, podcasts serve as valuable models for developing speaking skills, as learners can imitate pronunciation, intonation, and rhythm by repeating phrases or sentences, and educators can promote the creation of original podcast episodes as a structured yet creative method for practicing spoken language.

Methodology. Incorporating podcasts into English language learning offers numerous benefits that enhance both linguistic skills and cultural understanding. By leveraging the authentic content, flexibility, and interactive nature of podcasts, learners can create a rich and engaging language learning experience that supports their journey toward fluency. As technology continues to evolve, podcasts stand out as an innovative resource that educators and students alike can utilize to improve English language proficiency. Currently there are tons of podcast channels to learn English, but which one is used mostly, or which one is most effective among users.

Podcasts offer a diverse array of topics—from news and scientific exploration to storytelling and entertainment, making them an excellent resource for expanding vocabulary. By listening to podcasts, learners encounter new words and phrases in context, which enhances retention. Encourage your students to keep a vocabulary journal where they can jot down new terms and expressions from each episode and then use these in their written or spoken assignments (O'Bryan, 2007). This practice not only aids in memorizing vocabulary but also teaches them how to apply new words correctly. For example, one task could involve students writing a review of a podcast after listening to it; they would note down new vocabulary and then craft a review discussing what they enjoyed, the topics covered, and the insights gained. Additionally, they can share their reviews with the group to discuss the new words they learned and explore how these terms might be useful in the future. This task aids in developing critical thinking and writing skills, as well as enhancing vocabulary retention.

Podcasts are more than just audio recordings to listen to on the go. They can become a crucial element in learning English, offering a wide array of opportunities to enhance various skills. As an experiment we chose 6 Minutes English to use in pre-foundation students' classes to enhance their English language skills. For the first term, we have picked the episodes that align with the current curriculum or themes being studied. Therefore, food content has been chosen, and all the topic-related podcasts were selected to use in the classroom that were suitable for the students' age and language proficiency level. The initial podcast was "Should we eat less rice?" Expanding students' vocabulary through podcasts can be an engaging and effective strategy. Before listening, key vocabulary words were introduced through visuals, definitions, and examples that would appear in the podcast:

- fill somebody up
- staple food
- tangible results
- get on board
- give it a go
- commodity
- appetite for something

With these words, prediction Exercises were offered to the students. Have students predict what the podcast might be about based on the title and any images provided. This encourages them to think critically about the content. A list of questions to answer was provided while they listened. This helped them focus on specific vocabulary. It also encouraged students to take notes on new words or phrases they heard during the podcast.

Post-Listening activities can enhance vocabulary acquisition through various engaging methods. Students can maintain vocabulary journals to record new words, their meanings, and

example sentences. Facilitate class discussions about the podcast content, encouraging the use of new vocabulary in their responses. Additionally, students can create word maps to visually represent new terms, including synonyms, antonyms, and usage in sentences. For creative assignments, students produce their own podcast episodes incorporating new vocabulary, fostering both understanding and creativity. Organize role-playing activities based on the podcast content to encourage contextual use of new words. Incorporate weekly podcast sessions into the curriculum for regular exposure and develop thematic units around specific podcasts to delve deeper into related vocabulary. Utilize technology with interactive platforms like Edpuzzle or Flipgrid, where students can respond to podcast content using new vocabulary, and recommend vocabulary-building apps or websites that complement the podcast material.

Lara Ducate (2009) studied the usage of podcasts to improve pronunciation through repeated the selected vocabularies to mimic the pronunciation of native speakers, including their intonations and accents. One effective method for enhancing pronunciation is the “shadowing” technique, where learners select a podcast with clear pronunciation, listen attentively, and immediately repeat each phrase, striving for accuracy. As they become more comfortable, they should gradually increase the speed of their repetition and aim to synchronize with the speaker. This practice not only helps develop natural intonation but also boosts confidence in speaking.

Results. According to the questionnaire launched among 132 participants including educators and learners 6 Minute English is leading the list as 65% of the attendees use this podcast channel to enhance their English Language skills.

6 Minute English (<https://www.bbc.co.uk/learningenglish/english/features/6-minute-english>) -65 %

ESL Pod (<https://www.eslpod.com/>) -42%

I Will Teach You A Language (<https://storylearning.com/podcast-home>) -30%

English Phrasal Verb Podcast (<https://realenglishconversations.com/english-phrasal-verbs/>) – 25%

Just vocabulary (<https://www.radioline.co/podcast-just-vocabulary>) – 23%

Splendid speaking (<https://www.splendid-speaking.com/podcasts/>) - 18%

Down to business English (<https://downtobusinessenglish.com/>) – 12%

A history of the world (<https://www.bbc.co.uk/ahistoryoftheworld/about/british-museum-objects/>) -11%

Luke’s English Podcast (<https://teacherluke.co.uk/>) -10%

Podcasts serve as an effective tool for enhancing communication skills by exposing learners to live conversations, interviews, and discussions that reflect real-life English usage. Through these formats, students can observe how conversations are structured, including the phrases and expressions commonly used in everyday speech, as well as strategies for maintaining dialogue. For example, interview-based podcasts allow listeners to hear how questions are posed and how responses develop, providing insights into the natural flow and rhythm of conversational speech. This exposure is crucial for those aiming to speak fluently and confidently, as it helps them grasp intonations and pacing. Furthermore, many podcasts dissect everyday dialogues and explore specific grammatical structures and lexical items, including episodes dedicated to idiomatic expressions and their practical applications in conversation. By integrating these elements, podcasts not only expand vocabulary but also cultivate the ability to communicate effectively in a variety of contexts.

Students engage in critical thinking and analysis while listening podcasts as they often address current and complex topics. Learners’ critical thinking skills have been levelled up through encouraging them to reflect on what they’ve heard, form their own opinions, and articulate them, these recordings foster deeper comprehension (J, 2006)

It is very important to integrate podcasts effectively into the teaching to see the students’

progress. For my study I chose 6 Minute English as the content is educational and practically useful. I examined the effects of using podcasts to improve communication in English language learning and how the students' language knowledge changed over the semester. During the 12 teaching weeks two selected groups 25 students each in Foundation Level. One podcast was chosen for each lesson, overall, 24 podcasts were introduced during the semester. The focus of podcasts in the lessons were directed towards both listening and speaking. At the first stage, the students were asked to share the possible vocabulary list and comprehension of the topic. Multiple-choice questions, statement completion tasks were handed out while listening to the podcast. First, the listening went quickly and the students wrote down what they did remember, the words, phrases, ideas and in some points their assumptions. Next, they discussed and shared their answers. The students slowed down the pace and checked the answers. At the end of the lesson a discussion was organized about the key aspects of the podcast. It gave the students the opportunity to use the newly learnt vocabularies to share impressions of what they have listened to and learnt.

Moreover, it is important to employ a different methodology to get maximum benefit from podcasts to enhance students' communication skills. In the lessons role-playing as an interactive approach was applied to play the part of the programme host and guests. They asked questions and expressed viewpoints and argued about their positions where it was required. Also, the learners engaged in debates based on the podcasts' topic while dividing for and against groups to discuss different aspects of the problem giving facts and arguments demonstrated in the podcast. Using this approach helped the students to boost their vocabulary as well as their listening and critical thinking skills. The results of the survey at the end of the semester showed that about 200 new vocabulary words including word collocations and 36 idioms were learned by the students. 87% of learners said that they gained confidence to communicate with each other and to express their opinions easily and freely in the classroom and in front of the public. They also mentioned that podcasts encouraged them to think critically and to have the ability to construct well-founded arguments.

Recommendations. Employing educational podcasts in the learning process is the best way to connect students and educators across different locations, fostering collaboration and discussion. To gain the maximum effectiveness of the podcasts for the language learners in your classroom, follow the suggestions below:

Selecting relevant content to ensure the podcast theme is suitable for the age of the students.

Using podcasts which align with curriculum and learning outcomes.

Integrating listening activities while offering active listening with podcasts (Yeh, 2013).

Promoting critical thinking by using podcast themes for debates and discussions to allow learners to express their opinions freely and practice communication skills.

Focusing on vocabulary while using new vocabulary learned from podcasts in the context (H, 2018).

Encouraging collaborative learning to give students an opportunity for sharing interesting insights or summaries of podcasts with their peers.

Utilizing technology in learning which familiarizes students with various podcast platforms to explore additional content independently.

Encouraging self-reflection to keep journal on what they learned from the podcast to improve written communication skills

By integrating podcasts into classroom, an engaging learning environment which boosts language skills and nurtures a passion for learning is offered.

References

C, Y. (2013). An Investigation of a podcast learning project for extensive listening. *Language Education in Asia*, 135-149.

H, Van. Zeeland. (2018). Vocabulary in Listening. *The TESOL Encyclopedia of English*

Language Teaching, 1-6.

Hinkel, E. (2006). Integrating the Four Skills: Current and Historical Perspectives.

J, M. (2006). Languages on the go: Tuning in to podcasting. *The International Journal of Foreign Language Teaching*, 16-18.

Kukulska-Hulme, A. (2012). Mobile-Assisted Language Learning. *the Encyclopedia of Applied Linguistics*. Blackwell Publishing Ltd.

Lara Ducate, L. L. (2009, October). Podcasting: An Effective Tool for Honing Language Students' Pronunciation. *Language Learning and Technology*, 13, 66-86.

O'Bryan, A. &. (2007). Integrating CALL into the classroom: The role of podcasting in an ESL listening strategies course. *Journal of Eurocall*, 19(2), 162–180. <https://doi.org/10.1017/S0958344007000523>.

Panagiotidis, P. (July 2021). Podcasts in Language Learning, Research review and Future Perspectives. ResearchGate.

Putman, S. M., & Kingsley, T. (2009). Using Podcasts to Enhance the Development of Science Vocabulary. *The Reading Teacher*.

Ulugbek Nurmukhamedov, S. S. (2021). Corpus-based Vocabulary Analysis of English Podcasts. *RELC Journal*, 7-21.

YUQMLI KASALLIKLAR TA'LIMIDA VAK MODELİ ASOSIDA TALABALARNING AMALIY-KLINİK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: TAJRIBA-SINOV NATIJALARI TAHLILI

Qayumov Avazbek Mutalibovich

Andijon davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqumli kasalliklar yo'nalishida tibbiyot talabalarining nazariy bilimlari va amaliy-klinik ko'nikmalari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish muammosi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda 850 nafar tibbiyot talabasi ishtirokida kvazi-eksperimental dizayn qo'llanilib, VAK (Vizual, Audio, Kinestetik) modeliga asoslangan pedagogik aralashuvning (tajriba guruhi, n=425) an'anaviy o'qitish usullariga (nazorat guruhi, n=425) nisbatan samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, VAK modelini qo'llash talabalarning amaliy-klinik kompetentligini statistik jihatdan ahamiyatli darajada oshirgan. Tajriba guruhida kompetentlikning "yuqori" darajasiga erishgan talabalar ulushi 48% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 26% bo'ldi. Tadqiqot tibbiy ta'limda VAK modelining samaradorligini empirik dalillar bilan tasdiqlaydi va klinik kompetentlikni oshirish uchun tasdiqlangan metodologiyani taklif etadi.

Kalit so'zlar: amaliy-klinik kompetensiya, VAK modeli, tibbiy ta'lim, yuqumli kasalliklar, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik texnologiyalar, klinik fikrlash.

РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКОЙ И КЛИНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ ВАК В ОБРАЗОВАНИИ ПО ИНФЕКЦИОННЫМ БОЛЕЗНЯМ: АНАЛИЗ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ

Каюмов Авазбек Муталибович

*Андижанский государственный медицинский институт, Старший преподаватель
кафедры инфекционных болезней*

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема устранения разрыва между теоретическими знаниями и практическими клиническими навыками студентов-медиков в области инфекционных заболеваний. В исследовании с участием 850 студентов-медиков был использован квазиэкспериментальный дизайн для оценки эффективности педагогического вмешательства на основе модели ВАК (Визуальный, Аудиальный, Кинестетический) (экспериментальная группа, n=425) по сравнению с традиционными методами обучения (контрольная группа, n=425). Результаты исследования показали, что применение модели ВАК статистически значимо повысило уровень практико-клинической компетентности студентов. Доля студентов, достигших «высокого» уровня компетентности в экспериментальной группе, составила 48%, тогда как в контрольной группе этот показатель был лишь 26%. Исследование предоставляет эмпирические доказательства эффективности модели ВАК в медицинском образовании и предлагает валидированную методологию для повышения клинической компетентности.

Ключевые слова: практическая и клиническая компетентность, модель ВАК, медицинское образование, инфекционные болезни, компетентностное образование, педагогические технологии, клиническое мышление.

DEVELOPMENT OF PRACTICAL AND CLINICAL COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON THE VAK MODEL IN INFECTIOUS DISEASES EDUCATION: ANALYSIS OF EXPERIMENTAL RESULTS

Qayumov Avazbek Mutalibovich

Andijan State Medical Institute, Senior Lecturer, Department of Infectious Diseases

Abstract. This article addresses the problem of bridging the gap between theoretical knowledge and practical-clinical skills among medical students in the field of infectious diseases. A quasi-experimental design was employed in a study involving 850 medical students to evaluate the effectiveness of a pedagogical intervention based on the VAK (Visual, Auditory, Kinesthetic) model (experimental group, n=425) compared to traditional teaching methods (control group, n=425). The research findings indicated that the application of the VAK model led to a statistically significant increase in students' practical-clinical competence. The proportion of students achieving a 'high' level of competence in the experimental group was 48%, whereas this figure was only 26% in the control group. The study provides empirical evidence for the effectiveness of the VAK model in medical education and offers a validated methodology for enhancing clinical competence.

Keywords: practical and clinical competence, VAK model, medical education, infectious diseases, competency-based education, pedagogical technologies, clinical thinking.

Kirish. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini, xususan, tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlariga muvofiq ustuvor vazifa hisoblanadi. 1 So'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va Prezident qarorlari ham aynan ta'lim sifati va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Shunga qaramay, tibbiy ta'lim amaliyotida dolzarb muammo saqlanib qolmoqda: talabalar mustahkam nazariy bilimga ega bo'lsalarda, real klinik vaziyatlarda, ayniqsa, yuqumli kasalliklar kabi dinamik sohada amaliy ko'nikmalarni qo'llashda "kompetentlik tafovuti"ga duch kelmoqdalar [1].

Ushbu tadqiqotda amaliy-klinik kompetensiya shunchaki protseduraviy mahoratlar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiya, kognitiv bilimlarni tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olish, operatsional ko'nikmalar va o'z faoliyatini tanqidiy baholashga qodir bo'lgan refleksiv qobiliyatlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali tuzilma sifatida tushuniladi. 2 Bugungi kunda ko'plab zamonaviy o'qitish usullari muhokama qilinsa-da, O'zbekiston sharoitida muayyan fanlar, jumladan, yuqumli kasalliklar bo'yicha aniq bir pedagogik modelning, masalan, VAK modelining samaradorligini isbotlovchi statistik asoslangan tadqiqotlar yetarli emas.

Shu bois, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda VAK (Vizual, Audio, Kinestetik) modeliga asoslangan pedagogik metodikaning bo'lajak shifokorlarning amaliy-klinik kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligini tajriba-sinov orqali baholashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) VAK modeliga asoslangan o'quv dasturini ishlab chiqish va joriy etish; 2) tajriba va nazorat guruhlarida aralashuvdan oldin va keyin kompetentlik darajasini o'lchash; 3) olingan natijalardagi farqlarni statistik tahlil qilish orqali metodikaning ta'sirini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiy ta'lim sohasidagi global tendensiyalar an'anaviy bilimga yo'naltirilgan yondashuvdan natijaga asoslangan (Outcome-Based Education) va kompetensiyaga asoslangan (Competency-Based Medical Education - CBME) ta'lim modellariga o'tish bilan tavsiflanadi. R.M. Harden (2007) ta'kidlaganidek, zamonaviy tibbiy ta'limning asosiy maqsadi shunchaki bilim berish emas, balki bitiruvchining real kasbiy faoliyatda nimalarni bajara olishini ta'minlashdir [2]. R.M. Epstein va E.M. Hundert (2002) ham professional kompetentlikni aniqlash va baholashning murakkabligini ta'kidlab, uni ko'p komponentli hodisa sifatida ko'rib chiqish zarurligini uqtirganlar [5]. O. Ten Cate (2017) esa CBME ning asosiy tamoyillarini tizimlashtirib, uning zamonaviy tibbiyot talablariga mos kelishini asoslab bergan [6].

Ushbu yondashuvlarning markazida tajribaga asoslangan va simulyatsion ta'lim yotadi. D.A.

Kolbning (1984) tajribaviy o'rganish nazariyasi kattalar, ayniqsa, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun o'quv jarayoni to'rt bosqichdan iborat ekanligini ko'rsatadi: aniq tajriba, refleksiv kuzatuv, mavhum konseptualizatsiya va faol eksperimentatsiya. Bu nazariya VAK modelining nazariy asosini tashkil etadi. S.B. Issenberg va W.C. McGaghie (2005) o'z tadqiqotlarida simulyatsiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, uning yordamida xavfsiz va takrorlanuvchi "amaliy-klinik muhit" yaratish orqali ko'nikmalarni samarali shakllantirish mumkinligini isbotlaganlar [3]. Bu esa VAK modelining ayniqsa kinestetik ("K") va vizual ("V") komponentlari bilan bevosita bog'liqdir.

VAK modeli pedagogik kontekstda turli sezgi organlariga bir vaqtda ta'sir etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Protseduralarni ko'rish (Vizual), bemor anamnezi va mutaxassis tushuntirishlarini eshitish (Audio) hamda amaliy mashg'ulotlarda bevosita ishtirok etish (Kinestetik) turli o'quv uslublariga ega bo'lgan talabalarning materialni o'zlashtirishini osonlashtiradi va an'anaviy ma'ruzalarga qaraganda bilimlarni mustahkamroq singdiradi. N. Komilovning (2023) O'zbekiston oliy tibbiy ta'limidagi zamonaviy tendensiyalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari xalqaro nazariyalarni mahalliy sharoitga tatbiq etishning o'ziga xos jihatlarni ochib beradi va ushbu tadqiqotning mahalliy dolzarbligini yanada oshiradi [7].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, CBME va tajribaviy o'rganish tamoyillarini o'zida mujassam etgan VAK modeliga asoslangan metodika o'zbekistonlik tibbiyot talabalarida aniqlangan kompetentlik bo'shlig'ini to'ldirish uchun noyob imkoniyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda pedagogik aralashuvning sabab-oqibat ta'sirini real o'quv sharoitida baholash uchun kvazi-eksperimental, nazorat guruhi bilan oldingi va keyingi testlash dizayni qo'llanildi [2]. Bunday dizayn talabalarni tasodifiy guruhlarga ajratish imkoni bo'lmagan ta'lim muassasalarida tadqiqot o'tkazish uchun eng maqbul hisoblanadi.

Tadqiqotda O'zbekistonning uchta yirik tibbiyot oliy o'quv yurtidan jami 850 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tajriba (n=425) va nazorat (n=425) guruhlariga taqsimlandi. Ishtirokchilarning guruhlar va oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tadqiqot ishtirokchilarining guruhlar va oliy ta'lim muassasalari bo'yicha taqsimlanishi

Tr	Tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan OTM nomi	Ishtirok etgan talabalar soni		Hammasi
		Tajriba guruhlar	Nazorat guruhlar	
1.	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	148	147	295
2.	Andijon davlat tibbiyot instituti	142	145	287
3.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	135	133	268
Jami		425	425	850

Ushbu jadval tadqiqotning ko'lami va qamrovini shaffof tarzda hujjatlashtiradi. Tadqiqotning uchta turli muassasada o'tkazilgani olingan natijalarning faqat bitta joyga xos emasligini, balki O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimining kengroq qismi uchun umumlashtirilishi mumkinligini ko'rsatib, natijalarning tashqi validligini kuchaytiradi.

Tajriba guruhi: VAK modeliga asoslangan o'quv jarayoni tashkil etildi. Bu jarayon boy

vizual materiallarga ega interfaol ma'ruzalar (Vizual), klinik holatlar muhokamasi va bemorlar anamnezining audioyozuvlarini tinglash (Audio) hamda simulyatsion markazlarda amaliy mashg'ulotlar, bemorlarni tekshirish amaliyoti va protseduraviy ko'nikmalarni mustahkamlash (Kinestetik) kabi elementlarni o'z ichiga oldi.

Nazorat guruhi: An'anaviy o'qitish usuli qo'llanildi. Bu asosan standart ma'ruzalar, darsliklarni o'qish va cheklangan, tizimlashtirilmagan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'ldi.

Ma'lumotlar 2021-2024 o'quv yillari davomida to'plandi. Amaliy-klinik kompetensiyaning to'rtta asosiy komponentini (Motivatsion, Kognitiv, Operatsional, Refleksiv) o'lchashga mo'ljallangan maxsus ishlab chiqilgan baholash vositasidan foydalanildi. Ma'lumotlar aralashuv davrining boshida (T.A – tajriba avvalida) va oxirida (T.S – tajriba so'ngida) yig'ildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun tavsifiy statistika (takrorlanishlar, foizlar) va ikki guruh o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi sezilarli farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda to'plangan empirik ma'lumotlar taqdim etiladi va chuqur tahlil qilinadi. Tahlil shunchaki natijalarni tavsiflash bilan cheklanmay, ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Guruhlar bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili

Dastlab, tajriba va nazorat guruhlarida kompetentlik darajalarining umumiy o'zgarishi tahlil qilindi. 2-jadvalda amaliy-klinik kompetensiyaning to'rtta mezon bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi natijalar qiyosiy tarzda keltirilgan.

2-jadval. Amaliy-klinik kompetensiya mezonlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarini natijalarining qiyosiy tahlili (T.A. va T.S.)

2-jadval. Amaliy-klinik kompetensiya mezonlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarini natijalarining qiyosiy tahlili (T.A. va T.S.)

Mezonlar		Tajriba guruhi (425 nafar respondent)						Nazorat guruhi (425 nafar respondent)					
		yuqori		o'rta		past		yuqori		o'rta		past	
		T.A	T.S	T. A	T. S	T. A	T. S	T. A	T. S	T. A	T. S	T.A	T. S
1	Motivatsion	103	205	15 6	15 3	16 6	67	89	11 2	15 4	16 7	182	14 6
2	Kognitiv	101	202	15 5	15 2	16 9	71	88	11 1	15 1	16 9	186	14 5
3	Operatsional	99	203	15 9	15 2	16 7	70	89	10 8	15 4	16 5	182	15 2
4	Refleksiv	105	206	15 8	15 5	16 2	64	90	10 9	15 3	16 3	182	15 3
Umumiy o'rtacha		102	204	15 7	15 3	16 6	68	89	11 0	15 3	16 6	183	14 9

Izoh: T.A – tajriba avvalida, T.S– tajriba so‘ngida.

Jadval ma’lumotlari tajriba guruhida “yuqori” darajadagi talabalar soni keskin ortganini va “past” darajadagilar soni sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarish nazorat guruhida ancha sust kechgan. Chuqurroq tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘shish bir tekisda bo‘lmagan. Tajriba guruhida “past” darajadagi talabalar sonining eng katta qisqarishi (162 dan 64 gacha, ya’ni 60% ga kamayish) Refleksiv mezonida kuzatilgan. “Yuqori” darajadagi talabalar sonining eng katta mutlaq o‘shishi esa (103 dan 205 gacha, deyarli ikki baravar) Motivatsion mezonida qayd etilgan. Bu shundan dalolat beradiki, VAK modelining interfaol va amaliyotga yo‘naltirilgan (Kinestetik) tabiati talabalarni o‘z xatti-harakatlarini doimiy ravishda tahlil qilishga va moslashtirishga majbur qiladi, bu esa bevosita refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, darslarning qiziqarli, ko‘p sensorli shaklda o‘tilishi fanga bo‘lgan qiziqishni va ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Demak, VAK modeli shunchaki protseduralarni o‘rgatish vositasi emas, balki tibbiyotda uzluksiz ta’lim uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi metakognitiv ko‘nikmalar (refleksiya) va ichki motivatsiyani rivojlantiruvchi kuchli katalizatoridir.

Natijalarning OTMlar kesimidagi tahlili - tadqiqot natijalarining barqarorligini tekshirish uchun ko‘rsatkichlar har bir OTM kesimida tahlil qilindi. 3-jadvalda tajriba yakunidagi (T.S) natijalar OTMlar bo‘yicha taqqoslangan.

3-jadval. Tajriba so‘ngidagi natijalarning OTMlar kesimidagi ko‘rsatkichlari (T.S.)

Tajriba - sinov obyektlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhlari						Respondentlar soni	Nazorat guruhlari					
		Yuqori		O‘rta		Past			Yuqori		O‘rta		Past	
		T.A	T.S	T. A	T. S	T. A	T.S		T. A	T. S	T. A	T. S		
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	87	37	72	54	54	57	22	75	30	34	53	62	64	51
Andijon davlat tibbiyot instituti	44	33	68	52	51	57	23	46	33	39	52	54	60	52
Buxoro davlat tibbiyot instituti	80	32	64	51	48	52	23	80	26	37	48	50	59	46
Umumiy	425	102	204	157	153	166	68	425	89	110	153	166	183	149

Ushbu jadval VAK modeliga asoslangan metodikaning samaradorligi alohida bir institutning o‘ziga xos sharoitlariga bog‘liq emasligini, balki har uchala OTMda ham barqaror ijobiy natijalar berganini ko‘rsatadi. Bu esa metodikaning kengroq miqyosda joriy etilishi uchun asos bo‘la oladi.

Pedagogik samaradorlikning yakuniy bahosi - tadqiqotning asosiy xulosasini umumlashtirish

uchun yakuniy natijalar foizlarda ifodalandi. 4-jadval va 1-rasmda tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi yakuniy farq yaqqol namoyon bo'ladi.


4-jadval. Tajriba so'ngidagi yakuniy natijalarning umumlashtirilgan tahlili (foizlarda)

4-jadval. Tajriba so'ngidagi yakuniy natijalarning umumlashtirilgan tahlili (foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba guruhi	425	204 48%	153 36%	68 16%
Nazorat guruhi	425	110 26%	166 39%	149 35%

Jadvaldagi ma'lumotlar shubhasiz ustunlikni ko'rsatmoqda: tajriba guruhida "yuqori" ko'rsatkichga ega talabalar ulushi (48%) nazorat guruhidagidan (26%) deyarli ikki baravar ko'p. Bundan ham muhimi, "past" ko'rsatkichli talabalar ulushi nazorat guruhida 35% ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 16% gacha kamaygan. Bu VAK modelining nafaqat kuchli talabalarni yanada kuchaytirishini, balki o'zlashtirishi past bo'lgan talabalarni ham samarali ravishda o'rta va yuqori darajaga olib chiqishini anglatadi.

1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida kompetensiya darajalarining yakuniy taqsimoti



Ushbu diagramma 4-jadvaldagi raqamli ma'lumotlarni vizual tarzda tasdiqlaydi. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy metodlar natijasida talabalarning taqsimoti ko'proq normal egri chiziqqa o'xshaydi, ya'ni o'rtamiyona ko'rsatkichli talabalar ko'pchilikni tashkil etadi. VAK modeli

esa bu taqsimotni tubdan o'zgartirib, butun egri chiziqni o'ngga siljitadi. Bu shuni anglatadiki, metodika nafaqat o'rtacha ko'rsatkichni oshiradi, balki barcha bitiruvchi shifokorlar uchun kompetentlikning yuqori bazaviy darajasini ta'minlaydi. Bu esa ta'limdagi tenglik va sifatni ta'minlash nuqtai nazaridan ham, aholi salomatligi uchun ham g'oyat muhim natijadir. Dastlabki tahlilda qayd etilgan "13,2% ga yuqori ekanligi" kabi ko'rsatkichlar metodikaning haqiqiy ta'sirini to'liq ifodalamaydi. "Yuqori" darajadagi talabalar ulushi o'rtasidagi 22 foizlik farq ancha aniqroq va ta'sirchanroq metrikadir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili VAK modeliga asoslangan pedagogik metodika yuqumli kasalliklar fanidan tibbiyot talabalarining amaliy-klinik kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy usullarga qaraganda ancha yuqori samaradorlikka ega ekanligini ishonchli tarzda tasdiqladi.

Tadqiqotnatijalarishuniko'rsatdiki, VAK modelining muvaffaqiyati uning kattalarni o'qitishning fundamental tamoyillari (Kolb), kompetensiyaga asoslangan ta'lim (Harden) va simulyatsion treninglar (Issenberg) bilan uyg'unligidadir.² Metodika nafaqat operatsional ko'nikmalarni, balki kasbiy faoliyat uchun muhim bo'lgan motivatsion va refleksiv kompetensiyalarni ham sezilarli darajada oshirishi tadqiqotning asosiy yutuqlaridan biridir. VAK modeli o'zlashtirishi past talabalar sonini keskin kamaytirib, barcha talabalar uchun yuqori standartni ta'minlash orqali ta'limda adolat va sifat kafolatini oshirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning ba'zi cheklovlarini tan olish muhimdir. Masalan, tadqiqot uchta OTMda o'tkazilgan bo'lsa-da, uning natijalarini O'zbekistondagi barcha tibbiyot oliygohlariga to'liq umumlashtirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etilishi mumkin. Shuningdek, ishtirokchilar o'zlarining kuzatuv ostida ekanliklarini bilishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan Xotorn samarasi ham natijalarga minimal darajada ta'sir qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Yuqumli kasalliklar va boshqa klinik fanlar professor-o'qituvchilarini VAK modeliga asoslangan o'qitish strategiyalariga o'rgatish va ularni amaliyotda qo'llashga rag'batlantirish.

2) VAK modelini amaliy mashg'ulotlar modullari uchun asosiy pedagogik standart sifatida tibbiy ta'limning o'quv dasturlariga rasman integratsiya qilish.

3) Ushbu samarali metodologiyani keng miqyosda joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun simulyatsion markazlar va interfaol ta'lim texnologiyalariga investitsiyalarni ko'paytirish.

Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin: talabalarining klinik faoliyati davomida orttirilgan kompetentlikning qanchalik saqlanib qolishini kuzatish uchun longityud tadqiqotlar o'tkazish; VAK modelini boshqa murakkab klinik fanlarda (masalan, jarrohlik, shoshilinch tibbiy yordam) qo'llash va sinovdan o'tkazish; VAK modeliga asoslangan ta'limni milliy miqyosda joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

2. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. *Med Teach.* 2007; 29(7): 625–629.

3. Issenberg S.B., McGaghie W.C. Simulation in health care education. *Med Teach.* 2005; 27(1): 10–28.

4. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.*

Englewood Cliffs: Prentice Hall; 1984. – 320 p. 2

5. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence. *JAMA*. 2002; 287(2): 226–235.

6. Ten Cate O. Competency-based medical education. *GMS J Med Educ*. 2017; 34(5): Doc69.

7. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis. Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487>. - Spain, – P. 17–21.

8. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2023, No. 9. – P.770–774.

9. Frank J.R., Mungroo R., Ahmad Y., Wang M., De Rossi S., Horsley T. Toward a definition of competency-based education in medicine: a systematic review of published definitions. *Med Teach*. 2010; 32(8): 631–637.

10. Fleming, N., & Mills, C. Not Another Inventory, Rather a Catalyst for Reflection. *To Improve the Academy*. 1992; 11: 137-155.

11. McGaghie W.C., Issenberg S.B., Petrusa E.R., Scalese R.J. A critical review of simulation-based medical education research: 2003-2009. *Med Educ*. 2010; 44(1): 50-63.

12. Vygotsky, L. S. *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978.

KONVERGENT YONDASHUV – OLIY BIOLOGIK TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY PARADIGMASI SIFATIDA (PISA NATIJALARI TAHLILI ASOSIDA)

Raupova Mehrinigor Haydarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasida dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0002-1762-8940>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy biologik ta'lim tizimida fanlararo integratsiyani ta'minlashning zamonaviy paradigmasi sifatida konvergent yondashuvning nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. PISA xalqaro baholash dasturining tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha natijalari tahlili asosida an'anaviy yondashuvlarning cheklangan jihatlari ochib berilgan. Maqolada biologiya, kimyo, fizika, matematika va axborot texnologiyalari kabi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi (konvergentsiyasi) orqali talabalarda yaxlit ilmiy dunyoqarash, tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarni yechish kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oliy ta'limda konvergent yondashuvni amaliyotga joriy etishning didaktik modellari va istiqbollari bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: konvergent yondashuv, oliy biologik ta'lim, fanlararo integratsiya, PISA natijalari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, paradigma, kompetensiyaviy yondashuv, sistemali fikrlash.

КОНВЕРГЕНТНЫЙ ПОДХОД КАК СОВРЕМЕННАЯ ПАРАДИГМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШЕМ БИОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ (НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА РЕЗУЛЬТАТОВ PISA)

Раупова Мехринигор Хайдаровна

Бухарский государственный педагогический институт, Доцент кафедры биологии, Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы конвергентного подхода как современной парадигмы обеспечения междисциплинарной интеграции в системе высшего биологического образования. На основе анализа результатов международной программы оценки PISA по естественнонаучной грамотности раскрываются ограниченные аспекты традиционных подходов. В статье рассматриваются механизмы формирования у студентов целостного научного мировоззрения, критического мышления и компетенций по решению сложных проблем посредством конвергенции таких наук, как биология, химия, физика, математика и информационные технологии. Также выдвинуты научные предложения по дидактическим моделям и перспективам внедрения конвергентного подхода в высшем образовании.

Ключевые слова: конвергентный подход, высшее биологическое образование, междисциплинарная интеграция, результаты PISA, естественнонаучная грамотность, парадигма, компетентностный подход, системное мышление.

THE CONVERGENT APPROACH AS A MODERN PARADIGM FOR ENSURING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN HIGHER BIOLOGICAL EDUCATION (BASED ON THE ANALYSIS OF PISA RESULTS)

Raupova Mehrinigor Haydarovna

*Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Biology Department
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the convergent approach as a modern paradigm for ensuring interdisciplinary integration in the system of higher biological education. Based on the analysis of the results of the PISA (The Programme for International Student Assessment) in scientific literacy, the limited aspects of traditional approaches are revealed. The article examines the mechanisms for developing a holistic scientific worldview, critical thinking, and complex problem-solving competencies in students through the convergence of sciences such as biology, chemistry, physics, mathematics, and information technology. Furthermore, scientific proposals on didactic models and prospects for implementing the convergent approach in higher education are put forward.

Keywords: convergent approach, higher biological education, interdisciplinary integration, PISA results, scientific literacy, paradigm, competency-based approach, systems thinking.

Kirish. Zamonaviy dunyo fan va texnologiyalarning misli ko‘rilmagan taraqqiyoti, global muammolarning (iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, pandemiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi) murakkablashuvi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda ilm-fan oldida turgan vazifalarni birgina soha doirasida hal etishning imkoni qolmayapti. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim oldiga yangi va jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kun bitiruvchisi nafaqat o‘z sohasining chuqur bilimdoni, balki turdosh fanlardan xabardor, tanqidiy va tizimli fikrlay oladigan, fanlararo bog‘liqlikni ko‘ra biladigan va murakkab muammolarga nostandart yechimlar topa oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlarning umumta’lim sifati uchun muhim indikatorga aylanib ulgurgan PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning aksariyat hollarda faktlarni yod olish darajasi yuqori bo‘lsa-da, olgan bilimlarini notanish vaziyatlarda qo‘llash, ya’ni funksional savodxonlik, ayniqsa, tabiiy-ilmiy savodxonlik borasida jiddiy oqsoqliklar mavjud. O‘quvchilar biologik jarayonni fizik qonuniyatlar yoki kimyoviy reaksiyalar bilan bog‘lay olishmaydi. Bu holat an’anaviy ta’lim paradigmasi — fanlarni bir-biridan ajratilgan holda, qat’iy chegaralangan dasturlar asosida o‘qitish o‘z imkoniyatlarini deyarli tugatganidan dalolat beradi. Aynan shu nuqtada fanlararo integratsiyani ta’minlashning zamonaviy va samarali yondashuvi sifatida konvergent (lot. convergo — yaqinlashaman, qo‘shilaman) yondashuv maydonga chiqadi. Konvergent yondashuv fanlarni shunchaki bir-biriga bog‘lash yoki ayrim mavzularni parallel o‘rganishdan farqli o‘laroq, umumiy muammoni yechish uchun turli fanlar (biologiya, kimyo, fizika, matematika, axborot texnologiyalari, gumanitar fanlar) metodologiyalari va yutuqlarining chuqur sintezini, o‘zaro birikishini nazarda tutadi.

Oliy biologik ta’limda konvergent yondashuvni qo‘llash bioinjeneriya, bioinformatika, sintetik biologiya, neyrobiologiya kabi zamonaviy, fanlar tutashuvida paydo bo‘lgan sohalar uchun

fundamental ahamiyat kasb etishi bilan birga, talabalarda tabiat haqida parokanda tasavvurlar to'plamini emas, balki uning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini teran anglash va innovatsion fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni ham yaratadi. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi – oliy biologik ta'lim samaradorligini oshirishda konvergent yondashuvning nazariy-uslubiy jihatlarini PISA natijalari tahlili asosida yoritib berish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil va modellashtirish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanib, konvergent yondashuvning mohiyatini ochib berish va uning oliy biologik ta'limdagi o'rnini asoslashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, konvergent ta'lim va fanlararo integratsiya masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida faol o'rganilmoqda. Ta'limdagi konvergentsiya tushunchasining fundamental asoslari M. Kovalchuk kabi olimlar tomonidan NBIC-konvergentsiya (Nano-, Bio-, Info-, Kogno-) nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. M. Kovalchuk konvergentsiyani shunchaki fanlarning birikishi emas, balki "yagona, tabiatga o'xshash texnologiyalarni yaratish uchun tabiatdagi jarayonlardan andoza oluvchi yondashuv" deb ta'riflaydi va bu g'oya zamonaviy ta'limning asosiy tamoyiliga aylanishi zarurligini ta'kidlaydi [1]. Fanlararo integratsiya muammolari bo'yicha M.N. Berulava ham o'z tadqiqotlarida integratsiyani talabalarda dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantiruvchi didaktik prinsip sifatida asoslab bergan [2]. Aynan shu yaxlit dunyoqarash PISA tadqiqotlarida o'lchanadigan tabiiy-ilmiy savodxonlikning poydevori hisoblanadi.

Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar dolzarbligi Prezident Sh. Mirziyoyevning "... yoshlarning mustaqil fikrlashini, keng dunyoqarashini va zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashini ta'minlash" zaruriyati haqidagi fikrlarida ham o'z aksini topgan [3]. Bu vazifani an'anaviy metodlar bilan bajarish samarasizligi PISA natijalarida ko'rinmoqda. Sh.S. Sharipov ta'kidlaganidek, PISA topshiriqlarining aksariyati fanlararo bog'liqlikka asoslanadi va o'quvchidan biologik, kimyoviy, fizik bilimlarni bir vaqtda qo'llashni talab qiladi [4]. NBIC-konvergentsiyaning ta'limdagi amaliy aksi bo'lgan STEAM yondashuvi J. Morrison tomonidan "tanqidiy fikrlash va kreativlikni uyg'un rivojlantiruvchi ta'lim modeli" sifatida tariflangan [5], bu esa konvergent yondashuvning amaliy ko'rinishidir.

O'zbekistonda biologiya ta'limi mazmunini yangilash masalalari bo'yicha J.O. Tolipova innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning bilish faolligini oshirish muhimligini ko'rsatib o'tgan [6]. Konvergent yondashuv esa ushbu innovatsion texnologiyalarni yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi zamonaviy paradigma bo'lib xizmat qiladi. Zero, Yuval Noah Harari ta'kidlaganidek, kelajak mutaxassislari uchun eng muhim ko'nikma – bu o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olishdir [7], bunga esa faqat fanlararo bilimlar sintezi orqali erishish mumkin. Shuningdek, N.N. Sultonovanning tadqiqotlari ham oliy ta'limda kreativlikni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikning muhim o'rnini isbotlaydi [8]. Shunday qilib aytganda, adabiyotlar tahlili konvergent yondashuv oliy biologik ta'limni zamon talablariga moslashtirish, PISA kabi xalqaro baholashlarda yuqori natijalarga erishish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik muhim vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ilmiy bilishning umumpedagogik va maxsus metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, faoliyat nazariyasi va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari

belgilab olindi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qoʻllanildi:

Nazariy metodlar:

Ilmiy adabiyotlar tahlili: Tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik-pedagogik, tabiiy-ilmiy va metodik adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, Oʻzbekiston Respublikasining taʼlimga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilindi. Bu metod konvergent yondashuv, fanlararo integratsiya, PISA baholash tizimi va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalarining nazariy asoslarini oʻrganish, muammoning oʻrganilganlik darajasini aniqlash va tadqiqotning konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini berdi.

Qiyosiy-pedagogik tahlil: Anʼanaviy (fanlarni ajratib oʻqitish) va konvergent yondashuv asosidagi taʼlim modellarining afzalliklari va cheklangan jihatlari qiyoslandi. Shuningdek, Oʻzbekiston va PISA dasturida yuqori natijalarga erishayotgan davlatlarning (masalan, Finlyandiya, Singapur) oliy biologik taʼlimdagi integratsion jarayonlari solishtirildi.

Modellashtirish: Oliy biologik taʼlimda konvergent yondashuvni amaliyotga joriy etishning didaktik modeli (maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlari bilan) va fanlararo integratsiyaga asoslangan oʻquv mashgʻulotlarining loyihalari ishlab chiqildi. Bu metod tadqiqot gʻoyalarini amaliyotga tatbiq etishning tizimli va koʻrgazmali mexanizmini yaratishga xizmat qildi.

Empirik (amaliy) metodlar:

Hujjatlarni oʻrganish: Oliy taʼlimning biologiya yoʻnalishi uchun amaldagi davlat taʼlim standartlari, malaka talablari, oʻquv rejalari va fan dasturlari mazmuni fanlararo integratsiya va konvergentlik tamoyillari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

PISA natijalarini tahlil qilish: PISA xalqaro baholash dasturining tabiiy-ilmiy savodxonlik bloki boʻyicha ochiq maʼlumotlar bazasidagi topshiriqlar va Oʻzbekiston oʻquvchilarining natijalari tahlil qilindi. Bu metod anʼanaviy taʼlimdagi mavjud boʻshliqlarni aniqlash va konvergent yondashuv zaruratini empirik dalillar bilan asoslash uchun qoʻllanildi.

Ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganish va umumlashtirish: Konvergent yondashuv elementlarini (masalan, STEAM-loyihalar, keys-stadilar) oʻz faoliyatida qoʻllayotgan professor-oʻqituvchilarning ish tajribalari oʻrganildi va umumlashtirildi.

Ushbu metodlarning birgalikda, bir-birini toʻldirgan holda qoʻllanilishi tadqiqot muammosini har tomonlama va chuqur oʻrganish, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, xolisligi va ishonchligini taʼminladi.

Tahlil va natijalar

Oliy biologik taʼlim samaradorligini oshirishda konvergent yondashuvning imkoniyatlarini baholash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bir necha bosqichda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida oliy taʼlimning meʼyoriy hujjatlari, oʻquv-uslubiy majmualar mazmuni hamda PISA xalqaro baholash dasturining tabiiy-ilmiy savodxonlik bloki natijalari va topshiriqlari tuzilmasi qiyosiy-pedagogik jihatdan oʻrganildi.

1. Taʼlim mazmunining diskretligi (uzviylikning yoʻqligi) va uning PISA natijalaridagi aksi tahlili

Tahlilning birinchi bosqichida oliy taʼlimning biologiya yoʻnalishi boʻyicha amaldagi Davlat taʼlim standartlari, malaka talablari va fan dasturlarining mazmuni oʻrganildi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, oʻquv jarayoni asosan diskret (uzviyligi zaif) va monofanli (monodisciplinary)

xarakterga ega. Ya'ni, fundamental (biofizika, biokimyo) va maxsus (sitologiya, gistologiya, genetika) fanlar bir-biridan ajratilgan holda, o'zining qat'iy belgilangan chegaralari doirasida o'qitiladi. Bu holat talabalarda fanlararo aloqadorlikni anglashga, turli fanlarning metodologik apparatini umumiy maqsad yo'lida sintez qilishga to'sqinlik qiladi.

Ushbu tizimli kamchilik talabalarda fragmentar (parokanda) bilimlar to'plamini shakllantiradi va ularning dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini idrok etishiga imkon bermaydi. Masalan, "Molekulyar biologiya" fanida replikatsiya jarayonini o'rganayotgan talaba, asosan, unda ishtirok etuvchi fermentlar va oqsillarning nomini yodlash bilan cheklanadi. Vaholanki, bu murakkab jarayonning zamirida DNK qo'sh zanjirini ajratish uchun zarur bo'lgan energiyaning termodinamik hisob-kitoblari (fizika), fosfodiefir bog'larning hosil bo'lishidagi kimyoviy kinetika (kimyo) va jarayonni boshqaruvchi algoritmlarning matematik modellari (informatika) yotadi. An'anaviy yondashuvda bu bog'liqliklar deyarli e'tibordan chetda qoladi.

Ta'lim mazmunidagi bu uzilish PISA xalqaro tadqiqotlarining natijalarida o'zining salbiy aksini topmoqda. PISA dasturining tabiiy-ilmiy savodxonlik (Scientific Literacy) kompetensiyasini baholashga qaratilgan topshiriqlarining aksariyati o'z tabiatiga ko'ra kontekstli, integrativ va amaliyotga yo'naltirilgandir. Ular muayyan bir fanga oid mavhum bilimlarni emas, balki real hayotiy vaziyatni tushunish va unga ilmiy yechim taklif etish uchun zarur bo'lgan funksional savodxonlikni o'lchaydi.

Aniq misol tahlili: PISA topshiriqlari bazasidan olingan «Ozon qatlamining yemirilishi» mavzusidagi keys-stadi tahlil qilinganda, unga mukammal javob berish uchun talabadan quyidagi kompetensiyalarni namoyon etish talab qilinishi aniqlandi:

Kimyoviy kompetensiya: Xlorftoruglerodlarning (freonlar) kimyoviy inertligi, ularning atmosferaning yuqori qatlamlariga ko'tarilishi va u yerda ultrabinafsha nurlar ta'sirida parchalanishi (fotoliz) natijasida faol xlor radikallarini hosil qilishini tushunish.

Biologik kompetensiya: Ozon qatlamining Yer yuzidagi tirik organizmlarni (shu jumladan, insonni) ultrabinafsha nurlanishning zararli ta'siridan himoya qilishdagi biologik ahamiyatini, bu nurlarning DNK strukturasi ta'siri (mutagen effekt) va teri saratoni kabi kasalliklarni keltirib chiqarish xavfini asoslash.

Fizikaviy kompetensiya: Elektromagnit shkalaning tuzilishi, ultrabinafsha nurlanishning to'liq uzunligi va energiyasi o'rtasidagi bog'liqlik, ozon molekulasining (O_3) hosil bo'lish va parchalanish reaksiyalarining energetik balansini tushunish.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lim tizimi bitiruvchisi mazkur topshiriqqa javob berishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi, chunki uning bilimlari fanlararo «ko'priklar» bilan bog'lanmagan. Bu esa, birinchi navbatda, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va uni konvergent tamoyillar asosida modernizatsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

2. Oliy biologik ta'limda konvergent yondashuvni tatbiq etish modelining tahlili va natijalari
Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida, tadqiqot doirasida oliy biologik ta'limda konvergent yondashuvni amaliyotga joriy etishning konseptual-didaktik modeli ishlab chiqildi. Modelning markaziy elementi sifatida «fanlararo konvergent modullar» belgilandi. Ushbu modullar an'anaviy fanlar o'rnini egallab, o'quv jarayonini real, global muammolar va ilmiy-texnologik chaqiriqlar (grand challenges) atrofida tashkil etishni nazarda tutadi.

Ushbu yondashuv natijasida talabalarda nafaqat predmetli bilimlar, balki XXI asr kompetensiyalari deb ataluvchi universal ko'nikmalar shakllanishi kuzatildi: kompleks muammolarni yecha olish, tizimli va tanqidiy fikrlash, kreativlik, fanlararo kommunikatsiya

va yuqori texnologiyali loyihalarda jamoa bo‘lib ishlash. Nazariy modelni amaliyotga tatbiq etish va uning didaktik imkoniyatlarini namoyish etish maqsadida, yuqorida keltirilgan g‘oyalar asosida konvergent dars ishlanmasining namunaviy loyihasi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Konvergent dars ishlanmasi loyihasi

Dars komponentlari	Tavsifi va mazmuni
Dars mavzusi:	“Hujayra – tirik nanotizim: Saraton muammosiga fanlararo yechim izlash”
Darsning maqsadi:	Ta'limiy: Talabalarda hujayra biologiyasi, biofizika, biokimyo va bioinformatika bilimlarini integratsiya qilgan holda saraton kasalligining kelib chiqish sabablari va davolash usullari haqida yaxlit, tizimli tasavvur hosil qilish. Rivojlantiruvchi: Tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, guruhda ishlash va fanlararo kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish.
Dars turi va metodi:	Muammoli, loyihaga asoslangan, fanlararo-integrativ amaliy mashg‘ulot; Keys-stadi, “Aqliy hujum”, Loyihalar metodi, Taqdimot.
Darsning bosqichlari:	1-Bosqich: Motivatsiya va muammoning qo‘yilishi (Chaqiruv). Markaziy muammo taqdimoti: "Nima uchun sog‘lom hujayra barcha qonuniyatlarni buzib, saraton hujayrasiga aylanadi? Biz, XXI asr tadqiqotchilari, faqat bitta fanga tayanib bu muammoni hal qila olamizmi?" 2-Bosqich: Fanlararo tadqiqot (Guruhlarda ishlash). Talabalar fanlararo kichik guruhlariga bo‘linadi: - 1-guruh (Molekulyar biologlar va Genetiklar): Saratonning genetik ildizlarini (p53, EGFR genlari mutatsiyalari) NCBI ma'lumotlar bazasi yordamida o‘rganadi. - 2-guruh (Biokimyoglar va Farmakologlar): Saraton hujayrasi metabolizmini (Varburg effekti) va kimyoterapiya preparatlarining ta'sir mexanizmini tahlil qiladi. - 3-guruh (Biofiziklar va Nur terapiyasi mutaxassislari): Nur terapiyasining DNK ga ionlashtiruvchi ta'sirini modellashtiradi. - 4-guruh (Bioinformatiklar va Data Science mutaxassislari): Mutatsiyaga uchragan oqsillarning 3D strukturasi PyMOL dasturida vizualizatsiya qiladi.
Kutilayotgan natija:	3-Bosqich: Sintez va Taqdimot (loyiha himoyasi). Har bir guruh o‘z topilmalarini taqdimot qiladi. O‘zaro “ko‘ndalang savollar” (cross-disciplinary questions) orqali munozara tashkil etiladi. Yakunda barcha topilmalar birlashtirilib, “Saratonga qarshi kurashning kompleks xaritasi” tuziladi.
Kutilayotgan natija:	Talabalarda muammoning alohida fragmentlari haqidagi bilimlar emas, balki uning yaxlit, ko‘p qirrali manzarasi haqida

Har bir guruh o‘z topilmalarini taqdimot qiladi. O‘zaro “ko‘ndalang savollar” (cross-disciplinary questions) orqali munozara tashkil etiladi. Yakunda barcha topilmalar birlashtirilib, “Saratonga qarshi kurashning kompleks xaritasi” tuziladi.

Kutilayotgan natija: Talabalarda muammoning alohida fragmentlari haqidagi bilimlar emas, balki uning yaxlit, ko‘p qirrali manzarasi haqida tizimli tasavvur shakllanadi. Fanlararo

“ko‘priklar” qurish orqali PISA tipidagi nostandart vazifalarni yechish ko‘nikmasi rivojlanadi. An’anaviy bilimlarni o‘zlashtirishdan kompetensiyalarni shakllantirishga o‘tiladi.

Tadqiqotning “Tahlil va natijalar” qismida olingan ma’lumotlar shunchaki an’anaviy ta’lim tizimidagi kamchiliklarni ko‘rsatibgina qolmay, balki konvergent yondashuvning oliy biologik ta’limni transformatsiya qilishdagi real imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Mazkur bo‘limda ushbu natijalarning ilmiy-nazariy interpretatsiyasi, adabiyotlar tahlilida keltirilgan konsepsiyalar bilan o‘zaro aloqadorligi, tadqiqotning cheklovlari va amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

Natijalarni interpretatsiya qilish: Bizning “Hujayra – tirik nanotizim: Saraton muammosiga fanlararo yechim izlash” nomli dars ishlanmamiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, konvergent yondashuvning asosiy samarasi talabalarga shunchaki ko‘proq ma’lumot berishda emas, balki ularning tafakkur qilish uslubini (cognitive style) o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi. An’anaviy darsda talaba har bir fanni alohida “quti”dagi bilimlar to‘plami sifatida qabul qilsa, taklif etilgan modelda bu “quti”lar ochiladi va ular o‘rtasida kognitiv ko‘priklar quriladi. Masalan, “genetiklar” guruhining “biofiziklar” guruhiga bergan “ko‘ndalang savoli” talabaning p53 genidagi mutatsiyani shunchaki biologik hodisa sifatida emas, balki uning natijasida hosil bo‘lgan oqsilning fazoviy-fizik strukturasidagi o‘zgarish va funksional buzilish sifatida ko‘ra boshlaganidan dalolat beradi. Bu – fragmentar bilimlardan tizimli dunyoqarashga o‘tishning amaliy ko‘rinishidir. Demak, konvergent ta’lim – bu fanlarni mexanik birlashtirish emas, balki muammo atrofida fanlararo tafakkur maydonini yaratish texnologiyasidir.

Boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish: Tadqiqot natijalari mavzuga oid adabiyotlar tahlilida keltirilgan fundamental g‘oyalar bilan bevosita hamohangdir. M. Kovalchukning fanlarning shunchaki birikishi emas, balki “yagona, tabiatga o‘xshash texnologiyalarni yaratish uchun tabiatdagi jarayonlardan andoza oluvchi yondashuv” haqidagi konsepsiyasi [1], biz taklif etgan “Hujayra – tirik nanotizim” modulida o‘zining amaliy ifodasini topdi. Unda saraton hujayrasi muammosi tabiatning o‘zidagi molekulyar-genetik, biokimyoviy va biofizik jarayonlarning yaxlit tizim sifatidagi buzilishi sifatida o‘rganildi. Shuningdek, bizning natijalarimiz J.O. Tolipovanning biologiya o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati haqidagi fikrlarini [6] nafaqat tasdiqlaydi, balki bu texnologiyalarni (keys-stadi, loyiha metodi, IT-vositalar) yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi zamonaviy paradigma aynan konvergent yondashuv ekanligini ko‘rsatadi. J. Morrison ta’riflagan STEAM yondashuvining [5] mohiyati – fan, texnologiya, muhandislik va matematikani uyg‘unlashtirish – bizning dars ishlanmamizda biologiya, kimyo, fizika va bioinformatikaning real muammo yechimidagi sintezi orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotning cheklovlari: Ilmiy xolislik nuqtayi nazaridan, mazkur tadqiqotning ayrim cheklangan jihatlarini tan olish zarur. Birinchidan, ushbu tadqiqot doirasida faqat bitta namunaviy dars ishlanmasi yaratildi va uning samaradorligi sifat tahlili (kuzatuv, munozaralar tahlili) orqali baholandi. Yondashuvning talabalar o‘zlashtirishi va kompetensiyalarining shakllanishiga uzoq muddatli ta’sirini aniqlash uchun bu modelni butun bir semestr davomida qo‘llash va natijalarni nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida statistik (miqdoriy) tahlil qilish talab etiladi. Ikkinchidan, tadqiqot asosan biologiya ta’limiga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning boshqa tabiiy fanlar (kimyo, fizika, geografiya) ta’limidagi o‘ziga xosliklari chuqur o‘rganilmadi. Uchinchidan, konvergent darslarni tashkil etish uchun professor-o‘qituvchilardan yuqori darajadagi fanlararo kompetentlikni va fasilitatorlik mahoratini talab qiladi, bu esa kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida ham tegishli o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Amaliy ahamiyati: Aniqlangan cheklovlarga qaramasdan, tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan konvergent yondashuv modeli va dars ishlanmasi nafaqat nazariy taklif, balki amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan tayyor didaktik mahsulotdir. Ushbu modeldan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi yangi avlod o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishda metodologik asos sifatida foydalanishi mumkin. Universitetlar turdosh kafedralar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, fanlararo laboratoriyalar tashkil etish va o‘quv jarayonini PISA talablariga moslashtirishda

ushbu yondashuvni qo'llashi mumkin. Shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida an'anaviy o'qitish metodlaridan voz kechib, konvergent darslarni loyihalash va o'tkazish bo'yicha treninglar o'tkazishda ushbu ishlanmadan amaliy qo'llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar

Oliy biologik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlash borasida olib borilgan nazariy-amaliy tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Oliy ta'limda biologiyani o'qitishning an'anaviy monofanli (monodisciplinary) va diskret (uzviyligi zaif) tizimi o'zining imkoniyatlarini deyarli tugatgan. Bu tizim talabalarda fanlararo aloqadorlikni idrok etishga, bilimlarni real hayotiy muammolarga tatbiq etishga to'sqinlik qilib, ularning PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida talab etiladigan funksional savodxonlik va XXI asr kompetensiyalarining shakllanishini sekinlashtirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori chaqiriqlariga javob bera olmasligi muammosini keltirib chiqarmoqda.

Fan va texnologiyalarning NBIC (nano-, bio-, info-, cogno-) konvergentsiyasi sharoitida ta'lim paradigmasini o'zgartirishning strategik yo'nalishi – bu konvergent yondashuvni joriy etishdir. Konvergent yondashuv bilimlarni passiv o'zlashtirishdan, ularni faol ravishda real muammolarni hal qilish uchun qo'llashga asoslangan faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. U talabaning tafakkurini bir fan doirasidan olib chiqib, uni fanlar tutashuvida fikrlashga, tizimli va tanqidiy tahlil qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “muammoga yo'naltirilgan fanlararo modular” va “Hujayra – tirik nanotizim” nomli namunaviy dars ishlanmasi konvergent yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning samarali didaktik vositasi ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv talabalarning nafaqat fanga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, balki ularda kompleks muammolarni yecha olish, jamoada ishlash, kreativlik va IT-kompetentlik kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, oliy biologik ta'lim samaradorligini oshirish va uning mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

I. Strategik darajada (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga):

Biologiya va turdosh yo'nalishlar uchun Davlat ta'lim standartlari (DTS) va malaka talablarini qayta ko'rib chiqishda “fanlararo kompetensiya”, “konvergent savodxonlik” va “tizimli fikrlash” kabi tushunchalarni asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritish.

O'quv rejalarida an'anaviy fanlar nomidan bosqichma-bosqich voz kechib, ularning o'rniga global muammolarga (masalan, “Iqlim o'zgarishi va uning bioxilma-xillikka ta'siri”, “Sog'lom qarish: molekulyar mexanizmlardan ijtimoiy yechimlargacha”) yo'naltirilgan fanlararo modullarni joriy etish mexanizmini ishlab chiqish.

II. Institutsional darajada (Oliy ta'lim muassasalari rahbariyatiga):

Universitetlar tarkibida turdosh kafedralar (masalan, biologiya, kimyo, fizika, informatika, tibbiyot) o'rtasidagi an'anaviy “devor”larni olib tashlash va ularning professor-o'qituvchilaridan iborat ijodiy guruhlar tomonidan fanlararo o'quv dasturlari va loyihalar yaratilishini rag'batlantiruvchi grant tizimini yo'lga qo'yish.

Ta'lim jarayoniga PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari topshiriqlari formatiga o'xshash, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan keys-stadilar bankini yaratish va uni barcha fanlar kesimida keng joriy etish.

III. Pedagogik darajada (Professor-o'qituvchilar va kafedralarga):

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida konvergent darslarni loyihalash, fasilitatorlik mahorati va loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus o'quv modullarini tashkil etish.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda ularni shunchaki referat yozishga emas, balki real muammoni tanlab, uni turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganuvchi va yechimini taklif etuvchi

kichik tadqiqot loyihalarini bajarishga yo'naltirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi oliy biologik ta'limni zamonaviy fan yutuqlari va mehnat bozori talablariga moslashtirish, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va PISA kabi baholashlarda O'zbekistonning mavqeini yaxshilash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

Ковальчук М.В. Конвергенция наук и технологий – прорыв в будущее // Российские нанотехнологии. – Москва, 2011. – Т. 6, № 1-2. – С. 13–27.

Берулава М.Н. Интеграция содержания образования. – Москва: Педагогика, 1993. – 172 с.

Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 464 б.

Шарипов Ш.С. PISA халқаро баҳолаш дастурига тайёргарлик кўришнинг педагогик-психологик жиҳатлари // Замонавий таълим. – Тошкент, 2019. – № 10 (83). – Б. 4–10.

Morrison J. STEM, STEAM, and Maker Education in the Curriculum // The Wiley Handbook of Teaching and Learning. – Wiley Blackwell, 2018. – P. 399-420.

Толипова Ж.О., Фофуров А.Т. Биология таълими технологиялари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – 216 б.

Harari Y.N. 21 Lessons for the 21st Century. – New York: Spiegel & Grau, 2018. – 372 p.

Sultonova N.N. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Пед. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.

TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA GAZLAMALAR MATERIALSHUNOSLIGIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-ILMIY TAHLILI

Ruziyeva Dilafruz Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni tayyorlashda gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentlikni rivojlantirish masalalari nazariy va ilmiy jihatdan yoritilgan. Kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va kasbiy faoliyatga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, gazlama materiallari xususiyatlarini o'qitishda samarali metodik yondashuvlar, interaktiv uslublar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'qituvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida o'qituvchi tayyorlash tizimida gazlamalar materialshunosligi bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Texnologik ta'lim, gazlama materialshunosligi, o'qituvchilarni tayyorlash, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuvlar, o'quv metodikalar, amaliy ko'nikmalar, interaktiv ta'lim, tanqidiy fikrlash.

ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПО МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЮ ТКАНЕЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Рузиева Дилафруз Муминовна

Преподаватель кафедры «Технологическое образование» Бухарского государственного педагогического института

Аннотация. В статье даётся научно-теоретический анализ вопросов формирования компетентности в области материаловедения тканей при подготовке преподавателей технологического образования. Рассматривается содержание понятия «компетентность», его структура и роль в профессиональной деятельности педагога. Описаны эффективные методические подходы к обучению свойствам текстильных материалов с применением интерактивных методов и инновационных образовательных технологий. Особое внимание уделяется развитию у будущих учителей практических навыков, аналитического и критического мышления, способности к самостоятельному принятию решений. На основе результатов исследования предложены механизмы формирования профессиональной компетентности в сфере материаловедения тканей в системе подготовки педагогов.

Ключевые слова: Технологическое образование, материаловедение тканей, подготовка преподавателей, профессиональная компетентность, инновационные подходы, учебные методики, практические навыки, интерактивное обучение, критическое мышление

THEORETICAL AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF DEVELOPING COMPETENCE IN FABRIC MATERIALS SCIENCE IN THE TRAINING OF TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS

Ruziyeva Dilafruz Muminovna

Teacher of the «Technological education» department of the Bukhara State Pedagogical Institute

Annotatsion. This article presents a theoretical and scientific analysis of the development of textile materials science competence in the training process of technology education teachers. It

examines the concept of professional competence, its structural components, and its significance in pedagogical activities. The paper outlines effective methodological approaches for teaching the properties of textile materials, with a focus on interactive strategies and the integration of innovative technologies in the learning process. Particular attention is given to the formation of practical skills, analytical thinking, critical reasoning, and independent problem-solving among future teachers. Based on research findings, the article proposes mechanisms for building textile materials science competencies within teacher education programs.

Keywords: Technology education, textile materials science, teacher training, professional competence, innovative approaches, instructional methods, practical skills, interactive learning, critical thinking.

Kirish. Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, fan va texnologiyalarning shiddatli rivoji ta'lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar, jumladan, raqamli iqtisodiyotga o'tish va inson kapitalini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda umumta'lim maktablarida texnologiya fanining o'rni va mazmunini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarda hayotiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qodir bo'lgan, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega o'qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani doirasidagi eng asosiy yo'nalishlardan biri – "Gazlamalar materialshunosligi" bo'lib, u o'quvchilarda nafaqat amaliy mehnat ko'nikmalarini, balki estetik did, ijodiy tafakkur, resurslarni tejash va undan oqilona foydalanish kabi muhim sifatlarni shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi. Shu bois, bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarining mazkur sohadagi kompetentligini rivojlantirish oliy pedagogik ta'limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirishning nazariy-ilmiy jihatlari tahlil qilinadi, kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida an'anaviy "bilim, ko'nikma va malaka" (BKM) paradigmasidan kompetensiyaviy yondashuvga o'tish jarayoni faol kechmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki BKM yondashuvi o'quvchining asosan nazariy bilimlarni o'zlashtirishiga qaratilgan bo'lsa, kompetentlik yondashuvi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda, nostandart vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini birinchi o'ringa qo'yadi. Kompetensiya (lotincha "competere" – munosib bo'lish, erishish) – shaxsning mavjud bilim, tajriba, qadriyat va moyilliklarini muayyan faoliyat sohasida samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va keyingi yillarda qabul qilingan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirib borish mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Bo'lajak texnologiya o'qituvchisi nafaqat o'z fanining chuqur bilimdoni, balki quyidagi sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi:

Innovatsion faoliyatga tayyorlik: Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy eta olish.

Kasbiy mobillik: O'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlariga tez moslasha olish, o'z kasbiy bilim va mahoratini doimiy ravishda oshirib borish.

Ijodiy yondashuv: Darslarni nostandart shakllarda tashkil etish, o'quvchilarni ijodiy izlanishga yo'naltirish.

Loyiha faoliyatini tashkil etish: O'quvchilar bilan birgalikda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy loyihalarni amalga oshira olish.

Tadbirkorlik ko'nikmalari: O'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik asoslarini

shakllantirish.

Shu nuqtai nazardan, texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni ularda kasbiy kompetentlikning barcha tarkibiy qismlarini tizimli va maqsadli ravishda shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Texnologik ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni bugungi kunda chuqur o'zgarishlar va yangilanishlarga duch kelmoqda. Xususan, gazlamalar materialshunosligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish — bu sohada tayyorlanayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishdagi nazariy qarashlar, metodik yondashuvlar va amaliy tajribalarni o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kompetentlik yondashuvi ustuvor tamoyil sifatida qaralmoqda. Xalqaro miqyosda esa A. Khutorskoy, J. Raven, M. Zimnyaya singari olimlar kompetentlikning tarkibiy qismlari — bilim, ko'nikma, motivatsiya va refleksiya — ni bir butun tizim sifatida baholaydilar. Ularning izlanishlarida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida fanning amaliy jihatlarini chuqur egallash alohida o'rin egallaydi.

To'qimachilik materiallari haqidagi nazariy ma'lumotlar asosan S. P. Volkov, I. G. Shershenevich, V. A. Zolotuxin kabi rus olimlarining ishlari orqali yoritilgan. Bu manbalarda gazlama tolalarining fizik-mexanik xususiyatlari, tarkibi, ishlov berish texnologiyasi keng tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda chop etilgan o'quv qo'llanmalarda (masalan, «Gazlama materiallari» darsliklari) mahalliy sharoitga mos yondashuvlar taklif etilgan.

Pedagogik faoliyatda fanlararo integratsiya, amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosidagi o'qitish metodlari haqida N. Mavlonova, Sh. Toshpulatov, A. Yo'ldoshevlarning ilmiy ishlari muhim o'rin egallaydi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim sifatini oshirishda o'quvchi faoliyatining interaktiv uslublar bilan uyg'unlashtirilishi ta'kidlangan.

PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida tayyorlangan metodik qo'llanmalarda o'quvchilarda amaliy ko'nikma va funksional savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jihatlar o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy texnologik ta'lim real ishlab chiqarish muhitiga yaqin bo'lishi kerak.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda ishlab chiqilgan innovatsion o'quv dasturlari, raqamli laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalari yordamida materialshunoslik fanini o'qitish tajribalari ham adabiyotlarda o'z aksini topgan. Bu esa an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologik ta'lim o'qituvchilarini gazlama materialshunosligi sohasida kompetent tayyorlash uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki metodik, amaliy va innovatsion yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash zarur. Ilmiy manbalar bu yo'nalishda tizimli, bosqichma-bosqich yondashuvni, real kasbiy muhitga integratsiyalashgan o'qitish metodlarini qo'llashni taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchining gazlamalar materialshunosligi bo'yicha kompetentligini baholash jarayoni ham an'anaviy yondashuvlardan farq qilishi kerak. Baholash faqat nazariy bilimlarni tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mahorat va qadriyatli munosabatlarni ham qamrab olishi lozim.

Texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirish — bu shunchaki bilimlarni uzatish emas, balki bo'lajak mutaxassisda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lay oladigan, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yaxlit kasbiy mahoratni shakllantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir.

Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish: Oliy pedagogik ta'limning texnologiya yo'nalishi o'quv reja va dasturlarini kompetentlik yondashuvi asosida to'liq qayta ko'rib chiqish, ularga

materialshunoslik sohasidagi eng so'nggi fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni kiritish.

O'qitish metodikasini takomillashtirish: An'anaviy ma'ruza-seminar shaklidan voz kechib, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi, ishbilarmonlik o'yinlari kabi interfaol texnologiyalarni ta'lim jarayonining asosiy qismiga aylantirish.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash: Oliy ta'lim muassasalarining materialshunoslik laboratoriyalarini zamonaviy asbob-uskunalar, raqamli texnikalar, gazlama namunalari kolleksiyalari va ko'rgazmali qurollar bilan to'liq ta'minlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish: Professor-o'qituvchilar va talabalarni materialshunoslikni o'qitish metodikasi, milliy hunarmandchilikni o'rganish va tiklash, yangi materiallar yaratish kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borishga jalb etish.

Oliy ta'lim – ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish: To'qimachilik sanoati korxonalari bilan hamkorlikni mustahkamlab, talabalarning real ishlab chiqarish muhitida tajriba orttirishlari uchun sharoit yaratish.

Faqatgina shunday kompleks yondashuv orqaligina biz umumta'lim maktablari uchun gazlamalar materialshunosligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga, amaliy mahoratga va yuksak qadriyatli munosabatlarga ega bo'lgan, yangi avlodni milliy ruhda va zamon talablariga mos ravishda tarbiyalay oladigan raqobatbardosh texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashga erisha olamiz. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda yoshlarning kasb-hunarga qiziqishini oshirishga, inson kapitalini rivojlantirishga va pirovardida O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Zamonaviy texnologik ta'lim tizimi o'z oldiga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikma, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini shakllantirish vazifasini qo'yadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish esa, eng avvalo, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritadigan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liq. Xususan, gazlamalar materialshunosligiga oid bilim va ko'nikmalar — texnologik ta'lim fani doirasida ajralmas tarkibiy qism sifatida qaralishi kerak.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar kompetentlik tushunchasini asosan umumiy nazariy darajada ko'rib chiqqan. Biroq, materialshunoslikka oid maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga bag'ishlangan chuqur amaliy izlanishlar yetarli emas. Bu holat, o'z navbatida, o'qituvchi tayyorlash dasturlarini amaliyotga yaqinlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Amaldagi o'quv rejalari va dasturlar ko'pincha nazariy bilimlarga urg'u beradi, amaliy mashg'ulotlar esa yetarli darajada tizimli emas. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar ko'proq nazariy jihatdan tayyor bo'lishadi, lekin real dars jarayonida zarur bo'lgan materiallar bilan ishlash, ularni tahlil qilish, taqqoslash, va texnologik jihatdan to'g'ri tanlay olish kompetentligida muammolar yuzaga keladi.

Shuningdek, o'quvchilarga interaktiv va innovatsion metodlar orqali gazlama materiallarining strukturasi, xossalari, ishlov berish texnologiyasi kabi murakkab tushunchalarni yetkazish uchun o'qituvchining o'zi ushbu texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu esa o'z navbatida pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish zarurligini bildiradi.

Munozaraga sabab bo'luvchi muhim jihatlardan yana biri — bu kompetensiyalarni baholash mezonlarining aniqligi va amaliy qiymati. Aksariyat hollarda o'qituvchi kompetentligini baholashda subyektiv yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Bu esa kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samarasini aniq baholashni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, texnologik ta'lim o'qituvchilarining gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirish masalasi — faqat texnik bilimlar emas, balki pedagogik metodika, innovatsion texnologiyalar va baholash mexanizmlarining kompleks uyg'unligini talab qiluvchi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Bu borada xalqaro tajribalarni tahlil qilish va mahalliy sharoitga mos integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab

chiqish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil va munozaralar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni tayyorlashda gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirish – bu zamonaviy kasbiy ta'limning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu kompetentlik nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni, balki pedagogik yondashuvlar, tahliliy fikrlash, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish, hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, amaliy tajribalar va xalqaro yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tayyorlov dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ularni amaliyotga yo'naltirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va kompetensiyalarni aniq mezonlar asosida baholash tizimini yaratish zarur.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- Gazlamalar materialshunosligi fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar (AR/VR, raqamli laboratoriyalar)ni joriy etish o'qituvchilarning amaliy kompetentligini oshiradi.
- Kompetentlikni shakllantirishda faqat nazariy bilim emas, balki real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirilgan amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega.
- Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv zarur, bunda har bir bosqichda o'z kompetensiyalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratilishi kerak.

Umuman olganda, texnologik ta'lim o'qituvchilarining gazlamalar materialshunosligiga oid kompetentligini rivojlantirish – nafaqat ta'lim sifati, balki sanoatga tayyor kadrlar yetkazib berish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.
2. Muminovna R. D. Et Al. O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi //ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 7. – №. 4. – c. 157-165.
3. Muminovna R. D. Tabiiy ipak iplarining xususiyatlarini tahlil qilish asosida ipak tolali gazlamalarining sifati va assortimentini oshirish mezonlari //Miasto przyszości. – 2024. – c. 323-326.
4. Muminovna R. D. Ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalari tasnifi //Наука и Технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
5. Muminovna R. D. Gazlamalarning kirishishi va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish // Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4.
6. Rayimova d. D. Et al. Texnologiya ta'limi praktikumi fanini oqitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari//educational research in universal sciences. – 2023. – т. 2. – №. 5.
7. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8.

TEACHING ENGLISH WITH PLATFORMS IN DISTANCE LEARNING: THE UZBEKISTAN UNDERGRADUATE CONTEXT

Ruzmetova Sohiba Tohir qizi,
Chirchik state pedagogical university PhD student
<https://orcid.org/0009-0009-4397-6197>

Annotation. Distance learning has become a critical mode of education in Uzbekistan's higher education, especially for teaching English as a foreign language. This thesis examines how modern platforms – including Zoom, Google Meet, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Duolingo, Telegram, and others – are utilized in teaching English to undergraduate students in Uzbekistan. It discusses the benefits of these platforms (such as flexibility, resource accessibility, and interactive learning opportunities) as well as challenges faced (including technical connectivity issues, student engagement, and academic integrity concerns). The analysis draws on recent literature and case studies from Uzbekistan, situating findings within theoretical frameworks of online pedagogy. Practical strategies for effective English instruction via distance learning are highlighted, ranging from combining synchronous video lessons with asynchronous learning management systems to leveraging social media (e.g. Telegram) for communication.

Key words: Distance learning, English language teaching, Online education platforms, Learning Management Systems (LMS), Zoom, Moodle, Digital pedagogy, Academic integrity, Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK), Blended learning

ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЛАТФОРМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ: КОНТЕКСТ БАКАЛАВРИАТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Рузметова Сохиба Тахировна
Базовый докторант Чирчикский государственный педагогический университета

Аннотация. Дистанционное обучение стало важнейшим способом обучения в высших учебных заведениях Узбекистана, особенно при преподавании английского языка как иностранного. В этой диссертации рассматривается, как современные платформы, включая Zoom, Google Meet, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Duolingo, Telegram и другие, используются при обучении английскому языку студентов старших курсов в Узбекистане. В нем обсуждаются преимущества этих платформ (такие как гибкость, доступность ресурсов и возможности интерактивного обучения), а также возникающие проблемы (включая проблемы с техническим подключением, вовлеченностью студентов и академической честностью). Анализ основан на новейшей литературе и тематических исследованиях из Узбекистана, результаты которых укладываются в теоретические рамки онлайн-педагогика. Освещаются практические стратегии эффективного обучения английскому языку с помощью дистанционного обучения, начиная от сочетания синхронных видеоуроков с асинхронными системами управления обучением и заканчивая использованием социальных сетей (например, Telegram) для общения.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, преподавание английского языка, Платформы онлайн-образования, Системы управления обучением (LMS), Zoom, Moodle, Цифровая педагогика, Академическая честность, Технологический педагогический контент (TPACK), Смешанное обучение.

MASOFAVIY TA'LIMDA PLATFORMALAR BILAN INGLIZ TILINI O'QITISH: O'ZBEKISTON BAKALAVRIAT TALABALRI MISOLIDA

Ro'zmetova Sohiba Tohir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Masofaviy ta'lim O'zbekiston oliy ta'limida, ayniqsa ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish uchun muhim ta'lim turiga aylandi. Ushbu tezisdagi Zoom, Google Meet, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Duolingo, Telegram va boshqa zamonaviy platformalar O'zbekistondagi bakalavriat talabalariga ingliz tilini o'qitishda qanday foydalanilayotgani ko'rib chiqilgan. Unda ushbu platformalarning afzalliklari (moslashuvchanlik, resurslarga kirish imkoniyati va interfaol ta'lim imkoniyatlari kabi) hamda duch keladigan muammolar (shu jumladan texnik ulanish muammolari, talabalarni jalb qilish va akademik yaxlitlik muammolari) muhokama qilinadi. Tahlil O'zbekistondagi so'nggi adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar asosida olib borildi, natijalarni onlayn pedagogikaning nazariy asoslari doirasida joylashtirildi. Sinxron video darslarni asenkron ta'limni boshqarish tizimlari bilan birlashtirishdan tortib, aloqa uchun ijtimoiy tarmoqlardan (masalan, Telegram) foydalanishga qadar masofaviy o'qitish orqali ingliz tilini samarali o'qitishning amaliy strategiyalari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: masofaviy o'qitish, ingliz tilini o'qitish, onlayn ta'lim platformalari, ta'limni boshqarish tizimlari (LMS), Zoom, Moodle, raqamli pedagogika, akademik yaxlitlik, texnologik pedagogik tarkib bilimlari (TPACK), aralash ta'lim

Introduction: Distance education and online learning have been widely studied in recent years, yielding insights into effective practices and common challenges. Theoretical frameworks such as the Technological, Pedagogical, and Content Knowledge (TPACK) model underscore that effective online teaching requires integrating technology use with sound pedagogy and subject content knowledge. Instructors must adapt their methods to the online environment, ensuring that tools like video conferencing or learning management systems are used in pedagogically meaningful ways. For example, Koehler and Mishra's [5; 60-70] work on TPACK emphasizes that simply knowing how to use a platform is not enough – teachers must also redesign learning activities that suit the online medium and foster language acquisition. Additionally, theories of self-regulated learning are relevant, as students in online settings need greater autonomy and discipline. These theories suggest that both teacher preparedness and student skills play a role in successful distance education.

Global research on online learning during the COVID-19 period provides a backdrop for the Uzbek experience. A study by Bond et al. [3; 50] mapped the first global semester of emergency remote teaching and found that institutions worldwide grappled with similar issues of technology access, digital literacy, and maintaining student engagement. Mishra et al. [7; 70-79] note that the rapid shift to online learning required innovative solutions but also exposed gaps in infrastructure and readiness, especially in developing contexts. Dhawan [4; 5-22] observed that online learning can be a “panacea” during crises, offering flexibility and continuity of education, but it also amplifies the digital divide – students with poor internet or limited devices are disproportionately affected. These global findings resonate with Uzbekistan's situation, where internet connectivity and device availability vary greatly between urban and rural regions.

Platforms for online English teaching have been explored in various contexts. Video conferencing tools like Zoom and Google Meet gained prominence for synchronous classes worldwide. Studies have compared their usefulness for teaching; for instance, teachers appreciated Zoom's features (e.g. breakout rooms, stability) for language practice. Learning Management Systems (LMS) such as Moodle and Google Classroom have been lauded for enabling structured content delivery, assignment collection, and feedback in language courses. Moonma [6; 42-52]

found that EFL students had positive attitudes towards Google Classroom, rating it highly in ease of use and usefulness for submitting assignments and receiving announcements. These LMS platforms allow 24/7 access to materials, which is particularly beneficial for language learning as students can review lectures, download notes, and complete exercises at their own pace. Social learning platforms like Edmodo have also been used in EFL contexts. Edmodo provides a Facebook-like environment where teachers and students can share posts, quizzes, and feedback in a closed group. Prior studies report that Edmodo makes the learning process more interesting and engaging for students, promotes collaboration, and even helps less tech-savvy teachers create a web-based learning environment easily. Students tend to respond positively to Edmodo, they feel it facilitates independent learning and peer discussion, and appreciate its time-saving, paperless nature for assignments.

Literature review. Duolingo, a gamified language-learning app, has been used as a supplementary tool. Although Duolingo is typically for self-study rather than formal teaching, educators have integrated it into curricula to encourage extra practice. Recent research suggests that Duolingo can significantly boost learners' willingness to communicate in the target language and their overall engagement in classes. Ouyang et al. [8; 50-67] report that incorporating Duolingo exercises led to notable improvements in students' participation and confidence in EFL online classes, demonstrating the potential of such apps to complement formal instruction.

Studies in Uzbekistan's context specifically are now emerging as scholars analyze the pandemic's impact on education. Akhmedjanova et al. [1; 87-98] conducted a case study of three Uzbek universities teaching Academic English online. They noted that prior to 2020, Uzbekistan had virtually no experience with online courses, so institutions experimented with both synchronous (live video lessons) and asynchronous (LMS-based) approaches. Key successes included the continuous availability of learning materials and more timely grading of student work online, while major challenges included lower student engagement, more instances of cheating or plagiarism, and difficulties in adapting teaching materials for an online format. Another study by Akhmedjanova and Kerimova [2; 159-171] surveyed students and teachers in Uzbekistan and found a mix of positive and negative experiences with distance education. Notably, teachers generally felt more confident (self-efficacious) in teaching online than students felt about learning online.

Surveys of Uzbek students during the pandemic provide additional insight. In one survey at Termez Engineering and Technology Institute, over 1,700 students were polled on the quality of online education. More than 70% of students expressed satisfaction with the online learning quality despite some difficulties, while about 22% were dissatisfied. The primary reason for dissatisfaction was the lack of preparation of some teachers for online teaching (indeed, about 18% of teachers were reported as not adequately prepared. Rustamov R. [9; 24-30] explored student barriers to distance education in Uzbekistan through interviews and found that many students relied heavily on Telegram and similar non-specialized tools for their studies, sometimes more than official e-learning systems. While this ensured communication continuity, it also led to complaints about the monotony of online classes – two-thirds of students reported that online lectures lacked variety and interest. These findings reveal that while platforms enabled continuity of English education, maintaining student engagement and providing varied, interactive content became a central challenge in the Uzbek context.

When in-person classes were suspended, universities in Uzbekistan mobilized an array of online platforms. A notable trend was the use of multiple platforms in combination to cover different instructional needs. For synchronous class sessions, Zoom quickly became the platform of choice for many institutions. A national survey in 2020 found that 85% of respondents (educators and students) favored Zoom for live video lessons, compared to other video conferencing tools. This preference was due to Zoom's relative reliability and features like breakout rooms (useful for

small-group discussions in English speaking practice). Google Meet was also utilized, especially in cases where integration with Google Classroom was convenient. Meanwhile, universities leveraged LMS platforms for asynchronous learning. For example, Moodle – an open-source LMS – was actively used across many Uzbek universities to upload lecture notes, assignments, and quizzes. Google Classroom similarly served as a hub for distributing materials and collecting student work. These systems allowed English instructors to share reading passages, grammar exercises, and multimedia resources that students could access anytime, addressing the need for flexible study schedules.

Other platforms saw use as well: Edmodo was adopted on a smaller scale by instructors already familiar with it, and some universities with existing infrastructure employed Microsoft Teams or Blackboard Collaborate. For example, the Management Development Institute of Singapore in Tashkent (MDIST) decided to deliver English classes via Zoom and then upload the recorded sessions to Blackboard, their chosen LMS, so that students from remote areas or those who missed live sessions could watch later. This multi-platform strategy (Zoom for live teaching, Blackboard for content delivery and recording access) illustrates a practical solution to connectivity constraints and scheduling conflicts.

Despite the abrupt transition, several clear benefits of using modern platforms for distance English learning emerged. One major advantage was increased accessibility of learning materials. By putting course content on LMS platforms (Google Classroom, Moodle, etc.), instructors allowed students to access lectures, PowerPoint slides, assignments, and even recorded video lessons at any time. This 24/7 availability of materials was a new benefit not present in traditional classes. Students could revisit a grammar explanation or replay a recorded pronunciation drill as needed, reinforcing their learning at their own pace. Such flexibility is particularly useful in language learning, where repetition and review are important. Additionally, online submission systems time stamped assignments and enabled faster grading turnaround. Teachers reported being able to give more timely feedback through digital platforms – for instance, using Google Classroom’s comment feature to correct an essay draft or provide suggestions almost immediately after submission, rather than waiting for the next class session. Akhmedjanova et al. [1; 87-98] noted that the timely delivery of assessments and feedback was perceived as a success of the online mode.

Methodology. Another benefit was the possibility of interactive and multimedia-rich instruction. Platforms like Zoom support screen sharing, virtual whiteboards, and breakout rooms, which English teachers used creatively. For example, instructors could play a short English dialogue video in class (via screen share) and then send students into breakout rooms to discuss comprehension questions in pairs – an activity that mirrors communicative language teaching practices. Some teachers reported that shy students participated more in Zoom chat discussions than they might have in a physical classroom, possibly due to the relative anonymity or the written modality of chat. Even Telegram was leveraged to increase interaction; teachers created polls or quizzes in Telegram groups to test vocabulary, turning homework into a quick interactive game that all students could attempt on their phones. Student engagement through gamification and social learning also improved in some cases: as mentioned, integrating Duolingo tasks or using Edmodo’s badge system for completed tasks helped motivate students with tangible rewards and a sense of competition or accomplishment. Moreover, Edmodo and discussion forums in LMS gave quieter students a channel to voice their opinions in writing, thus broadening participation beyond the most outspoken individuals.

Additionally, online platforms inadvertently improved students’ digital literacy in English. Navigating an English-language interface of Zoom or Moodle, typing responses, and reading instructions online all provided extra reading and writing practice in English. In Uzbekistan, many educational platforms used (like Google services or Moodle) operate in English, so students got

practical exposure to using English for academic and technological purposes.

From an administrative perspective, online platforms offered transparency and data tracking. Quiz scores, attendance logs in Zoom or Google Meet, and assignment submission records were automatically recorded. This made it easier to track student progress and identify who might be falling behind. Some universities pointed out that online assessment systems reduced opportunities for subjective bias in grading and increased transparency (e.g. students could immediately see their quiz scores and correct answers). Finally, the use of diverse platforms allowed education to continue uninterrupted during lockdowns, ensuring continuity in students' academic trajectories. English proficiency development, which heavily depends on consistent practice, could have been severely stunted by a long break. The prompt adoption of distance learning tools in Uzbekistan prevented such a loss. It also opened up opportunities for guest sessions and resources beyond the local context – for example, an English lecture delivered via Zoom by a guest speaker from abroad, or the use of open-access online libraries and English learning websites that students learned to utilize.

Notwithstanding the benefits, the implementation of distance learning platforms for English teaching came with significant challenges in Uzbekistan. The most frequently cited issue was technical infrastructure limitations. Both educators and students encountered problems with internet connectivity and device availability. In many regions, students did not have reliable broadband or Wi-Fi; they often relied on mobile data which could be slow or expensive. Live video classes on Zoom or Google Meet strained these limited connections, leading to interruptions. Some students had to turn off video to save bandwidth, which in language classes is problematic since visual cues and facial expressions aid communication. Moreover, not every student owned a personal computer or tablet; a considerable number attended classes via smartphones, which made writing long essays or reading PDFs more difficult. A nationwide observation was that online education exposed existing inequalities – those in rural areas or from lower-income families faced greater hurdles in accessing online English classes. While the use of Telegram (which consumes relatively low data) and recorded lectures provided workarounds, these disparities in access remained a concern throughout the distance learning period.

Another challenge was student engagement and participation in the online format. Maintaining the same level of interactive discussion and speaking practice in a virtual classroom proved difficult. Akhmedjanova et al. [1; 87-98] reported a lack of student engagement as a prominent issue, with many students becoming passive or “invisible” during online sessions. In a physical classroom, an instructor can more easily notice a confused look or directly call on a student who is disengaged; in Zoom, students can hide behind turned-off cameras or simply remain quiet, making it harder for teachers to gauge involvement. Language learning, which ideally involves a lot of back-and-forth communication, can suffer if students do not actively participate. The monotony of sitting at a computer for long stretches also led to drops in attention. Some Uzbek students confessed they felt less motivation in online classes and sometimes multitasked or did household chores during class time, especially if the lesson was not fully engaging. Rustamov's [9; 40-43] interviews highlight that two-thirds of students found online lectures lacked variety and were boring, causing their attention to drift. Teachers, on their side, struggled to redesign activities in an engaging way. Many were teaching online for the first time and initially resorted to lecture-style delivery or text-heavy slides, which do not translate well to the online medium. This indicates a need for training in interactive online pedagogy; techniques like incorporating quizzes, using breakout room tasks, or leveraging multimedia were underutilized early on, though adoption improved over time.

Academic integrity became another serious concern. There were increased cases of cheating and plagiarism reported during online assessments. English exams that moved online (such as quizzes, essay submissions, or even spoken tests) faced issues like students using translation software, copying answers from the internet, or getting help from others off-camera. The absence of physical proctoring made it easier for such behavior to go undetected. Instructors attempted

solutions such as open-book exam formats, oral examinations via video, or more frequent low-stakes quizzes to deter cheating, but the learning curve was steep. The integrity issue particularly affected language skills evaluation – for instance, assessing a student’s writing ability became challenging when one could not be sure if the submitted essay was entirely the student’s own work or partly generated by external aids. Ensuring honest effort required creative assessment design (which we discuss in strategies), but until those measures took hold, many educators were dissatisfied with the reliability of online test results.

Conclusion: The transition to distance learning in Uzbekistan’s undergraduate programs, prompted by the COVID-19 pandemic, has been a transformative period for English language teaching. Utilizing modern platforms – from global tools like Zoom, Google Meet, Google Classroom, Moodle, and Duolingo to local favorites like Telegram – educators managed to continue teaching English with a remarkable degree of continuity. This thesis has explored the multifaceted experience of “teaching English with platforms” in this context, highlighting numerous benefits such as flexible access to materials, interactive learning through multimedia and social features, and opportunities for students to develop autonomy. At the same time, it has candidly addressed the challenges that emerged: technical limitations, reduced student engagement, academic integrity issues, and the need for new pedagogical approaches suited to online environments.

Theoretical perspectives like TPACK remind us that true integration of technology in education requires more than just using a platform – it requires rethinking how we teach and how students learn. In the case of Uzbekistan, we saw that institutions and instructors adapted over time, learning from early mistakes and gradually implementing effective strategies: blending synchronous and asynchronous methods, increasing interactivity, reworking assessments, and providing support and training for all participants. These efforts have not only sustained English instruction during the crisis but have also built capacity for the future. Many teachers and students have gained digital skills and pedagogical insights that can enrich traditional face-to-face teaching or support a move towards blended learning models in the post-pandemic era.

REFERENCES

1. Akhmedjanova, D. R., Begmatova, Kh. A., & Abdurakhmanova, N. R. (2023). Integration of information and communication technologies in online teaching of academic English in higher education in Uzbekistan. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 2023(3), 87–98.
2. Akhmedjanova, D., & Kerimova, I. (2024). University students and teachers’ experiences with distance education in Uzbekistan. *Journal of Eastern European and Central Asian Research*, 11(1), 159–171.
3. Bond, M., Bedenlier, S., Marín, V. I., & Händel, M. (2021). Emergency remote teaching in higher education: Mapping the first global online semester. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 18(1), 50.
4. Dhawan, S. (2020). Online learning: A panacea in the time of COVID-19 crisis. *Journal of Educational Technology Systems*, 49(1), 5–22. DOI: 10.1177/0047239520934018.
5. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60–70.
6. Moonma, J. (2021). Google Classroom: Understanding EFL students’ attitudes towards its use as an online learning platform. *English Language Teaching*, 14(11), 42–52.
7. Mishra, L., Gupta, T., & Shree, A. (2020). Online teaching-learning in higher education during lockdown period of COVID-19 pandemic. *International Journal of Educational Research Open*, 1, 100012. <https://doi.org/10.1016/j.ijedro.2020.100012>.
8. Ouyang, Z., Jiang, Y., & Liu, H. (2024). The effects of Duolingo, an AI-integrated technology, on EFL learners’ willingness to communicate and engagement in online classes. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 25(3), 50–67.
9. Rustamov, R. (2022). Exploring student barriers to distance education in higher education institutions in the case of Uzbekistan.
10. Siahaan, E. B. (2020). Students’ perception of Edmodo use as a learning tool. *Journal of English Teaching*, 6(1), 13–25.

DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI KIMYO DARSLARIDA SPORT MAKTABI O'QUVCHILARIDA UNIVERSAL TA'LIM HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISH

To'xtaniyozova Farida Ortiqovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada didaktik o'yinlarning kimyo darslarida sport maktabi o'quvchilarida universal ta'lim harakatlarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, muloqot va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Sport maktabi o'quvchilari uchun interfaol ta'lim usuli sifatida didaktik o'yinlarni qo'llash fanga qiziqishni oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari didaktik o'yinlarning o'quv jarayonida samaradorligini ko'rsatadi hamda ularni kimyo fanida keng joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, kimyo, sport maktabi, universal ta'lim harakatlari, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, muloqot, hamkorlik, interfaol ta'lim, o'quv samaradorligi.

ФОРМИРОВАНИЕ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ У УЧАЩИХСЯ СПОРТИВНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ ХИМИИ ЧЕРЕЗ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ

Тохтаниезова Фариди Ортиковна,
Независимый исследователь Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье анализируется роль дидактических игр в формировании универсальных учебных действий у учащихся спортивной школы на уроках химии. Дидактические игры способствуют развитию самостоятельного мышления, навыков решения проблем, коммуникации и сотрудничества. Для учащихся спортивной школы применение интерактивных методов обучения, таких как дидактические игры, повышает интерес к предмету и укрепляет знания. Результаты исследования подтверждают эффективность дидактических игр в образовательном процессе и необходимость их широкого внедрения в курс химии.

Ключевые слова: дидактические игры, химия, спортивная школа, универсальные учебные действия, самостоятельное мышление, решение проблем, коммуникация, сотрудничество, интерактивное обучение, учебная эффективность.

FORMATION OF UNIVERSAL LEARNING ACTIVITIES IN SPORTS SCHOOL STUDENTS DURING CHEMISTRY LESSONS THROUGH DIDACTIC GAMES

To'xtaniyozova Farida Ortiqovna,
Independent Researcher at Chirchiq State Pedagogical University

Abstract. This article explores the role of didactic games in developing universal learning activities among sports school students during chemistry lessons. Didactic games facilitate the development of independent thinking, problem-solving skills, communication, and collaboration. For sports school students, using interactive teaching methods like didactic games increases interest in the subject and reinforces knowledge. Research findings demonstrate the effectiveness of didactic games in the educational process and emphasize the need for their broad implementation in chemistry education.

Keywords: didactic games, chemistry, sports school, universal learning activities, independent thinking, problem solving, communication, collaboration, interactive learning, educational effectiveness.

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonida nafaqat predmet bilimlarini berish, balki o'quvchilarda universal ta'lim harakatlarini (UTA) shakllantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. UTA – bu mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, muloqot, hamkorlik va axborotni boshqarish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi kompetensiyalar majmuasi bo'lib, u zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishishning poydevori sanaladi. Ta'lim olimlari Vygotskiy fikriga ko'ra, "o'quvchi faol ishtirok etgan ta'lim jarayoni uning kognitiv va emotsional rivojlanishiga xizmat qiladi" (Vygotsky, 1978). Shu bois, didaktik o'yinlar kabi interfaol metodlar o'quvchilarning ta'limdagi faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

O'zbekiston metodist olimlari ham didaktik o'yinlarning o'quv jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Xususan, Toshkent davlat pedagogika universiteti professori N. Akbarova (2021) didaktik o'yinlarni qo'llash o'quvchilarda universal ta'lim harakatlarining shakllanishini, ayniqsa sport maktabi sharoitida, sezilarli darajada oshirishini qayd etadi. Sport maktabi o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki jismoniy faollik va o'quv faoliyatini uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, kimyo fanida didaktik o'yinlar yordamida murakkab fan kontseptsiyalarini osonlashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masaladir. Toshkent pedagogika instituti dotsenti S. Turaev (2020)ning ta'kidlashicha, didaktik o'yinlar kimyo darslarida o'quvchilarning faolligini oshirib, universal ta'lim harakatlarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, didaktik o'yinlarni sport maktabi o'quvchilari uchun kimyo fanida keng joriy etish zamonaviy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Metodlar. Didaktik o'yinlar yordamida universal ta'lim harakatlarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlar qo'llaniladi. Ushbu metodlar interfaollik, o'quvchi faolligini rag'batlantirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks tarzda shakllantirishga imkon beradi (Atkiyayeva S.I., 2021).

Metodologik nuqtai nazardan, didaktik o'yinlar – bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi ta'lim vositasi hisoblanadi (Kurbanova A.D., 2021). Shu bilan birga, didaktik o'yinlar o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirib, ularni mavzuni chuqurroq anglashga undaydi (Бузрукходжаев А.Н., 2022).

Sport maktabi o'quvchilari uchun didaktik o'yinlarni qo'llash metodikasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yoshdagi o'quvchilarda harakat va jismoniy faollik yuqori bo'lishi ta'limga diqqatni jamlashni qiyinlashtirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar sport maktabi o'quvchilarida nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki universal ta'lim harakatlari, jumladan, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi (Тухтаниёзова Ф.О., 2022).

Amaliy qo'llanilishida quyidagi metodlar eng ko'p qo'llaniladi:

Rolli o'yinlar: Kimyo kontseptsiyalarini rol o'yinlari orqali tushuntirish, bu o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi.

Viktorinalar va tanlovlar: O'quvchilar bilimlarini sinovdan o'tkazib, rag'batlantiradi.

Jamoaviy loyihalar: O'quvchilar guruhda birgalikda muammolarni hal qilishadi, bu esa hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Simulyatsion o'yinlar: Fan jarayonidagi real tajribalarni taqlid qilish, kimyo eksperimentlarini xavfsiz va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Shu bilan, didaktik o'yinlar metodologiyasi o'quvchilarning nafaqat bilim olishlarini, balki ta'lim jarayoniga yanada faol va ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi, universal ta'lim harakatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, (Хамзайева М., 2022; Мирзарахимов А. А., 2023).

Natijalar. Didaktik o'yinlar orqali kimyo darslarida sport maktabi o'quvchilarida universal

ta'lim harakatlarini shakllantirish samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar aniq ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. O'yin usullarini qo'llash o'quvchilarning faolligini sezilarli darajada oshiradi va ta'lim jarayoniga yanada chuqurroq jalb qilinishlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quvchilar mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, muloqot va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Amaliy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, didaktik o'yinlarni muntazam qo'llash natijasida o'quvchilarning fan bilimlari o'rtacha 20-30%ga yuqorilashini ko'rsatdi. Shu bilan birga, universal ta'lim harakatlari ko'nikmalari, xususan, muammoni hal etish va jamoada ishlash qobiliyatlari aniq yaxshilanganligi qayd etildi.

Umarzakova R. M. (2022) ta'kidlashicha, interfaol va o'quvchi markazli yondashuv o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, bilimlarni chuqurroq qabul qilishiga yordam beradi. Bu fikr didaktik o'yinlarning samaradorligini yanada tasdiqlaydi, ayniqsa sport maktabi o'quvchilari uchun, ular uchun jismoniy faoliyat bilan uyg'unlashgan va qiziqarli ta'lim usullari alohida ahamiyatga ega.

To'xtaniyozova F.O (2025) ning ma'lumotlariga ko'ra, universal ta'lim harakatlarini shakllantirish o'quvchilarning umumiy madaniyatini, ijodkorligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotda ham o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natija sifatida, didaktik o'yinlar kimyo darslarida sport maktabi o'quvchilarining nafaqat bilimlarini, balki o'rganishga bo'lgan qiziqish va universal ta'lim harakatlarini rivojlantirishda muhim ta'lim vositasi ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuv ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz.

Muhokama. Didaktik o'yinlarning sport maktabi o'quvchilarida kimyo fanida universal ta'lim harakatlarini shakllantirishdagi ahamiyati zamonaviy ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning nafaqat fan bo'yicha bilimlari, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, hamkorlik va muloqot qobiliyatlari ham sezilarli darajada rivojlanadi. Bu esa universal ta'lim harakatlarining asosiy komponentlari hisoblanadi va o'quvchilarning o'zaro hamda fan bilan muloqotini kuchaytiradi.

Sport maktabi o'quvchilarining o'ziga xosligi – ularning yuqori jismoniy faolligi va diqqatni uzoq vaqt bir mavzuga jamlashdagi qiyinchiliklari – didaktik o'yinlar yordamida samarali bartaraf qilinmoqda. O'yin shaklidagi metodlar ular uchun juda mos bo'lib, ta'lim jarayonini faollashtiradi, qiziqishni oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va ijodkorligi rivojlanadi, bu esa nazariyadagi ijtimoiy-madaniy o'sish modeliga ham mos keladi.

Shu nuqtai nazardan, didaktik o'yinlarning metodik jihatdan aniq va maqsadli qo'llanilishi o'qituvchidan malaka va tajriba talab qiladi. O'yinlarni dars mazmuniga moslashtirish, ularning qoidalari va maqsadlarini o'quvchilarga aniq yetkazish jarayoni ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, trening va metodik qo'llanmalar yordamida o'qituvchilarni tayyorlash ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, didaktik o'yinlarni elektron ta'lim platformalari va innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish istiqbollari ham mavjud. Bu esa o'quvchilarda nafaqat universal ta'lim harakatlarini kuchaytirishga, balki zamonaviy raqamli ko'nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi.

Didaktik o'yinlar sport maktabi o'quvchilarining kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshirish va universal ta'lim harakatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Didaktik o'yinlar yordamida kimyo fanini sport maktabi o'quvchilari orasida o'qitish universal ta'lim harakatlarini shakllantirishda samara beruvchi samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu uslub o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, ijodkorlik va hamkorlik kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, didaktik

o'yinlar o'quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirib, ularni o'rganishga yanada faol jalb qiladi. Bu, ayniqsa, sport maktabi o'quvchilari uchun dolzarb bo'lib, chunki ular doimiy jismoniy faoliyat bilan shug'ullanadi va an'anaviy dars metodlariga qiyinlik bilan moslashadilar.

Mohiyatiga ko'ra, didaktik o'yinlar o'quvchilarga kimyo fanining murakkab kontseptsiyalarini oson va qiziqarli tarzda o'zlashtirish imkonini yaratadi. O'yin usullarini qo'llash o'quv jarayonida o'zaro muloqot, raqobatbardoshlik va jamoaviy ruhni shakllantirib, ta'lim jarayonini interfaol va samarali qiladi. Shu bilan birga, bu metod o'quvchilarning qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishi, mustaqil va kritik fikrlashga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Didaktik o'yinlarni muvaffaqiyatli qo'llashda o'qituvchilar malakasi va metodik tayyorgarligi muhimdir. Ta'lim jarayonida o'yinlarni to'g'ri tashkillashtirish va ularni darsning o'quv maqsadlari bilan uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonining sifatini yuqori darajada saqlash mumkin. Shuningdek, joriy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning integratsiyasi yordamida didaktik o'yinlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar yordamida kimyo darslarida sport maktabi o'quvchilarida universal ta'lim harakatlarini shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonini zamonaviy, interfaol va qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarni kelajak hayotiga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning keng qo'llanilishi va o'qituvchilarning ushbu metod bo'yicha muntazam malakasini oshirib borish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. 1978.
2. Akbarova, N. Didaktik o'yinlar pedagogik jarayonda. *Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlari*//, 2021, 3(12), 45-52.
3. Qodirov, M. (2019). Universal ta'lim harakatlari va ularni shakllantirish metodlari. *Pedagogika*, 2(5), 18-24.
4. Turaev, S. (2020). Kimyo darslarida didaktik o'yinlarning roli. *Toshkent pedagogika instituti ilmiy jurnali*, 4(8), 33-39.
5. Atqiyayeva S.I., Komilov K.U. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// *Журнал «Образование и наука в XXI веке*, 2021, №10, pp.684-690.
6. Atqiyayeva S.I, Kurbanova A.D., Komilov Q.O'. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo'llanilish// - *Academic research in educational sciences*, 2021, №6, 1025-1032 betlar
7. Бузрукходжаев А.Н., Комилов К.У. Технология проблемного обучения на уроках химии в школе// *Экономика и социум*, 2022, №2(93).
8. Тухтаниёзова Ф.О., Комилов К.У. Формирование универсальных учебных действий у учащихся на уроках химии через дидактические игры// *Экономика и социум*, 2022, 2(93).
9. Хамзайева М., Қамариддин О. Sport kollejarida kimyo ta'limini takomillashtirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish // *Academic research in educational sciences*. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1305-1314.
10. Мирзарахимов А. А. Интеграция учебной и научно-исследовательской направление при изучении химических дисциплин // *Экономика и социум*. – 2023. – №. 4-2 (107). – С. 655-660.
11. Umarzakova R. M. Q., Kamaridin O. Kimyo fanidan masala yechish darslarida kompyuter texnologiyalari elementlaridan foydalanish // *Academic research in educational sciences*. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 984-990.
12. Tukhtaniyazova F. A., Komilov K. U. Innovative approaches in stem education: methods of using gaming technologies in chemistry lessons at sports schools// *East European Scientific Journal*, 2025, 111(3).pp.26-30.

PEDAGOGIKA FANIDA MUSTAQIL IJODIY FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA MOHIYATINING NAZARIY TAHLILI HAQIDA

*Турабоева Зилола Мукумтошовна,
Ренессанс таълим университети,*

“Ижтимоий – сиёсий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси

Annotatsiya. Maqolada, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati tushunchasi va mohiyatining nazariy tahlili haqida soʻz yuritilgan. Taʼlim olish jarayonida uning oʻrni va doimiy oʻz-oʻzini rivojlantirish (yaʼni, umrbod taʼlim) mehnat bozorida imkoniyatlarni oshirishga, munosib ish topishga va koʻproq daromad olishga yordam beradi.

Kalit soʻzlar. Faoliyat, pedagogik jarayon, sifat, mustaqillik, ijodiy faoliyat, oʻz-oʻzini rivojlantirish, oʻz-oʻzini tarbiyalash, mustaqil ijodiy faoliyat, taʼlim, kasbiy mahorat.

К ТЕОРЕТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ПОНЯТИЯ И СУЩНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПЕДАГОГИКЕ

*Турабоева Зилола Мукумтошовна,
Образовательный университет Ренессанс,*

Старший преподаватель кафедры «Социально-политических наук»

Аннотация. В статье проводится теоретический анализ понятия и сущности самостоятельной творческой деятельности студентов. Её роль в образовательном процессе и непрерывном саморазвитии (т.е. обучении на протяжении всей жизни), которая помогает расширить возможности на рынке труда, найти достойную работу и больше зарабатывать.

Ключевые слова. Деятельность, педагогический процесс, качество, самостоятельность, творческая деятельность, саморазвитие, самообразование, самостоятельная творческая деятельность, образование, профессионализм.

ON THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT AND ESSENCE OF INDEPENDENT CREATIVE ACTIVITY IN PEDAGOGY

*Turaboeva Zilola Mukumtashovna,
Renaissance University of Education,
Senior Lecturer, Department of «Social and Political Sciences»*

Abstract. The article provides a theoretical analysis of the concept and essence of independent creative activity of students. Its role in the educational process and continuous self-development (i.e. lifelong learning), which helps to expand opportunities in the labor market, find a decent job and earn more.

Key words. Activity, pedagogical process, quality, independence, creative activity, self-development, self-education, independent creative activity, education, professionalism.

Кириш. Оʻzbekiston oliy taʼlim tizimida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini (TMIF) rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanida muhim oʻrin tutadi. Taʼlimning kompetensiyaviy modeliga oʻtish, xalqaro taʼlim standartlari bilan integratsiyalashuv va taʼlim muhitini raqamlashtirish sharoitida oʻzbekistonlik olimlar tomonidan talabaning ijodiy faol shaxsini shakllantirishga qaratilgan uslubiy, psixologik, pedagogik va didaktik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Respublika olimlarimizning ilmiy izlanishlarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va koʻp qirraliligi alohida taʼkidlangan. Ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri oʻquv jarayonida talabalarning ijodiy faolligini

rivojlantirishning uslubiy asoslarini shakllantirishdir.

Asosiy tushunchalarni nazariy tushunish ilmiy tadqiqot predmeti va yoʻnalishini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Bizning eʼtiborimiz oʻzaro bogʻliq, ammo kontseptual jihatdan mustaqil uchta atamaga qaratilgan: ijodiy faoliyat, mustaqillik va mustaqil ijodiy faoliyat.

“Mustaqillik” va “ijodiy faoliyat” tushunchalari anʼanaviy ravishda talabning muhim shaxsiy va kasbiy xususiyatlari sifatida qaraladi, ayniqsa oliy taʼlim sharoitida. Boʻlajak talabalarni tayyorlash kontekstida aynan shu fazilatlarining uygʻunligi kasbiy fikrlash, tashabbuskorlik, pedagogik muammolarni noanʼanaviy tarzda hal qilish va kasbiy sohada oʻzini oʻzi anglash qobiliyatini taʼminlaydi.

“Mustaqillik” tushunchasi pedagogika va rivojlanish psixologiyasining asosiy tushunchalaridan biridir. Keng maʼnoda, bu subʼektning ongli ravishda maqsadlar qoʻyish, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olish qobiliyatini anglatadi. «Mustaqillik» atamasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda olimlar tadqiqotlarida keng qoʻllaniladi.

“Mustaqillik” - bu shaxs oʻzining muammolarni oʻzi hal qilishda va hissiy jihatdan odamlarga tayanishga bogʻliq boʻlmisligi qobiliyatidir. Mustaqil shaxs - bu shaxsning oʻzini oʻzi ragʻbatlantirishi va tartibga solishi, oʻzi haqida qaror qabul qilishi va ularga rioya qilish, oʻz yoʻlidan borish qobiliyatidir.

Inson qachon mustaqil boʻladi – qachonki oʻz qarorlarini qabul qila boshlaganda va ular uchun masʼuliyatni his qila boshlaganda mustaqil boʻladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillik qanday shakllanadi? L.S.Vygotskiyning fikriga koʻra, mustaqillikning shakllanishi koʻp jihatdan xotira, fikrlash, diqqat va nutqni rivojlantirish darajasiga bogʻliq. Bular yordamida bola oʻz harakatlarini u yoki bu vazifaga boʻysundirib, paydo boʻlgan qiyinchiliklarni yengib, maqsadga erisha oladi.

Mustaqillik insonga nega kerak? Mustaqillik insonga nima uchun kerak, degan savolni oʻzingizga berib, har birimiz alohida shaxs, individual boʻlishimiz uchun mustaqillik zarur, degan xulosaga kelish mumkin. Hatto bolaligida ham, ota-onasi unga xalaqit bermasligi uchun bola oʻz-oʻzidan biror narsa qilishni xohlaydigan vaqt keladi.

Oʻzgaruvchan dunyo odamlardan doimiy rivojlanishni talab qiladi. Shu sababli, oʻz-oʻzini rivojlantirish yoʻlida eng muhim koʻnikmalardan biri bu faol izlanish va oʻqish qobiliyatidir. Taʼlim olish va doimiy oʻz-oʻzini rivojlantirish (yaʼni, umrbod taʼlim) mehnat bozorida imkoniyatlarni oshirishga, munosib ish topishga va koʻproq daromad olishga yordam beradi. Bugun har qanday yoshda oʻqish mumkin, oʻz-oʻzini rivojlantirish hayot tarzning bir qismiga aylandi;

Jahon mehnat bozoridagi oʻzgarishlar shuni anglatadiki, hayot davomida bir nechta kasblarni egallab, turli taʼlim muassasalarida oʻqish va turli ishlarda ishlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Taʼlim jarayonida yoshlarni milliy maʼnaviy meros asosida tarbiyalash, maʼrifatparvarlik, bagʻrikenglik, insofilik kabi fazilatlarini chuqur oʻrganish, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda statistik maʼlumotlarni oʻrganish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yangi Oʻzbekistonni barpo qilish boʻyicha olib borilayotgan islohotlarda turizm sohasini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. A.V.Brushlinskiy mustaqillikni «tashqi sharoitlar taʼsiri ostida emas, balki ichki motivatsiyalar asosida oʻz xatti-harakatlarini yaratishga imkon beradigan shaxsiy sifat» deb taʼriflaydi.

Pedagogikada mustaqillik tugʻma xususiyat emas, balki maxsus tashkil etilgan taʼlim muhiti jarayonida shakllanadigan maqsadli shakllangan sifat sifatida qaraladi. V.I.Andreevning taʼkidlashiga koʻra, mustaqillik «pedagogik yordam sharoitida talabning oʻzini oʻzi tashkil qilish, oʻz-oʻzini tarbiyalash va oʻzini oʻzi nazorat qilish qobiliyatidir».

Ijodiy faoliyat - bu printsiplal jihatdan yangi, oʻziga xos, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotni yaratishga qaratilgan inson faoliyatining maxsus shakli. U tasavvur, sezgi va evristik fikrlash

elementlarini o'z ichiga oladi.

A.N.Leontievning ta'kidlashicha, ijodiy faoliyat o'ziga xos qo'yidagi xususiyatlardan iborat:

- natijaning yangiligi va o'ziga xosligi;
- noaniq yechimga ega muammo yoki vazifaning mavjudligi;
- nostandart fikrlash, moslashuvchanlik va divergensiya;
- ichki motivatsiya (qiziquvchanlik, o'zini namoyon qilish istagi);
- izlanuvchanlik, tajriba-sinov, improvizatsiya jarayonlari.

Ijodiy faoliyat ham individual, ham jamoaviy; ham akademik (ilmiy tadqiqot), ham amaliyotga yo'naltirilgan (metodologiya, loyiha, mahsulot va boshqalarni yaratish) bo'lishi mumkin.

L.S.Vygotskiy: «Ijodkorlik - bu yangi narsa yaratishga olib keladigan faoliyat. Yangi narsa sub'ektiv kashfiyot bo'lsa ham, ta'lim jarayonida uning ahamiyati bor»- deb yozgan edi.

Mustaqil ijodiy faoliyat (MIF) «mustaqillik» va «ijodkorlik» tushunchalarining sintezidir. Mustaqil ijodiy faoliyat tushunchasi (MIF) integrativdir, chunki u talabaning o'z tashabbusi bilan faoliyatini ham, yangi bilim, mahsulot yoki yondashuvni yaratish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Bu talaba faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, unda u nostandart muammolarni hal qilishda tashabbuskorlik, onglilik va ijodkorlikni namoyon etadi. Jadval 1 da, biz mustaqil ijodiy faoliyat tushunchasining asosiy mezonlariga to'htalib o'tamiz:

Jadval 1

Mustaqil ijodiy faoliyat tushunchasining asosiy mezonlari:

Mezonlar	Mezon mazmuni	Ko'rsatkichlar
Motivatsion	Qiziqish ko'rsatish, o'zini o'zi anglash uchun intilish, ichki motivatsiya	Tashabbus, ijodiy vazifalarga qiziqish, loyihalarda ixtiyoriy ishtirok etish
Kognitiv	Ijodning mohiyati va usullarini bilish, ijodiy fikrlash	G'oyalarni shakllantirish usullarini bilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash.
Faoliyatga asoslangan	Mustaqil tashkil etish qobiliyati, o'ziga xoslik, faollik	Loyihalarda ishtirok etish, original echimlar, mahsuldorlik, mustaqillik
Refleksiv	Harakatlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z-o'zini baholashga tayyorlik	O'z-o'zini tahlil qilish, kundalik yuritish, portfeldan foydalanish, ish natijalari bo'yicha xulosalar

Talabalarni pedagogik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashda MIF katta ahamiyatga ega, chunki u:

- pedagogikada loyihalash va innovatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi;

- kasbiy moslashuvchanlik va fikrlash mustaqilligini rivojlantiradi;
- ta'limning reproduktiv turidan mahsuldor turiga o'tishni ta'minlaydi.

N.M.Yo'ldoshev ijodiy tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasini taklif qildi, bunda aks ettirish, ichki motivatsiya va shaxslararo o'zaro ta'sir asosiy o'rin tutadi. U- "Mustaqil ijodiy faoliyat Talabaning ichki motivatsion munosabatlari, mazmunli tanlashi va o'quv jarayoniga shaxsini kiritishi asosida shakllanadigan tizimli faoliyatidir" deb ta'kidlaydi[1].

K.J.Rahmonova o'z ishida pedagogik yo'nalishlar bo'yicha talabalarni tayyorlashda ta'limning loyihaviy shakllarini joriy etish va fanlararo yondashuvni integratsiyalash muhimligini ta'kidlaydi. U murakkab ijodiy vazifalarni mustaqillikni rivojlantirish mexanizmi sifatida belgilaydi[2].

Z.Sh. Umarova amaliyotga yo'naltirilgan mustaqil topshiriqlar tizimi orqali Talabalarning ijodkorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqdi, shuningdek, tanlov va tadqiqotga yo'naltirilganlik elementlariga ega o'quv modullarini ishlab chiqdi[3].

N.X.Salimova ijodiy salohiyatni rivojlantirish va mustaqil ishlashga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradigan o'quv jarayonini individuallashtirishga e'tibor qaratadi[4].

M.J. Tulaganova talabalarni real pedagogik vaziyatlarga jalb qilish, o'ziga xos metodlarni ishlab chiqish va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish asosida bo'lajak o'qituvchilarni amaliyotga yo'naltirilgan tayyorlash modellarini belgilab berdi[5].

Mustaqillik psixologik-pedagogik kategoriyasifatidashaxsning tashqi majburlovsiz ongli, tashabbuskor va mas'uliyatli faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. L.S.Vygotskiyning fikricha, mustaqillik ichki motivatsiya, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatining rivojlanishi natijasida shakllanadi. Lev Vygotskiyning "eng yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi G'arb didaktikasida mustaqil va ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun asos sifatida faol qo'llaniladi. [6,7]. Pedagogika nuqtai nazaridan o'quvchining mustaqilligi o'z oldiga mustaqil maqsad qo'yish, ularga erishish yo'llarini tanlash, faoliyat natijalarini kuzatish va baholash qobiliyatida namoyon bo'ladi [8,9,10].

Ijodiy faoliyat psixologik-pedagogika fanida yangi, o'ziga xos va sub'ektiv ahamiyatli mahsulot, g'oya yoki harakat usulini yaratish jarayoni sifatida qaraladi. A.N.Leontiev ijodkorlik voqelikni, shu jumladan insonning ichki dunyosini o'zgartirish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [11]. Pedagogik kontekstda talabaning ijodiy faoliyati ta'lim va kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashga, nostandart yondashuvlarni o'zlashtirishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan [12, 13, 14]. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati - bu talabalar tomonidan minimal tashqi yordam bilan amalga oshiriladigan o'quv va kasbiy-pedagogik faoliyatda o'ziga xos g'oyalar, echimlar va yondashuvlarni izlash va amalga oshirishning maqsadli, ichki motivatsiyalangan jarayoni. Bunday faoliyatlar olingan bilimlardan faol foydalanishni, shaxsiy salohiyatni rivojlantirishni, chegaradan tashqari fikrlash qobiliyatini va mulohaza yuritish istagini o'z ichiga oladi [15,16].

Xulosa. Bugungi kunda axborot hajmi yuqori darajada bo'lganligi sababli, insonlardan mustaqil ta'lim talab qilinmoqda. Ushbu ta'lim yondashuvi odamlarning o'zlari qayerda va qanday bilim va ko'nikmalarni egallashlarini belgilab, ta'lim jarayonini nazorat qilishlarini nazarda tutadi. Bunday holda, ularning o'zlari darslarning maqsadlarini aniqlash, o'quv materiallarini, usullarini tanlash va shaxsiy yutuqlarni baholash uchun javobgardirlar.

Mustaqil o'rganish nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni, balki shaxsiy o'sish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ta'lim sharoitida mustaqillik talabaning o'quv, kognitiv va ijtimoiy faoliyatida faol, mazmunli va tashabbuskor ishtirokida namoyon bo'ladi. U kognitiv, hissiy-irodaviy va tashkiliy-faoliyat komponentlarini qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Юлдашев Н.М. (2018). Психолого-педагогические условия формирования творческой активности личности студента. - Ташкент.
2. Рахмонова К.Ж. (2020). Формирование творческой самостоятельности студентов в учебно-познавательной деятельности. - Ташкент.

3. Умарова З.Ш. (2019). Методические основы развития самостоятельной и творческой деятельности студентов. - Самарканд.
4. Салимова Н.Х. (2021). Индивидуализация обучения как фактор развития самостоятельности студентов. - Нукус.
5. Туляганова М.Ж. (2020). Формирование профессионально-творческой компетентности студентов педагогических направлений. - Ташкент.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Смысл, 2003. -512 с.
8. Пидкасистый П.И. Педагогика: Учебник для студентов педагогических вузов. - М.: Педагогическое общество России, 2005. - 544 с.
9. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. - М.: Педагогика, 1981. - 186 с.
10. Приходько О.Г. Психология проф.развития личности. - СПб.: Питер, 2009. - 192 с
11. Розанова Т.В. Психология креативности: развитие творч. мышления. - М.: А., 2006. - 208 с.
12. Моляко В.А. Психология творческих способностей. - М.: Педагогика, 1983. - 256 с
13. Пономарёв Я.А. Психология творчества. - М.: Наука, 1976. - 232 с.
14. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. - М.: Педагогика, 1972. - 288 с
15. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для креативного саморазвития. - Казань: Центр инновационных технологий, 2010. - 608 с.
16. Бондаревская Е.В. Воспитание как возрождение духовности: личностно-ориентированный подход. - Ростов н/Д: Изд-во РГПУ, 2000. -284 с.

TALABALARNING BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Hamdamova Mahzuna Tursunovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU ning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, konseptual yondashuvlari, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida ularning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga qo'yilayotgan talablar tahlil etilgan, boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tamoyillar va yondashuvlarning faoliyat talablarining boshqaruv elementlari bilan o'zaro integrativ aloqadorligi va pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, Boshqaruv madaniyati uaxsui, boshqaruv va rahbarlik sohasi, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (ko'p pog'onalilik).

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В статье на основе сравнительного анализа научно-теоретической литературы по исследуемой проблеме анализируются научно-педагогические основы и концептуальные подходы формирования управленческой культуры студентов, требования к формированию их управленческой культуры в условиях модернизации образования, выявляется интегративная связь между операциональными требованиями принципов и подходов, влияющих на формирование управленческой культуры, элементами управления и педагогическими условиями.

Ключевые слова: Культура, управленческая культура, личностный, управление и лидерство, планирование, знания, дисциплина, мотивация, иерархия (многоуровневая).

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF IMPROVING TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' MANAGEMENT CULTURE

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical foundations and conceptual approaches of developing students' management culture, the requirements for developing their management culture in the context of modernization of education, based on a comparative analysis of scientific and theoretical literature on the research problem, and highlights the integrative relationship between the operational requirements of the principles and approaches affecting the development of management culture, management elements, and pedagogical conditions.

Keywords: Culture, Management culture, personal, management and leadership, planning, knowledge, discipline, motivation, hierarchy (multi-level).

Xalqaro tajribalar tahlilidan ma'lumki, mamlakatning Global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro maydonda oliy ta'limni xalqarolashtirish, globallasuvi asosida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish va boshqarishning zamonaviy ekotizimlarini yaratish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyat boshqaruvi umumiy qoida va tamoyillarining ta'lim boshqaruvida ham qo'llanishi imkoniyatini rad etmaydi. Shuning uchun ham ta'lim tizimini boshqarishga doir tadqiqotlarda ijtimoiy sohalarni boshqarishni o'rganishda qo'llanadigan metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

Ta'limni boshqarishning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda boshqarishda madaniyatni ta'minlashdan iboratligi R.X.Jo'rayev va S.T.Turg'unov tomonidan ta'kidlangan. L.I.Fishman, V.S.Bezrukova, V.A.Kalney, A.N.Mayorov, T.D.Makarova ta'limni boshqarishda madaniyat funksiyalarini amalga oshirish va samarali boshqaruv maqsadlariga erishish metodlarini alohida ko'rsatgan.

Frederik Teylorning ilmiy boshqaruvi mehnat jarayonlarini tahlil qilish va rejalashtirishning ilmiy metodlarini joriy etish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu yondashuv ta'lim jarayonini optimallashtirishda va uning samaradorligini oshirishda foydalanilishi mumkin.

Anri Fayolning ma'muriy (administrativ) nazariyasi asosiy e'tiborni mehnat taqsimoti, hokimiyat va intizom, buyruq birligi, markazlashtirish va ierarxiya kabi boshqaruvning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash esa tizimli va funktsional boshqaruv tizimini yaratishga yordam beradi.

Maks Veberning byurokratik modeli rasmiylashtirilgan qoidalar va tartiblarning muhimligi, hokimiyat ierarxiyasi va boshqaruvga shaxsiy yondashuvga asoslangan. Bu boshqaruv usuli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda tartib va prognozlikni ta'minlashda juda foydali bo'lishi mumkin.

Tahliliy ma'lumotlar, zamonaviy yondashuvlardan tizimli va situatsion yondashuvlarni boshqaruv tizimining turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni va muayyan sharoit va kontekstga moslashish zarurligini ta'kidlab, boshqaruvning moslashuvchan ko'rinishini aks ettirishini bildiradi. Maktabgacha ta'lim sohasida ushbu yondashuvlar ta'lim tashkilotining o'ziga xos xususiyatlarini, uning ichki va tashqi muhitini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Abraxam Maslouning ehtiyojlar nazariyasi, Duglas Makgregorning X va Y nazariyasi va transformatsion yetakchilik konsepsiyasi kabi motivatsiya va yetakchilik nazariyalari xodimlar motivatsiyasini tushunish va jamoani ilhomlantirish va rag'batlantirish uchun samarali yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo'nalishlarda o'rganilgan.

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov boshqarish madaniyati muayyan ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida yuzaga kelgan va ko'p funksiyali vazifalarni o'z ichiga olgan tizim, deb ta'riflaydi.

M.Potashnik, V.Panasyuk boshqarish madaniyatini raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani qondirishga yo'naltirilgan ko'p o'lovli moslashuvchan tizim, deb hisoblaydi.

N.Selezneva, A.Subetto boshqarish madaniyatini ta'limdagi barcha obyekt va jarayonlarning sifatini boshqarishdir, deb ta'riflaydi.

O.Nazarova boshqarish madaniyatini bilim sifati va ma'lumotlilik darajasining oshishiga olib keluvchi jarayonlar, muolaja va amaliyotlarni boshqarish, deb e'tirof etadi.

Aksariyat pedagogik-psixologik adabiyotlarda talabalarning boshqaruv madaniyati rivojlanadigan, boshqaruv vazifalarini samarali yechimini ta'minlashga xizmat qiluvchi sifatida izohlanadi. Shunga ko'ra, boshqaruv madaniyatini dogmatik kategoriya sifatida emas, aksincha mutaxassisning kasbiy faoliyatida samarali boshqaruv davomida doimiy rivojlanish dinamikasini talab qiladigan tizimli jarayon sifatida baholash lozim. Bu esa, bizning fikrimizcha, oliy ta'lim

muassasalarida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mazmuni va tuzilmasini ta'limni modernizatsiyalash sharoitidagi innovatsion talablar asosida takomillashtirish maqsadini belgilaydi.

Dissertatsiya ishida tadqiqot muammosining “madaniyat”, “boshqaruv madaniyati” va “talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish” kabi asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati tahlil qilindi va mualliflik talqini nuqtai nazaridan tavsiflandi.

Madaniyat – bu jamiyatning rivojlanish xususiyatlari va an'analari talablariga qaratilgan sifat o'zgarishlariga erishish, mavjud vaziyatga moslashish qobiliyatini muntazam oshirishga ijodiy yondoshish, hissiy holatlar sinxronligini umumlashtirish hamda tafakkur faollashuvini bosqichma-bosqich ta'minlashga qaratilgan jarayondir.

Boshqaruv madaniyati har qanday tashkilotning samarali faoliyat yuritishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. U tashkilotda samarali tashkiliy munosabatlarni shakllantirish, rahbarlik uslublarini takomillashtirish va jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo'lish rahbar uchun faqat zarur emas, shartdir. Chunki tashkilotning har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak.

Boshqaruv madaniyati – boshqaruv va rahbarlik sohasidagi muayyan maqsadga erishish yo'lida insoniy salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuidir. Boshqaruv madaniyati xodimlar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshirish hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish darajasini aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tahlillar talabalarning boshqaruv madaniyati bo'yicha turlicha yondashuvlarning mavjudligini ko'rsatdi.

Ta'lim menejmentining statistik nazoratga asoslangan uzluksiz texnologik o'zgarishlar sikli tarzida amalga oshirilishiga doir zamonaviy konsepsiya birinchi marta V.Shexart (Walter Shewhart) asarlarida qayd etilgan. Bu “Shexart sikli” nomi bilan mashhur PDCA (Plan-Do-Check-Act), ya'ni RBNH (Rejalashtirish-Bajarish-Nazorat-Harakat) sikli hisoblanadi. A.Feygenbaum (Armand V.Feygenbaum) ta'limni boshqarish, qo'llab-quvvatlash va yaxshilash bosqichlaridan iborat «boshqarishning Yalpi Nazorati» (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi. Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida boshqarishning Yalpi Boshqaruvi (Total Quality Management – TQM) konsepsiyasi shakllandi. TQM konsepsiyasida ta'limni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi. TQMning ko'pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g'oyalari tarkibiga kiritilgan.

Tadqiqot jarayonida talabalarning boshqaruv madaniyati va muammolari aksariyat izlanishlarda oliy ta'lim muassasalari misolida tahlil qilingani aniqlandi. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim yo'nalishida taxsil oluvchi talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning muammolari alohida qaralmagan yoki mushtaraklikda o'rganilgan.

Boshqaruv madaniyati – madaniyat tamoyillarining boshqaruv sohasida namoyon bo'lishi, rahbarga xos fazilatlar, jamiyat va davlat hayoti, barcha sohalardagi boshqaruvning madaniy talablariga mos bo'lishini anglatuvchi tushunchadir.

Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning tamoyillari sifatida quyidagilar: ilmiylik, natijani oldindan ko'ra olish; tizimlilik; izchillik; integratsiya; insonparvarlik; maqsadga

yo'naltirilganlik, talabalarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; faoliyatda tarbiyalash; nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi; fanlararo, mavzulararo aloqadorlikni ta'minlash, maqsadi, mazmun va uni shakllantirish metodlarining birligi va yaxlitligi, ijodiy hamkorlikdagi faoliyat tamoyillaridan iborat. Boshqaruv madaniyati elementlariga: boshqarish xodimlari madaniyati, boshqarish jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati va hujjatlari madaniyati kiradi Boshqaruv madaniyati elementlari o'zaro bog'langan va o'zaro aloqada bo'ladi. Boshqaruv madaniyati elementlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri boshqaruv xodimlarining madaniyati hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, boshqaruv va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamdamova M.T. Talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Mug'allim xem uzliksiz bilimlendirio. 2023. №4, 59-63 b. ISSN 2181-7138.

2. Hamdamova M.T. Menejment culture in students development methods // International journal of students in business Management, Economics and Strategies, ISSN (E): 2949-883X, JIF:7.925 SJIF 2023:5.404. 62-65 p.

3. Hamdamova M.T. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish-Boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida // In an International Conference on Educational Discoveries and humanities, Published online with E-Conference Series, Hosted online from Plano, Texas, USA. Italy. ISSN (E):2835-319X, SJIF: 5.385, 15.09.2023.

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

*Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna
Buxoro davlat pedagogika instituti, dotsenti*

*O'ktamova Ferangiz Shuhratovna
Buxoro davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM-texnologiyalarining o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. STEAM-yondashuv - fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Arts) va matematika (Mathematics)ni birlashtiruvchi innovatsion pedagogik metodika sifatida talqin qilinadi, bu o'quvchilarda fanlararo bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Ishda STEAM-ta'limining asosiy afzalliklari tahlil qilingan, jumladan tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Alohida e'tibor STEAM-metodlarining ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilishi, o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'siri va zamonaviy mehnat bozorining talablariga tayyorlashga qaratilgan.

Maqolada STEAM-yondashuvning turli shakllarini ko'rib chiqamiz: loyihalar asosida o'qitish, eksperimental faoliyat, raqamli texnologiyalardan foydalanish va fanlararo integratsiya. Dunyoning turli mamlakatlarida STEAM-texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etishning aniq misollari keltirilgan.

Maqola, shuningdek, STEAM-ta'limini joriy etish bilan bog'liq muammolarga to'xtalib o'tadi: o'qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik zarurati, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlanishi va o'quv dasturlarini moslashtirish.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Steam, maktab, dars, metod, integratsiya, tanqidiy fikrlash, intellektual qobiliyat, loyiha, kommunikatsiya, muammo, kasb.

РОЛЬ STEAM-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Жураева Наргиза Олтинбоевна
Бухарского государственного педагогического института, доцент*

*Уктамова Ферангиз Шухратовна
Бухарского государственного педагогического института,
студентка 3-го курса*

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию роли STEAM-технологий в современном образовательном процессе. STEAM-подход, объединяющий науку (Science), технологии (Technology), инженерию (Engineering), искусство (Arts) и математику (Mathematics), рассматривается как инновационная педагогическая методика, способствующая формированию у учащихся междисциплинарных знаний и практических навыков.

В работе проанализированы ключевые преимущества STEAM-образования, включая развитие критического мышления, творческих способностей и навыков решения комплексных задач. Особое внимание уделяется практическому применению STEAM-методик в учебных заведениях, их влиянию на мотивацию учащихся и подготовку к требованиям современного рынка труда.

Автор рассматривает различные формы реализации STEAM-подхода: проектное обучение, экспериментальную деятельность, использование цифровых технологий и межпредметную интеграцию. Приводятся конкретные примеры успешного внедрения STEAM-технологий в разных странах мира.

Статья также затрагивает проблемы, связанные с внедрением STEAM-образования, такие как необходимость специальной подготовки педагогов, материально-техническое обеспечение учебных заведений и адаптация учебных программ.

Ключевые слова: Образование, STEAM, школа, урок, метод, интеграция, критическое мышление, интеллектуальные способности, проект, коммуникация, проблема, профессия.

THE ROLE OF STEAM EDUCATION TECHNOLOGY IN THE LEARNING PROCESS

*Juraeva Nargiza Oltinboyevna
Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor*

*O'ktamova Ferangiz Shuhratovna
Bukhara State Pedagogical Institute, 3th-year student*

Abstract: This article explores the role of STEAM technologies in modern educational processes. The STEAM approach – integrating Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics – is examined as an innovative pedagogical methodology that fosters interdisciplinary knowledge and practical skills among students.

The study analyzes key benefits of STEAM education, including the development of critical thinking, creativity, and complex problem-solving skills. Particular attention is given to the practical application of STEAM methods in educational institutions, their impact on student motivation, and preparation for modern labor market demands.

The author examines various implementations of the STEAM approach: project-based learning, experimental activities, digital technology integration, and cross-disciplinary collaboration. Concrete examples of successful STEAM technology adoption in different countries are provided.

The article also addresses challenges in STEAM education implementation, such as the need for specialized teacher training, institutional infrastructure support, and curriculum adaptation.

Keywords: Education, STEAM, school, lesson, method, integration, critical thinking, intellectual abilities, project, communication, problem, profession.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ijtimoiy faol va ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirish ta'limning bosh maqsadiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlar, xususan, STEAM ta'lim texnologiyasini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. STEAM-hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. STEAM fanlarining ommalashayotganini va samaradorligini hisobga olgan holda Prezidentimiz tashabbusi bilan prezident maktablarida STEAM fanlari darslik sifatida o'tila boshladi. STEAM-bolalarning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan rivojlantiradi. U bolalarning aniq tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlanishiga qaratilgan o'quv dasturiga asoslanadi. STEAM- ta'lim texnologiyasi quyidagicha ma'no kasb etadi:

S- Science (Fan),

T- Technology (texnologiya),

E- Engineering (Muhandislik),

A-Art (San'at),

M –Mathematics (Matematika).

STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog'liq texnologiya kundalik

hayotimizda doimiy ravishda qo'laniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarida o'z aksini topgan, har bir kasb kundalik mashg'ulotlari ozmi-ko'pmi matematika fani bilan ham bog'langandir.

STEAM – ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

STEAM ta'limining afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalab olish kerak. STEAM ta'imida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash. STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM dasturi, bolalar kundalik havotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'ishadi, so'ngra uni sinovdan o'tkazishadi.

O'z kuchiga ishonish hissining ortishi. Bolalar ko'priklar qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradi. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtirishadi. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadi.

Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash. STEAM dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganishadi. Bolalar doimo o'quvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo'lishadi hamda jarayonda faol qatnashadilar. Mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. Boshlang'ich ta'limda STEAM ta'limining vazifasi, o'quvchilari tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat.

Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o'tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosidir. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi yoki birgalikda ishlatilishi o'z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o'rganilishi ko'pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

Ta'lim va karera orasidagi ko'priklar. Turli xil baholanishlarga ko'ra, hozirgi kunda talabgor eng ko'p bo'lgan 10 ta mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo'ladi.

O'quvchi yoshlarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash. STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlandi: Internetning ochilishi (1960), GPS texnologiyalar (1978) dan DNK ni skanerlashgacha va albatta iPod (2001).

STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning mustaqil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini ortiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM texnologiyasini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada quyidagi bosqichli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari. 2019-yildan boshlab O'zbekistonning barcha hududlarida Prezident maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda:

STEAM yondashuv asosida fanlar integratsiyalashgan holda o'qitiladi; O'quvchilar

robototexnika, muhandislik dizayni, 3D modellashtirish, dasturlash kabi yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim olishadi;

Amaliy loyihalar orqali fanlararo bog'liqlik mustahkamlanadi;

Darslar ingliz tilida ham olib borilib, xalqaro STEAM metodikasi tatbiq etiladi.

2. Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar.

Ijod maktablarida san'at va texnologiya elementlari birgalikda beriladi.

Masalan: Tasviriy san'at va dizayn darslari texnologik ishlanmalar bilan uyg'unlashtiriladi; O'quvchilar loyiha asosida ishlashni o'rganadilar (STEAM loyihalari).

3. Maktablarda STEAM laboratoriyalari tashkil etilishi.

Ayrim umumta'lim maktablarida quyidagi sharoitlar yaratilmoqda:

Zamonaviy laboratoriyalar, 3D printerlar, raqamli mikroskoplar, Arduino yoki Lego konstruktorlari joriy etilgan;

O'quvchilar tajriba, modellashtirish va konstruktorlik faoliyatlari orqali fanlarni amaliy tarzda o'rganmoqda.

4. O'qituvchilar malakasini oshirish.

"Innovatsion rivojlanish vazirligi", "Xalq ta'limi vazirligi" va boshqa tashkilotlar tomonidan o'qituvchilar uchun STEAM bo'yicha seminar-treninglar o'tkazilmoqda;

"Pedagog kadrlar malakasini oshirish markazlari"da yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilgan;

5. STEAMni qo'llab-quvvatlovchi milliy dasturlar.

"Raqamli ta'lim" loyihasi doirasida ko'plab STEAM dasturlarini yaratish va joriy etish boshlangan;

Yurtimizda "STEAM O'zbekiston" loyihasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u orqali yoshlar o'rtasida fan, texnologiya va ijodiy yondashuvni rivojlantirish maqsad qilingan;

Har yili o'tkazilayotgan "STEAM olimpiadalari" va startap tanlovlari bu yo'nalishga qiziqishni oshiryapti.

6. OTM va litseylarda tajribaviy darslar.

Pedagogika universitetlari, texnika universitetlari va akademik litseylarda STEAM yondashuv asosida tajriba darslari, interfaol metodlar bilan ishlash tajribalari amalga oshirilmoqda

STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish, balki fikrlash usuli hamdir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'lib, shu bilimdan foydalanishni darhol o'rganadilar. Shuning uchun ular o'sib, haqiqiy dunyoda istalgan hayot muammosiga duch kelganda, bu xoh ifoslanish yoki iqlimning global o'zgarishi bo'lsin, bunday murakkab masalalarni fagat farqli fanlardan olgan bilimlarga tayanish va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat

bitta fandan olingan bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradi. O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni ta'lim tizimining bosh maqsadi hisoblanadi

STEAM o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

muammolarni keng qamrovli tushunish;

ijodiy, tanqidiy fikrlash;

muhandislik yondashuv;

ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

dizayn asoslarini tushunish.

O'qituvchilar ish uslublarining bir xilligi o'quvchilar orasida qiziqishning pasayishiga olib keladi. Pedagogikada muammoli vaziyatni modellashtirish yangilik emas. Bu usul dastlab Qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan. Muammoli vaziyat, odatda, shaxsga ma'lum bo'lgan vositalar yoki usullar orqali erisha olmaydigan intellektual qiyinchilik deb talqin etiladi. Kutilmagan qiyinchilik mustaqil qidiruv ishlarini olib borishga undaydi. Umumiy holda, muammoga

asoslangan ta'lim nostandart harakatlarni, «bilimlarni o'zlashtirishning reproduktiv darajasidan ijodiy qidiruv ishlariga o'tish» ni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 5-sentabrdagi «2018- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi» gi PQ – 3931 – son Qarori.
2. Alixonov S.,»Matematika o'qitish metodikasi «. Qayta ishlangan nashri. T. “O'qituvchi» 1997 yil.
3. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent. “O'qituvchi” 1992 y
4. Bakirova A.YU. F.X.Saydalicva Metodika prepodovaniya matematiki, Toshkent 2008, 300 b.
5. Bikboeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1996 yill
6. Davidov V.V. Vozrastnaya - pedagogicheskaya psixologiya. M. Pedagogika, 1992
7. R.J. Ishmuxamedov, A.A.Abduqodirov, A.Pardayev . Tarbiyada muassasalari o'qituvchilari, ta'lim texnologiyalar innovatsion tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar” -T: Iste'dod, 2010,-140 bet.
8. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M.K.Shirinov , S.Hafizov. Umumiy pedagogika. Fan va texnologiya nashriyoti T:2018.
9. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'zieva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent innavatsiya – Ziyo. T: 2019.
10. Z. Ashurova. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish (metodik qo'llanma). Buxoro:2020.
11. Z. M. Ashurova. Maktabgacha ta'limda STEM texnologiyasining ahamiyati. T:1:1 (2022)

TIBBIY TA'LIM TALABALARI DIAGNOSTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI TAHLILI

*Valiyeva Nodiraxon Maxamatjonovna
Andijon davlat tibbiyot institute, Yuqumli kasallikalr kafedراسي assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy ta'lim talabalarida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya tajribalarida simulyatsiya texnologiyalari, OSCE, klinik ssenariylar asosida o'qitish hamda kognitiv psixologiya asosida ishlab chiqilgan modellar samarali ekani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy ta'lim, diagnostik kompetentlik, xorijiy tajriba, simulyatsiya texnologiyalari, OSCE, kognitiv psixologiya, virtual laboratoriyalar, multidisiplinar yondashuv, klinik qaror qabul qilish, innovatsion metodlar.

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ДИАГНОСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

*Валиева Нодирахон Махаматжоновна
Андижанский государственный медицинский институт,
Ассистент кафедры инфекционных болезней*

Аннотация. В статье анализируются инновационные подходы, применяемые в зарубежных странах для развития диагностической компетентности студентов-медиков. Опыт США, Канады, Великобритании, Германии и Японии показывает эффективность симуляционных технологий, ОСКЭ, обучения на основе клинических сценариев и моделей, разработанных на основе когнитивной психологии.

Ключевые слова: Медицинское образование, диагностическая компетентность, зарубежный опыт, симуляционные технологии, ОСКЭ, когнитивная психология, виртуальные лаборатории, междисциплинарный подход, принятие клинических решений, инновационные методы.

ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING DIAGNOSTIC COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS

*Valiyeva Nodirakhon Makhamatjonovna
Andijan State Medical Institute,
Assistant, Department of Infectious Diseases*

Abstract. This article analyzes innovative approaches used in foreign countries to develop diagnostic competence in medical students. The experiences of the USA, Canada, Great Britain, Germany and Japan show that simulation technologies, OSCE, training based on clinical scenarios and models developed on the basis of cognitive psychology are effective.

Keywords: Medical education, diagnostic competence, foreign experience, simulation technologies, OSCE, cognitive psychology, virtual laboratories, multidisciplinary approach, clinical decision-making, innovative methods.

KIRISH. Tibbiy amaliyotning samaradorligi, avvalo, shifokorning to'g'ri tashxis qo'yish qobiliyatiga bog'liq. Diagnostik kompetentlik nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki murakkab klinik vaziyatlarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z xatolaridan o'rganish ko'nikmalarini ham o'z ichiga olgan ko'p qirrali kasbiy mahoratdir. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, xususan, aholiga sifatli va hamyonbop tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı o'zgarishlar fonida, yuqori malakali, zamonaviy talablarga

javob beradigan shifokorlarni tayyorlash har qachongidan ham dolzarbroqdir.1 Bu jarayonda tibbiy ta'lim tizimini, ayniqsa, diagnostik ko'nikmalarni shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tarixan, O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimi qat'iy markazlashgan, fanlarga asoslangan va asosan nazariy bilim berishga yo'naltirilgan Semashko modelining kuchli ta'siri ostida shakllangan.2 Ushbu model universal tibbiy xizmatni ta'minlashda ma'lum yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, uning qat'iy ierarxik tuzilmasi va amaliy ko'nikmalarga yetarlicha e'tibor bermasligi bitiruvchilarning real klinik amaliyotga tayyorgarligida jiddiy kamchiliklarni yuzaga keltirdi.3 Natijada, ko'pincha bitiruvchilar nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularni murakkab va noaniq klinik vaziyatlarda qo'llashda qiynaladilar.

Bugungi kunda mamlakatda "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi kabi tashabbuslar orqali ta'lim tizimini raqqamlashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda.4 Biroq, diagnostik fikrlash kabi murakkab kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish shunchaki texnologiyalarni joriy etishdan ko'ra chuqurroq pedagogik transformatsiyani talab qiladi. Bu, o'z navbatida, o'qitish va baholashning fundamental yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi tibbiyot talabalarida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan uchta yetakchi xalqaro pedagogik modelni chuqur qiyosiy tahlil qilishdir. Ushbu tahlil asosida O'zbekistonning o'ziga xos institutsional, madaniy va infratuzilmaviy sharoitlariga moslashtirilgan, amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lgan yangi, sintezlangan va kompleks yondashuvni taklif etish ko'zda tutilgan. Maqolaning asosiy tezisi shundan iboratki, biron-bir G'arb modelini to'g'ridan-to'g'ri "ko'chirib o'tkazish" samarasiz bo'ladi. Muvaffaqiyatli strategiya xalqaro amaliyotning eng samarali elementlarini O'zbekistonning mavjud voqeliklariga pragmatik tarzda moslashtiruvchi gibridd modelni yaratishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Diagnostik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'limning markaziy vazifalaridan biri bo'lib, bu borada bir necha o'n yilliklar davomida fundamental nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu bo'limda diagnostik fikrlashning kognitiv asoslari hamda uni shakllantirishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar tahlil qilinadi.

Diagnostik fikrlashning nazariy asoslari - diagnostik jarayon shunchaki simptomlarni kasallik nomi bilan bog'lash emas, balki murakkab kognitiv jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diagnostik xatolarning asosiy sababi ko'pincha bilim yetishmasligi emas, balki kognitiv buzilishlar, ya'ni axborotni qayta ishlash va tahlil qilishdagi xatoliklardir. Shu sababli, zamonaviy ta'lim modellari bilimlarni qanday uzatishga emas, balki ularni talabning ongida qanday tashkillashtirish va qayta ishlashga e'tibor qaratadi.

AQSh modeli - ssenariy nazariyasi (Script Theory) - Kanadalik olim G. Norman va uning hamkasblari tomonidan ilgari surilgan Ssenariy nazariyasi (Script Theory) diagnostik fikrlashni tushuntirishda inqilobiy yondashuv bo'ldi [6]. Ushbu nazariyaga ko'ra, tajribali shifokorlar o'z bilimlarini alohida faktlar yig'indisi sifatida emas, balki "kasallik ssenariylari" (illness scripts) deb ataladigan murakkab kognitiv tuzilmalar shaklida saqlaydilar. Har bir kasallik ssenariysi uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: Kasallikning paydo bo'lishiga olib keladigan omillar (masalan, yosh, jins, genetik moyillik, risk faktorlari). (Pathophysiological processes): Kasallikning rivojlanishi asosida yotgan biologik va kimyoviy o'zgarishlar. Kasallikning belgilari va simptomlari.

Klinik amaliyotda bemor bilan uchrashganda, dastlabki ma'lumotlar (masalan, shikoyatlar, ko'rinish) shifokorning xotirasidagi bir yoki bir nechta tegishli kasallik ssenariylarini faollashtiradi. Keyingi diagnostik jarayon ushbu faollashgan ssenariylarni tekshirish, ya'ni yangi ma'lumotlarni (anamnez, fizik tekshiruv, laborator tahlillar) mavjud ssenariylar bilan solishtirish orqali davom etadi. Bu jarayon "ssenariyni aniqlashtirish" (script instantiation) deb ataladi va eng mos keluvchi

ssenariy topilguncha davom etadi.

Ushbu nazariyaning pedagogik ahamiyati shundaki, u ta'limning asosiy maqsadini o'zgartiradi. Maqsad – talabalarga shunchaki faktlarni yodlatish emas, balki ularga boy, o'zaro bog'langan va oson faollashadigan kasallik ssenariylari kutubxonasini yaratishda yordam berishdir. Bu, o'z navbatida, talabalarni real klinik vaziyatlarda tez va aniq fikrlashga o'rgatadi hamda kognitiv xatolarga moyillikni kamaytiradi.

Germaniya modeliga asosan ishonchli kasbiy faoliyatlar (Entrustable professional activities - EPA) - Niderlandiyalik olim Olle ten Cate tomonidan ishlab chiqilgan va Germaniya kabi Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan Ishonchli kasbiy faoliyatlar (EPAs) konsepsiyasi kompetensiyaga asoslangan ta'limni amaliyotga tatbiq etishning pragmatik usulidir. EPA – bu ma'lum bir kompetensiyaga erishgan o'quvchiga nazoratsiz bajarish uchun ishonib topshirilishi mumkin bo'lgan kasbiy amaliyot birligidir. Boshqacha aytganda, EPAlar shifokorning kundalik ishida bajaradigan aniq, kuzatiladigan vazifalaridir (masalan, anamnez yig'ish, bemorni reanimatsiyadan palataga o'tkazish, dori yozib berish).

Bu yondashuv ta'lim va baholash markazini mavhum “kompetensiyalar”dan (masalan, “kommunikativlik”, “professionalizm”) shifokorning real ish faoliyatiga ko'chiradi. U ta'limdagi nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni talabani aynan shu ishonib topshiriladigan vazifalarni bajara olishga tayyorlashga qaratiladi.

Baholash tizimi odatda nazoratning bir necha darajasiga asoslanadi:

1-daraja: Faqat kuzatishga ruxsat etiladi.

2-daraja: To'g'ridan-to'g'ri nazorat ostida harakat qilish.

3-daraja: Bilvosita nazorat ostida harakat qilish (o'qituvchi yaqin atrofda va so'rov bo'yicha yordamga tayyor).

4-daraja: Mustaqil, nazoratsiz harakat qilish.

Berlinning Charité universiteti tomonidan rezidenturaga kirish uchun ishlab chiqilgan 12 ta asosiy EPA ro'yxati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ular orasida “Anamnez yig'ish va fizik tekshiruv o'tkazish”, “Tibbiy muolajalarni bajarish”, “Bemorlarni boshqa mutaxassisga topshirish” kabi amaliy vazifalar mavjud [13]. EPA modeli bitiruvchilarning amaliyotga tayyorligini aniq o'lchash va ta'minlash uchun kuchli vosita hisoblanadi.

Buyuk Britaniya modeliga ko'ra reflektiv amaliyot (Reflective practice) - Buyuk Britaniya tibbiy ta'lim tizimida reflektiv amaliyot uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida chuqur ildiz otgan. B. Sanders kabi olimlar tomonidan ilmiy asoslangan bu yondashuvga ko'ra, shifokorning professionalligi nafaqat uning bilimi va ko'nikmalarida, balki o'z tajribasidan, ayniqsa, xatolar va noaniq vaziyatlardan saboq chiqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Refleksiya – bu o'z harakatlari, qarorlari, fikrlari va hissiyotlarini tanqidiy tahlil qilish orqali kelajakdagi amaliyotni yaxshilash jarayonidir.

Ushbu jarayonni tizimlashtirish uchun bir nechta modellar taklif etilgan bo'lib, ular orasida Graham Gibbsning Reflektiv Sikli eng mashhurlaridan biridir. Bu model olti bosqichdan iborat bo'lib, shifokor yoki talabani tajribani tizimli tahlil qilishga yo'naltiradi: Tavsif - Nima sodir bo'ldi?; Hissiyotlar - Men nimalarni his qildim va o'yladim?; Baholash - Tajribaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat edi?; Tahlil - Vaziyatni tushunish uchun nima qilish mumkin? Nima uchun shunday bo'ldi?; Xulosa - Men nima o'rgandim? Boshqacha nima qilishim mumkin edi?; Kelajakda shunga o'xshash vaziyatda nima qilaman?

Reflektiv amaliyot diagnostik kompetentlikka muhim gumanistik o'lchovni qo'shadi. U shifokorlarni nafaqat texnik jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishga, balki bemorning ahvolini, uning xavotirlari va kutishlarini tushunishga, o'zining emotsional reaksiyalarini anglashga va bemor xavfsizligini oshirishga undaydi. Bu yondashuv shifokorning shaxsiy va kasbiy kamolotga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Diagnostik ta'limdagi innovatsion texnologiyalar va metodlar - Nazariy modellarni amaliyotga tatbiq etishda zamonaviy texnologiyalar va o'qitish metodlari muhim o'rin tutadi. Ular talabalarga

xavfsiz muhitda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va murakkab fikrlash jarayonlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Simulyatsiya va virtual bemorlar (Simulation and virtual patients - VPs) – bu real hayotdagi klinik stsenariylarni simulyatsiya qiluvchi interaktiv kompyuter dasturlari bo'lib, ular tibbiyot xodimlarini o'qitish, tayyorlash va baholash uchun mo'ljallangan. Talaba shifokor rolini o'ynab, anamnez yig'ish, tekshiruvlar buyurish, differensial tashxis qo'yish va davolash rejasini tuzish kabi qarorlarni qabul qiladi. Meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim usullari (ma'ruzalar, o'qish mashqlari) bilan solishtirganda, virtual bemorlardan foydalanish talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda o'rtacha va yuqori darajadagi ijobiy samara beradi (standartlashtirilgan o'rtacha farq SMD=0.90).

Virtual bemorlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Talabalar real bemorlarga zarar yetkazish xavfsiz xato qilishlari va ulardan o'rganishlari mumkin.
- Bir xil yoki o'zgartirilgan klinik holatni bir necha marta takrorlash imkoniyati mavjud.
- Barcha talabalar bir xil darajadagi murakkablikdagi holatlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Internetga ulangan har qanday qurilmadan foydalanish mumkin, bu esa o'quv jarayonini moslashuvchan qiladi.

Eng samarali virtual bemorlar tizimlari yuqori darajadagi realizmga erishish uchun real aktyorlar ishtirokidagi videolar, haqiqiy laboratoriya natijalari va radiologik tasvirlardan foydalanadi. Bu talabaning o'quv jarayoniga sho'ng'ishini va tajribaning haqiqiyiligini oshiradi.

Simptomlarni xaritalash (Symptom Mapping) - klinik fikrlashni xaritalash mashqi (Clinical Reasoning Mapping Exercise - CResME) – bu talabalarga differensial diagnostika mantiq'ini o'rgatish uchun mo'ljallangan kuchli vizual vositadir. Ushbu metodda talabalarga bemorning asosiy shikoyati va bir nechta potentsial tashxislarga oid aralash klinik ma'lumotlar (anamnez, fizik tekshiruv, laboratoriya natijalari) “tugunlar” yoki qutichalar shaklida taqdim etiladi. Talabaning vazifasi – ushbu tugunlarni mantiqiy bog'lab, har bir kasallik uchun to'g'ri klinik manzarani yaratish va yakuniy tashxisni aniqlashdir.

CResME ning asosiy afzalligi shundaki, u odatda shifokor ongida yashirin kechadigan fikrlash jarayonini ko'rinadigan va muhokama qilinadigan qiladi. U talabalarni an'anaviy “kasallikdan simptomga” emas, balki real amaliyotga yaqin bo'lgan “simptomdan kasallikka” qarab fikrlashga undaydi. Bu metod talabalarga turli kasalliklarning o'xshash va farqli jihatlari yonma-yon taqqoslash imkonini berib, ularning kasallik ssenariylarini yanada chuqur va aniqroq shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu nazariy modellar va innovatsion vositalar bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizimni tashkil etishi mumkin. Masalan, o'quv jarayoni virtual bemor bilan boshlanib, talabalar CResME varag'i yordamida differensial diagnostika o'tkazishi va yakunda Gibbs sikli asosida tuzilgan guruh muhokamasi bilan yakunlanishi mumkin. Bunday integratsiyalashgan yondashuv diagnostik kompetentlikni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot “Education and Innovative Research” jurnalining xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy maqolalarga qo'yadigan talablarini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Tadqiqotda qiyosiy-sintetik tahlil (comparative-synthetic analysis) metodologiyasidan foydalanildi. Ushbu metodologiya ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

Qiyosiy tahlil bosqichida tibbiyot talabalarida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha uchta yetakchi xalqaro model – AQSh (Ssenariy nazariyasiga asoslangan), Germaniya (Ishonchli kasbiy faoliyatlarga asoslangan) va Buyuk Britaniya (Reflektiv amaliyotga asoslangan) – tizimli ravishda taqqoslandi. Tahlil uchun zamonaviy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, amaliy tadqiqotlar va metodik qo'llanmalar (case studies) kabi manbalar chuqur o'rganildi. Har bir

modelning asosiy konsepsiyasi, o'qitish metodlari, baholash strategiyalari, kuchli tomonlari va cheklovlari aniqlandi va tizimlashtirildi.

Sintetik tahlil va kontekstualizatsiya bosqichida qiyosiy tahlildan olingan xulosalar asosida yangi, integratsiyalashgan pedagogik model sintez qilindi. Ushbu modelni O'zbekistonning o'ziga xos sharoitiga moslashtirish maqsadida ikkilamchi ma'lumotlar manbalari tahlil qilindi. Bularga O'zbekistonning postsovet ta'lim merosi, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi joriy islohotlar, institutsional salohiyat, professor-o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, raqamli infratuzilma holati hamda ijtimoiy-madaniy omillar (xususan, o'qituvchi va talaba munosabatlari) kiradi [2]. Ushbu ko'p qatlamli yondashuv taklif etilayotgan tavsiyalarning nafaqat nazariy jihatdan asosli, balki O'zbekiston amaliyoti uchun real va tatbiq etiladigan bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Tadqiqotning umumiy mantig'i – mavjud eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni o'rganish, ularning asosiy tamoyillarini ajratib olish va bu tamoyillarni mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda yangi, amaliy yechimga aylantirishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ushbu bo'limda xalqaro modellarning qiyosiy tahlili va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari hamda mavjud to'siqlar chuqur ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari jadvallar shaklida umumlashtirilgan bo'lib, bu ma'lumotlarni tizimli idrok etishga yordam beradi.

Xalqaro modellarning qiyosiy tahliliga asosan AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya modellari diagnostik kompetentlikni rivojlantirishga turlicha, ammo bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlarni taklif etadi. AQSh modeli Ssenariy nazariyasi orqali bilimlarning kognitiv arxitekturasiga, ya'ni axborotning ongda qanday tashkil etilishiga e'tibor qaratadi. Germaniya modeli Ishonchli kasbiy faoliyatlar (EPA) orqali ish joyidagi amaliy faoliyat samaradorligini baholashga yo'naltirilgan. Buyuk Britaniya modeli esa Reflektiv amaliyot orqali metakognitiv rivojlanish va professional kamolotga urg'u beradi. Ushbu yondashuvlarning har biri o'ziga xos kuchli va zaif tomonlarga ega bo'lib, ularni birgalikda ko'rib chiqish orqali yanada mukammal tizim yaratish mumkin. Quyidagi 1-jadvalda ushbu modellarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval. Diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xalqaro modellarini qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	AQSh Modeli (Ssenariy Nazariyasi)	Buyuk Britaniya Modeli (Reflektiv Amaliyot)	Germaniya Modeli (Ishonchli Kasbiy Faoliyatlar - EPA)
Asosiy Konsepsiya	Diagnostik fikrlash – bu bilimlarni “kasallik ssenariylari” shaklida tashkil etish va faollashtirish jarayoni.	Kasbiy rivojlanish – bu o'z tajribasini, xususan xatolarini tanqidiy tahlil qilish va ulardan o'rganish qobiliyati.	Kompetensiya – bu real klinik vazifalarni (EPA) nazoratsiz bajara olish qobiliyati bilan o'lchanadi. ¹¹
Asosiy Ta'lim Metodlari	Muammoga asoslangan o'qitish (PBL), keys-stadi, virtual bemorlar, simptomlarni xaritalash (CResME).	Reflektiv jurnallar, portfoliolar, ustoz bilan muhokamalar, Gibbs kabi tuzilmaviy refleksiya sikllari.	Ish joyida amaliy o'qitish (klinik rotatsiyalar), simulyatsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri kuzatuv va fikr-mulohaza bildirish.
Baholash Strategiyasi	Ssenariyga muvofiqlik testlari (Script Concordance Tests - SCT), klinik fikrlashni baholovchi vaziyatli masalalar.	Reflektiv yozuvlarni (esse, portfolio) tahlil qilish, o'z-o'zini va tengdoshlar tomonidan baholash, ustoz bilan suhbat.	To'g'ridan-to'g'ri kuzatuv orqali EPA ni bajara olish darajasini baholash (masalan, 4 darajali shkala bo'yicha), mini-klinik imtihon (mini-CEX).
Kuchli Tomonlari	Kognitiv xatolarni kamaytiradi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, klinik fikrlash mantig'ini shakllantiradi.	Uzluksiz o'rganish va o'z-o'zini takomillashtirish madaniyatini shakllantiradi, empatiya va professionalizmni rivojlantiradi.	Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiradi, bitiruvchilarning real ishga tayyorligini aniq o'lchaydi, baholashni standartlashtiradi.
Cheklovlar/Qiyinchiliklar	Ssenariylarni shakllantirish uzoq vaqt va ko'p amaliyot talab etadi. Baholash murakkab bo'lishi mumkin.	Subyektivlikka moyil, baholash qiyin. Talabalardan yuqori darajadagi motivatsiya va o'z-o'zini anglashni talab qiladi.	Ishlab chiqish va joriy etish ko'p resurs talab qiladi. O'qituvchilardan ish joyida faol kuzatuv va fikr-mulohaza bildirish uchun ko'p vaqt talab etadi.

Innovatsion modellarni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari va to'siqlar - xalqaro modellarni O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimiga integratsiya qilish katta imkoniyatlar ochadi. Hukumatning islohotlarni qo'llab-quvvatlashi va raqamlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bu jarayon uchun qulay zamin yaratadi. Biroq, bu yo'lda bir qator jiddiy to'siqlar mavjud bo'lib, ularni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Asosiy muammo – zamonaviy, talabaga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishga qaratilgan yuqoridan pastga (top-down) intilishlar bilan tizimning quyi bo'g'inlaridagi real voqeliklar o'rtasidagi ziddiyatdir.

Aksariyat professor-o'qituvchilar an'anaviy, sovet davri ta'lim tizimida shakllangan. Ular yangi, interaktiv metodlarni qo'llash uchun yetarli pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lmashligi, shuningdek, ish yukining ortishidan xavotirlanib, o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishi mumkin. Hindistonda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 60% dan ortig'i kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etish uchun malakali kadrlar yetishmasligini ta'kidlaydi. Bu muammo O'zbekiston uchun ham o'ta dolzarbdir.

Virtual bemorlar va simulyatsion texnologiyalarni keng qo'llash uchun zamonaviy kompyuter sinflari, yuqori tezlikdagi internet va qimmatbaho simulyatorlar talab etiladi. O'zbekistonda poytaxt va yirik shaharlar bilan hududlar o'rtasida sezilarli "raqamli tafovut" mavjud. Internet tezligining pastligi va zarur uskunalar yetishmasligi, ayniqsa, viloyatlardagi tibbiyot oliygohlarida innovatsion metodlarni to'laqonli joriy etishga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zbek ta'lim madaniyatida "domla"ning (o'qituvchining) o'rni an'anaviy ravishda yuqori va ierarxik hisoblanadi. Talabalar ko'pincha passiv tinglovchi rolida bo'lishga o'rganishgan va ulardan mustaqil fikrlash, faol ishtirok etish va o'z bilimiga o'zi mas'ul bo'lishni talab qiladigan yangi metodlarga moslashishlari qiyin kechishi mumkin.

Institutsional omillar: Postsovet tizimlariga xos bo'lgan byurokratik to'siqlar, moliyalashtirishning yetarli emasligi va tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar islohotlar sur'atini sekinlashtirishi mumkin. Har qanday yangi modelni joriy etish o'quv dasturlarini, baholash tizimlarini va ma'muriy jarayonlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, tibbiyot talabalarida diagnostik kompetentlikni rivojlantirish biror bir universal modelni qo'llash orqali hal etiladigan oddiy vazifa emas. Bu jarayon chuqur pedagogik, institutsional va madaniy o'zgarishlarni talab qiladi. O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l – bu xalqaro tajribaning eng ilg'or jihatlarini milliy voqelikka moslashtirgan holda sintez qiluvchi, pragmatik va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yondashuvni ishlab chiqishdir.

Tahlillar asosida O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun uch bosqichli gibridd model taklif etiladi. Ushbu model Ssenariy nazariyasi, Reflektiv amaliyot va EPA konsepsiyalarining eng kuchli elementlarini talabaning ta'lim bosqichlariga mos ravishda birlashtiradi, bu bosqichlar quyidagicha amalga oshiriladi:

1-Bosqich: Asoslarni shakllantirish (1-3-kurslar).

Talabalarda fundamental "kasallik ssenariylari" kutubxonasini yaratish. An'anaviy ma'ruzalar o'rniga keys-stadi (case-based learning), muammoga asoslangan o'qitish (PBL) elementlari va Simptomlarni xaritalash (CResME) kabi vizual vositalardan faol foydalanish. Oddiy klinik holatlarga asoslangan boshlang'ich darajadagi virtual bemorlar (VPs) bilan ishlashni joriy etish. Bu bosqichda asosiy e'tibor nazariy bilimlarni klinik mantiq zanjirlariga bog'lashga qaratiladi.

2-Bosqich: Klinik ko'nikmalarni integratsiya qilish (4-6-kurslar).

Nazariy ssenariylarni real klinik amaliyot bilan bog'lash va dastlabki amaliy ko'nikmalarni baholash. Klinik rotatsiyalar davomida oddiy, aniq belgilangan Ishonchli kasbiy faoliyatlar (EPAs) joriy etiladi. Masalan, "Anamnez yig'ish va fizik tekshiruv o'tkazish" (EPA 1.1) yoki "Tibbiy muolajalarni bajarish" (EPA 4.1). Baholash to'g'ridan-to'g'ri kuzatuv va fikr-mulohaza bildirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, talabalarni o'zlarining birinchi bemorlar bilan muloqotlari va klinik tajribalarini tahlil qilishga undash uchun Gibbs sikli kabi tuzilmaviy Reflektiv amaliyot metodlari qo'llaniladi.

3-Bosqich: Professional avtonomiyaga erishish (Rezidentura va internatura).

Bitiruvchining mustaqil amaliyotga tayyorligini ta'minlash va uzluksiz o'rganish madaniyatini shakllantirish. Bu bosqichda EPA asosidagi baholash tizimi to'liq joriy etiladi. Rezidentning malakasi murakkab klinik vazifalarni mustaqil bajara olish qobiliyati bilan o'lchanadi. Reflektiv amaliyot kundalik ishning ajralmas qismiga aylanadi, bu esa yosh mutaxassisga o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish, murakkab vaziyatlardan saboq chiqarish va umrbod o'rganish ko'nikmasini

mustahkamlash imkonini beradi.

Amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar

Xalqaro tajribalarga asoslanib, Tibbiy ta'limda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha Milliy Markaz tashkil etish. Ushbu markaz simulyatsion ta'lim, debriefing, kompetensiyaga asoslangan baholash, talabaga yo'naltirilgan o'qitish metodologiyalari bo'yicha standartlashtirilgan treninglar o'tkazish uchun mas'ul bo'lishi kerak.

EPA va reflektiv portfolio kabi yangi baholash usullarini tan olish va ularni davlat ta'lim standartlari va attestatsiya talablariga kiritish.

Gibrid modelni birdaniga butun tizimda emas, balki dastlab Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti yoki Andijon Davlat tibbiyot institute kabi resurslari yetarli bo'lgan OTMlarda pilot loyihalar sifatida boshlash.

Simulyatsion markazlar, virtual bemorlar uchun dasturiy ta'minot va raqamli o'quv platformalarini rivojlantirishga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish.

An'anaviy "ma'ruzachi" rolidan talabalarning o'rganish jarayonini yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi "fasilitator" rolga o'tish. CResME va Gibbs sikli kabi tuzilmaviy vositalar bu o'tish jarayonini yengillashtirishi mumkin.

Milliy Markaz va xalqaro hamkorlik dasturlari orqali o'z pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish.

Xulosa qilib aytganda, diagnostik kompetentlikni rivojlantirish – bu O'zbekiston tibbiy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va sog'liqni saqlash sohasida real ijobiy o'zgarishlarga erishishning kalitidir. Taklif etilayotgan kompleks yondashuv bu murakkab vazifani amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan va amaliy yo'l xaritasini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Uzbekistan Steps Up Health Reform: High-Level Dialogue and WHO Course to Advance Health Financing for Universal Health Coverage, дата последнего обращения: июля 31, 2025, <https://uzbekistan.un.org/en/296593-uzbekistan-steps-health-reform-high-level-dialogue-and-who-course-advance-health-financing>

2. Eva K.W., Regehr G. Effective Strategies for Diagnostic Reasoning in Medical Education. *Med Educ*, 2022; 56(4): 345–354.

3. Harden R.M., Laidlaw J.M. *Essential Skills for a Medical Teacher*. London: Elsevier, 2023. 320 p.

4. Gruppen L.D., Durning S.J. Clinical Reasoning in Medical Education: Current Perspectives and Future Directions. *Acad Med*, 2021; 96(7): 1045–1052.

5. Huwendiek S., De Leng B. Virtual Patients and Serious Games in Medical Education. *Med Teach*, 2022; 44(1): 45–53.

6. Norman G.R., Monteiro S. Training Diagnostic Expertise: Lessons from Cognitive Psychology. *Adv Health Sci Educ*, 2023; 28(3): 321–332.

7. Schumacher D.J., Englander R. Entrustable Professional Activities and Diagnostic Competence. *Med Teach*, 2022; 44(5): 499–506.

8. Lubarsky, S., Dory, V., Duggan, P., Charlin, B., & Young, M. (2016). Using script theory to cultivate illness script formation and clinical reasoning in health professions education. *Canadian Medical Education Journal*, 7(2), e61–e72.

9. Holzhausen, Y., Maaz, A., Renz, A., Bosch, J., & Peters, H. (2019). Implementing Entrustable Professional Activities as Outcomes in a German Undergraduate Medical Curriculum. *GMS Journal for Medical Education*, 36(2), Doc20.

10. Gibbs, G. (1988). *Learning by Doing: A guide to teaching and learning methods*. Further Education Unit.

11. Konopasek, L., Norcini, J., & Krupat, E. (2016). *Focusing on the Formative: Building*

- an Assessment System Aimed at Student Growth and Development. *Academic Medicine*, 91(11), 1492–1497.
12. Cook, D. A., Erwin, P. J., & Triola, M. M. (2010). Computerized virtual patients in health professions education: a systematic review and meta-analysis. *Academic Medicine*, 85(10), 1589–1602.
 13. Hege, I., Kononowicz, A. A., & Kiesewetter, J. (2018). How to design virtual patients for learning clinical reasoning. *GMS Journal for Medical Education*, 35(3), Doc42.
 14. Fischer, M. R., Kopp, V., & Holzer, M. (2020). The Clinical Reasoning Mapping Exercise (CResME): a new tool for teaching and assessment. *Medical Education*, 54(1), 28–38.
 15. World Health Organization. (2025). Uzbekistan Steps Up Health Reform: High-Level Dialogue and WHO Course to Advance Health Financing for Universal Health Coverage. Press Release.
 16. Roskam, E. (2009). *Corrosive Reforms: Failing Health Systems in Eastern Europe and the Former Soviet Union*. Woodrow Wilson International Center for Scholars.
 17. Field, M. G. (1996). The Soviet legacy: the turmoil in health care in the Russian Federation. *American Journal of Public Health*, 86(3), 307–310.
 18. Akhmetova, A. (2019). Faculty Development Framework: Experience of Kazakhstani Medical Schools. *Universal Journal of Educational Research*, 7(10), 2278-2285.
 19. Saidova, M. A., & Abdurakhmanova, N. K. (2021). The state of the digitalization of higher education in Uzbekistan: successes, problems and future tasks. *Thinking Skills and Creativity*, 39, 100788.
 20. Ubaydullaeva, S. (2021). Teacher-Student Relationship in the Context of Uzbek Culture. *Journal of Intercultural Communication Research*, 50(4), 345-360.
 21. Carraccio, C., Wolfsthal, S. D., Englander, R., Ferentz, K., & Martin, C. (2002). Shifting paradigms: from Flexner to competencies. *Academic Medicine*, 77(5), 361–367.
 22. Al-Balushi, S., & Al-Amri, S. (2014). The effect of using concept maps on the students' achievement in science. *Journal of Turkish Science Education*, 11(3), 3-17.

“AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MODELI” MAZMUNI VA TUZILISHI

*Xadiyeva Gulbaxor Djumayevna,
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro shahar bo'linmasi yetakchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda pedagogik modeli mazmunan asoslab berilgan bo'lib, taklif etilgan model axborot savodxonligi, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyat va o'zini baholash kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, model bosqichma-bosqich, ya'ni tayyorlov, amaliy va mustaqil faoliyat bosqichlari shakllanishni nazarda tutadi, maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhiti sharoitida ushbu modelning amaliy joriy etish mexanizmlari ko'rib chiqilgan hamda tadqiqot natijalari axborot madaniyatini shakllantirishda tizimli yondashuv zarurligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, pedagogik model, axborot savodxonligi, raqamli kompetensiya, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, ta'lim muhiti.

СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА «МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ»

*Хадиева Гульбахор Джумаевна,
руководитель Бухарского городского филиала Республиканского центра духовности и просветительства*

Аннотация. В статье дано содержательное обоснование научно-теоретических основ и педагогической модели формирования информационной культуры, включающей такие основные компоненты, как информационная грамотность, информационная безопасность, критическое мышление, цифровая культура и самооценка. Модель также предполагает поэтапное формирование, то есть этапы подготовки, практической и самостоятельной деятельности. В статье рассматриваются механизмы практической реализации данной модели в образовательной среде, основанной на информационно-коммуникационных технологиях. Результаты исследования доказывают необходимость системного подхода к формированию информационной культуры.

Ключевые слова: информационная культура, педагогическая модель, информационная грамотность, цифровая компетентность, критическое мышление, информационная безопасность, образовательная среда.

CONTENT AND STRUCTURE OF THE «MODEL FOR FORMING INFORMATION CULTURE»

*Khadiyeva Gulbakhor Dzhumaevna,
Head of the Bukhara City Branch of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment*

Annotation. The article provides a comprehensive rationale for the scientific-theoretical foundations and pedagogical model of developing information culture. This model incorporates key components such as information literacy, information security, critical thinking, digital culture, and self-assessment. The proposed model is structured into consecutive stages, including preparatory, practical, and independent activity phases. The article explores practical mechanisms for implementing this model within an educational environment enriched by information and communication technologies. The research findings substantiate the necessity of a systematic approach to fostering information culture.

Keywords: information culture, pedagogical model, information literacy, digital competence, critical thinking, information security, educational environment.

KIRISH. XXI asrda jamiyatning raqamli rivojlanishi axborotning tezkor almashinuvi, ko'p variantli manbalar, ommaviy kommunikatsiya vositalari va raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga chuqur singib borishini taqozo qilmoqda. Bu esa, ayniqsa o'quvchilarda va talabalar orasida axborotga nisbatan ongli, tanqidiy va madaniyatli munosabatni shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda.

Bugungi ta'lim sharoitida axborotdan samarali va xavfsiz foydalanish, axborotni tahlil qilish, ishonchli manbalarni ajrata olish, axborot etikasi va huquqiy normalarga rioya qilish bo'yicha ko'nikmalar muhim kompetensiyalar sifatida qaralmoqda. Shu sababli, axborot madaniyati – bu shunchaki texnik bilim emas, balki shaxsiy madaniyat, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy ongning tarkibiy qismi hisoblanadi [1].

Ushbu maqolada axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik model taklif qilinadi. Model orqali talaba yoki o'quvchi axborotga nisbatan ongli munosabatga, tanqidiy fikrlashga va axborot xavfsizligi bo'yicha mas'uliyatli yondashuvga ega bo'lishi mumkin [2,3].

METODLAR. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda axborot madaniyatini shakllantirish masalasi muhim ilmiy-ijtimoiy muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda. Axborotga to'g'ri munosabat, uni saralash, qayta ishlash va madaniyatli tarzda foydalanish – bu raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv va kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi [4].

Shuningdek, o'quvchilar va talabalar orasida axborot manbalariga tanqidiy yondashish, noto'g'ri va manipulyativ axborotni farqlay olish, axborot xavfsizligini ta'minlash kabi ko'nikmalar past darajada ekanligi tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun ham, axborot madaniyatini shakllantirish modeli orqali tizimli pedagogik yondashuv ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kun ta'limining dolzarb masalasidir [5,7].

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Axborot madaniyatini shakllantirish modeli” talabalarda axborotga munosabatni ongli va tizimli ravishda shakllantirishga qaratilgan. Model o'zida beshta asosiy komponentni hamda uch bosqichli rivojlanish jarayonini qamrab oladi.

Modelning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Axborot savodxonligi (Information Literacy):

- axborotni izlash, saralash, manbalarni taqqoslash qobiliyati;
- ishonchli va noto'g'ri axborotni farqlash.

2. Axborot xavfsizligi (Information Security Awareness):

- foydalanuvchi huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish madaniyati;
- internetda yetik va huquqiy normalarga rioya qilish.

3. Axborotni qayta ishlash ko'nikmalari (Analytical Processing):

- axborotni tahlil qilish, vizuallashtirish va natijalar chiqarish;
- raqamli grafika, infografika, multimedia usullardan foydalanish.

4. Axborot kommunikatsiya madaniyati (Media Communication Culture):

- axborotni taqdim etish, slayd, blog yoki ijtimoiy tarmoqlarda foydalanish;
- axborotni ommaviy va maqsadli tarzda yetkazish qobiliyati.

5. Baholash va refleksiya (Evaluation & Reflection):

- o'z axborot faoliyatini baholash, tanqidiy tahlil qilish, xato va kamchiliklarni anglash.

1-jadval

Axborot madaniyatini shakllantirishning bosqichlari

T/r	Bosqich	Mazmuni
1.	Tayyorlov bosqichi	Talabalarda axborotga qiziqish uyg'otish, ma'lumot izlashning maqsadini tushuntirish. Axborot bilan ishlashning odob-axloq va huquqiy asoslarini o'rgatish.
2.	Amaliy bosqich	Talabalarni axborotni saralash, tahlil qilish va vizual taqdim qilishga o'rgatish. Elektron kutubxonalar, raqamli platformalardan foydalanish.
3.	Mustaqil faoliyat bosqichi	Axborot loyihalari tayyorlash, ijtimoiy mediaga tanqidiy munosabat, axborot xavfsizligini ta'minlash. Refleksiya va o'zini baholash.

NATIJARLAR. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni nafaqat raqamli savodxonlikni, balki fanlararo integratsiya asosida bilimlarni uyg'un ravishda o'zlashtirishni ham taqozo etadi. Bu jihatdan Z.Sh.To'xtayevaning oliy ta'limda ixtisoslik va mutaxassislik fanlari o'rtasidagi uzviylik va integratsiya muammolariga bag'ishlangan tadqiqoti diqqatga sazovordir [8]. Ushbu tadqiqotda ta'lim mazmunida fanlararo yondashuvlarni joriy etish, axborot va mutaxassislik sohalari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali zamonaviy mutaxassislarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan.

Axborot madaniyati modelida ham fanlararo bilimlarni (axborot texnologiyalari, axloq, huquq, kasbiy fanlar) integratsiya qilish orqali talabalarda tizimli fikrlash, murakkab axborotni tahlil qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu ma'noda, Z.Sh.To'xtayevaning ilmiy qarashlari ushbu modelning nazariy asoslarini mustahkamlaydi hamda ta'limda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi [6].

Modelda qo'llaniladigan asosiy pedagogik texnologiyalar sifatida quyidagilarni tanlab oldik:


- ta'limda AKT texnologiyalari (MOODLE, Google Scholar, Web of Science);
- masala yechish asosida ta'lim (problem-based learning);
- mediasavodxonlik treninglari;
- projekt-baholash texnologiyasi (portfolio, infographics, reflections);
- interaktiv usullar: mayndmep, klaster, QR-ta'lim, keys tahlil.

“Axborot madaniyatini shakllantirish modeli”da baholash mezonlari muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Axborot madaniyati darajasi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan 4 darajada baholanadi:

T/r	Daraja	Tavsif
1	Boshlang'ich	Axborotni izlaydi, ammo saralash va baholashda qiynaladi.
2	Rivojlanayotgan	Axborot manbalarini solishtirishga harakat qiladi, ba'zi xavflardan xabardor.
3	Malakali	Axborotni tahlil qiladi, xavfsizlik va etikaga rioya qiladi.
4	Yuksak	Axborot loyihalari yaratadi, boshqalarga o'rgata oladi, axborotni tanqidiy baholaydi.

Ushbu model axborot madaniyatini shakllantirishda integrativ yondashuv taklif qiladi. U nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va ommaga yetkazish madaniyatini shakllantiradi. Model asosida har bir oliy ta'lim muassasasi o'ziga mos adaptatsiya qilingan strategiya ishlab chiqishi mumkin [9].

Quyidagi gistogrammada talabalarning axborot madaniyatiga oid ko'nikmalar bo'yicha 4 ta rivojlanish darajasidagi taqsimoti aniq ko'rsatilgan:



1-rasm. Talabalarning axborot madaniyatiga oid ko'nikmalar

1-rasm. Talabalarning axborot madaniyatiga oid ko'nikmalar

- boshlang'ich — ko'pchilik talabalarda tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligida ustun.
- rivojlanayotgan — axborotni tahlil qilish va raqamli savodxonlikda ancha taraqqiyot bor.

- malakali va yuksak — ayniqsa, raqamli savodxonlikda yuqori ko‘rsatkichlar kuzatildi. 1-rasmda keltirilgan gistogramma asosida tahliliy ma‘lumotlarni ko‘rib chiqamiz.
- 1. Tanqidiy fikrlash – eng past darajada rivojlangan ko‘nikma, bu:
 - 50% talabalar tanqidiy fikrlash bo‘yicha faqat boshlang‘ich darajada ekan;
 - 30% – rivojlanish bosqichida, ya‘ni muammolarni tan oladi, ammo yechim taklif qila olmaydi;
 - faqat 5% talabalar tanqidiy fikrlashning yuqori bosqichiga yetgan.

Demak, bu natija talabalarni media tahlili, axborot manbalarini taqqoslash va mustaqil fikr bildirishga o‘rgatish darslarining yetarli emasligini ko‘rsatadi. Axborot oqimini tanqidiy tahlil qilishga doir maxsus treninglar joriy etish zarur.

- 2. Axborot xavfsizligi – yetarlicha diqqat qaratilishi lozim bo‘lgan sohalardan biri, ya‘ni:
 - talabalarining 45% nafari axborot xavfsizligi bo‘yicha boshlang‘ich darajada ekan;
 - 35% – rivojlanuvchi bosqichda, parol xavfsizligi va shaxsiy ma‘lumotlar muhofazasidan xabardor;

- faqat 20% va kamroq talabalar malakali yoki yuqori darajada axborot xavfsizligi madaniyatiga ega.

Demak, talabalar kiberxavflar, fishing, feyk axborot va shaxsiy ma‘lumotlarni himoyalash masalalarida jiddiy mutaxassislikka ega emas. Axborot xavfsizligiga oid interaktiv kvestlar, amaliyotlar va keyslar kerak.

- 3. Axborotni tahlil qilish – potensial yuqori, ammo to‘liq shakllanmagan, ya‘ni:
 - 40% talabalar rivojlanish bosqichida;
 - 20% – ma‘lum darajada tahlil qilish qobiliyatiga ega;
 - faqat 8% yuqori darajada mustaqil tahlil qilishni uddalaydi.

Demak, tahlil qilish – axborot madaniyatining o‘zagi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikma talabalarda shakllanmoqda, ammo ilmiy tahlil qilish, ma‘lumot manbalarini tanlash va vizuallashtirish bo‘yicha maxsus loyihalar zarur.

- 4. Raqamli savodxonlik – eng yuqori darajada shakllangan ko‘nikma, ya‘ni:
 - talabalarining 62% nafari kam deganda rivojlanish bosqichida;
 - 30% – malakali darajada;
 - 12% – yuqori darajada mustaqil raqamli ish faoliyatini amalga oshirmoqda.

XULOSAVATAVSIYALAR. Demak, bu ko‘rsatkichta‘lim jarayonida AKT texnologiyalarining keng qo‘llanilayotganidan dalolat beradi. Lekin raqamli texnologiyalarni axborotni to‘g‘ri tahlil qilish va xavfsiz foydalanish bilan uyg‘unlashtirish kerak.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlar ancha past darajada bo‘lib, talabalarda tahlil qilish qobiliyati shakllanmoqda, lekin ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirilishi kerak. Raqamli savodxonlik yaxshi rivojlangan, ammo u axborot madaniyatining boshqa elementlari bilan integratsiya qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаева Г. Аxborot madaniyati va uni shakllantirishning pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2021. – 128 b.
2. Назаров А. Аxborot texnologiyalari asoslari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, 2020. – B. 37–52.
3. Рахимов Ж., Хамидова Ш. Аxborot va ta‘lim muhiti: nazariya va amaliyot. – T.: Ilm-Ziyo, 2019. – 164 b.
4. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJERT, 7(4), 258-261.
5. Тошева, Н. М., Тухтаева, З. Ш., & Атамурадова, Г. О. (2014). Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности. Молодой ученый, (8), 878-879.
6. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном

образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.

7. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 192 p.

8. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. Касб-хунар таълим, 4, 21.

9. Yusupov J. Developing students' media and information literacy in the digital age // International Journal of Innovation in Education. – 2021. – Vol. 8, No. 2. – P. 113–126.

“TIBBIY RADIOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA TANQIDIY OPERATIV MULOQOTNI O‘STIRISHNING METODIK MUAMMOLARI

Shukurova Sevara Ilhomovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada tibbiy radiologiya fanini o‘qitish jarayonida pedagogik muloqot vositasida talabalarda tanqidiy-operativ muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiy ta‘lim talabalardan faqatgina nazariy bilim emas, balki klinik vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, kasbiy muloqotga kirisha olish va tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik muloqotning mazmuniy va interfaol shakllari orqali talabalarda tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish muhim metodik vazifa sifatida ko‘riladi. Maqolada ushbu jarayonning metodologik asoslari, mavjud muammolar va ularni hal etishga doir innovasion yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Pedagogik muloqot, tanqidiy-operativ muloqot, tibbiy radiologiya, metodik muammo, klinik fikrlash, keys-senariy, kasbiy muloqot, interfaol o‘qitish, ta‘lim texnologiyalari.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КРИТИКО-ОПЕРАТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИСЦИПЛИНЕ «МЕДИЦИНСКАЯ РАДИОЛОГИЯ»

Шукурова Севара Илхомовна

Независимый исследователь Бухарского государственного медицинского института

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования у студентов навыков критико-оперативной коммуникации в процессе преподавания дисциплины «Медицинская радиология» посредством педагогического диалога. Современное медицинское образование требует от студентов не только теоретических знаний, но и способности оперативно принимать решения в клинических ситуациях, вступать в профессиональное взаимодействие и критически осмысливать информацию. С этой позиции развитие критико-оперативной коммуникации через содержательные и интерактивные формы педагогического диалога рассматривается как важная методическая задача. В статье анализируются методологические основы данного процесса, выявляются существующие проблемы и предлагаются инновационные подходы к их решению.

Ключевые слова: педагогический диалог, критико-оперативная коммуникация, медицинская радиология, методическая проблема, клиническое мышление, кейс-сценарий, профессиональное взаимодействие, интерактивное обучение, образовательные технологии.

METHODOLOGICAL ISSUES IN DEVELOPING CRITICAL-OPERATIONAL COMMUNICATION IN THE TEACHING OF “MEDICAL RADIOLOGY”

Shukurova Sevara Ilhomovna,

Independent Researcher, Bukhara State Medical Institute

Abstract. This article explores the issues of developing students' skills in critical-operational communication during the teaching of the “Medical Radiology” discipline through pedagogical dialogue. Modern medical education requires students not only to possess theoretical knowledge but also to make prompt decisions in clinical situations, engage in professional communication, and think critically. From this perspective, fostering critical-operational communication through meaningful and interactive forms of pedagogical dialogue is considered an important

methodological task. The article analyzes the methodological foundations of this process, identifies existing challenges, and proposes innovative approaches to address them.

Keywords: pedagogical dialogue, critical-operational communication, medical radiology, methodological problem, clinical thinking, case scenario, professional interaction, interactive learning, educational technologies.

KIRISH. Zamonaviy tibbiy ta'lim mazmunida axborotning yuqori sur'atda yangilanishi, tashhishlash va klinik qaror qabul qilish jarayonlarining murakkabligi mutaxassislardan nafaqat nazariy bilim, balki tanqidiy va operativ muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etmoqda. Xususan, "Tibbiy radiologiya" fanini o'qitish jarayonida talabalarda ma'lumotni tahlil qilish, vizual axborotni sharhlash, shoshilinch vaziyatlarda tanqidiy yondashish va fikrlarini qisqa, aniq bayon etish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, mazkur jarayonda pedagogik muloqotning o'rni beqiyosdir. Pedagogik muloqot pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik, fikr almashinuvi va refleksiya asosidagi ta'limiy munosabatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tanqidiy-operativ muloqot — bu bilimlarni tanqidiy tahlil qilish, tezkor fikrlash va tezda qaror qabul qilishga asoslangan muloqot shakli bo'lib, u ayniqsa tibbiy ta'limda dolzarbdir. P. Freyre, M. Buber, J. Meziroud kabi olimlar ta'limda muloqotning faol, idoraviy va shaxslararo shakllarini alohida ta'kidlab o'tganlar. Xususan, Buberning dialogik pedagogikasida tanqidiy fikrlash va munosabat orqali ma'no yaratish asosiy o'rin tutadi [1].

Slastyonin V.A. ta'kidlaganidek, pedagogik muloqot — bu nafaqat axborot almashish, balki shaxsiy rivojlanish, faoliyatni uyg'unlashtirish vositasidir [2]. Zamonaviy tibbiy ta'limda muloqot — faqat o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi axborot oqimi emas, balki shaxsiy, kasbiy va kognitiv transformasiya jarayoni hamdir.

Xorijiy tadqiqotchilar (Schön D., Harden R.M., Irby D.M.) [3-5] ta'lim jarayonida «reflective practice» va «situational communication» kabi yondashuvlarni qo'llab-quvvatlab, klinik muhitda tezkor munosabat va mulohazali muloqotni mutaxassis tayyorlashda asosiy mezon sifatida belgilaydilar.

Keys-senariylar, strukturalashtirilgan debatlar va simulyasiya texnologiyalari talabalarda klinik vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish, dalil keltirish va kasbiy muloqot olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

O'zbekistonda ham tanqidiy fikrlash va muloqot kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N.A. Xasanova tibbiy ta'limda amaliy mashg'ulotlar orqali tanqidiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishni metodik jihatdan asoslab beradi [6]

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish metodik muammosi nafaqat metodik usullarni, balki muloqotning falsafiy, psixodidaktik va klinik asoslarini hisobga olishni talab qiladi. Tibbiy radiologiya kabi aniq tashxis va tezkor qaror qabul qilishni talab qiluvchi fanlarda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar ayni muddao hisoblanadi.

METOD VA METODOLOGIYA. Ushbu maqolaning metodologiyasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlar asosida shakllantirilgan bo'lib, kognitiv-pedagogik yondashuv, dialogik ta'lim nazariyasi va interfaol o'qitish texnologiyalariga tayanadi. Bosh maqsad — tibbiy radiologiya fanini o'qitish jarayonida tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik sharoitlarni aniqlash va modellashtirishdir.

Metodologik asos sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi:

- Kognitiv-pedagogik yondashuv – talabalarining intellektual faolligi, tanqidiy va tezkor fikrlash qobiliyatini shakllantirishni maqsad qiladi;
- Interaktiv ta'lim metodlari – keys-texnologiyalar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, debatlar va "sokratcha suhbat" usuli;
- Dialogik pedagogika – Buber va Freyre ta'limotlari asosida tashkil etilgan tenghuquqli va mazmunli pedagogik muloqot.

Tadqiqotda quyidagi aniq pedagogik metodlar qoʻllanildi:

Tahliliy-tarkibiy metod – xorijiy va mahalliy adabiyotlar asosida tanqidiy-operativ muloqot tushunchasining mazmuni va funksiyalari tahlil qilindi.

Taʼlimiy keys-stadi (case study) – tibbiy radiologiya fanidan maxsus keys-ssenariylar orqali talabalarning muloqot va fikrlash jarayoni kuzatildi.

Pedagogik ekspertiza va ekspert baholash – oʻqituvchilar va metodistlar ishtirokida taklif etilayotgan usullarning samaradorligi baholandi.

Talabalar soʻrovnomasi va refleksiv esse tahlili – tanqidiy-operativ muloqotga oid koʻnikmalarni oʻzlashtirish darajasi aniqlandi.

Solishtirma tahlil – anʼanaviy va interfaol oʻqitish usullari taʼsiri qiyosiy oʻrganildi.

TADQIQOTLAR NATIJASI. Mazkur tadqiqot doirasida tibbiy radiologiya fanini oʻqitishda tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik intervensiya tajribadan oʻtkazildi. Tajriba 2024–2025 oʻquv yilida Buxoro davlat tibbiyot institutining 3-bosqich talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Guruhlar tajriba (n=32) va nazorat (n=30) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida interfaol taʼlim texnologiyalari, jumladan, keys-ssenariylar, simulyativ topshiriqlar, debat elementlari joriy qilindi. Nazorat guruhida esa anʼanaviy maʼruza va seminarlar shaklidagi oʻqitish usullari qoʻllanildi.

Tajriba davomida quyidagi koʻrsatkichlar baholandi:

- tanqidiy fikrlash darajasi (tashxisli tahlil, dalillash qobiliyati);
- kasbiy muloqotda ishtirok etish faolligi;
- tezkor qaror qabul qilish koʻnikmasi (simulyativ holatlarda);
- refleksiv esseler orqali oʻz-oʻzini baholash qobiliyati.

Natijalar quyidagicha qiyosiy tahlil qilindi:

Tajriba guruhi talabalarida tanqidiy fikrlash koʻrsatkichi 38% dan 71% gacha oʻsdi ($p < 0.01$); kasbiy muloqotda ishtirok darajasi 25% dan 68% gacha yaxshilandi; simulyativ mashqlarda tezkor munosabat bildirish koʻnikmasi 2,4 balldan 4,1 ballga oshdi (5 ballik shkala boʻyicha); nazorat guruhidagi oʻsish koʻrsatkichlari ahamiyatli farq qilmadi ($p > 0.05$).

Bu natijalar tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishda maxsus pedagogik shart-sharoitlarning muhimligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA. Hozirgi kunda pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish masalasi tibbiy taʼlim metodologiyasida muhim metodik muammolardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu muammo, bir tomondan, radiologiya fanining texnologik xususiyati va vizual tafakkurga asoslanganligi, ikkinchi tomondan esa, anʼanaviy maʼruza-amaliy mashgʻulot shakllarida talabalarining muloqot faolligiga etarlicha imkoniyat berilmasligi bilan bogʻliqdir. Shuning uchun ham, pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirishga yoʻnaltirilgan maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va uning samaradorligini tahlil qilish dolzarb metodik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy-operativ muloqotni pedagogik muloqot orqali shakllantirish oddiy muloqot emas. U asoslangan, tizimli, kognitiv bosimdagi, real kasbiy modellashtirish asosidagi oʻquv muhitini tashkil etishni talab etadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda «tanqidiy-operativ muloqot» va «pedagogik muloqot» tushunchalari taʼlim jarayonining markaziy tarkibiy qismlari sifatida talqin etilmoqda. Mazkur tushunchalar talabalarda kasbiy, kognitiv va nutqiy koʻnikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda tanqidiy-operativ muloqot va pedagogik muloqot tushunchalari oʻzaro bogʻliq holda namoyon boʻladi va oʻqitishning interfaol, dialogik asoslariga tayanadi.

Tanqidiy-operativ muloqot – bu talabaning maʼlumotlarga nisbatan mantiqiy, tahlilchan va dalillashtirilgan munosabat bildirish, murakkab holatda tezkor fikr yuritish, qaror qabul qilish hamda kasbiy nutqda oʻz fikrini aniq ifoda etish qobiliyatidir. Mamede va Shmidt tomonidan taʼkidlanganidek, bu muloqot turi refleksiv fikrlash, klinik tahlil va kognitiv dinamikani oʻz

ichiga oladi. Xususan, noaniqlik, yuksak mas'uliyat va fanlararo hamkorlik talab etiladigan kasbiy faoliyat muhitida bu ko'nikmalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik nazariyada pedagogik muloqot ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi maxsus tashkil etilgan o'zaro aloqa jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon bilimlarni etkazish, amaliy ko'nikmalar va malaka shakllantirish, ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishni nazarda tutadi. Pedagogik muloqot faqat axborot almashish bilan cheklanib qolmay, balki o'zaro anglashuv va mazmun almashinuviga tayangan o'quv muloqotini shakllantirish, hamfikrlik muhitini yaratish hamda kasbiy munosabatlarni yo'lga qo'yishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Pedagogik muloqot ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi mazmunli va o'zaro ta'sirchan axborot almashinuvi sifatida ta'riflanadi. U nafaqat bilim berish, balki ma'nolarni birgalikda yaratish, shaxsiy faollik va kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi. N.Ya.Vilenskiy [7] va V.E.Shmukler [8] kabi olimlarning ta'kidlashicha, pedagogik muloqot – shaxsga yo'naltirilgan va faol sub'ekt-sub'ekt munosabatga asoslangan murakkab o'zaro aloqalar tizimidir.

Tanqidiy-operativ muloqot va pedagogik muloqot tushunchaning o'zaro bog'liqligi quyidagicha namoyon bo'ladi:

Birinchi, pedagogik muloqot — tanqidiy-operativ muloqot rivoji uchun metodik va psixologik sharoit yaratib beradi;

Ikkinchi, tanqidiy-operativ muloqot — pedagogik muloqot jarayonida shakllanadigan kasbiy-kognitiv nutqiy faollikning yuqori darajasini ifodalaydi;

Uchinchi, ularning integrasiyasi — tibbiy ta'limda interaktiv, ssenariyli, keys va debat shakllarini samarali tatbiq etishning ilmiy-metodik poydevori hisoblanadi.

Shunday qilib, tanqidiy-operativ muloqot va pedagogik muloqotning o'zaro bog'liqligini tushunish Tibbiy radiologiya fanini o'qitishda ta'lim jarayonini qayta tashkil etish va talabalarda zamonaviy kasbiy muloqot strategiyalarini shakllantirish uchun asosiy sharoit hisoblanadi.

Tibbiy radiologiya fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni o'stirish metodik muammosi – bu o'quv jarayonida talabalarning kasbiy mulohaza, tezkor xulosa chiqarish, klinik nutq va reaktiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq dolzarb va echim talab qiluvchi metodologik masalalar majmuasidir. Bu metodik muammolarni asosiy yo'nalishlar va muammolar kesimida tavsiflash mumkin. Birinchi, uslubiy muammolar bo'lib, Tibbiy radiologiya fanini o'qitishda nazariy bilimlar ustuvor bo'lib, tanqidiy tahlil va amaliyotga yo'naltirilgan muloqot deyarli kam qo'llaniladi. O'quv jarayonida verbal fikrlash, so'zli izohlash, tibbiy dalillarni mantiqiy asoslash kabi nutqiy faollikni rivojlantiruvchi materiallar etishmaydi. Ta'lim formatida savol-javob, bahs va debatga asoslangan interfaol usullarni qo'llashga e'tibor talab darajasida emas.

Ikkinchi, didaktik tashkil etish muammolari hisoblanadi. Talabalarni klinik ssenariy asosida mustaqil tahlil qilish va tezkor xulosa berishga tayyorlashda muntazam strategiya mavjud emas. Qolaversa, pedagogik muloqot ko'proq monologik shaklda olib boriladi. Fanlararo integrasiya, xususan, radiologiyani terapiya, anatomiya, patologiya bilan bog'lash orqali tanqidiy qarashni shakllantirishga kam e'tibor qaratiladi.

Uchinchi, kognitiv-psixologik muammolar bo'lib, talabalarda noaniq vaziyatlarda harakat qilish, ko'p yo'nalishli taxminlar keltirish, ssenariyli qaror qabul qilish qobiliyatlari talab darajasida emas. Tanqidiy fikrlash elementlari (asoslash, dalillash, rad etish) nutq jarayonida oz ifoda etiladi.

Kognitiv bosim sharoitida (cheklangan vaqtda, ziddiyatli ma'lumotlar bilan) faol fikr yuritish qobiliyati rivojlanmagan.

To'rtinchidan, kommunikativ nutqni rivojlantirishdagi muammolar bo'lib, radiologik xulosalarni aniq, qisqa va kasbiy tilda ifoda etish ko'nikmasi etarli emas. O'quv jarayonida ko'p variantli klinik xulosalarni ishlab chiqish, tezkor savolga javob berish kabi mashqlar yo'q. Refleksiv fikr bildirish, ya'ni «Nega shunday xulosaga keldim?» degan mulohazalar kam o'rganiladi.

Beshinchidan, fanlararo yondashuv etishmasligidir. Tanqidiy-operativ muloqot rivoji uchun kerakli bo'lgan axloqiy, gumanitar va nutqiy madaniyat masalalari asosiy o'quv modullariga

integrasiya qilinmagan. Faoliyatga asoslangan o'quv shakllari (simulyasiya, keys-talqini, debat) etarlicha tatbiq etilmagan.

Pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish metodik muammosini quyidagicha tahlil qilish maqsadga muvofiq:

Monologik emas, dialogik ta'lim muhitini tashkil etish zaruratining mavjudligi;

Talabalarning tibbiy-nazariy tahlil, fanlararo mulohaza, dalil asosida fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus strategiyaning mavjud emasligi;

Tibbiy radiologiya ta'limida kognitiv faollik va tezkor nutqiy anglash mexanizmlarini qo'llash etishmasligi.

Ushbu metodik muammolarni echishga doir innovasion yondashuvlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda nutqiy muloqot orqali fikr shakllantirishga qaratilgan dialogik yondashuv; tibbiy tanqidiy tahlilni rivojlantirishga qaratilgan keys talqini; reaktiv va dalilli nutqni shakllantirishga qaratilgan tezkor fikrlash treningi; o'z-o'zini baholash va fikrlash jarayonini idrok etishga qaratilgan refleksiv pedagogika; yangicha muhitda muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladigan raqamlashtirish; fanlararo mulohaza va keng fikrlashni shakllantirishga qaratilgan integrasiya shular jumlasidandir.

Tibbiy radiologiya fanini o'qitish jarayonida talabalar tasvirlar asosida tahlil qilish, interpretasiyalash va klinik xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Mazkur jarayon nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki tanqidiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va kasbiy mulohaza yuritish kabi kognitiv faollikni talab etadi. Shuning uchun tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirish mazkur fanni o'qitishdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq, ta'kidlash joizki, bu muloqotni metodik jihatdan samarali ravishda shakllantirish, o'z navbatida, nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqotning turlari, shakllari va mazmuni talabalarda tanqidiy qarash, mustaqil fikr va didaktik tezkorlikni ta'minlashda doimo samarali bo'lavermaydi. Mazkur muammo xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida ham o'z ifodasini topgan.

D.M. Irby va M. Cooke o'z tadqiqotlarida tibbiy ta'limda muloqot orqali fikrlash («clinical reasoning»)ni faollashtirish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular ta'limda «coaching dialogue»ni qo'llash orqali talabada mulohazali qaror qabul qilish va izohlash qobiliyatini shakllantirish mumkinligini asoslab beradilar.

Ronald M. Harden [9] ta'lim jarayonida talabalar nafaqat faktlarni, balki turli qarama-qarshi yondashuvlarni baholab bilish va mulohazali tanlov qilishga majbur bo'ladigan muhitni yaratish zarurligini ta'kidlaydilar. Albatta, bu muhitning asosini pedagogik muloqot tashkil etadi.

S.Mamede va H.G. Schmidt [10] kabi xorijiy olimlar tanqidiy muloqotning poydevori sifatida «reflexive reasoning»ni ko'rsatadilar. Ular klinik ssenariylar va «double interpretation» usuli orqali talabalarning mustaqil tahlil qobiliyati rivojlanishini aniqlab berganlar.

Rus olimlaridan L.S.Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasini» konsepsiyasiga ko'ra, talabaning yuqori kognitiv funksiyalari faqat muloqot va interaksiya orqali rivojlanadi. Tibbiy radiologiyadagi «muloqotli ta'lim» shunday rivojlanish zonasini amalga oshiradi.

Mahalliy tadqiqotchilardan N.A.Xasanova ta'kidlaganidek, tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirish uchun noaniq yakunli keys-ssenariylar, strukturalashgan debatlar, «avval ta'rif, so'ng xulosa» kabi usullar qo'llanilishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik muloqotni faqat axborot almashinuvi emas, balki mutaxassislik muloqotiga aylantiradi.

Ta'kidlash joizki, tibbiy radiologiyada tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish – metodik jihatdan to'liq echim topmagan, biroq muhim didaktik vazifa hisoblanadi. Tibbiy radiologiyada tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish, avvalo, miqdoriy emas, balki sifatli, tizimli va kognitiv jihatdan yuklangan pedagogik muloqotni tashkil etish orqali amalga oshishi mumkin.

XULOSA. Ushbu maqolada olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchi, Tibbiy radiologiya fanini o'qitishda tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirish

nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki klinik vaziyatlarda samarali munosabat bildirish, tezkor qaror qabul qilish va kasbiy muloqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish uchun pedagogik muloqotning mazmunli, interaktiv va sub'ekt-sub'ektki shakllarini joriy etish zarur. Buning uchun keys-senariylar, muammoli savollar, debatlar, simulyativ mashg'ulotlardan foydalanish samaralidir.

Uchinchidan, empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar joriy etilgan tajriba guruhida tanqidiy fikrlash, kasbiy muloqot va tezkor fikr bildirish ko'nikmalarida ahamiyatli o'sish kuzatildi. Bu esa maxsus pedagogik shart-sharoitlar tashkil etishni metodik zarurat sifatida asoslaydi.

To'rtinchidan, mavjud metodik muammolar — pedagogik muloqotni formal tashkil etish, interfaol yondashuvlarning etarli darajada qo'llanilmasligi, hamkorlikka asoslangan muhitning kamligi — tizimli ravishda bartaraf etilishi lozim.

Beshinchidan, maqolada bayon etilgan metodik echimlar tibbiy ta'lim tizimida faol muloqot, tanqidiy fikrlash va kasbiy idoraviy kompetensiyalar rivojini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin

Bu muloqot nafaqat axborot berish, balki mulohaza yuritish, tahlil qilish, fikrlashni shakllantirish, dalillash va kasbiy munosabat bildirish salohiyatini rivojlantiradi. Metodik jihatdan aynan shu jihatlar qayta ko'rib chiqilishi va pedagogik texnologiyalar orqali integrasiya qilinishi lozim. Ushbu fikrni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan, miqdor emas, sifat — muloqotning transformasiyalanuvchi tabiati hisoblanadi. Pedagogik muloqotning ko'payishi (ya'ni miqdori-S.Sh.) har doim ham talabning kognitiv faolligini ta'minlay olmaydi. Sifatli muloqot, o'z navbatida, tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi, voqealarga tezkor munosabat bildirishni o'rgatadi, nutq faolligi, argumentasiya va interpretasiyani talab qiladi. Jumladan, pedagog tomonidan berilgan savollar ko'payishi (miqdoriy muloqot) talabada avtomatik javob refleksini uyg'otishi mumkin, biroq noto'liq, o'zaro qarama-qarshi ma'lumotlarga asoslangan keyslar orqali savol berish (sifatli, tizimlashgan muloqot) talabning mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tizimlilik muloqotni didaktik strategiyaga aylantiradi.

Sifatli pedagogik muloqot tasodifiy emas. U o'quv jarayonining rejalashtirilgan, interaktiv qismi sifatida quyidagilarni qamrab olishi kerak:

- muloqotning bosqichma-bosqich murakkablashib borishi;
- diagnostik vaziyatlarda rollar almashinishi (talaba – tahlilchi, himoyalovchi, tanqidchi);
- bahslashuv va debat formatlarining rejali tarzda joriy qilinishi;
- natijalarni yoritish uchun talabalarning refleksiv hisobotlar tayyorlay olishi.

Demak, tizimlilik — intellektual faollik, tanqidiy va ijodiy yondashuvlar rivoji uchun asosiy sharoitdir.

Uchinchidan, kognitiv yuklama — muloqotda intellektual chidamni, ya'ni muloqot ishtirokchilarining aqliy chidamliligini, fikriy moslashuvchanligini va tanqidiy munosabatini shakllantiradi.

Talabalarga berilgan muloqot formatlari juda ko'p holatlarda ma'lumotlarni qayta takrorlashga; to'g'ri javobni topishga; yodlashga qaratilgan bo'ladi. Bu, o'z navbatida, kognitiv yuklama darajasining pastligini anglatadi. Agar muloqot noto'liq ma'lumot asosida xulosa chiqarishni, bir necha ehtimoli tashxislarni baholashni, hamkasbning fikrini rad etish yoki qo'llab-quvvatlashni, tezkor va dalillangan javob berishni talab qilsa, demak bunday muloqot yuqori kognitiv yuklamaga ega bo'ladi. Bu esa, talabada tanqidiy-operativ fikrlash, hissiy bardoshlik, kasbiy nutq va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Quyidagi jadvalda muloqot shakllarining yuqori sifat, tizimlilik va kognitiv yuklamani ta'minlashi o'z aksini topgan:

Shakli Natijasi

Noto'liq ma'lumotlarga asoslangan keys senariylar

Notanish holatlarda tezkor va ijodiy

mulohaza yuritishni ragʻbatlantiradi.

“Bir tasvir – ikki tahlil” Turli nuqtai nazarni solishtirish va tanqidiy baholash imkonini beradi.

Debat va simulyativ muhokamalar Ogʻzaki nutqda dalillash, ziddiyatli fikrlarga javob berish malakasini rivojlantiradi.

Refleksiv - diagnostik mulohaza yozish Talabani mustaqil fikrlash jarayonini yangidan tahlil etish imkonini beradi.

Bizningcha, tanqidiy-operativ muloqot hozirgi zamon tibbiy taʼlim sohasida klinik jihatdan etuk, yuksak nutq madaniyati va tahliliy qobiliyatga ega boʻlgan shifokorni shakllantirishda asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Xususan, mazkur vazifa tibbiy radiologiya kabi fanlarni oʻqitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yoʻnalishdagi shifokor, asosan, bilvosita (vizual) axborot bilan ish olib boradi. Bunda u maʼlumotlarni tez va aniq talqin qilish bilan birga klinik ahamiyatli maʼlumotni tez va aniq taqdim etishi, tashxisni asoslab bilishi, shuningdek hamkasblari bilan birga jamoaviy qaror qabul qilishda faol ishtirok eta olishi lozim.

Taʼkidlash joizki, tibbiy taʼlimda pedagogik muloqot faqatgina yordamchi aloqa shakli sifatida koʻrib chiqilmasligi kerak. U boʻlajak shifokorlarda tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirishga qaratilgan maqsadli va tizimli metod sifatida qayta koʻrib chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aynan shu nuqtai nazardan metodologik muammo shundaki, anʼanaviy dars shakllari, jumladan maʼruzalar, prezentasiyalar, monologik tushuntirishlar talaba yoshlarda noaniq klinik vaziyatlarda erkin fikr bildirish, dalillash va kasbiy mulohaza yuritish qobiliyatini shakllantirishga imkoniyat bermaydi.

Bizningcha, tanqidiy-operativ nutqiy salohiyat faqat oʻzaro muloqotga qurilgan pedagogik muhitda rivojlanadi. Chunki ushbu muhitda talabaga noaniq klinik vaziyatlarni tahlil qilish, oʻz nuqtai nazarini erkin bayon eta olish, shuningdek himoya qilish, muqobil yondashuvlarni muhokama qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday vaziyatda pedagog haqiqat manbai sifatida ishtirok etmaydi. U talabalarni bevosita muhokamaga yoʻnaltiruvchi, intellektual oʻzaro taʼsirni tashkil etuvchi fasilitator sifatida faoliyatga kirishadi. Bunda pedagogning asosiy vazifasi boʻlajak shifokorlarda tahliliy tafakkurni, dalilga asoslangan nutqni va operativ fikriy dalillash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Tadqiqot davomida oʻz nuqtai nazarimizning nazariy-metodologik asosi quyidagilardan iborat boʻldi:

Birinchi, M.M. Baxtin va M. Buberning muloqotga asoslangan taʼlim konsepsiyasi boʻlib, bunda dialog jarayonida yaratiladigan bilim va maʼno tizimi ochib beriladi.

Ikkinchi, A.A. Leontev va T.V. Arutyunovning kasbiy nutqga doir psixolingvistik konsepsiyasi boʻlib, bunda nutqiy faollik kasbiy tafakkurning ifodasi va rivoji sifatida koʻrib chiqiladi.

Uchinchi, H.S. Barrows, D. Schön, C. van der Vleuten, O. ten Cate kabi xorij olimlarining muammoga yoʻnaltirilgan taʼlim va klinik kommunikasiya konsepsiyalari hisoblanib, ular shoshilinch vaziyatda qaror qabul qilish va kasbiy muloqot modelini qurish zarurligini taʼkidlaydi.

Bizningcha, boʻlajak shifokorlarda tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishda maxsus pedagogik shart-sharoitlarni loyihalashtirish shartdir. Mazkur shartlar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- Interpretativ muhokamalarni ragʻbatlantirish maqsadida Tibbiy radiologiya kursiga natijasi aniq boʻlmagan interaktiv keys-senariylarni integrasiya qilish;
- Talabalardan turli diagnostik nuqtai nazarlarni asoslab berish talab qilinadigan strukturalashtirilgan diagnostik debatlar va mashqlardan foydalanish;
- vizual materialni ogʻzaki interpretasiya qilishga doir topshiriqlardan foydalanish, jumladan, «tashxisdan oldin tavsiflash» amaliyotini qoʻllash;
- Bosqichma-bosqich fikr-mulohaza, oʻzaro izoh berish va dialogik baholash formatlari

orqali reflektiv va tezkor nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Tadqiqot davomida pedagogik muloqot faqatgina pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqa vositasi sifatida ko'rib chiqilmaydi. Bunda bo'lajak shifokorning tanqidiy-operativ kommunikasiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi fundamental metodik kategoriya sifatida tadqiq qilinadi. Metodologik muammoni hal etish faqatgina innovatsion dars shakllarini joriy etish, ya'ni o'quv kurslarining mazmunini yangilashdan iborat bo'lmaydi. U pedagogning rolini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bunda u axborot etkazuvchi emas, ta'lim jarayonida kasbiy nutqiy tafakkurni shakllantiruvchi tashkilotchi sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu zamonaviy ta'limdagi konseptual muammoning asosiy nuqtasini ifoda etadi. Buni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiq:

Birinchi, yangi formatdagi darslar vazifa emas, balki vositadir. Innovatsion dars shakllari (keysli o'qitish, PBL, simulyatsiya, debatlar, ssenariylar va boshqalar) metodologik muammoning hal qilinishiga qaratilgan usullardir, biroq maqsad emas. Bugungi kun sharoitida o'qituvchi roli an'anaviy qolipda qoladigan bo'lsa, ya'ni axborot etkazuvchi (ma'ruzachi), topshiriq nazoratchisi, tayyor javob talab qiluvchi inson sifatida harakat qiladigan bo'lsa, unda innovatsion dars shakllari ham talabaning tanqidiy, mustaqil va operativ fikrlashini rivojlantira olmaydi.

Ikkinchi, metodologik muammo shaxslararo pedagogik munosabatlarda yotadi. Ta'limdagi metodologik muammolar, asosan, mazmunni etkazish usulidan, pedagog va talaba o'rtasidagi rollar, munosabatlar va tashabbuslar taqsimotidan kelib chiqadi. Muammo nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, yangi pedagogik paradigmada pedagogning roli quyidagicha qayta ko'rib chiqilishi lozim:

An'anaviy pedagog	Yangi (interaktiv) pedagog
Axborot manbai	Muammoni mushohada qilishga yo'naltiruvchi
Nazorat qiluvchi	Hamkor, faollashtiruvchi, muloqotdosh
Yo'l-yo'riq beruvchi	Qo'llab-quvvatlovchi va reflektiv sherik
Natijaga yo'naltirilgan	Jarayonga, o'sishga yo'naltirilgan

Uchinchi, o'qituvchi – ta'limiy muloqotning arxitektori hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi didaktik ssenariy muallifi, tanqidiy-operativ muloqotni boshlovchi, talabani "fikrlashga undashi" lozim bo'lgan trener, ijtimoiy-kognitiv faoliyat tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritmoqchi lozim.

To'rtinchi, mazmunni yangilash faqat bilimni yangilash, rolni qayta ko'rib chiqish bu metodologik o'zgarishdir.

Ushbu fikrlar o'zining ilmiy asoslariga ega. Jumladan,

Vigotskiyning "faol hamkorlik asosida o'rganish" nazariyasida ta'kidlanishicha, ta'limdagi o'sish pedagog faoliyatiga bog'liq.

J. Bruner ta'limdagi «scaffolding» (intellektual ko'mak va yo'l-yo'riq) metodologiyasida pedagogning rolini tahlil qilib, pedagog dastlab etakchi, keyin esa, talabaning mustaqilligiga yo'l ochuvchi sifatida ta'riflanadi.

E.X. Shulman ta'limda «pedagogik kontent bilimlari» (pedagogical content knowledge) degan tushunchani ilgari surib, pedagog faqat fan bilimni emas, balki talabaning fikrlash jarayonini to'g'ri yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, metodologik muammoni hal etish uchun dars shakllarining yangilanishi etarli emas. Ushbu yangilanishlar talabaning tafakkur faolligini uyg'otishi uchun pedagogning roli — axborot etkazuvchidan, muloqot tashkilotchisi va fikrlashni rag'batlantiruvchi shaxsga aylanishi zarur. Bu – innovatsion o'qitish usullari faoliyatga samara berishi uchun metodologik sharoit hisoblanadi.

Tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish metodik muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda echim topayotgan, lekin to'liq tizimlashmagan holda namoyon bo'lmoqda. Umumiy tendensiya – pedagogik muloqotni qayta shakllantirish, uni sifatli, kognitiv jihatdan yuklangan, tizimli va faol

ishtirokka asoslangan jarayonga aylantirish zarurati bilan bog‘liq. Bu esa, metodik yangilanishni nafaqat dars shakllari, balki pedagog rolining tubdan transformasiyasi orqali amalga oshirishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati (GOST 7.1–2003 bo‘yicha)

1. Buber M. *Ya i Ti*. — M.: Respublika, 1993. — 190 s.
2. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. *Pedagogika: uchebnik dlya stud. uchrejdeniy vissh. prof. obrazovaniya*. — 5-e izd., ster. — M.: Akademiya, 2002. — 512 s.
3. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
4. Harden R.M., Stevenson M., Downie W.W., Wilson G.M. AMEE Guide No. 20: The use of simulated patients in medical education. // *Medical Teacher*. — 1999. — Vol. 21, No. 5. — P. 465–486.
5. Irby D.M. Teaching and learning in ambulatory care settings: A thematic review of the literature. // *Academic Medicine*. — 1995. — Vol. 70, No. 10. — P. 898–931.
6. Xasanova N.A. *Pedagogicheskie usloviya formirovaniya klinicheskogo mishleniya studentov medisinskix vuzov (na primere Uzbekistana): avtoref. dis. ... kand. ped. nauk*. — Tashkent: TDPI, 2021. — 26 s.
7. Vilenskiy N.Ya. *Pedagogika: uchebnik dlya vuzov*. — M.: Akademicheskii proekt, 2012. — 416 s.
8. Shmukler V.E. *Kommunikativnie texnologii v obrazovanii*. — SPb.: Rech, 2011. — 256 s.
9. Harden R.M., Crosby J. AMEE Guide No. 20: The good teacher is more than a lecturer—the twelve roles of the teacher // *Medical Teacher*. — 2000. — Vol. 22, № 4. — P. 334–347.
10. Mamede S., Schmidt H.G., Rikers R.M. Diagnostic errors and reflective practice in medicine // *Journal of Evaluation in Clinical Practice*. — 2007. — Vol. 13, № 1. — P. 138–145.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDA GI DIZARTRIYA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya Hozirgi kunda dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari muammosini o'rganish dolzarbdir, chunki nutq buzilishlarini o'z vaqtida bartaraf yetish bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va keyingi ta'lim uchun muhimdir. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rganish ularni bartaraf yetish va tuzatish usullarini ishlab chiqish uchun zarurdir, bu bolaning muvaffaqiyatli moslashishi va uning shaxsiyatini shakllantirish uchun muhimdir. Nutqning yetarlicha rivojlanmagan holatidagi xususiyatlari B.M. Grinshpun, G.I. Jarenkova, N.S. Jukova, R.E. Levina, Ye.M. Mastyukova, S.A. Mironova, N.A. Nikashina, V.K. Orfinskaya, Ye.F. Sobotovich, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, S.N. Shaxovskaya va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida bayon etilgan. Hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya.

Kalit so'zlar Dizartriya, olimlar, ta'lim, maktabgacha yosh, bola, nuqson, psixologik, tuzatish, psevdobulbar, miya sensomotor, dinamik, statik, murakkab, tovush

Аннотация В настоящее время является актуальным изучение проблемы педагогических и психологических особенностей детей с дизартрией, поскольку своевременное устранение речевых нарушений важно для успешной социализации ребенка и дальнейшего обучения. Изучение педагогических и психологических особенностей детей дошкольного возраста с дизартрией необходимо для разработки методов их устранения и коррекции, что важно для успешной адаптации ребенка и формирования его личности. Особенности речи при недоразвитом состоянии описаны в трудах Б.М. Гриншпуна, Г.И. Жаренковой, Н.С. Жуковой, Р.Е. Левиной, Е.М. Мастюковой, С.А. Мироновой, Н.А. Никашиной, В.К. Орфинской, Е.Ф. Сobotovichа, Т.Б. Филичевой, Г.В. Чиркиной, С.Н. Шаховской и других исследователей. В настоящее время одним из наиболее распространенных речевых нарушений является легкая псевдобульбарная дизартия.

Ключевые слова: Дизартия, учёные, образование, дошкольный возраст, ребёнок, дефект, психологический, коррекция, псевдобульбарный, мозговой сенсомоторный, динамический, статический, сложный, звуковой

Abstract Currently, it is relevant to study the problem of pedagogical and psychological characteristics of children with dysarthria speech disorder, since timely elimination of speech disorders is important for the successful socialization of the child and further education. The study of pedagogical and psychological characteristics of preschool children with dysarthria speech disorder is necessary to develop methods for their elimination and correction, which is important for the successful adaptation of the child and the formation of his personality. The characteristics of speech in an underdeveloped state are described in the works of B.M. Grinshpun, G.I. Zharenkova, N.S. Zhukova, R.E. Levina, Ye.M. Mastyukova, S.A. Mironova, N.A. Nikashina, V.K. Orfinskaya, Ye.F. Sobotovich, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, S.N. Shakhovskaya and other researchers. Currently, one of the most common speech disorders is mild pseudobulbar dysarthria.

Keywords Dysarthria, scientists, education, preschool age, child, defect, psychological, correction, pseudobulbar, brain sensorimotor, dynamic, static, complex, sound

G.V. Gurovets, S.N. Mayevskaya, L.V. Lopatina, N.V. Serebryakova, L.V. Melexova, Ye.F. Sobotovich, A.F. Chernopolskaya, O.A. Tokareva va boshqa mualliflarning tadqiqotlarida

dizartriya serebral-organik genezis sindromi sifatida ta'riflanib, u nevrologik, harakat va nutq buzilishlari shaklida namoyon bo'lishi qayd etiladi. Dizartriya bilan bog'liq asosiy nuqson – bu nutqning tovush talaffuzi va prozodik tomonining buzilishidir.

Ye.N. Vinarskaya va M.B. Eydinova artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiya buzilishidan qolgan holatlar natijasida kelib chiqadigan artikulyatsion harakatlarning yengil yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan talaffuzning kichik buzilishlarining aniqlangan holatlariga ishora qiladilar. Ushbu buzilishlar mualliflar tomonidan dizartrik buzilishlar sifatida tasniflangan.

O.A.Tokareva dizartriyaning yengil shakllarini tasvirlaydi, ular dislaliyadan farqli ravishda ancha yaqqol talaffuz buzilishlariga ega, logopedik ta'sirning uzoqroq davom etishini talab qiladi hamda avtomatlashtirish va farqlash jarayoni qiyin kechadi. I.I.Panchenko artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiyasidagi kichik buzilishlarni tasvirlab, ular yengil spastik parezlarni keltirib chiqarishi va natijada o'ziga xos talaffuz buzilishlariga sabab bo'lishini qayd etadi.

Ye.N.Vinarskaya, M.V.Ippolitova, L.V.Lopatina, Ye.M.Mastyukova, M.B.Eydinova va boshqa tadqiqotchilar yengil darajadagi psevdobulbar dizartriyaning paydo bo'lish sabablari sifatida perinatal, natal va postnatal davrlarda markaziy yoki periferik asab tizimining shikastlanishini ko'rsatadilar.

M.I.Ippolitova va Ye.M.Mastyukova markaziy asab tizimi shikastlanishining belgilari bolalarda hayotining dastlabki oylaridayoq namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Bunday bolalarda vegeto-vistseral buzilishlar, piramidal yetishmovchilik, ortiqcha harakatlanish, sababsiz yig'lash, doimiy uyqu buzilishlari, yig'i kuchining zaifligi, so'rg'ichni so'rishning qiyinligi, emish aktining sustligi, ko'krakdan voz kechish, tomog'idagi havo yo'lga biror narsaning tiqilishi, qusish va tez charchash, keyinchalik esa chaynash va yutish jarayonida qiyinchiliklar kuzatiladi (Ye.M. Mastyukova, K.A. Semyonova).

S.S.Lyapidevskiy, S.N.Shaxovskaya va boshqa mualliflar bolalarda nafas olishning buzilishini ta'kidlaydilar. Psevdobulbar dizartriyaning yengil ko'rinishlarida fonatsiyaga oid buzilishlarning sabablaridan biri nafas olish mushaklarining innervatsiya yetishmovchiligi va ularning tonusining o'zgarishidir. Ikkinchi sabab esa bosh miya po'stlog'i osti va o'rta miyaning nafas olishni boshqarish funksiyalaridagi buzilishlar bo'lib, ular nafas olish ritmi va chuqurligining patologik o'zgarishi hamda artikulyatsiya va nafas olish o'rtasidagi muvofiqlashtirishning buzilishida namoyon bo'ladi (V.A.Kiselyova, A.N.Kornev).

Ko'plab mualliflar bunday bolalarda g'ul-g'ullashning o'ziga xos kechishi, birinchi so'z va iboralarning kechroq paydo bo'lishi, lug'at boyligining sekin kengayishi, uzoq vaqt davomida noaniq talaffuzning saqlanishi ta'kidlaganlar, bu esa ko'pincha yengil nazalizatsiya, fonatsiya va prosodik buzilishlar bilan birga kelishi qayd etilgan (G.V.Gurovets, S.I.Mayevskaya, R.I. Martinova).

L.O.Badalyan, R.A.Belova-David, Ye.N.Vinarskaya, G.V.Gurovets, M.V.Ippolitova, L.V.Lopatina, R.I.Martinova, Ye.M.Mastyukova, L.V.Melexova, Ye.F.Sobotovich, L.B.Xalilova tadqiqotlarida markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari nutq mushaklarining innervatsiyasi buzilishiga, harakat aktining izdan chiqishiga, nutq harakatlarining retseptiv va sensomotor tashkil etishning yetarlicha rivojlanmaganligiga, kinestetik sezgilar yetishmovchiligiga olib kelishi qayd etilgan. Bu esa har qanday harakat aktlarini boshqarishda moslashuvchanlik, xilma-xillik va aniqlikning asosini tashkil etadi. Bunday bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan biroz kechroq buyumlarni ushlab turish va ushlab turish, o'tirish, yurish, bir va ikki oyog'ida sakrash, yugurishni boshlaydilar. Ular odatda somatik jihatdan zaif bo'lib, tez-tez shamollab turadilar (N.P. Ashixmina, G.V. Gurovets, L.P. Petuxova, S.I. Mayevskaya va boshqalar).

Mazkur toifadagi bolalarda og'zaki ko'rsatma bo'yicha murakkab harakatlar ketma-ketligini mustaqil bajarishda alohida qiyinchiliklar yuzaga keladi (G.V. Gurovets, R.I. Martinova, O.A. Tokareva va boshqalar).

Psevdobulbar dizartriyaning diagnostika va korreksiyasiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda

artikulyatsion motorikaning yetarli darajada shakllanmaganligi qo'l kafti va barmoqlarining nozik differensial motorikasi hamda umumiy motorika buzilishlari bilan uyg'un ravishda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Bunda harakatlarning statik va dinamik tashkil etilishi optik-fazoviy koordinatsiyaning buzilishi, harakatlarni tez va ravon takrorlashdagi qiyinchilik yoki imkonsizlik, ortiqcha (fon) harakatlar, perseveratsiyalar va almashtirishlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi (G.V. Gurovets, S.I. Mayevskaya, I.I. Mamaychuk va boshqalar).

G.V.Gurovets, L.V.Lopatina, R.I.Martinova, L.V.Melexova va boshqa tadqiqotchilar psevdobulbar dizartriya holatida artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiya buzilishini til osti nervlari shikastlanishi bilan bog'lashadi. Bu esa til mushaklarida yengil spastiklik (taranglik) yoki paretiklik (bo'shshish) ko'rinishida namoyon bo'lib, tilning yon tomonga, yuqoriga va oldinga harakatlanishining cheklanishiga, til uchining sustligiga, tilning bir tomonidagi zaiflik va shu bilan birga til orqa qismining ortiqcha taranglashuviga, tilni belgilangan holatda ushlab turish chog'ida uning beqarorligiga olib keladi.

Til mushaklarining innervatsiyasining buzilishi artikulyatsion harakatlarning farqlanmasligiga, harakat tezligi oshganda til orqa qismining taranglashishiga, mushaklarning tez charchashiga, koordinatsiya buzilishiga va harakatlarning aniqligi yo'qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, bolalarda sinkineziyalar, turli xil giperkinezlar va gipersalivatsiya kuzatiladi (Ye.M. Mastyukova, 1985; Ye.F. Sobotovitch, A.F. Chernopolskaya, 1975 va boshqalar).

L.O.Badalyan, G.V.Gurovets, Ye.M.Mastyukova, Ye.F.Sobotovitch uch shoxli, til-halqum, sayyor va yuz nervlarining yengil shikastlanishlariga e'tibor qaratib, bu holatlar yumshoq tanglayning qisqarish qobiliyatining yetarli emasligi, tanglayning yengil parezi, burun-lab burmalarining tekislanishi, yonoq mushaklarining zaifligi bilan namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Mimik mushaklarda qoshlarni ko'tarish, ko'zlarni navbatma-navbat qisish, bir tomondan yonoqlarni shishirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yuz va mimik mushaklar hamda artikulyatsion apparat harakatlari yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda tez charchash, sustlik, harakat sifatining pastligi, aniqlik va ravonlikning pasayishi bilan tavsiflanadi, harakatlar yetarli mushak kuchi va hajm bilan bajarilmaydi.

L.V.Lopatina, Ye.F.Sobotovitch, M.B.Eyidinova kinetik-kinestetik sezgilarning yetishmovchiligi nafaqat alohida tovushlarning artikulyatsiyasiga, balki bir tovushdan ikkinchisiga o'tish sifatiga, artikulyatsiya harakatlarining izchil almashinuvi ravonligiga ham ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, teskari kinestetik afferentatsiyaning pasayishi eshitish va ko'rish kabi bevosita nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan turli funksional tizimlarning integratsiyasini sekinlashtirishi mumkin (A.N. Kornev).

L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova, Ye.F.Sobotovitch va boshqalar ushbu toifadagi bolalarda tovush talaffuzi buzilishining polimorfligini ta'kidlaydilar. L.V.Lopatina fonetik-fonematik tomonlarini o'rganish jarayonida fonologik nuqsonlarga nisbatan antropofonik defektlarning ustunligini aniqlagan. Uning fikriga ko'ra, eng ko'p uchraydigan nuqsonlar quyidagilardir: hushtak va shovqinli tovushlar hamda [r] tovushining yon talaffuzi, old til tovushlarining tish orasidan aytilishi, til orqasining o'rta qismi spastik zo'riqishi natijasida barcha tovush guruhlarining yumshoq talaffuzi, murakkab tovushlarning artikulyatsiya jihatdan soddaroq variantlar bilan almashtirilishi, affrikatlarning tarkibiy qismlarga bo'linishi yoki ularning tor variant bilan almashtirilishi. Mualliflar nuqsonli tovushlar faqat artikulyatsiyali murakkablik bilan emas, balki akustik yaqinlik bilan ham belgilanishini qayd etadilar.

Shunday qilib, yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya sharoitida tovush talaffuzining polimorf buzilishlari va teskari kinestetik afferentatsiyaning pasayishi nutq-eshtitish analizatori faoliyatining pasayishiga hamda fonematik eshitishning ikkilamchi yetarlicha rivojlanmaganligiga olib keladi (L.V.Bondarko, L.A.Verbitskaya, L.R.Zinder, R.Ye.Levina, L.V.Lopatina, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina va boshqalar). Uning yetarli darajada rivojlanmaganligi ba'zi bolalarda o'zlari u yoki bu tovushlarni qanday talaffuz qilishlarini sezmaslik, biroq boshqa odamlarning nutqida noto'g'ri

talaffuzni payqash kabi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin (R.I. Martinova, Ye.F. Sobotovich, A.F. Chernopolskaya va boshqalar).

So'zlarning eshitish va kinestetik obrazini noaniq idrok etish morfologik o'zgarishlarga e'tibor qaratishni pasaytiradi (bu o'zgarishlarning shakllanishi ularning tovush tarkibidagi qo'shimchalarni taqqoslash bilan chambarchas bog'liq), shuningdek, so'zlarning grammatik shakllarini farqlashda qiyinchiliklar tug'diradi (G.V. Gurovets, S.I. Mayevskaya, 1978; L.V. Lopatina, N.V. Serebryakova, R.I. Martinova, L.V. Melexova, M.B. Eydinova va boshqalar). Yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning grammatik tuzilishining buzilishlari turlicha va o'zgaruvchan bo'lib, morfologik va sintaktik tizimning yengil shakllanmaganligidan tortib, ekspressiv nutqdagi sezilarli aggrammatizmga ega bo'lgan holatlar kuzatiladi (L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova). Bola uchun fleksiylar aniq ma'noga ega bo'lmagan, doimiy o'zgarib turuvchi muhit bo'lib, fiziologik jihatdan zaif nutqiy qo'zg'atuvchi hisoblanadi va shuning uchun uzoq vaqt davomida ular tomonidan idrok etilmaydi (O.M.Vershinina, O.Ye.Gribova, V.A.Kovshikov, S.A.Mironova, T.V.Tumanova). Shu sababli, ushbu toifadagi bolalar uchun grammatik shakllarni analogiya asosida shakllantirish, ya'ni "aytib beruvchi" so'z namunasi bilan foydalanish qiyinchilik tug'diradi. Shu bois, bir xil sintaktik konstruksiyalarning grammatik jihatdan shakllanishida barqarorlik kuzatilmaydi. Ayniqsa, grammatik ma'noni o'zlashtirish, so'z yasash, o'zakdosh so'zlarni tanlash kabi topshiriqlar katta qiyinchilik tug'diradi (R.A.Belova-David, R.I.Martinova, L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования [Текст]: учеб.пособие для пед.вузов/ В.И.Загвязинский; под редакцией Атаханова Р. - М.:Академия, 2001. - 208 б.
2. Серпенина, Н. В. Использование многофункциональных игр в преодолении общего недоразвития речи дошкольников / Н. В. Серпенина, С. В. Миронова // Логопед. - 2008. - № 6. - С. 59-65.
3. Психология детства: учебник / под редакцией члена-корр. РАО А.А. Реана. - СПб.: прайм-ЕВРО-ЗНАК, 2003. - 368 б.
4. Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования [Текст]: учеб.пособие для пед.вузов/ В.И.Загвязинский; под редакцией Атаханова Р. - М.:Академия, 2001. - 208 б.
5. Психология детства: учебник / под редакцией члена-корр. РАО А.А. Реана. - СПб.: прайм-ЕВРО-ЗНАК, 2003. - 368 б.
6. Психологический словарь /авт.-сост. В Н. Колорулина [и др.]; под общей ред. К. Л. Неймера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. - 640 б.
7. Семенович, А.В. Нейропсихологическая диагностика и коррекция в детском возрасте: учеб, пособие для вузов / А.В. Семенович - М.: Ака-демия, 2002. - 229 б.
8. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь: учеб-ное пособие / сост. Н. В. Новоторцева. - 4-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Каро, 2006.-144 б.
9. Бочарова, С.П. Принципы системного подхода к изучению мнемиче- ских процессов - Режим доступа: <http://www.psychology-online.net/articles/doc-1392.html>.
10. Психоллингвистика : учебник для вузов / под ред. Т.Н. Ушаковой. - М..ПЕРСЭ, 2006.-416 б.

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

*Tangirbergenova Mexriban Ko'shkinbaevna,
Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ilmiy izlanishda ta'lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning mustaqil izlanish ko'nikmalari, yangicha yondashuv va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik jarayonda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan mexanizm talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida bilim olish, bilimlarni amaliyotda tatbiq etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va innovatsion tafakkurini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Mustaqil ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, innovatsion kompetentlik, pedagogik mexanizm, raqamli ta'lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, kasbiy tayyorgarlik.

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni (2020 yil 6 noyabr)da ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham raqamli ta'lim platformalarini joriy etish, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini oshirish va mustaqil bilim olish jarayonlarini rag'batlantirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, Prezidentning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonida barcha sohalar qatori ta'lim tizimini raqamlashtirish, yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning innovatsion kompetentligini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Chunki innovatsion kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llay oladi, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Avvalo, mahalliy tadqiqotchilardan G.R. Akramova, B.Yuldasheva, N.Ibragimova kabi olimlar mustaqil ta'limning o'quvchi shaxsiy salohiyatini ochishdagi ahamiyati, raqamli muhitda talabalarning ijodiy va kreativ fikrlashini shakllantirish yo'llari haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularda mustaqil ta'limning innovatsion jarayonlar bilan uyg'unligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'kidlangan.

Xorijiy mualliflar tadqiqotlarida esa "innovative competence" tushunchasi keng yoritilgan. Jumladan, J. Fullan (2015), M. Kozma (2018), va A. Schleicher (OECD, 2020) o'z asarlarida innovatsion kompetentlikni XXI asr o'qituvchisining asosiy kasbiy sifatlaridan biri sifatida

belgilaydi. Ular ta'lim tizimida mustaqil ta'lim, interaktiv texnologiyalar va raqamli platformalarni joriy etish orqali talabalarda yangicha yondashuv, kreativ tafakkur va kollaborativ ko'nikmalar rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Bundan tashqari, V.A. Slastyonin, L.S. Vygotskiy va D.B. Elkonin kabi klassik pedagog-olimlar mustaqil ta'limning shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishdagi o'rnini nazariy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi talabalarning mustaqil izlanish va innovatsion fikrlash jarayonlariga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va zamonaviy innovatsion vositalardan foydalanish haqida YuNESKO va YUNISEFning so'nggi yillardagi tavsiyalarida ham talabalarning mustaqil ta'lim orqali innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida innovatsion kompetentlikni rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan o'ta dolzarb yo'nalish hisoblanadi va bu masala milliy hamda xalqaro tadqiqotlarda yechimini izlayotgan pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Innovatsion kompetentlik o'qituvchining faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki yangi g'oyalarni izlash, yangicha yondashuvlarni tatbiq etish, raqamli vositalar va pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay olish salohiyatini qamrab oladi.

Bir tomondan, mustaqil ta'lim jarayonida talabalar o'zlarining individual qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq bilimlarni izlash, tahlil qilish va qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlash, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarda optimal yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ikkinchi tomondan, ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, innovatsion kompetentlikning rivojlanishi uchun ta'lim jarayonida pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi zarur. Jumladan, ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish, interaktiv metodlardan foydalanish va talabalarda mustaqil izlanish motivatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Prezident farmonlari va davlat strategiyalarida belgilangan vazifalarga muvofiq, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki mamlakatimizda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini ham jadallashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda taklif etilgan mustaqil ta'lim orqali innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi pedagogik amaliyotda samarali bo'lishi mumkin. Uning asosiy afzalliklari – talabalarning mustaqil izlanishini qo'llab-quvvatlash, innovatsion tafakkurini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Xulosa. Tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish pedagogik amaliyotning dolzarb yo'nalishi ekanini ko'rsatdi. Innovatsion kompetentlik o'qituvchi shaxsining ijodiy fikrlashi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga tayyorligi va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay olish salohiyatini namoyon qiladi.

Prezident farmonlari va davlat dasturlarida belgilangan vazifalar mustaqil ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning samarasi, avvalo, talabalarda mustaqil izlanish, innovatsion yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni pedagogik jarayonga joriy etishga bog'liq.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirish maqsadida:

- mustaqil ta'lim jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- talabalarning kreativ fikrlash va innovatsion faoliyatga intilishini rag'batlantirish;

- pedagogik jarayonda interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni keng qo'llash;
- o'quv muhitini innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan platforma sifatida tashkil etish tavsiya etiladi.

Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2020 yil 6 noyabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2020 yil 5 oktyabr).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2015.
5. Kozma R. Transforming Education: Assessing and Teaching 21st Century Skills. – Springer, 2018.
6. Schleicher A. The Future of Education and Skills: OECD Education 2030. – Paris: OECD, 2020.
7. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 1991.
8. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Shiyanov Ye.N. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2010.
9. Akramova G.R. Raqamli ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar. – Buxoro: BuxDPI nashriyoti, 2021.

O'SMIRLARNING KOMPOZITSION-OBRAZLI TAFAKKURINI TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sayfullayeva Barno

Qarshi Davlat Universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Rangtasvir va Amaliy san'at kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini tasviriy san'at vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. O'quvchilarning obrazli va ijodiy tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at darslarining o'rni, metodik yondashuvlar va samarali pedagogik usullar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali o'smirlarning estetik didi, ijodiy fikrlashi va kompozitsion qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy usullar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida pedagogik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlar, kompozitsion tafakkur, obrazli fikrlash, tasviriy san'at, ijodiy rivojlanish, metodika, estetik tarbiya, pedagogik yondashuv.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMPOSITIONAL-FIGURATIVE THINKING OF ADOLESCENTS THROUGH VISUAL ARTS

Sayfullayeva Barno

Karshi State University, Faculty of Arts, Teacher of the Department of Painting and Applied Arts

Annotation: This article explores the theoretical and practical foundations of developing adolescents' compositional and imaginative thinking through visual arts education. The study highlights the importance of visual art classes in fostering students' creative expression, aesthetic perception, and ability to build artistic compositions. Methodical approaches and pedagogical techniques aimed at enhancing students' cognitive and emotional engagement with artistic tasks are analyzed. Based on experimental observations, the article provides practical recommendations for educators to effectively develop adolescents' compositional and figurative thinking.

Keywords: Adolescents, compositional thinking, figurative thinking, visual arts, creative development, methodology, aesthetic education, pedagogical approach.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОМПОЗИЦИОННО-ОБРАЗНОГО МЫШЛЕНИЯ ПОДРОСТКОВ СРЕДСТВАМИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Сайфуллаева Барно

Каршинский государственный университет, факультет искусствоведения, Преподаватель кафедры живописи и прикладного искусства

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития композиционно-образного мышления подростков с помощью изобразительного искусства. Особое внимание уделяется роли уроков изобразительного искусства в формировании у учащихся эстетического вкуса, творческого мышления и способности выражать идеи через художественные образы. Анализируются методические подходы и педагогические приемы, способствующие активизации образного мышления у подростков. На основе экспериментальных наблюдений представлены практические рекомендации для учителей по эффективному развитию художественного мышления учащихся.

Ключевые слова: Подростки, композиционное мышление, образное мышление, изобразительное искусство, творческое развитие, методика, эстетическое воспитание, педагогический подход.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bunda ijodiy fikrlash, estetik did va obrazli tafakkurni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'sish va shakllanish davrida bo'lgan o'smirlar tafakkurining estetik yo'nalishda rivojlanishi ularning kelgusidagi ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda tasviriy san'at vositalari keng imkoniyatlar yaratadi. Rassomlik, grafika, haykaltaroshlik kabi san'at turlarida obrazlar orqali fikr ifodasi o'smirlarning kompozitsion va obrazli tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Kompozitsion-obrazli tafakkur bu - o'quvchilarning tasavvurlarida badiiy obrazlarni shakllantira olish, ularni kompozitsion tuzilmalarda ifodalash va mazmunli g'oyalarni estetik usullar bilan yetkazish qobiliyatidir. O'smirlar davri - bu tafakkurda mavhumlik va obrazlilik unsurlarining faollashuv bosqichi bo'lib, aynan shu davrda badiiy-estetik tarbiya orqali ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltirish muhimdir. Mazkur maqolada o'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini tasviriy san'at vositasida rivojlantirishning metodik asoslari, didaktik yondashuvlari hamda samarali pedagogik usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavzu doirasida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish va ularni mustaqil badiiy fikrlashga o'rgatish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. O'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogika, balki psixologiya, san'atshunoslik va didaktika sohalarida ham keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ilg'or tajribalar va nazariy manbalar tahlili, bu sohadagi asosiy yondashuvlar va uslublarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil etilgan adabiyotlar orasida Vygotskiy, Piaget, Galperin, Elkonin kabi psixologlarning tafakkur, ijodkorlik va obrazli fikrlashga oid ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishda didaktik yondashuvlarni asoslashda foydalidir.

Tasviriy san'atga oid adabiy manbalar — E. Deyneka, K. Malevich, P. Kabanov, G. Sidorov singari rassomlar va san'atshunoslarning ishlari o'quvchilarga obraz yaratish, kompozitsiyani tashkil etish, rang va shakl uyg'unligini tushuntirishda amaliy asos sifatida foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekistonlik olimlar — M. Jo'rayev, Z. Yusupova, R. Rasulov kabi mutaxassislarning tasviriy san'at ta'limiga oid ishlari milliy tajribaning dolzarb jihatlarini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasiga kelsak, ushbu maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil – mavzu doirasida mavjud ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish va ularni tahlil qilish; Empirik kuzatuv – o'quvchilarning tasviriy faoliyatini bevosita kuzatish orqali obrazli tafakkurning rivojlanish jarayonini baholash; Eksperiment – ilg'or metodikalarni sinovdan o'tkazish, o'quvchilarning ijodiy ishlari orqali natijalarni aniqlash; Suhbat va so'rovnomalar – o'quvchilarning o'z fikrini ifodalash darajasi va obrazli tasavvurini aniqlash; Taqqoslash va umumlashtirish – olingan natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirib, xulosalar chiqarish.

Tadqiqot davomida o'smirlarning tasviriy san'at orqali obrazli tafakkurini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar tizimlashtirildi, shuningdek, ular bilan ishlashda qo'llaniladigan amaliy topshiriqlar namunasi ishlab chiqildi. Bu esa, mavzuni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga zamin yaratdi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot davomida o'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini rivojlantirishda tasviriy san'at vositalarining samaradorligi amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Kuzatishlar, eksperimentlar va suhbatlar asosida aniqlanishicha, tasviriy san'at darslari faqat badiiy ko'nikmalarni emas, balki obrazli va mantiqiy fikrlashni, muammoli vaziyatlarni hal qilish malakasini ham shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida quyidagi asosiy holatlar kuzatildi: Obrazli tafakkur o'ziga xos tarzda rivojlanadi. O'smirlar obrazlar orqali atrof-muhitga munosabat bildirishga intiladi. To'g'ri yo'naltirilgan topshiriqlar orqali ularning estetik hissiyoti va ijodiy tasavvuri faollashadi.

Kompozitsion tafakkur muayyan metodik yondashuvni talab qiladi. Rassomlik faoliyatida kompozitsiya tuzish o'quvchilardan makon, hajm, nisbat, muvozanat va dinamika kabi elementlarni ongli ravishda idrok etishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida mantiqiy fikrlash bilan uzviy bog'liq.

Tasviriy san'at darslarida obrazli tafakkurni shakllantirishga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, obrazli tafakkur nafaqat tasavvur qilish va kreativ fikrlashni, balki o'quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu metodlarning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning o'zlarini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi, ularga ijodiy va estetik fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi. Obrazli tafakkur – bu insonning atrof-muhitni, hodisalarni, narsalarni va tushunchalarni ongida tasavvur qilish, ya'ni ularni ko'z oldiga keltirib, xayoliy tasvirlar shaklida tasavvur qilish qobiliyatidir. Bu turdagi tafakkur, asosida, tashqi dunyo bilan aloqada bo'lib, uning ko'rinishlarini, xususiyatlarini va ichki bog'liqligini xayol va tasavvurlar orqali idrok etishdan iboratdir. Obrazli tafakkur – bu ma'lumotlarni qabul qilishning faqat ongli va aqliy ko'rinishi bo'lib, u ko'pincha his-tuyg'ular, xotira va tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. U insonning o'tgan tajribalariga asoslanib, real dunyoni yoki hayoliy obrazlarni qayta tiklash imkonini beradi. Masalan, inson hayolida tasvirni yaratishi yoki o'tgan voqealarni xotirasi yordamida eslab, kelajakdagi ehtimoliy hodisalarni bashorat qilish mumkin. Obrazli tafakkur orqali inson o'ziga kerakli ma'lumotni, tasvirni, tushunchani xayolda yaratadi va shu orqali uni tahlil qiladi. Masalan, tasviriy san'atda rassom tasvirni yaratishda, yoki musiqa o'qitishda talaba ijodkorlikni namoyon qilayotganda obrazli tafakkurdan foydalanadi. Obrazli tafakkur bolaning ilk yillaridan boshlanadi va ularning rivojlanish jarayonida o'zgaradi. Yosh bolalar birinchi navbatda, tashqi dunyoni idrok etishda, tasavvurlarni yaratishda asosiy vosita sifatida vizual (ko'rish), eshitish va boshqa sezgi organlaridan foydalanadilar. Bu jarayonda bola bir narsaning tasvirini yaratishi mumkin, masalan, o'yinchoqning shakli, ranglari yoki tovushini tasavvur qilish. Biroq, obrazli tafakkurning chuqurroq shakli o'quvchi o'zining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantira boshlaganda shakllanadi. O'quvchi, musiqiy asarlarni yoki tasvirlarni nafaqat ko'rish, balki ular orqali qandaydir bir ma'no, hissiyot yoki g'oya yaratishni boshlaydi. Bu jarayon ayniqsa tasviriy san'at darslarida, musiqa darslarida va boshqa ijodiy faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Obrazli tafakkur bir nechta turga bo'linadi, ular quyidagilardir: • Vizual obrazli tafakkur: Bu turdagi tafakkur tasvirlarni, ranglarni va shakllarni ko'rish orqali amalga oshiriladi. Masalan, rassom biror ob'ektni yoki manzarani tasvirlashda uni ko'z oldida xayolida yaratadi. • Auditiv obrazli tafakkur: Musiqa va tovushlarni tasavvur qilish orqali amalga oshiriladi. Musiqa asarlarini eshitish orqali inson o'zi yangi kompozitsiyalar yoki melodiylarni xayolida yaratishi mumkin. • Kinestetik obrazli tafakkur: Bu turdagi tafakkur jismoniy harakatlar va tuyg'ularni tasavvur qilishga asoslangan. Masalan, sportchilar o'zlarining muvaffaqiyatli harakatlarini tasavvur qilishlari mumkin. Obrazli tafakkur – psixologik jarayon bo'lib, u insonning o'rganish va eslab qolish, ijodkorlik va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Psixologlar obrazli tafakkurni insonning fikrlash jarayonlarining ajralmas qismi deb hisoblashadi, chunki bu jarayon orqali odamlar o'zgacha fikrlar, qarorlar va yechimlarni topadilar. Xotira orqali inson o'zi oldin ko'rgan yoki eshitgan narsalarni, tasvirlarni, voqealarni qayta tiklaydi va ularga yangi ma'no berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu xususiyat obrazli tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Obrazli tafakkur ijodiy jarayonlarda, masalan, san'at va ilmiy ishlarda muhim rol o'ynaydi. Insonlar tasavvur qilib, yangi obrazlar yaratib, ilgari hech kim ko'rmagan yoki o'ylamagan g'oyalar va fikrlarni keltirib chiqaradilar. Obrazli tafakkur ta'limda muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar, ayniqsa tasviriy san'at va musiqa sohaslarida, o'quvchilarga tasvirlarni va obrazlarni yaratish, boshqalarga ta'sir qilish orqali fikrlash va idrok etishning yangi usullarini o'rgatishlari zarur.

Obrazli tafakkur - bu insonning nafaqat tashqi dunyoni, balki ichki dunyosini ham tasavvur qilish va o'zgartirish imkoniyatidir. Bu turdagi tafakkur ko'plab sohalarda, jumladan, san'atda,

ta'limda, ilm-fanda va kundalik hayotda muhim o'rin tutadi. Obrazli tafakkur o'quvchilarning ijodiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi, ular yangi g'oyalar yaratish, qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishda samarali yondashuvlarga ega bo'ladilar. Obrazli tafakkur va tasviriy san'at o'rtasida chuqur bog'liqlik mavjud. Obrazli tafakkur insonning tashqi dunyoni tasavvur qilish va idrok etish qobiliyatiga asoslangan bo'lib, tasviriy san'at esa bu tasavvurlarni vizual obrazlar orqali ifodalashni ta'minlaydi. Bu ikki soha o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda obrazli tafakkurning san'atdagi o'rni va uning ijodiy jarayonlar bilan aloqasini o'rganish zarur. Obrazli tafakkur, asosan, insonning ongida tasvirlarni, shakllarni, ranglarni, harakatlarni va boshqa sezgilarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Tasviriy san'atda esa bu tasvirlar va obrazlar materiallashtiriladi - ya'ni, rassom o'z tasavvuridagi obrazni qog'ozga, kanvasga yoki boshqa san'at asariga ko'chiradi. Bu jarayon obrazli tafakkurning tasviriy san'at orqali tashqi dunyoda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Tasviriy san'atdagi har bir asar o'zida bir nechta tasavvurlarni, obrazlarni va hissiyotlarni aks ettiradi. Rassomning ijodiy jarayoni uning obrazli tafakkurini qanday ishlatishini ko'rsatadi: u biror ob'ekt yoki manzarani o'z xayolida tasavvur qilib, uni o'zgacha tarzda - ranglar, shakllar va kompozitsiyalar orqali ifodalaydi. Bu tasavvur, insonning ichki dunyosini, hissiyotlarini, fikrlarini tashqi dunyoga chiqarishning bir usulidir.

Darsda interfaol metodlardan foydalanish natijadorlikni oshiradi. Jamoaviy ish, loyiha metodi, vizual analiz va "ijodiy laboratoriya" uslublari orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil ifodalashni va himoya qilishni o'rganadi. Tasviriy san'at orqali o'quvchilarning shaxsiy jihatlari rivojlanadi. O'smirlarning mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, o'z g'oyalarini estetik ifodalashga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Amaliy sinov darslari asosida quyidagi natijalarga erishildi: Obrazli tafakkur darajasi sezilarli ravishda oshdi. O'quvchilarning chizgan ishlari tahlil qilinib, ularda kompozitsion tuzilma, g'oya, mazmun va estetik ifoda sifatlarining yaxshilanganligi kuzatildi. Ijodiy faollik kuchaydi. Darslarga qiziqish ortdi, o'quvchilar mustaqil tarzda mavzularni tanlash va ularni badiiy ifodalashga harakat qilishdi. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar rivojlandi. Guruhda ishlash, o'z fikrini bayon etish, boshqalarning ishini tahlil qilish orqali o'smirlarning ijtimoiy muloqot ko'nikmalari mustahkamlandi. Metodik tavsiyalar samaradorligi isbotlandi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar – bosqichma-bosqich izohli dars rejasi, vizual materiallardan foydalanish, ijodiy topshiriqlar tizimi – o'zini oqladi va amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etildi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar va amaliy kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Kompozitsion-obrazli tafakkur o'smirlik davrida faol shakllanadigan muhim kognitiv jarayon bo'lib, uni tasviriy san'at vositasida rivojlantirish samarali natijalar beradi. San'at orqali obraz yaratish, uni kompozitsion muhitda ifodalash o'quvchilarning ijodiy salohiyatini, estetik didini va tafakkur doirasini kengaytiradi. Tasviriy san'at darslarida metodik yondashuvlarning ilmiy asosda tashkil etilishi – ya'ni bosqichma-bosqich rivojlantirish, interfaol metodlardan foydalanish, vizual materiallar bilan ishlash – obrazli fikrlashni ongli va izchil shakllantirish imkonini beradi. Tajribasino'v ishlari shuni ko'rsatdiki, kompozitsion va obrazli tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat san'at sohasidagi ko'nikmalarini, balki umumiy tafakkur darajasini, muammoli vaziyatlarda yo'l topish qobiliyatini ham oshiradi. Ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, o'smirlarni mustaqil qaror qabul qilishga, o'z fikrini estetik vositalar orqali ifodalashga, ijtimoiy muloqotga va tanqidiy tahlilga tayyorlaydi. Bu esa ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etishda, ayniqsa, obrazli tafakkurga oid kompetensiyalarni shakllantirishda qo'llanishi mumkin.

Shunday qilib, o'smirlarning kompozitsion-obrazli tafakkurini rivojlantirishda tasviriy san'at nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. Vygotskiy, L.S. (1978). O'quv faoliyati va rivojlanish. Moskva: Pedagogika.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
3. Galperin, P.Ya. (1967). Metodologiya i metody psixologicheskikh issledovaniy. Moskva: Nauka.
4. Elkonin, D.B. (1989). Razvitie psikhiki rebenka. Moskva: Prosveshchenie.
5. Jo'rayev, M. (2015). Tasviriy san'at ta'limi metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
6. Yusupova, Z. (2018). Badiiy tafakkur va ijodiylikni rivojlantirish. Toshkent: Fan.
7. Rasulov, R. (2020). Tasviriy san'atda kompozitsion tuzilmalar. Toshkent: San'at.
8. Malevich, K. (1915). Suprematism. Moscow: Iskusstvo.
9. Kabanov, P. (2002). Badiiy tasvirlash asoslari. Moskva: Akademiya.
10. Sidorov, G. (2010). San'atshunoslik va didaktika. Moskva: Nauka.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDA GI DIZARTRIYA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya Hozirgi kunda dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari muammosini o'rganish dolzarbdir, chunki nutq buzilishlarini o'z vaqtida bartaraf yetish bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va keyingi ta'lim uchun muhimdir. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rganish ularni bartaraf yetish va tuzatish usullarini ishlab chiqish uchun zarurdir, bu bolaning muvaffaqiyatli moslashishi va uning shaxsiyatini shakllantirish uchun muhimdir. Nutqning yetarlicha rivojlanmagan holatidagi xususiyatlari B.M. Grinshpun, G.I. Jarenkova, N.S. Jukova, R.E. Levina, Ye.M. Mastjukova, S.A. Mironova, N.A. Nikashina, V.K. Orfinskaya, Ye.F. Sobotovich, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, S.N. Shaxovskaya va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida bayon etilgan. Hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya.

Kalit so'zlar Dizartriya, olimlar, ta'lim, maktabgacha yosh, bola, nuqson, psixologik, tuzatish, psevdobulbar, miya sensomotor, dinamik, statik, murakkab, tovush

Аннотация В настоящее время является актуальным изучение проблемы педагогических и психологических особенностей детей с дизартрией, поскольку своевременное устранение речевых нарушений важно для успешной социализации ребенка и дальнейшего обучения. Изучение педагогических и психологических особенностей детей дошкольного возраста с дизартрией необходимо для разработки методов их устранения и коррекции, что важно для успешной адаптации ребенка и формирования его личности. Особенности речи при недоразвитом состоянии описаны в трудах Б.М. Гриншпуна, Г.И. Жаренковой, Н.С. Жуковой, Р.Е. Левиной, Е.М. Мастюковой, С.А. Мироновой, Н.А. Никашиной, В.К. Орфинской, Е.Ф. Сobotovichа, Т.Б. Филичевой, Г.В. Чиркиной, С.Н. Шаховской и других исследователей. В настоящее время одним из наиболее распространенных речевых нарушений является легкая псевдобульбарная дизартия.

Ключевые слова: Дизартия, учёные, образование, дошкольный возраст, ребёнок, дефект, психологический, коррекция, псевдобульбарный, мозговой сенсомоторный, динамический, статический, сложный, звуковой

Abstract Currently, it is relevant to study the problem of pedagogical and psychological characteristics of children with dysarthria speech disorder, since timely elimination of speech disorders is important for the successful socialization of the child and further education. The study of pedagogical and psychological characteristics of preschool children with dysarthria speech disorder is necessary to develop methods for their elimination and correction, which is important for the successful adaptation of the child and the formation of his personality. The characteristics of speech in an underdeveloped state are described in the works of B.M. Grinshpun, G.I. Zharenkova, N.S. Zhukova, R.E. Levina, Ye.M. Mastjukova, S.A. Mironova, N.A. Nikashina, V.K. Orfinskaya, Ye.F. Sobotovich, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, S.N. Shakhovskaya and other researchers. Currently, one of the most common speech disorders is mild pseudobulbar dysarthria.

Keywords Dysarthria, scientists, education, preschool age, child, defect, psychological, correction, pseudobulbar, brain sensorimotor, dynamic, static, complex, sound

G.V. Gurovets, S.N. Mayevskaya, L.V. Lopatina, N.V. Serebryakova, L.V. Melexova, Ye.F. Sobotovich, A.F. Chernopolskaya, O.A. Tokareva va boshqa mualliflarning tadqiqotlarida

dizartriya serebral-organik genezis sindromi sifatida ta'riflanib, u nevrologik, harakat va nutq buzilishlari shaklida namoyon bo'lishi qayd etiladi. Dizartriya bilan bog'liq asosiy nuqson – bu nutqning tovush talaffuzi va prozodik tomonining buzilishidir.

Ye.N. Vinarskaya va M.B. Eydinova artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiya buzilishidan qolgan holatlar natijasida kelib chiqadigan artikulyatsion harakatlarning yengil yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan talaffuzning kichik buzilishlarining aniqlangan holatlariga ishora qiladilar. Ushbu buzilishlar mualliflar tomonidan dizartrik buzilishlar sifatida tasniflangan.

O.A.Tokareva dizartriyaning yengil shakllarini tasvirlaydi, ular dislaliyadan farqli ravishda ancha yaqqol talaffuz buzilishlariga ega, logopedik ta'sirning uzoqroq davom etishini talab qiladi hamda avtomatlashtirish va farqlash jarayoni qiyin kechadi. I.I.Panchenko artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiyasidagi kichik buzilishlarni tasvirlab, ular yengil spastik parezlarni keltirib chiqarishi va natijada o'ziga xos talaffuz buzilishlariga sabab bo'lishini qayd etadi.

Ye.N.Vinarskaya, M.V.Ippolitova, L.V.Lopatina, Ye.M.Mastyukova, M.B.Eydinova va boshqa tadqiqotchilar yengil darajadagi psevdobulbar dizartriyaning paydo bo'lish sabablari sifatida perinatal, natal va postnatal davrlarda markaziy yoki periferik asab tizimining shikastlanishini ko'rsatadilar.

M.I.Ippolitova va Ye.M.Mastyukova markaziy asab tizimi shikastlanishining belgilari bolalarda hayotining dastlabki oylaridayoq namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Bunday bolalarda vegeto-vistseral buzilishlar, piramidal yetishmovchilik, ortiqcha harakatlanish, sababsiz yig'lash, doimiy uyqu buzilishlari, yig'i kuchining zaifligi, so'rg'ichni so'rishning qiyinligi, emish aktining sustligi, ko'krakdan voz kechish, tomog'idagi havo yo'lga biror narsaning tiqilishi, qusish va tez charchash, keyinchalik esa chaynash va yutish jarayonida qiyinchiliklar kuzatiladi (Ye.M. Mastyukova, K.A. Semyonova).

S.S.Lyapidevskiy, S.N.Shaxovskaya va boshqa mualliflar bolalarda nafas olishning buzilishini ta'kidlaydilar. Psevdobulbar dizartriyaning yengil ko'rinishlarida fonatsiyaga oid buzilishlarning sabablaridan biri nafas olish mushaklarining innervatsiya yetishmovchiligi va ularning tonusining o'zgarishidir. Ikkinchi sabab esa bosh miya po'stlog'i osti va o'rta miyaning nafas olishni boshqarish funksiyalaridagi buzilishlar bo'lib, ular nafas olish ritmi va chuqurligining patologik o'zgarishi hamda artikulyatsiya va nafas olish o'rtasidagi muvofiqashtirishning buzilishida namoyon bo'ladi (V.A.Kiselyova, A.N.Kornev).

Ko'plab mualliflar bunday bolalarda g'ul-g'ullashning o'ziga xos kechishi, birinchi so'z va iboralarning kechroq paydo bo'lishi, lug'at boyligining sekin kengayishi, uzoq vaqt davomida noaniq talaffuzning saqlanishi ta'kidlaganlar, bu esa ko'pincha yengil nazalizatsiya, fonatsiya va prosodik buzilishlar bilan birga kelishi qayd etilgan (G.V.Gurovets, S.I.Mayevskaya, R.I. Martinova).

L.O.Badalyan, R.A.Belova-David, Ye.N.Vinarskaya, G.V.Gurovets, M.V.Ippolitova, L.V.Lopatina, R.I.Martinova, Ye.M.Mastyukova, L.V.Melexova, Ye.F.Sobotovich, L.B.Xalilova tadqiqotlarida markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari nutq mushaklarining innervatsiyasi buzilishiga, harakat aktining izdan chiqishiga, nutq harakatlarining retseptiv va sensomotor tashkil etishning yetarlicha rivojlanmaganligiga, kinestetik sezgilar yetishmovchiligiga olib kelishi qayd etilgan. Bu esa har qanday harakat aktlarini boshqarishda moslashuvchanlik, xilma-xillik va aniqlikning asosini tashkil etadi. Bunday bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan biroz kechroq buyumlarni ushlab turish va ushlab turish, o'tirish, yurish, bir va ikki oyog'ida sakrash, yugurishni boshlaydilar. Ular odatda somatik jihatdan zaif bo'lib, tez-tez shamollab turadilar (N.P. Ashixmina, G.V. Gurovets, L.P. Petuxova, S.I. Mayevskaya va boshqalar).

Mazkur toifadagi bolalarda og'zaki ko'rsatma bo'yicha murakkab harakatlar ketma-ketligini mustaqil bajarishda alohida qiyinchiliklar yuzaga keladi (G.V. Gurovets, R.I. Martinova, O.A. Tokareva va boshqalar).

Psevdobulbar dizartriyaning diagnostika va korreksiyasiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda

artikulyatsion motorikaning yetarli darajada shakllanmaganligi qo'l kafti va barmoqlarining nozik differensial motorikasi hamda umumiy motorika buzilishlari bilan uyg'un ravishda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Bunda harakatlarning statik va dinamik tashkil etilishi optik-fazoviy koordinatsiyaning buzilishi, harakatlarni tez va ravon takrorlashdagi qiyinchilik yoki imkonsizlik, ortiqcha (fon) harakatlar, perseveratsiyalar va almashtirishlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi (G.V. Gurovets, S.I. Mayevskaya, I.I. Mamaychuk va boshqalar).

G.V.Gurovets, L.V.Lopatina, R.I.Martinova, L.V.Melexova va boshqa tadqiqotchilar psevdobulbar dizartriya holatida artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiya buzilishini til osti nervlari shikastlanishi bilan bog'lashadi. Bu esa til mushaklarida yengil spastiklik (taranglik) yoki paretiklik (bo'shshish) ko'rinishida namoyon bo'lib, tilning yon tomonga, yuqoriga va oldinga harakatlanishining cheklanishiga, til uchining sustligiga, tilning bir tomonidagi zaiflik va shu bilan birga til orqa qismining ortiqcha taranglashuviga, tilni belgilangan holatda ushlab turish chog'ida uning beqarorligiga olib keladi.

Til mushaklarining innervatsiyasining buzilishi artikulyatsion harakatlarning farqlanmasligiga, harakat tezligi oshganda til orqa qismining taranglashishiga, mushaklarning tez charchashiga, koordinatsiya buzilishiga va harakatlarning aniqligi yo'qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, bolalarda sinkineziyalar, turli xil giperkinezlar va gipersalivatsiya kuzatiladi (Ye.M. Mastyukova, 1985; Ye.F. Sobotovich, A.F. Chernopolskaya, 1975 va boshqalar).

L.O.Badalyan, G.V.Gurovets, Ye.M.Mastyukova, Ye.F.Sobotovich uch shoxli, til-halqum, sayyor va yuz nervlarining yengil shikastlanishlariga e'tibor qaratib, bu holatlar yumshoq tanglayning qisqarish qobiliyatining yetarli emasligi, tanglayning yengil parezi, burun-lab burmalarining tekislanishi, yonoq mushaklarining zaifligi bilan namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Mimik mushaklarda qoshlarni ko'tarish, ko'zlarni navbatma-navbat qisish, bir tomondan yonoqlarni shishirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yuz va mimik mushaklar hamda artikulyatsion apparat harakatlari yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda tez charchash, sustlik, harakat sifatining pastligi, aniqlik va ravonlikning pasayishi bilan tavsiflanadi, harakatlar yetarli mushak kuchi va hajm bilan bajarilmaydi.

L.V.Lopatina, Ye.F.Sobotovich, M.B.Eydinova kinetik-kinestetik sezgilarning yetishmovchiligi nafaqat alohida tovushlarning artikulyatsiyasiga, balki bir tovushdan ikkinchisiga o'tish sifatiga, artikulyatsiya harakatlarining izchil almashinuvi ravonligiga ham ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, teskari kinestetik afferentatsiyaning pasayishi eshitish va ko'rish kabi bevosita nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan turli funksional tizimlarning integratsiyasini sekinlashtirishi mumkin (A.N. Kornev).

L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova, Ye.F.Sobotovich va boshqalar ushbu toifadagi bolalarda tovush talaffuzi buzilishining polimorfligini ta'kidlaydilar. L.V.Lopatina fonetik-fonematik tomonlarini o'rganish jarayonida fonologik nuqsonlarga nisbatan antropofonik defektlarning ustunligini aniqlagan. Uning fikriga ko'ra, eng ko'p uchraydigan nuqsonlar quyidagilardir: hushtak va shovqinli tovushlar hamda [r] tovushining yon talaffuzi, old til tovushlarining tish orasidan aytilishi, til orqasining o'rta qismi spastik zo'riqishi natijasida barcha tovush guruhlarining yumshoq talaffuzi, murakkab tovushlarning artikulyatsiya jihatdan soddaroq variantlar bilan almashtirilishi, affrikatlarning tarkibiy qismlarga bo'linishi yoki ularning tor variant bilan almashtirilishi. Mualliflar nuqsonli tovushlar faqat artikulyatsiyali murakkablik bilan emas, balki akustik yaqinlik bilan ham belgilanishini qayd etadilar.

Shunday qilib, yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya sharoitida tovush talaffuzining polimorf buzilishlari va teskari kinestetik afferentatsiyaning pasayishi nutq-eshitish analizatori faoliyatining pasayishiga hamda fonematik eshitishning ikkilamchi yetarlicha rivojlanmaganligiga olib keladi (L.V.Bondarko, L.A.Verbitskaya, L.R.Zinder, R.Ye.Levina, L.V.Lopatina, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina va boshqalar). Uning yetarli darajada rivojlanmaganligi ba'zi bolalarda o'zlari u yoki bu tovushlarni qanday talaffuz qilishlarini sezmaslik, biroq boshqa odamlarning nutqida noto'g'ri talaffuzni payqash kabi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin (R.I. Martinova, Ye.F. Sobotovich,

A.F. Chernopolskaya va boshqalar).

Soʻzlarning eshitish va kinestetik obrazini noaniq idrok etish morfologik oʻzgarishlarga eʼtibor qaratishni pasaytiradi (bu oʻzgarishlarning shakllanishi ularning tovush tarkibidagi qoʻshimchalarni taqqoslash bilan chambarchas bogʻliq), shuningdek, soʻzlarning grammatik shakllarini farqlashda qiyinchiliklar tugʻdiradi (G.V. Gurovets, S.I. Mayevskaya, 1978; L.V. Lopatina, N.V. Serebryakova, R.I. Martinova, L.V. Melexova, M.B. Eydinova va boshqalar). Yengil darajadagi psevdobulbar dizartriya nutq nuqsoni boʻlgan bolalarda nutqning grammatik tuzilishining buzilishlari turlicha va oʻzgaruvchan boʻlib, morfologik va sintaktik tizimning yengil shakllanmaganligidan tortib, ekspressiv nutqdagi sezilarli aggrammatizmga cha boʻlgan holatlar kuzatiladi (L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova). Bola uchun fleksiylar aniq maʼnoga ega boʻlmagan, doimiy oʻzgarib turuvchi muhit boʻlib, fiziologik jihatdan zaif nutqiy qoʻzgʻatuvchi hisoblanadi va shuning uchun uzoq vaqt davomida ular tomonidan idrok etilmaydi (O.M.Vershina, O.Ye.Gribova, V.A.Kovshikov, S.A.Mironova, T.V.Tumanova). Shu sababli, ushbu toifadagi bolalar uchun grammatik shakllarni analogiya asosida shakllantirish, yaʼni “aytib beruvchi” soʻz namunasiidan foydalanish qiyinchilik tugʻdiradi. Shu bois, bir xil sintaktik konstruksiyalarning grammatik jihatdan shakllanishida barqarorlik kuzatilmaydi. Ayniqsa, grammatik maʼnoni oʻzlashtirish, soʻz yasash, oʻzakdosh soʻzlarni tanlash kabi topshiriqlar katta qiyinchilik tugʻdiradi (R.A.Belova-David, R.I.Martinova, L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования [Текст]: учеб.пособие для пед.вузов/ В.И.Загвязинский; под редакцией Атаханова Р. - М.:Академия, 2001. - 208 б.
2. Серпенина, Н. В. Использование многофункциональных игр в преодолении общего недоразвития речи дошкольников / Н. В. Серпенина, С. В. Миронова // Логопед. - 2008. - № 6. - С. 59-65.
3. Психология детства: учебник / под редакцией члена-корр. РАО А.А. Реана. - СПб.: прайм-ЕВРО-ЗНАК, 2003. - 368 б.
4. Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования [Текст]: учеб.пособие для пед.вузов/ В.И.Загвязинский; под редакцией Атаханова Р. - М.:Академия, 2001. - 208 б.
5. Психология детства: учебник / под редакцией члена-корр. РАО А.А. Реана. - СПб.: прайм-ЕВРО-ЗНАК, 2003. - 368 б.
6. Психологический словарь /авт.-сост. В Н. Колорулина [и др.]; под об-щей ред. К. Л. Неймера. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. - 640 б.
7. Семенович, А.В. Нейропсихологическая диагностика и коррекция в детском возрасте: учеб, пособие для вузов / А.В. Семенович - М.: Ака-демия, 2002. - 229 б.
8. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь: учеб-ное пособие / сост. Н. В. Новоторцева. - 4-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Каро, 2006.-144 б.
9. Бочарова, С.П. Принципы системного подхода к изучению мнемиче- ских процессов - Режим доступа: <http://www.psychology-online.net/articles/doc-1392.html>.
10. Психоллингвистика : учебник для вузов / под ред. Т.Н. Ушаковой. - М..ПЕРСЭ, 2006.-416 б.

ЎҚУВЧИЛАР ХУЛҚИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА СИМУЛЯЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ражабов С.Б. – иқтисодиёт фанлари
бўйича фалсафа (PhD) доктори

Калит сўзлар: симуляция, симуляцион технология, педагогик метод, тарбия, ҳаётий вазият, роль-ўйин, ватанпарварлик, ижтимоий компетенциялар, тадбиркорлик, уддабурронлик, масъулият, soft skills, hard skills, VR, AR, амалиёт, рефлексия.

Аннотация. Ушбу мақолада таълим ва тарбия жараёнида симуляция методидан фойдаланишнинг педагогик-методик жиҳатлари ёритилган. Шунингдек, симуляциянинг ёшларни ҳаётга тайёрлашдаги аҳамияти, айниқса, 5–9-синф ўқувчиларида тадбиркорлик, тадбирлилик ва уддабурронлик компетенцияларини ривожлантиришдаги самарадорлиги асосланган. Симуляция усулининг афзалликлари сифатида назарий билимни ҳаётий машқ билан уйғунлаштириш, ташаббускорлик ва масъулиятни кучайтириш, муаммо ечиш кўникмасини шакллантириш, жамоада ишлаш ва мулоқот маданиятини ривожлантириш, ижодий ва танқидий фикрлашни кучайтириш ҳамда ҳаётга амалий тайёргарликни таъминлаш каби омиллар кўрсатилган.

Keywords: simulation, simulation technology, pedagogical method, education, upbringing, life situation, role-play, patriotism, social competences, entrepreneurship, problem-solving, responsibility, soft skills, hard skills, VR, AR, practice, reflection.

Abstract. This article discusses the pedagogical and methodological aspects of using the simulation method in the process of education and upbringing. Simulation is defined as a method of artificially recreating and imitating real-life events and processes. The article substantiates the importance of simulation in preparing young people for real life, especially in developing entrepreneurial, resourcefulness, and problem-solving competences among students of grades 5–9. The advantages of simulation include integrating theoretical knowledge with practical experience, enhancing initiative and responsibility, developing problem-solving skills, strengthening teamwork and communication culture, fostering creative and critical thinking, and providing practical life preparation.

Симуляция (ингл. simulation) – бу ҳаётий воқеа ва жараёнларни сунъий равишда қайта яратиш, имитация қилиш усули бўлиб, ёшлар тарбиясида ундан самарали фойдаланиш мумкин. Симуляция методи амалий метод ва билимни қўллашга, билим асосида қўллаган хулқига шу заҳоти фидбэк имкониятини яратиши билан ўта самаралидир. Назарий таълим, насихат билан бунга эришиб бўлмайди. Бу эса симуляция ўқувчиларга хулқ моделларини ўргатишнинг энг самарали методи, дейишга асос бўлади. Чунки ўқувчилар ўзлари намоён қилаётган хулқ оқибатларини “ҳозир ва шу ерди” тамойили асосида кўришади. Бу эса уларга “шу ерда ва ҳозир” олинган амалий тажриба натижасидан келиб чиқиб, ўз хулқ стратегияларини яхшилашни ўргатади.

Симуляция методининг бешта ўзига хос хусусияти бўлиб, улар педагогик мақсадга йўналтирилганлик (симуляция таълим ва тарбия жараёнида шахнинг билим, кўникма ва компетенцияларини ривожлантиришга хизмат қилиши), вазиятдан келиб чиқиш (метод ҳаётий вазиятларга тақлид қилиш, уларнинг реконструкциясига асосланиш), амалиётга яқинлик (назарий билим амалий машқ орқали ҳаётга татбиқ қилиниши), ижтимоийлаштириш (ўқувчи жамоада ишлайди, мулоқот қилади, келишувга келиниши) ва рефлексия – симуляциядан сўнг натижалар таҳлил қилиниб, тўғри ва нотўғри қарорлар муҳокама қилинишида намоён бўлади.

Симуляциянинг педагогик илдизлари болаларни ҳаётга тайёрлаш, ижтимоий ролларни англантиш ва маънавий қадриятларни ўзлаштиришга қаратилган тарбиявий усулларда

кўринади. Масалан, қадимги юнонлар болаларни ҳаётга тайёрлашда сахна кўринишлари орқали турли вазиятли машқлар ўтказишган. Файласуф Аристотель ўзининг “Сиёсат” асарида таълимда «тажриба орқали ўргатиш»нинг аҳамиятини алоҳида қайд этган эди[1].

Шарқ педагогикасида ҳам симуляция методи кенг қўлланилган. Абу Наср Форобий ўзининг “Фозил одамлар шахри” асарида ёшлар ҳаётий вазиятларда машқ қилишса, тўғри, ҳаётий қарорлар қабул қилиш орқали камол топишини таъкидлайди. Унингча, “одам ҳаётидаги фазилатларни амалий машқларда синаб кўриш орқали мустаҳкамлайди”[2].

XIX асрда жадид маорифчилари ҳам бу методдан самарали фойдаланишган. Масалан, Исҳоқхон Ибрат ва Абдулла Авлоний мактаб дарсларида сахналантириш, ҳаётий муаммоларни ролли ўйинлар орқали ҳал қилиш усулидан кенг фойдаланганлар. Бу ҳақда Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида “ўқувчи ҳаётда кўп учрайдиган ҳолатларни синфда машқ қилиши зарур” деб ёзган эди[3].

XX аср педагогикасида симуляция кўпроқ психология ва методика билан уйғунлашди. Ж. Дьюи тажрибавий таълим назариясида боланинг фаол тажрибаси ва вазиятли машқлар орқали ўрганишини асослаб берди. У ўзининг 1916 йилда ёзган (Dewey, Democracy and Education) асарида “Биз ҳаёт учун эмас, ҳаётнинг ўзида ўқишимиз лозим”, деган эди[4]. Шундай қилиб, симуляция методи қадимги даврдан буён турли шаклларда қўлланиб, ҳар бир даврда янги мазмун касб этди. Унинг асосий мақсади доимо битта – болани ҳаётга тайёрлаш, уларда уддабурронлик ва жамиятда фаол иштирок этиш кўникмасини ривожлантиришга хизмат қилмоқда.

Ҳозирги кунда симуляция усули дунёнинг ривожланган давлатлари мактабларида шахсий хавфсизлик, ватанпарварлик, тадбиркорлик, ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришда асосий методлардан бири сифатида қўлланилмоқда.

Симуляцион ўқитиш – бу амалий кўникмалар ва малакаларни ўргатиш ҳамда баҳолашнинг замонавий технологияси бўлиб, у реалистик моделлаштиришга асосланади. Бу жараёнда ҳаётий воқеа, вазият ва ҳолатлар имитация қилиниб, турли даражадаги мураккаблик ва реалликка эга ўқув моделларидан фойдаланилади. “Симуляцион тарбия технологиясининг афзалликлари тарбиянинг реал ҳаёт муҳитига максимал даражада яқинлашуви, амалий хулқий тажриба орттириш, тортинчоқлик, журъатсизлик, нўноқлик каби стресс ҳолатлари даражасини камайтириш ҳамда эришилган билим ва кўникмалар даражасини тез ва объектив баҳолаш имкониятини беради”[5].

Тадқиқотимиз доирасида ўтказилган сўровнома натижалари симуляцион таълимнинг бизнеспедагогикада ҳам самарадорлигини тасдиқлади. Педагог-респондентларнинг фикрига кўра, бу технологиянинг энг муҳим ижобий жиҳатлари: ўқувчиларда ўз-ўзига ишончни ошириши, ўқиш ва касбий тайёргарликда мотивацияни кучайтириши, шахсий ўсиш ва муваффақият ҳиссини уйғотиши, тадбиркорлик салоҳиятни очиш ва мустақил фикрлай олиш ва жамоавий иш кўникмасини ривожлантириши билан қимматлидир.

Қизиқарлиси, респондентлар томонидан мазкур технологиянинг салбий жиҳатлари қайд қилинмади. Бу эса бизнеспедагогикада симуляцион технологияларнинг фақат ижобий натижа бериши мумкинлигини яна бир бор тасдиқлайди. Шу боис симуляцион технология умумий ўрта таълимда замонавий, хавфсиз ва самарали педагогик усул сифатида ўқувчиларда маънавий-ахлоқий компетенцияларни ривожлантиришга хизмат қилади. Зеро у билимни амалиёт билан уйғунлаштириш, уддабурронликни шакллантиришда асосий воситага айланмоқда.

Симуляция технологиясини самарали қўллаш учун педагоглардан педагогик, психологик, методик ва тарихий-маънавий билимлар комплекси талаб қилинади. Бунда назарий билимлар, яъни симуляциянинг таълим ва тарбиядаги ўрни, мақсади, назарий асосларини билиш, болаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, уларнинг руҳий-ҳиссий ҳолатига таъсирини тушуниш, симуляция машғулотини режалаштириш,

сценарий тузиш, босқичма-босқич ташкил этиш услубини билиш ҳамда миллий педагогик тажрибалар, тарихий шахслар ҳаёти ва ҳаётий мисоллардан самарали фойдаланиш назарда тутилади.

Амалий кўникмаларга:

- Сценарий тузиш кўникмаси: ҳаётий вазиятларни ўқувчилар учун содда, қизиқарли бизнеспедагогик сценарийларга айлантириш.

- Фасилитация кўникмаси: ўқувчиларни жараёнга фаол жалб қилиш, барча иштирокчиларнинг фикрини тинглай олиш.

- Муаммо ечиш кўникмаси: вазият ичида тезкор қарор топа олиш ва ўқувчиларни ҳам шу йўналишда йўналтириш.

- Баҳолаш кўникмаси: симуляциядан сўнг рефлексия ўтказиш, ўқувчиларнинг ҳаракатини баҳолаш, тўғри хулоса чиқариш.

- Ахборот технологиялари билан ишлаш кўникмаси: VR, AR, мультимедиа воситалари орқали симуляцияни замонавий услубда ташкил этиш киради.

Педагогик компетенциялар эса коммуникатив компетенциялар қаторига ўқувчилар билан ишончли мулоқот ўрнатиш, уларни эркин фикрлашга ўргатишни тақозо қилади. Бизнеспедагогнинг ташкилотчилик компетенцияси: симуляция жараёнини мақсадли, тартибли ва интерактив шаклда йўлга қўйишни, ижодий компетенцияси ҳаётий вазиятларни янгича, оригинал ва қизиқарли шаклларда тақдим эта олиш ва эмпатик компетенцияси боланинг ҳиссий ҳолатини ҳис этиш, ҳар бир ўқувчининг имкониятини қўллаб-қувватлай олишни талаб қилади. Ва албатта танқидий ва таҳлилий компетенция - симуляция жараёнида ўқувчиларнинг қарорларини таҳлил қилиш, уларни мустақил фикрга йўналтиришни талаб қилади

Симуляция методини қўллашда қадриятли муносабатлар талаб қилинади. Яъни, симуляцияни фақат “ўйин” сифатида эмас, балки ҳаёт учун зарурий машқ сифатида кўриш, ўқувчиларда уддабурронлик, ташаббускорлик, масъулият фазилатларини ривожлантиришга қаратилган мақсадий ёндашув ҳамда миллий тарбия анъаналарини симуляция орқали ёшлар онгига етказишга интилиш талаб қилинади. Демак, симуляция методини қўллайдиган педагог – бу фақат дарс ўтгувчи эмас, балки сценарист, ташкилотчи, фасилитатор ва йўл-йўриқ кўрсатувчи мураббий ҳам бўлиши керак.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, симуляция технологиясини қўллаш учун қўйиладиган педагогик талаблар кластери (намунавий мисоллар асосида) ишлаб чиқилди. (- жадвал)

- Жадвал. Симуляция технологиясини қўллаш учун қўйиладиган педагогик талаблар кластери

Талаб тури	Мазмун (нега керак?)	Мисол (амалий ҳолат)
Билим	Педагогик ва психология назариялари, симуляция методининг моҳияти, тарихий асослари.	Ўқитувчи симуляциядан олдин “Синфдаги низо” машқини ўтказиш учун конфликт психологиясини билади.
Методик билим	Симуляция сценарийларини тузиш, тарбия мақсадларига мослаштириш.	“Маҳаллада ташаббус” машқини сценарий қилиб ёзиб, ўқувчиларга роллар тақсимлайди.
Кўникма	Сценарий яратиш, фасилитация қилиш, муаммо ечиш ва баҳолаш кўникмалари.	“Қалит йўқолиб қолди” симуляциясида ўқувчиларнинг ечим таклифларини муҳокамага йўналтиради.
Ташкилотчилик	Симуляция жараёнини интерактив ва тартибли ташкил қилиш қобилияти.	Гуруҳларни 3 та ролга бўлиб, ҳар бирига аниқ вазифа бериши.
Коммуникатив	Ўқувчилар билан ишончли мулоқот ўрнатиш, эркин фикрлашга ундаш.	Ўқитувчи “қайси ечим тўғри?” деган савол билан синф муҳокамасига йўналиш беради.
Ижодийлик	Ҳар бир ҳаётий вазиятни қизиқарли ва оригинал тарзда тақдим этиш.	“Водопровод жўмраги бузилди” симуляциясида болалар VR ролик орқали вазиятни кўз олдида келтиради.
Эмпатия	Болаларнинг ҳиссий ҳолатини ҳис этиш, қўллаб-қувватлаш.	Тортишувда қийналган ўқувчига “сенинг фикринг ҳам муҳим” деб руҳлантиради.
Танқидий-таҳлилий	Болалар қарорларини таҳлил қилиш, тўғри ва нотўғри йўллارни ажратиш.	“Йўлдан ўтиш” симуляциясидан кейин қайси йўл хавфли, қайси хавфсизлигини биргаликда таҳлил қилади.

Ўтказилган тажриба-синовлар шуни кўрсатадики, педагог симуляция методида фақат билим бермайди, балки – ташкилотчи, йўл-йўриқ кўрсатувчи, мотивация берувчи ва ҳаётий маслаҳатчи вазифасини бажаради. Жумладан, 5–9-синф ўқувчиларига “тадбиркорлик – тадбирлилик – уддабурронлик” компетенцияларини ўргатишда симуляция методи жуда самарали бўлиб, бунда самарадорлик бир неча йўналишларда намоён бўлади:

Биринчидан. Назарий билимларни ҳаётий машқ билан уйғунлаштириш. Бунда симуляцияда ўқувчи назарияда эшитган қоидаларини амалда синаб кўради. Масалан, “йўлда хавфсиз ҳаракат қилиш” ёки “синфдаги низо” симуляциясида бола тўғридан-тўғри ҳаётий ҳолатда қарор қабул қилади. Бунда самарадорлик: ўқувчи билимни фақат ёдламайди, балки уни амалий кўникмага айлантиришида намоён бўлади.

Иккинчидан. Масъулият ва ташаббускорликни кучайтириш. Бунда симуляция жараёнида ҳар бир ўқувчида “қарор қабул қилиш” ва “натижани ўз зиммасига олиш” ҳисси уйғотилади. Масалан, “маҳаллада ташаббус” симуляциясида бола жамоада етакчи сифатида чиқиши мумкин. Бунда самарадорлик ўқувчи ташаббускор бўлишни, ўз фикрини ҳимоя қилишни ва гуруҳ олдида жавоб беришни ўрганишида кўринади.

Учинчидан. Муаммо ечиш кўникмаларини шакллантириш. Ҳаётий муаммоларга

асосланган симуляциялар – “калит йўқолиб қолди”, “водопровод жўмраги бузилди” кабилар – болани вазиятдан чиқишнинг ижодий ва амалий йўллари топишга ўргатади. Бунда эса самарадорлик ўқувчи ҳаётда дуч келадиган муаммоларга уддабурронлик билан ёндашишни машқ қилишида кўринади.

Тўртинчидан. Жамоада ишлаш ва мулоқот маданияти. Симуляция кўпинча гуруҳда бажарилади. Бу ҳолда бола ҳамкорлик қилади, келишув топади, тинглайди ва гапириш маданиятини ўрганади. Бунда самарадорлик ўқувчида коммуникация, жамоавий иш ва келишув кўникмаларининг ривожланишида намоён бўлади.

Бешинчидан. Ижодий ва танқидий фикрлашни ривожлантириш симуляциясида бир вазият учун бир нечта ечим бўлиши мумкин. Болалар қайси йўл тўғри, қайси бири хавфли ёки самарасизлигини муҳокама қиладилар. Бунинг натижасида ўқувчида креатив фикрлаш, танқидий таҳлил қилиш ва ечимларни солиштириш одати пайдо бўлади.

Олтинчидан. Ҳаётга амалий тайёрлаш. Симуляция ўқувчиларни ҳаётга воқеликка яқинлаштиради. Уларда ҳалоллик, масъулият, фойдали иш қилиш, ҳамжиҳатлик, инсонийлик каби фазилатлар ўргатилади.

Янги иқтисодий шарт-шароитларда ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлаш жараёнида замонавий педагогик технологиялар муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда умумий ва ўрта махсус таълим муассасаларида турли педагогик технологиялардан фойдаланмоқда. Шулар орасида симуляцион технология алоҳида аҳамиятга эга. У ўқувчиларда қаттиқ ва юмшоқ кўникмаларни, кенг қамровли Hard ва Soft skills, компетенцияларни ривожлантириш учун қулай шароит яратади.

Адабиётлар рўйхати

1. Аристотель. Политика. – Москва: Мысль, 1984, Стр. 231.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Фан, 1993, 138 б.
3. Авлоний, А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: 1913.
4. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.
5. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023.392-bet.
6. Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Қурононов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.
7. Х.Ибраимов ва бошқалар.Нажот тарбияда. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. -2025. – 60 б.
8. Х.Ибраимов ва бошқалар. Гўзал ҳулқ моделлари. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 80-б.
9. Х.Ибраимов ва бошқалар. Маънавий-ахлоқий тарбия методлари. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2025. - 68 б.
10. Х.Ибраимов ва бошқалар. Миллий тарбия хрестоматияси. Умумий ўрта таълим мактаблари учун. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 180-б.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

Абдуллаев А.Ш.

Доктор философии по психологии (PhD), и.о доцент, Profi University, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье представлен теоретический анализ взаимосвязи между психологической подготовкой волейболистов и механизмами совладания с трудными ситуациями (копинг-стратегиями). Рассматриваются основные компоненты психологической готовности спортсменов, типология копинг-стратегий, а также теоретические подходы к пониманию их взаимодействия в контексте командного вида спорта — волейбола. Проведён обзор зарубежных и отечественных исследований, отражающих роль эмоциональной устойчивости, мотивации, саморегуляции и стрессоустойчивости в эффективности соревновательной деятельности.

Ключевые слова: волейбол, психологическая подготовка, копинг-стратегии, стрессоустойчивость, мотивация, саморегуляция, эмоциональная устойчивость, спортивная психология, командная динамика, метакогнитивные навыки, профессиональное выгорание, поведенческая гибкость, адаптивное поведение, коллективная устойчивость, психическая готовность, стратегии совладания, тренерская поддержка, внутренняя мотивация, групповая рефлексия, спортивная идентичность.

Abstract: This article presents a theoretical analysis of the interrelation between psychological preparation in volleyball players and coping mechanisms used in challenging situations. It examines the core components of athletes' psychological readiness, the typology of coping strategies, and theoretical approaches to understanding their interaction within the context of a team sport such as volleyball. The paper provides a comprehensive review of both international and domestic studies highlighting the roles of emotional resilience, motivation, self-regulation, and stress tolerance in ensuring competitive performance effectiveness.

Keywords: volleyball, psychological preparation, coping strategies, stress tolerance, motivation, self-regulation, emotional resilience, sport psychology, team dynamics, metacognitive skills, professional burnout, behavioral flexibility, adaptive behavior, collective resilience, mental readiness, coping behaviors, coaching support, intrinsic motivation, group reflection, athletic identity.

Актуальность данной темы обусловлена возрастающим уровнем психологического напряжения в современном спорте, особенно в командных видах, где личная устойчивость каждого игрока напрямую влияет на общий результат. Волейбол, как динамичная и тактически насыщенная дисциплина, предъявляет высокие требования к способности игроков эффективно справляться с эмоциональной и ментальной нагрузкой в условиях неопределённости, соперничества и высокой ответственности.

Особый интерес представляет изучение того, каким образом индивидуальные особенности психологической подготовки волейболиста коррелируют с выбором и успешностью применения тех или иных копинг-стратегий. Углублённое теоретическое осмысление этих взаимосвязей открывает перспективы для совершенствования методик психологической подготовки, а также для профилактики профессионального выгорания и

повышения устойчивости спортсменов к стрессу.

Современный спорт высоких достижений требует от спортсменов не только отличной физической подготовки, но и высокого уровня психологической готовности. В командных видах спорта, таких как волейбол, психологическая подготовка включает в себя целый спектр личностных и межличностных характеристик, необходимых для эффективного взаимодействия и успешного выступления в условиях напряженной соревновательной среды. Одним из ключевых аспектов является способность спортсменов справляться с психологическим напряжением и стрессовыми факторами, возникающими в процессе тренировок и соревнований. В этом контексте особую значимость приобретают копинг-стратегии — поведенческие и когнитивные способы совладания с трудностями.

Кроме того, важным направлением теоретического анализа становится изучение влияния структуры личности и индивидуальных различий на выбор стратегий совладания. Исследования показывают, что устойчивость к стрессу, уровень тревожности, тип темперамента и самооценка оказывают непосредственное влияние на характер копинг-поведения. Например, спортсмены с преобладанием интровертированных черт личности чаще склонны к внутренней переработке стресса, тогда как экстраверты предпочитают активное взаимодействие и поиск поддержки.

Также следует учитывать роль когнитивных установок, сформированных в процессе спортивной социализации, которые могут усиливать или ослаблять эффективность копинг-стратегий. Формирование позитивного внутреннего диалога, развитие установки на рост и вера в собственную компетентность способствуют адаптивному реагированию на сложные игровые и жизненные обстоятельства. Таким образом, психологическая подготовка и копинг-механизмы формируют единую систему, определяющую ментальную устойчивость волейболиста.

Психологическая подготовка спортсменов — это система мероприятий, направленных на развитие и укрепление психических качеств, обеспечивающих высокую эффективность тренировочной и соревновательной деятельности. В волейболе особое значение имеют такие качества, как эмоциональная стабильность, самоконтроль, мотивация к достижению, командное мышление и умение концентрироваться в стрессовых ситуациях. Психологическая подготовка формирует не только внутреннюю устойчивость спортсмена, но и его способность быть частью сплочённого коллектива.

Современные исследования подчеркивают, что высокий уровень психологической подготовки напрямую влияет на качество принятия решений [1]. в игровых ситуациях, скорость восстановления после неудач и способность мобилизовать внутренние ресурсы в условиях дефицита времени и повышенного давления. В частности, развитие устойчивой мотивационной структуры и стратегического мышления позволяет спортсменам адаптироваться к изменяющимся условиям соревнований и эффективно распределять психическую энергию.

Кроме того, важным компонентом психологической подготовки выступает формирование метакогнитивных умений, таких как осознание собственных эмоций, контроль за автоматическими реакциями и способность к ментальному моделированию игровых ситуаций. Эти навыки не только улучшают качество спортивной деятельности, но и способствуют выбору более продуктивных копинг-стратегий в ситуациях неопределённости и стресса. Таким образом, психологическая подготовка выступает неотъемлемым условием ментальной гибкости и профессионального роста волейболистов.

Понятие копинга (от англ. coping — справляться) было введено в психологию в 1960-х годах и обозначает совокупность когнитивных и поведенческих усилий, направленных на преодоление внутренних и внешних требований, оцениваемых как стрессовые или превышающие ресурсы личности. Одними из первых исследователей копинга были Ричард Лазарус и Сьюзан Фолкман, которые в своей транзакционной модели стресса (1984) [2]

выделили два основных типа копинга: проблемно-ориентированный (направленный на изменение стрессовой ситуации) и эмоционально-ориентированный (направленный на регуляцию эмоционального состояния).

Позднее теория копинга была дополнена рядом других моделей. Так, Билл Штраусс и Сьюзан Карвер ввели в научный оборот понятие диспозиционного копинга, акцентируя внимание на устойчивых личностных предпочтениях в выборе стратегий совладания. Зейгаран и Блунт, исследуя копинг у спортсменов, выделили проактивные и реактивные формы реагирования, где проактивный копинг включает в себя заблаговременное планирование, развитие навыков и построение внутренней устойчивости.

В спортивной психологии копинг-стратегии классифицируются по нескольким критериям: по направленности (когнитивные и поведенческие), по результативности (адаптивные и дезадаптивные), а также по временной ориентации (реактивные и проактивные). Например, дезадаптивными считаются такие формы, как избегание, вытеснение или агрессивные реакции, тогда как адаптивными признаются поиск поддержки, переформулирование ситуации и целенаправленное поведение.

Анализ эмпирических данных показывает, что среди профессиональных волейболистов наиболее распространены стратегические формы проблемно-ориентированного копинга, такие как когнитивная переоценка и целенаправленные действия. Реже наблюдаются эмоционально-ориентированные формы, особенно у игроков с высокой стрессоустойчивостью. Однако при недостаточном уровне психологической подготовки возможно усиление таких стратегий, как избегание и эмоциональное подавление, что снижает эффективность игрового поведения.

Копинг-стратегии у волейболистов зависят также от возраста, пола, соревновательного опыта и культурного контекста. Юные спортсмены чаще прибегают к эмоциональному копингу, тогда как опытные игроки демонстрируют высокий уровень осознанности и используют интегративные механизмы, сочетающие эмоциональную регуляцию с активным воздействием на стрессовую ситуацию. Таким образом, теоретическое осмысление копинга в спорте требует комплексного подхода, учитывающего личностные, поведенческие и контекстуальные факторы.

Эффективность копинг-стратегий во многом зависит от уровня психологической подготовки спортсмена. Например, волейболисты с развитой способностью к саморегуляции чаще прибегают к конструктивным способам совладания, в то время как спортсмены с низким уровнем самоконтроля склонны к избеганию или эмоциональному подавлению. Мотивационная составляющая психологической подготовки также играет роль в выборе копинга: целеустремлённые и внутренне мотивированные игроки чаще демонстрируют активные копинг-стратегии, направленные на достижение результата.

Ряд исследований подтверждает данную взаимосвязь. Так, в работе К. Рейеса и М. Тампсона (2016) отмечено [3], что спортсмены с высоким уровнем когнитивной саморегуляции значительно чаще используют стратегический проблемно-ориентированный копинг. Аналогично, по данным исследования С. Мадсен и В. Холла (2019) [4], волейболисты, прошедшие систематическую психологическую подготовку, в стрессовых ситуациях демонстрируют более высокий уровень устойчивости, меньшую склонность к эмоциональной импульсивности и чаще обращаются к социально поддерживающим стратегиям.

Интерес представляют и кросс-культурные исследования. Например, Яманака и Шива (2021) показали [5], что японские спортсмены, в отличие от западных коллег, чаще используют копинг через саморефлексию и эмоциональное сдерживание, что связано с особенностями культурных представлений о групповом единстве и сохранении гармонии. Эти результаты подчеркивают необходимость учитывать культурные и социальные факторы

при интерпретации связи между психологической подготовкой и копинг-стратегиями в различных спортивных контекстах.

Существует ряд психологических теорий, объясняющих взаимосвязь между личностными характеристиками, психологической устойчивостью и стратегиями совладания. Среди них: теория стрессоустойчивости Кобаса (*hardiness theory*) [6], согласно которой наличие таких качеств, как контроль, приверженность и вызов, способствует большей устойчивости к стрессу и выбору активных копинг-стратегий. Модель саморегуляции Канфера [7] акцентирует внимание на способности личности к планированию, мониторингу и коррекции поведения, что напрямую связано с успешным преодолением стрессовых ситуаций в спорте.

Концепция психологической устойчивости Флетчера и Сарразина рассматривает психологическую устойчивость как динамическую способность личности адаптироваться к трудностям, основываясь на взаимодействии когнитивных, эмоциональных и поведенческих ресурсов. Эта модель подчеркивает роль позитивных эмоций, внутренней мотивации и способности к обучению в формировании адаптивных копинг-реакций. Модель ресурсной саморегуляции Р. Баумейстера объясняет [8], как ограниченные ресурсы самоконтроля расходуются в процессе стресса и как тренировка психологической выносливости может способствовать более экономному и эффективному использованию копинг-потенциала. Все эти модели подтверждают, что высокий уровень психологической подготовки расширяет репертуар конструктивных копинг-реакций и повышает устойчивость спортсменов к неблагоприятным внешним воздействиям.

Волейбол как командный вид спорта требует не только индивидуальной, но и групповой психологической устойчивости. Копинг-стратегии, эффективные в индивидуальном контексте, могут быть недостаточны в условиях командной динамики. Поэтому важно формировать у спортсменов навыки совместного преодоления трудностей, эмоционального взаимопонимания, разрешения конфликтов и поддержки партнеров. Групповая копинг-способность является важным индикатором командной сплоченности и успеха.

На основе анализа можно выдвинуть теоретическое предположение, что копинг-стратегии могут функционировать как социально-психологический механизм, регулирующий поведение спортсменов в условиях командного взаимодействия. В отличие от индивидуального копинга, социально-психологический копинг предполагает включение процессов социального влияния, принятия ролевых норм, поддержания групповой идентичности и эмоциональной синхронизации между участниками команды. Такой механизм не только способствует преодолению внешнего давления, но и укрепляет чувство принадлежности и доверия внутри коллектива.

Как социально-психологический механизм, копинг может реализовываться через совместные действия, включающие коллективное принятие решений, вербальную и невербальную поддержку, а также общее эмоциональное реагирование на стрессовые стимулы. Эти элементы способствуют формированию когнитивного единства команды и позволяют регулировать напряжение на уровне всей группы, а не отдельных её членов. Таким образом, копинг в командном спорте — это не только индивидуальная стратегия, но и важнейший элемент социального функционирования коллектива, что открывает новые перспективы для его целенаправленного формирования в рамках спортивной психологии.

Практическая значимость теоретического анализа понимания взаимосвязи между психологической подготовкой и копинг-стратегиями позволяет тренерам и спортивным психологам разрабатывать более эффективные программы подготовки, ориентированные не только на физическое, но и на психическое здоровье спортсменов. Теоретические положения могут стать основой для создания психодиагностических методик и тренировок, направленных на развитие копинг-компетентности.

Для спортсменов это означает возможность овладения устойчивыми стратегиями реагирования на стресс, которые снижают вероятность эмоционального истощения,

повышают мотивационную устойчивость и укрепляют уверенность в собственных силах. Внедрение тренингов копинг-компетентности в структуру подготовки позволяет формировать у волейболистов способность сохранять концентрацию, конструктивно воспринимать неудачи и мобилизовать ресурсы в условиях высокой ответственности.

Тренеры, в свою очередь, получают инструмент для более точного мониторинга психоэмоционального состояния спортсменов и могут оперативно корректировать тренировочный и психологический процесс. Осведомлённость тренера о типичных копинг-механизмах своих подопечных способствует более чёткому управлению межличностными взаимодействиями в команде и повышению общей психологической устойчивости коллектива.

Кроме того, применение теоретических положений может служить основой для формирования командных копинг-стратегий — механизмов, которые обеспечивают согласованное преодоление напряжённых ситуаций внутри коллектива. Это особенно важно в период интенсивных соревнований, где важна не только индивидуальная, но и коллективная стрессоустойчивость. Разработка подобных механизмов требует комплексного подхода с участием как спортивных психологов, так и тренерского состава.

Таким образом, теоретическое обоснование взаимосвязи психологической подготовки и копинга может быть трансформировано в конкретные практические действия — от индивидуальных тренингов до создания целостной системы психологического сопровождения спортивной команды. Это открывает перспективы для повышения эффективности подготовки, предотвращения профессионального выгорания и формирования устойчивой психологической культуры в спортивной среде.

Теоретический анализ показывает, что психологическая подготовка волейболистов и их копинг-стратегии находятся в тесной взаимосвязи. Развитие личностной устойчивости, саморегуляции и мотивации способствует использованию более продуктивных копинг-механизмов, что, в свою очередь, влияет на успешность соревновательной деятельности. Важно интегрировать знания о копинге в систему подготовки волейболистов для повышения их психологической готовности к сложным игровым и жизненным ситуациям.

Выводы:

1. Психологическая подготовка спортсмена является определяющим фактором в выборе стратегий совладания: высокий уровень саморегуляции, мотивации и стрессоустойчивости обеспечивает переход к более адаптивным и конструктивным копинг-реакциям.

2. Теоретические концепции (модель стрессоустойчивости Кобаса, ресурсная саморегуляция Баумейстера, теория метакогнитивного контроля) демонстрируют, что копинг функционирует как социально-психологический регулятор, влияющий на поведенческую гибкость спортсменов в команде.

3. Групповая копинг-компетентность проявляется через механизмы социальной поддержки, эмоциональной синхронизации и кооперативного поведения, что значительно усиливает устойчивость команды при внешнем давлении и внутрикомандных конфликтах.

4. Внедрение системной работы по развитию копинг-навыков как части общей психологической подготовки предотвращает эмоциональное выгорание, способствует формированию здорового климата в команде и устойчивой спортивной идентичности.

Практические рекомендации для спортсменов и тренеров:

1. Включать тренировки по развитию копинг-стратегий в структуру макро- и микроциклов подготовки, сочетая физические и психологические нагрузки.

2. Использовать индивидуальные карты копинг-профиля спортсменов на основе валидированных методик (например, COPE), позволяющие корректировать поведенческие паттерны.

3. Развивать у спортсменов метакогнитивные навыки через упражнения на

самоосознание, отслеживание триггеров и формирование внутреннего диалога.

4. Внедрять практики социальной поддержки внутри команды: рефлексивные круги, партнерские сессии, тренинги эмпатии.

5. Организовать повышение квалификации тренеров по психологическим аспектам копинга: форматы — воркшопы, семинары, менторские группы.

6. Разрабатывать адаптивные модели командной устойчивости, включающие алгоритмы реагирования на кризисные игровые эпизоды и стратегии восстановления.

Список литературы:

1. Гафаров Ф.Х. Психология спорта. — Ташкент: Фан, 2018. — С. 115–117
2. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценка и копинг. — СПб.: Питер, 2000. — С. 78
3. Reyes K., Thompson M. Cognitive regulation in athletes: Coping styles and performance. // *Int. J. Sports Sci.* — 2016. — Vol. 12(2). — P. 45–47
4. Madsen S., Hall V. Psychological preparedness in elite volleyball: A coping-centered approach. // *J. of Sport Psychology.* — 2019. — Vol. 21(3). — P. 129–134
5. Yamanaka H., Shiba K. Cultural coping norms in East-Asian athletes. // *Asian Journal of Sport Science.* — 2021. — Vol. 8(1). — P. 20–23
6. Kobasa S.C. Stressful life events, personality, and health: An inquiry into hardiness. // *J. of Personality and Social Psychology.* — 1979. — Vol. 37(1). — P. 1–11
7. Kanfer F.H. Self-regulation: Research, issues, and speculation. // *Behavior Therapy.* — 1970. — Vol. 1(3). — P. 398–405
8. Baumeister R.F., Vohs K.D. Self-regulation and ego depletion: An energy model of the self's executive function. // *Self and Identity.* — 2004. — Vol. 3(2). — P. 119–130

INTERNET QARAMLIGI VA PSIXOLOGIK IZOLYATSIYA ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMINING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

*Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich,
Toshkent tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada internet qaramligi va psixologik izolyatsiya sharoitida shakllanuvchi “Zamonaviy Maugli sindromi” ning yoshlar ongi va psixikasiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy va empirik asosda tahlil qilinadi. Virtual muhitda haddan tashqari faol ishtirok etish, real muloqotdan chekinish, ijtimoiy aloqalarning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan identitet diffuziyasi, emotsional empatiyaning pasayishi va kommunikativ disfunktsiyalar bu sindromning asosiy psixologik ko‘rinishlari sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotda yosh avlod vakillarining raqamli muhitda ijtimoiylashuvi ularning individual ong shakllanishiga, ijtimoiy rol va o‘z-o‘zini anglash tizimiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi keng yoritiladi. Maqolada, shuningdek, ushbu muammoga qarshi psixoprofaktik va psixokorreksion choralar ishlab chiqish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: internet qaramligi, psixologik izolyatsiya, zamonaviy Maugli sindromi, identitet diffuziyasi, emotsional empatiya, kommunikativ disfunktsiya, yoshlar ongi, virtual ijtimoiylashuv, psixologik profilaktika, raqamli muhit.

ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИЗОЛЯЦИЯ: ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННОГО СИНДРОМА МАУГЛИ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЁЖИ

*Полванов Расулбек Бахтиярович
Независимый исследователь, Ташкентский медицинский университет*

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и эмпирически анализируется влияние формирующегося в условиях интернет-зависимости и психологической изоляции «Современного синдрома Маугли» на сознание и психику молодёжи. Исследуются основные психологические проявления данного синдрома, такие как диффузия идентичности, снижение эмоциональной эмпатии и коммуникативные дисфункции, возникающие вследствие чрезмерного участия в виртуальной среде, отказа от реального общения и утраты социальных связей. В работе подробно раскрывается негативное воздействие цифровой социализации молодого поколения на формирование индивидуального сознания, систему социальных ролей и самопознание. Кроме того, обосновывается необходимость разработки психопрофилактических и психокоррекционных мер для противодействия данной проблеме.

Ключевые слова: интернет-зависимость, психологическая изоляция, современный синдром Маугли, диффузия идентичности, эмоциональная эмпатия, коммуникативные дисфункции, сознание молодёжи, виртуальная социализация, психопрофилактика, цифровая среда.

INTERNET ADDICTION AND PSYCHOLOGICAL ISOLATION: THE IMPACT OF MODERN MAUGLI SYNDROME ON YOUTH CONSCIOUSNESS

*Polvanov Rasulbek Bakhtiyarovich
Independent Researcher, Tashkent Medical University*

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and empirical analysis of the impact of the emerging “Modern Maugli Syndrome” in conditions of internet addiction and psychological isolation on the consciousness and psyche of youth. The main psychological manifestations of this syndrome, such as identity diffusion, decreased emotional empathy, and communicative

dysfunctions resulting from excessive involvement in the virtual environment, withdrawal from real communication, and loss of social connections, are examined. The study extensively explores the negative influence of digital socialization on the formation of individual consciousness, the system of social roles, and self-awareness among the younger generation. Additionally, the article substantiates the necessity of developing psychoprophylactic and psychocorrective measures to address this problem.

Keywords: internet addiction, psychological isolation, modern Maugli syndrome, identity diffusion, emotional empathy, communicative dysfunction, youth consciousness, virtual socialization, psychoprophylaxis, digital environment.

Kirish: Bugungi global raqamli inqilob sharoitida insonning psixologik, ijtimoiy va madaniy hayoti tubdan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eksploziv sur'atlarda ommalashuvi psixologik moslashuv mexanizmlarini sinov ostiga qo'yimoqda. Shunday sharoitda «internet qaramligi» fenomeni, ya'ni shaxsning virtual muhitga haddan tashqari bog'lanib qolishi natijasida real hayotdagi faoliyatning cheklanishi, o'z-o'zini anglash, identitet shakllanishi, kommunikativ kompetensiya va emotsional empatiya kabi muhim psixik jihatlar izdan chiqmoqda. Ushbu jarayonlar fonida yuzaga kelayotgan va ilmiy adabiyotda nisbatan yangi bo'lgan «Zamonaviy Maugli sindromi» atamasi psixologik va sotsiokulturning chegara holatlariga taalluqli murakkab holatlarni anglatadi. Mazkur sindromning mohiyati yoshlarning virtual ijtimoiylashuv shakllariga haddan tashqari qaram bo'lib, real ijtimoiy tajribadan uzilib qolgan, regressiv, empatiyadan mahrum, fragmentar identitetli, va aksar hollarda anomik xatti-harakatga moyil holatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, internet qaramligi va ijtimoiy izolatsiya birgalikda inson ruhiyatiga chuqur psixopatologik ta'sir ko'rsatadi. Ulkan axborot oqimi va ijtimoiy tarmoqlar orqali yuz berayotgan virtual ijtimoiylashuv yuzaki, stereotipik va emotsional jihatdan sovuq bo'lib, chin insoniy aloqa o'rni bosa olmaydi. Aynan shuning natijasida yoshlar orasida hissiy idrok darajasining pasayishi, ichki ziddiyatlarning kuchayishi, shaxsiy me'yorlarning buzilishi, avtonomiya va tanqidiy fikrlash salohiyatining zaiflashuvi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda o'z-o'zini anglash va identitet shakllanishi jarayonlari fragmentarlashadi, bu esa Erikson ta'riflagan identitet diffuziyasining yangi zamonaviy kontekstda kuzatilayotgan shaklidir. Zamonaviy Maugli sindromi kontseptsiyasi, o'z navbatida, faqatgina psixologik emas, balki sotsiokultural hodisa sifatida ham ko'rib chiqilishi lozim. Yoshlarning real ijtimoiy muhitdan uzilib, ko'proq virtual fazoda faoliyat yuritishi – bu ularning ijtimoiy rollarini o'zlashtirishdagi kechikish, ijtimoiy mas'uliyatning yo'qligi, madaniy identifikatsiyaning yomonlashuvi va nihoyat, shaxsning o'z-o'ziga begonalashuvi bilan yakunlanishi mumkin. Shu o'rinda Frans Kafka yoki Jorj Oruell asarlarida tasvirlangan ijtimoiy izolyatsiyadagi inson portreti zamonaviy raqamli avlod vakillarida real aks topayotganini inkor etib bo'lmaydi[1]. Mavjud empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy ravishda internet va ijtimoiy tarmoqlarda bo'lish yoshlar ongida ijtimoiy haqiqatning buzilgan tasvirini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida psixologik diskomfort, tashqi dunyoga nisbatan ishonchsizlik va intrapersonal konfliktlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, virtual makondagi hayot real ijtimoiy muhitga kirishga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi, ya'ni inson o'zini jamiyatdan alohida, begona va moslashishga qodir bo'lmagan subyekt sifatida his eta boshlaydi. Bu holat klinik psixologiyada tashxislanayotgan yangi ijtimoiy-patologik holatlar — depressiv-apatik sindrom, ijtimoiy anomiya, va afektiv hissiyotlarning yassilashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[2]. Ushbu maqola doirasida aynan mana shu murakkab psixologik hodisa – ya'ni internet qaramligi va psixologik izolyatsiya asosida shakllanuvchi «Zamonaviy Maugli sindromi»ning psixodinamik mexanizmlarini, uning klinik va psixologik aspektlarini, yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'sirini, shuningdek, bu sindromning oldini olish va psixologik korreksiya qilish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni yoritish maqsad qilib olinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqolada nazariy asoslar bilan birga empirik metodlar – psixodiagnostika, strukturaviy intervyu, psixometrik baholash, va ijtimoiy-psixologik testlash

asosida olingan real ma'lumotlar asosida muammo kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini Eriksonning identitet nazariyasi, Banduraning ijtimoiy-kognitiv modeli, Frommning begonalashuv konsepsiyasi va Castellsning tarmoq jamiyati haqidagi qarashlari tashkil etadi[3]. Ular yordamida virtual ijtimoiylashuvning shaxs ongiga va jamiyatga ta'sirini chuqurroq tushunish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya asosida ijtimoiy aloqalarning o'zgarishi, shaxslararo muloqot va hissiy kooperatsiyaning yo'qolishi yoshlar psixikasida muayyan regressiv jarayonlarni boshlashi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy raqamli makonda shakllanayotgan kommunikativ muhit yoshlarni ijtimoiy rollar, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimi bilan tanishtirishda zaif platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada, yosh avlod o'zligini anglashda noaniqlik, rollararo konflikt, madaniy izolyatsiya va normativ inkongruentlik muammolariga duch kelmoqda. Bu esa jiddiy psixologik yordamga ehtiyoj tug'diradi[4]. Raqamli makonning jadal rivojlanishi va inson ongiga bevosita yoki bilvosita bo'lgan ta'siri «Zamonaviy Maugli sindromi» kabi yangi ijtimoiy-psixologik holatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu sindrom, o'z mohiyatiga ko'ra, internetga haddan tashqari bog'lanish, real ijtimoiy aloqalarning yo'qolishi, identitet diffuziyasi va emotsional-empatik tanqislik bilan kechuvchi murakkab psixik buzilish bo'lib, uning psixologik diagnostikasi, rehabilitatsiyasi va profilaktikasi hozirgi zamon psixologik fanining eng dolzarb masalalaridan biri sifatida baholanishi lozim. Shu bois, ushbu maqola orqali mazkur muammoni chuqur ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilinadi.

Adabiyotlar tahlili: Internet qaramligi, identitet diffuziyasi va ichki psixologik izolyatsiyaning murakkab o'zaro ta'siri yoshlar ongini shakllantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu nuqtai nazardan, birinchi muallif sifatida ajralib turadi Kuan Ying Hsieh va uning hamkasblari tomonidan 2019 yilda olib borilgan tadqiqot. Mazkur tadqiqotda kollej yoshidagi 500 nafar respondentning Self Concept and Identity Measure, Acceptance and Action Questionnaire-II va Chen Internet Addiction Scale orqali self identity confusion darajasi, psychological inflexibility va experiential avoidance indikatorlarining internet qaramligi bilan o'zaro bog'liqligi strukturaviy tenglamalar orqali tahlil qilingan[5]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, identitet chalkashligi bevosita va bilvosita (PI/EA vositachiligida) internet qaramligi darajasini kuchaytiradi. Ikkinchi olim sifatida Esra Ceyhan va turk tadqiqotchilari tomonidan bajarilgan tadqiqot e'tiborga sazovor. Ular universitet talabalarining identification statuslari (moratorium, foreclosure, achievement va diffusion) bilan muammoli internet foydalanuvchiligi o'rtasida statistik tahlil asosida bog'liqlikni o'rgandilar. Natijalarga ko'ra, identitet moratorium va diffusion statusidagi yoshlar muammoli internet foydalanishga ko'proq moyillik ko'rsatadi. Xususan, identity moratorium statusi internetga psixologik tayanish va regressiv o'zlik izlash bilan bog'liq ekanligi tasdiqlandi. Bu ikki yondashuv bir-birini mukammal tarzda to'ldiradi: Hsieh va hamkasblari self identity confusionni internet qaramligining ichki etiologik omili sifatida tahlil qilsa, Ceyhan va jamoasi identitet statuslarini ijtimoiy-psixologik kontekstda internet bilan bog'liq xatti harakatlarni prognozlashtiruvchi faktor sifatida ko'rsatadi[6]. Ularning ilmiy natijalari birgalikda zamonaviy Maugli sindromini — identitet diffuziyasi, izolyatsiya, regressiv psixologik o'zgarishlar bilan kechuvi — sifatida nazariy va amaliy modeli yaratish bo'yicha mustahkam platforma yaratadi. Shuningdek, bu tadqiqotlar psixodiagnostika va rehabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda identitet diffuziyasi va statuslarini mantiqan integratsiyalash orqali ijtimoiy moslashuv va o'z-o'zini anglash mexanizmlarini tiklovchi yondashuvlarga asos bo'ladi.

Metotologik qism: Ushbu maqolada "Zamonaviy Maugli sindromi"ning internet qaramligi va psixologik izolyatsiya sharoitida yoshlar ongiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi, jumladan, diagnostik va empirik asosda tuzilgan psixometrik metodlar (Berger's Interpersonal Communication Competence Scale, Chen Internet Addiction Scale, Self-Concept Clarity Scale) orqali yoshlarning kommunikativ kompetensiyasi, identitetning integral darajasi va internetga qaramlik ko'rsatkichlari baholandi, shuningdek, yarimstrukturaviy

intervyular va kontent-analiz asosida sifatli ma'lumotlar tahlil qilindi; statistik ishlov berish uchun esa korrelyatsion-regression tahlil, ANOVA va strukturaviy tenglamalar modeli (SEM) yondashuvlaridan foydalanildi, bu esa fenomenologik tafsilotlar bilan bir qatorda sindromning psixologik determinantlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, internet qaramligi va psixologik izolyatsiya o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik yoshlar orasida zamonaviy Maugli sindromining shakllanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi; ayniqsa, identitet diffuziyasi, kommunikativ kompetensiyaning pasayishi va emotsional empatiyaning susayishi sindromning klinik ko'rinishlarini yuzaga keltiradi, shu bilan birga, strukturaviy tenglamalar modeli yordamida olingan natijalar psixologik izolyatsiyaning internet qaramligini kuchaytiruvchi vositachi sifatida rol o'ynashini, shuningdek, kommunikativ va identitet salbiy o'zgarishlarining o'zaro mustahkam bog'liqligini aniq ko'rsatdi, bu esa sindromning oldini olish va psixokorreksiya uchun maqsadli strategiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asosni tashkil etadi.

Muxokama: Internet qaramligi va psixologik izolyatsiya yoshlar ongida zamonaviy Maugli sindromi shakllanishidagi o'rni haqida olib borilgan ilmiy munozaralar olimlar orasida o'zaro qarama-qarshi fikrlar va bahs-munozaralarni yuzaga keltirdi. Birinchi tarafdin, Dr. Kimberly Young o'zining ko'p yillik tadqiqotlari asosida internet qaramligini mustaqil psixopatologik holat sifatida ko'radi va bu qaramlikning ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirib, shaxsning kommunikativ salohiyatini, shu jumladan empatiya va identitet integratsiyasini buzishini ta'kidlaydi [7]. Youngning fikricha, internet qaramligi nafaqat shaxsning tashqi ijtimoiy aloqalarini cheklaydi, balki ichki psixologik mexanizmlarda ham chuqur regressiv o'zgarishlarga olib keladi, bu esa zamonaviy Maugli sindromining asosiy sabablaridan biridir. U internet qaramligini psixologik izolyatsiya va identitet diffuziyasi bilan uzviy bog'liq kasallik sifatida ko'rib, unga qarshi individual va guruh terapiyalarini joriy etishni taklif qiladi [8]. Ikkinchi tarafdin, Prof. Mark D. Griffiths bu yondashuvga ba'zi jihatlarida tanqidiy qaraydi va internet qaramligini keng qamrovli ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida baholaydi [9]. Griffithsning fikricha, internet qaramligi muammosi ko'pincha ijtimoiy muhit va yoshlarning o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqib shakllanadi, shuning uchun uni faqat individual patologiya sifatida qarash yetarli emas. U, ayniqsa, psixologik izolyatsiyaning internet qaramligi bilan bog'liqligida kontekstual va madaniy omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi va bu jarayonda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oila, maktab va jamiyat tizimlarining roli katta ekanligini aytadi. Griffithsning ta'kidlashicha, zamonaviy Maugli sindromini faqat shaxsiy psixologik muammo sifatida emas, balki ijtimoiy tizimlar va raqamli madaniyatning murakkab muammosi sifatida ko'rib, kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarur [10]. Bu ikki olimning fikrlari o'rtasidagi farq zamonaviy Maugli sindromining etiologiyasi va uni davolash usullariga nisbatan ilmiy debatlarini chuqurlashtiradi: Young individual psixodiagnostika va psixokorreksiya yondashuvlariga urg'u berar ekan, Griffiths esa bu sindromni ijtimoiy kontekst va madaniy normativlar nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Natijada, zamonaviy Maugli sindromining samarali oldini olish va rehabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda individual psixoterapiya bilan birga ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olgan multidisipliner yondashuv zarurligi aniqlandi. Bu esa mavzuning murakkab tabiatini va yoshlarning raqamli davrdagi psixologik sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadigan ko'p qirraliklarni chuqurroq o'rganishga undaydi.

Xulosa: Mazkur maqolada internet qaramligi va psixologik izolyatsiya sharoitida yoshlar ongida shakllanayotgan zamonaviy Maugli sindromining klinik va psixologik jihatlari atroficha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari internet qaramligi bilan bog'liq identitet diffuziyasi, kommunikativ tanqislik va emotsional empatiya pasayishi kabi regressiv jarayonlarning sindrom rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shuningdek, sindromning oldini olish va psixokorreksiya qilishda individual psixoterapiya, guruh yondashuvlar hamda raqamli detoks strategiyalarining samaradorligi ta'kidlandi. Maqola yoshlarning raqamli muhitdagi psixologik barqarorligini mustahkamlash uchun multidisipliner yondashuv zarurligini ilmiy asosda asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

1. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. Tendency in use of eponyms based on modern literary names //«Абылай хан атындағы ҚазХҚжәнеӘТУ Хабаршысы Филология ғылымдары сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
3. Steyn L., Barnard A. The coaching experience as identity work: Reflective metaphors //SA Journal of Industrial Psychology. – 2024. – Т. 50. – С. 2132.
4. Aminovna X. D. Internetga qaram shaxsning ijtimoiy-psixologik portreti: nazariy asoslar // Modern education and development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 261-265.
5. Ulug'bekovna T. S., Kabilovich P. O. Yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqqa qaramlik muammo sifatida hamda internetga tobelik darajasi //formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. – 2025. – Т. 4. – №. 41. – С. 49-55.
6. Diloram M., Shohbozbek E. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.
7. Nasriddinova G. Internet tarmog'larini o'smirlar tarbiyasiga ta'siri //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 103-105.
8. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.
9. Сосновцева М. С. The impact of socialization on the psyche and development of children //СиБАДИ. – 2020. – С. 364.
10. Petrova E., Gnatik E. The Transformation of the Environment in the Digital Age //5th International Conference on Contemporary Education, Social Sciences and Humanities-Philosophy of Being Human as the Core of Interdisciplinary Research (ICCESSH 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 131-134.

OILAVIY MUNOSABATLARDA BAG'RIKENGLIKNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

*Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li
Qarshi davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda oilaviy munosabatlarda bag'rikenglikning namoyon bo'lish shakllari ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganiladi. Bag'rikenglikning oilaviy muhitda shakllanishi oilaning kommunikativ madaniyati, tarbiya uslublari hamda emotsional barqarorlik darajasi bilan chambarchas bog'liq ekani asoslab beriladi. Ishda oilada ziddiyatlarni konstruktiv yo'l bilan hal etish, farzandlarda ijobiy ijtimoiy-psixologik fazilatlarni rivojlantirishda bag'rikenglikning ahamiyati ko'rsatiladi. Shu bilan birga, muallif tomonidan bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan psixoprofilaktik va tarbiyaviy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot oilaviy psixologiya, pedagogika hamda profilaktika sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, tolerantlik madaniyati, emotsional barqarorlik, konfliktni boshqarish va psixoprofilaktika.

ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ТЕРПИМОСТИ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

*Тошпулатов Анвар Шакир угли
Каришинский государственный университет, независимый исследователь*

Аннотация. В данной научной работе формы проявления терпимости в семейных отношениях изучаются с социально-психологической точки зрения.

Обосновано, что формирование терпимости в семейной среде тесно связано с уровнем коммуникативной культуры семьи, стилем воспитания и эмоциональной стабильностью. В исследовании показано значение терпимости в конструктивном решении семейных конфликтов и развитии у детей положительных социально-психологических качеств. Кроме того, автором разработаны психопрофилактические и воспитательные рекомендации по формированию терпимости в семье. Исследование представляет как теоретическую, так и практическую ценность для специалистов в области семейной психологии, педагогики и профилактики.

Ключевые слова: терпимость, семейные отношения, социально-психологические особенности, культура толерантности, эмоциональная стабильность, управление конфликтами, психопрофилактика.

MANIFESTATIONS OF TOLERANCE IN FAMILY RELATIONSHIPS

*Toshpolatov Anvar Shokir ugli
Karshi State University, Independent Researcher*

Abstract. This scientific work explores the forms of manifestation of tolerance in family relationships from a socio-psychological perspective.

It is substantiated that the formation of tolerance within the family environment is closely related to the family's communication culture, parenting styles, and level of emotional stability. The study highlights the significance of tolerance in constructively resolving family conflicts and fostering positive socio-psychological traits in children. Moreover, the author proposes psychopreventive and educational recommendations aimed at promoting tolerance in the family. This research holds both theoretical and practical value for specialists in family psychology, pedagogy, and preventive work.

Keywords: tolerance, family relationships, socio-psychological characteristics, culture of tolerance, emotional stability, conflict management, psychoprevention.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatda barqarorlikni saqlash, insonlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lgan oila institutida bag'rikenglikning mavjudligi va namoyon bo'lishi jamiyatning ijtimoiy-psixologik salomatligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, sabr-toqat, murosa qilish, turli fikr va qadriyatlarni tan olish kabi fazilatlar bag'rikenglikning asosiy ifodalaridan bo'lib, ularning mavjudligi ijobiy oilaviy muhitni ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqot ishida bag'rikenglik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning oiladagi psixologik muhitga ta'siri, shuningdek, uning shakllanishi va namoyon bo'lish shakllari ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan chuqur o'rganiladi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni mustahkamlashga, farzandlarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga, hamda jamiyatda tolerantlik madaniyatini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi, axloqiy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongda bag'rikenglik fenomeni eng muhim va dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida oilaviy hayotda bag'rikenglikning roli va u qanday shakllarda namoyon bo'lishi, bu jarayon qanday omillar bilan bog'liq ekani, ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar doirasida keng o'rganilmoqda.

Mahalliy adabiyotlar tahliliga nazartashlaydigan bo'lsak, birinchi navbatda A. Abduqodirovning "Oilaviy psixologiya" (2020) nomli darsligida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va emotsional barqarorlikning ahamiyati tahlil etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, bag'rikenglik oilada konstruktiv muloqotni rivojlantiruvchi, ixtiloflarni yumshatishga yordam beruvchi muhim psixologik resurs hisoblanadi. Ayniqsa, farzandlar ongida ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishi, ota-onalarning tolerantlik darajasiga bevosita bog'liq ekani ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, G. G'ulomov va M. Rajabovning "Pedagogik psixologiya" (2018) asarida bolalar va o'smirlar psixikasini shakllantirishda oiladagi munosabatlarning, ayniqsa tolerantlik va sabr-toqat muhitining ahamiyati ochib beriladi. Ushbu tadqiqotlarda bolalarda empatiya, bag'rikenglik, hamdardlik va ijtimoiy ong shakllanishi uchun oiladagi psixologik muhitning roli alohida tahlil qilingan.

Psixolog olim M. Karimova va D. Nurmatova tomonidan yozilgan "Psixologik madaniyat asoslari" (2019) nomli qo'llanmada esa tolerantlik madaniyati keng yoritilgan bo'lib, mualliflar bag'rikenglikni shaxslararo munosabatlardagi muhim qadriyat deb baholab, uni oilada shakllantirishning metodik asoslariga to'xtalib o'tadilar. Ularning fikricha, bag'rikenglik shunchaki sabr-toqat emas, balki ijtimoiy-psixologik kompetensiyadir.

Bundan tashqari, A. Jo'raevning oilaviy muammolar va ziddiyatlar psixologiyasiga bag'ishlangan maqolalari va dissertatsiyaviy ishlarida turli xil konflikt vaziyatlarining kelib chiqishi, ularni hal qilishda bag'rikeng yondashuvning o'rni alohida tahlil qilinadi. U, xususan, oilada turli avlodlar va qadriyatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan hollarda bag'rikenglik madaniyatining roli keskin ortishini ko'rsatadi.

Xorijiy adabiyotlar tahlilida esa bir qator yetakchi tadqiqotchilar asarlariga tayanish maqsadga muvofiq. Masalan, amerikalik psixolog D. Goleman o'zining mashhur "Emotional Intelligence" (1995) asarida emotsional ong va empatiya bag'rikeng munosabatlarning asosi ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, oilada ota-onaning emotsional yetukligi, farzand tarbiyasida muhim rol o'ynab, shaxsning kelajakdagi tolerantlik darajasini belgilaydi. Yevropalik tadqiqotchi H. Hofstede tomonidan o'tkazilgan madaniyatlararo tadqiqotlar oilaviy qadriyatlar, xususan bag'rikenglik va ijtimoiy tolerantlik darajasi turli madaniy kontekstlarda qanday shakllanishi va ifodalanishiga bag'ishlangan. Uning "Culture's Consequences" (2001) nomli asarida oilaviy rollar, avtoritarizm

va bag'rikenglik o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, J. Rawls tomonidan yozilgan "A Theory of Justice" (1971) asarida adolat va tenglik tamoyillari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda, shu jumladan oilaviy tizimlarda qanday aks etishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Rawls tolerantlikni huquqiy va axloqiy normalar darajasida talqin qilgan bo'lsa, bu yondashuv oilaviy qadriyatlarni zamonaviy demokratik mezonlarga moslashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

UNESCO va UNICEF'ning rasmiy hisobotlari, xususan "Parenting for Lifelong Health" dasturi doirasida e'lon qilingan tavsiyalar, oilada bolalarni bag'rikenglikka o'rgatish, o'zaro hurmat, empatiya va hamkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan amaliy yo'nalishlarni taqdim etadi. Bu tavsiyalar global miqyosda oilaviy bag'rikenglik madaniyatini qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Mavjud adabiyotlar tahlili oilaviy bag'rikenglikni o'rganishda bir nechta asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatadi: (1) psixologik yondashuv (emotsional barqarorlik, konfliktlarni boshqarish); (2) pedagogik va tarbiyaviy yondashuv (bolalarni tolerantlikka o'rgatish); (3) madaniyatlararo kontekst (milliy va diniy qadriyatlarning ta'siri); va (4) institutsional va ijtimoiy jihatlar (qonunchilik, oilani qo'llab-quvvatlash siyosatlari). Ushbu jihatlar har biri oilaviy bag'rikenglikni tizimli o'rganish uchun zaruriy ilmiy asoslarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).

Tadqiqot ishida oilaviy munosabatlarda bag'rikenglikning turli ko'rinishlarini aniqlash, uning psixologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur o'rganish maqsadida bir qator psixologik so'rovnomalardan foydalanildi. Bu so'rovnomalardan orqali respondentlarning oiladagi shaxslararo munosabatlaridagi tolerantlik darajasi, emotsional barqarorlik, murosaga moyillik hamda o'zaro hurmat asosidagi muloqot madaniyati o'rganildi.

Tadqiqotda birinchi navbatda G.U. Soldatova va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan "Tolerantlik darajasini aniqlash testi" qo'llanildi. Bu test shaxslararo va ijtimoiy bag'rikenglik darajasini o'lchashga mo'ljallangan bo'lib, unda respondentlarning boshqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi, farqlilikni qabul qilishi, murosaga tayyorligi baholandi. Ushbu test yordamida oilaviy muhitdagi o'zaro tushunish va sabr-toqat darajasi aniqlab olindi.

Shuningdek, "Oilaviy rollar va munosabatlar bo'yicha so'rovnoma" ham qo'llanildi. Bu so'rovnoma orqali oilada har bir a'zo o'z rolini qanday bajarayotgani, oiladagi o'zaro munosabatlar qanchalik samimiy va hurmatga asoslangani o'rganildi. Bu metodika, ayniqsa, er-xotin va ota-ona-farzand o'rtasidagi tolerantlik aloqalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqotda "Shaxslararo munosabatlar xaritasi" deb nomlangan so'rovnoma ham muhim o'rin egalladi. Bu metodika orqali oila a'zolari o'rtasidagi hissiy yaqinlik, ishonch, qo'llab-quvvatlash darajasi va begonalik hissi aniqlandi. Ushbu xarita oilaviy iqlimdagi bag'rikenglik muhitining mavjudligi yoki mavjud emasligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, K. Tomasning "Konfliktga moyillik testi" orqali respondentlarning nizoli vaziyatlarda qanday strategiyani tanlashi – murosaga borish, bosim o'tkazish, hamkorlik qilish yoki chekinish – aniqlandi. Bu test yordamida oilaviy muhitda muammolarni qanday hal qilish odatiy ekanligi va bu jarayonda bag'rikenglikning qanchalik namoyon bo'lishi o'rganildi.

Tadqiqotning yana bir muhim yo'nalishi bu emotsional barqarorlik darajasini baholash bo'ldi. Yu.L. Xanin tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnoma orqali respondentlarning hissiy muvozanati, sabr-toqati va ruhiy bardoshlilik darajalari tahlil qilindi. Bu esa oiladagi tinchlik va totuvlikni ta'minlashda bag'rikenglik qanchalik muhim omil ekanini asoslashga yordam berdi.

So'nggi bosqichda muallif tomonidan tuzilgan "Oilaviy qadriyatlar va ustuvorliklar testi" yordamida respondentlar uchun qanday qadriyatlar — hurmat, ishonch, birdamlik, sabr-toqat, bag'rikenglik — ustuvor hisoblanishi aniqlandi. Bu orqali bag'rikenglikning oila madaniyatidagi o'rni va amaliy ifodasi chuqurroq yoritildi.

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan barcha so'rovnomalardan oilaviy bag'rikenglikni har tomonlama o'rganishga imkon berdi. Ular orqali oiladagi ruhiy-psixologik muhit, ijtimoiy aloqalar sifati va murosaga erishish salohiyati empirik asosda tahlil qilindi. Natijalar esa mavzuni

nazariy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Olib borilgan tadqiqot ishlari oilaviy muhitda bag'rikenglikning mavjudligi yoki yo'qligi oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga, shaxslararo muloqot sifati va tarbiyaviy qadriyatlarining ustuvorligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Empirik materiallarni tahlil qilish orqali oiladagi bag'rikenglik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlab olindi.

Birinchidan, tolerantlik darajasini aniqlash bo'yicha qo'llangan testlar oiladagi bag'rikenglik ko'proq emotsional barqarorlik, bir-birini tushunish, o'zaro hurmat va ishonchga asoslanganligini ko'rsatdi. Yuqori tolerantlik ko'rsatkichlariga ega oilalarda konfliktlar konstruktiv yo'l bilan hal qilinib, murosaga kelish holatlari kuzatildi. Bunday oilalarda farzandlar ham sabrli, tushunuvchan, tengdoshlariga nisbatan mehribon bo'lib ulg'ayganliklari kuzatildi.

Ikkinchidan, oilaviy rollar va ijtimoiy rollarni baholash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, oilada bag'rikenglik darajasi yuqori bo'lgan respondentlarda oila a'zolarining o'zaro vazifalarini anglash darajasi ham ancha barqaror ekanligi aniqlandi. Bunday oilalarda ota-ona va farzandlar o'rtasida majburiyatlar adolatli taqsimlangan, muloqotda tenglik va erkinlik mavjud.

Uchinchidan, konflikt strategiyalarini aniqlashga qaratilgan Tomas testi natijalari oiladagi bag'rikenglik darajasi past bo'lgan respondentlarda ko'proq agressivlik, ziddiyatda yengish yoki ustunlik qilishga intilish holatlari kuzatilganini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida, oiladagi umumiy psixologik iqlimning izdan chiqishiga olib kelmoqda.

To'rtinchidan, emotsional barqarorlik darajasini o'lchash bo'yicha testlar respondentlarning bag'rikenglikka moyilligini emotsional holat bilan bevosita bog'liqligini aniqladi. Oilaviy hayotida barqaror emotsional fon mavjud bo'lgan oilalar, ya'ni stress, xavotir, depressiya darajasi past bo'lgan respondentlarda bag'rikenglik, sabr, tushunish darajasi yuqoriroq bo'ldi. Demak, bag'rikenglik nafaqat kognitiv, balki affektiv (hissiy) komponentlarga ham asoslanar ekan.

Tahlillar asosida shunday xulosaga kelindi-ki, oilaviy bag'rikenglikning asosiy omillari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Oila a'zolari o'rtasidagi ochiq, samimiy va konstruktiv muloqot;
- O'zaro hurmat va ishonchga asoslangan rollararo munosabatlar;
- Konflikt vaziyatlarida murosa va tinglash strategiyalarining qo'llanilishi;
- Ota-onalarning farzandlar oldidagi psixologik mas'uliyat hissi;
- Oila a'zolarining emotsional barqarorligi va hissiy nazorat qobiliyatlari.
- Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oilaviy bag'rikenglik darajasi oila ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liq bo'lib, o'zaro hurmat, madaniy savodxonlik va tarbiyaviy qadriyatlar kuchli bo'lgan oilalarda tolerantlik yuqori bo'ladi. Bag'rikenglik oilaviy totuvlikni saqlashda muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy psixologiya va tarbiya jarayonida bag'rikenglikni shakllantirishga doir maxsus dasturlar va psixoprofilaktik tadbirlar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Bu esa, oilada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit barpo etish, farzandlarda ijobiy ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish va kelajakda mo'tadil, tolerant shaxslarni voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bag'rikenglik darajasining matematik tahlili

№	O'lchov mezonlari	O'rtacha ball (0–10)	Standart og'ish (σ)	Yuqori daraja %	O'rtacha daraja %	Past daraja %
1	Oilaviy tolerantlik darajasi	8.2	1.1	65%	28%	7%
2	Ziddiyatni konstruktiv hal qilish qobiliyati	7.6	1.5	52%	37%	11%
3	Emotsional barqarorlik	7.8	1.2	58%	34%	8%
4	Kommunikativ madaniyat	8.0	1.0	63%	30%	7%
5	Farzandlar ijtimoiy moslashuvi	7.9	1.3	60%	31%	9%

Yuqoridagi jadvalda oilaviy munosabatlarda bag'rikenglikning asosiy ko'rsatkichlari matematik tahlil asosida baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, oilaviy tolerantlik (8.2 ball) va kommunikativ madaniyat (8.0 ball) eng yuqori baholarga ega bo'ldi. Bu esa oila a'zolari o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatning nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi. Ziddiyatlarni konstruktiv hal qilish darajasi esa 7.6 ball bo'lib, boshqa mezonlarga nisbatan biroz past baholangan. Umuman olganda, barcha mezonlar o'rtacha yuqori darajada baholangan bo'lib, oilalarda bag'rikenglik salohiyatining yetarli ekanini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oilaviy munosabatlarda bag'rikenglik ijtimoiy-psixologik barqarorlik va oila a'zolari o'rtasidagi sog'lom muhitning asosi hisoblanadi. Bag'rikenglik oilaning emotsional barqarorligi, kommunikativ madaniyati va tarbiya uslublari orqali shakllanadi. U oilaviy ziddiyatlarni konstruktiv hal qilish, farzandlarda ijobiy ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va sog'lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bag'rikenglik darajasi yuqori bo'lgan oilalarda o'zaro hurmat, tushunish va birdamlik ustuvor o'rin egallaydi. Bu esa farzandlarning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy taraqqiyoti va umumiy oilaviy totuvlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari surildi:

- Ota-onalar, ayniqsa, yosh oilalar uchun bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening va maslahat kurslarini tashkil etish;
- Maktab va maktabgacha ta'lim tizimiga bag'rikenglik, empatiya va murosaga asoslangan dasturlarni tatbiq etish;
- Ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi materiallar — videoroliklar, maqolalar, suhbatlar tayyorlash va tarqatish;
- Oilalardagi ziddiyatlarni erta aniqlash va hal qilishga qaratilgan diagnostik metodikalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;
- Oilaviy psixologlar va profilaktika inspektorlarining faoliyatini kompleks tarzda yo'naltirib, oilaviy bag'rikenglik muhitini mustahkamlovchi chora-tadbirlar bilan boyitish;

- Bag'rikenglikka oid tadqiqotlar asosida monitoring tizimlarini yaratish va davlat siyosatida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish.

Umuman olganda, oilaviy bag'rikenglikni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan va tizimli yondashuv ijtimoiy totuvlikni ta'minlashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning barqaror taraqqiyoti va sog'lom avlod tarbiyasida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Karimova R.X. Oila psixologiyasi. Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018. – 212 b.
2. G'ofurov K.G'. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: «Ilm-Ziyo», 2017. – 276 b.
3. Normurodova M.M. Oilaviy munosabatlarda nizolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Buxoro: «Buxoro», 2020. – 143 b.
4. Erkaboyeva N.X. Pedagogik psixologiya asoslari. Qarshi: «Nasaf», 2019. – 198 b.
5. Avezova N.S. Oila va yoshlar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar. Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2021. – 224 b.
6. Zakirova D.M. Psixologik maslahat va treninglar. Toshkent: «Fan», 2020. – 185 b.
7. Xaydarov A.R. Oila sotsiologiyasi. Toshkent: «O'zbekiston», 2016. – 164 b.
8. Qodirov F.M. Oilaviy tarbiya psixologiyasi. Andijon: «Andijon universiteti nashriyoti», 2022. – 209 b

O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARIGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH METODIKASI

Ibragimova Norbibi Ikromovna
Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan ommaviy va professional darajadagi sportga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik kontseptsiyasini keltirilgan bo'lib, unda shaxsning shaxsiyati va tafakkuri tizimni shakllantiruvchi omillarga aylanadi. Sport sub'ektining holati va xulq-atvorini tartibga solishning ruhiy mexanizmlari, shuningdek, sportga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan omillar ko'rib chiqiladi; sport predmeti madaniyatini shakllantiruvchi me'yorlar va qadriyatlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Misol sifatida karatedan foydalanib, sport sub'ektining aqliy operatsiyalarini amalga oshirish ko'rsatilgan. Maqolada yosh avlod jismoniy tarbiyasiga innovatsion yondashuv asoslari keltirilgan, uning ajralmas qismi shaxs va tafakkurni rivojlantirishdir. Jismoniy tarbiya va sportga kognitiv tayyorgarlikning umumiy jihatlari qayd etilgan. Tadqiqot ishida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: nazariy (tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, mavzuni, ob'yektni aniqlashda nazariy modellashtirish usuli, gipoteza, nazariy modelni qurish, tadqiqot metodologiyasi va nazariyasini ishlab chiqishda nazariy bilimlarni konkretlashtirish va tizimlashtirish usuli). Maqolada yosh avlod jismoniy tarbiyasiga innovatsion yondashuv asoslari keltirilgan, uning ajralmas qismi shaxs va tafakkurni rivojlantirishdir. Jismoniy tarbiya va sportga kognitiv tayyorgarlikning umumiy jihatlari qayd etilgan. Sportga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik kontseptsiyasini ishlab chiqishda biz asosiy e'tiborni salomatlikni saqlaydigan muhitni yaratishdan insonning salomatlikni shakllantiruvchi ma'nolarni o'zlashtirishini va ijobiy psixofizik farovonlik darajasini oshirishni ta'minlaydigan salomatlikni shakllantiruvchi ta'lim maydoniga o'tkazish zarurligini tan olamiz.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik, ekopsixologik yondashuv, sport, sport predmeti, jismoniy tarbiya, kognitiv tayyorgarlik, shaxs, tafakkur, psixologik tayyorgarlik tizimi, salomatlik

Jismoniy faollik tarixan kuch, chidamlilik va moslashuvchanlik kabi jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. Biroq, uning psixologik salomatlikka ta'siri kam emas. Anksiyete va ruhiy kasalliklar keng tarqalayotgan bugungi dunyoda jismoniy faollik ruhiy farovonlikni yaxshilashning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Jismoniy faoliyatning psixologik jihatlari ishonch, o'zini o'zi qadrlash va motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Sport yutuqlariga erishish, jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, shaxsiy to'siqlarni yengib o'tish odamlarga ma'no va muvaffaqiyat hissini beradi, bu ayniqsa, o'z oldiga maqsad qo'yish va qiyinchiliklarga dosh berishga o'rganayotgan yoshlar uchun juda muhimdir. Jismoniy faollik xotira, diqqat, axborotni qayta ishlash tezligi va o'rganish qobiliyati kabi kognitiv funktsiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam jismoniy faollik miyaning xotira va o'rganish uchun mas'ul bo'lgan hududi bo'lgan hipokampus hajmining oshishiga yordam beradi. Bundan tashqari, jismoniy faollik nevroplastiklikni rag'batlantiradigan va kognitiv jarayonlarni yaxshilaydigan BDNF (miyadan olingan neyrotrofik omil) kabi neyrotrofik omillarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Muntazam jismoniy faollik o'rta maktab va aspirantlar o'rtasida nevroz va tashvish alomatlarini kamaytirishga yordam beradi, shu bilan ularning aqliy diqqatini va samaradorligini oshiradi. Psixofizik faoliyat bilan muntazam shug'ullanadiganlar video darslardan yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish qobiliyatini oshiradilar. Bundan tashqari, jismoniy faoliyat hamkorlik va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu jihatlarda o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonchga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tayyorgarlik sportchilar uchun tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismidir. Jismoniy faollik stressga chidamlilik, konsentratsiya,

intizom va muvaffaqiyatsizlikka dosh berish qobiliyati kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Muntazam mashg'ulotlar va musobaqalarda qatnashish sportchilarni o'z his-tuyg'ularini boshqarishga va stressli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlashga o'rgatadi.

Psixologik tayyorgarlikning muhim jihati vizualizatsiyadir - bu sportchilar mashqlarni yoki raqobatbardosh vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishni aqliy tasavvur qiladigan usul. Bu tashvishlarni kamaytirishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya sportda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan irodani rivojlantirishga ham yordam beradi.

Jismoniy faollik depressiya va boshqa psixologik kasalliklarni engishda kuchli vositadir. Bu jarayonga endorfinlarning tabiiy ishlab chiqarilishi - o'zini yaxshi his qiladigan gormonlar yordam beradi, ular jismoniy mashqlar orqali kayfiyatni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va hatto yurish yoki yoga kabi minimal harakatda ham antidepressant ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy faollik e'tiborni g'amgin fikrlardan aniq, erishish mumkin bo'lgan maqsadlarga o'tkazishga yordam beradi, bu esa salbiy his-tuyg'ularni engishga yordam beradi. Guruh mashqlari orqali ijtimoiy integratsiya ayniqsa muhimdir, bu psixologik salomatlikni tiklashning asosiy omili bo'lgan qo'llab-quvvatlash va muloqotni ta'minlaydi. Depressiyani kompleks davolash kontekstida jismoniy faoliyat terapevtik jarayonning ajralmas qismiga aylanib, markaziy rol o'ynaydi. Motivatsiya jismoniy faoliyat muvaffaqiyatining asosiy omilidir. Motivatsiyani saqlab qolish uchun real maqsadlarni qo'yish, taraqqiyotni kuzatish va jismoniy mashqlar natijasida ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish muhimdir. Jismoniy faollik har bir kishiga to'g'ri sport yoki mashqni topishga imkon beruvchi keng ko'lamli faoliyat turlarini taklif etadi.

Ijtimoiy yordam bir xil darajada muhimdir. Guruh mashqlari yoki murabbiy bilan mashg'ulotlar qiziqish va intizomni saqlashga yordam beradi. Va fitnes-trekerlar va mobil ilovalar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sizning muvaffaqiyatlaringizni kuzatish va fikr-mulohazalarni qabul qilish imkonini beradi, bu esa mashqni davom ettirish istagini oshiradi.

Jismoniy tarbiya – shaxsiy qobiliyatlarni takomillashtirish, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish funksiyalarini rivojlantirish, ularni fuqaro, intellektual va mutaxassis sifatida shakllantirishga ustuvor ahamiyat berishga qaratilgan. Bu davlatimizning qator qonuniy hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan va ko'rsatilgan. Jismoniy tarbiya insoniyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi (quyi tizim) bo'lib, u o'tmishdagi qadriyatlarni o'zlashtirish va yangilarini yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyatni, birinchi navbatda, rivojlanish, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida.

Jismoniy mashqlarning psixologik farovonlikka ta'siri. Ko'pgina tadqiqotlar muntazam jismoniy faollik insonning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Jismoniy faollik tashvish, depressiya va stressni kamaytirishi isbotlangan. Jismoniy mashqlar endorfin, dopamin va serotoninni chiqaradi, bu umumiy hissiy farovonlikni yaxshilaydi va kayfiyatni ko'taradi. Bundan tashqari, jismoniy faoliyat stressni boshqarishning samarali usuli bo'lib, ruhiy zo'riqishni bartaraf etishga va ichki muvozanatni tiklashga yordam beradi. Jismoniy mashqlar, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va ishonchni oshirishga yordam beradi. Jismoniy maqsadlarga erishish insonga g'urur va qoniqish hissini beradi, bu uning o'ziga xos imidjiga ijobiy ta'sir qiladi. Muntazam jismoniy faollik o'z tanasi va jismoniy qobiliyatlarini nazorat qilish tuyg'usini rivojlantiradi. Jismoniy mashqlar hissiy o'zini o'zi boshqarishning kuchli vositasi bo'lib, odamga salbiy tajribalarni engishga, ijobiy hissiy holatni saqlashga va sog'lom o'zini o'zi qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Jamoaviy sport turlari ishtirokchilardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki chaqqonlik, iroda, strategik fikrlash, hamkorlik va muloqotni ham talab qiladi. Ular turli ko'nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, sog'lig'ini yaxshilashga va sinfdoshlar va jamoadoshlar bilan do'stlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. Birgalikda ishlash, o'yinchilar o'yin taktikasini muhokama qiladilar va ishlab chiqadilar, bu esa muhokama qilish, fikr yuritish va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Trening davomida o'yinchilar tanqidiy fikrlash va

tanqidni konstruktiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan fikr-mulohazalarni qabul qiladilar va bildiradilar. Jamoaviy sport o'yinchilarni jamoa bo'lib ishlashga, hamkorlik qilishga va umumiy maqsadlarga erishishga o'rgatadi. O'yinchilar mas'uliyatni baham ko'rishni, harakatlarini muvofiqlashtirishni va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar. Jamoaviy sport turlari ma'lumotni etkazish uchun imo-ishoralar, yuz ifodalari va turishdan foydalanishni talab qiladi. O'yinchilar o'zgaruvchan vaziyatlarga tezda javob berish uchun jamoadoshlarining og'zaki bo'lmagan ishoralarini o'qishni o'rganadilar. Raqobatli chiqishlar o'ziga ishonchni rivojlantiradi va notiqlik mahoratini oshiradi. O'yinchilar taqdimotdan oldin diqqatlarini jamlashni, bosim ostida xotirjamlikni saqlashni va tomoshabinlar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadilar.

Jismoniy tarbiyada psixologik bilimlarni amaliy qo'llash. Psixologik bilimlar jismoniy tarbiya, sport va turizm mutaxassislarini uchun zarur nazariy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylandi. Jismoniy tarbiya o'qituvchi va murabbiylarining samaradorligi ko'p jihatdan ularning psixologik bilim va malakalariga bog'liq. Murabbiyning mashg'ulot jarayonini tashkil etishi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borishi, turli vaziyatlarda inson xatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini tushunmasdan turib, sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash mumkin emas. Motivatsiya va o'z-o'zini intizomni yaxshilash:

1. Aniq maqsadlar qo'yish: Psixologlar sportchilarga real va rag'batlantiruvchi maqsadlar qo'yishda, ularni kichikroq bosqichlarga bo'lishda va muvaffaqiyatlarini kuzatishda yordam beradi.

2. Vizualizatsiya: Vizualizatsiya - bu sportchilarga muayyan vaziyatda muvaffaqiyat qozonishlarini tasavvur qilishlariga yordam beradigan usul. Bu o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va ish faoliyatini yaxshilaydi.

3. Ijobiy fikrlash: Sportchilar ijobiy fikrlarga e'tibor berishni va maqsadga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan salbiy e'tiqodlarni yo'q qilishni o'rganadilar.

4. O'z-o'zini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish: Psixologlar sportchilarga o'zini tuta bilish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga motivatsiyani saqlashga va mashg'ulotlar rejimiga rioya qilishga yordam beradi.

Sport faoliyatini yaxshilash:

1. Stressni boshqarish: Sportchilar musobaqalar oldidan yoki qiyin vaziyatlarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan stressni boshqarishni o'rganadilar.

2. Diqqat: Psixologlar sportchilarga ishlashning muhim jihatlari diqqatni jamlashni va chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermaslikni o'rganishga yordam beradi.

3. Hissiy boshqaruv: Sportchilar raqobat muhitida qo'rquv yoki umidsizlikka tushmaslik uchun his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar.

4. Ishlash strategiyalari: Psixologlar muayyan sport turiga qarab optimal ishlash strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

5. Trening davomida ijobiy muhit yaratish:

6. Jamoa ruhi: Psixologlar har bir a'zo o'zini muhim his qiladigan va bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan yaxlit jamoani yaratishga yordam beradi.

7. Ijobiy atmosfera: Psixologlar mashg'ulotlar davomida hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadilar, bu esa sportchilarga o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

8. Mojarolarni boshqarish: Psixologlar sportchilarga jamoaviy uyg'unlikni saqlashga yordam beradigan konstruktiv nizolarni hal qilish usullarini o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy faoliyatning psixologik jihatlari umumiy farovonlik va hayot sifatida asosiy rol o'ynaydi. Muntazam jismoniy faollik kayfiyatni yaxshilashga, stress va tashvishlarni kamaytirishga, o'z-o'zini hurmat qilish va ishonchni oshirishga yordam beradi. Jismoniy faollik, shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va shaxslararo munosabatlarni

mustahkamlashga yordam beradi, bu bugungi jamiyatda ayniqsa muhimdir.

Bundan tashqari, sportda motivatsiya va maqsadlarga erishishning psixologik mexanizmlarini tushunish mashg'ulot jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit yaratish, shuningdek, psixologik texnika va yondashuvlarni qo'llash odamlarga to'siqlarni engib o'tishga va o'z maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Shunday qilib, psixologik jihatlarni jismoniy faoliyat amaliyotiga integratsiya qilish tana va ong o'rtasidagi uyg'unlikka erishish uchun zarur shartga aylanadi, bu shaxsiy o'sish va umumiy farovonlik uchun yangi ufqlarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raxmatov, T. R. (2018). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Imomov, S. A. (2019). Sport psixologiyasi asoslari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
3. Xaydarov, R. (2020). Jismoniy tarbiya darslarida psixologik tayyorgarlik. Buxoro: BuxDPI nashriyoti.
4. Karimova, N., & Abdulkarimov, R. (2020). Psixologik tayyorgarlik va jismoniy tarbiya metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. (So'nggi tahrir).